

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI**

A.V. VAHOBOV, N.F. ISHONQULOV, A.T. IBROHIMOV

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI

*Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan darslik
sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
«IQTISOD-MOLIYA»
2013

UO‘K: 336 (075)

KBK: 65.261

V-13

Taqrizchilar: **M.Q. Pardayev** – i.f.d., professor;
E.A. Akramov – i.f.d., professor

Moliyaviy va boshqaruv tahlili / Darslik: A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov; O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi, Toshkent moliya instituti. – 3-qayta ishlangan va to‘ldirilgan nashri. – T.: «Iqtisod-Moliya», 2013. – 600 b.

Bugungi kunda «Ta‘lim to‘g‘risida»gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ga asoslanib oliy ta‘lim sohasida keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, yangi, zamonaviy darsliklarni yaratish, o‘quv jarayonlarida yangi pedagogik texnologiyalarni, uslublarni qo‘llash, ayniqsa, talabalarni o‘z ustida mustaqil ish olib borishi uchun erkin fikrlashga o‘rgatishga mo‘ljallangan yangi avlod o‘quv adabiyotlarini yaratish muhim masala bo‘lib qolmoqda.

Mazkur darslik iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va liberallashtirish sharoitidagi talablardan kelib chiqib tayyorlangan.

«Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fanini o‘qitish, uning mazmunini respublikamizda amal qilayotgan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonun va boshqa qonunlar, normativ hujjatlar talablaridan kelib chiqqan holda tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Bu yangi o‘zgarishlarni nazarda tutib, mualliflar oliy o‘quv yurtlarida o‘qitiladigan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» fani dasturiga asoslanib, ushbu darslikni yaratdilar. Darslikning birinchi bo‘limida iqtisodiy tahlilning fan sifatida tashkil topishi va rivojlanish tarixi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiy tahlilning maqsadi, vazifasi, tahlil etish metodi, iqtisodiy tahlilni tashkil etish bosqichlari, tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari va ularga qo‘yiladigan talablar o‘rganilgan.

Darslikda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning buxgalteriya hisobotlarini moliyaviy va boshqaruv tahlil qilish uslublari keltirilgan bo‘lib, talaba har bir mavzuni o‘rganganidan so‘ng mazkur mavzuga tegishli tayanch iboralarga, takrorlash uchun berilgan savollarga javob berishlari, bilimni mustahkamlash uchun berilgan topshiriqlarni mustaqil ravishda yechishi hamda mavzuga oid testlarga javob berishlari mumkin bo‘ladi.

Mazkur darslikda, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy faoliyatini tahlil qilishning metodik asoslari, korxonalarni boshqarishda boshqaruv tahlili ma‘lumotlariga ko‘proq tayangan holda faoliyat yuritish maqsadga muvofiq bo‘lishi hamda ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, moliyaviy ko‘rsatkichlarini yaxshilash yo‘llarini ko‘rsatib berishning uslubiyati amaliy ma‘lumotlar asosida tahlil qilib chiqilgan va ularning mazmuni ko‘rsatib berilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlari talabalari, professor-o‘qituvchilar va katta ilmiy xodim-izlanuvchilar, menejerlar, moliyachilar, soliqchilar, bank xodimlari, qimmatli qog‘ozlar va sarmoyalar bozori ishtirokchilari, buxgalterlar, auditorlar hamda boshqa iqtisodchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

UO‘K: 336 (075)

KBK: 65.261

ISBN 978-9943-13-399-0

© «Iqtisod-Moliya», 2013

© A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov, 2013

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasida jamiyat taraqqiyotining barcha jabhalarida, eng avvalo iqtisodiy sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish borasida aniq dastur ishlab chiqilgan. Bu dasturni joriy etishdan ko‘zlangan asosiy maqsad – O‘zbekistonning demokratik va bozor islohotlarini amalga oshirish, jahon hamjamiyatiga keng integratsiyalashuvi va barqaror olg‘a borishi uchun mustahkam zamin yaratishdir.

Prezidentimiz I. Karimov: «Oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa – bu izchil iqtisodiy o‘shish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg‘or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo‘lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish muammosidir» deb ta’kidlagan. Bu, Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha soha korxonalarining foyda ko‘rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko‘rsatishini talab etadi. Bu, o‘z navbatida, xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini, unda sodir bo‘ladigan iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni va munosabatlarni muntazam ravishda tahlil qilib borishni taqozo etadi.

Respublikaning iqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishishida muhim omil, ishlab chiqarish hajmining o‘shishi, pul qadrsizlanishini pasaytirish, eksport hajmini oshirish va boshqa shu kabi makroiqtisodiy o‘shishni ta’minlash bilan birga mamlakatda faoliyat yuritayotgan har bir korxonalar, firma, kompaniyalarni xo‘jalik subyektlari sifatida rivojlantirishni taqozo etadi.

Korxonalar, firma va kompaniyalarning iqtisodiy mustaqil hamda moliyaviy barqaror faoliyat ko‘rsatishlarida ularni oqilona boshqarish, hisob-kitob yuritilishini bozor iqtisodiyoti talablariga moslash, moliyaviy menejment ishlarini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish, bor moddiy, moliyaviy va mehnat boyliklaridan samarali foydalangan holda ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, natijada yuqori foyda olib, davlat budjeti oldidagi majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarish, rezervlar tashkil etish eng dolzarb vazifalardan sanaladi.

Shu bois, bozor iqtisodiyotini erkinlashtirish har birimizdan buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit haqida ma'lum bilimga ega bo'lishimizni talab etadi. Tadbirkorlik faoliyatining muvaffaqiyati hisob-kitoblarning puxtaligiga, pul oqimlarining oqilona boshqarilishiga, moliyaviy masalalardagi qarorlarni to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilinishiga hamda moliyaviy tahlilning sifatli tashkil etilishiga uzviy bog'liqdir. Ayniqsa, bozorni to'g'ri o'rganishda, hamkorlarning moliyaviy ishonchligini bilishda, o'zaro hisob-kitob ishlarida yutqazib qo'ymaslik va boyliklardan o'rinli foydalana olishda kompleks iqtisodiy tahlilning natijalariga asoslanib boshqaruv qarorlarini belgilash, foyda olishning zaruriy sharti ekanligi tajribada bir necha bor isbotlangan.

Iqtisodiy tahlil boshqaruvning bir funksiyasi sifatida mavjud axborotlarga tayanadi, ammo axborotlar hali hech narsani hal qilmaydi. Ularni menejerning maqsadidan kelib chiqqan holda qayta ishlashni, tegishli yo'nalishlar bo'yicha tizimlashtirishni, moliyaviy hisobotlarni iqtisodiy jihatdan o'qishni talab qiladi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy tahlil orqali amalga oshiriladi. Shu tufayli zamonaviy mutaxassislar shu fanni mukammal o'rganishi lozimligini obyektiv zaruratga aylantirdi. Bunday zaruriyat tufayli barcha iqtisodiyotga oid mutaxassisliklar iqtisodiy tahlil fanini, uning tarkibiy qismi bo'lgan moliyaviy va boshqaruv tahlilni o'rganishi majburiy qilib belgilangan va mutaxassislarni shakllantiruvchi fan sifatida ularning o'quv rejasiga kiritilgan.

Oliy o'quv yurtlari faoliyati baholanadigan mezonlarni shakllantirishda oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati va ilmiy salohiyat darajasi indeksiga asosiy e'tibor qaratiladi.

E'tiboringizga havola etilayotgan «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligida korxonalar, firma, kompaniyalarning mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish, mehnat va moddiy boyliklaridan foydalanganligi, asosiy ishlab chiqarish va davr xarajatlari tarkibi, moliyaviy natija hamda moliyaviy holat, asosiy vositalar tarkibi, pul oqimlari va xususiy kapitallar harakatini tahlil qilishning uslublari sodda va tushunarli tilda yoritilgan. Darslik korxonalar mablag'larini, uning tashkil topish manbalarini, moliyaviy natijalarini, asosiy vositalar harakatini, pul oqimi va xususiy kapital o'zgarishini omilli, qiyosiy tahlil qilishning amaldagi tartibi, firma hamda kompaniyalarning kreditga layoqatliligi, moliyaviy barqarorligini aniqlashning uslubiy asoslarini o'rganishga yordam beradi.

Darslikning o'ziga xos xususiyatlaridan biri shundaki, u zamonaviy

talablardan kelib chiqqan holda har bir iqtisodiy kategoriyani baholash va ularni tegishli ko'rsatkichlar bilan ifodalashda mavjud bo'lgan turli qarashlarga tanqidiy yondoshilgan va ularga fikr bildirilib, har biri imkon qadar nazariy jihatdan asoslangan. Nazariy masalalarning yechimi amaliy ma'lumotlarni qo'llagan holda isbotlab berilgan. Demak, mazkur darslikda nazariy masalalar bilan amaliyotning uyg'unligi ta'minlangan.

Oliy o'quv yurtlarining «Biznes va boshqaruv» ta'lim sohasida bilim olayotgan talabalar, bo'lg'usi buxgalter-auditorlar, davlat moliyasini boshqarish, qimmatbaho qog'ozlar va sarmoyalar bozori, soliq va soliqqa tortish, bank ishi, sarmoyalar moliyasi va ularning monitoringi, kasb ta'limi hamda magistraturaning «Kredit», «Xalqaro valuta-kredit munosabatlari», «Iqtisodiy tahlil», «Davlat moliyasini boshqarish», «Soliq va soliqqa tortish», «Buxgalteriya hisobi», «Audit», «Bank auditi», «Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish», «Korxonalar moliyasi», «Sug'urta ishi», «Tashqi iqtisodiy faoliyat», «Korporativ moliya va qimmatli qog'ozlarni boshqarish», kabi mutaxassisliklarini egallovchilar uchun ham «Moliyaviy va boshqaruv tahlili» darsligidan foydalanish, o'z kasbini chuqur egallashiga yordam beradi.

Mamlakatimiz Prezidenti I. Karimov o'z ma'ruzasida: «Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan «Inssad» xalqaro biznes maktabining 2012-yilgi «Innovatsiyalarning global indeksi» ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli, deb o'ylayman»,¹ degan fikrni yuritgan.

«Moliyaviy va boshqaruv tahlili» nomli darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyurtmasi asosida tayyorlandi va uslubiy kengash tomonidan oliy o'quv yurtlarida foydalanishga tavsiya etildi.

Kitobxonlarni moliyaviy va boshqaruv tahlil uslubiyati bilan chuqur tanishtirish maqsadida har bir yoritilgan mavzudan so'ng tayanch iboralar, takrorlash uchun savollar, mustaqil bajarish uchun topshiriqlar va test variantlari berilgan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислоҳ Каримовнинг 2012 йилда мамлакатимизни ижтимоий – иқтисодий ривожлантириш яқунлари ҳамда 2013 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. Халқ сўзи, 2013 йил 19 январь.

Darslikda keltirilgan hisobot ma'lumotlari va raqamlar respublikamizda faoliyat yuritayotgan real xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lumotlari shartli axborot manbasi sifatida olindi.

Ushbu darslik Toshkent moliya institutining uslubiy Kengashi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan.

Mualliflar ushbu darslikni yaratishda qimmatli maslahatlarini bergan iqtisod fanlari doktori, professor M.Q. Pardayev, iqtisod fanlari doktori, professor B.A.Xasanov va ustoz-murabbiy, dotsent T.Sh. Shagiya-sovlarga o'z minnatdorchiliklarini bildiradi.

I BO‘LIM.

IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

I BOB. IQTISODIY TAHLILNING MAZMUNI, PREDMETI VA VAZIFALARI

1.1. Iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi

Kishilik jamiyatining vujudga kelishi insoniyat ongining takomillashib borishiga turtki bo‘ldi. Insoniyat ongining rivojlanishi natijasida borliqni o‘rganish borasida turli fikr va qarashlar paydo bo‘la boshlagan. Fikrlar shakllanib, takomillashib borishi natijasida ma’lum bir fanlarga asos solingan.

Har qanday fanning vujudga kelishi uchun hayotiy zarurat tug‘ilishi lozim. Shu tufayli, fanning shakllanishi biror-bir shaxsning ijod mahsuli bo‘lib qolmasdan, balki obyektiv jarayonga tayanadi.

Xo‘jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish fani ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan buxgalteriya hisobi va statistika kabi fanlar asosida vujudga kelgan, bu uchun esa obyektiv shart-sharoitlar yaratilgan.

Buxgalteriya hisobi bo‘yicha birinchi asar XV asrda Reguzda paydo bo‘lgan. Bunga misol qilib Vendrikt Katrulinning 1458-yilda nashr qilingan «Savdo va xususiy savdogar» nomli kitobini keltirish mumkin. Buxgalteriya hisobiga bag‘ishlangan ikkinchi asar 1494-yilda Venetsiyada nashrdan chiqqan bu Luka Pacholinning «Schotlar va yozuvlar haqida»gi kitobidir. Ushbu kitoblarda buxgalteriya hisobining savdo va kredit operatsiyalari yoritilgan. Bu fan xo‘jalik yuritishda asosiy dastak sifatida hamon takomillashib va zamonaviylashib kelmoqda.

Barcha fanlar qatori buxgalteriya hisobi ham o‘z tarixi davomida takomillashib, bir qancha boshqa fanlarning vujudga kelishi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qildi, chunki, ishlab chiqarishning konsentratsiyalashuvi, korxonalarining yiriklashuvi, xo‘jalik faoliyatining kengayishi, iqtisodiy jarayonlarning murakkablashuvi hisob ishlarini

takomillashtirish zaruratini tug'dirdi. Shu bois, XVI-XVII asrlarda buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan kitoblar Gollandiya, Fransiya, Angliya kabi mamlakatlarda chop etildi. Natijada buxgalteriya Yer kurrasining bir qismida emas, balki barcha mamlakatlarda keng yoyila boshladi.

Rossiyada buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlar XVIII asrda paydo bo'la boshlagan. Chet el adabiyotlari rus tiliga tarjima qilingandan so'nggina, rus olimlari ham bu fanga bag'ishlangan asarlarni chop etishga kirishganlar.

Rus olimlarining buxgalteriya hisobiga bag'ishlangan asarlari XIX asrda paydo bo'la boshlagan. Bunga V.S. Nemchinovning 1840-yilda nashrdan chiqqan, ikki qismdan iborat «Hisob fani» asarini misol qilib keltirish mumkin. Bu kitobda savdo korxonalarini hisobi tizimi batafsil yoritilgan. Shundan so'ng, asta-sekinlik bilan buxgalteriya hisobining prinsiplari boshqa tarmoqlar bo'yicha ham yozila boshlagan. 1861-yilda Klinchening «Qishloq xo'jaligi buxgalteriyasi», 1863-yilda «Idora bo'limi yo'riqnomasi» kitoblari dunyoga kelgan. Bu asarlar safini F. V. Yezerkiy o'zining «Uch tizimli buxgalteriya» (1870-yil), P.I. Reynbot «Fabrika schotchiligi» (1875-yil), A.V. Prokofyev «Ikkiyoqlama buxgalteriya kursi» (1884-yil) kitoblari bilan kengaytirgan.

Shu davrdagi ishlab chiqarish taraqqiyoti iqtisodiy jarayonlarni to'g'ri va to'liq hisobga olishni talab qiladi, ammo ishlab chiqarishning takomillashib borishi, korxonalar o'rtasida erkin raqobatning vujudga kelishi, buxgalteriya ma'lumotlarini chuqurroq o'rganishni va uni to'g'ri tushuntirish zaruratini tug'diradi. Bu esa, o'z navbatida, tahlil elementlarining vujudga kelishini taqozo etdi, chunki «tijorat sirini» takomillashtirish borasidagi juda ko'p savollarga buxgalteriya hisobi va statistika fani javob berishga qiynalib qolardi.

Korxonalarini to'g'ri, oqilona boshqarish, uning moliyaviy holatini yaxshilash, raqobatbardoshlik quvvatini oshirish xo'jalik faoliyatini chuqurroq o'rganishni talab qildi. Bu esa buxgalteriya balansi va boshqa hisobotlarda ifodalangan ba'zi ko'rsatkichlarga izoh berishni talab qildi, aynan shu hozirgi tahlil fanining vujudga kelishi uchun obyektiv asos bo'lgan.

Tahlilning elementlari birinchi marta 1880-yildan chiqa boshlagan «Счётоводство» jurnalida paydo bo'la boshlagan. Shunday qilib, tahlilning ba'zi elementlari mavjud bo'lgan – «Balansshunoslik» fani paydo bo'lgan. Fanning «Balansshunoslik» deb nomlanishiga esa asos bo'lgan, chunki, o'sha paytlarda xo'jalik faoliyatining natijasi, asosan, buxgal-

teriya balansida ifoda etilgan. Balans ma'lumotlariga korxonaning mablag'i yoki ular manbayining ma'lum muddatda o'zgarishi aniqlanadi, lekin shu o'zgarishlar nima evaziga sodir bo'layotganligi, ularga qaysi omillar ta'sir ko'rsatayotganligi korxonaga egalari uchun muhim bo'lib boradi, bu esa balansdagi ko'rsatkichlarni batafsil tahlil qilish zaruratini vujudga keltiradi.

Jamiyatda ishlab chiqarish taraqqiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda iqtisodiy krizislar va raqobatni ham vujudga keltirdi. Bu borada mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrlarni bayon etgan: «...davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini va uning mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta'sirini e'tiborga olgan holda, bank-moliya tizimining barqarorligini ta'minlash muhim ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.


2010-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim maqsadi va asosiy ustuvor vazifasi – bu islohotlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish, 2009-2012-yillarga mo'ljallangan. «Inqirozga qarshi choralar dasturi» ni so'zsiz bajarish va shu asosda iqtisodiy rivojlanishning yuqori va barqaror sur'atlarini, samaradorligini hamda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir».¹

Bunday sharoitda har bir korxonaga faoliyatining moliyaviy barqarorligi, undagi «tijorat siri» muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sharoitda buxgalteriya balansi ma'lumotlari yetarli bo'lmay qoladi. Buxgalteriya balansi bilan birgalikda boshqa ko'rsatkichlarni ifodalaydigan hisobotlar ham vujudga kela boshladi va tahlilning ko'lami kengaydi. Shu vaqtgacha faqat buxgalteriya balansi tahlil qilingan bo'lsa, endi unga boshqa hisobotlar tahlili ham qo'shib «hisobot tahlili» vujudga keldi. Shu tarzda tahlil shakllanib, rivojlanib bordi va mustaqil fan sifatida shakl topdi.

Iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida shakllangunga qadar o'ziga xos bir qancha nomlarga ega bo'ldi. Iqtisodiy tahlilning vujudga kelishi tarixi bo'yicha nashr etilgan adabiyotlar, uning fan sifatida shakllanishi va nomining ham takomillashib borganligidan dalolat beradi. Shu yo'l bilan iqtisodiy tahlil shakllandi va mustaqil fanga aylandi. Tahlil fani rivojlangunga qadar bir qancha evolyutsion yo'llarni bosib o'tdi. Mazkur evolyutsion yo'l orqali tahlil fani bugungi kungi holatga keldi. Ushbu fan

¹ И.Каримов. «Асосий вазифамиз – ватанамиз таракқиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир». Т.: «Ўзбекистон» 2010 й. 55-56 б.

o‘zining evolutsion rivojlanish yo‘li davomida bir qancha nomlar bilan atalgan. Dastavval, xo‘jalik subyektlarining, asosan, balans ma‘lumotlarini tahlil etish maqsadiga qaratilganligi bois, tahlil fani «Balansshunoslik» deb yuritila boshlangan, ya‘ni balansni o‘rganuvchi, tahlil etuvchi fan deb qaralgan. Bu evolutsion rivojlanish yo‘llari quyidagi ketma-ketlikda ko‘rsatib o‘tilgan. (1-chizma).



1-chizma. Iqtisodiy tahlil fanining vujudga kelishi va tarixiy taraqqiyot bosqichlarida atalgan nomlari

Iqtisodiy tahlilning vujudga kelish tarixini ko‘z oldimizga yaqqolroq keltirish uchun bu sohaga bag‘ishlangan adabiyotlarni xronologik jihatdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq.

Kishilik jamiyati rivojlanishi davomida bir qancha tuzumlarni o‘z boshidan o‘tkazdi. Jumladan, jamiyat taraqqiyotida sotsialistik tuzum vujudga kelgandan so‘ng tahlil fani rejali iqtisodiyotga asoslangan

ko'rsatkichlarni va buxgalteriya balansidagi moddalarni batafsilroq o'rganishga kirishdi. Bu esa tahlil fanining ahamiyatini oshirolmadi.

Sobiq ittifoqda 1920-yillarga kelib, ittifoq iqtisodchi olimlaridan R.N.Xudyakov «Анализ баланса» va «Популярный очерки балансоведения» asarlarini, N.A. Kiparisov «Основы балансоведения» va «Растроение балансов и анализ» asarlarini chop ettirdi. Bu kitoblarda, asosan, iqtisodiy tahlil bir yoqlama bo'lib, faqat buxgalteriya balansi moddalarini tahlil qilish usullari to'g'risida fikr yuritilgan.

O'ttizinchi yillarga kelib tahlilning ko'lamini kengaya boshladi. Tahlil qilish uchun faqat buxgalteriya balansi moddalari emas, balki xo'jalik faoliyatining boshqa ko'rsatkichlari ham tahlil etila boshlandi. Natijada tematik tahlil vujudga keldi va ba'zi mavzularga bag'ishlangan adabiyotlar nashrdan chiqa boshladi. Bunga misol qilib, N.Ye.Kolosovning «Основы экономического анализа себестоимости в предприятиях» (1931-yil), A.R.Aleksandrovskiyning «Калкуляция и анализ работы предприятий» (1932-yil), A.F.Masanovning «Баланс и анализ хозяйственной деятельности предприятий» (1934-yil), A.A.Afanasevning «Анализ отчета промышленных предприятий» (1938-yil) kitoblarini keltirishimiz mumkin.

1940-yillarga kelib, sobiq ittifoqda «Хо'jalik faoliyatini tahlil qilish» fani fan sifatida to'liq shakllandi, ushbu fan bo'yicha darsliklar yaratildi va oliy o'quv yurtlarida mustaqil fan sifatida o'tila boshlandi.

60-70 yillardan boshlab esa iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tahlil fani ixtisoslashib bordi va tahlil fanining bir qancha turlari vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil fanining nazariyasi ustida ham ko'p ishlar olib borildi va tahlil nazariyasi fan sifatida shakllandi.

80-yillarning xususiyati shundaki, bu davrda iqtisodiy tahlil fanining nazariyasini yaratish bo'yicha hududiy maktablar vujudga kela boshladi. Jumladan, Moskvada M.I.Bakanov va A.D.Sheremet rahbarligidagi maktab bular, «Теория экономического анализа» kitobini 1987-1990, 1995-1997 yillarda qayta nashrdan chiqardilar. Minsk olimlaridan V.V.Osmolovskiy, V.I.Strajev, L.I.Kravchenko, N.A.Rusaklar hamkorlikda 1989-yilda «Теория анализа хозяйственной деятельности» darsligini yaratdi. Kiyevlik olimlardan I.I.Karakoz va V.I.Samborskiy hamkorligida 1989-yilda «Теория экономического анализа» degan darslik yaratdilar. O'zbekistonlik olimlardan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, M.M.To'laxo'jayeva, A.T.Ibragimov, A.Shoalimovlar hamkorlikda tahlil fanining o'zbek maktabini yarati-

lishiga asos soldilar. Endilikda barcha MDH davlatlarida «Iqtisodiy tahlil» mustaqil fan sifatida oliy o‘quv yurtlarida o‘qitilib kelinmoqda. Bu albatta korxonalar faoliyatini boshqarishda, uning moliyaviy barqarorligini va raqobatbardoshligini ta’minlashda eng muhim tadbirlardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Fanning yuqorida ta’riflangan tadrijiy rivojlanish yo‘lidan ham ko‘rinadiki, bugungi kunda iqtisodiy tahlil muhim ikkita qismga ajratilgan, ya’ni boshqaruv tahlili va moliyaviy tahlil qismlariga. Boshqaruv va moliyaviy tahlil birgalikda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy tahlilini tashkil etadi.

Hozirgi bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida, iqtisodiy tahlil (moliyaviy va boshqaruv tahlili) ham yangilanish davrini boshdan kechirmoqda. Uning mazmuni rejaning bajarilishini tahlil qilishdan jahon andozalari talablariga javob beradigan ko‘rsatkichlarni o‘rganishga qaratilmoqda. Bu borada ijtimoiy mahsulotdan yalpi ichki mahsulot va shundan kelib chiqadigan ko‘rsatkichlar tizimiga o‘tish ko‘zda tutilmoqda.

Bilish – falsafa fanining fundamental uslubiy bo‘limi bo‘lib, u obyektiv borliqni inson ongida aks etishining o‘rganilishini o‘rgatadi.

Avvalo, mazkur nazariyada bilishning obykti va subykti tushunchasi aniqlanadi.

Birinchi tushuncha mazmunini bevosita obyektiv xatti-harakat, amaliyot, insonning moddiy faoliyati ya’ni jamiyat rivojlanishining asosini tashkil etuvchi shaxslar tashkil etadi.

Ikkinchi tushuncha esa insonning o‘zi, jamiyat, insoniyat ya’ni bilish obyektiga ijodiy yondashuvchi shaxslarni bildiradi.

Bilish obykti va subyekting dialektik birligi uning ishonchliligini va haqqoniyligini ta’minlaydi.

Amaliyot va uning seziluvchi predmetlari - moddiy buyumlashgan, ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik mazmundagi tomonlari bilishning obykti hisoblanadi. Zamonaviy fanlarning usul va uslublarini umumlashtirib aytish mumkinki, bilish jarayonida quyidagi vositalardan keng foydalaniladi: analiz va sintez, eksperiment, modellashtirish, ta’kidlash kerakki, bularning barchasini asoslaydigan hamda amalga oshiradigan shaxslar, ya’ni mutaxassislardir. Ular mohiyatiga ko‘ra, barcha holatlarni yuqori darajada analiz-sintez etadigan narsa insonning fikrlash qobiliyatidir.

Fikrlash, ijodiy jarayon sifatida tushuncha, hukm, xulosalarni o‘z ichiga oladi. Obyektiv reallik: hodisalar, buyumlar, munosabatlar, ko‘rsatkichlar o‘z shakli va mazmuniga hamda xususiyatlariga ko‘ra

farqlanadi, guruhlarga ajratiladi hamda fikrlash vositasida muayyan tushunchani hosil qiladi. Hukm orqali nimadir tasdiqlanadi yoki inkor etiladi. Tahlil etilgan jarayonlar sintez etilib, xulosa chiqariladi, bilish nazariyasi orqali o'rganilayotgan borliqni muayyan obyektga to'g'risida ishonchli va haqqoniy ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin.

Barcha tarmoq fanlarining uslubiy asosi sifatida bilish nazariyasi iqtisodiy tahlilning mohiyati, zaruriyligi va natijasini aniqlab beradi.

Iqtisodiy tahlil - amaliy fandır. Agar u bilish nazariyasiga tayanib rivojlansa, insonning amaliy faoliyatida naflilik va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Bu esa fanning amaliy hayotda o'z o'rnini topganligidan dalolat beradi. Iqtisodiy tahlil o'z faoliyatida dialektikaning asosiy tamoyillariga asoslanadi. Ular quyidagilardan iborat:

- doimo harakat;
- o'zaro aloqa va o'zaro bog'liqlik;
- sabab-oqibat;
- koordinatsiya va subkoordinatsiya;
- qarama-qarshilik;
- miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishi;
- inkorni-inkor va boshqalar.

Tahlilning xususiyati, zaruriyligi va qimmatli tomoni, u voqea va hodisalar dinamikasini o'rganadi.

Bu jarayonda mazkur fan tadqiq qilish mumkin bo'lgan obyektiv reallik; predmet va hodisalar u yoki bu tomon hamda jihatlarga ko'ra boshqalar bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan holda, doimo harakatda, o'zgarishda deb o'rganiladi.

Iqtisodiy hodisalarni bir-biriga bog'liqligini, o'zaro harakatlarini, alohida yuzaga chiqishini va boshqa tomonlarini o'rganmasdan turib, ularning tuzilishi, harakat qonunlari, xususiyatlarini o'rganib bo'lmaydi. Bu esa muayyan iqtisodiy obyektning muhim belgilariga ko'ra bo'laklarga bo'lib, so'ngra ularni umumiylikni ta'minlovchi jihatlarni tahlil yordamida aniqlab tegishli xulosalar olishda hamda ulardan amaliyotda foydalanishda juda muhimdir.

Inson tomonidan iqtisodiy faoliyatdagi turli voqealar kuzatilib ularning natijalari to'g'risida ma'lumotlar olinadi, ya'ni faktlar to'planadi.

Ma'lumki fanda voqealar bevosita o'zi tahlil etilmaydi, balki ular qayd etilgan faktlar bo'yicha o'rganiladi.

Emperik bilishlar bo'yicha qayd etilgan faktlar fanga kiritiladi, qayta ishlanadi va saqlanadi, lekin inson tomonidan qayd etilgan faktlar

bir butun voqea yoki predmetni o'rganish uchun yetarli hisoblanmaydi. Buning uchun o'rganilayotgan obyekt muayyan belgilar bo'yicha guruhlar va yoki bo'laklarga ajratilishi zarur. Bulardan ma'lum bo'lmoqdaki, aniq obyekt to'g'risida ilmiy faktlar to'plash, ularni tahlil qilishdan boshlanar ekan. Yuqorida aytilganlardan shu xulosaga kelish mumkinki tahlil, jamiyat yoki tabiatdagi voqea va hodisalarni o'rganish usuli bo'lib yuzaga chiqadi.

Bir butun obyektни fikran bo'laklarga bo'lib o'rganish tahlilda o'ta ahamiyatli tadqiqot usuli bo'lib hisoblanadi. Mazkur usul o'rganilayotgan hodisani ichki mohiyatini ochishda va uni turli omillarga bog'liqligini aniqlashda juda muhimdir. Bunday fikrlashda falsafaning abstrakt usul-uslublaridan keng foydalaniladi. Tahlilda bir butun hodisa yoki predmet bo'laklarga bo'linib, uning har bir alohida tomonlari o'rganiladi, lekin bu bilan o'rganilayotgan obyektни to'la ma'noda tavsiflab bo'lmaydi. Buning uchun, obyektни o'rganilayotgan tomonlarini umumlashtirib, umumiy jihatlarni hosil qilish kerak. Mazkur masala sintez usuli bilan amalga oshiriladi.

Ta'kidlash kerakki, hodisa yoki jarayonlar o'rganilib ilmiy xulosalar chiqarilishida tahlil va sintez usuli birgalikda harakat qiladi. Mazkur tartib obyektning dialektik birligini ta'minlaydi. Bu bilan tadqiq etilayotgan predmet yoki hodisalarning dialektik birligini har tomonlama bilish mumkin. Faktlar tahlilidan nazariy sintezga o'tish induksiya va deduksiya metodlari yordamida amalga oshiriladi.

Induksiya – alohida faktlar bilimidan umum bilimlarga (ya'ni qonunlar yoki boshqa amaliy va zaruriy aloqalarni aks ettiradigan) o'tish usulidir.

Deduksiya – fikrlarni umumiylikdan xususiylikka tatbiq etish usuli, bunda umumiy tasnifdagi qonunlar, bog'liqliklar xususiy tasnifga o'tkaziladi.

Mazkur usullar yordamida iqtisodiy hodisalarni ham xususiy, ham umumiy jihatlari o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarilib, amaliyotga tatbiq etiladi. Yuqorida ko'rib chiqilgan bilishning elementlari, usullari (dialektika, analiz, sintez, induksiya va deduksiya) iqtisodiy-tahlil fanida ham iqtisodiy voqea va jarayonlarning o'rganish asosini tashkil etadi. Iqtisodiy tahlil aytib o'tilgan umumiy usullar va xususiy jihatlari bilan birgalikda alohida fan sifatida yuzaga chiqib, korxonalarni tadqiq qilish tizimiga ega bo'ladi.

1.2. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilning tashkil topishi va rivojlanishi

Tabiat va jamiyatdagi hodisalar singari iqtisodiy hodisalarning ham tarkibiy qismlarini bilmay turib, ya’ni tahlil qilmay turib, ularni ilmiy jihatdan o‘rganib bo‘lmaydi.

Analiz iborasi «analysis» so‘zidan olingan bo‘lib, «bo‘laman», «hal etaman» degan ma’noni bildiradi. Binobarin, tahlil murakkab hodisa va predmetlarni tarkibiy qismlarga bo‘lish, ajratib qo‘yish asosida ko‘rsatkichlarni taqqoslash va o‘rganish demakdir. Ma’lumki, korxonalarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish, faoliyatning sifat va miqdor ko‘rsatkichlari bo‘yicha muvaffaqiyatlarni o‘rganish va uni takomillashtirishning qulay yo‘llarini belgilash - iqtisodiy tahlilni tashkil qilishning zaruriy shartlaridan biridir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlilning roli keskin oshadi, chunki boshqarishda oldingi ma’muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanadi. Oldingi tahlil, asosan, reja ko‘rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta’minlashga qaratilgan edi. Bugungi kunda esa, har bir xo‘jalik subyekti o‘z faoliyatini mustaqil ravishda boshqaradi. Bu, o‘z navbatida, tahlilning rolini oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo‘lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Iqtisodiy tahlil orqali ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligi hamda mamlakatning iqtisodiy salohiyati aniqlanadi. Bunda, tahlil uchun manba bo‘lib, yig‘ma statistik ma’lumot asos bo‘la oladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan maqsad korxonalar va birlashmalarning ish faoliyatiga obyektiv baho berish va xo‘jalik yuritishning samaradorligini yanada oshirishdan iboratdir. Bunday tahlil natijalari korxonaning xo‘jalik faoliyatini doimo nazorat qilib turishni, unga rahbarlik qilishda xatoga yo‘l qo‘ymaslikning oldini olishga xizmat qiladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish quyidagi tamoyillarga amal qilgan holda amalga oshiriladi:

- ilmiy asoslangan tamoyil;
- obyektivlik tamoyili;
- tizimli va komplekslik tamoyili;
- operativlik tamoyili;
- umumiylik tamoyili.

Iqtisodiy tahlilning vazifasi - ushbu bandlarda keltirilgan vazifalar

bilan cheklanmaydi. Korxonalar faoliyati shu darajada serqirradi, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish lozim. Shunday ekan, tahlil vazifasi ham ko'p qirralidir. Tahlil jarayonida barcha kamchiliklar aniqlanadi. Boshqaruv qarorlarini qabul qilishda esa aniqlangan kamchiliklarga kelgusida yo'l qo'ymaslik chora-tadbirlari ishlab chiqiladi. Shu tariqa kamchiliklar bartaraf qilinib, xo'jalik faoliyatining uzluksiz ravishda takomillashuvi va samaradorligi oshib borishi ta'minlanadi.

Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifasi - bu korxonalar faoliyatida foyda miqdorini ko'paytirishning to'g'ri va optimal yo'llarini aniqlab berishdir. Agar korxonalar faoliyatida foyda miqdorining oshishiga narx-navoning ko'tarilishi yoki atrof-muhitga zarar yetkazish evaziga erishilsa, buni hech qachon korxonalar muvaffaqiyati deb bo'lmaydi. Iqtisodiy tahlil oldida turgan muhim vazifalardan yana biri - bu korxonalar mehnat jamoasi faoliyatining iqtisodiy natijasini aniqlashdir. Tahlil qilish jarayonida tashqi va mehnat jamoasiga bog'liq omillar ahamiyatini o'rganish lozim. Bunda erishilgan natijalarni me'yoriy yoki hisobot davri natijalarini taqqoslash bilan chegaralanib qolish kerak emas. Eng muhimi - mamlakat erishgan yutuqlari, raqobatbardosh mahsulot ko'rsatkichlari va dunyo ilmiy-texnika darajasi bilan solishtirish muvaffaqiyatlar garovi ekanligini unutmaslikdir.

Masalan, tahlilni quyidagi masshtablarda amalga oshirish mumkin:

- xalq xo'jaligi tahlili;

- korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili.

Xalq xo'jaligi tahlilida iqtisodiyotning butun tarmog'i, ayrim hududlarning iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasi, o'sish darajasi va ularning rivojlanishdagi o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlari o'rganiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida hisob va hisobotni ikki qismga bo'lish qabul qilingan:

1. Boshqaruv hisobi.

2. Moliyaviy hisob (umumbuxgalteriya hisobi).

Shunga muvofiq iqtisodiy tahlil ham ikki qismga: moliyaviy va boshqaruv tahliliga bo'linadi, o'z navbatida, moliyaviy tahlil tashqi va ichki moliyaviy tahliliga, boshqaruv tahlili esa ichki boshqaruv tahliliga bo'linadi. Tashqi moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi va hisoboti asosida, ichki moliyaviy tahlil buxgalteriya hisobi va hisoboti hamda tezkor hisobotlar asosida olib boriladi. Ichki boshqaruv tahlili esa tezkor hisobotlar va boshqaruv hisoboti asosida olib boriladi. Iqtisodiy tahlil-

ning maqsadi bu korxonani hisobotlar orqali o'tgan davrda, tahlil qilina-yotgan vaqtda va kelajakda erishilgan va erishiladigan moliyaviy natija-lari va moliyaviy holatiga baho berish hamda iqtisodiy tashxis qo'yishdan iborat.

Iqtisodiy tahlilning asosiy bosqichlari:

Tahlilning maqsadini aniqlash va unga yondoshish yo'llarini belgilash. Bu bosqichda koxona ko'rsatkichlari ularning xalq xo'jaligi, tarmoq bo'yicha miqdorlariga, o'tgan davr va rejadagi hajmlariga, boshqa turdagi korxonalar ko'rsatkichlariga solishtiriladi.

Tahlil uchun qilingan axborotlar sifatiga baho berish bosqichi. Bu bosqichda axborotlarning to'g'riligini hisobotlardagi ko'rsatkichlarning tahlil talablariga javob bera olishligiga qarab tekshiriladi.

Tahlilning usullaridan foydalangan holda tahlil o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish. Ushbu bosqichda bevosita tahlil o'tkaziladi va unda uning usullari majmuasidan foydalaniladi va tegishli xulosa chiqariladi.

1-jadval

Korxonaning iqtisodiy tahlilini o'tkazuvchilar ularni maqsadi va manfaatlari

№	Tahlil qiluvchilar	Maqsadi va manfaatlari
1.	Korxonani boshqaruvchilar (menejerlar)	Moliyaviy-xo'jalik faoliyati samaradorligiga baho berish, ichki imkoniyatlarini topish va ulardan foydalanish chora-tadbirlarini ishlab chiqish evaziga koxonaning moliyaviy barqarorligini, raqobatbardoshligini ta'minlash.
2.	Aksiyadorlar va boshqa investorlar	O'zlari oladigan dividendlarini, aksiyaning bozor bahosini aniqlash. Korxonaning kelgusi istiqbolini bilish.
3.	Soliq idoralari	Soliqlarning o'z vaqtida, to'g'ri va to'liq to'langanligini tekshirish.
4.	Bank muassasalari, kreditorlar	Pul mablag'lari va boshqa kredit resurslarini aniqlash, olingan kreditni va boshqa majburiyatlarni tegishli foizi bilan to'lovga qodirligi darajasini tekshirish.
5.	Statistika va istiqbolni belgilash idoralari	Statistik jihatdan hisobga olish va umumlashtirish
6.	Tovar jo'natuvchilar	Jo'natiladigan tovarlar uchun to'laydigan mablag'i bor yoki yo'qligini bilish.
7.	Tovar oluvchilar	Mahsulot bahosining asosiligi, sifati andozaga to'g'rililigi, vaqtda yetkazib bera olishini bilish.

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi quyidagi-lardan iborat:

- moliyaviy natijalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar;

- iqtisodiy potensialni ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- moliyaviy potensialni ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- ish faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- bozor faolligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- davlat budjeti bilan aloqalarni ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- to‘lov qobiliyati va to‘lovga qodirlikni ifodalovchi ko‘rsatkichlar.

Yuqorida jahon amaliyotida iqtisodiy fanlar bilan bir qatorda tahlil fanining ham shakllanishi, rivojlanishi va mustaqil fan sifatida tashkil topishining tarixiy bosqichlari haqida fikr yuritildi. Buxgalteriya hisobi fanining yaratilganligiga 500 yildan oshdi. Shu fan negizida «Iqtisodiy tahlil» fani vujudga kelganligiga ham 100 yilga yaqinlashdi. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni jadallashtirishda bu fanning roli juda katta, chunki, amaliyotda iqtisodiy dastaklarning biri sifatida namoyon bo‘lmoqda.

90-yillarning boshlariga kelib O‘zbekiston o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach barcha sohalarda bo‘lgani singari ilm-fan sohasida ham o‘zining mustaqil yo‘lini tanlab oldi. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarida iqtisodiy tahlilga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgara boshladi.

Respublikamizda iqtisodiyotni erkinlashtirish bir tomondan, korxonalarining mustaqil faoliyati uchun katta imkoniyat yaratib bersa, ikkinchi tomondan ularning mas’uliyatini ham oshiradi. Korxonalarining iqtisodiy erkinligi va mas’uliyatining oshganligi ularning o‘z faoliyatini chuqur tahlil qilishni taqozo etadi.

Albatta, iqtisodiy tahlil ma’muriy buyruqbozlikka asoslangan rejali iqtisodiyot sharoitida ham mavjud bo‘lgan. Ammo, uning maqsadi va mohiyati, rejali iqtisodiyotga moslashtirilgan bo‘lib, bevosita rejaning shakllanishi va bajarilishiga xizmat qilishga qaratilgan edi. Uning mazmuni esa, ma’lum darajada, mafkuraviy bo‘lib, avvalo, davlat manfaatini ifodalab kelgan, chunki, barcha mulk va uni tasarruf etish bevosita davlatning ixtiyorida edi. Endilikda iqtisodiy vaziyat tubdan o‘zgardi.

Davlatning mulkka va barcha iqtisodiy jarayonlarga egaligi barham topib, ko‘p mulkchilikka asoslangan, bozor munosabatlarini o‘zida ifoda etadigan, mazmun jihatidan yangi iqtisodiyot shakllanmoqda. Bu esa, shunga mos ravishda mazmunan yangi «Iqtisodiy tahlil» fanini shakllantirilishini taqozo etadi.

Endigi «Iqtisodiy tahlil» fani, eng avvalo, hech qanday mafkuraga tobe emasligi, davlat manfaatini inkor etmagan holda, turli mulk

egalarining manfaatlarini o'zida aks ettirishi bilan o'ziga xoslik kasb etadi. Bu holat mazkur fanning maqsadi, vazifalari, tarkibi, unda qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimini o'zgartirishni taqozo etadi.

Iqtisodiy tahlil – bu iqtisodiy hodisa va jarayonlar mohiyatini anglash, tarkibiy qismlarga bo'lishga asoslangan. Ularni ko'p qirrali aloqa va bog'liqligini o'rganishdir. Tahlil fanining paydo bo'lishi har qanday yangi bilimlarni paydo bo'lishiga sabab bo'lgan obyektiv sharoit va talablarni vujudga kelishidir.

Birinchi navbatda – kompleks va tizimli tahlilga bo'lgan amaliy talabning vujudga kelish sababi, ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi, ishlab chiqarish munosabatlarining takomillashuvi, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishidir. Bunday sharoitda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarida qo'llanilib kelingan tahliliy hisob-kitoblar, faraz qilishlarning qo'llanilishi yirik xo'jalik subyektlari sharoitiga yetarli bo'lmay qolishi, korxonalar faoliyatini har tomonlama qamrab olgan kompleks iqtisodiy tahlilsiz murakkab iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va optimal qarorlar qabul qilish mushkul bo'lib qoladi.


Tahlil fanining O'zbekistonda yaratilish tarixini taxminan 5 bosqichga bo'lish mumkin. Respublikamizda «Iqtisodiy tahlil» fanining yaratilish va rivojlanish tarixini quyidagi jadvalda ifodalab o'tish mumkin (2-chizma).

Sobiq ittifoq olimlari ichida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo'yicha o'zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib bordi. Bu fanga bag'ishlangan qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi.

Respublikamizda 60-70-yillarda tahlil fanining tashkil topishi va shakllanishida asosiy mavqeni samarqandlik olimlar egallaganini e'tirof etgan holda, 80-yillarga kelib poytaxtimiz Toshkent shahrida va respublikaning boshqa hududlarida ham tahlil fani asta-sekin shakllandi va rivoj topa boshladi. Bu davrga kelib tahlil fanining rivojlanishiga mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan R.Radjabov, A.S.Sotivoldiyev, Yo.Abdullayev, O.Mahmudov, X.Shodiyev, N.Xan, A.Shoalimov, A.T.Ibrohimov, A.Usanov, A.K.Ibragimov, B.Hasanov va boshqalar katta hissa qo'shdilar.

80-yillarda Samarqandda yaratilgan tahlil maktabi a'zolari ham o'z an'analarini davom ettirib, yuqori va sarmahsul ijod qildilar. Bu davrga kelib samarqandlik olimlardan I.T.Abdukarimov, M.Pardayev va A.A.Abdiyevlar hamkorligida «Xo'jalik faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratdilar.

1984-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Matbuot kooperatsiyasi xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darsligi Moskvaning «Экономика» nashriyatida chop etildi. Bu darslik Ittifoqdagi barcha kooperativ institutlariga va «Buxgalteriya hisobi nazorat va xo‘jalik faoliyatining tahlili» bo‘yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy o‘quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik tomonidan juda yaxshi kutib olindi. Natijada 1989-yilda ushbu darslik aynan ana shu nashriyotda qayta ishlangan va to‘ldirilgan variantida qaytadan nashrdan chiqdi.



2-chizma. O‘zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining yaratilish davrlari.

1990-yillarning boshlariga kelib respublikamizda «Iqtisodiy tahlil» faniga oid dastlabki o‘zbek tilidagi adabiyotlar yaratila boshlandi. Ayniqsa, bu davrga kelib buxgalteriya hisobidagi axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga keng e‘tibor qaratildi. Shu yillari hisob, tahlil,

statistika va reja ma'lumotlarini avtomatlashtirish bo'yicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullayev, R.I.Abdukarimov, N.A.Ibrohimov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar turli nashriyotlarda chop ettirib keldilar.

90-yillarning boshlariga kelib tahlil fanining rivojlanish sohasiga yangi-yangi iqtisodchi olimlar kirib kela boshladilar. Bunday iqtisodchi olimlardan A.T.Ibrohimov, B.A.Hasanov, A.Rizaqulov, O.Bobojonov, M.To'laxo'jayeva, N.Jo'rayev, D.Q.Kudbiyev, Z.N.Qurbonov, O.Jumanov, M.Rahimov, A.Abduganiyev, X.Musayevlar «Iqtisodiy tahlil»ning turli qirralariga bag'ishlangan asarlar yarata boshladilar.

O'zbekiston Respublikasining mustaqillik sari intilishi samarqandlik olimlarni o'zbek tilida darslik yozishga da'vat etdi. Bunga rahbarlikni professor I.T.Abdukarimov o'z qo'liga oldi va nihoyat 1989-yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev, A.A.Abdiyev va V.I.Abdukarimovlar tomonidan «Matbuot kooperatsiyasi xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» mavzusida birinchi marta o'zbek tilida darslik vujudga keldi. U Toshkentdagi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Bu darslikdagi ko'p iqtisodiy atamalar o'zbek tilida yozildi, ammo maxsus fanlarni faqat rus tilida o'qib yurgan talabalar va o'z ishini rus tilida yuritadigan mutaxassislar uchun o'zbek tilidagi atamalarni tushunish anchagina qiyin kechdi. Shu sababli, bu qiyinchilikni osonlashtirish maqsadida samarqandlik olimlar «Savdoga oid iqtisodiy atamalarning ruscha-o'zbekcha lug'atini» ishlab chiqdi va 1990-yilda Samarqand kooperativ institutida va 1992-yilda Toshkentning «O'qituvchi» nashriyotida chop etishga muvaffaq bo'ldilar.

Ushbu kitoblar, maqolalar to'plami va risolalar bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan sharoitda tahlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar edi.

Ma'lumki, O'zbekistonda uzoq yillar mobaynida oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida tahlil fani, asosan, markaziy shaharlardagi (Moskva, Leningrad, Kiyev) olimlar tomonidan tayyorlangan darsliklar asosida o'qitilib kelindi, ammo bunda o'zimizga xos xususiyatlar aks ettirilmagan edi. Bu esa 60-yillarga kelib o'zbekistonlik olimlarni ham bu fan sohasida ijod qilishga da'vat etdi.

Markazdan chiqadigan darsliklarga muallif sifatida taklif qilinadigan bo'lindi. Jumladan, 1966-yilda Moskvaning «Экономика» nashriyotida chop etilgan «Matbuot kooperatsiyasi korxonalar xo'jalik faoliyatining tahlili» nomli darslikning mualliflari novosibirsklik L.A.Falkovichlar bilan birgalikda samarqandlik olim I.N.Toporovskiy

ham taklif qilingan edi. Bu darslikda respublikamizning ba'zi xususiyatlari birinchi marta o'z ifodasini topdi.

Shu fan bo'yicha 1970-yilda I.T.Abdukarimov, B.A.Zaleskiy va N.Toporovski tomonidan Moskvaning «Экономика» nashriyatida «Matbuot kooperatsiyasi korxonasi va tashkilotlari xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha masalalar to'plami» o'quv qo'llanmasi birinchi marta chop etildi. Bu o'zbekistonlik olimlarning katta ishonchga sazovor bo'lganligi va ularning tan olinganligidan dalolat edi.

Sobiq ittifoq olimlari ichida xo'jalik faoliyatini tahlil qilish fani bo'yicha o'zbekistonlik olimlarning mavqei uzluksiz oshib bordi. Bu fanga bag'ishlangan qator monografiyalar, o'quv qo'llanmalari, risolalar va ilmiy maqolalar chop etila boshlandi. 1968-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Kooperativ savdoda muomala xarajatlari tahlili» Moskvaning «Экономика» nashriyatida, 1971-yilda «Kooperativ savdoda chakana tovar oboroti tahlili» o'quv qo'llanmasi Moskva kooperativ instituti nashriyatida, 1973-yilda «Kooperativ savdoda foyda va rentabellik» nomli monografiyasi «Экономика» nashriyatida chop etildi. Muallifning bu asarlari sobiq ittifoq olimlari tomonidan yuksak baho-landi.

Shunday qilib, 1970-yillarda Samarqandda prof. I.T.Abdukarimov rahbarligida tahlil maktabi tarkib topdi. Natijada Samarqand kooperativ instituti bazasida shu fanning ravnaqiga, uning nazariy va amaliy muammolariga bag'ishlangan bir qancha ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazildi.

1970-yillarning ikkinchi yarmiga kelib tahlilchilar safi O'zbekiston miqiyosida tanila boshlandi va kengaydi. Bu fan bo'yicha o'zbek tilida darsliklar paydo bo'la boshladi. 1973-yilda «O'qituvchi» nashriyatida N.A.Xan tomonidan tayyorlangan «Qishloq xo'jalik korxonalarini xo'jalik faoliyatining analizi» nomli oliy o'quv yurtlari uchun darslik chop etildi. 1979-yilda O.Mahmudovning «Qishloq xo'jalik korxonalarining xo'jalik faoliyatini analiz qilish» nomli o'rta maxsus o'quv yurtlariga mo'ljallangan o'quv qo'llanmasi ham o'zbek tilida chop etildi. Bu darslik va o'quv qo'llanmalar respublikamizda iqtisodiy tahlilning taraqqiyoti va istiqboli uchun qo'yilgan ilk qadamlar edi, ammo respublikamizda qishloq xo'jalik institutlaridan tashqari barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida maxsus fanlar, jumladan, iqtisodiy tahlil fani ham rus tilida o'rganilar edi. Shu tufayli qishloq xo'jaligidan tashqari sohalarda barcha asarlar rus tilida tayyorlandi va chop etildi. 1973-yilda

prof. I.T.Abdukarimov va dots. M.K.Pardayevlar tomonidan «Koope-
rativ savdoda mehnat ko'rsatkichlari tahlili» nomli kitobi Moskvaning
«ЭКОНОМИКА» nashriyatida chop etildi. Bu bilan o'zbekistonlik olimlar
tematik tahlil rivojlanishiga yana bir qutlug' qadam qo'ydi,

1980-yillar o'zbekistonlik olimlar uchun juda sermahsul davr bo'ldi.
I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev va A.Abdiyevlar hamkorligida «Xo'jalik
faoliyatining tahlili»ga bag'ishlangan to'rt tomlik albom yaratildi. Bu
albomning birinchi qismi «Iqtisodiy tahlilning nazariy asoslariga»
bag'ishlangan. Ushbu albomning ikkinchi tomi «Koope-
rativ savdoda iqtisodiy tahlil» nomi bilan ataladi. Bunda kooperativ savdo korxonalarini
xo'jalik faoliyati batafsil tahlil qilingan, ammo matbuot kooperatsiyasi
ko'p tarmoqli soha. Shu tufayli albomning 3-tomi «Matbuot kooperat-
siyasi alohida tarmoqlari xo'jalik faoliyatining tahlili» mavzusiga
bag'ishlangan. Albomning bir tomi matbuot kooperatsiyasi tashkilotlari-
da barcha tarmoqlardan hisobot qabul qilingandan keyingi o'tkazila-
digan tahlil usullarini o'z ichiga olgan. Bu «Moliyaviy holatning tahlili»
deb nomlangan va bunda barcha soha bo'yicha moliyaviy holatning
qanday ahvolda ekanligi to'g'risida xulosa qilishga bag'ishlangan.
Ushbu tahlil usullari ham aniq chizmalar orqali yoritilgan.

1984-yilda I.T.Abdukarimov tomonidan «Matbuot kooperatsiyasi
xo'jalik faoliyatini tahlil qilish» nomli darslik Moskvaning
«ЭКОНОМИКА» nashriyatida chop etildi. Bu darslik Ittifoqdagi barcha
kooperativ institutlarga va «Buxgalteriya hisobi, nazorat va xo'jalik
faoliyatining tahlili» bo'yicha mutaxassislik tayyorlaydigan barcha oliy
o'quv yurtlariga tavsiya qilindi. Bu darslikni keng jamoatchilik juda
yaxshi kutib oldi. Natijada 1989-yilda ushbu darslik aynan ana shu
nashriyotda qayta ishlangan va to'ldirilgan variantida qaytadan nashr
qilindi.

O'zbekistonlik olimlar tahlilning yangi shakli – kompleks tahlil
usullarini ishlab chiqishga kirishdi. Natijada 1983-yilda prof. I.T.Abdu-
karimov tahririda M.Q.Pardayev va YU.S.Sattarovlar tomonidan tayyor-
langan «Chakana savdoda mehnat samaradorligini kompleks baholash»
bo'yicha uslubiy tavsiya yuzaga keldi. Bu tavsiya «O'zbekbirlashuv»
boshqaruvi tomonidan amaliyotga tatbiq qilish uchun qabul qilindi.
Kompleks tahlil bo'yicha olimlarning maqolalari ittifoqda chiqadigan
jurnallarda chop etilishi ularning nufuzini yanada oshiradi. Natijada
1986-yilda o'tkazilgan Butunittifoq ilmiy-amaliy anjumanining asosiy
mavzusi ana shu muammoga qaratildi. Ilmiy-amaliy tavsiya sifatida

1986-yilda chop etilgan I.T.Abdukarimov, M.Q.Pardayev, V.I.Abdukarimov, V.N.Abramovalarning «Matbuot kooperatsiyasida sotsial-iqtisodiy samaradorlikni aniqlash usuli» risolasi qabul qilindi. Bunda mualliflar samaradorlikni kompleks tahlil qilish va baholash masalalarini koʻtarib chiqdi.

Xoʻjalik faoliyatini kompleks baholash borasida ilmiy izlanishlar davom etadi. Endi bir tarmoqda emas, balki koʻp tarmoqda qanday usul bilan kompleks baholash mumkinligi ustida ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi va nihoyat 1990-yilda V.I.Abdukarimov tomonidan «Axborotlarni avtomatlashtirilgan tizimi sharoitida koʻp tarmoqli matbuot kooperatsiyasi samaradorligini kompleks baholash masalalari» nomli monografiya Toshkentdagi «Mehnat» nashriyotida nashrdan chiqdi.

1990-yillarga kelib axborotlarni avtomatlashtirish masalalariga keng toʻxtaldi. Shu yillari hisob, tahlil, statistika va rejalar axborotlarini avtomatlashtirish boʻyicha bir qancha adabiyotlarni R.A.Abdullayev, V.I.Abdukarimov, N.A.Ibrohimov, K.U.Urazov, M.B.Abbosovlar turli nashriyotlarda chop ettirdi.

Tahlilning umumiy masalalari bilan birgalikda uning alohida sohasi boʻyicha ham ishlar qilindi. Jumladan, prof. D.Q.Kudbiyev savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili muammolari, prof. X.A.Shodiyev esa tayyorlov savdo sohasida intensivlik va samaradorlikni aniqlash hamda tahlil qilish muammolari boʻyicha ancha ishlar qildilar. Savdo korxonalarida aylanma mablagʻlar tahlili boʻyicha bir qancha uslubiy tavsiyalar bilan A.Sh.Sattorov, matbuot kooperatsiyasining ishlab chiqarish korxonalarida asosiy va aylanma mablagʻlar tahlili boʻyicha U.X. Xudoyberdiyevlar ham samarali ijod qilmoqdalar. Tahlil nazariyasi va usullarini takomillashtirishda Yo.Abdullayevning hissasi sezilarli boʻldi.

1981-yilda D.Q.Kudbiyev «Savdoda asosiy fondlardan samarali foydalanish tahlili» kitobini, 1990-yilda «Kooperativ savdoda asosiy fondlardan foydalanish tahlilining muammolari», 1989-yilda «Kooperativ chakana savdoda asosiy fondlar samaradorligini kompleks baholash va tahlil qilish» kabi monografiya va oʻquv qoʻllanmalarini chop etdi.

Soʻnggi paytlarda iqtisodiy taraqqiyotda samaradorlik va intensivlik koʻrsatkichlari muhim ahamiyat kasb etdi. Buni inobatga olib, 1990-yilda, M.Q.Pardayev va Z.N.Qurbonovlar hamkorligida «Oʻqituvchi», nashriyotida «Kooperativ savdoda samaradorlik va intensivlik koʻrsatkichlari tahlili» mavzusida monografiya, M.K.Pardayev va Sh.U.Hayda-

rov hamkorligida «Kooperativ savdo korxonasi va tashkilotlarining moliyaviy ahvolini tahlil qilish» mavzusidagi o'quv qo'llanma chop etildi. Bu sohaning rivojlanishiga X.A.Shodiyev ham o'zining salmoqli hissasini qo'shdi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o'ziga xos va mos bozor iqtisodiyotiga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlab oldi. Bu esa olimlardan bozor iqtisodiyotiga oid adabiyotlarni yaratish vazifasini talab qildi. 1991-yilda I.T.Abdukarimov, M.K.Pardayev va Sh.U.Haydarovlar hamkorligida «Yangi xo'jalik yuritish sharoitida kooperativ savdoda daromadlar tahlili» risolasini chop etdi. 1993-yilda Z.N.Qurbonovning «Bozor iqtisodiyoti sharoitida savdoda buxgalteriya uchoti va iqtisodiy tahlil» monografiyasi «O'qituvchi» nashriyotida chop etildi. Shu yili «Zarafshon» nashriyotida muallifning «Savdoda intensivlik mohiyati, ko'rsatkichlari va ularni oshirish yo'llari» mavzusidagi kitoblari chop etildi. Olimlar 1994-1999-yillarda tahlil fanining bozor iqtisodiyoti sharoitidagi muammolariga bag'ishlangan bir qancha to'plam va risolalar chop etishga muvaffaq bo'ldilar. Ushbu kitoblar, maqolalar to'plami va risolalar bozor iqtisodiyotining shakllanayotgan sharoitida tahlil fanini ilmiy va amaliy jihatdan takomillashuvi uchun nazariy asos bo'lib xizmat qilishi muqarrar.

1995-1999-yillarda O'zbekistonda «Iqtisodiy tahlil» fanining asosiy sohasi bo'lgan moliyaviy tahlilga bag'ishlangan bir qancha adabiyotlar chop etildi. Bular jumlasiga, M.Q.Pardayevning «Moliyaviy tahlil metodologiyasi», A.Ibrohimovning «Moliyaviy tahlil» (T.: Mehnat, 1995), I.T.Abdukarimovning «Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish yo'llari» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998, ikkinchi nashri 1999-yilda), I.O.Voljin va V.V.Ergashboyevlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1998), M.Q.Pardayev va B.I.Isroilovlarning «Moliyaviy tahlil» (T.: «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» nashr uyi, 1999), kabi kitoblarni kiritish mumkin.

Xulosa qilib aytish mumkinki, respublikamizda iqtisodiy tahlil fanining ravnaqi o'ziga xos tarixga ega. Bu fan borasida tegishli maktab shakllangan, biroq bu fanning ravnaqi va uning kelajagi oldinda. Respublikamizda savdo va qishloq xo'jaligi sohalari bo'yicha har holda darsliklar yaratilgan va ancha ishlar qilingan, ammo xalq xo'jaligining muhim tarmoqlaridan bo'lgan sanoat, qurilish, transport, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish bo'yicha hali ancha ishlar qilish lozim. Bu sohalar bo'yicha hali darsliklar va tegishli

adabiyotlar deyarli yaratilmagan. Bunday holat respublikamizning ravnaqi uchun, uning kelajakdagi taraqqiyoti uchun keng yo‘l ochib berilishiga to‘sqinlik qilishi mumkin, chunki sanoat va boshqa iqtisodiyotning taraqqiyoti o‘zimizga xos bo‘lmog‘i lozim. Bu esa ushbu sohalar bo‘yicha o‘zimizga xos iqtisodiy tahlil usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

Ushbu tadbirlarning amalga oshishi, mustaqil davlatimizning mustaqil fani – moliyaviy va boshqaruv tahlilining vujudga kelishi va rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Bu fanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki, bozor iqtisodiyoti sharoitida har xil korxonalarining xo‘jalik faoliyatini chuqur o‘rganishni, tahlil qilishni taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda «Iqtisodiy tahlil»ga oid bir necha o‘nlab darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, monografiyalar va ilmiy maqolalar chop ettirildi. Mustaqillik yillari tahlil fanining yuksak rivojlanish davri bo‘ldi. Mustaqillik yillarida oliy ta‘lim standartlari hamda o‘rta maxsus kasb-hunar ta‘limining davlat standartlariga asosan, «Iqtisodiy tahlil» fanining yangi o‘quv dasturlari yaratildi.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlil quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanishi lozim:

- raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish va uni rivojlantirishda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini moliyaviy va boshqaruv jihatidan tahlil etishni takomillashtirish lozim;

- hozirgi vaqtda respublikamizda ko‘p mulkchilikka asoslangan bozor tizimidagi korxonalar vujudga keldi. Iqtisodiy tahlil ham ana shu sohaga mos rivojlanishi lozim;

- O‘zbekistonda barcha sohalar bo‘yicha, ayniqsa, buxgalteriya hisobining jahon andozalariga mos tizimi qabul qilinmoqda. Bu esa xalqaro andozaga mos moliyaviy va boshqaruv tahlili tizimini ham yaratishni taqozo etadi;

- bu fanning nazariyasini o‘zimizda shakllanayotgan bozor iqtisodiyotining xususiyatlarini inobatga olgan holda yaratish lozim;

- O‘zbekistonda makroiqtisodiy tahlil amaliy jihatdan obyektiv zaruriyatga aylandi, ammo, uning nazariyasi va metodologiyasi yaratilgan emas, shu tufayli kelajakda makroiqtisodiy tahlilni nazariy va metodologik asosi ishlab chiqilishi lozim;

- olimlar sanoat, qurilish, transport, xizmat va boshqa iqtisodiyotning muhim sohalari bo‘yicha darslik va o‘quv qo‘llanmalar yaratishlari lozim;

- iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlashda bu fanga tegishli ahamiyat berilishi va davlat ta'lim standartlariga hamda o'quv rejalariga kiritish lozim.

Ushbu tadbirlarning amalga oshishi mustaqil davlatimizning mustaqil fani – iqtisodiy tahlilning rivojlanishi uchun asos bo'ladi. Bu fanning kelajakda ahamiyati keskin oshadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoiti har xil korxonalarining xo'jalik faoliyatini chuqur o'rganishni, tahlil qilishni taqozo etmoqda.

1.3. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni

Bozor iqtisodiyoti – bozorning o'ziga xos qonunlari, funksiyalari va vazifalarini bajarishga asoslangan iqtisodiy munosabatlarni alohida shaklidir. Bu jarayonda bozor munosabatlarining barcha jihatlari, xususiyatlari amal qiladi.

Bozor subyektlari ya'ni ishlab chiqaruvchilar yoki xaridorlar, mavjud tarkib topgan tizimda talab va taklif, pul muomalasi, raqobat, inqiroz va shu kabi tomonlarga moslashib, o'z faoliyatini amalga oshirishi shart. Bu esa ularni mazkur sharoitda yashab qolish yoki rivojlanishini ta'minlaydi. Aks holda, ular o'z oldiga qo'yilgan maqsadga erisha olmay bozor munosabatlarida o'rinlarini yo'qotadilar. Demak, korxonalar bozordagi mavjud holatni va o'zlaridagi ichki imkoniyatlarni chuqur o'rganmay turib faoliyatlarini amalga oshira olmaydilar yoki qo'yilgan maqsadga erisha olmaydilar.

Bozor munosabatlarida korxonalar faoliyatini boshlashi yoki davom ettirishidan oldin, dastavval uning va o'zining barcha holat hamda imkoniyatlarini chuqur tahlil qilishga majbur. Natijada, tavakkalchilikka asoslangan, lekin ayni paytda ilmiy asosga ega bo'lgan faoliyat dasturi ishlab chiqiladi. Dasturga amal qilish esa mablag'lardan to'g'ri va samarali foydalanishni ta'minlaydi.

Bozor munosabatlari rivojlanib, tobora takomillashib borishi korxonalarda tahlil qilinadigan, o'rganiladigan obyektlar sonini ham ko'paytirib, murakkablashtirib bormoqda. Jumladan, bozordagi infrastruktura xizmatidan boshlab to korxonadagi ta'minot, ishlab chiqarish, sotish va boshqa hisob-kitoblar hamda moliyaviy munosabatlargacha, qiymat yaratilishi va erishilishining barcha bosqichlari va shu kabilar ular uchun tahlil obyekti bo'lib qolmoqda, ayniqsa, 2009-yildan boshlangan jahon

moliyaviy-iqtisodiy inqirozi iqtisodiy tahlil ishlarida ham jiddiy kamchiliklar mavjudligini va bu borada ko'plab ishlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatib berdi.

Ma'lumki, bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot o'zgaruvchanlik tavsifiga ega. Korxonalar o'z faoliyatini har doim uzluksiz uning talablariga moslashtirib boradi. Bu jarayon korxonada marketing tadqiqotlarini ishlab chiqish va unga amal qilishni talab etadi. Demak, tashqi va ichki muhit ta'siridan kelib chiqqan holda korxonalar o'z faoliyatini marketing yo'nalishida olib borishga majbur. Natija esa, strategiya va taktikani hamda unga muvofiq keluvchi dasturlar va rejalarni ishlab chiqishni ta'minlaydi.

Bozor sharoitida ilmiy asosda ishlab chiqilgan biznes-rejalar harakat uchun qo'llanmadir. Rejani ilmiy asosda bo'lishi bevosita iqtisodiy tahlil ishlari bilan bog'langandir. Chunki, reja ko'rsatkichlari bozordagi holat, o'tgan yillar tajribasi, belgilangan me'yorlar, yetakchi korxonalar hamda ichki imkoniyatlar ahvolidan kelib chiqib belgilanadi.

Mazkur tadbir mulk egalari uchun o'ta muhim hisoblanib, mablag'lardan foydalanishda eng yaxshi deb tanlangan samarali yo'nalishning har bir bosqichida amalga oshiriladigan xatti-harakat aniq belgilanib olinadi. Undan kutiladigan natijalar esa ilmiy asosda hisob-kitob qilinadi. Demak, rejalashtirish ishlarining har bir elementi dastavval turli usullar bilan muqobillik asosida tahlil etiladi. Natijada esa, eng maqbul faoliyat deb tanlab olingan yo'nalish uchun mablag'lardan foydalanishda imkon qadar samarali chora-tadbirlar ilmiy asosda ishlab chiqiladi.

Korxonalar ishlab chiqarish va tijorat ishlarini amalga oshira boshlaganida haqiqiy ma'lumotlar olinib, u reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib ko'riladi. Bu bilan rejaning naqadar realligiga baho beriladi, yuzaga kelgan ijobiy yoki salbiy holatlar aniqlanadi hamda qay darajada imkoniyatlar ko'zda tutilgani o'rganiladi. Haqiqiy ma'lumotlar bevosita bozordagi holat bilan ham bog'lanadi. Bozordagi o'zgarishlar va ularning korxonaga faoliyatiga ijobiy yoki salbiy ta'siri tezkorlik bilan tahlil qilinadi. Shu asosda tegishli chora-tadbirlar belgilanadi. Demak, bozor sharoitida iqtisodiy tahlil vositasida barcha jarayonlar aniq faktlar bilan analitik usulda tahlil qilinib, ularni sintez yo'li bilan umumlashtirib tegishli qarorlar qabul qilinadi hamda korxonaga faoliyatiga ta'sir o'tkaziladi.

Iqtisodiy tahlil bozor sharoitida faqatgina haqiqiy holatni o'rganib uni ijobiy tomonga o'zgartirish vazifasini bajaribgina qolmay, balki uning vositasida korxonaga faoliyati bilan qiziquvchi tashqi shaxslar uchun

ham zarur bo'lgan ma'lumotlar tayyorlanadi. Bu bilan korxonani moliyaviy holati hamda iqtisodiy imkoniyati to'g'risida ham to'la tasavvur hosil qilinadi. Natijada esa, korxonaga ko'plab hamkorlar jalb etish imkoniyati tug'iladi.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo'jalik yurituvchi subyektning o'z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to'g'ri boshqarishni ta'minlashi zarur bo'ladi. Ammo, ko'pgina korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan so'ng xo'jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo'lib qoldi. Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv subyektlariga faqat axborotga ega bo'lishning o'zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to'g'ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo'ladi. Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo'jalik faoliyatini o'rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Iqtisodiy tahlilning ikki xil yo'nalishini ko'rsatish mumkin:

1. Sanoat korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish.
2. Iqtisodiyot tarmoqlarining boshqa tarmoqlarini tahlil qilish.

Bunda iqtisodiy tumanlar, hududlar va butun iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish tushuniladi. Shuni aytish kerakki, iqtisodiyot tarmoqlarini tahlil qilish iqtisodiy fanlar majmuasida mustaqil o'rin olmagan bo'lib, u siyosiy iqtisod va tarmoqlar iqtisodiyoti kurslarida o'rganiladi, holbuki, korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish iqtisodiy fanlar qatoridan o'ziga xos mustaqil o'rin olgan.

Hozirgi sharoitda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirishda, iqtisodiyotdagi noqulay yo'nalishlarni tez bartaraf etishda, iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta isloh qilishni jadallashtirish birinchi navbatdagi vazifadir. Iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari iqtisodiyotni boshqarish, qayta qurishning mohiyati va uni amalga oshirish tamoyillari bilan bevosita belgilanadi. Iqtisodiyotni boshqarishni tubdan qayta qurishning mohiyati – barcha darajalarda, asosan, ma'muriy rahbarlik usullaridan iqtisodiy usullarga, manfaatlardan orqali boshqarishga, boshqarishni keng demokratiyalashga, inson

omilini butun choralar bilan kuchaytirishga o'tishdir. Hozirgi bosqichda tub islohotni amalga oshirish bozor iqtisodiyoti afzalliklarini mumkin qadar to'laroq ro'yobga chiqarish imkonini beradigan yaxlit, samarali va epchil boshqarish sistemasini vujudga keltirishni taqozo etadi.

Xo'jalik faoliyatini muvaffaqiyatli boshqarish ko'pgina ta'sir etuvchi omillarga, shartlarga va holatlarga bog'liq bo'ladi. Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, korxonalar faoliyatini boshqarishda boshqaruv funksiyasi asosiy mavqeni egallaydi, shu bilan birga tahlil ham ushbu funksiyalarning to'liq faoliyati va darajasi ko'p jihatdan ularning uslubiyatiga bog'liqligi bilan, bundan tashqari boshqaruv obyektida fanning predmetini o'z vaqtida aniq tushunishi bilan ajralib turadi.

Bizga ma'lumki, odatda, har qanday fan o'z predmeti orqali obyektiv borliqning qaysidir tomonlari va qismlarini tushuna oladi. Aynan bitta obyektning turli xil fanlar o'zining ixtisoslik tomonlaridan yoki aloqalaridan kelib chiqib turlicha qarashi mumkin. Ko'rinib turganidek, xo'jalik faoliyati o'zining mazmuni va strukturasi jihatidan murakkab obyekt ekanligi bilan ajralib turadi. Shu sababli korxonalarining xo'jalik faoliyatini ko'pgina iqtisodiy fanlar hamda boshqa fanlar o'rganishi mumkin. Har bir fan jamiyat, tabiat va idroklash, taraqqiyot haqida ma'lum bir darajada bilim beradi. Bunday bilim berishda yoki o'rganishda tabiat va jamiyatni rivojlantirishdagi umumiy qonuniyatlarga, tamoyillariga amal qiladi.

Iqtisodiy tahlil ham aniq fan sifatida quyidagilar haqida maxsus bilim beradi:

- Iqtisodiy jarayon, hodisa va voqealar rivojlanishini, o'zgarishini obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) ta'sir etuvchi omillar bilan umumiy bog'liq holda o'rganish;
- O'rganilayotgan firma, tashkilot, muassasa va uyushmalarning faoliyatini to'liq va keng o'rgangan holda aniq va xolis baho berish;
- Ijobiy va salbiy ta'sir etgan omillarni aniqlash, raqamlarda ko'rsatish va hisoblash;
- Bor bo'lgan imkoniyatlar, samaradorlikni oshirishni yo'l-yo'riqlarini ko'rsata olish;
- Ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan jarayonga qo'llash yo'nalishlarini belgilash;

Moliyaviy va boshqaruv tahlilida o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan murakkabga yoki, aksincha o'rganiladi hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy bog'lanishi e'tiborga oli-

nadi. Demak, xo‘jalik faoliyatini tahlili firmalarining iqtisodiy faoliyatini obyektiv va subyektiv omillarni e‘tiborga olib o‘rganadi.

Turli mulkchilik tizimiga asoslangan iqtisod bozor mexanizmining muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Uning subyektlari bo‘lgan korxonalar va tashkilotlar, alohida tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi subyektlar mulkning egasi va tasarruf etuvchisi sifatida uni to‘g‘ri boshqarishdan manfaatdordirlar, bu esa, albatta, sodir bo‘layotgan xo‘jalik jarayonlari va hodisalarini davriy kuzatishni, faoliyat natijaviylikni batafsil o‘rganishni iqtisodiy tahlil qilishni talab etadi. Shu jihatdan korxonalar (firma) faoliyatini boshqarishning muhim vositasi va quroli bo‘lgan iqtisodiy tahlil o‘ta ahamiyatli hisoblanadi.

Belgilangan rejalarning amalda qanday bajarilayotgani yoki ishlab chiqarishni borishi to‘g‘risidagi real ahvollar buxgalteriya hisobi yordamida o‘rganiladi. Buxgalteriya hisobida shakllangan ma‘lumotlar pirovard natijada boshqaruv ehtiyojlari uchun ishlatiladi. Boshqaruv qarorlari esa tahlil ma‘lumotlariga asoslanadi. Demak, iqtisodiy tahlil reja, bozordagi ahvollar va buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari asosida obyektidagi o‘zgarishni miqdor va sifat jihatdan o‘rganadi hamda baholab beradi. Uning yordamida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar topiladi hamda tugatiladi, obyektning yanada rivojlantirish yo‘llari belgilanadi yoki samarali ishlashni ta‘minlaydigan yo‘nalishga o‘tkaziladi. Bu esa, boshqaruv qarorlarini nechog‘lik real qabul qilinishiga asos bo‘ladi. Demak, buxgalteriya hisobi va hisoboti ma‘lumotlari ham iqtisodiy-tahlil vositasida qayta ishlanar ekan. Bu bilan tahlilning boshqaruv faoliyatini to‘g‘ri ekanligi va uning mohiyati yanada yaqqolroq ko‘rinadi.

Boshqaruv jarayonida tartibga solish funksiyasi – boshqaruvchi subyektning eng maqbul boshqaruv qarorlarini qabul qilishda o‘ta muhim hisoblanadi. Bu bilan, o‘rganilayotgan obyektga kompleks yondoshilib, butun bir tuzilmani ijobiy va salbiy jihatlari nazarda tutilgan holda eng maqbul choralar yoki tadbirlar belgilanadi. Natijada, boshqaruv obyekti faoliyati yoki dasturidagi salbiy holatlar tugatiladi va boshqaruv dasturlariga aniqlik kiritiladi. Mazkur ishlar bevosita iqtisodiy tahlil yordamida amalga oshiriladi. Chunki, tartibga solinayotgan har bir obyekt har tomonlama chuqur o‘rganiladi.

Boshqaruvda asosiy faoliyatni ishonchliligini ta‘minlashda nazorat etishning ham roli kattadir. Uning yordamida faoliyatning borishi, ularning nechog‘lik haqqoniylikni tekshiriladi. Tekshirish jarayonini sifatini, ishonchliligini oshirish uchun tahlilning usullari, tamoyillaridan

foydalaniladi va shu asosda kerakli xulosalar yoziladi. Misol uchun, korxonada audit tekshirishlarida moliyaviy holat; barqarorlik; natijalar va shu kabilarni o'rganadi. Aytib o'tilgan barcha boshqaruv funksiyalari korxonani iqtisodiy rivojlanishi uchun tayinlangan, biroq, korxonani faqatgina iqtisodiy tuzilma deb qarash ham, unga bir tomonlama yondoshishni keltirib chiqaradi, chunki, uning o'ziga xos ijtimoiy, ekologik va boshqa shu kabi jihatlari ham mavjud. Demak, korxonada tuzilmasida ijtimoiy, ekologik jarayonlarni ham tahlil etish undagi mazkur yo'nalishdagi haqiqiy ahvol va uning takomillashtirish masalalarini o'rganadi va ularga ta'sir etadi. Bularning natijasi esa, iqtisodiy jarayonlarga ko'rsatgan ta'siri bilan aniqlanadi. Fikrimizni umumlash- tirib, shu narsalarni aytish mumkinki, iqtisodiy tahlil korxonani boshqarishning muhim funksiyalaridan biridir.

Uning yordamida:

- a) boshqaruv qarorlarini ilmiy asoslanishi ta'minlanadi;
- b) mulk va mablag'lardan foydalanishning muqobillik shartlarini belgilaydi va boshqaruvchi ular qatoridan o'zi uchun maqbul bo'lgan optimal variantlarni tanlaydi;
- d) istiqbolli boshqarish uchun zamin tayyorlaydi.

1.4. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti haqida tushuncha

Respublikamizda raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish jarayo- nida korxonalarning yanada rivojlanishi bevosita ularni boshqarish tizi- miga bog'liqdir. Iqtisodiyotda korxonalar faoliyatini samarali boshqarish uchun esa ular faoliyatini muttasil o'rganib, tahlil qilib turish kun tartibidagi asosiy masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun ham barcha boshqaruv bo'g'inlarida iqtisodiy tahlil muhim ahamiyatga ega, chunki, iqtisodiy tahlil vositasida axborotlar hamda ma'lumotlar o'rganilib, qayta ishlanib jamiyat hamda alohida olingan korxonalarning faoliyati tezkorlik bilan yo'lga solib turiladi.

Fan - texnika yangliklari asosida ishlab chiqarishni yangi texnika hamda texnologiya bilan ta'minlash, modernizatsiya qilingan ishlab chiqarish imkoniyatlaridan jadal foydalanish, boshqaruv tizimini, xo'ja- lik mexanizmini zamonaviy usullar hamda yangi innovatsion g'oyalar bilan takomillashtirish negizida iqtisodiyotni rivojlantirish hamda shu asosda xalqimizning farovonligini yanada yuksaltirish hozirgi davrda

oldimizda turgan dolzarb vazifalardir. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun sanoat korxonalarining faoliyatini har tomonlama hamda muntazam tarzda iqtisodiy tahlil qilish darkor.

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida iqtisodiy tahlil jarayonida o'rganilayotgan hodisa yoki jarayon maydadan-yirikka, oddiydan-murakkabga yoki aksincha, umumiylikdan eng kichik omilga qadar o'rganadi hamda umumiy birligi va bir-biri bilan uzviy bog'lanishi e'tiborga olinadi. Demak, iqtisodiy tahlil fani firma va korxonalarining iqtisodiy – ijtimoiy faoliyatini obyektiv va subyektiv omillarni e'tiborga olgan holda o'rganadi.

Fanning predmeti, shu fan nimani o'rgatadi degan savolga javob berishi lozim bo'ladi. Har qanday mustaqil fan o'zining predmetiga ega. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmetiga keng ma'noda qaraydigan bo'lsak, u iqtisodiy fan sifatida tahlil qilinayotgan obyekt xo'jalik faoliyatining barcha sohalarini o'z ichiga oladi, lekin har bir iqtisodiy fan o'ziga xos xususiyatga, o'zi o'rganadigan predmetiga ega. Bu faqat shu fanga xos bo'lib, imkoni boricha boshqa fanlarda takrorlanmasligi lozim. Bu talab shu fanning mustaqil fan sifatida faoliyat ko'rsatishi uchun asosiy shartlardan biri hisoblanadi.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti tom ma'noda tahlil qilinayotgan obyektning xo'jalik faoliyatidir, ammo, «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy hisob», «Statistika», «Moliya», «Audit», «Marketing», «Menejment» kabi fanlarning ham predmeti keng ma'noda xo'jalik faoliyatidir. Bu fanlar ham xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarning u yoki bu jihatini o'rgatadi. Demak, har bir fanning, shu jumladan, «Iqtisodiy tahlil» fanining o'ziga xos va mos jihatini, unga tegishli predmetini aniqlab olish lozim.

Tahlil fani xo'jalik faoliyatida sodir bo'layotgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o'z ichiga oladi, ammo bu jarayonlarning sodir bo'lish paytini emas, balki uning natijasini o'rganadi, obyektida sodir bo'ladigan iqtisodiy jarayonlar uning biznes-rejasida ko'zda tutilgan ma'lumotga asoslansa, jarayonning sodir bo'lishini qonuniy jihatdan hujjatlashtirish bilan «Boshqaruv hisobi», «Moliyaviy hisob» va «Statistika» kabi fanlar shug'ullanadi. Shu jarayonlarning natijasi ma'lum davrlarda (oy, chorak, yil) jamlanib boriladi va turli hisobotlarda o'z aksini topadi. Tahlil esa aynan ana shu tuzilgan hisobotlarga, jamlangan hujjatlarga asoslanadi.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti haqida turli iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchi olimlarning qarashlari turlicha talqin etilgan. Masalan, iqtisodchi olim M.Q.Pardayev tahlilning predmetiga quyidagicha ta'rif bergan: «tahlil fanining predmeti, xo'jalik faoliyatida obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) omillar ta'sirida sodir bo'lgan, bo'layotgan va bo'ladigan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ma'lumotlar manbayida ifodalangan ko'rsatkichlar tizimi orqali uning holatiga baho berish va yaxshilash yo'llarini ishlab chiqishni o'rganishdan iboratdir».

Ushbu olimning fikrlariga qo'shilgan holda, biz hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida «Iqtisodiy tahlil» fanining predmetiga quyidagicha ta'rif berishni lozim deb topdik.

«Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti deb – turli mulk shaklidagi firma, uyushma, birlashmalarning (xo'jalik yurituvchi subyektlarining) moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, raqobatga chidamli bo'lib faoliyat ko'rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklardan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga aytiladi. Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi».

Fanning predmeti ta'rifidan shu narsa ko'rinadiki, iqtisodiy tahlil korxonalarining xo'jalik jarayonlari va boshqa faoliyatlari hamda ularning yakuniy moliyaviy natijalarini o'rganadi. Korxonalaridagi xo'jalik jarayonlari asosiy faoliyat, ularni tashkil etish hamda yuritish bilan bog'liq bo'lgan barcha ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni qamrab oladi. Korxonaning boshqa faoliyatlarini xo'jalik jarayonlari bilan birgalikda amalga oshiriladigan moliyaviy hamda investitsiya faoliyatini, soliq to'lovlari kabi munosabatlar tashkil etadi. Iqtisodiy tahlilda korxonada iqtisodiy faqat dinamik holatda emas, balki statik tarzda ham o'rganiladi.

Korxonada faoliyatida obyektiv va subyektiv omillar ta'sirida yuzaga kelgan xo'jalik jarayonlari mazmuni quyidagicha izohlanadi. Tahlilning predmetini o'rganishda faqat sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar bilan cheklanib qolish yetarli bo'lmas edi. Tahlildan maqsad mavjud natijaga odilona baho berish bilan birgalikda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni kelgusida bartaraf etish va shu orqali tahlil qilayotgan obyektning iqtisodiy va moliyaviy ahvolini yaxshilashdan iboratdir.

Korxonalar faoliyatiga baho berishda o'rganilayotgan iqtisodiy

hodisa va jarayonlarga bog‘liq bo‘lgan subyektiv omillarni ham e‘tiborga olib tahlil qilinadi. Subyektiv (ichki) omil deyilganda korxonalarining amaliy faoliyati bilan yuqori samaradorlikka erishish, ya‘ni mehnat, moddiy va asosiy fondlardan oqilona foydalanish hisobiga ko‘proq mahsulotlar ishlab chiqarishda hamda yuqori foyda olish evaziga korxonalar faoliyatini yaxshilash mumkinligini ham o‘rganadi.

Obyektiv (tashqi) omillar deyilganda, korxonalar faoliyatiga mutlaqo bog‘liq bo‘lmagan omillar tushuniladi, ya‘ni davlat siyosatining o‘zgarib turishi, bozordagi talab va taklifning o‘zgarishi, baho, tabiiy omillar va hokazolalar.

Iqtisodiy manbalardan foydalanib o‘rganish deyilganda esa buxgalteriya, statistik, tezkor hisob ma‘lumotlaridan foydalangan holda korxonalar va firma faoliyati aniq raqamlar bilan o‘rganiladi va umumlashtiriladi. Chunki, iqtisodiy manbalar korxonalarda sodir bo‘layotgan hodisa va jarayonlarni aniq o‘lchaydi, aks ettiradi va baho beradi.

Har qanday fanning obyektini bo‘lishi lozim, ammo, «Iqtisodiy tahlil» fanining nazariyasiga bag‘ishlangan eng so‘nggi adabiyotlarda ham bu masalaga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. Shu tufayli fanning predmeti bilan obyektini ko‘p hollarda bir xil tushunchalar deb qaraladi. Bu esa, o‘z navbatida, nazariy jihatdan asossiz, chalkash xulosalarga olib kelishi mumkin.

Har qanday fanning obyektini uning predmeti qayerlarda amalga oshirishini ko‘rsatib beradi. «Iqtisodiy tahlil» fanining predmeti hozirgi bozor munosabatlari shakllanayotgan sharoitda ko‘p mulkchilikka asoslangan barcha yuridik va jismoniy shaxslarning xo‘jalik faoliyatida mujassam. Shu tufayli, tahlil fanining obyektiga davlat, jamiyat tashkilotlari, uyushmalar, trestlar, birjalar, korxonalar, tashkilotlar va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xo‘jalik jarayonlari kiradi. Bu obyektlar iqtisodiy asosi jihatidan davlat, jamoa, aksiyadorlik, xususiy, xorijiy va aralash kabi mulk shaklida faoliyat ko‘rsatadigan obyektlarga bo‘linadi.

O‘zbekiston Respublikasi o‘ziga xos va mos iqtisodiy taraqqiyot yo‘lini tanladi. Bu mustaqil yo‘l bilan hamma sohada, xususan, milliy hisoblar tizimida ham jahon andozalariga bosqichma-bosqich o‘tish ko‘zda tutilgan. Bu esa, o‘z navbatida, mulk shaklidan qat’iy nazar, tahlilning bir xil metodologik usulini yoritishni taqozo etadi.

Obyektning va davrning qanday bo‘lishidan qat’iy nazar ushbu fan predmetining mohiyati o‘zgarmasligi, obyekt esa tahlilning qaysi makonda o‘tkazilishiga qarab o‘zgarib turishi mumkin. Shu jihatdan uning

predmeti obyektidan mazmun va mohiyati jihatidan tubdan farq qiladi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida «Iqtisodiy tahlil»ning subyektlari tahlil obyektini kim tomonidan o'rganilishiga qarab belgilanadi, ya'ni hozirgi vaqtda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini juda ko'p mutaxassislar, mulkdorlar, davlat idoralari xodimlari tahlil qiladilar.

Tahlil ishlarini amalga oshiruvchi tahlil subyektlari tarkibiga korxonalar (firma), tashkilot va uyushmalarning oddiy xodimidan rahbar xodimigacha bo'lgan barcha xodimlari, buxgalterlar, iqtisodchilar, menejerlar, boshqaruv idorasi xodimlari, statistika idoralari xodimlari, auditorlar, moliya tashkilotlari xodimlari, texnik xizmati xodimlari, mehnat birjasi xodimlari, atrofni muhofaza qilish tashkiloti xodimlari, marketing xizmati xodimlari, bank va birjalar xodimlari kiradi.

1.5. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarishda iqtisodiy tahlilning roli keskin oshmoqda, chunki, boshqaruv tizimida oldingi ma'muriy-buyruqbozlik tizimidan voz kechilib, yangi, erkin iqtisodiy mexanizmlar orqali boshqarish tizimi shakllanmoqda. Sobiq ittifoq davrida tahlil, asosan, reja ko'rsatkichlarini asoslashga, uning bajarilishini ta'minlashga qaratilgan edi. Endilikda esa har bir xo'jalik subyekti, mulk shaklidan qat'iy nazar o'z faoliyatini yuqoridan berilgan buyruqni bajarishga qaratmasdan, balki, mustaqil ravishda o'zining iqtisodiy qudratini takomillashtirish maqsadida erkin boshqarishga qaratadi. Bu esa, o'z navbatida, iqtisodiy tahlilning rolini yanada oshiradi. Iqtisodiy tahlil orqali har bir subyektda mavjud bo'lgan ichki va tashqi imkoniyatlar aniqlanadi, ularni amaliyotga safarbar qilish chora-tadbirlari ishlab chiqiladi.

Har bir fanning vazifasi iqtisodiy shart-sharoitga qarab belgilanib boriladi, lekin u oldiga qo'yilgan vazifalarni to'liq va keng hal etish uchun qator uslublarni qo'llaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatini tahlil etishda iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- o'rganilayotgan obyektga (hodisaga) to'g'ri va xolis baho berish;
- korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash;
- tuzilgan biznes-rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish;

- har bir yoʻnalishga taʼsir etuvchi omillarni aniqlash, ularning taʼsirini hisoblash va shu omillarni ishning samaradorligini oshirishga safarbar qilish;
- biznes-rejaning bajarilishi natijasida korxonaning moliyaviy barqarorligini taʼminlanishi, uning iqtisodiy qudratini yaxshilanishi, har bir xoʻjalik subyektining raqobatbardoshligini oshirilishi uchun mavjud ichki va tashqi imkoniyatlarni oʻrganish;
- moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklardan samarali va oqilona foydalanganlikka baho berish;
- korxonaning iqtisodiy va moliyaviy potensialiga, uning toʻlovga qobiliyatligiga baho berish hamda bu natijaga tezkor chora-tadbirlarni qoʻllash yoʻllarini ishlab chiqish;
- xoʻjalik hisobi tamoyillariga, tijorat hisob-kitoblariga amal qilishlikni muntazam tekshirib turish;
- korxonalarda mavjud boʻlgan samaradorlikni oshirish yoʻlida ularning imkoniyatlarini aniqlash;
- korxonaning tijorat sirini saqlagan holda uning moliyaviy ahvolini keng jamoatchilikka koʻrsata bilish va tashqi investorlarni korxonaga faoliyatini yaxshilashga jalb etish;
- korxonani boshqarishning eng qulay va nafli usullarini ishlab chiqish, ilgʻor gʻoya va tajribalarni oʻrganilayotgan hodisaga qoʻllash yoʻl-yoʻriqlarini koʻrsatib berish, tegishli axborotlar manbayini yetkazib berish;
- eng toʻgʻri va oqilona, kelgusida ish yuritish va korxonalarni boshqarish boʻyicha xulosalar berish;
- korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy koʻrsatkichlar asosini aniqlash;
- rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalarga bogʻliq boʻlgan va bogʻliq boʻlmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash;
- korxonalarning xoʻjalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin boʻlgan natijalarni oldindan aniqlash;
- korxonalarni rivojlantirishga asos boʻladigan innovatsion gʻoyalarni iqtisodiy jihatdan asoslash;
- korxonaning istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy koʻrsatkichlar asosini aniqlash;
- qabul qilingan boshqaruv qarorlarini maqbulligini oʻrganish (boshqaruvning iyerarxik tuzilishidagi barcha bosqichlar boʻyicha).

Bozor iqtisodiyoti sharoitida «Iqtisodiy tahlil»ning vazifasi ushbu yuqorida ta'kidlangan vazifalar bilan cheklanmaydi. Bozor sharoitida korxonalar faoliyati shu darajada serqirradi, tahlil jarayonida uning hamma jihatlarini o'rganish lozim bo'ladi. Shu sababli ham, iqtisodiy tahlilning vazifasi ham ko'p qirralidir. Biz esa shu kabi vazifalarning ayrimlarini sanab o'tdik xolos. Ko'rinib turibdiki, iqtisodiy tahlilning vazifasi bozor munosabatlari shakllanayotgan bugungi sharoitda ham, kelajakda ham korxonalar xo'jalik faoliyatini uzluksiz yaxshilab borishi uchun iqtisodiy dastak sifatida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

1.6. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatini tahlil qilish natijasiga asoslanib ilmiy asoslangan qarorlar qabul qilinadi va u tufayli boshqaruv sistemasi boshqariladigan obyektning faoliyatini zaruriyatga qarab o'zgartiradi. Qabul qilingan qaror boshqaruv jarayonining asosidir. Yangi xo'jalik yili uchun ishlab chiqilgan reja bu korxonani kelajakda rivojlanishini ta'minlaydigan qarordir. Korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilish jarayonida korxonada qabul qilingan biznes-rejalarning asoslanganligi tekshiriladi, rejada ko'zda tutilmagan imkoniyatlar aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili rejalashtirish darajasini talab darajasiga ko'taradi, uni yana ham ilmiy asoslanganlik darajasini ta'minlaydi. Shuning uchun ham rejalashtirish bilan tahlil o'rtasidagi bog'liqlik aniq ko'rinib turadi. Biznes-reja tuzish korxonalar faoliyatining tahlili bilan boshlanadi va yakunlanadi. Biznes-rejaning aniq va puxta ishlab chiqilishi korxonalarining iqtisodiy rivojlanishiga zamin yaratib beradi.

Tabiat va jamiyatdagi voqelikni o'rganuvchi va ularning tadqiq qilish obyekti deb qarovchi alohida fanning o'zi amal qiladigan tamoyillari mavjud bo'ladi. Tamoyillar o'rganiladigan obyektning bir butunligi, realligi va voqeligini tavsiflaydi. Shu jihatdan tahlilning ham iqtisodiy hodisa va jarayonlarni o'rganishda o'zi amal qiladigan tamoyillari bor. Mazkur tamoyillar tahlil fani obyektlarining obyektivligini, mantiqliligini, shakl-mazmunini, miqdor-sifatini va shu kabi jihatlarni tavsiflab real voqelikni yagona tushunchasini hosil qiladi.

Bu tamoyillarning xalqaro va milliy hisob andozalari asosida quyidagi shakllarini aytib o'tish mumkin (2-jadval).

Iqtisodiy tahlil fanining tamoyillari

Tamoyillar	Mazmuni
1	2
Tizilmalilik	Tahlil etilayotgan obyekt alohida bir butun tizilma yoki tizilmaning elementi deb qaraladi.
Ishonchlilik	Olingan ma'lumotlarda xato yo'qligi va haqqoniy ekanligi, realligi
Taqqoslanuvchanlik	Ko'rsatkichlar taqqoslanuvchanligi, ularning bir asosli tarzda turli davrlar va boshqa korxonalar faoliyati to'g'risidagi xuddi shunday ma'lumotlar bilan qiyosiy o'rganish
Betarafililik	Axborot foydalanuvchilarni bir guruhning zarari hisobiga boshqa guruhlar manfaatlarining qondirishning o'rinsizligi
Davriylik	Olingan ma'lumotlarning davriy oralig'i, xo'jalik faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar bilan vaqtida ta'minlab turish
Pulli baholash	Barcha aktivlar, kapital va majburiyatlarning so'mda ifoda etilishi
Hisobga olish	Daromad va xarajatlarning yuzaga chiqish vaqti, o'rni va markazlari bo'yicha hisobga olinishi
Mazmunning shakldan ustunligi	Ma'lumotlarning hisob va hisobotdagi shakllardan huquqiy jihatdan uning mohiyati va iqtisodiy voqeligi bo'yicha hisobga olishdagi ifodasini ustunligi
Aniq baholash	Aktivlar va foydaning joriy davr bozor narxlarida qayta ifodalanishi
Uzluksizlik	Korxonada xo'jalik faoliyati yuzasidan barcha jarayonlarni o'z yakuniga qadar hisobda uzluksiz aks ettirilishi
Boshqa tamoyillar

1.7. Fanlar sistemasida tahlilning tutgan o'rni

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida iqtisodiy tahlil fanining boshqaruvdagi o'rni ortib bormoqda. Iqtisodiy tahlil fani boshqa fanlar zamirida vujudga keldi va ko'pgina fanlarga nisbatan yangidir. Iqtisodiy tahlil fani mustaqil fan sifatida shakllandi va rivojlandi. Shunga qaramay, respublikamiz mustaqillikka erishganidan keyin iqtisodiy tahlil fani mazmuni va tarkibi jihatidan tubdan o'zgardi. Rejali iqtisodiyot sharoitida barcha fanlar singari iqtisodiy tahlil fani ham rejaning bajarilishini nazorat qilish, unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, yuqoridan ko'r-ko'rona tushirilgan rejani asoslashga qaratilgan edi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy tahlil haqiqatdan ham amaliyotda xo‘jalik yurituvchi subyektlarga, mulk va ish egalariga xizmat qiladigan bo‘ldi. Oldinlari korxonalarining xo‘jalik faoliyati yuqori tashkilot va davlat nuqtayi-nazaridan tahlil qilingan bo‘lsa, endilikda bevosita shu korxonaga, uning mehnat jamoasi va mulk egasi nuqtayi-nazaridan tahlil qilinadigan bo‘ldi, biroq barcha hollarda ham davlatning manfaati hisobga olinadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ham korxonaga bilan davlat o‘rtasidagi aloqalar erkin ravishda o‘zaro manfaatli iqtisodiy munosabatlarga asoslanadi.

Hozirgi bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy jarayonlar va munosabatlardagi bunday o‘zgarishlar har bir fan va iqtisodiy mexanizmlar mazmunini sifat jihatidan yangilashni, tubdan qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Iqtisodiy tahlil xo‘jalik munosabatlaridagi obyektiv zarurat talabidan kelib chiqqan aniq fan bo‘lishiga qaramasdan boshqa fanlardagi umumiy qonuniyatlar, usul-uslublar, tamoyillar kabilarga rioya qiladi, ya’ni ko‘pgina fanlar bilan o‘zaro bog‘liq. Jumladan, iqtisodiy tahlil umumiy iqtisodiy nazariya fani bilan bevosita aloqadordir, chunki, obyektlarni iqtisodiy tahlil qilish umumiy iqtisodiy qonunlarga asoslanadi va umumqabul qilingan kategoriyalardan foydalaniladi. Umumiy iqtisodiy nazariya fanida kategoriyalar va atamalarning mohiyati hamda mazmuni ochib beriladigan bo‘lsa, iqtisodiy tahlilda esa ushbu kategoriyalar va atamalar fanning usul-uslublaridan foydalangan holda turli tomondan o‘rganiladi. Misol uchun, mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi kategoriyasini oladigan bo‘lsak, umumiy iqtisodiy nazariya fanida ushbu kategoriyani mohiyati va mazmuni nimadan iborat ekanligi, qanday aniqlanishi, tarkibi nimalardan iborat bo‘lishini bilib olishimiz mumkin. Iqtisodiy tahlil fanida esa mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi ko‘rsatkichini davrlar, ularning tarkibidagi o‘zgarishlar hamda o‘zgarishlarga ta’sir etgan omillar va shu kabilar bo‘yicha tahlil qilishimiz mumkin.

Tabiat, jamiyat va tafakkurni rivojlanishi haqidagi falsafiy ta’limotlardan ham tahlilda foydalaniladi, ya’ni umumiy rivojlanish, o‘rganilayotgan jarayonga dialektik qarash va hokazolar.

Iqtisodiy tahlil fani quyidagi fanlar bilan o‘zaro aloqadordir:

1. Buxgalteriya hisobi va audit.
2. Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish.
3. Mikro va makroiqtisod.
4. Rejalashtirish (biznes-reja tuzish).

5. Statistika va informatika.
6. Moliya, bank, soliq masalalariga taalluqli fanlar bilan.
7. Iqtisodiy matematika va kompyuter asoslari fani bilan.
8. Huquqiy fanlar bilan.
9. Tabiiy fanlar va hokazolar.

Buxgalteriya hisobi mulkchilikning va xo‘jalik yuritishning turli shakllaridagi korxonalar faoliyatini yalpi, uzluksiz va hujjatlarga asoslangan holda aks ettirish tizimidir. Tahlilda ushbu tizimda shakllantirilgan ma’lumotlardan keng ko‘lamda foydalaniladi. Demak, mazkur fan iqtisodiy tahlilni eng asosiy axborot bazasi bo‘lib hisoblanadi.

Moliya, bank, soliq, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, birja ishi sohasidagi fanlar bilan iqtisodiy tahlil bevosita bog‘liq. Chunki, korxonalar faoliyati davlat budjeti bilan majburiy hisob-kitoblar, kredit olish va ularni to‘lash, investitsiyalarni jalb qilish yoki ularni sotish, qimmatli qog‘ozlar bozorida faol ishtirok etish, birja va bozordagi holatni uzluksiz o‘rganish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu faoliyatni iqtisodiy tahlil qilish ularning o‘ziga xos jihatlarini bilishni talab qiladi. Bu esa, iqtisodiy tahlilning samarali bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

Axborot texnologiyalari va informatika fanlari asosida iqtisodiy tahlil ishlari dasturlanib, kompyuter vositalarida amalga oshiriladi. Bunda iqtisodiy tahlil fanining usul va uslublari, belgilangan maqsad va vazifalar axborot texnologiyalari va informatika fanlari talablari asosida dasturlanadi. Kompyuterlar yordamida amalga oshirilgan tahlil ishlari o‘ta tez va aniq bajariladi hamda mutaxassislar mehnatini yengillashtirib beradi.

Yuqorida qayd etilgan boshqa fanlar ham iqtisodiy tahlil fani bilan bevosita bog‘langan.

Korxonalarining faoliyatini tahlil qilish yuqori tashkilotlarning bilvosita vazifasi bo‘lib, ular korxonalarining hisobotini tasdiqlaydi hamda ularning ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatini baholab, tegishli qarorlar qabul qiladi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- fanning shakllanishi;
- fanning rivojlanish tarixi;
- O‘zbekistonda fanning rivojlanishi;
- moliyaviy va boshqaruv tahlili fanining mazmuni;
- tahlil boshqaruvning muhim funksiyasi ekanligi;

- fan predmetining ta’rifi;
- fanni vazifalari;
- tahlil obyekti;
- tahlil subyekti;
- iqtisodiyot nazariyasi va tahlil fanlarining bog‘liqligi;
- buxgalteriya hisobi va tahlil;
- audit va tahlil;
- marketing va tahlil;
- moliya va tahlil;
- soliq va tahlil.
- tahlil so‘zining mazmuni;
- iqtisodiy tahlilning asosiy prinsiplari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tahlilning fan sifatida shakllanish tarixi qaysi davrga to‘g‘ri keladi?
2. Fanning rivojlanishiga respublikamiz olimlaridan kimlar o‘z hissasini qo‘shgan?
3. Tahlil so‘zining iqtisodiy mazmuni nimadan iborat?
4. Xo‘jalik subyektlarini boshqarishda iqtisodiy tahlil fanining ahamiyati nimadan iborat?
5. Tahlil fanining predmeti deganda nimani tushunasiz?
6. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?
7. Tahlil so‘zining lug‘aviy mazmuni nimani anglatadi?
8. Iqtisodiy tahlilning eng asosiy vazifalarini ayting?
9. Iqtisodiy tahlilning obyektiga nimalar kiradi?
10. Iqtisodiy tahlilning subyektlari kimlar?
11. Fanning asosiy prinsiplari (tamoyillari)ni sanab o‘ting?
12. Iqtisodiyot fanining boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqligini nimalarda ko‘ramiz?

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq

Bilish nazariyasi va iqtisodiy tahlil to‘g‘risidagi xorijiy va respublikamiz iqtisodchi olimlarining qarashlarini mustaqil ravishda o‘rganib chiqing va fikrlaringizni bildiring.

2-topshiriq.

Iqtisodiy tahlilning makro va mikro darajaga bo‘linishi va tahlil obyektlarini ham ushbu darajalarga bo‘lib o‘rganishning sabablarini izohlab bering.

3-topshiriq.

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilni rivojlantirish istiqbollarini ko‘rsatib bering.

Test savollari:

1. Tahlil so‘zining lug‘aviy mazmuni nimani anglatadi?

- a) «tahlil» lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma’nosini anglatadi;
- b) «tahlil» fransuzcha so‘zdan olingan bo‘lib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma’nosini anglatadi;
- d) «tahlil» grekcha so‘zdan olingan bo‘lib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma’nosini anglatadi;
- e) «tahlil» inglizcha so‘zdan olinib, «butunni bo‘lakchalarga bo‘lib o‘rganaman» ma’nosini anglatadi;

2. O‘zbekiston Respublikasida xo‘jalik subyektlarining yillik moliyaviy hisobot shakllariga qaysi shakllar kiritilgan?

- a) buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, ishlab chiqarish qarorlari to‘g‘risidagi hisobot;
- b) buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;
- d) buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot;
- e) buxgalteriya balansi, asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot, pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot, xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot, mehnat hisoboti.

3. Iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalari qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?

- a) aniq va haqqoniylik, keraklilik va operativlik, ijodiylik;
- b) iqtisodiy jarayon, hodisa va voqealarni rivojlanishini, o'zgarishini obyektiv (tashqi) va subyektiv (ichki) ta'sir etuvchi omillar bilan umumiy bog'liq holda o'rganish; O'rganilayotgan firma, tashkilot, muassasa va uyushmalarning faoliyatini to'liq va keng o'rgangan holda aniq va xolisona baho berish; Ilg'or g'oya va tajribalarni o'rganilayotgan jarayonga qo'llash yo'nalishlarini belgilash;
- d) o'rganilayotgan obyektga (hodisaga) to'g'ri va xolisona baho berish; Korxonaning biznes-rejasini tuzish uchun tegishli axborotlar bilan ta'minlash; Tuzilgan biznes-rejalarning to'g'ri va ilmiy asoslanganligiga baho berish; Eng to'g'ri va oqilona, kelgusida ish yuritish va korxonalarni boshqarish bo'yicha xulosalar berish; Korxonalarni rivojlantirishning joriy va istiqbolli rejalarini tuzish uchun iqtisodiy ko'rsatkichlar asosini aniqlash; Rejaning bajarilishiga obyektiv baho berish hamda uni bajarishda korxonalariga bog'liq bo'lgan va bog'liq bo'lmagan omillar va sabablarni bir-biridan ajratgan holda aniqlash; Korxonalarining xo'jalik faoliyati jarayonida erishishi mumkin bo'lgan natijalarni oldindan aniqlash;
- e) to'g'ri javob yo'q.

4. Tahlil fanining predmetiga qaysi javobda to'g'ri ta'rif berilgan?

- a) xo'jaliklarning ishlab chiqarish mablag'laridan foydalanishini o'rganishga aytiladi;
- b) tahlil fanining predmeti deb – xo'jalikning barcha jarayonlaridagi o'zgarish va farqlari sababini o'rganishga aytiladi. Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi;
- d) tahlil fanining predmeti deb - xo'jalik jarayonlarini iqtisodiy manbalardan foydalanib o'rganishga aytiladi;
- e) tahlil fanining predmeti deb – turli mulk shaklidagi firma, uyushma, birlashmalarning moliyaviy-xo'jalik jarayonlarini sodir bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishini ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi hamda moliyaviy barqarorligi, to'lov qobiliyati, raqobatga chidamli bo'lib faoliyat ko'rsatishi uchun zarur texnik, tashkiliy, moddiy, moliyaviy, innovatsion boyliklaridan oqilona foydalanayotganligiga baho berishga

aytiladi. Bunday o'rganishda jamiyatda amal qilayotgan obyektiv va subyektiv qonunlarga tayanadi hamda ko'pgina axborot manbalaridan foydalanadi.

5. Iqtisodiy tahlil ga bo'linadi.

- a) moliyaviy va boshqaruv;
- b) maxsus va iqtisodiy;
- d) umumiy va iqtisodiy;
- e) ijtimoiy va iqtisodiy;

6. Moliyaviy tahlil ... ga bo'linadi.

- a) ichki va tashqi;
- b) umumiy va ichki;
- d) tarmoqlararo va tarmoq ichidagi;
- e) asosli va asossiz;

7. Iqtisodiy tahlil fani obyekt bo'lib nima hisoblanadi?

- a) korxonalar, ishlab chiqarish birlashmalari, sexlar, uchastkalar;
- b) iqtisodiy tumanlar;
- d) xalq xo'jaligi;
- e) tarmoqlar.

8. Iqtisodiy tahlil fanini pirovard maqsadi nima?

- a) xo'jalik rezervini topish va ulardan to'la-to'kis foydalanish;
- b) mahsulot tannarxini hisoblash;
- d) mehnat unumdorligini aniqlash;
- e) asosiy vositalardan samarali foydalanish.

9. Iqtisodiy tahlil fani qaysi fan bilan ko'proq chambarchas bog'liq?

- a) buxgalteriya hisobi;
- b) makro va mikro ekonomika;
- d) makro va mikro statistika;
- e) iqtisodiy nazariya.

10. Tahlilning eng asosiy tamoyillari qaysi javobda to'liq aks ettirilgan?

- a) ishonchlilik, betarafllilik, davriylik, taqqoslanuvchanlik, pulli baholash, hisobga olish, aniq baholash;

b) tuzilmalilik, ishonchlilik, betaraflik, davriylik, taqqoslanuvchanlik, pulli baholash, hisobga olish, mazmunning shakldan ustunligi, aniq baholash, uzluksizlik;

d) tahlil dasturini tuzib olishlik, tuzilmalilik, ishonchlilik, betaraflik, davriylik, taqqoslanuvchanlik;

e) tuzilmalilik, ishonchlilik, betaraflik, davriylik, taqqoslanuvchanlik, mazmunning shakldan ustunligi, aniq baholash, uzluksizlik.

II BOB. IQTISODIY TAHLILNING METODI VA UNDA QO‘LLANILADIGAN USULLAR

2.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilning metodi va uning o‘ziga xos muhim xususiyatlari

Har bir fanning metodi – obyektiv borliqning, tabiat va jamiyatning rivojlanishini o‘rganishga qanday yondoshish lozimligini ko‘rsatadi. Fanning o‘z obyekti yoki predmetini o‘rganish usullari, vositalari uning metodini tavsiflaydi. Iqtisodiy tahlil ham o‘zining mustaqil usullariga ega.

Metod - grekcha «*methodos*» so‘zidan olingan bo‘lib nazariya, ta’limot va amaliyotni o‘rganishdagi yondashuv yo‘llaridir. Keng ma’noda metod deganda tabiat va jamiyatdagi jarayonlar, predmetlar hamda voqeliklarni tadqiq etishning o‘zaro bog‘langan yalpi usullari, tamoyillari, shuningdek, haqiqatni bilishning vositalari, uslublari va yo‘llari tushuniladi.

Iqtisodiy tahlilning metodi - korxonadagi xo‘jalik jarayonlari va boshqa faoliyat turlarining yuzaga kelishi, o‘zgarishi hamda rivojlanishini dialektik yondashuv usulida o‘rganishdir. Ijtimoiy- iqtisodiy samaradorlikni oshirish maqsadida korxonaning xo‘jalik hamda boshqa faoliyat turlarini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanish, ushbu ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi sabablarini tadqiq qilish, ularning o‘zaro bog‘liqliklarini aniqlash hamda hisob-kitob qilish iqtisodiy tahlil fani metodining o‘ziga xos jihatlaridir.

Metodining mazmuniga ko‘ra tahlil vositasida xo‘jalik jarayonlari va boshqa faoliyat turlarini o‘rganishda dialektik yondashuv, ya’ni har bir voqelik mavjud va rivojlanishda, deb qaraladi. Bu voqeliklar sonidan sifat o‘zgarishiga va yangi sifatning paydo bo‘lishi, inkorni-inkor qilish, qarama-qarshilik kurashi, eskining tugashi, yangi-ilg‘or voqeliklarning paydo bo‘lishi kabi xususiyatga ega bo‘ladi. Dialektik yondashuv va uning barcha usullari xo‘jalik jarayonlarini o‘rganishda, tahlil qilishda korxonada faoliyatini barcha bosqichlarida qo‘llaniladi.

Iqtisodiy tahlil metodining ta'rifida uning e'tiborli jihatlari ham ko'rsatilgan. Jumladan, xo'jalik jarayonlari va iqtisodiy voqealarni tahlil qilishda juda ko'plab ko'rsatkichlardan foydalanish zarur.

Tahlil uchun kerak bo'lgan ko'rsatkichlar, ularning turi hamda miqdori o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuni, hajmi va davriga bog'liq bo'ladi. Hatto, tahlil natijasida avvaldan mo'ljallanmagan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin. Mazkur holat iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos jihatlardan biri hisoblanadi.

O'rganilayotgan xo'jalik jarayonlarining, ya'ni ko'rsatkichlarning o'zaro farqlanishi hamda o'zgarishi sabablarini aniqlash tahlil ishlarida muhim ahamiyatga ega. Har bir o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan sabablarni (omillar) hisoblash iqtisodiy tahlil metodining yana bir o'ziga xos xususiyatidir, chunki, tahlil qilinayotgan iqtisodiy ko'rsatkichlar va ulardagi o'zgarishlar doimo bir-biri bilan uzviy bog'liq, o'zaro aloqa hamda ta'sir natijasida sodir bo'ladi. Tahlil vositasida mazkur holatlar, ya'ni o'zgarishlar aniq hisoblanadi va o'rganiladi. Ta'kidlash kerakki, ayrim olingan omillar oxirgi yakuniy natijaga sezilarli ta'sir ko'rsatishi va uni tubdan o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Shuning uchun ham xo'jalik faoliyatidagi o'zgarish sabablari, ularning omillar ko'rinishida yuzaga chiqishi tahlilda jiddiy tarzda o'rganiladi, demak, ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi asosiy va qo'shimcha omillarni aniqlash ularni tasniflash tahlil metodining muhim xususiyati bo'lib sanaladi. Sabablarni aniqlash va omillarni to'g'ri guruhlash xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning sifatli bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Iqtisodiy tahlil metodining yana bir o'ziga xos tomoni o'rganilayotgan ko'rsatkichlarni bir-biriga o'zaro ta'sirini va bog'liqligini aniq hisoblab ko'rsatib berishdir. Ma'lumki, korxonada ishlab chiqaradigan mahsulot hajmi uch guruh omillar ishchi kuchi, mehnat vositalari va mehnat predmetlaridan foydalanishga bog'liq. O'z navbatida, har bir guruh omillar ham tarkibiy elementlarga ajraladi. Misol uchun, ishchi kuchidan foydalanish bo'yicha omillar miqdor va sifati bo'yicha guruhlanadi. Bu yerda, miqdor omil ishchilar soni, sifat omili esa ularning mehnat unumdorligidir (bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan o'rtacha mahsulot). Ishchining bir yildagi o'rtacha mehnat unumi - bir yilda ishlangan o'rtacha kishi kunlari, ish kuni davomiyligi va bir ishchining yil davomida ishlagan ishi soatiga bog'liq. Bu sanab o'tilgan har bir ko'rsatkich, o'z navbatida, boshqa omillarga bevosita bog'liq. Ishchining bir yilda ishlangan o'rtacha ish kunlari qo'shimcha dam

olish, sababsiz ishga kelmaslik, uzoq safarga borish, kasallik tufayli ishga chiqmaslik va korxonaga aybi bilan bekor turish kabi sabablar ta'sir ko'rsatadi. Aytilganlardan ma'lum bo'lmoqdaki korxonaga iqtisodiy faoliyatidagi barcha ko'rsatkichlar bir-biri bilan zanjirli bog'lanib ketgan. Bu umumiy zanjir tizimida har bir omilning o'z o'rnini bor hamda ular muayyan miqdorda voqeliklarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Tahlil jarayonida e'tiborga olinmagan har bir ko'rsatkich yoki omil uning natijalarni noaniq bo'lishiga hatto iqtisodchilarni noto'g'ri xulosalariga olib kelishi mumkin. Xulosa qilib aytish mumkinki, tahlil metodining muhim xususiyati o'rganiladigan muayyan iqtisodiy ko'rsatkich alohida tarzda, boshqa omillardan ajratilgan holda tahlil qilinmaydi. Ularning o'zaro bog'liqligi doimo e'tiborda tutiladi. Faqatgina, ayrim hollarda iqtisodiy jarayonlar bo'yicha hisob-kitoblarni mantiqiy asoslash uchun, ya'ni yakuniy natija ko'rsatkichiga faqat bir omilning ta'siri o'rganilayotgan vaziyatlarda boshqa omillarning o'zgarish sabablari hamda ta'sir etish miqdori shartli o'zgarimas, deb qaralishi mumkin. Odatda ilmiy usullardan foydalanilganda, har qanday turdagi tahlil muvaffaqiyatli chiqadi. Tahlil qilishning to'g'ri tanlangan usuli ko'pincha uning natijasini oldindan aniqlaydi. Ilmiy usulda fanni tekshirish ko'pincha, dialektik usulga asoslanishi tushuniladi. Tushunishning dialektik usuli, hamma hodisa va jarayonlarni muntazam harakatda, o'zgarishda, rivojlanishda ko'rish zarurligini bildiradi. Iqtisodiy tahlil usullarining xarakterli jihatlaridan biri – muntazam taqqoslab turishdir. Dialektika har bir jarayonni, har bir hodisani birlik va qarama-qarshiliklar kurashi deb qarash kerakligini o'rgatadi. Bundan har bir hodisa va jarayonlarni ichki qarama-qarshiliklar, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganib chiqish zarurligi kelib chiqadi. Bu ham tahlilning xarakterli jihatlaridan biridir. Tahlil qilishda dialektik usuldan foydalanish, korxonaga xo'jalik faoliyatini o'rganib chiqishda barcha bog'liq tomonlarini hisobga olinishini anglatadi. Hech qaysi hodisa, agar u alohida tekshirilsa to'g'ri tushunchaga ega bo'lmaydi. Bu ham tahlilning xarakterli jihatlaridan biridir. Tahlilning muhim uslubiy jihatlaridan biri, u sabab-oqibatlarini aniqlabgina qolmay, balki son jihatdan tavsif beradi, ya'ni har bir omilning faoliyat natijalariga qay miqdorda ta'sir ko'rsatishini aniqlaydi, bu esa iqtisodiy tahlilning yanada osonroq bo'lishini ta'minlaydi.

Sistemali yondoshish esa o'rganilayotgan hodisa va jarayonlarni bosqichma-bosqich tahlil qilish, ularni o'zaro bog'liq holda tekshirish mufassal detallarda o'rganilishini ko'zda tutadi.

2.2. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi haqida tushuncha va uning asosiy elementlari tavsifi

Fan metodologiyasi o'zida predmetini anglashga yo'naltirilgan tamoyillar, usullar va metodlar, qoidalar tizimini aks ettiradi. Bilish faoliyati jarayonini yaxlit tadqiq etuvchi anglash nazariyasidan metodologiya shunisi bilan farq qiladiki, u anglash metodlariga ko'proq diqqatni qaratadi. Agar fan nazariyasi o'zida bilish jarayoni natijasini aks ettirsa, u holda metodologiya ushbu bilimlarga erishish usuli va tadqiqiy faoliyatga yo'naltiruvchi asos sanaladi. Fan metodologiyasining asosiy tarkibiy qismlari – bu predmetni o'rganish yondashuvining umumiy tamoyillarini va uni tadqiq etishning aniq metodikasini ishlab chiqishdir. Turli fanlar uchun o'ziga xos bo'lgan o'z predmetini o'rganishga yondashuv usullari (jumladan, iqtisodiy tahlil ham) bilishning umumiy dialektik metodiga asoslanadi.

Bilishning dialektik metodi barcha hodisa va jarayonlarni uzluksiz harakatda, o'zgarish va taraqqiyotda ko'rib chiqish zaruratidan kelib chiqadi. Hech narsa o'z o'rnida turmaydi, barchasi oqadi, barchasi o'zgaradi. Har kun, har soat, har daqiqada korxonalar iqtisodiyotida o'zgarish sodir bo'lib, ular taqqoslash jarayonida anglanadi. Muntazam taqqoslashning zarurati – iqtisodiy tahlil xarakterli jihatlaridan biridir. Taqqoslash iqtisodiy tahlilda juda keng qo'llaniladi: faoliyatning haqiqiy natijalari o'tgan yillar natijalari bilan, boshqa korxonalarining erishgan yutuqlari, maqsadli va prognoz parametrlar, me'yoriy ma'lumotlar va boshqalar bilan taqqoslanadi.

Dialektik metod tamoyillari bilan mutanosiblikda har bir jarayon, har bir hodisa qarama-qarshilik kurashi va birligi sifatida ko'rib chiqilishi zarur. Bu tamoyil har bir jarayon, har bir hodisaning ichki qarama-qarshiligi, ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganish zaruratini taqozo etadi. Bu ham iqtisodiy tahlilning tavsifli qirralaridan biridir. Masalan, texnik yangilanishlar mehnat unumdorligini o'sishi, rentabellik va boshqa ko'rsatkichlar darajasi oshishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi, lekin bunda uning atrof-muhit iqtisodiy tahlilni ifloslantirishi kabi salbiy oqibatlarini ham yodda tutish lozim. Tahlilda dialektik metoddan foydalanish korxonaning xo'jalik faoliyatini o'rganish barcha o'zaro bog'liqliklarni hisobga olgan holda olib borishi lozimligini anglatadi. Hech bir hodisa agar u boshqalardan ajratilgan holda o'zaro aloqadorlikda olinmasdan ko'rib chiqilsa, to'g'ri tushunilishi mumkin emas. Mi-

sol uchun, yangi texnikani joriy etishning mahsulot ishlab chiqarish tannarxi darajasiga ta'sirini o'rganishda nafaqat bevosita, balki bilvosita aloqani ham hisobga olish zarur. Ma'lumki, yangi texnika joriy etilishi bilan ishlab chiqarish xarajatlari, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi, lekin, bu holat mehnat unumdorligi oshishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa, ish haqidagi tejalishiga va shu omil tufayli mahsulot ishlab chiqarish tannarxi pasayishiga olib keladi. U yoki bu iqtisodiy hodisani anglash va to'g'ri baholash uchun barcha o'zaro aloqalarni boshqa hodisalar bilan bog'liqligini o'rganish zarur. Bu ham iqtisodiy tahlilning metodologik jihatlaridan biridir.

Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri uning nafaqat sabab-oqibat aloqalarini o'rganish, balki ularga miqdoriy tavsif berishi, ya'ni faoliyat natijalariga omillar ta'sirini miqdoran o'lchashni ta'minlash sanaladi. Bu analitik tadqiqotlar darajasini oshiradi.

Tahlilda sabab aloqalarini o'rganish va o'lchashni induksiya va deduksiya metodi bilan amalga oshirish mumkin. Mantiqiy induksiya ko'magida sabab aloqalarini o'rganish usuli shundan iboratki, tadqiqot xususiydan umumiy tomon, xususiy dalillardan umumlashtirish, sababdan natija tomon olib boriladi. **Deduksiya** – shunday usulki, bunda tadqiqot umumiy dalillardan xususiyga, natijalardan sababga tomon amalga oshiriladi. Iqtisodiy tahlilda ham bu yondashuvdan foydalaniladi. **Induksiya** metodlari barcha ko'rsatkichlarning alohida omillarga nisbatan o'zgarishidagi ta'sirchanlikni kompleks baholash uchun qo'llaniladi. Deduksiya yordamida tadqiq etilayotgan natijaviy ko'rsatkichni shakllantiruvchi butun kompleks omillar tadqiq qilinadi.

Bilishning dialektik metodiga muvofiq har bir jarayon, har bir iqtisodiy hodisani tizim va tizimga o'zaro bog'liq elementlar majmuasi sifatida ko'rib chiqish lozim. Bularning har biri uning rivojlanishi uchun munosib hissa qo'shadi. Tizim elementlaridan biriga ichki yoki tashqi tavsifidagi ixtiyoriy ta'sir uning boshqa elementlarida ham o'z aksini topadi. Bundan tahlil obyektlarini o'rganishga tizimli yondashuv zarurati kelib chiqadi, bu tadqiqot metodologiyasining yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tizimli yondashuv tahlil obyektini chuqur o'rganishga, u haqda yanada to'liq va yaxlit tasavvur olishga, bu obyektning alohida qismlari o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalarini aniqlashga imkon beradi.

Tizimli yondashuvning asosiy xususiyati – dinamizm, o'zaro ta'sir, o'zaro bog'liqlik, tizim elementlarining o'zaro aloqasi, komplekslilik, yaxlitlilik, tobelik, yetakchi bo'g'in ajratilishi kabilardir.

Tizimli yondashuv elementlari o'rganilayotgan hodisalar va jarayonlarning maksimal detallashtirish (xususiy tahlil) va ularning tizimlashtirilishini ko'zda tutadi. U yoki bu hodisalarni detallashtirish (tarkibiy qismlarga ajratish) o'rganilayotgan obyektida yanada jiddiy va asosiysini aniqlash uchun zarur bo'lgan darajada olib boriladi. U obyekt va tahlil maqsadiga bog'liq. Bu iqtisodiy tahlildagi murakkab vazifa bo'lib, analitikdan iqtisodiy hodisalar mohiyati, shuningdek, ularning rivojlanishini aniqlovchi omil va sabablar haqida aniq bilimlar talab qiladi.

Tizim elementlarini tizimlashtirish ularning o'zaro aloqadorligi va o'zaro ta'sirini o'rganish asosida amalga oshiriladi. Bu asosiy komponentlarni, funksiyalarni, tizim elementlari tobeligini aniqlashga, o'rganilayotgan obyekt (tizim) ning taxminiy tuzilishli-mantiqiy tahlil modelini tuzishga imkon beradi. Grafik jihatdan u, odatda, rasm ko'rinishida taqdim etiladi, bu yerda har bir elementga muayyan blok mos keladi. Alohida bloklar o'zaro strelkalar bilan bog'liq, ular ichki va tashqi tizim aloqalari mavjudligi va yo'nalishini ko'rsatadi. tuzilishli-mantiqiy chizmalar asosida matematik bog'liqlik shakllari belgilanadi, tizimning elementlari o'zaro aloqa o'rtasidagi tavsiflovchi matematik modellar tuziladi, ularning parametrlari aniqlanadi. Tizimlashtirish tahlildagi o'ta mas'uliyatli davr hisoblanadi. Bu jarayonda doimiy omillarni tasodifiylaridan ajratish, ko'plab o'rganilayotgan omillarning to'plamidan faoliyat natijalari bog'liq bo'lgan asosiylarini aniqlash zarur.

Iqtisodiy tahlilning yuqorida qayd qilingan tomonlar bilan bevosita shartlangan muhim metodologik jihati, korxonaning xo'jalik faoliyatidagi iqtisodiy jarayon va hodisalarning sabab-oqibat aloqalarini kompleks, tizimli tadqiq qilish uchun zaruriy sanaluvchi ko'rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va undan foydalanish hisoblanadi.

Tahlilda tizimli yondashuv bilan bir qatorda vaziyatli yondashuv mavjud, unga muvofiq amalga oshirish belgilangan funksiyani inqirozli hodisalardan ogohlantirish maqsadida boshqarilishi lozim bo'lgan vaziyat tashkil etadi. To'g'ri qaror qabul qilish uchun yuzaga kelgan vaziyatni baholash va uning istiqbolda rivojlanishini prognozlash zarur. Vaziyatli yondashuvning o'ziga xosligi shundan iboratki, u tizimli tahlilning asosiy g'oyalarini rivojlantirib, eng ahamiyatli tizim parametrlarini, eng dolzarb omillarni ajratadi, qo'yilgan maqsadlarga yanada samarali usullar bilan erishish mumkin bo'lganlariga ta'sir ko'rsatadi. Vaziyatli yondashuv hozirgi vaqtda iqtisodiy tahlilni rivojlantirish metodologiya va metodikasining eng istiqbolli yo'nalishlaridan biri sanaladi.

Kompleks iqtisodiy tahlil metodikasi

Metodika – analitik tadqiqotni yanada maqsadga muvofiq bajarishning usullari va qoidalari majmuidir. Tahlilda umumiy va xususiy metodika farqlanadi. Umumiy metodika iqtisodiyotning turli sohalaridagi iqtisodiy tahlilning turli obyektlarini o‘rganishda foydalaniladi. Xususiy metodika muayyan iqtisodiyot sohalari, ishlab chiqarish turi, tadqiqot obyektlarida tahlil ko‘rinishida umumiy qo‘llanilishini aniqlashtiradi.

Tahlilning ixtiyoriy metodikasi analitik tadqiqot o‘tkazish bo‘yicha ko‘rsatmalar yoki metodologik tavsiyalarni o‘zida aks ettiradi, aynan:

- analitik tadqiqot o‘tkazish ketma-ketligi va davriyligi bo‘yicha tavsiyalar;
- o‘rganilayotgan obyektlarni tadqiq qilish usul va uslublarini tavsiflash;
- tahlilni tashkil qilish, uni metodik, texnik va informatsion ta’minoti bo‘yicha ko‘rsatmalar;
- tahlil natijalarini rasmiylashtirish bo‘yicha tavsiyalar.

IT metodikasining ikki elementiga batafsilroq to‘xtalamiz:

- 1) tahlil texnologiyasi (analitik ishlarni bajarish ketma-ketligi);
- 2) o‘rganilayotgan obyektlarni tadqiq qilish usullari (tahlilning metodik instrumentariysi).

Kompleks iqtisodiy tahlilni bajarishda bir nechta texnologik bosqich ajratiladi:

1) tahlil obyektlari, maqsad va vazifa aniqlanadi, analitik ishlar rejasi tuziladi, chunki maqsad aniq keltirilmasa, tahlil jarayoni o‘z ma’nosini yo‘qotadi;

2) tahlil obyektini tavsiflashga ko‘maklashuvchi ko‘rsatkichlar tizimi ishlab chiqiladi;

3) tahlil uchun zaruriy axborot to‘planadi va tayyorlanilib (uning aniqligi, ishonchliligi tekshiriladi, mutanosib ko‘rinishga olib kelinadi, tizimlashtiriladi. Iqtisodiy tahlil natijalari axborotlarning sifatiga bog‘liq bo‘ladi;

4) xo‘jalik yuritishning haqiqatdagi natijalarini hisobot davri reja ko‘rsatkichi bilan, qabul qilingan me‘yorlar va standartlar, o‘tgan yillar haqiqatdagi ma’lumotlari bilan, yetakchi korxonalar yutuqlari, o‘rtacha soha bo‘yicha; korxonalar rivojlanishi tendensiyalari va sur‘atlari, uning reytingi, moliya va tovar bozoridagi holati o‘rnatiladi; yechimi bo‘yicha muayyan chora-tadbirlarni taqozo etuvchi muammolar topiladi;

5) omillar va korxonalar faoliyati natijalariga o‘tmishda hamda

istiqbolda ularning ta'siri aniqlanadi, korxonada maqsadlariga erishishda foydalanilmagan imkoniyatlar hisoblanadi va shuning asosida erishilgan natijalarni baholash amalga oshiriladi;

6) yuzaga kelgan vaziyatda korxonada rivojlanishining ehtimoliy ssenariysi ko'rib chiqiladi, fan va amaliyot sohasida yangiliklarni o'rganish negizida korxonada mehnat unumdoligini oshirishning mavjud zaxiralari baholanadi;

7) qo'yilgan maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan strategik va taktik boshqaruv qarorlari qabul qilish bo'yicha tavsiyalar tayyorlanadi; qabul qilinayotgan qarorlarning ehtimoliy oqibatlari, ishlab chiqarish va moliyaviy risklar darajasi baholanadi; korxonaning operativ, joriy va istiqbolli rejalari aniqlanadi.

Analitik tadqiqotlarni bajarishning bunday ketma-ketligi iqtisodiy tahlil nazariyasi va amaliyoti nuqtayi nazaridan yanada maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Analitik tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladigan tahlilning texnik usullari va usullari (tahlil instrumentariysi) iqtisodiy tahlil metodikasining eng muhim elementi hisoblanadi (3-chizma).

Axborotni qayta ishlashning mantiqiy usullari. Taqqoslash. Nisbiy va o'rtacha ko'rsatkichlar. Moliyaviy hisoblash. Ma'lumotlarni grafik va jadval shaklida berilishi. Guruhlash. Balansli. Evristik metod.

3-chizma. Korxonaning iqtisodiy tahlil usullari.

Ular iqtisodiy tahlil orasida va boshqa fanlarda ham axborotlarni qayta ishlash va o'rganish uchun keng qo'llaniladigan (taqqoslash, grafik, balans, o'rtacha va nisbiy miqdorlar, analitik guruhlash, instrumentar moliyaviy hisoblashlar, intuitsiya asosida iqtisodiy vazifani evristik yechish metodlari, o'tmish tajribasi, mutaxassislarining ekspert bahosi, an'anaviy mantiqiy usullarni ajratish mumkin. Hozirgi vaqtda, mutlaqo qandaydir fanga taalluqli uslub va usullarni asoslash juda qiyin, chunki tadqiqotning turli sferalarida ilmiy instrumentariylarning o'zaro kirishib ketishi kuzatiladi.

Omllarning xo‘jalik yuritish natijalariga va rezervlar hisobiga ta‘sirini o‘rganish uchun tahlilda determinatsiyalashgan va stoxastik omilli tahlil usullari, iqtisodiy masalani maqbul yechish metodlari qo‘llaniladi. U yoki bu usulning qo‘llanilishi tahlilning maqsadi va chuqurligiga, tadqiqot obyekti, analitik hisoblashlarni bajarish texnik imkoniyatlari va boshqalarga bog‘liq.

Iqtisodiy tahlil instrumentariysini takomillashtirish juda katta ahamiyatga ega va analitik ishlarning asosiy muvaffaqiyati hamda samaradorligi hisoblanadi. Inson o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatiga qanchalik chuqur kirib borsa, tadqiqotning aniq metodlariga talab ortadi. Bu barcha fanlar uchun tegishlidir. So‘nggi yillarda fanning barcha sohalarida tadqiqot metodikasi yanada mukammallashti. Tadqiqotning matematik metodlaridan foydalanish iqtisodiy fanning muhim yutuqlaridan biri bo‘lib, korxonaning faoliyati natijalarini belgilovchi omillarning yanada ko‘lamdor kompleksini tadqiq qilishga imkon beradi, hisoblashlar aniqligini oshiradi. Uning sharofati bilan ko‘p o‘lchamli va maqbul vazifalarni hal qilish, ilmiy asoslangan boshqaruv qarorlari qabul qilish uchun asos yaratuvchi imkon paydo bo‘ldi.

Omilli tahlil metodikasi

Korxonalar xo‘jalik faoliyatidagi barcha hodisa va jarayonlar o‘zaro aloqador, o‘zaro bog‘liq va o‘zaro shartlangandir. Ular bir-biri bilan o‘zaro bevosita yoki bilvosita bog‘liq bo‘ladi. Masalan, operatsion faoliyatidan foyda hajmi mahsulotlar birligi narxi va tannarxiga, savdo hajmi va strukturasi bog‘liq. Barcha boshqa omillar ushbu ko‘rsatkichga bilvosita ta‘sir qiladi.

Tahlilda har bir hodisani sabab sifatida ham, natija sifatida ham ko‘rib chiqish mumkin. Masalan, mehnat unumdorligini, bir tomondan, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishi sababi, uning tannarxi darajasi sifatida, boshqa tomondan esa – ishlab chiqarishni mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish darajasi o‘zgarishi natijasi, mehnatni tashkil qilish takomillashtirilishi va boshqalar tarzida ko‘rib chiqish mumkin.

Har bir natijaviy ko‘rsatkich ko‘p sonli omillarga bog‘liq. Natijaviy ko‘rsatkich kattaligiga omillar ta‘siri qanchalik batafsil tadqiq qilinsa, tahlil natijalari va korxonalar mehnat sifatini baholash shunchalik aniq bo‘ladi. Shuning uchun xo‘jalik faoliyati tahlilida o‘rganilayotgan iqtisodiy ko‘rsatkichlar kattaligiga omillar ta‘sirini o‘rganish va o‘lchash muhim metodologik masala hisoblanadi. Omillarni chuqur va har

tomonlama o‘rganmasdan faoliyat natijalari haqida asoslangan xulosalar qilish, ishlab chiqarish rezervlarini aniqlash, reja va boshqaruv qarorlarini asoslash mumkin emas.

Omili tahlil – bu natijaviy ko‘rsatkichlar darajasiga omillar ta’sirini kompleks hamda tizimli tadqiq qilish jarayonidir.

Omili tahlil turlari		
	→	1. Determinatsiyalangan va stoxastik
	→	2. To‘g‘ri va teskari
	→	3. Bir darajali va ko‘p darajali
	→	4. Statik va dinamik
	→	5. Retrospektiv va istiqbolli (prognoz)

4-chizma. Omili tahlil turlari.

Determinatsiyalashgan omili tahlil - natijaviy ko‘rsatkichlar bilan aloqasi funksional tavsif kasb etuvchi omillar tadqiq metodikasini o‘zida aks ettiradi. Stoxastik tahlil esa natijaviy ko‘rsatkich bilan aloqasi, funksionaldan farqli ravishda, noto‘liq, ehtimoliy (korrelatsion) hisoblanuvchi omillar ta’sirini o‘rganadi. Agar argument o‘zgarishiga funksional (to‘liq) bog‘liqlikda doimo funksiyalarning mutanosiblikda o‘zgarishi sodir bo‘lsa, u holda argument o‘zgarishining stoxastik aloqasida ushbu ko‘rsatkichni aniqlovchi boshqa omillar uyg‘unligiga bog‘liqlikda funksiyalar o‘rishining bir nechta qiymatini berishi mumkin. Masalan, mehnat unumdorligi ayni bir xil darajali fond bilan qurollangan turli korxonalarda bir xil bo‘lmasligi mumkin. Bu natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir qiluvchi boshqa omillarning maqbul uyg‘unligiga bog‘liq.

Tadqiqot metodikasi bo‘yicha to‘g‘ri va teskari omili tahlil farqlanadi. To‘g‘ri omili tahlil deduktiv usulda – umumiydan xususiyga tomon amalga oshiriladi. U o‘rganilayotgan natijaviy ko‘rsatkich kattaligini shakllantiruvchi omillarni kompleks tadqiq qilish maqsadida olib boriladi. Teskari omili tahlil sabab-oqibat aloqalarini mantiqiy induksiya usuli bilan tadqiq qiladi – xususiy, alohida omillardan umumiyga, sababdan oqibatga. Ko‘plab natijaviy ko‘rsatkichlarning o‘rganilayotgan omil o‘zgarishiga ta’sirchanlik darajasini baholashga imkon beradi.

Omillarni detallashtirish darajasiga ko‘ra tahlil bir darajali va ko‘p

darajali bo‘lishi mumkin. Birinchi shakli omillarning faqat bir darajasini (bir pog‘onani), ularning tarkibiy qismlar bo‘yicha detallashtirmasdan tadqiq qilish uchun foydalaniladi, masalan, $Y = a \cdot v$. Ko‘p darajali omilli tahlilda omillarning mohiyatini o‘rganish maqsadida ularlarning a va v tarkibiy elementlariga nisbatan detallashtirishga olib boriladi. Omillarni detallashtirish kelgusida ham davom ettirilishi mumkin. Ushbu holatda tobelanishning turli darajalariga ega omillar ta’siri o‘rganiladi.

O‘rganilayotgan hodisalar holat belgisiga ko‘ra statik va dinamik omilli tahlil farqlanadi. Statik tahlil muayyan sanaga natijaviy ko‘rsatkichlarga omillarning ta’sirini o‘rganishda qo‘llaniladi. Boshqa ko‘rinish sabab-oqibat aloqalarini dinamikada tadqiq qilish metodikasini o‘zida aks ettiradi, va nihoat, vaqt belgisi bo‘yicha omilli tahlil retrospektiv bo‘lishi mumkin, u o‘tgan davr va istiqbol uchun xo‘jalik faoliyati natijalaridagi o‘zgarishlar sababini o‘rganib, istiqbolda natijaviy ko‘rsatkichlar darajasiga omillar ta’sirini tadqiq qiladi.

Omilli tahlilning asosiy bosqichlari:

1) o‘rganilayotgan natijaviy ko‘rsatkichlarning tahlili uchun omillarni saralash;

2) klassifikatsiya va tizimlashtirish omillarining maqsadida ta’minlangan tizimli yondashuv va ularni o‘rganish;

3) omilli va natijaviy ko‘rsatkichlar o‘rtasida o‘zaro aloqalarni modellashtirish;

4) omillar ta’sirini hisoblash va o‘zgarishidagi natijaviy ko‘rsatkich kattaliklari har birining ahamiyatini baholash;

5) iqtisodiy jarayonlarni boshqarish uchun omilli modeldan amaliy foydalanish.

2.3. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan usullar va ularni guruhlariga ajratish

Iqtisodiy tahlil jarayonida turli usullar va metodikalar qo‘llaniladi. Bu usul va metodikalardan foydalanish jarayonida tahlil metodining asosiy jihatlarini kompleksligi va tizimlashganligi yaqqol ko‘rinadi. Xo‘jalik jarayonlarining umumiy birligi, o‘ziga xos tuzilish va tarkibga egaligi hamda murakkab tavsifdagi o‘zaro bog‘liqligi tahlil usullari va metodikalarini qo‘llashda asosiy e’tiborda turadi.

Tahlilning usul va metodikalarini qo‘llashda korxonaning xo‘jalik

va boshqa turdagi faoliyatini bir butun tizim ekanligi, uning umumiy yakuniy natijasi mavjudligi nazarda tutilgan holda faoliyatning turli tomonlari va elementlari ham alohida, ham birgalikda o'rganilib, ularning o'zaro bog'liqligi, biri ikkinchisining ta'siridan kelib chiqishi, ya'ni ketma-ketligi aniqlanib, barcha omillar asosiy hamda asosiy bo'lmagan guruhlarga bo'linadi va ular o'zaro uyg'unlashtirilgan hamda tizimga solingan holda yakuniy natijaga omillarning birgalikdagi bevosita va bilvosita ta'siri hisoblanadi.

Tahlil usullarini qo'llash o'rganilayotgan jarayonlarning bir-biriga bog'liqligi, o'zgarish sababi, ta'sir ko'rsatgan omillar va qo'shimcha sabablarni aniqlashga yordam beradi.

Hozirgi raqobatdosh iqtisodiyotda aksariyat yetuk iqtisodchi olimlarimiz tahlilning usullarini iqtisodiy adabiyotlarda shartli ravishda ikki guruhga ajratib ko'rsatishmoqda. Iqtisodiy tahlilning usullarini quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhi.
2. Iqtisodiy - matematik (omilli tahlil) usullar guruhi.

Oddiy-an'anaviy (odatdagi) usullar guruhiga iqtisodiy tahlil paydo bo'lgandan buyon an'anaga aylanib, amaliy tajribada keng qo'llanilib kelayotgan usullar kiritiladi. Ularning tarkibiga mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash, taqqoslash, guruhlantirish, balansli bog'lanish, zanjirli bog'lanish, indeks, foizlar va hokazo usullarni kiritishimiz mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy-matematik usullarni yuzaga kelishi esa iqtisodiy axborotlarni qayta ishlovchi kompyuterlar hamda axborot texnologiyalarini rivojlanishi bilan bog'liq. Ushbu usullar iqtisodiy axborotlarni hisoblash va qayta ishlash jarayonini tezlashtirib, ularni qisqa muddatda boshqaruv xodimlariga uzatish hamda murakkab masalalarni tez va aniq hal qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korrelatsiya, regressiya, integral, nazariy o'yin, matematik dasturlash va shu kabilar iqtisodiy-matematik usullarga misol bo'ladi.

Xo'jalik jarayonlarini o'rganish, tahlil etishda yangi usul va vositalardan foydalanish iqtisodiy tahlilni takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu ma'noda tahlilda qo'llaniladigan iqtisodiy-matematik usullarni ham ushbu qatorga kiritish mumkin (3-jadval).

Tahlilda qo‘llaniladigan iqtisodiy-matematik usullar va ularni qo‘llash o‘rni

T/R	Usullarning nomi	Izoh
1	2	3
1	Korrelatsion-regratsion tahlil usuli	O‘zgaruvchi birlikka ta’sir etuvchi, o‘zaro aloqadorlik va bog‘lanishdagi alohida belgining boshqa belgilar ta’sirida o‘zgarishlarini aniqlash
2	Logorifmlar usuli	Natijaviy ko‘rsatkichga ta’sir etuvchi ko‘plab omillarning ta’sirini aniqlashning matematik ifodaga solinishi
3	Determinantlar usuli	Yakuniy ifodaga ta’sir etuvchi bir omilning ikkinchi omilni tug‘diruvchi va ularning alohida tarkiblanishi
4	Matritsalar usuli	Yakuniy ifoda va natijaviy ko‘rsatkichlarga ta’sir etuvchi omillarni juftlik, birlik va ko‘plik koefitsiyentlarda aniqlash
5	Chiziqli programma-lashtirish usuli	Xo‘jalik jarayonlarini funksiya va cheklanishlarda qatorli tarzda programmalashtirish va ularni boshqarish bo‘yicha muqobil qatorlardan eng optimal variantini aniqlash
6	Nazariy o‘yin usuli	Ijtimoiy, ekologik, texnologik shartlarni hisobga olgan holda boshqarishni bir xil darajada saqlashning shartlarini belgilash
7	va hokazo usullar...	

Iqtisodiy-matematik usullarni qo‘llash asosida:

- tahlilni bajarish muddati tezlashadi;
- o‘zgarishlar va ularning ta’sirini aniq hisoblash mumkin bo‘ladi;
- oddiy-an’anaviy usullar bilan hisoblab bo‘lmaydigan murakkab omillar va ko‘p omilli ko‘rsatkichlarni to‘liq o‘rganish imkoni tug‘iladi;
- har bir ta’sir etuvchi omilning miqdor va sifat jihatlarini aniq ko‘rsatib berish imkoniyati tug‘iladi;
- hisoblash texnikalaridan foydalanish osonlashadi va hokazolar.

2.4. Iqtisodiy tahlilda taqqoslash usuli

Taqqoslash – inson atrof-muhitni anglay boshlagan usullardan biri bo‘lib, undan doimo foydalaniladi. Uning muhimligi quyidagi naqlda ham qayd qilinadi: «Barcha narsa qiyoslashda anglanadi». Bu usul iqtisodiy hodisalar tadqiqida ham keng tarqaldi: baholash uchun

qo'llaniladigan har bir ko'rsatkich, har bir raqam, nazorat va prognoz xuddi shunday boshqalar bilan taqqoslashdagina ahamiyatlidir.

Taqqoslash mohiyati – turdosh obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik yoki farqlarni aniqlash maqsadida qiyoslashdir. Ular yordamida umumiy va xususiy iqtisodiy hodisalarni taqqoslash ishlari bajariladi, o'rganilayotgan obyektlar darajasida o'zgarishlar, tendensiyalar va ularning rivojlanishi qonuniyatlari, ular o'rtasidagi sabab-oqibat aloqalari o'rnatiladi.

Texnologik taqqoslash bir nechta bosqichdan iborat: taqqoslanadigan obyektlarni tanlash, taqqoslash shaklini tanlash (dinamik, makoniy va b.), taqqoslash ishlari bazasini tanlash (o'tgan davr, hisobot davr rejasi, etalon korxonalar va boshqalar), obyektlarni qiyoslash amalga oshiriladigan ko'rsatkichlar sonini tanlash, taqqoslash shkalasini tanlash.

Iqtisodiy tahlilda qiyosiy tahlilning quyidagi shakllari farqlanadi: gorizontal va vertikal, dinamik va statik, bir o'lchovli va ko'p o'lchovli.

Gorizontal qiyosiy tahlil o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini bazaviydan (reja, o'tgan davr, o'rtacha daraja, fan va ilg'or tajriba yutuqlari) absolut va nisbiy og'ishlarini aniqlash uchun foydalaniladi.

Vertikal qiyosiy tahlil yordamida iqtisodiy hodisalarning strukturasi va jarayonlarning qismlari hamda umumiy solishtirma salmog'ini hisoblash yo'li bilan (o'z kapitalining umumiy kapitaldagi solishtirma salmog'i), butun va qism nisbatlari (masalan, o'z va qarz kapitali, asosiy va aylanma kapital), shuningdek, omillarning natijaviy ko'rsatkichlarning darajasiga ta'sirini mutanosib omilning oldingi va keyingi o'zgarishlari miqdorlariga taqqoslash yo'li bilan o'rganiladi.

Trend tahlil o'rganishda bazis yil darajasiga nisbatan qator yillar uchun nisbiy o'sish sur'ati va ko'rsatkichlarning o'sishini o'rganishda qo'llaniladi, ya'ni ko'rsatkichlar dinamikasining asosiy tendensiyalari tadqiq qilinadi.

Dinamik taqqoslash o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning davriy o'zgarishini o'rganish uchun qo'llaniladi, statik taqqoslash – turli xo'jalik subyektlari bir davr bo'yicha ko'rsatkichlar darajasini baholash uchun.

Bir o'lchovli tahlilda bir obyektning bir yoki bir nechta ko'rsatkichlari bo'yicha yoki bir nechta obyektlarni bir ko'rsatkich bo'yicha taqqoslash ishlari bajariladi.

Ko'p o'lchamli qiyosiy tahlil yordamida bir nechta korxonalar (bo'linmalar) keng spektrli ko'rsatkichlar bo'yicha faoliyat natijalari taqqoslanadi.

Taqqoslash bazasiga bog‘liqligiga ko‘ra u quyidagi turlarga ajratiladi (4-jadval).

4-jadval

Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan taqqoslashning asosiy turlari

Taqqoslash turlari	Taqqoslash maqsadi
1. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini reja ma‘lumotlari bilan qiyoslash	Reja bajarish darajasini nazorati va baholash, uni jadallik darajasini, foydalanilmagan ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlash
2. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini tasdiqlangan me‘yor va standartlar bilan qiyoslash	Resurslardan tejamli foydalanishni nazorat qilish
3. Ko‘rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini o‘tgan yillar ma‘lumotlari bilan qiyoslash	Iqtisodiy hodisalar va jarayonlarning rivojlanish tendensiyalari va sur‘atlarini belgilash
4. Tahlil qilinayotgan korxonaning ko‘rsatkichlar darajasini sohaning yetakchi korxonalar faoliyati ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash	Korxonaning raqobatdoshligini baholash va uning faoliyati natijalarini yaxshilash rezervlarini aniqlash
5. Tahlilga tortilgan korxonaning ko‘rsatkichlar darajasini sohaning korxonalar faoliyati o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan qiyoslash	Bozordagi o‘sha sohaning boshqa korxonalari o‘rtasidagi korxonaning holatini aniqlash va uni raqobatdoshligi va tadbirkorlik risklarini baholash
6. Parallel va dinamik qatorlarni qiyoslash	O‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasida aloqa shakllari mavjudligi va yo‘nalishini belgilash
7. Boshqaruv qarorlari turli variantlarini qiyoslash	Qarorning yanada optimal variantini tanlash
8. Qandaydir omil o‘zgarishidan avvalgi va keyingi faoliyat natijalarini qiyoslash	Faoliyat natijalari ta‘sirchanligiga o‘rganilayotgan omillar o‘zgarishi darajasini baholash
9. Tadqiq etilayotgan davrda turli ko‘rsatkichlarning o‘shish sur‘atlarini qiyoslash	Tahlil qilinayotgan korxonada iqtisodiy qonunlar namoyon bo‘lishi xarakterini o‘rganish
10. Turli davrda bir ko‘rsatkichning o‘shish sur‘atini qiyoslash	Bir soat, smena, ish kuni, yil davomida resurslardan foydalanish to‘liqligiga ularning ta‘sirchanligini baholash

Avval qayd qilinganidek, iqtisodiy tahlilning vazifalaridan biri tizimli nazorat va qo‘yilgan maqsadlarga erishish bo‘yicha korxonalar faoliyatini har tomonlama baholash hisoblanadi. Bunda haqiqatdagi ma‘lumotlarni rejadagi bilan taqqoslash zarurligiga shartlangan. Bunday

taqqoslash oy, chorak yoki yil rejasini bajarish darajasini aniqlashga, mo'ljal parametrlardan og'ishni aniqlash, yechimini talab qiluvchi muammolarni aniqlashga imkon beradi.

5-jadval

-----oy uchun mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha rejaning bajarilishi

Mahsulot turi	Ishlab chiqarish hajmi, mln so'm.		Rejadan og'ishish (+;-)	
	reja	haqiqatda	mutlaq, mln so'm.	nisbiy, %
A	300	327	+27	+9,0
B	250	225	-25	-10,0
va hokazo				
JAMI:	550	552	+2	+0,4

O'tgan davr haqiqatdagi ma'lumotlari reja ko'rsatkichlarining asoslanganligini tekshirish uchun foydalaniladi. Buning uchun o'tgan 5-6 yil haqiqatdagi ma'lumotlarining o'rtachasi joriy yilning reja ma'lumotlari bilan qiyoslanadi.

5-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shundan darak beradiki, reja bo'yicha A turdagi mahsulot ishlab chiqarish yetarlicha asoslangan hisoblanadi. B turdagi mahsulot esa to'rt davr o'rtachasidan oshiqcha bo'lib, bozor talabiga ham mos tushmagan. Shuning uchun mazkur ko'rsatkich +39 (250-211) mln.so'mga ko'p belgilangan. Joriy yil rejaviy ko'rsatkichlarini bajarilish holatini 6-jadvaldan bilib olsa bo'ladi.

6-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish (taqqoslama narxlarda,) mln so'm

Mahsulot TURI	O'tgan yillar				To'rt davr uchun o'rtachasi	Reja (kelgusi davr)
	1	2	3	4		
A	280	300	300	320	300	300
B	200	205	218	221	211	250
va hokazo						
Jami:	480	505	518	541	511	550

Ko'rsatkichlarning haqiqatdagi darajasini rejadagi bilan qiyoslash korxonada faoliyati samaradorligini oshirishda foydalanilmagan rezervlarni aniqlash uchun ham zarur. Agar reja bo'yicha qandaydir tadbir bajarilmagan bo'lsa, u holda buni mahsulot ishlab chiqarish o'sishida, uning tannarxini pasaytirish, foyda va rentabelligi o'sishini foydalanil-

magan rezervlari sifatida ko‘rib chiqish mumkin. Misol uchun, aniq B mahsulot bo‘yicha innovatsion chora-tadbirlar rejasining bajarilishi (7-jadval).

7-jadval

Innovatsion chora-tadbirlar rejasining bajarilishi, mln so‘m

Tadbirlar	Reja bo‘yicha	Haqiqatdagi	Rejadan mutlaq og‘ishish (+;-)	Reja bajarilishi (+;-), %
Uskunalar modernizatsiyasi	30	22	-8	- 26

O‘rganilayotgan holatga yangi texnologiyalar joriy etish va uskunalar modernizatsiyasi bo‘yicha reja bajarilmagan. Ushbu omillarning mehnat unumdorligi o‘shishiga ta‘sirini bilgan holda, shunga bog‘liq ravishda mahsulotlar hajmi qanchalik kamayganini hisoblash qiyin emas.

Iqtisodiy tahlilda u yoki bu ko‘rsatkichlar bo‘yicha erishilgan darajasini istiqbolli reja-prognoz ma‘lumotlari bilan taqqoslash ham muhim ahamiyatga ega. Bunday taqqoslash istiqbolli reja bajarilishi jarayonini, haqiqatdagi natijalarning kutilgandan og‘ishini va kelgusi davr vazifalarini oldindan ko‘rishga imkon beradi.

Analitik ishlar amaliyotida haqiqatdagi natijalarni tasdiqlangan norma va standartlar bilan taqqoslashda keng foydalaniladi (8-jadval), u mahsulot ishlab chiqarish resurslarini tejaliishi yoki sarfi oshganligini aniqlash, ulardan ishlab chiqarish jarayonida foydalanish samaradorligini baholash va mahsulot ishlab chiqarish o‘shishi va uning tannarxini pasaytirishda foydalanilmagan imkoniyatlarni aniqlash uchun zarur.

8-jadval

Korxonaning material resurslaridan foydalanilishiga oid ma‘lumotlar

Resurslar turi	Resurs xarajatlari, t		Me‘yordan og‘ishish (+;-)	
	me‘yor bo‘yicha	haqiqatda	mutlaq	foizda
Neft mahsulotlari	600	615	+15	+2,5
xomashyo	1200	1176	-24	-2,0
yoqilg‘i	2500	2750	+250	10,0
va hokazo				

Iqtisodiy tahlilda ham haqiqatda erishilgan natijalarni o‘tgan davr ma’lumotlari bilan taqqoslash juda ko‘p qo‘llaniladi. Bu o‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar o‘zgarishlariga oid sur’atlarni baholashga va iqtisodiy jarayonlar rivojlanishi tendensiyalari va qonuniyatlarini aniqlashga imkon beradi.

9-jadval

Asosiy ko‘rsatkichlar dinamikasi

Yillar	Mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi		Ishchilar soni		Bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot	
	mln. so‘m	bazis yilga nisbatan % da	kishi	bazis yilga nisbatan % da	ming so‘m.	bazis yilga nisbatan % da
2003	830	-	1094	-	758,7	-
2004	910	9.6	1087	-0.7	837,2	+10,3
2005	930	2.2	1075	-1.2	865,1	+3,3
2006	1150	1.2	1064	-1.1	1080,8	+24,9
2007	1200	4.3	1000	-6.1	1200,0	+11,0

9-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, mahsulot ishlab chiqarish hajmi o‘sish, ishchilar soni esa kamayish tendensiyasiga ega. Bu o‘sish va kamayish mehnat unumdorligini bazis yilga nisbatan ortishiga sabab bo‘lgan.

Korxonada tegishli ko‘rsatkichlarni texnika, texnologiya va ishlab chiqarishni tashkil qilish sohasida erishilgan eng yaxshi natijalar bilan taqqoslash biznes samaradorligini oshirish rezervlarini izlashga yo‘naldirilgan bo‘ladi. Bunda ichki korxonalar va korxonalararo taqqoslash bo‘lishi mumkin. Korxonaning ichida ko‘rsatkichlarning o‘rtacha darajasini uning alohida segmentlari yutuqlari bilan taqqoslash ishlari olib boriladi va ularning muvaffaqiyati sabablari o‘rganiladi. Korxonalararo qiyosiy tahlil jarayonida tahlil qilinayotgan korxonaning ko‘rsatkichlari mavjud eng yaxshi natijalarga, xo‘jalik yuritishning bir xil boshlang‘ich sharoitlariga ega yetakchi korxonalar ko‘rsatkichlari bilan taqqoslanadi. Tahlil qilinayotgan korxonaning faoliyat natijalarini raqobatdosh korxonalar ma’lumotlari bilan taqqoslash katta ahamiyatga ega.

Korxonalararo taqqoslash quyidagi maqsadda olib boriladi:

- korxonalar va o‘xshash korxonalaridagi faoliyat natijalari qanday nisbatlanishini rahbariyatga ko‘rsatish;
- biznesning kuchli va kuchsiz tomonlariga rahbariyat e’tiborini jalb qilish;

- korxonaning faoliyat samaradorligini baholash va uning strategik va taktik siyosatiga tuzatishlar kiritish uchun rahbariyatga obyektiv baho berish.

Korxonalararo qiyosiy tahlil sohasida eng soʻnggi yutuq bu – benchmarking. Bu nafaqat xususiy sohaning, balki boshqa sohalardagi fan va amaliyot yutuqlariga asoslangan yetilib kelayotgan muammolar haqida oldindan ogohlantiruvchi tizimdir. U raqobatda ustunlikka erishish va uni saqlash uchun talab qilingan axborotlarni olish instrumenti sifatida foydalaniladi. Benchmarking korxonalar va yetakchilar oʻrtasida erishilgan natijalardagi tafovut mohiyatini tushunishga koʻmaklashadi. Menejerlarni yangiliklarni izlashga yanada undaydi, innovatsion faoliyat uchun baza hosil qiladi. Yuqori rahbariyatga xususiy biznesda strategik va taktik boshqaruv qarorlari boʻyicha ortda qolishni bartaraf etishga maqbullashtirishga, mahsulot va xizmatlar bozorida yetakchi oʻrin egallashga koʻmaklashadi.

Korxonalarni taqqoslash bevosita va bilvosita boʻlishi mumkin. Raqobat va tijorat siri tufayli raqobatdosh korxonalar kamdan-kam axborot ayirboshlashadi. Shuning uchun bir korxonaning holati bilan boshqasini oʻrtasida bevosita taqqoslash oʻtkazish doimo ham mumkin boʻlmaydi – odatda, muayyan soha boʻyicha eʼlon qilingan oʻrtacha statistik maʼlumotlarga yoki aksionerlik jamiyati va masʼuliyati cheklangan jamiyat hisobotiga asoslangan bilvosita taqqoslash bilan cheklanishga toʻgʻri keladi.

Tahlil qilinayotgan korxonalar koʻrsatkichlarining haqiqatdagi darajasini soha boʻyicha (vazirlik, birlashma, konsern) oʻrtacha koʻrsatkichlar bilan qiyoslash ham iqtisodiy tahlilda katta ahamiyatga ega. Bunday taqqoslash tahlil qilinayotgan ushbu sohaning, korxonaning boshqa xoʻjalik subyektlari oʻrtasida reytingini aniqlash, korxonaning rivojlanishi darajasini yanada toʻliq va obyektiv baholash, uning xoʻjalik faoliyati natijalarini belgilovchi umumiy va oʻziga xos omillarni oʻrganish, operatsion va moliyaviy risk darajasini baholash uchun zarur.

Parallel va dinamik qatorlarni qiyoslash turli koʻrsatkichlar oʻrtasida aloqa shakllari va yoʻnalishlarini aniqlash va asoslash uchun foydalaniladi. Shu maqsadda koʻrsatkichlardan birini tavsiflovchi raqamni oʻsuvchi yoki kamayuvchi tartibda ranjirlash va shunga bogʻliq ravishda boshqa tadqiq etilayotgan koʻrsatkichlarni qay tarzda oʻzgarishini koʻrib chiqish zarur.

10-jadvalda qishloq xoʻjalik ekinlari va tuproq hosildorligi

bo'yicha tumanning 10 fermer xo'jaligiga oid ranjirlangan ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu ma'lumotlarni o'rganish o'rganilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida chambarchas aloqa mavjudligini tasdiqlaydi: tuproq sifati oshganda don ekinlari hosildorligi o'sadi.

10-jadval

Don ekinlari hosildorligining tuproq sifatiga bog'liqligi

Xo'jalik nomeri	Tuproq sifati , ball	Hosildorlik, ts/ga
1	31	40
2	32	42
3	33	43
4	34	43
5	35	44
6	36	44
7	37	46
8	38	47
9	39	48
10	40	48

Boshqaruv qarorlarining turli variantlarini qiyoslash oldindan tahlilda reja va boshqaruv qarorlari asoslangan holda keng qo'llaniladi. Qaror qabul qilishda uning barcha ehtimoliy variantlarini ko'rib chiqish va qo'yilgan maqsadlarga yanada samarali usulda erishilishini ta'minlovchi eng yaxshi variantini tanlash uchun zarur.

Turli ko'rsatkichlarning o'sish sur'atlarini tadqiq qilinayotgan vaqt davri uchun qiyoslash iqtisodiy tahlilda konkret sharoit va konkret vaqt intervalida iqtisodiy qonunlarning namoyon bo'lish xarakterini o'rganish uchun foydalaniladi. Misol uchun, mehnat unumdorligini oshib borish qonuni mehnat unumdorligi o'sish sur'atlarini mehnat haqi o'sish sur'atidan yuqoriroq bo'lishini hamda shu tartibda davom etishini talab qiladi. Korxonaning iqtisodiy barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun korxonada tushumining o'sish sur'atlari uning aktivlarining o'sish sur'atlaridan, foydasining o'sish sur'atlari esa – tushum o'sish sur'atlaridan yuqoriroq bo'lishini talab qiladi. Agar bu qonunga doimo rioya qilinsa, u holda korxonada o'zining bozor pozitsiyasini mustahkamlash uchun yaxshi istiqbolga ega yoki aksincha.

Turli vaqt davrlari uchun ayni bir ko'rsatkichning o'sish sur'atlarini qiyoslash resurslardan turli vaqt kesimida (yil, kvartal, oy, kun, soat) foydalanish to'liqligini baholashga imkon beradi. Misol uchun,

agar o‘rtacha soatlik ishlab chiqarish o‘sinh sur‘ati o‘rtacha kunlik ishlab chiqarish o‘sinh sur‘atidan oshsa, u holda bu ish vaqtining ichki smena yo‘qotishlari o‘shidan guvohlik beradi. Agar kunlik ishlab chiqarish o‘sinh sur‘ati o‘rtacha yillik ishlab chiqarish o‘sinh sur‘atidan yuqori bo‘lsa, u holda bu kun bo‘yi rejadan ortiqcha ish vaqti yo‘qotishlariga izoh bo‘la oladi.

Omillar ta‘sirini hisoblash, rezervlar miqdorlarini aniqlashda ham muayyan omilni ishlab chiqarish vaziyati o‘zgarishlaridan oldin va keyin faoliyat natijalari qiyoslashda keng qo‘llaniladi.

2.5. Ko‘rsatkichlarni taqqoslama ko‘rinishga keltirish usullari

Tahlilda rioya qilish muhim shartlardan biri – ko‘rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta‘minlashdir, sifat jihatidan esa bir xil kattaliklarni qiyoslash mumkin.

Ko‘rsatkichlarning taqqoslanuvchan emasligi turli sabablarga ko‘ra kelib chiqishi mumkin: turli narxlar mavjudligi, faoliyati hajmi; struktura o‘zgarishlar; mahsulotlar sifati bir xil emasligi; taqqoslanayotgan ko‘rsatkichlar uchun tanlangan vaqt kesimi har xilligi; faoliyatning bir xil bo‘lmagan boshlang‘ich sharoiti (texnik, tabiiy, iqlim va b.); ko‘rsatkichlarni hisoblashning usullari turlichaligi; korxonaning hisob siyosatining o‘zgarishi. O‘rganilayotgan ko‘rsatkichlar taqqoslanuvchanligini ta‘minlash uchun yuqorida sanalgan omillar bo‘yicha ularning yagona bazaga olib kelish zarur.

Birinchi navbatda barcha qiymat ko‘rsatkichlarning kattaligiga ta‘sir ko‘rsatuvchi (ishlab chiqarilgan va sotilgan mahsulotlar qiymati, tushum, tannarx, foyda, material xarajatlari hajmi, zaxiralar, asosiy vositalar) inflatsiya bilan aloqadorlikda narx o‘sinhini e‘tiborga olmoq zarur. Ushbu omilning ta‘sirini xolislantirish uchun, taqqoslanayotgan ko‘rsatkichlar bir xil narxda ifodalanadi.

Misol uchun, yalpi mahsulotlar chiqarish taqqoslanuvchanligini ta‘minlash uchun uning hisobot va bazis davrlardagi fizik hajmi va bazis davr narxlarida ifodalanadi:

$$I_{YaM} = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0}$$

bu yerda: q_x va q_0 – i- ko‘rinishdagi mahsulotlarning mos ravishda hisobot va bazis davrlardagi ishlab chiqarishning miqdor hajmi; r_0 – i- ko‘rinishdagi mahsulotlarning bazis davrdagi narxi.

Misol uchun (11-jadval) haqiqatdagi yalpi mahsulotlar chiqarishning o‘shishi quyidagiga teng:

$$\Delta_{YaM} = \frac{1060 - 970}{970} \times 100 = 9,3 \%$$

Agar u turli qiymatli baholashni e‘tiborga olmay aniqlansa, u holda o‘shishning orttirma ko‘rsatkichini olamiz:

$$\Delta_{YaM} = \frac{1154 - 970}{970} \times 100 = 19\%$$

11-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi

	O‘tgan davr			Hisobot davr			Hisobot davri uchun bazis davr narxlarida ishlab chiqarish hajmi		
	miqdor, dona	narx, so‘m	summa, ming so‘m	miqdor, dona	narx, so‘m	summa, ming so‘m	miqdor, dona	narxi, so‘m	summa, ming .so‘m
A	10 000	27,25	272,5	12 000	30	360	12000	27,25	327
B	5000	37,50	187,5	6000	39	234	6000	37,50	225
V	20000	25,50	510,0	20000	28	560	20000	25,50	510
va b.									
Jami:	–	–	970,0			1154,0			1060,0

Korxonaning faoliyat ko‘lamidagi o‘zgarishlar tufayli ko‘plab ko‘rsatkichlar o‘zaro taqqoslanmas bo‘lishi mumkin. Misol uchun, agar hisobot yili mahsulot ishlab chiqarish xarajati summasini bazis davrdagi mazkur ko‘rsatkich ($\sum q_{00} + a_0$) bilan taqqoslasak, u holda ushbu ko‘rsatkichlarning farqlanishi nafaqat mahsulotlar tannarxi darajasini o‘zgarishi bilan balki hajmidagi mahsulot ishlab chiqarish miqdori o‘zgarishlari bilan ham shartlangan bo‘ladi. Xarajatlarni taqqoslanuvchan ko‘rinishga olib kelish uchun hajmli omillar ta‘sirini xolislantirish zarur. Buning uchun bazis davr xarajatlarining o‘zgaruvchan summasi hisobot davrida haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qayta hisoblash va shundan so‘ng buni hisobot davr xarajatlari summasi bilan taqqoslash zarur (12-jadval):

Hajm omilining va korxonaning xarajat summasiga ta'sirini neytrallash

Mahsulotlar turi	Mahsulotlar birligiga vaqtinchalik xarajatlar, ming so'm		Hisobot davrida haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi, dona.	Hisobot davri haqiqatdagi ishlab chiqarish hajmiga vaqtinchalik xarajatlar summasi, mln so'm.	
	b ₀	b ₁		q ₁ b ₀	q ₁ b ₁
A	25	22	12000	300	264
B	33	30	6000	198	180
Jami:	–	–	–	498	444

Doimiy xarajat summasi: o'tgan davr – 300 mln so'm.;
hisobot davri – 320 mln so'm.

$$I_{YaM} = \frac{\sum q_1 b_1 + a_1}{\sum q_1 b_0 + a_0};$$

$$(444+320/498+300) \times 100 = 95,7\%.$$

bu yerda: **b** – *i*- ko'rinishdagi mahsulotlar birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar;

a – mahsulot hajmiga bog'liq bo'lmagan, lekin tadqiq davri uchun mahsulot ishlab chiqarishga tegishli doimiy xarajatlar.

Sifat omili ta'sirini aniqlashtirish uchun mahsulotlar hajmi miqdorini mos ravishda standart sifat ko'rsatkichiga nisbatan qayta hisob-kitob qilinadi yoki standart sifatga keltiriladi. Misol uchun – standart sut yog'liligi holatini mahsulot hajmini o'zgarishiga ta'siri (13-jadval). Jadvaldan ko'rinib turibdiki, sut yog'liligini hisobga olgan holda hisoblangan ko'rsatkichlar sifat omilini xolislantirishsiz aniqlangan ko'rsatkichlardan jiddiy farq qiladi: sut ishlab chiqarish hajmi yog'lilik hisobga olinmagan holdagisi o'tgan yildan 20 % yuqori, bazis yog'lilikka qayta hisoblashda –13,1 % ga, uning yog'liligi hisobga olinmay haqiqatdagi sut tannarxi 660 so'mni tashkil etadi, bazis yog'lilikka qayta hisoblashda – 680 so'm. Birinchi holatda u 10 % ga, ikkinchisida – 16,6% ga oshdi, demak, sifat ko'rsatkichi asosida turli sifatdagi bir xil mahsulotlarni to'g'ri taqqoslash va o'rganish imkoniyati bo'lar ekan.

**Sut sifatini uni ishlab chiqarish hajmi va tannarxga
ta'sirini neytrallash**

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Hisobot davri	O'tgan davrga nisbatan hisobot davrida, %
Sut ishlab chiqarish xarajatlari, ming so'm.	15 000	19 800	132
Sut yog'liligi, %	3,5	3,3	94,3
Bazis yog'lilik, %	3,4	3,4	100
Sut ishlab chiqarish hajmi, s:			
• haqiqatdagi yog'lilik bo'yicha	25 000	30 000	120
• bazis yog'lilik bo'yicha	25 735	29 117	113,1
1 s sut tannarxi, so'm.:			
• haqiqatdagi yog'lilik bo'yicha	600	660	110
• bazis yog'lilik bo'yicha	583	680	116,6

Iqtisodiy tahlilda mahsulotlarning jami mahsulot hajmi tarkibidagi salmog'i yoki strukturasi o'zgarishi ham mazkur ko'rsatkichlarni o'zaro taqqoslashda ayrim noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Shuning uchun taqqoslanayotgan ko'rsatkichlarni bir xil strukturaga keltirish uchun, haqiqatdagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis davr strukturasi qayta hisoblanishi zarur.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va strukturasi

Mahsulotlar turi	Baho, so'm	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, dona.		Mahsulotning egallagan salmog'i, %		Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm.			Farqi (+;-)
		Biznes-reja	Hisobot yili	Biznes-reja	Hisobot yili	Biznes-reja	Qayta hisoblangan mahsulot	Hisobot yili	
1	2	3	4	5	6	6	7	8	9
	P ₀	Q ₀	Q ₁	S ₀	S ₁	Q ₀ P ₀	$\Sigma Q_1 P_0 S_0 / 100$	Q ₁ P ₀	8-7
A	30	5000	5300	22,3	22,6	150000	156813,6	159000	2186,4
B	20	7800	7940	34,8	33,8	156000	163142,4	158800	- 4342,4
S	15	9600	10200	42,9	43,5	144000	150836,4	153000	2163,6
Σ	x	22400	23440	100	100	450000	470792,4	470800	7,6

Bu yerda: qp – mahsulot ishlab chiqarishning umumiy hajmi;
s – umumiy ishlab chiqarishda i-ko'rinishdagi mahsulotlarning solishtirma salmog'i ;
p – i- ko'rinishdagi mahsulotlar narxi.

Keltirilgan misolda (14-jadval) ishlab chiqarish strukturasi o'zgaradi va uning ta'sirida A va S mahsulotlar ulushi ortdi, B mahsulot esa kamaydi, natijada mahsulot ishlab chiqarish hajmi qiymat ifodasida 7,6 ming so'mga ortdi. Bu korxonada faoliyatining yanada obyektiv bahosi, chunki mehnat sig'imi bo'yicha uchala mahsulot ham bir xil.

Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun turli usullardan foydalaniladi. Misol uchun, mutlaq kattalik o'rniga o'rtacha yoki nisbiy kattaliklarni qo'llab, qator hollarda ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligiga erishish mumkin. Korxonalarining ishlab chiqarish bazasini hisobga olmasdan mahsulot ishlab chiqarish hajmi, foyda summasi va boshqa mutlaq ko'rsatkichlarni qiyoslash mumkin emas, lekin mutlaq kattaliklar o'rniga nisbiy, misol uchun, bir ishchi tomonidan ishlab chiqarigan mahsulot, aktivlarning ming so'miga to'g'ri keladigan foyda summasi va shu kabilar. Ushbu holda bunday taqqoslash butunlay to'g'ri sanaladi.

Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun tuzatish koeffitsiyentlari ham keng qo'llaniladi. Xususan, ko'rsatkichlarning metodik nomutanosibligiga nisbatan e'tiborli bo'lish lozim. U nafaqat taqqoslash natijalarini, balki umuman voqelik ma'nosini o'zgartirib yuborishi mumkin. Misol uchun, fond qaytimi asosiy vositalarning jami summasi bo'yicha, ishlab chiqarishga mo'ljallangan asosiy vositalar bo'yicha yoki faqat ularning aktiv qismi bo'yicha hisoblanishi mumkin. Shuning uchun, xulosalar to'g'riligini ta'minlash uchun ularni hisoblash metodikasi bo'yicha ko'rsatkichlar bir xilligiga erishish lozim.

Ko'rsatkichlarni taqqoslashda ularning taqqoslanuvchanlik bo'yicha tabiiy-iqlim sharoitlarini ta'minlash juda muhim. Xususan, bu qishloq xo'jaligi uchun juda dolzarb masala sanaladi. Korxonalarining turli tabiiy-iqtisodiy zonalarda bo'lishi mahsulot yetishtirishga, vaqtinchalik va doimiy xarajatlar darajasiga, mahsulotlar mehnat sig'imi va boshqalarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Shu omil bo'yicha ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun iqlimiy va hududiy xususiyatlar bilan shartlangan ko'rsatkichlarning o'sish ulushi ajratiladi, keyin esa ularning ta'siri bartaraf etiladi.

Ayrim ko'rsatkichlarning mavsumiy tavsifiga e'tibor qaratish zarur. Misol uchun, tovar zaxiralari mavsumgacha jamlanadi, qishki davr uchun ozuqa zaxiralari yaratiladi, korxonaning ishchan faolligi davrida kapital aylanuvchanlik koeffitsiyenti o'sadi. Ayrim hollarda

ko'rsatkichlarning taqqoslanuvchan emasligi korxonaning hisob siyosatidagi o'zgarishlari bilan ham kelib chiqishi mumkin. Xususan, amaldagi me'yoriy hujjatlar bir ma'noga ega ko'rsatkichlarni turli usullar bilan shakllantirish mumkinligiga yo'l qo'yadi. Misol uchun, asosiy vositalarga eskirish hamda nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblashni turli metod va usullarining mavjudligi; iste'mol qilingan ishlab chiqarish zaxiralarini baholash metodini o'zgartirish (NIFO, FIFO, LIFO) va boshqalar kiradi.

Xulosa qilib aytganda, ko'rsatkichlarni taqqoslanuvchan shaklga keltirishning asosiy usullari qiymat, hajm, sifat va struktura omillarning ta'sirini ularni yagona bazisga keltirish yo'li bilan xolislantirish, shuningdek, foydalanish o'rtacha va nisbiy kattalik, tuzatish koeffitsiyentlari, qayta baholash metodlaridan foydalanish va shu kabilar hisoblanadi.

2.6. Mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblash usuli

Iqtisodiy tahlilda ko'rsatkichlarni o'rganish mutlaq miqdorlardan foydalanishdan boshlanadi. Misol uchun, mahsulot ishlab chiqarish hajmi (natural va qiymat o'lchovlarida), tovar aylanish hajmi, mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, yalpi tushum, ishchilar soni va hokazo. Mutlaq ko'rsatkichlar hodisa birliklarning o'lchov, og'irlik, hajm, davomiylik, maydon, qiymat va boshqa hodisalarning o'lchamiga nisbatsiz miqdoriy o'lchovini aks ettiradi, nisbiy esa – kattaliklar o'rganilayotgan hodisa va kattaliklarning boshqa davr yoki boshqa obyekt bo'yicha olingan qandaydir boshqa hodisa yoki kattaliklarga nisbatini ifodalaydi.

Mutlaq miqdorlarsiz tahlil ishlarini amalga oshirib bo'lmaydi. Iqtisodiy tahlilda mutlaq miqdorlar voqelikni bilish, tushunish, o'qish va o'rtacha hamda nisbiy ko'rsatkichlarni hisoblashda asosiy axborot bazasi bo'lib foydalaniladi. Shuningdek, mutlaq o'zgarish iqtisodiy tahlilda muayyan ko'rsatkichni avvalgi davrlarga nisbatan mutlaq miqdordagi farqlarini ko'rsatib beradi (15-jadval).

Nisbiy ko'rsatkichlar bir xil tur va mazmundagi ko'rsatkichlarni o'zaro nisbatini aniqlab foiz, koeffitsiyent, indeks ko'rinishida aks ettirib beradi. Ushbu usul reja bajarilishi, o'sish sur'atlari hamda salmog'lar asosida voqeliklarni tarkibiy tuzilish holati kabilarni o'rganishda keng qo'llaniladi (15-jadval). Nisbiy ko'rsatkichlar bir kattalikni boshqasiga bo'lish natijasida olinadi va u taqqoslash bazasiga qabul qilinadi. Bu

reja, bazis yil, boshqa korxonaning, o‘rtacha sohaviy ma’lumotlari bo‘lishi mumkin. Nisbiy kattaliklar koeffitsiyentlar (baza 1) yoki foizlar (baza 100) shaklida ifodalanadi.

15-jadval

«Mustaqillik» fermer xo‘jaligi mulkining tahlili

№	Mol-mulkning tarkibi	Yil boshida		Yil oxirida		O‘zgarishi (+,-)		
		Ming so‘m	%	Ming so‘m	%	Ming so‘m	%	Yil boshiga nisbatan %
1	Uzoq muddatli aktivlar	251184	73,7	265548	71,7	14364	-2,0	5,7
2	Joriy aktivlar	89545	26,3	104694	28,3	15149	2,0	16,9
	Shu jumladan:							
a	Tovar moddiy zaxiralar	7946	2,3	12216	3,3	4270	1,0	53,7
b	Pul mabag‘lari va qimmatli qogozlar	834	0,2	-	-		-0,2	0,0
d	Debitorlar	80765	23,7	92478	25,0	11713	1,3	14,5
	Balans aktivining jami:	340729	100	370242	100	29513	0,0	8,7

Ushbu jadvalda «Mustaqillik» fermer xo‘jaligining mulki, ham mutlaq, ham nisbiy ko‘rsatkichlar asosida hisob-kitob qilingan.

Xo‘jalik faoliyati tahlilida nisbiy kattalikning turli shakllari qo‘llaniladi: makoniy taqqoslash, rejaviy topshiriq, reja bajarilishi, dinamika, struktura, koordinatsiya, intensivlik, samaradorlik.

Makoniy taqqoslash nisbiy kattaligi ayni bir davr yoki bir vaqt momenti bo‘yicha olingan turli obyektlarga tegishli ko‘rsatkichlarning darajasini taqqoslash natijasida olinadi.

Rejaviy topshiriqni taqqoslash nisbiy kattaligi ko‘rsatkichni joriy yil rejaviy darajasining o‘tgan yil haqiqatdagi yoki 3-5 yil oldingi o‘rtachasi darajasiga nisbatini o‘zida aks ettiradi.

Reja bajarilishi nisbiy kattaligi – ko‘rsatkichning hisobot davrining haqiqatdagi va rejaviy darajasi o‘rtasida foizlarda ifodalangan nisbatida ifodalanadi.

Dinamika nisbiy kattaligi qandaydir vaqt oralig‘ida ko‘rsatkichlarning o‘zgarishlarini tavsiflash qo‘llanilishi uchun va joriy davr ko‘rsatkichlari kattaliklarini uni oldingi davr (oy, kvartal, yil) darajasiga bo‘lish yo‘li bilan aniqlaydi. Ular o‘sish sur‘ati deb aytiladi va odatda, foiz yoki koeffitsiyentlarda ifodalanadi. Dinamikaning nisbiy kattaliklari bazis va zanjirli bo‘lishi mumkin.

Struktura ko'rsatkichi – bu qismning umumdagi ulushi (solishtirma salmog'i) bo'lib, foiz yoki koeffitsiyentlarda ifodalanadi. Misol uchun, umumiy ekin maydonida donli ekinlar solishtirma salmog'i, korxonaning xodimlari umumiy miqdorida ishchilarning solishtirma salmog'i, korxonaning aktivlari shakllanishida o'z kapitalining solishtirma salmog'i va shu kabilar.

Koordinatsiya nisbiy kattaligi bir qism va umumiy ko'rsatkichning o'zaro nisbatini o'zida aks ettiradi, misol uchun asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari, o'z hamda qarz kapitali va boshqalar.

Intensivlik nisbiy kattaligi biror hodisaning muhit bilan mutanosiblikda rivojlanishi darajasini ko'rsatadi. Misol uchun, xodimlar va ishchilar tarkibida yuqori malakali ishchilar foizini oshib borishi va shu kabilar.

Samaradorlik nisbiy kattaligi – bu foydalilikni resurslar yoki xarajatlar bilan nisbatini ifodalab beradi. Misol uchun, mahsulot sotishdan olingan foydani ishlab chiqarish xarajatlarning bir birligiga to'g'ri kelishi va hokazo.

2.7. Iqtisodiy tahlilda o'rtacha miqdorlardan foydalanish

Iqtisodiy tahlilda xususiyydan umumiyga, tasodifdan qonuniyatga o'tishda mutlaq, nisbiy ko'rsatkichlar bilan birgalikda o'rtacha miqdorlar asosida voqeliklarni o'rganish ham muhim rol o'ynaydi, chunki, ushbu usulda bir xil turdagi yalpi ya'ni ko'p sonli iqtisodiy voqeliklar matematik hisob-kitoblar bilan yagona o'rtacha miqdorga keltiriladi. Bu jarayonda bir turdagi yalpi voqeliklarni o'ziga xos xususiyyati hamda jihatlariga jiddiy e'tibor qaratiladi, chunki, voqeliklarni har tomondan bir xil bo'lishi bu borada kelib chiqishi mumkin bo'lgan tasodifiy holatlarni oldini oladi. Natijada o'rtacha miqdorlarning aniqligi yanada oshadi. O'rtacha miqdorlarni keltirib chiqarishda zaruriyat yoki talabga ko'ra turli xil hisob-kitob shakllari – o'rtacha arifmetik, o'rtacha kvadratik, o'rtacha xronologik, o'rtacha geometrik va shu kabilardan foydalaniladi. Bir turdagi ko'p sonli voqealarni o'rtacha miqdori va ularni o'zgarishini bilish o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonlar rivojlanishining umumiy yo'nalishi hamda qonuniyligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

IT da turli o'rtacha miqdorlar qo'llaniladi. Ular quyidagilardir (16-jadval):

Iqtisodiy tahlilda qo'llaniladigan o'rtacha miqdorlar

O'rtacha arifmetik (Oddiy)	$\bar{X} = \frac{X_1 + X_2 + \dots + X_n}{N} = \frac{\Sigma X}{N}$	X voqeliklar bir yoki teng marta takrorlangan paytda qo'llaniladi. Misol uchun, ishchilarning (N) o'rtacha ish haqini (X) topish.
O'rtacha arifmetik (Tortilgan)	$\bar{X} = \frac{X_1 F_1 + X_2 F_2 + \dots + X_n F_n}{F_1 + F_2 + \dots + F_n} = \frac{\Sigma X F}{\Sigma F}$	X ₁ voqelik bir necha marta (F ₁) takrorlansa, ular o'zaro shuncha marta qo'shib hisoblanmay, takrorlanish miqdoriga (X ₁ F ₁) ko'paytirilib topiladi. Natija esa takrorlanishlar (ΣF) soniga bo'linadi. Misol uchun, 20 kishining (F ₁) har biri 50 kg dan paxta (X ₁) terdi, 40 kishi (F ₂) esa 60 kg. dan paxta (X ₂) terdi. Har bir kishi o'rtacha qancha paxta terganligi aniqlanadi.
O'rtacha xronologik	$\bar{X} = \left(\frac{1}{2}x_1 + x_2 + \dots + \frac{1}{2}x_N\right)/(N-1)$	Voqeliklarni sodir bo'lish intervallari bir xil bo'lganligi inobatga olinib, muayyan davrdagi o'rtacha aniqlanadi. Misol uchun, ombordagi mahsulotlarning oy oxiriga yoki boshiga qoldiqlarini o'rtacha miqdorlari topiladi.
O'rtacha geometrik	$\bar{X} = \sqrt[n]{X_1 * X_2 * \dots * X_n}$	Voqeliklar o'zgarishi koeffitsiyentlarda aniqlanib, koeffitsiyentlar asosida o'rtacha miqdor topiladi. Misol uchun, baho o'zgarishlarining o'rtacha o'zgarishi aniqlanadi.
O'rtacha kvadratik	$\bar{X} = \sqrt{\frac{\Sigma X^2}{N}}$	Oddiy arifmetik o'rtachani yanada aniqlikda hisoblab topish uchun zarur.

ITda o'rtacha miqdordan foydalanishda ommaviy ma'lumotlarga asoslangan holda hodisalarning umumlashma tavsifini berishini hisobga olish lozim. Ularning kuchi ham, nuqsoni ham shunda. Ko'pincha yomon bo'lmagan umumiy o'rtacha ko'rsatkichlar ichida yomon ishlovchi brigada, sex va boshqa xo'jalik bo'linmalari natijalari yashirin bo'ladi. O'rtacha olingan ma'lumotlarda korxonaning alohida segmentlari yutuqlari ham ko'rinmaydi. Shuning uchun tahlilda ularni o'rtacha guruh, ayrim hollarda esa individual ko'rsatkichlar bilan to'ldirib, o'rtacha miqdor mazmunini yoritish zarur.

2.8. Guruhlashtirish usuli

Iqtisodiy tahlil korxonada faoliyatida ko‘p sonli voqeliklarni guruhlashtirish usuli bilan tartibga solib o‘rganadi. Bunda voqeliklarni ijtimoiy-iqtisodiy tabiati chuqur tadqiq etilib, ularning bir turdagi xususiyatlari, jihatlari va miqdorlari aniqlanib, shu mezonlar bo‘yicha guruhlar va kichik guruhlariga ajratiladi. Ta’kidlash kerakki, voqeliklar tasodifiy belgilariga ko‘ra guruhlariga bo‘linmaydi. Bu holat tahlil natijalariga jiddiy ta’sir etadi.

Voqeliklarni tashkil etuvchi tarkib, tuzilish hamda tartibi ularning o‘zgarish sababi hamda o‘zgartiruvchi asosiy omillarining birgalikda yuzaga chiqishi hamda o‘zaro bog‘liqligi asosida ko‘rsatkichlarni guruhlashtirish uchun ilmiy asoslangan belgilar topiladi. Xo‘jalik jarayonlarini belgilar bo‘yicha guruhlariga ajratish bilan har bir guruhga tegishli boshqa voqeliklarni aniqlash, o‘rganish, ularning o‘ziga xos tomonlarini topish hamda guruhdagi turli voqeliklarni o‘zaro aloqalari, bog‘liqliklari va ta’sirini bilish, shu asosda guruh bo‘yicha bir necha jarayonlarning birgalikdagi rivojlanishining yo‘nalishi hamda qonuniyligi aniqlanadi. Demak, korxonada faoliyatidagi voqeliklarni tuzilishi va o‘zaro bog‘liqliklarini o‘rganish maqsadida barcha ko‘rsatkichlarni ilmiy asoslangan belgilariga ko‘ra ajratib, ajralgan muayyan bo‘lakga tegishli voqeliklarni alohida tarzda o‘rganish usuli guruhlashtirishning mazmunini tashkil etadi. Shu joyda ta’kidlab o‘tish kerakki, alohida olingan guruhlarini o‘rganish natijasida olingan xulosalar iqtisodiy tahlilda belgilab olingan umumiy maqsad va vazifalardan kelib chiqib sintez qilinadi.

Iqtisodiy tahlilda guruhlashtirish maqsadi va vazifasiga ko‘ra: tipologik, tuzilish va omilli guruhlariga ajratiladi.

Tipologik guruhlashtirish – bir turdagi voqeliklarni umumiy belgi bo‘yicha bo‘laklarga ajratishdir. Misol uchun, korxonalarni mulkchilik shakli bo‘yicha (davlat, qo‘shma, AJ, xususiy va shu kabilar) yoki korxonadagi barcha xodimlarni (asosiy va yordamchi ishchilar, injener-texnik xodimlar, xizmatchilar va shu kabilar) kategoriyalari bo‘yicha guruhlashtirish.

Tuzilish bo‘yicha guruhlashtirish - ko‘rsatkichlarni ichki tuzilishi va ularning alohida qismlarini mutanosibligini o‘rganishga qaratilgan. Umumiy ishchilar tarkibida - ishchilarning malakasi, ma’lumoti, ish staji, yoshi, jinsi va boshqa belgilari bo‘yicha o‘rganish ushbu guruhlashtirishga misol bo‘la oladi.

Omili (analitik) guruhlashtirish natijaviy ko'rsatkichga (oqibat) ta'sir qiluvchi omil (sabab) bo'yicha tashkil qilinadi. Bunday analitik guruhlashtirishda voqeliklarning bir-birlariga bog'liqliklarini o'rganish maqsadida ko'rsatkichlar birinchisi ikkinchisini keltirib chiqaruvchi taribda tuziladi, ya'ni birinchi ko'rsatkich ikkinchi ko'rsatkichga ta'sir etuvchi omil, o'z navbatida ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkich ta'sirining natijasidir. Misol uchun, guruhdagi xodimlarning ish staji, ularning oylik maoshini o'zgarishiga ta'sir etadi yoki ishlab chiqarish jarayonini texnik va texnologik jihatdan yangilash har bir ishchi tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdorini oshirishga keskin ta'sir etadi.

17-jadval

Texnik va texnologik yangilanish bo'yicha korxonalarni guruhlashtirish

Texnik va texnologik yangilanish bo'yicha korxonalarni guruhlari	Guruhdagi korxonalar soni, dona	Har bir ishchiga to'g'ri keladigan yangilanish xarajatlarining o'rtacha miqdori, ming so'm	Har bir ishchi ishlab chiqargan mahsulotlarning o'rtacha miqdori, mln. so'm
30 mln. so'mgacha	10	404	11
30 - 60	15	670	17
60 - 90	18	798	26
90 mln so'mdan yuqori	20	934	37

Ta'kidlash kerakki, har bir alohida olingan guruhdagi omil hamda natija ko'rsatkichlari, boshqa guruhdagi xuddi shunday ko'rsatkichlardan farq qilishi mumkin, ya'ni birinchi guruhdagi omil ko'rsatkichi ikkinchi guruhda natija ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Demak, omil va natijani ifodalovchi ko'rsatkichlar guruhlar bo'yicha o'zgaruvchan tavsif kasb etadi.

17-jadvalda keltirilgan parallel qatorlardan farqli ravishda - jadvalda guruhlangan material o'rganilayotgan hodisalar o'rtasida o'zaro aloqani yanada yaqqol aks ettiradi. Guruhlashda ko'rsatkichlarning individual kattalıkları o'rtacha guruhlarini almashtiradi. Buning natijasida boshqa omillarning noaniq ta'siri bilan kelib chiqqan turli tasodifiy og'ishlar o'zaro qoplanadi, shuning uchun o'zaro aloqa yanada aniq hisoblanadi.

Shunday qilib, axborotlarni to'g'ri guruhlash ko'rsatkichlar o'rt-

sida bog‘liqlikni, o‘rganilayotgan hodisalarning mohiyatini yanada chuqur anglash, tahlilning materiallarini tizimlashtirish, ularning asosiysi xarakterli va tipiklarini ajratishga imkon beradi .

Korxonada faoliyatini iqtisodiy tahlil etish uchun guruhlashtirish usulini qo‘llashda muayyan talablar e‘tiborga olinishi shart. Misol uchun, tipologik guruhlar tuzishda iqtisodiy qonun-qoidalarga asoslangan guruhlar tuzishga intilish lozim.

Tuzilish bo‘yicha va omilli guruhlashtirishda esa - guruhlar oralig‘i imkon qadar bir-biriga mos bo‘lishi zarur. Shuningdek, guruhlar kichik sondan, yuqoriga borish tartibida tuzilishi, tahlil natijalarining aniqligini ta‘minlash maqsadida guruhlar orasidagi intervallar yaqinroq olinishi, dastlabki va oxirgi guruh chegarasi ochiq, qolgan oraliq guruhlar chegarasi yopiq, ya‘ni boshlang‘ich va oxirgi guruh chegaralari aniq bo‘lishi, barcha o‘rganiladigan obyektlar soni tuzilgan guruhlariga imkon qadar teng taqsimlanishiga rioya qilinishi kerak.

Ushbu ko‘rsatib o‘tilgan talablarga amal qilinishi iqtisodiy tahlil natijalarini to‘g‘ri va aniq bo‘lishida muhim ahamiyatga ega.

2.9. Iqtisodiy tahlilda balans usuli

Balans usuli o‘zaro bog‘liq va tenglangan iqtisodiy ko‘rsatkichlarning ikki guruhi proporsiyalari, nisbatini aks ettirish uchun xizmat qiladi. Bu usul buxgalterlik hisobi va rejalashtirish amaliyotida keng tarqalgan, lekin u iqtisodiy tahlilda ham muayyan ahamiyat kasb etadi, xususan, korxonaning mehnat, moliyaviy resurs, xomashyo, yonilg‘i, material, asosiy ishlab chiqarish vositalari va boshqalar bilan ta‘minlanganligi tahlilida keng foydalaniladi. Misol uchun, korxonaning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligi aniqlash maqsadida, mehnat resurslari bo‘yicha balans tuziladi. Unda, bir tomondan, mehnat resurslariga bo‘lgan ehtiyoj, boshqa tomondan – ularning haqiqatdagi mavjudligi ko‘rsatiladi. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlilida ish vaqtining ehtimoliy fondi haqiqatdagi ishlangan soatlar miqdori bilan taqqoslanadi. Chorvaning ozuqa bilan ta‘minlanganligini aniqlash uchun ozuqa balansi ishlab chiqiladi. Unda, bir tomondan, ozuqaga bo‘lgan rejaviy ehtiyoj ko‘rsatilsa, boshqa tomondan – uning haqiqatda mavjudligi ko‘rsatiladi. Korxonaning to‘lov qobiliyatini aniqlash uchun to‘lov balansi tuziladi, unda to‘lov mablag‘lari va to‘lov majburiyatlari o‘zaro taqqoslanadi.

Qo‘shimcha vositalar sifatida iqtisodiy tahlilda balans metodi natijaviy ko‘rsatkichlar kattaliklari o‘shiga turli omillarning ta‘siri aniqlash to‘g‘riligini tekshirish uchun foydalaniladi. Determinatsiyalashgan tahlilda alohida omillarning ta‘sir kattaliklari algebraik summasi natijaviy ko‘rsatkichning umumiy o‘sh kattaligiga mos kelishi lozim.

Balans usuli additiv omilli model tuzishda foydalanilishi mumkin. Misol uchun, tovar balansi

$$T_a = T_{vb} + T_k - T_{vo}$$

18-jadval

Tovar aylanish hajmi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Tovar hajmi, mln. so‘m.		Rejadan farqi (+;-)	Tovar aylanishi dinamikasiga ta‘siri (+;-)
	Reja	Haqiqatda		
Yil boshiga tovar zaxiralarining qoldig‘i (T_{vb})	104	130	+26	+26
Yil davomida tovarlarning kirimi (T_k)	1200	1298	+98	+98
Tovarlarining yil oxiriga qoldig‘i (T_{vo})	50	57	+2	-2
Tovar aylanishining hajmi (T_a)	1254	1371	+117	+117

Ba‘zan balans usuli alohida omillarning natijaviy ko‘rsatkichining o‘shiga ta‘sir kattaliklarini aniqlash uchun qo‘llaniladi. Masalan, uch omilning ikkitasini ta‘siri ma‘lum bo‘lsa, u holda uchinchi ta‘sirini natijaviy ko‘rsatkichning umumiy o‘shidan dastlabki ikki omillarning ta‘siri natijasini chiqarib tashlab aniqlash mumkin.

2.10. Iqtisodiy tahlilda grafik usuldan foydalanish

Grafiklar ko‘rsatkichlar va sonlarning geometrik belgilar (chiziq-lar, to‘g‘ri burchaklar, aylanalalar) yoki shartli-badiiy figuralar yordamida masshtabli tasvirini o‘zida aks ettiradi. Ular katta illustrativ ahamiyatga ega. Ular vositasida o‘rganilayotgan material yanada tushunarli bo‘ladi.

Tahlilda grafiklarning analitik ahamiyati katta. Jadval materialidan farqli ravishda grafik o‘rganilayotgan hodisaning holati yoki rivojlanishiga oid umumlashma tasvir beradi. Bu bilan raqamli axborot vositasida mavjud qonuniyatlarni ko‘rib qayd qilish imkoniyati mavjud

bo'ladi. Grafikda o'rganilayotgan ko'rsatkichlarning tendensiyalari va aloqa yanada ravshan kuzatiladi.

Iqtisodiy tahlilda axborotlarni grafik shakliga keltirishda asosan diagrammalar qo'llaniladi. O'z shakli bo'yicha ular ustunli, chiziqli, aylana, zanjirli, nuqtali, silindrik, konus, piramidali bo'ladi. Mazmuniga ko'ra diagrammalar taqqoslash, strukturali (sektorli), dinamik, aloqa grafigi, nazorat grafigi tarzida farqlanadi

Taqqoslash diagrammalari turli obyektlarni qandaydir ko'rsatkich bo'yicha nisbatini ko'rsatadi. Ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun yanada oddiy ko'rgazmali grafiklardan, ustunli va chiziqli diagrammalardan foydalaniladi. Ularni tuzish uchun to'g'ri burchakli koordinat tizimlari qo'llaniladi. Ustunli diagrammalarda absissa o'qlari barcha obyektlar uchun bir xil hajmda ustunlar asosiga joylashtiriladi. Konus, silindr yoki piramida ko'rinishida ma'lumotlar markerlari diagrammalarga yanada yaxshi shakl beradi.

Ba'zan taqqoslash diagrammalari kvadrat yoki aylana ko'rinishida keltiriladi, ularning maydoni ko'rsatkichlarning kattaligiga mutanosib taqsimlanadi.

Strukturali (sektorli) diagrammalar ko'rsatkichning umumiy kattaligida tarkibiy qismlarning solishtirma salmog'ini ifodalashga imkon beradi. Ularda ko'rsatkichning tasviri sektorlarga ajratilgan geometrik figuralar (kvadrat, aylana, halqa) ko'rinishida beriladi, maydoni 100 yoki 1 deb olinadi. Kattalik sektori qismlar solishtirma og'irligi bilan aniqlanadi. Halqali diagramma aylanaga o'xshash, lekin undan farqli o'laroq bitta emas, balki bir nechta ma'lumotlar qatorini aks ettirishi mumkin.

Tahlilda bir vaqtda hodisalarning hajmi va ularning strukturasi aks ettirish uchun ustunli va chiziqli diagrammalar keng qo'llaniladi.

Dinamika diagrammalari mutanosib vaqt oralig'ida hodisalarning o'zgarishlarini aks ettirish uchun mo'ljallangan. Ushbu maqsadda gistogrammalar, chiziqli, figurali va boshqa grafiklar qo'llaniladi. Amaliyotda chiziqli grafiklar ko'proq qo'llaniladi. Dinamika ushbu grafikda jarayonning uzluksizligini tavsiflovchi chiziqlar ko'rinishida keltiriladi.

Abssissa o'qlariga davrlar, ordinata o'qlariga – qabul qilingan masshtabdan kelib chiqib mutanosib vaqt kesimida ko'rsatkichlarning darajasi joylanadi.

Chiziqli grafiklar (aloqa grafiklari) ham ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalarni o'rganishda juda keng qo'llaniladi.

Nazorat grafiklari iqtisodiy tahlilda reja bajarilib borishiga oid ma'lumotlarni o'rganishda keng qo'llaniladi. Bu holatda grafikda ikki chiziq bo'ladi: har bir kun yoki boshqa vaqt kesimi uchun ko'rsatkichlarning rejaviy va haqiqatdagi darajasi, ular o'zaro taqqoslandi.

Zamonaviy kompyuter texnologiyalari ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonida grafik tuzishni ancha osonlashtiradi va kontrast, masshtab, estetik jihatidan ularning sifatini oshiradi. Hozirgi vaqtda analitika vazifasi – ma'lumotlarni grafik taqdim etishning yanada qulay shakllarini tanlashdan iborat.

2.11. Zanjirli bog'lanish usuli

Iqtisodiy tahlilda o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishi va mazkur o'zgarishni yuzaga keltirgan asosiy omillarning turi hamda ularning alohida olingan ta'sir miqdorlari aniq hisob-kitob qilinadi. Bu bilan natijaviy ko'rsatkichning o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qildi hamda ularning har birini ta'sir miqdori qanchani tashkil etdi, degan savolga oydinlik kiritiladi. Ushbu turdagi masalalarni hal qilishda zanjirli bog'lanish usulidan keng foydalaniladi. Ta'kidlash kerakki, zanjirli bog'lanish usulida tahlil qilinayotgan ko'rsatkichlar o'zaro qat'iy funksional bog'liqlikda bo'lishi talab etiladi, ya'ni bir yoki bir necha ko'rsatkich ta'sirida natijaviy ko'rsatkich yuzaga chiqishi kerak.

Zanjirli bog'lanish usulida o'rganilayotgan natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etgan omillar tartib asosida aniqlashtirilib, har bir alohida olingan omil o'zining o'zgargan holatini saqlab qolgan holda boshqa omillarni dastlabki holatini shartli o'zgarmas tarzida olib qolib, ya'ni xolislantirib belgilangan matematik amallarni bajarish bilan natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga faqat bir omil (o'zgargan holatdagi omil) ta'siri hisob-kitob qiladi. Hisoblash ishining keyingi jarayonlarida boshqa omillar ham shu tartibda o'rganiladi, faqat yakuniy natijaga ta'siri o'rganilgan omil o'zidan keyingi omilni (yoki omillarni) yakuniy natijaga ta'sirini hisoblashda xolislantirilmaydi, balki, ular haqiqiy o'zgarish holatida olinadi, chunki, dastlabki bosqichda ta'siri hisob-kitob qilingan omil (yoki omillar) yakuniy natija o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatib bo'lgan deb qaraladi. Ushbu tartib oxirgi omilning yakuniy natijaga ta'sirini hisob-kitob qilgunga qadar davom etadi. Shu usulda har bir omil bosqichma-bosqich almashtirilib, ularning yakuniy

natijaga ta'siri alohida-alohida aniqlanadi, hisoblangan ta'sir miqdorlari o'zaro qo'shib yoki ayrilganda (bu holat vaziyatga ko'ra amalga oshiriladi) yakuniy natijani o'zgarish miqdoriga teng bo'ladi. Mana shu tartibdagi hisob-kitoblar zanjirli bog'lanish usuliga xos bo'lib, uning mazmunini tashkil etadi. Zanjirli bog'lanish usuli mohiyatini amaliy misolda yanada yaqqolroq ko'rish mumkin.

19-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki korxonada jami material xarajatlari rejaga nisbatan haqiqatda 120,0 ming so'mga ko'p bo'lgan. Ushbu natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga material miqdori hamda bir dona material bahosining o'zgarishi ta'sir ko'rsatgan. Bu ikki omil ta'sirini hisoblash uchun quyidagi hisoblash ishlari bajariladi.

19-jadval

Zanjirli bog'lanish usulining jami material xarajati o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashda qo'llanilishi

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja ma'lumotlari	Haqiqatdagi ma'lumotlar	Farqi (+,-)
1. Material miqdori, dona	30	32	+2
2. Bir dona materialning bahosi, ming so'm	92,0	90,0	-2,0
3. Material xarajati, ming so'm	2760,0	2880,0	+120,0

1. Birinchi omilni o'zgarish holati olinadi (32 dona), ikkinchi omil shartli o'zgarimas deb qaralib (92,0 ming so'm), u xolislantiriladi.

$$92,0 \cdot 32 = 2944,0 \text{ ming so'm}$$

Ushbu tartib bilan shartli material xarajati ko'rsatkichi (2944,0 ming so'm) hisoblab topildi.

Material xarajatlarning biznes-rejadan ortiq sarflanishiga:

2. Material miqdorini me'yordan ortiqcha sarflanganining ta'siri:

$$(92,0 \cdot 32) - (92,0 \cdot 30) = +184,0 \text{ ming so'm}$$

Material miqdorini me'yordan +2,0 (32-30) dona ko'p sarflanishi +184,0 ming so'mga xarajatni oshirgan.

3. Bir dona material bahosining o'zgarishi ta'siri:

$$(90,0 \cdot 32) - (92,0 \cdot 32) = -64,0$$

Bir dona material bahosining -2,0 (92,0-90,0) ming so'mga o'zgarishi -64,0 ming so'mga jami material xarajatini oshirgan.

4. Ikkala omilning ta'siri:

$$+184,0 - 64,0 = 120,0 \text{ ming so'mga teng.}$$

Zanjirli bog‘lanish usulida faqat natijaviy ko‘rsatkichga faqat ikki omil ta’sir miqdori o‘rganilmaydi, balki uch va undan ko‘p bo‘lgan omillarning ta’siri ham hisob-kitob qilinadi. Ushbu hisob-kitob modelini 20-jadvalda ko‘rsa bo‘ladi.

$$(A_1-A) - (A_2-A_1) - (A_3-A_2) - (A_4-A_3) = A_4-A$$

Ushbu modelni aniq misolda o‘rganib chiqamiz. Ma’lumki, mahsulot hajmi o‘zgarishiga ishchilar soni, ishlangan kishi kunlari, soatlari, bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi kabi omillar ta’sir qiladi. 21-jadvalda mahsulot hajmi o‘zgarishiga qayd etib o‘tilgan omillar ta’sir miqdori hisoblanib topiladi.

20-jadval

Ko‘p omillar ta’sir miqdorini zanjirli bog‘lanish usulida hisob-kitob qilish modeli

Tartib raqami		Bir-biriga ta’sir etuvchi ko‘rsatkichlar (Omillar)				Umumlashtiruvchi ko‘rsatkich	Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning o‘zgarishi	
Hisob-lashlar	Almash-tirishlar	A	B	V	G		Alohida olingan omillar ta’sirida	O‘zga-rishlar hisobi
		1	-	Reja	Reja	Reja		
2	1	Haqi-qatda	Reja	Reja	Reja	A ₁ Qayta hisoblangan	A	A ₁ - A
3	2	Haqi-qatda	Haqi-qatda	Reja	Reja	A ₂ Qayta hisoblangan	B	A ₂ - A ₁
4	3	Haqi-qatda	Haqi-qatda	Haqi-qatda	Reja	A ₃ Qayta hisoblangan	V	A ₃ - A ₂
5	4	Haqi-qatda	Haqi-qatda	Haqi-qatda	Haqi-qatda	A ₄ Haqiqatda	G	A ₄ - A ₃

21-jadval

Mahsulot hajmini o‘zgarishiga omillar ta’sirini hisoblash

Bir-biriga ta’sir etuvchi omillar				Mahsulot hajmi, ming so‘m.	Umumlashtiruvchi ko‘rsatkichning o‘zgarishi	
Ishchi-larning o‘rtacha soni, kishi	Bir ishchi ishlagan kishi kunlarining o‘rtacha soni, kishi kuni	Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kunlik o‘rtacha soat	Kunlik o‘rtacha bir soatga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmi, ming so‘m		Alohida olingan omillar ta’sirida	O‘zga-rishlar hisobi
100	267	6,5	2	347100	x	x
107	267	6,5	2	371397	Ishchilar soni	24297

107	260	6,5	2	361660	Kishi kunlari	-9737
107	260	6,8	2	378352	Kunlik o'rtacha soat	16692
107	260	6,8	2,3	435105	Bir soatga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi	56753
x	x	x	x	435105 - 347100	Haqiqatda - Reja	88005

21-jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'lmoqdaki korxonada mahsulot ishlab chiqarish hajmi hisobot yilida o'tgan yilga taqqoslaganda 88005 = (435105 - 347100) ming so'mga ko'paygan. Mazkur ijobiy o'zgarishga 88005 = (+24297) + (-9737) + (+16692) + (+56753) ishchilar soni (+24297), kishi kunlari (-9737), kunlik o'rtacha soat (+16692) hamda bir soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (+56753) ta'sir etgan. Bir ishchiga to'g'ri keladigan kishi kunlarining -7 = (260 - 267) kunga kamayishi mahsulot hajmi o'zgarishiga salbiy ta'sir qilgan. Qolgan boshqa omillar esa natijaviy ko'rsatkich o'zgarishini ijobiy tomonga yo'naltirgan.

2.12. Mutlaq farqlar usuli

Iqtisodiy tahlilda natijaviy ko'rsatkichlar o'zgarishiga omillar ta'sirini alohida aniqlash uchun ko'p turdagi usullar qo'llaniladi. Shulardan biri mutlaq farqlar usulidir. 20-jadvalda qayd etilgan misolni mutlaq farqlar usulida hal etish tartibi quyidagicha bo'ladi.

1. $\Delta Y_{aM_{IS}} = \Delta IS * KK_0 * KS_0 * BS_0 = ((107-100) = 7) * 267 * 6,5 * 2 = 24297$
2. $\Delta Y_{aM_{KK}} = IS_1 * \Delta KK_0 * KS_0 * BS_0 = 107 * ((260-267) = -7) * 6,5 * 2 = -9737$
3. $\Delta Y_{aM_{KS}} = IS_1 * KK_1 * \Delta KS_0 * BS_0 = 107 * 260 * ((6,8-6,5) = 0,3) * 2 = 16692$
4. $\Delta Y_{aM_{BS}} = IS_1 * KK_1 * KS_1 * \Delta BS = 107 * 260 * 6,8 * ((2,3-2,0) = 0,3) = 56753$

Bu yerda: Y_{aM} – yalpi mahsulot; IS – ishchilarning o'rtacha soni; KK - bir ishchi ishlagan kishi kunlarining o'rtacha soni; KS - bir ishchiga to'g'ri keladigan kunlik o'rtacha soat; BS - kunlik o'rtacha bir soatga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi.

$$24297 + (-9737) + 16692 + 56753 = 88005$$

Nisbiy farqlar usuli

Ushbu usul ham omillar ta'sir miqdorini alohida hisoblab topish uchun mo'ljallangan. Uning amalga oshirish tartibi 22-jadvalda keltirilgan.

22-jadval

Nisbiy farqlar usuli

Hisoblash tartibi	Misol
1. $\Delta YaM_{IS} = YaM_0 * (\Delta IS / IS_0)$	$347100 * (7/100) = 24297$
2. $\Delta YaM_{KK} = (YaM_0 + \Delta YaM_{IS}) * (\Delta KK / KK_0)$	$(347100 + 24297) * (-7/267) = 371397 * (-0,026) = -9700$
3. $\Delta YaM_{KS} = (YaM_0 + \Delta YaM_{IS} + \Delta YaM_{KK}) * (\Delta KS / KS_0)$	$(347100 + 24297 + (-9700)) * (0,3/6,5) = 361697 * 0,5 = 16638$
4. $\Delta YaM_{BS} = (YaM_0 + \Delta YaM_{IS} + \Delta YaM_{KK} + \Delta YaM_{KS}) * (\Delta KB / KB_0)$	$(347100 + 24297 - 9700 + 16638) * (0,3/2) = 378335 * 0,15 = 56750$
$24297 - 9700 + 16638 + 56750 = 87985 \approx 88005$	

Natijaviy ko'rsatkich o'zgarishiga ta'sir etgan omillarning har birini alohida miqdorini aniqlovchi usullar bir-birlaridan ayrim jihatlari bilan afzal yoki kamchiliklariga ega.

Mavzu bo'yicha iboralar:

- iqtisodiy tahlil fani metodining tushunchasi;
- tahlil metodining o'ziga xos muhim xususiyatlari;
- iqtisodiy tahlilning iqtisodiy-matematik usullari;
- tahlilning oddiy-an'anaviy usullari;
- taqqoslash usuli;
- guruhlashtirish usuli;
- mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli;
- balansli bog'lanish usuli;
- zanjirli bog'lanish usuli;
- nazariy o'yin usuli;
- integral usuli;
- evristik tahlil usuli;
- chiziqli programmalashtirish usuli;
- indeks usuli;
- matritsalar usuli;
- logarifmlar usuli.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Metod» soʻzining lugʻaviy maʼnosi nimadan iborat?
2. Tahlil fanining metodiga iqtisodchi olimlar qanday taʼrif berishgan?
3. Iqtisodiy tahlil fani metodining oʻziga xos muhim xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Tahlilda qoʻllaniladigan usullar qanday guruhlariga ajratib oʻrganiladi?
5. Mutlaq va nisbiy farqlarni aniqlash usuli va uning mohiyati haqida tushuncha bering?
6. Guruhlashtirish usuli toʻgʻrisida maʼlumot bering?
7. Taqqoslash usuli va uni qoʻllash shartlarini tushuntirib bering?
8. Zanjirli bogʻlanish usulining asosiy xususiyati nimadan iborat?
9. Balansli bogʻlanish usulini tahlil jarayonlarida qoʻllashning afzalliklarini koʻrsatib bering?

Mustaqil oʻrganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Tahlil jarayonida iqtisodiy tahlilning oddiy-anʼanaviy va iqtisodiy-matematik usullarini qoʻllashning afzalliklarini koʻrsatib bering. Qaysi usullardan foydalanilsa, korxonaga uchun samarali natijalar beradi.

2-topshiriq.

Quyidagi maʼlumotlar asosida korrelatsiyali va regressiyali usuldan foydalanib, mahsulot tannarxi bilan mehnat sarfi oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlang, tahlil eting va xulosa yozing.

Aksionerlik jamiyati boʻyicha quyidagi maʼlumotlar berilgan.

Sexlar	Mahsulot birligi tannarxi, soʻm	Bir birlik mahsulotga sarflangan mehnat haqi, soʻm	x_1^2	x_2^2	$X1*X2$
1	2(X1)	3(X2)	4	5	6
1	2400	400			
2	2200	400			
3	2310	410			
4	2390	400			
5	2550	570			
6	2600	530			
7	2800	640			
Jami:					

3-topshiriq.

Quyidagi ma'lumotlardan foydalangan holda tahlilning zanjirli bog'lanish usulini qo'llab, korxonadagi material xarajatlarining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlang hamda xulosa va takliflaringizni bayon eting.

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja	Haqiqatda	Farqi
1	2	3	4
1. Bir birlik mahsulotga sarflangan material miqdori, kg	30	32	?
2. 1 kg. Material qiymati, so'm	920	900	?
3. Bir birlik mahsulotga sarflangan jami material xarajati, so'm	?	?	?

Test savollari:

1. Iqtisodiy tahlil fani metodining o'ziga xos jihati qaysi?

- a) ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish;
- b) metafizika;
- d) dunyoqarash;
- e) hammasi to'g'ri.

2. Tahlil uchun kerak bo'lgan ko'rsatkichlar turi hamda miqdori nimaga bog'liq?

- a) o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning mazmuniga, hajmiga, davriga bog'liq;
- b) o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonga aloqasi yo'q;
- d) o'rganilayotgan iqtisodiy jarayonning shakliga bog'liq;
- e) foydaga bog'liq.

3. Iqtisodiy tahlil metodining o'ziga xos jihatlaridan birini ko'rsating.

- a) tahlil natijasida avvaldan mo'ljallanmagan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin;
- b) tahlil natijasida avvaldan mo'ljallangan yangi ko'rsatkichlar ham hisoblab topilishi mumkin emas;
- d) mavjud ko'rsatkichlar yetarli;
- e) mavjud formulalar yetarli.

4. Odatda tahlil bilan boshlanadi.

- a) taqqoslash;
- b) o'zgarish;
- d) rivojlanish;
- e) hech narsa bilan.

5. Balansli bog'lanish usulida ko'rsatkichlar bir-biri bilan bog'liqlikda bo'lgandagina to'g'ri natija beradi.

- a) funksional;
- b) teskari;
- d) kichikdan-kattaga;
- e) ozdan ko'p tomon.

6. Tahlilda o'zgarish sabablari... ko'rinishida yuzaga chiqadi

- a) sifat;
- b) shakl;
- d) omillar;
- e) yuzaga chiqmaydi.

7. Tahlilning muhim metodologik jihatlaridan biri....

- a) sabab-oqibat aloqalarini o'rganish;
- b) sabab-oqibat aloqalarini o'rganish zarur emas;
- d) evristikani o'rganish;
- e) evristikani o'rganmaslik.

8. Tahlilda tizimli yondashuvning asosiy xususiyati....

- a) dinamizm;
- b) statika;
- d) dogmatika;
- e) egoizm.

9. Tahlil instrumentariysi.

- a) tahlilning texnik uslublari va usullari;
- b) uslubiyat;
- d) tamoyil;
- e) fikrlash.

10. Omilli tahlil...

- a) omillar ta'sirini tahlili;
- b) sabablar tahlili;
- d) masalalar tahlili;
- e) qayta ko'rib chiqish.

III BOB. IQTISODIY TAHLIL ISHLARINI TASHKIL ETISH VA UNING AXBOROT MANBALARI

3.1. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish zaruriyati

O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini yaratish maqsadida iqtisodiy islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirmoqda.

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy va mehnat resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta‘minlashi zarur bo‘ladi, ammo, ko‘pgina korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo‘lga kiritganlaridan so‘ng xo‘jalik yuritishning yangi sharoitlariga tayyor emasliklari ayon bo‘lib qoldi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv subyektlariga faqat axborotga ega bo‘lishning o‘zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo‘ladi. Samarali boshqarishda eng muhimi axborot va undan foydalana bilishdir.

Iqtisodiy axborotlar bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil davomida xo‘jalik faoliyatini o‘rganishda hamda xulosalar chiqarishda asos bo‘ladigan bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi.

Tahliliy ishlarni muvaffaqiyatli, samarali o‘tkazilishi uni har tomonlama o‘ylab, sinchiklab tashkil qilinishiga bog‘liq. Uni o‘tkazilishi ilmiy xarakterga asoslangan va reja asosida amalga oshirilishi lozim. Tahlil ishlari olib borilayotganda, u bir necha bosqichlarni bosib o‘tadi. Ushbu bosqichlarni bosib o‘tish jarayonida har bir bosqichning mazmuni oldindan aniqlanishi kerak va ularning bajarilishi ma‘lum tomonlarga asoslangan bo‘lishi lozim. Asoslanishi lozim bo‘lgan tomonlar esa quyidagilardan iborat:

1. Korxonada faoliyatini tahlil qilish - boshqarishda qaror qabul qildigan har bir rahbar, menejerning xizmat burchidir, bundagi asosiy tamoyil bu tahlil ishlarini bajaruvchilar o'rtasida vazifalarni aniq taqsimlashdan iborat.

2. Ishlab chiqarish tarmoqlarida tahlil ishlarini tashkil qilishda eng zarur tamoyillardan biri uning tejamliligi, ya'ni kam xarajat qilib yuqori samaraga erishish hisoblanadi.

3. Tahlil ishlarini tashkil qilishda yana bir tamoyil uni o'tkazishni nazorat qilib borishdir.

Korxonada iqtisodiy-moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim korxonaning boshqaruv va moliyaviy hisobot shakllarini erkin o'qishni, uning moddalarini tushunishni, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishi kerak. Korxonalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish ixtiyoriylik va amaliyotdagi tajriba hamda talabdan kelib chiqqan holda tahlil ishlari tashkil etiladi. Tahlilni tashkil etishda o'rganiladigan mavzularning ko'lami va ahamiyatiga qarab iqtisodchilar bilan bir qatorda korxonaning barcha mutaxassislari hamda oddiy ishchisigacha ishtirok etishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy tahlilni tashkil etishning zaruriyati hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida yanada ortdi, chunki har bir faoliyatning korxonaga uchun manfaatlilik darajasini aniqlashdan, bu faoliyatning iqtisodiy nuqtayi nazaridan to'g'ri tashkil etilganligiga baho berishdan iboratdir. Iqtisodiy tahlilni korxonada miqyosida to'liq tashkil etishga bevosita javobgar bosh hisobchi yoki korxonada boshqaruvchisi bo'lishi mumkin. Sherik korxonalarda esa bu masalaga bevosita korxonada boshlig'i yoki iqtisodiy masalalar bo'yicha korxonada boshlig'ining muovini shug'ullanishi mumkin bo'ladi.

Korxonalarda sex yoki brigada ma'lumotlari bo'yicha iqtisodiy tahlilni esa shu bo'lim boshliqlari tashkil etishlari kerak bo'ladi.

Viloyat, tuman yoki tarmoqlar bo'yicha ma'lumotlarni umumlashtirib iqtisodiy tahlilni o'tkazishga istiqbolni belgilash va statistik tashkilotlar yoki yuqori tashkilotlar tarkibida tashkil etilgan iqtisodiy tahlil kengashi ish yuritadi.

Boshqaruvning hamma bo'g'inlarida umumiy ishlab chiqarish sohasini samaradorligini oshirishda analitik ishni tashkil etish va iqtisodiy tahlilni roli oshib bormoqda. Ushbu holatdan kelib chiqib iqtisodiy tahlil tashqi va ichki tahlil turlariga bo'linadi.


Korxonada va birlashmalarni ishlab chiqarish xo'jalik faoliyatining tashqi tahlilini quyidagilar olib boradilar:

- ◆ boshqaruvning yuqori organlari;

- ◆ moliya organlari;
- ◆ bank tashkilotlari;
- ◆ soliq organlari va hokazolar.

Yuqori boshqaruv organlari o'z nazorati ostidagi korxonalar va uyushmalarning ishlab chiqarish faoliyatini doimiy ravishda tahlil qilib turishadi. Buning uchun esa reja va hisobot ma'lumotlari, tekshiruv natijalari va boshqa ma'lumotlar kerak bo'ladi.

Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan foydalanib, quyida ishlab chiqarish korxonalarida va birlashmalarida iqtisodiy tahlilni tashkil etishni sxemasini keltirib o'tish mumkin bo'ladi.



3-chizma. Ishlab chiqarish birlashma (korxonalar) larida iqtisodiy tahlilni tashkil etish.

Moliya organlari iqtisodiy tahlil jarayonida korxonalar va birlashmalarning foydalilik rejasini bajarilishiga, davlat budjeti oldidagi majburiyatlariga, korxonaning moddiy va pul resurslarini ratsional taqsimlanishiga, o'z – o'zini moliyalashga va xarid quvvatiga diqqatini qaratadi. Masalan, O'zbekiston Respublikasida faoliyat ko'rsatuvchi tijorat banklari doimiy ravishda kredit olgan korxonalar va birlashmalarining ish faoliyatini hamda asosiy hajm va sifat ko'rsatkichlarini tahlil qilib turishadi, korxonalarda bank kreditlarining ishlatilishini, mehnat haqi fondini, tovar – moddiy qiymatliklar va ularni saqlanish holatini hamda to'lov intizomi holatini tahlil qilib turishadi.

Iqtisodiy tahlil ishlarini korxonalar va birlashmalar olib borishi bilan bir qatorda boshqa tashkilotlar ham olib borishi mumkin: Bularga:

- ◆ rejalashtirish tashkilotlari;
- ◆ ilmiy tadqiqot va loyihalashtirish institutlari;
- ◆ jamoat tashkilotlari;
- ◆ matbuot organlari kiradi.

Ichki tahlilni esa korxonalar va birlashmalarni ishchi xodimlari olib boradi va ularning turli tarkibiy bo'linmalari o'zlariga tegishli funksiyalarni belgilab oladilar. Iqtisodiy tahlil ko'p qirraliligi bilan ajralib turadi. Korxonani hamma faoliyati sferalarida mavjud bo'lgan rezervlarni izlab topish, taqsimlangan majburiyatlarni aniq bajarilishi va uni amalga oshirishda mas'uliyatni his etish lozim bo'ladi.

3.2. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish va o'tkazish bosqichlari

Bozor iqtisodiyoti sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog'liq, odatda, analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funksional organlari, jamoatchilik a'zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy tahlilni tashkil etishning quyidagi bosqichlari keltirib o'tilgan:

◆ ***Tahlil o'tkazishning rejasini va dasturini tuzish bosqichi.*** Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o'tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil

ishlari nima bilan yakunlanishi ko'rsatib o'tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o'tkazish dasturida quyidagilar aniq ko'rsatilgan va belgilanib olingan bo'lishi lozim:

- tahlilning maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyektni aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilarni tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o'tkazish muddatini belgilab olish;
- tahlil manbalari va ularni natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

◆ **Tahlil uchun kerakli bo'lgan manbalarni aniqlash, yig'ish hamda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilash bosqichi.** Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- tahlil uchun zarur ma'lumotlarni aniqlash;
- tahlil manbalarini to'plash;
- qo'shimcha ma'lumotlarni jalb etish;

◆ **To'plangan ma'lumotlarni to'g'riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.** To'plangan manbalarni to'g'riligini tekshirish hamda ishonchliligini aniqlashdan iborat bo'ladi va ushbu manbalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma'lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta'sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

◆ **Bevosita xo'jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.** Bu eng muhim bosqich bo'lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko'rsatkichlar hisoblanadi, o'zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko'rsatkichlarini aniqlash;
- ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarini baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;
- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

◆ ***Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.*** Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxonada faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxonada faoliyatini yaxshilash rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

◆ ***Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichi.*** Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxonada faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatib beriladi, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

3.3. Iqtisodiy tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari

Korxonalarni to'g'ri va oqilona boshqarish uchun turli-tuman ma'lumotlar tizimidan foydalanish zarurki, ular orqali to'g'ri boshqaruv qarorlari qabul qilinishi mumkin. Ma'lumotlar deyilganda iqtisodiy hodisalar, voqealar va xo'jalik jarayonlarini tegishli manbalar orqali aks ettirish, ularni qayta hisoblash va o'rganish, hamda qiziquvchi tashkilotlarga uzatish tushuniladi.

Tahlil uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni mazmuniga qarab quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- ◆ Iqtisodiy ma'lumotlar.
- ◆ Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlar.
- ◆ Ilmiy- texnikaviy ma'lumotlar.
- ◆ Tabiiy- ekologik ma'lumotlar.
- ◆ Tahlil jarayonida foydalaniladigan boshqa ma'lumotlar.

Iqtisodiy ma'lumotlarni biznes-reja, turli xil axborot manbalar, texnologik ma'lumotlar, operativ-texnik, me'yoriy va hisob hujjatlari tashkil etadi. Bu manbalar tahlilda eng ko'p foydalaniladi.

Huquqiy-me'yoriy ma'lumotlarga esa respublikamizda amal qila-

yotgan barcha qonunlar, me'yoriy hujjatlar va normativ aktlarda rasmiylashtirilgan axborotlardan foydalanish tushuniladi.

Ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, eng yangi taraqqiyot, jahondagi o'zgarishlar, fan va texnika yutuqlarini o'zida mujassam etgan axborotlardir. Bu axborotlar tahlil uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Tabiiy-ekologik ma'lumotlar, tabiat, yer, iqlim va boshqa ekologik omillarni mujassamlashtirgan axborotlarni iqtisodiy tahlilda muhim manba sifatida o'rganiladi.

Boshqa manbalarga esa, iqtisodiy, huquqiy, ilmiy-texnikaviy, tabiiy-ekologik manbalarda aks etmagan ma'lumotlar tushunilib, bunga ommaviy axborot vositalari, gazeta va jurnallardagi, radio va televideniya-dagi keltirilgan axborotlardan foydalanish tahlil uchun muhimdir. Ko'plab manbalarni tahlil jarayonlarida qo'llash ularning mazmunini boyitishga, boshqaruv qarorlarini xolisona bo'lishini va korxonalarni bozor iqtisodiyoti sharoitida faol qatnashishiga imkon yaratadi.

Iqtisodiy manbalar boshqa axborotlardan quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- Hujjatlashganligi – barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayd etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi.

- Turli-tumanligi – hodisa va voqealar ko'pgina manbalarda qayd etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir- biridan farqlanadi.

- Ommaviyligi va hajmining kengligi – ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtiradi.

- Ma'lum davrlarda takrorlanib turishligi – tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar muntazam to'lg'azilib tegishli tashkilotlarga topshirilish ko'zda tutiladi, hisobot davrlari – choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar tuziladi.

- Qonunlashganligi va chegaralanganligi – barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, makroiqtisod vazirligi va soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib tuziladi. Bozor iqtisodi sharoitida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishi mumkin.

- Ko'p qirraliligi va sermazmunligi – iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatiladi, boshlang'ich hujjatlarda korxonalar

nomi, imzo chekuvchilarning nasl-nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashadi.

Iqtisodiy ma'lumotlarning aksariyat qismini hisob axborotlari tashkil etib, buxgalteriya, statistika va tezkor hisoblar majmuidan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi ma'lumotlari iqtisodiy tahlil axborotlari tarkibida 70 foizdan ortiq salmoqni egallaydi.

Tahlil uchun kerakli manbalar quyidagi talablarni bajarishi lozim:

1. Haqqoniylik va xolislik tamoyiliga amal qilinadi.
2. Manbalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatli bo'lmog'i lozim, ya'ni reja, hisob va statistik ma'lumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi kerak.
3. Iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o'lchamda aks ettirilishi lozim.
4. Barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi saqlanadi hamda ulardagi axbarotlar bir-birini to'ldirib turishini taqozo etadi.
5. Manbalarga kiritilgan ko'rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlar mosligi zarurdir.

Yuqoridagi talablarga javob beruvchi barcha axborotlar tahlilning aniq bajarilishi, sermavzu bo'lishligiga imkon yaratadi.

Xo'jalik faoliyatini avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida tashkil etish deyilganda, elektron hisoblash mashinalari (kompyuterlar) yordamida va iqtisodiy matematik usullarni qo'llagan holda ishlab chiqarishning muhim sohalarini aniq va to'g'ri boshqarish vazifalarini amalga oshirish maqsadida tashkil etish tushuniladi. ***Bunday amalga oshirish uch xil yo'nalishda bo'lishi mumkin, ya'ni:***

- ◆ Markazlashgan.
- ◆ Markazlashmagan.
- ◆ Aralash.

Xo'jalik faoliyatini tahlil etishning avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida amalga oshirish quyidagi prinsiplarga amal qiladi:

- ◆ Aniq maqsadga ega ekanligi sistemalashganligi.
- ◆ Kompleksligi.
- ◆ Ixchamlashganligi.
- ◆ Uzluksizlik va muntazamlilik.
- ◆ Taqqoslanish imkoniyatini kengligi.
- ◆ Yechim loyihasi aniq va ixchamliligi.

Avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida tahlil etish quyidagi sharoitda bajariladi:

- ◆ Qayd etish.
- ◆ Boshlang'ich ma'lumotlarni yig'ish va uzatish.
- ◆ Umumiy ma'lumotlar bazasini tashkil etish.
- ◆ Ko'rsatkichlar algoritmi bo'yicha ma'lumotlarni qayta ishlash.
- ◆ Iste'molchilar uchun kerakli ma'lumotlarni tayyorlash.

Tahlil uchun kerakli ma'lumotlarning aniqligini va tez muddatda tayyorlashning eng aniq yo'llaridan biri – kompyuter dasturlari yordamida qayta ishlash hisoblanadi.

Kompleks avtomatlashgan sharoitda tahlil uchun kerakli ma'lumotlardan foydalanish xususiyatlari ma'lum darajada imkoniyatlarni ochib beradi:

1. Boshlang'ich hujjatlar - hisob, statistika normativ ma'lumotlar kompyuterning xotirasiga qo'yilib faqat bir xil manba ya'ni mashina xotirasiga olinadi.

2. Tahlil uchun kerakli turli murakkab hisoblashlar ma'lum sekundlarda bajariladi.

3. Ta'sir etuvchi omillarni mashinalar aniq ko'rsatib beradi.

4. Tahlil uchun kerakli ma'lumotlar va tahlil natijalari o'rnatilgan shaklda mashinagramma, tabelogrammalarda ifodalanadi.

5. Turli xil iqtisodiy ma'lumotlar mashinalar uchun bir xil shifr va kodlarda kiritiladi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra ishni avtomatlashtirilgan tarzda olib borish iqtisodiy samaradorlikka olib keladi.

3.4. Tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining to'g'riligini tekshirish usullari

Iqtisodiy tahlilda foydalaniladigan barcha manbalarni ishonchliligini, aniqliligini va to'g'riligini tekshirish natijalarni samarali bo'lishiga zamin yaratadi. Kerakli manbalarning turli-tumanligi, sarmazmunligi va ko'pligi ularning sifatli shakllanishiga e'tibor qaratilishini taqozo etadi, odatda korxonalar faoliyatini tahlil qilish davrida ma'lumotlar manbayi yig'iladi. Ushbu ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish maqsadida ma'lumotlar to'g'riligi tekshiriladi. Tahlil uchun yig'ilgan ma'lumotlarni tekshirish ikki usulda olib boriladi:

1. Texnik (yuzaki) tekshirish.

2. Mazmun jihatidan tekshirish.

Texnik tekshirish, axborot manbalarini arifmetik jihatdan to'g'riligini, rasmiylashtirish qoidalariga rioya qilinganligi va ko'rsatkichlarning bir-biriga mosligini e'tiborga olgan holda o'rganishdir. Yuzaki tekshirishda hisobotga barcha ma'lumotlarni kiritilganligi, ularning arifmetik yig'indisi, Moliya, Iqtisodiyot vazirliklari va Statistika Qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan hisobot shakllariga rioya qilinganligi, hisobot shakllarining bir-biri bilan bog'liqligi, hisobotni topshirish muddati, mansabdorlarning imzosi tekshiriladi.

Mazmun jihatidan tekshirish, ma'lumotlarning haqqoniy ekanligi, unda aks ettirilgan raqamlarning haqiqatda borligini aniqlashni o'z ichiga oladi. Bunday tekshirish buxgalteriya hisobi boshlang'ich hujjatlarida keltirilgan raqamlarni inventarizatsiya o'tkazish orqali taqqoslash, sanab ko'rish va o'lchash yo'li bilan to'g'riligiga ishonch hosil qilishdir.

Mazmun jihatidan tekshirish quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ◆ Inventarizatsiya natijalari hisobotda o'z aksini topishi.
- ◆ Korxonalar hisobot ma'lumotlaridagi budjetga to'lovlar va budjet mablag'lari hisobiga moliyalashtirish summasini moliya tashkiloti ma'lumotlariga mos kelishi.
- ◆ Foyda va zararlar schotiga o'tkazilgan ko'rsatkichlarni tekshirish (ustav kapitalining o'zgarishi, tabiiy ofatdan ko'rilgan zarar, asosiy vositalarni tugatilishi va hokazolar).

Korxonalar faoliyatini tahlil qilish davomida ko'plab manbalardan foydalanishga to'g'ri keladi.

Tahlilda qo'llaniladigan manbalarni quyidagi bosqichlarga ajratishimiz mumkin bo'ladi:

1. Reja ma'lumotlari manbalari.
2. Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalari.
3. Qo'shimcha ma'lumotlar manbayi.

Reja ma'lumotlari manbalari tarkibiga biznes-reja ko'rsatkichlari, belgilangan limitlar, belgilangan norma va normativlar, shartnoma ko'rsatkichlari kiradi.

Hisob va hisobot ma'lumotlari manbalariga buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari, statistik hisob va hisobot ma'lumotlari, operativ hisob va hisobot ma'lumotlari kiradi. Tahlilning asosiy ma'lumotlar manbayi bu buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlari bo'lib, ular korxonalar xo'jalik faoliyatining barcha jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bunda mablag'lar harakati, ularning manbalari va xo'jalik aloqalari aks etadi.

Buxgalteriya balansida mablag'lar, ularni manbalarining joylashishi va hosil bo'lish manbalariga qarab ifodalanadi.

Statistik hisob va hisobot ma'lumotlari tahlil uchun asosiy manba bo'lib hisoblanadi. Bu hisobotda hodisa va jarayonlarning jami ko'rsatiladi, ularni miqdor jihatdan xarakterlaydigan muayyan iqtisodiy qonunlarni aniqlaydigan tarzda aks ettiriladi.

Operativ hisob va hisobot ma'lumotlari buxgalteriya hisobi va hisoboti ma'lumotlariga va statistik hisobot ma'lumotlariga nisbatan zarur informatsiyani bir muncha tezroq olishga imkon beradi.

Iqtisodiy tahlilni yanada chuqurroq amalga oshirish uchun hisob ma'lumotlariga taalluqli bo'lmagan, ya'ni qo'shimcha ma'lumotlardan foydalanish lozim bo'ladi. Bunday ma'lumotlar tarkibiga bank, moliya, soliq inspektorlari tomonidan tuzilgan dalolatnoma, inspektorlarni taqdim etgan ma'lumotlari, auditor xulosalari, radio va televideniya ma'lumotlari, ommaviy axborot vositalari manbalari, ishchi va xizmatchilar bilan bo'lgan muloqot natijalari kiradi. Odatda, tahlil ma'lumotlari va ularni natijalari uni kim va nima maqsadda o'tkazilganligiga qarab turli shaklda umumlashtirilishi mumkin. Korxonalar va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati tahlilining natijalari analitik mavzular yoki xo'jalikni yillik hisobotiga ilova qilinadigan bayonnoma ko'rinishida ifoda etiladi.

Tahlil natijalarini umumlashtirish va yakunlash qaysi turdagi tahlilni o'tkazganligimizga qarab bajariladi. Masalan, korxonalarining yillik hisoboti asosida o'tkazilgan joriy tahlilning yakuni, umumiy xulosalar yozish va yuqori tashkilotlarga tushuntirish xati tuzish orqali yakunlanadi. Ayrim turdagi boshqa tahlil turlarining natijalari esa mutaxassislarini ma'ruzasi, korxonalar rahbarining buyrug'i, jamoaning majlis bayoni, taftish komissiyasining dalolatnomalari orqali umumlashtirilishi mumkin. Tahlil natijalarini umumlashtirganda, albatta erishilgan natijalar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar hamda yutuqlar aniq raqamlarda faktlar bilan ko'rsatilgan bo'lishi talab etiladi, shuningdek, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni tuzatish chora-tadbirlari, ya'ni takliflar ham ko'rsatiladi.

Iqtisodiy tahlil natijalarini rasmiylashtirish va umumlashtirishda korxonalarining umummajlis materiallari, turli xil diagramma, jadval va grafiklar tuzib ko'rsatma sifatida osib qo'yish, gazeta va jurnallar sahifalarida ma'lumotlarni chop etish, axborot doskalaridagi ko'rsatkichlarni e'lon qilib borish ham muhim hisoblanadi.

Analitik yozuv korxonalar va tashkilotlarni xo'jalik faoliyati yakunlari

bo'yicha yillik yoki choraklik hisobotiga tushuntirish xatlari, yuqori tashkilotlarni ularga bo'ysinuvchi tashkilotlar xulosalari kabi bo'ladi.

Tushuntirish xati rejani bajarilishi haqidagi umumiy xarakteristikada va ko'rsatkichlarni avvalgi davrlarga nisbatan o'zgarganlik ma'lumotlaridan boshlanadi, so'ngra natijaning rejadan tafovuti sabablari, ayrim omillarning o'zaro bog'lanishi va ularning xo'jalik faoliyati ko'rsatkichlari ifodalanadi. Analitik hisob – kitoblar analitik jadvallar ko'rinishida rasmiylashtiriladi. Ularni har biriga xulosalar va ko'rsatkichlarning o'zaro bog'liqligini yechib beruvchi matnli ilovalar beriladi.

Bayonnomani xotima qismida xulosalar, aniqlangan kamchiliklarni tuzatish yo'l-yo'riqlari, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga doir rezervlardan foydalanish yuzasidan konkret (aniq) takliflar bayon qilinadi. Bayonnoma tushunarli, ilmiy asoslangan, ixcham, analitik jadvallar bilan bog'langan bo'lishi kerak. Bozor iqtisodiyoti sharoitida bunday tahlil korxonalar rahbarining xaridorlarni umumiy yig'ilishidagi ma'ruzasi uchun zarur bo'ladi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarni moliyaviy va boshqaruv tahlil qilishdan olinadigan natija uni axborot va metodik qo'llanmalar bilan ta'minlanganlik darajasiga bog'liq. Tahlilni axborot bilan ta'minlashda bosh rolni buxgalteriya hisobi va hisoboti egallaydi, sababi bu manbalarda xo'jalik faoliyati va uning natijalari o'z aksini topgan. Birlamchi va jamlangan hisob registridagi ma'lumotlarni o'z vaqtida va to'la-to'kis tahlil qilish rejani bajarilishiga, xo'jalik faoliyatini yaxshilashga qaratiladi. Ayniqsa, yillik moliyaviy hisobot ma'lumotlarini mazmunan tekshirish tahlil ishlarini samarali o'tishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu jarayonda ma'lumotlarni tahlil qilishdan oldin ularning to'g'riligi tekshirib olinadi. Ma'lumotlarning to'g'riligiga ishonch hosil qilish uchun esa ayrim ko'rsatkichlarni ma'lum bir hisobot ma'lumotlari bilan taqqoslab ularning bir-biriga mosligi o'rganiladi. Agar bir xil ko'rsatkichlar turli manbalarda bir xil tartibda aks ettirilgan bo'lsa, u holda ushbu ma'lumotlar to'g'ri deb tan olinishi mumkin.

Moliyaviy hisobotning turli shakllaridagi ma'lumotlarni bir - biriga mosligini o'rganish quyidagi jadvalda keltirilgan (22-jadval).

Shunday tartibda debitorlik va kreditorlik qarzlarni, pul mablag'lar harakatini va boshqa ma'lumotlarni ham mazmunan, miqdoran to'g'riligini tekshirish mumkin.


Moliyaviy hisobot ma'lumotlarini bir-biriga mosligini tekshirish

Ko'rsatkichlar nomi	Shakl raqami	Birlamchi		Ikkilamchi			Mosligi
		Satri	Summa, ming so'm	Shakl raqami	Satri	Summa, ming so'm	
Asosiy vositalar: Boshlang'ich qiymat.	1	010	71000	3	130	71000	Mos
Eskirish qiymati.	1	011	44500	3	130	44500	Mos
Ustav kapital	1	320	80000	5	080	80000	Mos
Taqsimlanmagan foyda	1	350	45000	5	080	45000	Mos
va hokazolar							

3.5. Iqtisodiy tahlilning turlari va ularning tasniflanishi

Tahlil turlarini turkumlash – ularni umumlashtirish va bir tizimga keltirishga, eng muhim tomonlarini aniqlashga hamda ushbu fanning istiqbolda yanada takomillashtirish uchun keng imkoniyat ochib beradi. Tahlilning barcha turlari o'z belgilariga qarab ma'lum guruhlariga umumlashtiriladi. Bunday guruhlashgan belgilarga quyidagilarni kiritish mumkin: tahlilning vazifalari, uni o'tkazish muddati, qabul qilinadigan qarorlarning xarakteri, korxonalar faoliyatini o'rganishning asosiy tomonlari, rezervlarni aniqlash usullari, o'rganiladigan obyekt, tahlil qiluvchi subyekt, o'rganiladigan hodisalarning ko'lami, axborotlarni qayta ishlash usullari kabilar. Barcha turdagi tahlilning turlari ularning bajargan vazifalariga qarab quyidagi guruhlariga umumlashtiriladi: biznes-rejaning tig'izligi, asoslanganligini baholash va uning bajarilishini nazorat qilish, erishiladigan natijalarni bashorat qilish ya'ni oldindan aytib berish, erishilgan natijalarga obyektiv baho berish va shu maqsadda korxonalar faoliyatiga bog'liq va bog'liq bo'lmagan sabablarni aniq belgilash, ichki xo'jalik hisobi yakunini o'tkazish, rezervlarni aniqlash va ularni ishlab chiqarishga jalb etish, kelgusida rejalashtirish uchun asos (baza)ni aniqlash, optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tahliliy variantlarni tayyorlash.

Ishlab chiqarishni iqtisodiy tahlil qilishni umumiy tarzda quyidagi chizmada keltirilgandek ifodalash mumkin (4- chizma).




4-chizma. **Iqtisodiyot sohalari nuqtayi-nazaridan iqtisodiy tahlilning turkumlanishi.**

Iqtisodiy tahlil turlarini turkumlash asosida boshqarish funksiyalarini turkumlash yotadi, chunki, iqtisodiy tahlil iqtisodiyotni boshqarishni har bir funksiyasini amalga oshirishning ajralmas elementi bo‘lib hisoblanadi. Boshqarishning funksiyalarini ikkita katta guruhga bo‘lishimiz mumkin: umumiy va maxsus (spetsifik) funktsiya. Bu bog‘liqlik shundan iboratki umumiy funksiyalar o‘z holicha amal qila olmaydi; har qanday maxsus funktsiya esa faqatgina umumiy funksiyalar yordamida amalga oshiriladi.

Ma’lumki, xo‘jalik yurituvchi subyektlarni boshqarish o‘zining tamoyillari va funksiyalariga tayanadi. Boshqarish faoliyatini amalga oshirish quyidagi funksiyalarga tayangan holda amalga oshiriladi:

- ◆ boshqarishni axborot bilan ta’minlash (to‘plash, qayta ishlash, iqtisodiy voqea va hodisalar to‘g‘risidagi axborotlarni tartibga solish);
- ◆ iqtisodiy tahlil qilish;
- ◆ rejalashtirish va prognozlash (iqtisodiy hodisalarni joriy va istiqbolli rejalashtirish);
- ◆ muvofiqlashtirish;

- ◆ tashkil qilish;
- ◆ hisobga olish;
- ◆ nazorat qilish (rejalarni va boshqarishga oid qarorlarni amalga oshirilishini nazorat qilish).



5-chizma. Ishlab chiqarish nuqtayi nazaridan iqtisodiy tahlilning turkumlanishi.

1 va 2 funksiyalar boshqarishni texnologik bosqichlarini aks ettiradi, ya'ni qarorlar qabul qilish jarayonini axborot va iqtisodiy tahlil bilan ta'minlaydi. Shu bilan birga, boshqarishning boshqa funksiyalarini amalga oshirishda ham iqtisodiy tahlilning alohida o'рни bor. Masalan,

rejalashtirish funksiyasini olaylik. Kelgusi davrga reja tuzish uchun korxonada faoliyatining o'tgan yillarini atroflicha tahlil qilish va shu asosda uning rivojlanish tendensiyasini aniqlab olish zarur. Rivojlanish tendensiyasi va kelgusida iqtisodiy ko'rsatkichlarda yuz beradigan sifat o'zgarishlarini ham hisobga olgan holda uning faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlarini kelgusi qiymatlari shakllantiriladi. Xuddi shuningdek, boshqarishning muvofiqlashtirish, tashkil qilish va nazorat funksiyalari ham iqtisodiy tahlil bilan bevosita bog'liq.

Ishlab chiqarishni boshqarish nuqtayi nazaridan iqtisodiy tahlil turlarini quyidagi chizmada tasvirlash mumkin (5-chizma).

Bundan tashqari iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodiy tahlilning turlari quyidagilarga qarab ham turkumlanadi;

1) Xalq xo'jaligini tarmoq strukturasi (sanoat va uni tarmoqlari, qishloq xo'jalik, qurilish, transport, savdo, moddiy-texnika ta'minoti va boshqalar);

2) Kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichlari tahlili (ishlab chiqarish, iste'mol, taqsimot va ayriboshlash jarayonlarini tahlili);

3) Tahlilni o'tkazuvchi subyekti bo'yicha, ya'ni tahlilni kim tomonidan o'tkazilayotganligiga qarab (iqtisodiy xizmat xodimlari, korxonani ijtimoiy tashkilotlari, moliya, kredit organlari, auditorlik tashkilotlari, kasaba uyushmalari, qo'mita va ijtimoiy tashkilotlar);

4) Tahlil o'tkazish muddati bo'yicha (yillik, kvartallik, oylik, dekadalik, kunlik, smenalik va bir martalik tahlil);

5) o'rganiladigan masalalarning mazmuni va mukammalligi bo'yicha (xo'jalik faoliyatini kompleks tahlili va tematik tahlili);

6) obyektning o'rganish usuliga qarab (kompleks, tizimli tahlil, taqqoslama, tanlanma, korrelatsion tahlil va boshqalar).

Korxonalar faoliyatini kompleks tahlil qilish ularni faqatgina iqtisodiy faoliyatini tahlil qilmasdan, texnik, ijtimoiy, tabiiy sharoitlari va ularni o'zaro aloqasini ham tahlil qilib berishi lozim.

Boshqarish tizimi bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari

Xo'jalik faoliyatining joriy (retrospektiv) tahlili. Korxonalarining amaliy faoliyatida, asosan, joriy tahlil o'tkazish usuli to'la ishlab chiqilgan. Joriy tahlil korxonalarining xo'jalik faoliyatini tahlil qilishda rasmiy jihatdan qabul qilingan hisobotga tayangan holda ularning oylik, kvartallik, yillik va qator yillar tahlil qilinadi.

Joriy tahlilning asosiy vazifasi xo'jalik faoliyatida erishilgan

natijalarga obyektiv baho berish, foydalanilmagan ichki xo‘jalik rezervlarini kompleks tarzda aniqlash va ularni kelgusida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb etish, ishda yo‘l qo‘yilgan kamchilik va ularni aybdorlarini topish, moddiy va ma’naviy rag‘batlantirishni tashkil etishdan iborat.

Joriy tahlilning keng ko‘lamda qo‘llanishining asosiy sabablari deb quyidagilarni hisoblash mumkin:

1. Tahlilning barcha vazifalari biznes-rejaning tig‘izligi va asoslanganligi, uning bajarilishini nazorat qilish, xo‘jalik faoliyatida erishiladigan natijalarni oldindan aytib berish, mehnat, moddiy va moliya resurslaridan samarali foydalanish joriy tahlil zimmasiga tushadi.

2. Joriy tahlilning keng ko‘lamda qo‘llanilishi barcha korxonalarining tasdiqlangan yagona hisobot shakllariga, asosan, yuqori tashkilot, statistika, moliya va soliq organlari, davlat bankiga hisobot topshirish vazifasining zarurligi.

3. Joriy tahlilning bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmog‘i 90 foizni tashkil qiladi, chunki dastlabki va tezkor tahlilni o‘tkazish usuli hali to‘la ishlab chiqilmagan.

4. Joriy tahlilda korxonaning xo‘jalik faoliyati har tomonlama chuqur o‘rganiladi, chunki tahliliy xodimning ixtiyorida barcha axborotlar manbayi mavjuddir.

5. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish tarixan joriy tahlildan boshlangan.

6. Iqtisodiy oliy o‘quv yurtlarida mutaxassislarni tayyorlash ham joriy tahlil asosida olib boriladi.

Joriy tahlil uchun asosiy axborotlar oylik, kvartallik, yillik reja va hisobotlar manbayi bo‘lib hisoblanadi.

Joriy tahlilning subyekti - korxonaning iqtisodiy bo‘limlari, yuqori tashkilot, moliya, soliq va statistika organlari, davlat banki hisoblanadi. Joriy tahlilning obyekt-korxonalar, ularning filiallari, boshqarmalar va vazirliklardir. Joriy tahlilning dastlabki va tezkor tahlildan ustunligi shundaki, uni o‘tkazishda axborotlar tizimi sistemali va kompleks xarakterga ega bo‘lib, rasmiy jihatdan qabul qilingan buxgalteriya va statistika hisobotlariga asoslanadi.

Bu tahlilni asosiy kamchiligi shundan iboratki, aniqlangan xato, kamchiliklar va foydalanilmagan imkoniyatlar korxonaga uchun butunlay yo‘qotilgan hisoblanadi, chunki ular xo‘jalik faoliyatini o‘tgan davriga bog‘liqdir. Biz bu imkoniyatlarni faqatgina kelgusidagi ishlarimizni amalga oshirish jarayonida hisobga olishimiz mumkin xolos, shuning

uchun ham tahlilni imkoniyatlarini oshirish va ularni vaqtida ishga solish uchun hisobotlarni taqdim etish va ularni tahlil qilish vaqtini qisqartirish vazifasi qo'yiladi.

Joriy tahlil korxonani barcha xodimlari tomonidan, shuningdek, sexlar va boshqa bo'linmalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Natijada korxonani yillik faoliyatiga yakun yasaladi, kamchiliklar aniqlanadi va korxonani faoliyatini yaxshilash uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Bu tahlil korxonani xo'jalik faoliyatini to'la tahlili bo'lib hisoblanadi, chunki u o'zida tezkor tahlil natijalarini mujassamlashtiradi va istiqbolli tahlil uchun baza hisoblanadi.

Tezkor tahlil. Bu tahlil iqtisodiy tahlil turlaridan biri bo'lib, xo'jalik tizimini tezkor boshqarish uchun lozim bo'ladigan masalalarni hal qilishga qaratilgandir. U korxonaning xo'jalik faoliyatini boshqarishda shu kundagi ishlab chiqarish jarayonini tezkor tarzda boshqarishda qo'llaniladi. Bu qisqa muddatli tahlil bo'lib, ishlab chiqarish jarayonida ro'y bergan chetga chiqishlarni tezkorlik bilan aniqlab, uni bartaraf qilish chora-tadbirlarini ko'radi.

Tezkor tahlilning *asosiy vazifasi* topshiriqlarni muntazam nazorat qilish, mahsulotni ishlab chiqarish va uni sotish jarayonini kunda aniqlash, shu kundagi ishlab chiqarish rezervlarini o'z vaqtida aniqlash va ularning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga jalb qilish hisoblanadi. Tezkor tahlil boshqaruv tizimida boshqaruv xodimlarining taxminan 50 foiz ish vaqtini egallaydi, amalda esa uning umumiy bajariladigan tahliliy ishlarda tutgan salmogi 10 foizni tashkil etadi. Tezkor tahlil joriy tahlildan farqli o'laroq u asosan boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanadi.

Tezkor tahlil quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- korxonaning asosiy miqdor va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha hamda uning bo'linmalari smenada, sutkada, besh kunlikda va dekadalardan chetga chiqishini aniqlash;
- me'yordan chiqishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash;
- kamchiliklarga yo'l qo'ygan javobgar shaxslarni aniqlash;
- salbiy omillarni bartaraf qilish uchun tadbirlar ishlab chiqish;
- ko'rsatilgan vaqtda erishilgan natijalarni yakunlash va «Tor» joy va ilg'or bo'g'inlarni aniqlash.

Tezkor tahlil, odatda, quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha olib boriladi: mahsulotni ishlab chiqarish, jo'natish va sotish, ishchi kuchidan foydalanish, asbob-uskuna va moddiy resurslardan foydalanish, tannarx, foyda va rentabellik, to'lov qobiliyati. Demak, joriy tahlilda o'rgani-

ladigan ko'rsatkichlar soni tezkor tahlilda o'rganiladigan ko'rsatkichlardan ancha ko'pdir. Tezkor tahlilning natijasi joriy tahlilga nisbatan unchalik aniq bo'lmaydi, chunki o'zining istalgan kunida ishlab chiqarilgan mahsulotning haqiqiy tannarxini va mahsulot tannarxining pasayishi natijasida olingan foyda miqdorini aniq hisoblab chiqish mumkin emas, oldindan mahsulotning qancha qismi shu oyda sotiladi, qancha qismi esa kelgusi oyda sotilishini aniq hisoblab bo'lmaydi, lekin tezkor tahlilning bu kamchiligi uning ahamiyatini kamaytirmaydi, zero, tezkor tahlil orqali olingan natijalarning mutlaq aniqligidan ko'ra uni o'z vaqtida olish ahamiyatliroqdir.

Bunday tahlilni o'tkazish uchun ma'lumot manbalari bo'lib, boshlang'ich hujjatlar, buxgalteriya va tezkor texnik hisob ma'lumotlari, uning shaxsiy kuzatish natijalari hisoblanadi. Bu hujjatlarda iqtisodiy ko'rsatkichlar ko'proq natural holda beriladi. Tahlilni natura ko'rsatkichida amalga oshirilishi tezkor tahlilning xarakterli xususiyati bo'lib hisoblanadi.

Istiqbol tahlili. Istiqbol tahlili deganda xo'jalik yurituvchi subyektning kelgusi faoliyatini oldindan o'rganish, bo'ladigan jarayonlarni oldindan belgilash maqsadida amalga oshiriladigan tahlil tushuniladi. Masalan, xo'jalik yurituvchi subyekt biznes-rejani tuzish uchun o'z faoliyatini nima bilan yakunlashi to'g'risida aniq tushuncha va ko'rsatkichlarga ega bo'lishi kerak. Bu esa istiqbol tahlili orqali amalga oshiriladi. Hozirgi paytda uni loyiha tahlili deb ham atamoqdalar.

Istiqbol tahlilining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- 1) xo'jalik faoliyatini bashorat qilish;
- 2) istiqbol rejalarini ilmiy asoslash;
- 3) ularni bajarilishi ustidan nazorat qilish va baholash.

Korxonani asosiy vazifasi xalq xo'jaligi uchun hozirgi kundagi eng zarur mahsulotlarni sifatli va kerakli miqdorda ishlab chiqarishdir. Xalq xo'jaligi uchun lozim bo'lgan hajmdagi va turdagi mahsulotni aniqlash uchun: shu mahsulotga bo'lgan ehtiyoj; korxonani shu mahsulotni ishlab chiqarish imkoniyati; shu turdagi mahsulot ishlab chiqarishdagi boshqa korxonalar imkoniyati; mol yetkazib beruvchilarni imkoniyatlari va boshqalarni o'rganish kerak.

O'zaro bog'langan obyektlar bo'yicha o'tkaziladigan tahlil turlari

Texnik-iqtisodiy tahlil. Ushbu tahlil kompleks iqtisodiy tahlil va muhandislik tahlilining birikishi asosida hosil bo'lgan. Texnik-iqtisodiy tahlil 3 yo'nalishda olib boriladi:

- ishlab chiqarishning texnik darajasini tahlil qilish;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruvni tahlil qilish;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish.

Korxonaning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida korxonaning ishlab chiqarish bazasini rivojlantirish darajasini, ilg'or texnologiya jarayonlarini joriy qilish, ishlab chiqarishni kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, qo'l mehnatini to'la mexanizatsiyalash, zamonaviylashtirish kabi masalalar kiradi.

Ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat va boshqaruv masalalarini tahlil qilish jarayonida qo'llanilayotgan boshqaruv shakllarining progressivligi (ilg'orligi), boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv shakllarining ilg'orligi, boshqaruv tizimining samaradorligi, boshqaruv apparatini qisqartirish kabi yechimlar hal etiladi.

Mahsulotning texnik darajasini tahlil qilish jarayonida iste'molchilar talablarini hisobga olgan holda yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, ularning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari respublikamizda va chet ellarda ishlab chiqarilgan eng yaxshi (yuqori) mahsulot namunalari bilan taqqoslash. Mahsulotning texnik darajasi ularni attestatsiya qilish orqali aniqlanadi. Texnik-iqtisodiy tahlil iqtisodchilar, texniklar, muhandislar, mutaxassislardan tuzilgan kompleks brigada orqali amalga oshiriladi.

Moliya-iqtisodiy tahlil. Ushbu tahlilning mohiyati umumiy qiymat ko'rsatkichlar tizimini o'rganish va korxonalarining moliyaviy faoliyati natijalarini tahlil qilish bilan ifodalanadi. Umumlashgan qiymat ko'rsatkichlariga quyidagilar kiradi: sotish bo'yicha rejaning shartnoma majburiyatini ado etgan holda bajarilishi, tovar mahsuloti, bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumi, mahsulot tannarxi, foyda va shu kabilar. Tahlil qilish jarayonida ana shu qiymat ko'rsatkichlar batafsillashtiriladi. Masalan, mahsulot hajmi-taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan, ularni ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish bo'yicha, mahsulotning sifati kabilar. Mahsulot tannarxi ko'rsatkichi umuman va ularning unsurlari va kalkulyatsiya moddalari bo'yicha belgilangan biznes-rejaning bajarilishiga ta'sir qiluvchi omillar batafsil tahlil qilinadi. Umumlashgan mehnat unumdorligi ko'rsatkichi (bir ishlovchiga to'g'ri keladigan yillik ish unumi) bir ishchiga to'g'ri keladigan yillik, kunlik va soatlik ish unumini o'z ichiga oladi.

Moliya-iqtisodiy tahlilga xos muhim xususiyatlardan biri - bu asosiy axborot olish manbalari. Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan yagona hisobot shakllaridan qo'llanilishi hisoblanadi.

Shunday qilib, moliya-iqtisodiy tahlilning predmeti korxonalar xo‘jalik faoliyatining turli tomonlari, xo‘jalik yuritish jarayoni, iqtisodiy ko‘rsatkichlarning bir-biri bilan sababiy bog‘lanishi hisoblanadi.

Moliya-iqtisodiy tahlilning subyekti - bu korxonalar, vazirlik, boshqarmaning, moliya-kredit idoralari va statistika organlarining iqtisodiy bo‘linmalari hisoblanadi. Shu bilan birga korxonalar tahlilning obyekti ham hisoblanib, ularning faoliyati yuqori tashkilot, moliya-kredit va statistika organlari tomonidan o‘rganiladi. Masalan, moliya organlari korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishda asosiy e‘tiborni biznes-rejaning bajarilishi, aylanma mablag‘larining holati, foyda bo‘yicha biznes-rejaning bajarilishi, davlat budjetiga tushadigan to‘lov majburiyatlarining bajarilishiga qaratadilar. Kredit tizimi esa korxonalar o‘z aylanma mablag‘lari holatini, olingan kreditning tovar-moddiy boyliklar bilan tahminlanganligini, to‘lov intizomining bajarilishi kabi masalalarga qaratadi.

O‘rganiladigan masalalarga qarab moliya-iqtisodiy tahlil to‘la yoki tanlanma xarakterga ega bo‘lishi mumkin. Moliya-iqtisodiy tahlilning o‘tkazish muddatlari kunlik, haftalik, dekadalik, oylik, kvartallik, yillik bo‘ladi. Moliya-iqtisodiy tahlilning turlari: dastlabki, tezkor va joriy tahlildan iborat.

Funksional - qiymat tahlili. Mahsulot tannarxini kamaytirish borasida keraksiz va ortiqcha xarajatlarni minimal darajaga keltirish mahsulot ishlab chiqarishni loyihalashtirish va uni ishlab chiqarish chog‘ida har tomonlama hisobga olish kerak. Bu masalani ijobiy hal qilishda FQT asqotadi. FQT – obyektini (mahsulot) texnologik va mehnat jarayonlari tizimli tarzda tadqiq qilib, mehnat va moddiy resurslardan samarali foydalanishga qaratilgan chora - tadbirlarni ishlab chiqadi. Ushbu tahlil usuli ma’ro‘zalar kursida alohida mavzu sifatida ko‘rib chiqiladi.

Boshqarish masshtabi va darajasi bo‘yicha o‘tkaziladigan tahlil turlari

Xo‘jaliklararo (zavodlararo) qiyosiy tahlil. Qiyoslash (taqqoslash) – bu iqtisodiy tahlilning eng ko‘p qo‘llaniladigan usulidir. Qiyosiy tahlilning 2 asosiy turi mavjud: ichki zavod tahlili ya’ni tahlilning obyekti sifatida shu korxonaga taalluqli xo‘jalik jarayoni o‘rganiladi; zavodlararo, qachonki bir qator korxonalarining xo‘jalik faoliyati tahlil qilinib, tarmoqdagi ilg‘or tajriba o‘rganiladi.

Taqqoslama zavodlararo tahlilning mohiyati alohida olingan

korxonalarining xo‘jalik faoliyatini ularning ko‘rsatkichlarini har tomonlama o‘rganib, erishilgan natijalar darajasini xolis farqlash va iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta‘sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash hamda ilg‘or tajribalarni ishlab chiqarishga tatbiq qilish natijasida ichki xo‘jalik rezervlarini aniqlashdan iboratdir.

Taqqoslama tahlil korxonaning barcha iqtisodiy ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi mumkin yoki boshqacha so‘z bilan aytganda kompleks xarakterga ega bo‘ladi. Taqqoslama tahlilning mazmuni qo‘yilgan maqsad va tekshiriladigan obyektga qarab quyidagicha turkumlanadi:

- obyekt bo‘yicha (korxonalar, sexlar, ishlab chiqarish uchastkasi, ish joyi);

- mavzuning (tema) mazmuni bo‘yicha – mehnat predmetlari, mehnat vositalari, mehnat va moliya resurslarini tahlil qilish va hokazo;

- tahlilni o‘tkazish doirasi – kompleks tahlil va maxsus (tematik) tahlil.

Taqqoslama tahlilning eng muhim uslubiy masalalaridan biri o‘rganiladigan obyektning bir-biri bilan solishtirish shartlariga rioya qilishdir:

- taqqoslanadigan ko‘rsatkichlarning sifat jihatdan bir xilligi va ularni hisoblash usulining birligi (masalan, mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlarning bir xilligi);

- mahsulotni yagona o‘lchash, o‘zgarmas baho bilan o‘lchash, jo‘g‘rofiy sharoitlarning o‘xshashligi;

- taqqoslanadigan davrda ish kunlarining bir xilligi va hokazo.


Korxonalar faoliyatini tahlili. Korxonalar yuridik mustaqil shaxs bo‘lib, o‘zlarining mustaqil balanslariga ega, o‘z ish faoliyatlarini nizom asosida olib boradilar.

Korxonalar davlat, kooperativ korxonalar bo‘lishi mumkin va bular o‘z ish faoliyatlarini sanoatda, qurilishda, qishloq xo‘jaligida, transportda, aloqada, savdo, moddiy-texnika ta‘minoti va boshqa xizmat ko‘rsatuvchi sohalarda amalga oshiradilar.

Tahlilni o‘ziga xos xususiyati korxonada analitik ishni olib borayotgan organlarning vazifalaridan kelib chiqib quyidagilarga bog‘liq bo‘ladi: korxonalar iqtisodiyotini o‘rganish ketma-ketligiga, tahlil qilish tematikasiga analitik ish shakllariga.

Ichki xo‘jalik tahlili. Korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishdan farqli o‘laroq ichki xo‘jalik tahlilini o‘ziga xos xususiyatlari mavjud bo‘lib, bunda alohida bo‘linmalar ish faoliyatini (umumiy jamoa yutuqlariga qo‘shgan hissasini baholashda) detallashtiriladi. Bu tahlilga

xalq xo‘jaligi asosiy bo‘ginini boshqarishni barcha bosqichlari, ya’ni oddiy ish joyigacha bo‘lgan bosqichlari kiradi (6-chizma).



6-chizma. Ichki xo‘jalik (zavod) tahlili uslubi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- Korxonalar va firmalarda iqtisodiy tahlilni tashkil etish.
- Tahlilni tashkil etish bosqichlari.

- Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish.
- Iqtisodiy tahlil kengashi.
- Tahlil uchun zarur axborotlar va ularning turlari.
- Iqtisodiy axborotlar.
- Ilmiy-texnikaviy axborotlar.
- Tabiiy-ekologik axborotlar.
- Tahlil uchun kerakli bo'lgan axborotlarga qo'yilgan talablar va ularni to'g'riligini tekshirish.
- Buxgalteriya hisobi axborotlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo'jalik subyektlarida tahlil ishlarini kimlar olib borishadi?
2. Xo'jalik subyektlarini tahlil ishlariga mas'ul javobgarlar bo'lib kimlar hisoblanadi?
3. Xo'jalik subyektlarida tahlil ishlarini tashkil etish majburiymi yoki ixtiyoriy?
4. Tahlilni tashkil etish bosqichlarini sanab o'ting?
5. Tahlil natijalari qanday rasmiylashtiriladi?
6. Tahlil natijalari kimga taqdim etiladi?
7. Tahlil jarayonlarida qanday turdagi ma'lumotlardan foydalaniladi?
8. Tahlilda foydalaniladigan ma'lumotlarga qanday talablar qo'yiladi?
9. Ma'lumotlarning to'g'riligi qaysi usullar orqali tekshiriladi?
10. Tahlilning turlarini tasniflab bering?
11. Tahlil jarayonlarida ma'lumotlarni kompyuterlarda qayta ishlashning afzalliklari nimada?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini boshqarishda iqtisodiy tahlilning tutgan o'rni va salohiyatini o'z fikr-mulohazalaringiz orqali bayon qilib bering.

2-topshiriq.

Avtomatik boshqarish sistemasi sharoitida korxonalarining xo'jalik jarayonlarini tahlil etishning xususiyatlarini izohlab bering.

3-topshiriq.

Avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilni ham avtomatlashtirishning istiqbollarini o'z fikr-mulohazalaringiz orqali izohlab bering. Tahlil jarayonida qanday kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkinligini ko'rsatib o'ting.

Test savollari:

1. O'rganadigan davriga qarab iqtisodiy tahlilning turlari qaysi javobda to'g'ri aks ettirilgan?

- a) joriy tahlil, boshqaruv tahlili, moliyaviy tahlil;
- b) tezkor tahlil, ichki tahlil, tashqi tahlil;
- d) tezkor tahlil, joriy tahlil, funksional qiymatli tahlil, xo'jaliklararo tahlil;
- e) tezkor tahlil, joriy tahlil, istiqbolli tahlil.

2. Korxonalarni boshqarishda o'rniga qarab iqtisodiy tahlilning turini belgilang.

- a) boshqaruv (ichki) tahlil va moliyaviy (tashqi) tahlil;
- b) moliyaviy tahlil va joriy tahlil;
- d) boshqaruv tahlili va tezkor tahlil;
- e) boshqaruv tahlili va istiqbolli tahlil.

3. Tahlil jarayonida qanday turdagi axborot manbalaridan foydalaniladi?

- a) iqtisodiy va huquqiy;
- b) iqtisodiy;
- d) huquqiy va tabiiy ekologik;
- e) iqtisodiy, huquqiy-me'yoriy, ilmiy-texnologik, tabiiy-ekologik va boshqa turdagi ma'lumotlar.

4. Qaysi manbalar tahlil etish jarayonida asosiy manba bo'lib hisoblanadi?

- a) iqtisodiy va ekologik;
- b) hisob va huquqiy;
- d) buxgalteriya, statistika, operativ texnik hisob va hisobot, hisobdan tashqari manbalar;
- e) taftish natijasining dalolatnomasi.

5. Iqtisodiy tahlil o‘tkazish bosqichlarining ketma-ketligi qaysi javobda to‘g‘ri aks ettirilgan?

- a) ma’lumotlar to‘plash, qayta ishlash, tahlil etish, takliflar bildirish;
- b) tahlil o‘tkazishning rejasi va dasturini tuzish; tahlil uchun kerakli bo‘lgan manbalarni aniqlash, yig‘ish hamda hisoblanadigan ko‘rsatkichlarni belgilash; to‘plangan ma’lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish; bevosita xo‘jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish; tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish; tahlil natijasida ilg‘or g‘oya va tajribalarni amaliyotda qo‘llash shart-sharoitlarini ko‘rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish;
- d) tahlil o‘tkazishning rejasi va dasturini tuzish; tahlil uchun kerakli bo‘lgan manbalarni aniqlash, yig‘ish hamda hisoblanadigan ko‘rsatkichlarni belgilash; bevosita xo‘jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish; tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish; tahlil natijasida ilg‘or g‘oya va tajribalarni amaliyotda qo‘llash shart-sharoitlarini ko‘rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish;
- e) ma’lumot to‘plash; tahlil qilish, yechimini aniqlash.

6. Tahlil uchun yig‘ilgan ma’lumotlarni tekshirish nechta va qanday usullarda olib boriladi?

- a) 2 ta usul orqali: texnik (yuzaki) tekshirish usuli; mazmunan (mantiqiy) tekshirish usuli;
- b) 3 ta usul orqali: taqqoslash usuli; texnik (yuzaki) tekshirish usuli; mazmunan (mantiqiy) tekshirish usuli;
- d) 4 ta usul orqali: taqqoslab tekshirish usuli; guruhlashtirib tekshirish usuli; texnik (yuzaki) tekshirish usuli; mazmunan (mantiqiy) tekshirish usuli;
- e) 1 ta usul orqali: texnik (yuzaki) tekshirish usuli;

7. Xo‘jalik faoliyatini tahlil etishning avtomatik boshqarish sistemi sharoitida amalga oshirilishi qanday prinsiplarga amal qiladi?

- a) aniq maqsadga ega ekanligi; sistemalashganligi; kompleksliligi; ixchamlashganliligi; uzluksizlik va muntazamlilik; taqqoslanish imkoniyatini kengligi; yechim loyihasi aniq va ixchamliligi;
- b) sistemalashganligi; kompleksliligi; ixchamlashganliligi; uzluksizlik va muntazamlilik yechim loyihasi aniq va ixchamliligi;

d) aniq maqsadga ega ekanligi; sistemalashganligi; ixchamlashganligi; uzluksizlik va muntazamlilik;

e) tahlil dasturini tuzib olishlik; tizilmalilik; ishonchlilik; betaraflik; davriylik; taqqoslanuvchanlik.

8. Quyidagi qaysi javobda iqtisodiy axborot manbalari boshqa axborotlardan qanday xususiyatlari bilan ajralib turishligi to'liq ko'rsatib berilgan?

a) hujjatlashganligi- barcha iqtisodiy hodisa va jarayonlar sodir bo'lishi bilan tegishli boshlang'ich hujjatlarda qayd etiladi hamda axborot sifatida rasmiylashadi; turli-tumanligi; hodisa va voqealar ko'pgina manbalarda qayd etilib, hajmi, mazmuni, shakli jihatidan bir-biridan farqlanishi; ommaviyligi va hajmining kengligi; ko'pgina iqtisodiy axborotlar tegishli shaklga ega bo'lganligi, hisobot shakllarining yuqori organlar tomonidan tasdiqlanilganligi ularni tushunishni, bilishni osonlashtirishligi; ma'lum davrlarda takrorlanib turishligi; tasdiqlangan me'yoriy hujjatlar muntazam to'lg'azilib tegishli tashkilotlarga topshirilish ko'zda tutilganligi; hisobot davrlari-choraklar, yarim hamda yillik muddatlarga bo'linib axborotlar tuzilishligi; qonunlashganligi va chegaralanganligi; barcha iqtisodiy axborotlar davlat tashkilotlari, moliya vazirligi, makroiqtisod vazirligi va Davlat Soliq Qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shakllarga asoslanib tuzilganligi; bozor iqtisodi sharoitida korxonalar uchun muhim sanalgan ayrim ma'lumotlar boshqalar uchun maxfiy bo'lib, faqat egasining ruxsati bilan e'lon qilinishligi; ko'p qirraliligi va sermazmunligi; iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatilishligi; boshlang'ich hujjatlarda korxon nomi, imzo chekuvchilarning nasl-nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashganligi;

b) ko'p qirraliligi va sermazmunligi; iqtisodiy axborotlar miqdoriy va qiymat o'lchamlarida ko'rsatilishligi; boshlang'ich hujjatlarda korxon nomi, imzo chekuvchilarning nasl-nomasi, davri va mahsulotlarning turlari ko'rsatilgan holda rasmiylashganligi;

d) barcha manbalarning umumiy birligi va uzviy bog'liqligi saqlanishligi hamda ulardagi axborotlar bir-birini to'ldirib turishligini taqozo etishligi;

e) barcha javoblar noto'g'ri.

9. Tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari quyidagi qaysi talablarni bajarishi lozim?

a) haqqoniylik va xolislik tamoyiliga amal qilinadi; manbalar tahlil qilinishi uchun keng imkoniyatli bo'lmog'i lozim, ya'ni reja, hisob va statistik ma'lumotlar hodisa va jarayonlar mazmunini to'liq yoritishi, talab qilingan vazifalarni bajarishi kerak;

b) iqtisodiy hodisa va voqealarni ifodalovchi manbalar aniq o'lchamda aks ettirilishi lozim;

d) manbalarga kiritilgan ko'rsatkichlarni aniqlanish tamoyillari va aks ettiriladigan davrlar mosligi zarurdir va hokazolar;

e) barcha javoblar to'g'ri.

10. Boshqaruv obyektlarining bir-biriga bog'liqligi bo'yicha iqtisodiy tahlil qanday turlarga ajratiladi?

a) funksional – iqtisodiy (funksional – qiymatli) tahlil; texnik – iqtisodiy tahlil; ijtimoiy – iqtisodiy tahlil; iqtisodiy – ekologik tahlil;

b) texnik – iqtisodiy tahlil; ijtimoiy – iqtisodiy tahlil;

d) ichki xo'jalik tahlili;

e) iqtisodiy – ekologik tahlil;

II BO‘LIM.

BOSHQARUV TAHLILI

IV BOB. KORXONA MAHSULOTI VA XIZMATIGA BO‘LGAN TALAB VA TAKLIFNING TAHLILI

4.1. Korxonada mahsulot va xizmatga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganishning ahamiyati va tahlilning vazifalari

Mustaqillik davrida o‘tayotgan har bir kun, jamiyatimizning mazmunan yangilanayotganligidan dalolat beradi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida yangi iqtisodiy kategoriyalar, tushunchalar hayotimizga shu darajada tezlik bilan kirib kelmoqdaki, ularni idrok etish, nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, metodologik muammolarini hal qilishga ulgurish qiyin bo‘lmoqda. Bunday yangi iqtisodiy tushunchalardan biri – korxonaning marketing faoliyati tushunchasidir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan har bir korxonada, firma va tashkilotlar bozorni o‘rgangan holda «qanday mahsulot ishlab chiqarish kerak, kim uchun ishlab chiqarish kerak va qancha miqdorda ishlab chiqarish zarur» tamoyiliga amal qilgan holda ish yuritishi lozim. Buning uchun ular bozorni chuqur o‘rganishlari, marketing sohasida yuqori malakali mutaxassislariga ega bo‘lishlari talab qilinadi. Bozor to‘g‘risida ko‘p ma‘lumotga ega bo‘lishlik, raqobatchilar, iste‘molchilarning xarid qobiliyati, o‘xshash tovarlar hajmining o‘zgarib turishi hamda shu kabi boshqa muammolar bo‘yicha batafsil axborotlar to‘plash va ularni atroflicha tahlil etib turish muvaffaqiyatlar garovi, foyda ko‘rib ishlashning muhim shartlaridan sanaladi.

Korxonada bozor mexanizmi va konyukturasini batafsil tahlil qilgan holda o‘z imkoniyatlarini yo‘lga qo‘yishning iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy shartlarini tuzib chiqadi. Bu esa yaqin va uzoq davriylikda faoliyat

yuritishning yoʻlinalishlarini belgilash hamda uning rejasini tuzib chiqishni xarakterlaydi. Rejali asosda ishlab chiqarishni boshqarish ham bevosita bozor regulatori elementlari taʼsirida yoʻlga qoʻyiladi. Tahlilda asosiy eʼtibor marketing tadqiqotlariga qaratiladi. Bozordagi ahvol va uning oʻzgaruvchanligi, talab va taklif darajalari, bozor sohiblari va ularning mavqei, faoliyatni yoʻlga qoʻyishning imkoniyatlari keng qamrovda oʻrganiladi.

Bozor talabini tahlil etishda bozorning alohida olingan tovarlar bilan toʻyinganlik darajasi, uning yaqin va uzoq oraliqda oʻzgaruvchanlik ehtimollari, tovarlar narxining oʻzgaruvchanligi, eng yuqori foydaliligi, muvozanatlashgan koʻrsatkichlar va ularning oʻzgarishlariga baho beriladi.

Bozor sharoitida isteʼmol tabiiy holda amalga oshmay, ayriboshlash va uning pul-tovar muomalasi tufayli roʻyobga chiqadi. Buning uchun oldi-sotdi, xaridor-sotuvchi pogʻonalaridan oʻtib, bir qator shakllarni boshdan kechirmogʻi zarur, yaʼni ehtiyoj-talab-isteʼmol demak, bozor talab va taklif qonuniyatlari asosida tartibga solinadi.

Talab deb, - bu eng avvalo, biron-bir neʼmatlar yoki xizmatlarga boʻlgan ehtiyojlarni bozorda namoyon boʻlishi va uni pul bilan taʼminlashidir.

Taklif esa, - bu muayyan paytda bozorda boʻlgan yoki unga yetkazib berilishi mumkin boʻlgan tovarlar massasi sifatida belgilanadi.

«Ekonomiks» mualliflari K.R.Makkonell va S.L.Bryularning taʼkidlashicha, isteʼmol tanlovi bozor iqtisodiga asoslangan erkin iqtisodiy taraqqiyotning keng quloq yozganidir. Isteʼmolchilar oʻz pul daromadlari miqyosida tovarlar va tovarlashgan xizmatlarni istagan tarzda sotib olishlari va shular bilan oʻz isteʼmollarini ixtiyoriy qondirish imkoniga ega boʻlishlari mumkin. Iqtisodiyotda nima ishlab chiqarish kerakligini isteʼmolchi belgilaydi. Bunday xususiyat bozorda talabga hal qiluvchi kuch beradi.

Talab, avvalo, resurslarga va isteʼmol tovarlari, tovarlashgan xizmatlarga boʻlgan talab sifatida yuzaga keladiki, birinchisi ishlab chiqarish isteʼmolini, ikkinchisi esa shaxsiy isteʼmolni, qondirishga qaratilgan. Shunday ekan har bir korxonada bozordagi talab va taklifni oʻrgangan holda unga toʻgʻri baho berishi lozim. Buning uchun bozorlarda tekshiruv ishlari ayrim tanlangan mahsulotlar orasida anketa javoblarini tarqatish orqali isteʼmolchi talabini oʻrganish lozimdir.

Bozorni o'rganishda moliyaviy va boshqaruv tahlili fani quyidagi vazifalarni bajaradi:

- qanday mahsulot ishlab chiqarish lozimligini belgilaydi;
- qancha miqdorda ishlab chiqarish kerakligini ko'rsatadi;
- korxonaning kelajakda yaratish kerak bo'lgan mahsuloti to'g'risida ma'lumot beradi;
- foyda olish va uning hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan va amalda qo'llanilayotgan qonunlarimiz respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan turli mulk shaklidagi korxonalarni to'liq erkin holda ish yuritishni ta'minlamoqda. Bu esa ularning mahsulot ishlab chiqarish va sotish yo'nalishlarini o'zlari belgilab olishlariga imkoniyat yaratadi. Erkin bozor iqtisodiyotida korxonalarining katta daromad olishlari o'z harakatlariga bog'liq bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, xaridorgir mahsulotlar ishlab chiqarib, belgilangan muddatlarda sotib, pul tushumlari barcha xarajatlarni qoplab mo'maygina foyda ko'rish bosh maqsad bo'lib qolmog'i lozim.

Ushbu ijobiy taraflarni e'tiborga olib korxonalarining bozordagi talab va taklifni o'rganib ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishi muhim ahamiyatga egadir.

Resurslardan samarali foydalanish va iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish uchun korxonalar bozordagi holatni chuqur tahlil etishi lozim. Shu maqsadda kompleks marketing tadqiqoti olib boriladi. Marketing orqali doimiy ravishda yangi xizmat turlari taklif etiladi, ular bozorini kengayishi tufayli korxonalar yuqori darajadagi foydaga erishadi. Marketing orqali korxonalar xo'jalik faoliyati tartibga solinadi. Shu tufayli korxonalar ishlab chiqarish faoliyati natijasini tahlili marketing faoliyatini tahlil etishdan boshlanmog'i lozim.

Marketing tahlili - marketing tadqiqoti tizimining asosiy qismi, manbalarni yig'ish, ularni ro'yxatga olish, bozordagi tovarlar, ish va xizmatlarga tegishli ma'lumotlarga ishlov berish orqali samarali marketing xulosalari chiqariladi.


Marketing tadqiqoti jarayonidagi kompleks iqtisodiy tahlil obyekti, birinchidan, real bozor jarayoni iste'molchilar va raqobatchilar bilan birgalikda, ikkinchidan, mahsulot turlarini ishlab chiqarishdagi korxonalar aniq iqtisodiy va ishlab chiqarish imkoniyatlari hisobga olinishi kerak.

Bir-biri bilan bog'liq obyektlarni chuqur o'rganish orqali bozordagi holat va korxonalar imkoniyatlari hisobga olingan holda optimal variant-

dagi assortiment dasturi yaratiladi. Bu dasturni amalga oshirish orqali korxonaga mahsulotini raqobatga bardoshligi, barqarorligi ta'minlanadi.

Marketing tahlilining asosiy vazifalari:

- korxonaga xizmatiga bo'lgan talab va ehtiyojni baholash, tahlil etish; ishlab chiqarish dasturi real asosga ega ekanligiga ishonch hosil qilish;
- mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talablarga ta'sir etuvchi asosiy omillarni tahlil etish;
- talab etilmagan xizmat turlarini aniqlash;
- baho siyosati va assortiment turlarini tahlil etish;
- mahsulotni raqobatbardoshligini baholash va tahlil etish;
- marketing faoliyatining taktika va strategiyasini ishlab chiqish.



7-chizma. **Korxonani kompleks marketing tahlilining tizimi.**

Marketing tahlilining axborot tizimi ichki manba, tashqi manba, marketing tadqiqotlaridan iborat. Tahlil etish jarayonida bu bo'limlarning har biri mustaqil axborot tizimi sifatida ishtirok etadi. Ichki

axborot manbalari tarkibiga korxonaning buxgalteriya va statistika hisobotlarining tezkor va joriy ishlab chiqarish ilmiy-texnika manbalari kiradi. Tashqi manbalar tizimiga korxonaning tashqi faoliyati, bozor va uning infratuzilmasi, xaridor va mol yetkazib beruvchilar holati, raqobatchilar harakati, bozor mexanizmini tartibga solish bo'yicha davlatning ko'rgan chora-tadbirlari kiradi. Bu manbalar vaqtli va maxsus nashr, statistik to'plam, tijorat tashkilotlarining olib borgan izlanishlarini sharxlarida aks etadi. Bunday manbalar qatori tashkil etilgan ko'rgazma va anjuman manbalari, ishbilarmonlar ushrashuvi va ularning olib borgan muzokaralari bo'yicha tuzilgan protokollar yanada to'ldiradi. Tahlilning axborot manbalari sifatida korxonaning biznes-rejasi (marketing rejasi)dan ham foydalaniladi.

Marketing konsepsiyasiga ko'ra har bir faoliyat yurituvchi korxonaga muvaffaqiyatga erishish uchun, eng avvalo, iste'molchilarning istaklarini nazarda tutishi kerak. Bu esa ularga mos tushadigan tovarlar ishlab chiqarishni taqozo etadi va quyidagi qoidalarga rioya qiladi:

1. Xaridorlarni tushunish va ularni qiziqtirgan doirani aniqlash.
2. Tovar va xizmatlar mulkchiligini ta'minlash.
3. Tovarlar haqida kerakli ma'lumotlarni yetkazib berish.

Yuqorida keltirilgan qoidalar marketingning to'rt aksiomasiga asoslanadi:

- «Qiziqtirish muvaffaqiyat garovi».
- «Raqobat tanlashni rag'batlantiradi».
- «Tanlov qiyinchilik tug'diradi».
- «Tanlovdagi raqobat tovarni takomillashtiradi».

Talabni o'rganish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy va demografik tavsiflariga ko'ra turlarga ajratish usullarini ishlab chiqqan. Shu bilan birga ularni psixologik taraflarini e'tiborga olib tahlil qilish keng rivojlanmoqda.

4.2. Talab va taklifni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Kishilik jamiyati rivojlanar ekan, fan va texnika taraqqiyoti ildam qadamlar bilan yangilanayotgan sharoitda insoniyatning tovar va moddiy qiymatliklarga bo'lgan ehtiyoji - talabi uzluksiz o'zgarib – ortib boradi.


Talab o'zgarishi (elastikligi) mavjud bo'lib, u –

1. Baholar o'zgarishi va holati.

2. Xaridorlar miqdori va ularning didi, istagi.
3. Iste'molchilarning pul daromadi.
4. O'rnini almashtirish mumkin bo'lgan yoki o'rnini bosadigan tovarlar hajmi.
5. Inflatsiya ehtimoliga bog'liqdir.

Bularni ayni vaqtda talabni belgilovchi omillar deyish mumkin. Bularning ichida eng muhimlari tovarlar va xizmatlar bahosi hamda iste'molchilarning pul daromadlari hisoblanadi.

Quyidagi berilgan chizmadan ko'rinib turibdiki, daromadning yuqori bo'lishi talabning oshuvini va baho yuqori bo'lsa, talabning pasayib borishini ko'ramiz (8-chizma).




8-chizma. Talab harakatining chizmasi.

Bozordagi taklif etilgan tovarlar miqdorini bir necha omillari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Taklif etiladigan tovarlar bahosi.
2. Ishlab chiqarish texnologiyasi.
3. Tovar ishlab chiqaruvchilarning miqdori.
4. Ishlab chiqarish omillari bahosi.
5. Soliq va subsidiyalar.
6. Baholarning oshish ehtimoli va hokazolar.

Taklif miqdoriga kuchli ta'sir etuvchi omil – bu tovarlarning bozordagi sotiladigan bahosi hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir ishlab chiqarilgan tovarlar bahosi shu mahsulotni yaratish uchun ketgan o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarning miqdori hamda ko'zlangan foyda normasiga aloqadordir (9-chizma).



9-chizma. **Taklif harakatining chizmasi**

Taklif bozor tovar bilan to‘la ta‘minlangandan keyin o‘zgarmasdan bir me‘yorda bo‘lishi ham mumkin, bunda baho oshib borishi bilan bozorga chiqariladigan tovar ko‘payishining zarurati bo‘lmay qoladi. Shunda ishlab chiqarish hajmi ham o‘zgarmay, taklif ham bahoga bog‘liq bo‘lmagan holda barqarorlashishi mumkin.

Talab o‘zgarishi (elastikligi) mavjud bo‘lib, bu :

- baho o‘zgarishi va holati;
- xaridorlar soni va ularning didi, istagi;
- iste‘molchilarni xarid etish imkoniyati;
- inflatsiya ehtimoli va boshqalar

Yuqoridagi talabni belgilovchi omillardan tovar bahosi va iste‘molchilarning xarid etish imkoniyati muhim o‘rin tutadi. Taklif, bozor tovar bilan to‘la ta‘minlangandan keyin o‘zgarmasdan bir me‘yorda bo‘lishi ham mumkin, bunda baho oshib borishi bilan bozorga chiqariladigan tovar ko‘payishining zarurati bo‘lmay qoladi. Shunda ishlab chiqarish hajmi ham o‘zgarmay, taklif ham bahoga bog‘liq bo‘lmagan holda barqarorlashishi mumkin.

Taklifning o‘zgaruvchanligi, umuman talab o‘zgaruvchanligiga o‘xshab, tovar bahosining o‘zgarishi, taklifning o‘zgarish darajasini aniqlash uchun taklif o‘zgaruvchanligi ko‘rsatkichi (K) qo‘llaniladi. Unga ko‘ra,

$$K = \frac{\text{Taklif etilgan tovar miqdori o'zgarishi (\%)}}{\text{Baholarning o'zgarishi (\%)}}$$

Agar, $K > 1$ bo‘lsa, taklif o‘zgaruvchan;

$K = 1$ bo‘lsa, noo‘zgaruvchan;

$K < 1$ bo‘lsa mutlaq noo‘zgaruvchan bo‘ladi.

Talab va taklifni ifodalashda asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:

- **Jami talab ko'rsatkichi.** Har bir iste'molchining o'z, shaxsiy talabi bozordir. Jami bozor talabi yoki umumiy bozor talabi barcha iste'molchilar talabi yig'indisidan kelib chiqadi. Shunday ekan, jami talab ko'rsatkichi narxlarning muayyan darajasida barcha iste'molchilar sotib oladigan tovarlar miqdorining ifodasi sifatida keladi.

- **Jami taklif ko'rsatkichi.** Bu ko'rsatkichning shakllanishi ham xuddi talabniki singari, jami taklif yig'indisidan kelib chiqadi. Bu esa jami sotilishi lozim bo'lgan tayyor mahsulot ifodasi sifatida keladi.

Marketing tadqiqotida tahlilning turli metod va usullaridan foydalaniladi. Marketing faoliyatida tahlilni qo'llaydigan metodlaridan ayrimlari quyidagilardan iborat:

1. An'anaviy usullar:

- analitik ko'rsatkichlar tizimi;
- omilli modellashtirish;
- taqqoslash, guruhlashtirish va boshqalar.

2. Iqtisodiy matematik usullar tahlil etilayotgan ko'rsatkichlar o'rtasida tasodifiy stoxastik bog'lanish bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Marketing tadqiqotlarini olib borishda eng ko'p qo'llaniladiganlari quyidagilardan iborat:

- **keng o'lchovli metod** (birinchi galda klaster tahlili) orqali marketing xulosalarining asosga ega ekanligi bilan bog'liq muammolarni yechishda qo'llaniladi. Masalan, sotish hajmiga bir-biri bilan bog'liq bir qancha omillardan eng muhimlari baho, raqobatga bardoshlik, reklama xarajatlari va hokazolarni ta'sir etish darajasi aniqlanadi;

- **regressiv va korrelatsiya metodlari** o'zgaruvchan guruhdagi ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik qanchalik jips ekanligini aniqlashda keng qo'llaniladi;

- **statistik metod** – ommaviy, takrorlanib turadigan hodisalar va bozor holatini kuzatishda foydalaniladi;

- **qaror chiqarish nazariya metodi** – marketing faoliyatida bunday nazariyalar bozordagi holat o'zgarishiga iste'molchilarning munosabatini aniqlashda ishlatiladi. Boshqarish faoliyatining samaradorligi ko'pincha qabul qilinayotgan qarorlarga bog'liq. Korxonadagi muammolar va ularning aniq yechimi boshqaruvchiga yuklangan, ishlab chiqarish, texnikaviy, ijtimoiy, iqtisodiy, marketing va huquqiy qarorlarni to'g'ri qabul qilish va o'z vaqtida bajarilishiga bog'liq.

- **variatsion tahlil** marketing faoliyatiga ta'sir etuvchi omillar analitik yo'l bilan bajariladigan ishlarga aloqasi yo'q bo'lgan hollarda qo'llaniladi.

- **chiziqli va chiziqsiz programmalashtirish** xo'jalik jarayonlarini funksiya va cheklanishlarda qatorli tarzda programmalashtirish va ularni boshqarish bo'yicha muqobil qatorlardan eng optimal variantini aniqlashda qo'llaniladi.

3. Evristik metod – shakllanmagan metod bo'lib bozor jarayoni mutaxassislarining tajribasi, sezish qobiliyatlari orqali marketing bilan bog'liq masalalarni yechimi topiladi.

- **«Delfa metodi»**. Bu metod diqqatga sazovor va samarali hisoblanadi. Uning mohiyati shundaki, ekspert so'rovlari bir necha bosqichda olib boriladi, so'rov natijasiga ko'ra bildirilgan g'oyalar anonim xususiyatiga ega, ekspertlarning bir-biri bilan muloqotda bo'lishi cheklangan.

- **jamoa g'oyasini paydo bo'lish metodi** («miyaga hujum» metodi). Bu metod ekspertlarning ijodiy jarayonda faol qatnashuviga asoslangan.

- **xavf nazariyasi** – tizimning nobarqarorligini o'rganuvchi va bashoratlovchi xavfning yuzaga kelish belgilarini aniqlash maqsadidagi analitik dastur.

4. Matritsa usuli – yakuniy ifoda va natijaviy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillarni juftlik, birlik va ko'plik koeffitsiyentlarda aniqlash. Ulardan eng muhimlari quyidagilardan iborat:

- **SWOT analiz (tahlil)** – korxonaning kuchli(S) va bo'sh bo'g'inlari(W)ni aniqlaydigan, shuningdek, bozor imkoniyatlari(O) va holatlari(T)ni o'rganadi. Bunday tahlil natijasiga ko'ra korxonada va uning mahsulot turlarini raqobatga bardoshligi baholanadi, bozor strategiyasi shakllanadi. Marketing faoliyatini tahlili ikki guruhga bo'lib o'rganiladi.

- **Strategik tahlil** marketing tizimida korxonani uzoq muddatga mo'ljallangan bozorni prognozlashdagi pozitsiyasidir.

- **Tezkor (taktik) tahlil** – korxonaning bozor jarayonini hisobga olgan holda joriy imkoniyatlarini faol o'rganish, ya'ni qisqa muddatdagi tutgan yo'lidir. Tezkor tahlil ma'lumotlari asosida bozor talabiga mos keladigan, yuqori foyda keltiradigan, pul mablag'larini tushumini muntazam ta'minlay oladigan puxta assortiment dasturini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi. Korxonada mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bo'yicha optimal dasturning shakllanishi bo'yicha variantlarni ishlab chiqadi.

4.3. Korxonada mahsulot va xizmatga bo'lgan talab darajasini aniqlovchi omillar tahlili

Korxonada mahsulot va xizmatga bo'lgan talabni tahlil etishning asosiy maqsadi – korxonada mahsulotga bo'lgan talab darajasini aniqlash hamda buyurtmalar portfelini tashkil etish hisoblanadi. Buyurtmalar portfeli korxonaning quvvati va undan kelajakdagi foydalanish darajalariga bog'liq bo'ladi. Agar korxonada mahsulotga bo'lgan talab qaysidir sabablarga ko'ra pasayadigan bo'lsa, bunga mos ravishda buyurtmalar portfeli ham qisqaradi. Natijada mahsulot ishlab chiqarish sur'ati pasayishi, mahsulot tannarxining oshishi hamda korxonaning zarar ko'rish ehtimoli kuchayib boradi. Bu jarayon uzoq davom etadigan bo'lsa korxonani bankrotlikkacha olib borishi mumkin.

Bozor muvozanatining muhim elementi bo'lgan talab va taklifni, uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil etish asosida korxonaning ishlab chiqarish sur'ati va uning tuzilishiga baho beriladi. Talab – iste'molchilar tomonidan sotib olinishi mumkin bo'lgan tovarlar miqdoridir. Uni to'lovga qobil ehtiyoj deyish ham mumkin. Talab iqtisodiy kategoriya bo'lib, uning darajasiga ko'plab omillar ta'sir etadi, ya'ni taklif etilayotgan tovar bahosi, uning sifati, xaridorlarning daromadlari, xarid qobiliyati, o'rindosh tovarlarning bahosi, iste'molchilarning daromadlari va tovar bahosini o'zgarishi, bozorning tovarlar bilan to'yinganligi hamda jamg'armalar bo'yicha foiz stavkalarining o'zgarishi kabi omillardir.

Omillarning talab hajmi o'zgarishiga ta'sirini quyidagi bog'lanishlarda talab funksiyasida ifodalash va aniqlash mumkin, ya'ni:

$$Q_D = f(P, P_A, P_B, I, T, S).$$

bu yerda:

P, P_A, P_B – turdosh tovarlar bahosi;

I – aholining pul daromadlari;

T – aholining didi va nimani afzal ko'rishi;

S – mulkiy jamg'arma.

Agar tovarlar bahosidan boshqa jami omillar o'zgarmas deb olinsa, talab funksiyasi faqat baho funksiyasiga teng bo'ladi, ya'ni

$$Q_D = f(P) \text{ ga teng bo'ladi.}$$

Tovar mahsuloti ishlab chiqarilishidan oldin uning iste'mol

xususiyatlari tahlil qilinadi hamda raqiblarning mahsulotlari nimaga sotilayotganligi sabablari o'rganiladi.

O'rganish amaliyoti shu narsani ko'rsatdiki, iste'mol xususiyati, ya'ni tovarning o'z vazifasini bajarishi uning hayotdagi o'rnini beqiyos qilib belgilaydi.

Tovarning xususiyatlari ham inson ehtiyojlariga ko'ra uch turga ajratiladi:

1. Tovarlarning moddiy ehtiyojlarini qondira olish xususiyatlari.
2. Ularning ma'naviy ehtiyojlarini qondira bilishligi.
3. Tovarlarning ijtimoiy ehtiyojlarni to'ldiruvchi ergonomik xususiyatlari.

Birinchi xususiyat tovarlarning inson hayotida muayyan vazifani bajarib, uning moddiy ehtiyojini qondirish tushuniladi.

Tovarlarning estetik xususiyati esa shakli, tuzilishi, pardozi va hidi kabi tomonlarini hisobga olsa, ergonomika qismida insonning unumli ishlashi uchun qulaylik yaratish imkoniyatlari o'rganiladi.


Yakka tartibdagi ehtiyojlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

- oiladagi roli, majburiyat doirasiga ko'ra;
- boshqa odamlar bilan munosabatiga qarab;
- guruhning shaxsga va shaxsning guruhga bo'lgan talabi bilan;
- katta jamoatchilikka qo'shilishi bilan va hokazolar.

Hozirda talab va taklifni o'rgangan holda mahsulot ishlab chiqarish korxonalarining gullab - yashnashi uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Mahsulot, ish va xizmatlarga bo'lgan bozor talabining maksimal darajada qondirilishi bozor mexanizmining zarur shartlaridan biri hisoblanadi. Korxonada faoliyati eng avvalo, bozor regulyatorlari asosida tartiblanadi. Bunda iqtisodiy manfaatlar mushtarakligi e'tiborga olinadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida bozordagi talab orqali xo'jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarish faoliyatiga hamda ishlab chiqarish hajmlariga ta'sir ko'rsatiladi, bu esa ma'lum darajada iqtisodiyot tarmoqlarida talab va taklif muvozanatlashuviga zamin yaratib berishi mumkin.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotidan shu narsa ko'rinadiki, bozorbop mahsulot yetishtirish uchun o'rtacha 60 ga yaqin yangi g'oyani o'rganib chiqish lozim va u quyidagi chizma ko'rinishida bo'ladi (10-chizma).



10-chizma. Mahsulot ishlab chiqarish g'oyalarini o'rganish tartibi.

Bozordagi yangi tovar tayyorlash va ishlab chiqarishda ikkita talabni hisobga olish lozim:

1. Yangi ehtiyojlarni oldindan aytib berish va imkoniyatiga qarab shakllantirish.

2. G'oyani ko'tarib chiqish va tovarlarning ilk nusxalarini sotish o'rtasidagi muhlatni iloji boricha qisqartirish.

Biz uchun eng asosiysi istiqbolli g'oyani tanlash muhim hisoblanib, bu yerda ekspertlardan tuzilgan guruhlar tomonidan miyaga hujum usuli orqali ma'lum tovar uchun talab o'rganiladi. Ushbu o'rganish esa ma'lum tovarlar partiyasi uchun talabning darajasini ifodalab beradi.

Bozordagi taklif darajasi esa tovarning «bozor testi» orqali har bir bozorda mahsulotni oz-ozdan sotib ko'rish orqali aniqlanadi.

Tahlil ishlari albatta axborot manbayiga tayanishi lozim, chunki ular korxonalarining bozorda:

- aniq ustuvorlikka erishishga;
- moliyaviy xavfsizlikni ta'minlashga;
- tashqi muhitni nazorat qilishga;
- strategiyani boshqarishda;
- samaradorligini yaxshilashga va amalga oshirishga sabab bo'ladi.

Har bir ishni amalga oshirilishi uning ma'lum bir axborot manbalariga tayanishini taqozo etadi. Xuddi shu fikrdan kelib chiqqan holda bu mavzuning tahlilida ham manbalarga tayanamiz. Ma'lumotlar avvalo ikkilamchi yig'ish va baholashdan boshlanadi. Ular ichki va tashqi axborotlarga bo'linadi.

Ichki ma'lumotlar quyidagi tarkibdan tashkil topadi:

1. Korxonalar rejalari va ularning bajarilishi.

2. Sotish to‘g‘risida ma’lumotlar.
3. Foyda va zararlar.
4. Xaridorlar bilan hisob- kitoblar.
5. Tovar zaxiralari.
6. Iste’molchilarning arizasi.
7. Natijalarni solishtirish uchun me’yorlar va boshqalar.

Tashqi ma’lumotlar esa:

- davlat va nodavlat tashkilotlarning axbarotlari;
- statistik ma’lumotlar va boshqalarga asoslangan holda uzatiladi.

Sotish hajmi, o‘rtacha baho darajasi, sotishdan keladigan tushum va undan ko‘riladigan foyda ichki va tashqi bozorga bog‘liq.

23-jadval

Mahsulotning bozorda sotilishini tahlili

Ko‘rsatkichlar	Ichki bozor			Tashqi bozor		
	2010	2011	2012	2010	2011	2012
	«A» mahsuloti					
Sotish hajmi, ming t.	260	320	328	50	49	42
1 t. mahsulot tannarxi, ming so‘m	5,5	5,8	6,1	5,7	6,0	6,5
1 t. mahsulot bahosi, ming so‘m	7,0	7,3	7,5	7,8	7,9	8,0
Mahsulot rentabelligi, %	27,3	25,9	22,9	36,8	31,7	23,0
Sotishdan ko‘rilgan foyda, mln so‘m	390	480	459	105	93	63
	«B» mahsuloti					
Sotish hajmi, ming t.	75	143	287	400	350	309
1 t. mahsulot tannarxi, ming so‘m	4,3	4,5	4,9	4,4	4,6	5,0
1 t. mahsulot bahosi, ming so‘m	5,4	5,7	5,9	6,0	5,9	5,9
Mahsulot rentabelligi, %	25,6	26,7	20,4	36,4	28,3	18,0
Sotishdan ko‘rilgan foyda, mln so‘m	82	172	287	640	455	278
	«V» mahsuloti					
Sotish hajmi, ming t.	386	392	400	380	385	406
1 t. mahsulot tannarxi, ming so‘m	4,4	4,4	4,5	4,4	4,4	4,5
1 t. mahsulot bahosi, ming so‘m	4,5	4,6	4,7	4,7	4,7	4,8
Mahsulot rentabelligi, %	2,3	4,5	4,4	6,8	6,8	6,7
Sotishdan ko‘rilgan foyda, mln so‘m	39	78	80	114	115	122

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki «A» hamda «B» mahsulotlariga talab ichki bozorda keyingi ikki yil ichida ortgan. Bu mahsulotlarga bo‘lgan talab tashqi bozorda qisqargan, rentabellik darajalari pasaygan. «V» mahsulotga talab o‘zgarmagan 2010-yilda eksport mahsulot

daromadligi ichki bozordagiga nisbatan yuqori bo'lgan. «B» turdagi mahsulotning tashqi bozordagi narxini pasayishi, tannarxini ortishi tufayli rentabellik darajasi 2010-yildagi 36,4 foizdan 2012-yilga kelib 18 foizga qadar pasaygan. Shu davr ichida «A» mahsulotning rentabelligi 36,8 foizdan 23 foizga qadar tushib ketgan. Bunga asosiy sabab eksport qilingan mahsulot tannarxini keskin ortishidir.

Mahsulotni bozor (ichki, tashqi)da egallagan ulushini, daromad darajasiga qarab to'rt kategoriyaga bo'lish mumkin:

- **«yulduz»** kategoriyali tovarlar – korxonada foydasining asosini tashkil etadigan hamda iqtisodiy o'sishga olib keladigan;

- **«sog'in sigirlar»** kategoriyali tovarlar – og'ir iqtisodiy davrlarning vujudga kelishini oldini oladigan, investitsiyaga muhtoj bo'lmagan, foyda keltirayotgan, boshqa kategoriyali mahsulotlar ishlab chiqarishni moliyalashtirishga ishlatiladigan;

- **«og'ir bola»** kategoriyali tovarlar – bu yangi turdagi tovarlar bo'lib, reklamaga muhtoj bo'lgan, bozorga olib chiqilishi kerak bo'lgan, vaqtinchalik foyda keltirmayotgan, ammo kelajakda «yulduz» tovar bo'lishi mumkin bo'lgan;

- **«o'lik yuk» yoki «omadsiz»** kategoriyali tovarlar – bugungi kun talabiga javob bermaydigan, iqtisodiy o'sishga imkoniyat bermaydigan, foyda keltirmaydigan tovarlardir.

Korxonada mahsulotni guruhlariga ajratib o'rganish orqali to'g'ri, aniq strategiya ishlab chiqiladi. Strategiyani amalga oshirish orqali «og'ir bola» kategoriyasiga mansub tovarlarni moliyalashtirish orqali ularni «sog'in sigirlar», «yulduz» kategoriyalariga yetkazish yo'llari belgilanadi.

Tahlil jarayonida korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning qay biri qaysi kategoriyaga mos kelishligini o'rganish ham muhim hisoblanadi.

Ichki ma'lumotlar asosida quyidagicha tahlil ishlarini amalga oshirishimiz mumkin (24-jadval). Bu jadval natijalar o'lchov birligiga asoslanib olib borilgan bo'lib, uning tahlilini boshqa o'lchov birliklarida yuritishimiz ham mumkin.

Tahlil qilinayotgan korxonada 5 xil "A"; "B"; "V"; "G"; "D" turdagi mahsulotlar ishlab chiqaradi. Bu mahsulotlar ichida "A" va "G" mahsulotlar xaridorgir bo'lib, ularning rejaga nisbatan "A" mahsulot 12 foizga, "G" mahsulot esa 23 donaga ko'p sotilgan. Bu esa bozorda ushbu mahsulot turlariga talabning ko'pligidan dalolat beradi.

Mahsulot sotish rejasining bajarilishini tahlili

Mahsulot turlari	O'lchov birligi	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Farqi (+;-)	Bajarilishi, (%)
A	1	2	3	4	5
A	dona	500	560	+60	112
B	kg.	20	14	-6	70
D	kg.	110	86	-24	78.2
E	dona	89	112	+23	125.8
F	t.	32	33	+1	103.1

Mahsulot tarkibidan "B" va "V" mahsulotlariga talab kam bo'lgan. Natijada bu mahsulotlardan jami 30 kilogramm $(-6+(-24))$ mahsulot sotilmay qolib ketgan. Bunga mahsulot sifati, bahosi yoki o'rinbosar tovarlarning bozorda vujudga kelishi ta'sir etgan.

Korxonaning endigi asosiy vazifasi sifatning buzilishida keltirilgan kamchiliklarni bartaraf etish yoki bo'lmasa boshqa xaridorgir mahsulotni ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishdan iboratdir. Korxonaga uchun yana bir optimal variant, "B" va "V" mahsulotlarni kamaytirib, unga sarflanadigan mablag'larni bir qismini "A" hamda "G" tovarlarini ishlab chiqarishga yo'naltirishi kerak.

4.4. Raqobat darajasini belgilovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlovchi omillar tahlili

Raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida tovarlarning raqobatbardoshligi aniqlanayotganda, uning boshqa raqobatchi tovarlardan yuksak taraflarini mavjudligi, umume'tirof etilgan talablarga javob berishi hamda ketgan xarajatlar miqdori bilan baholanadi. Mahsulotning raqobatbardoshligini baholashda xaridorlar ehtiyoji va bozor talabiga asoslanadi, *chunki tovar xaridor talabiga javob berishi uchun quyidagi parametrlarga mos kelishi kerak:*

a) texnik parametrlarga (tovar belgisi, uni qo'llash va tavsiya etish markazlari);

b) ergonomik parametrlarga (tovarning inson organizmiga mos kelishi);

d) estetik parametrlarga (tovarning tashqi ko'rinishi);

e) me'yoriy parametrlarga (tovarning amaldagi me'yorlarga va standartlarga mos kelishi);

f) iqtisodiy parametrlarga (tovarning baho darajasi, unga ko'rsatiladigan servis xizmati, vositalar o'lchami, xaridorlarning ayni vaqtdagi ehtiyojlarini qondira olishi).

Har bir istemolchi o'z ijtimoiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda tovarlarni sotib oladi. Bu esa, o'z navbatida, raqobatni keltirib chiqaradi.

Xaridorlarning xatti - harakatlaridan shuni ko'rish mumkinki, ular tovarlarni taqqoslashda, uning ishlatish samaradorligi (s), sotib olish xarajatlariga (x) nisbatan yuqori bo'lsa o'sha mahsulotni ko'proq tanlashadi. U holda tovarning raqobatbardoshligi (r) quyidagi,

$$R=S/X;$$

ko'rinishni oladi.

Tovarning raqobatbardoshligini baholash quyidagi bosqichlarda bo'ladi:

1. O'rinbosar tovarlarni topish va uni tahlil qilish.
2. O'xshash mahsulotlarning solishtirilishi orqali asosiy ko'rsatkichlarini belgilash.
3. O'z mahsulotimizdagi integral (umumiy) raqobatbardoshlik ko'rsatkichlarini aniqlash.

Raqobat - lotincha so'zdan olingan bo'lib, maqsadga erishish uchun kurash, korxonalar o'rtasidagi sof kurashni bildiradi. Uning asosiy quroli, talabni shakllantirish va sotishni rag'batlantirish hisoblanadi.

Raqobat ikki turga bo'linadi:

1. Sof raqobat.
2. G'irrom raqobat.

Sof raqobat bozor talablariga ko'ra vijdonan kurashishni bersa, g'irrom raqobat uning aksini ta'minlaydi.

Jahon bozori tajribasidan raqobatning quyidagi shart-sharoitlari mavjud:

- Kuchlar teng va strategiyalar o'xshash bo'lsa, bozorda muvozanat uzoq saqlanmaydi, ular orasida kelishmovchilik susaymaydi.
- Siz raqibingizni hamma narsadan xabardor deb biling.
- Raqibingizning g'ashini keltiruvchi harakat qilmang.
- Sizning harakatingiz imkoningiz darajasida ekaniga raqibingizni ishontiring.

Bozorda korxonaning tutgan ulushiga qarab raqobat ko'rsatkichlari aniqlanadi:

- a) ilg'or - 40 foiz;
- b) ilg'orga da'vogar - 30 foiz;
- d) davomchilari - 20 foiz;
- e) bozorda uncha omadi kelmagan - 10 foiz

Ushbu ko'rsatkichlarga asoslangan holda ham ularning raqobat darajasini aniqlashimiz va baho berishimiz mumkin.


Hozirgi zamonaviy sharoitda boshqarishda iqtisodiy uslubni birinchi o'ringa qo'yilishi xo'jalik hisobidagi korxonalar va uning sex, uchastkalarini asosiy prinsipi bo'lib, bunda moliyaviy va boshqaruv tahlili muhim ahamiyatga egadir, faqat moliyaviy va boshqaruv tahlili tufayli jamoa faoliyatining iqtisodiy natijalari obyektiv baholanib korxonani har bir bo'limi, har bir ishchini umumiy natijadagi ulushi aniqlanadi. Moliyaviy va boshqaruv tahlilisiz xo'jalik mexanizmini to'g'rilash va uni takomillashtirishni amalga oshirib bo'lmaydi. Moliyaviy va boshqaruv tahlili ishlab chiqarish imkoniyatlarini aniqlab qolmay, balki moddiy resurslardan oqilona tejamkorlik bilan foydalanishni rag'batlantiradi, shu bilan birga ishlovchilarni tejamkorlik ruxida tarbiyalaydi.

Raqobatchilarning imkoniyatlarini muntazam o'rganib turish sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlarni o'z vaqtida xaridorlarga yetkazish va firma schotiga pul kelib tushish rejasini muvaffaqiyatli bajarishning garovidir, faqat raqobatchilarni bozorga o'xshash tovarlar yetkazib berish imkoniyatini bilibgina qolmay, shuningdek, ularga nisbatan sifatli va arzonroq tovarlar taklif qilish choralarini ko'rish yuqori foyda olishning yana bitta omilidir. Raqobatchilarni imkoniyatlarini o'rganishda qator davrlar mobaynida ixtisoslik tovarlarini sotilish holatini kuzatish va ma'lumotlarni tahlil etish lozimdir. Bunday tahlil quyidagi tartibda bajariladi (25-jadval).

Uch yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, firmaning «A» mahsulotiga bo'lgan talabga nisbatan 160 dona ko'p tovar iste'molchilarga taklif qilinmoqda. Shuningdek, «V» mahsulot bo'yicha 5 kg va «D» mahsuloti bo'yicha 3000 kg talabga nisbatan ortiqcha tovarlar bozorga chiqarilgan. Demak, bu mahsulotlarni to'liq sotilishi uchun raqobatchilarga nisbatan sifatli va xaridorgir tovarlar bo'lishiga e'tibor qaratilishi lozim, lekin «B» va «G» mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirish imkoniyatlari borligini tadqiqotlar ko'rsatib turibdi. Firma ixtiyorida bozordagi talabni e'tiborga olib turib ayrim turdagi tovarlarni ko'proq taklif qilishga ixtisoslashish imkoniyatlari ham bor. Demak, firmani bozordagi strategiya va taktikasi turli variantlarda bo'lishi ham mumkin ekan.

Xo‘jalik subyekting raqobatchilari imkoniyati va firma ixtisoslik tovarlarining bozordagi sotilish darajasini tahlili

Tovarlarning turi	O‘lchov birligi	O‘rtacha o‘tgan uch yilda bozordagi talab miqdori	Raqobat-chilar taklif qilgan tovarlar miqdori	Bozordagi talabdan farq	Firma taklif qilishi lozim bo‘lgan tovarlar
1	2	3	4	5	6
«A» mahsulot	dona	2600	2200	400	560
«B» mahsulot	kg.	1400	1380	20	14
«V» mahsulot	kg.	240	159	81	86
«G» mahsulot	dona	300	160	140	112
«D» mahsulot	tn.	700	670	30	33



11-chizma. Korxonani kompleks raqobat tahlilining tizimi.

Iqtisodiyotda raqobat turli funksional strukturalar o‘rtasida yagona maqsad sari raqobatlashuv tushuniladi. Kompleks raqobat tahlili ikki asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi:

- 1) korxonani raqobatda tutgan o‘rnini tahlili;
- 2) korxonani raqobatga bardoshligini tahlili.

Kompleks marketing tahlilining asosiy yo‘nalishida korxonaning raqobatda tutgan o‘rni muhim rol o‘ynaydi. Korxonaning raqobatbardoshligi qisqa muddatdagi kapital mablag‘ sarfi evaziga rejadagiga

nisbatan kam bo‘lmagan miqdordagi foydaga erishish tushuniladi. Korxonani raqobatga bardoshligini ta’minlash uchun raqobat qilish qobiliyatini oshirish, raqobatbardoshlik strategiyasini rivojlantirish lozim. Bu ko‘rsatkichlar korxonani bozordagi faoliyatini samarali yuritish, bozordagi ulushini saqlash yoki uni oshirish, kelgusida yetarli darajadagi rentabellikka, moliyaviy barqarorlikka erishish kabi ko‘rsatkichlar yig‘indisidan iborat. Bunday holatga erishish uchun tovar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi talab etiladi.

- texnik parametrlar (tovar xususiyati, uni qo‘llanishi va tavsiya etilishi);
- estetik parametrlar (tovarlarning tashqi ko‘rinishi);
- ergonomik parametrlar (tovarning inson organizmiga zararsizligi);
- me‘yoriy parametrlar (tovarning amaldagi me‘yorlarga va standartlarga mos kelishi);
- iqtisodiy parametrlar (tovar bahosi, ko‘rsatiladigan servis xizmati).

Xaridorlarning xatti-harakatidan shuni anglash mumkinki, tovarlarni taqqoslashda, uning ishlatish samaradorligi (S), sotib olish xarajatlari (X)ga nisbatan yuqori bo‘lsa, shu mahsulotni xarid etadilar. Tovar raqobatdoshligi (R) quyidagicha aniqlanadi:


$$R = \frac{S}{X}$$

Tovar raqobatbardoshligini baholash bosqichlari quyidagilardan iborat:

1. O‘rinbosar tovarlarni topish va uni tahlil qilish.
2. O‘xshash mahsulotlarning solishtirilishi orqali asosiy ko‘rsatkichlarini belgilash (aniqlash).
3. O‘z mahsulotimizdagi integral (umumiy) raqobatbardoshlik ko‘rsatkichlarini aniqlash.

Mahsulotning raqobatlashuv qobiliyatini pasayish sabablarini korxonaning muhandislari, iqtisodchi, master, texnik nazorat, moddiy-texnika ta’minoti, sotish bo‘limlari xodimlari) sinchiklab o‘rganadilar:

- mahsulot konstruksiyasi (modeli, tuzilishi);
- tayyorlov texnologiyasi;
- materiallar va butlovchi buyumlarning sifati va bahosi;
- korxonada ishlab chiqarishining holati va boshqalar.



12-chizma. Sifat zanjiri.

Mahsulot turlari parametrlarini o'zgarish sabablarini kompleks tahlilida etalon sifatida qabul qilingan o'rtacha bozor yoki tarmoq parametrlari bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Har bir detal, material, butlovchi buyum, texnologik jarayonlar bo'yicha tafovutlar mutaxassislar tomonidan alohida-alohida aniqlanadi va jamlanadi. Yo'l qo'yilgan kamchiliklar tufayli mahsulot raqobatbardoshligining pasayishini bartaraf etish tadbiriy choralari quyidagi mazmunga ega:

- o'zgartirish kiritiladigan va modernizatsiya qilinadigan mahsulot nomi;
- mahsulot ishlab chiqarishidagi kamchiliklarni yo'qotish bo'yicha bajariladigan ish turlari;
- kamchiliklarni yo'qotish bilan bog'liq ish turlarini muddati, unga javobgar shaxslarning ism-sharifi;
- zarur material, asbob-uskunalar ro'yxati va miqdori;
- bajarilgan ish turlari va moddiy resurslarning summasi;
- ishni tugatish muddati;
- kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan ishlar samaradorligiga oid ma'lumotlar.

Mahsulot raqobatbardoshligi ko'p jihatdan sifat ko'rsatkichlariga bog'liq. Sifat zanjiri sifatning uch xil tushunchasini aks ettiradi.

Birinchi bosqichda mahsulot, xizmatlar sifati texnikaviy shartlarga muvofiq bo'lishi kerak. **Ikkinchi bosqichda** konstruksiya, instruksiya sifati baholanadi, ya'ni sifat firma texnikaviy shartlariga javob berishi, ammo konstruksiya yuqori yoki past sifatli bo'lishi mumkin. **Uchinchi bosqichda** sifat iste'molchi talabiga muvofiq darajada bo'ladi. Sifatning bu jihati uning funksional jihati deb ataladi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- talabni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- talabning egiluvchanligi;
- talabning o'zgarish sabablari;
- talab va taklif muvofiqligi;
- taklifning o'zgarish sabablari;
- o'xshash tovarlar va ularning talab hamda taklifning o'zgarishiga ta'siri;
- tovarlarni raqobat darajasi;
- tovar raqobatbardoshligini aniqlash bosqichlari;
- evristik metod;
- SWOT – analiz (tahlil);
- strategik tahlil;
- tezkor tahlil;
- talab va taklif;
- «yulduz» kategoriyali tovarlar;
- «sog'in sigirlar» kategoriyali tovarlar;
- «og'ir bola» kategoriyali tovarlar;
- «o'lik yuk» yoki «omadsiz» kategoriyali tovarlar;
- korxonaning baho siyosatini tahlili;

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo'jalik subyektlarining bozordagi faoliyatini tahlil etishning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Korxonada mahsulotga bo'lgan talab va taklifni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari qaysilar hisoblanadi?
3. Bozordagi talab va taklifga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib bering?
4. Korxonada mahsulot va xizmatga bo'lgan bozor talabi va taklifini tahlil etish usullarini ko'rsatib o'ting?
5. Bozordagi raqobat darajasi qanday tahlil etiladi?
6. Narx-navo siyosatining bozordagi talab va taklifga ta'siri qanday tahlil etiladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Korxonaning marketing faoliyatini tahlil etishda asosiy e'tibor nimaga qaratilishi lozim. Raqobat bozorida korxonaning mahsulotining o'z o'rnini topa olishida qanday tadbirlar ko'rish maqsadga muvofiq ekanligini izohlab bering.

2-topshiriq.

Quyidagi ma'lumotlar asosida:

- sotish hajmini o'sish sur'atini;
- mahsulot turlarining o'rtacha bozordagi yetakchilik koeffitsiyentini aniqlang.

Mahsulot turi	Sotish hajmini o'sish (pasayish) sur'atlari %	Yetakchi	Mahsulotni jami sotish hajmidagi ulushi, %
A	86,2	2,0	32,6
B	110,0	1,6	8,5
D	114,4	0,7	1,7
E	130,0	1,2	31,4
F	160,0	1,5	5,8
J	166,7	0,1	1,3
Z	60,0	2,2	4,5
K	70,0	1,0	8,9
L	44,4	1,0	5,2

Test savollari:

1. Qaysi javobda Kompleks marketing tahlilining an'anaviy usullari tarkibiga kiruvchi usul to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) taqqoslash usuli;
- b) integral usul;
- d) chiziqli programmashtirish usuli;
- e) nazariy o'yin usuli.

2. Qaysi javobda iqtisodiy – matematik usullari tarkibiga kiruvchi usul to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

- a) balansli bog'lanish usuli;

- b) iqtisodiy tashxis qo‘yish usuli;
- d) guruhlashtirish usuli;
- e) taqqoslash usuli.

3. Talabning o‘zgaruvchanligi nimalarga bog‘liq?

- a) baho o‘zgarishi va holatiga;
- b) xaridorlarning didi va istagiga;
- d) xaridorlarning soni, xarid qilish imkoniyatlariga;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

4. Yuqori sifatga erishish uchun tovar qanday xususiyatlarga ega bo‘lishi kerak?

- a) texnik parametrlar;
- b) estetik parametrlar;
- d) ergonomik parametrlar;
- e) barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Bozorni xaridorligi:

- a) mahsulot sotish hajmi, mahsulot bahosi, sotishdan kelgan tushum, foyda;
- b) sotilgan mahsulot miqdori, mahsulotning o‘rtacha bahosi, rentabellik darajasi, ishlab chiqarishning maromiyligi;
- d) sotish hajmi, import tovarlar hajmi, mahsulot sifati, ishlab chiqarish maromiyligi;
- e) eksport tovarlar hajmi, bozorni uzoq-yaqin masofada ekanligi, aholini xaridorligi, mahsulot sifatiga bog‘liq.

6. Kompleks tahlil deb nimaga aytiladi?

- a) xo‘jalik yurituvchi subyekt faoliyatini makon va zamon nuqtayi nazaridan barcha tuzilmalari bilan birga batafsil tahlil etishdir;
- b) xo‘jalik faoliyatida natijaviy omillar o‘rtasidagi bog‘liqlik, funksional bog‘liq bo‘lmagan sharoitda, ularning bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan tahlildir;
- d) mulk egalari va mutaxassisleri tomonidan ichki imkoniyatlarini ishga solish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan tahlildir;
- e) noto‘g‘ri javob yo‘q.

V BOB. MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR ISHLAB CHIQRISH VA SOTISH HAJMINING TAHLILI

5.1. Xo‘jalik subyektlarining mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlarini tahlil etishning ahamiyati va vazifalari

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalar ishlab chiqarishi ko‘zda tutgan mahsulotlar hajmi iste‘molchilarning ko‘lami hamda korxonalar ichki imkoniyatlari bilan uzviy bog‘liqdir. Ayniqsa, mahsulotlar ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan boyliklarning chegaralanganligi mo‘l-ko‘l tovarlar yaratishni ham chegaralaydi. Bunday sharoitda korxonalar o‘z ichki imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini to‘g‘ri belgilay olishi muhim ahamiyatga ega.

Korxonalar faoliyatini tahlili mahsulot ishlab chiqarish (ish, xizmat) va uni sotish tahlilidan boshlanadi, chunki ishlab chiqarish va sotish hajmlari faoliyat yuritishning asosiy ko‘rsatkichlaridir. Ishlab chiqarilgan va sotiladigan mahsulotning hajmi, assortiment, sifatiga xarajat, foyda va rentabellik ko‘rsatkichlariga bog‘liq. Tahlil natijalari asosida aniq maqsadlarga yo‘naltirilgan boshqaruv qarorlari ishlab chiqiladi, jumladan:

- mahsulot va xizmatlarga bo‘lgan talab shakllanadi;
- ishlab chiqarish quvvatidan kelib chiqqan holda aniq hajmdagi mahsulot miqdori belgilanadi;
- ishlab chiqarish xarajatlari smetasi tuziladi;
- moddiy-texnika resurslarini yetkazib berish, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish rejalari shakllanadi;
- mehnat resurslariga talab baholanadi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari korxonalar tomonidan bozor kon‘yunkturasini chuqur tahlil etgan holda mustaqil ravishda rejalashtiriladi.

Mamlakatimizda oqilona va samarali iqtisodiy siyosatning ishlab chiqilishi va hayotga izchil ravishda tatbiq etilishi, barqaror rivojla-

nishni asosiy manba, omillarining to'g'ri tanlanishi va ularga ustuvor ahamiyat berilishi keyingi yillarda iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlanishiga imkoniyat yaratmoqda.

Korxonalar yaratayotgan mahsulotlarining bozorda mo'l-ko'lligi, raqobatchilarning imkoniyatlari va iste'molchilarning ixtisoslik tovarlarga bo'lgan talablarining o'zgarib turishi ishlab chiqarish hajmini to'g'ri va oqilona rejalashtirishni talab etadi. Har bir korxonalar ishlab chiqaradigan mahsulotlarining xaridorlari bilan joriy yil uchun shartnomaviy majburiyatlar tuzadilar. Bunda yetkazib berilishi lozim bo'lgan tovarlar turi, miqdori, sifati, narxi va muddatlari tomonlar o'rtasida kelishiladi, demak, mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmi iste'molchilarning talab va istaklariga bog'liq bo'ladi.

Ichki imkoniyatlarni e'tiborga olgan holda korxonadagi barcha mavjud boyliklardan to'liq foydalanib, mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini kerakli me'yorda, ya'ni foyda olishni to'liq kafolatlangan sharoitini ta'minlashni ko'zda tutib ishlab chiqarish tashkil etiladi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha biznes-rejada mo'ljallangan hajmi bajarilishini ta'minlash hamda yuqori sifatli, xaridorgir mahsulotlarni yaratilishi korxonaning bevosita muhim ko'rsatkichlari bo'lmish ishlab chiqarish tannarxi, xarajatlar hajmi, foyda va rentabellik, moliyaviy barqarorlik, to'lov qobiliyati, sof pul mablag'larining hisobot davri oxiriga ko'payishini ta'minlovchi omildir.

Boshqaruv hisobotida ishlab chiqarish ko'rsatkichi natura va qiymat shakllarida aks etadi. Jami korxonalar bo'yicha ishlab chiqarilgan mahsulot, ko'rsatilgan xizmat qiymat shaklida aks ettiriladi. Har bir korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmini belgilangan nomenklatura, assortimentda sifatli bajarishi lozim. Hozirgi sharoitda mahsulotni ishlab chiqarish hajmi korxonalar tomonidan mustaqil belgilanadi va rejalashtiriladi.

Mahsulot mo'l-ko'lligini ta'minlashda aholini xilma-xil tovarlar bilan ta'minlashda xorijiy sarmoyalarning tutgan roli katta. Xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonini kuzatar ekanmiz, rivojlanish darajasi qanday bo'lishidan qat'iy nazar chet el sarmoyasi kiritilgan mamlakatlar iqtisodiyoti tez sur'atlar bilan rivojlanib, salmoqli yutuqlarga erishayotganligining guvohi bo'lamiz. Xalqaro moliyaviy tashkilotlar ma'lumotlariga ko'ra bir yilda qariyb 400 mlrd. AQSh dollari hajmidagi xorijiy sarmoya bir mamlakattan ikkinchi mamlakatga, bir mintaqadan boshqa mintaqaga olib kiriladi.

Bu borada, Prezidentimiz Islom Karimov Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 19-yanvardagi 2011-yilning asosiy yakunlari va 2012-yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan majlisidagi ma‘ruzasida ishlab chiqarishning o‘shir sur‘atlari haqida to‘xtalib, jumladan shunday degan edi: **«...shuni tan olish kerakki, so‘nggi yillarda jahon iqtisodiyotida yuzaga kelayotgan muammolar, asosan, qo‘shimcha pul bosib chiqarish va moliya bozorini shunday pullar bilan to‘ldirish hisobidan hal etilishi ko‘zga tashlanmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, kelgusida jilovlab bo‘lmaydigan inflatsiyaga, ya’ni qimmatchilikka, zaxira va milliy valutilarning qadrsizlanishiga va shu bilan bog‘liq og‘ir oqibatlariga olib kelishi mumkin.**

O‘z-o‘zidan ayonki, jahon bozorida kechayotgan inqiroz jarayonlari o‘tgan davr mobaynida mamlakatimiz iqtisodiyotining rivojlanish ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatmasdan qolmadi. Birinchi navbatda, dunyo bozorida xomashyo va tayyor mahsulotga ehtiyojning tobora pasayib borishini hisobga oladigan bo‘lsak, bunday holat mamlakatimizning eksport salohiyati va valuta tushumiga salbiy ta’sir ko‘rsatmasdan qolmaydi, albatta.


Ta’kidlash joizki, o‘tgan yili mamlakatimizda yalpi ichki mahsulotning o‘shir sur‘ati, kutilganidek, amalda 8,3 foizni tashkil etdi, 2000-2011 yillar mobaynida yalpi ichki mahsulot hajmi 2,1 barobar oshdi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan mamlakatlari qatoridan joy oldi».¹

Bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk shaklidan qat’iy nazar barcha firma va kompaniyalarda mahsulotlarni eng avvalo sotish uchungina ishlab chiqarishni tashkil etadilar, faqatgina buyurtmachi talabi asosida va iste’molchilarning didini mo‘ljallab, barcha talabni qondirish maqsadida sifatli tovarlar ishlab chiqarishga harakat qiladilar. Mahsulotlarning o‘z muddatida sotilishi ishlab chiqarishni maromida davom etishini ta’minlaydi, boyliklarning aylanishini tezlashtiradi. Mahsulot sotish orqali qilingan doimiy va o‘zgaruvchi xarajatlar qoplanadi va firma foyda ko‘rishni mo‘ljallaydi. Sotish hajmi ishlab chiqarish jarayonining so‘nggi bosqichidir. Mahsulot sotishdan kelgan tushum orqali korxonalar birinchi galdagi to‘lovlarni amalga oshiradi. Bu

¹ Karimov I.A. 2012 йил ватанимиз таракқиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Тошкент. «Ўзбекистон», 2012 йил 34 б.

hisob-kitoblarning o‘z vaqtida bajarilishi turli xil jarima, iqtisodiy ogohlantirishlar va penyalar to‘lashdan korxonani qutqaradi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o‘z vaqtida sotilishi korxonaning ijobiy moliyaviy natijaga erishishi, dividend to‘lovlarini o‘z vaqtida amalga oshirishi, mulk va mablag‘larning uzluksiz hamda samarali aylanishi kabi ko‘pgina moliyaviy ahvol munosabatlarini yaxshilash imkoniyatini tug‘diradi. Sotish jarayonini muddatida bajarilishi korxonaning ishlab chiqarish va ta‘minot jarayonlarini ham tezlashishiga ta‘sir etadi, debitorlik va kreditorlik qarzlarini qisqartiradi, pul oqimlarini ijobiy bo‘lishini ta‘minlaydi. Bu fikrlarni oddiy ifodalash maqsadida quyida mablag‘larning korxonaga va firmalardagi harakat qilishini chizma shaklida keltiramiz (13-chizma).



13-chizma. Mablag‘larning korxonadagi harakati chizmasi.

Sotish bo'yicha rejaning bajarilishida tayyor mahsulot va uning sifati muhim o'rin tutadi.

Tayyor mahsulot deb - barcha ishlov operatsiyalaridan o'tib, tayyor holga keltirilgan, belgilangan davlat standarti yoki texnik talablarga javob beradigan, texnik nazoratdan o'tgan mahsulotga aytiladi. Tayyor mahsulot tarkibiga buyurtmachi korxonalar uchun bajarilgan ish va xizmatlar hamda ushbu korxonaga qarashli ishlab chiqarishdan tashqari xo'jaliklar uchun bajarilgan ish va xizmatlar ham kiradi.

Sotish uchun mo'ljallangan mahsulot tovar mahsuloti deb nomlanadi. Uning tarkibiga sotish uchun mo'ljallangan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor mollar, buyurtmachi korxonalar va muassasalar uchun bajarilgan sanoat xarakteriga ega bo'lgan ishlar kiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida narx turlari ko'payadi: ulgurji, chakana narxlardan tashqari yana ichki, xalqaro narxlar mavjuddir. Ichki narx tovarlarga davlat ichkarisidagi belgilangan narx, xalqaro narx esa tovarlarga xalqaro bozorda belgilangan narxdir. **Bulardan tashqari bozor iqtisodiyoti sharoitida ikki xil narx amal qiladi :**

1. Erkin narx.
2. Davlat tomonidan belgilanadigan narx.

Davlat tomonidan belgilanadigan narx keyinchalik qisqarib boradi, erkin narxning doirasi kengayib boradi. Korxonalar o'z ishlab chiqargan mahsulotlarini erkin narxda iste'molchilar bilan kelishilgan narxda sotishga intiladilar. Kamyob mollarni tovar birjasi orqali sotish, kim oshdi savdosi orqali sotish keng rivojlanadi.

Omborga qabul qilingan va xaridor korxonalariga jo'natilgan mahsulot buxgalteriya hisobida haqiqiy ishlab chiqarish tannarxi bo'yicha aks ettiriladi, biroq sexlardan mahsulot omborga qabul qilinganda uning haqiqiy tannarxi ma'lum bo'lmagani uchun mahsulot harakatini hisobda qabul qilingan reja tannarxi yoki ulgurji bahoda hisobga olinadi, ya'ni baholanadi.

Korxonaning barcha erishgan natijaviy ko'rsatkichlari to'g'ridan-to'g'ri mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni sotish bilan bevosita bog'liqligini e'tiborga olsak, **bu boradagi iqtisodiy tahlilning muhim vazifalari quyidagilar hisoblanadi:**

1. Mahsulotlar ishlab chiqarishning biznes-rejada mo'ljallangan hajmda bajarilganligiga baho berish.
2. Ishlab chiqarishning tarkibi, dinamikasi va o'zgarish sabablarini omilli tahlil etish.

3. Mahsulotlarning sifati va standart talablariga javob berish darajasini o'rganish.

4. Mahsulotlarning ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish imkoniyatlarini aniqlash.

5. Mahsulot nomenklaturasi va assortimentiga baho berish hamda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishini tahlil etish.

6. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish.

7. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini ko'paytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish.

8. Aniqlangan imkoniyatlarni hayotga tatbiq etish borasida takliflar ko'rsatish.

9. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hajmi bo'yicha belgilangan biznes-rejaning asosligini aniqlash.

10. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish rejasining umumiy hajmda hamda shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda bajarilishiga obyektiv baho berish.

11. Mahsulot (ish, xizmat)larning sifat ko'rsatkichlarini o'rganish va ularning sotish hajmiga ta'sirini aniqlash.

12. Mahsulot sotish hajmlarining dinamik o'zgarish sabablarini aniqlash va baho berish.

13. Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash va ularga baho berish.

14. Shartnoma majburiyatlarini buzilishi, bajarilmaslik sabablarini aniqlash va unga baho berish.

Mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish muomalalari tahlilining obyektlari esa quyidagilar:

- mahsulotlar turlari va assortimenti bo'yicha ishlab chiqarish hajmi;
- mahsulotlarning sifati va raqobatbardoshligi;
- ishlab chiqarilgan va sotilayotgan mahsulotlarning tarkibi;
- ishlab chiqarishning maromiyligi va uzluksizligi.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmlarini tahlil etishda moliyaviy va boshqaruv tahlilining asosiy axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaning biznes-reja ma'lumotlari;
- «Korxonalar (birlashma)ning mahsuloti bo'yicha hisoboti» (1-P shakl) nomli statistik hisoboti ma'lumotlari;

- «Tayyor mahsulotlar harakati» to‘g‘risidagi 16-sonli vedomost;
- «Buxgalteriya balansi» (1-shakl) ma’lumotlari;
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-shakl) ma’lumotlari va boshqa axborot manbalari.
- «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» ma’lumotlari;
- boshqa qo‘shimcha ma’lumotlar.

5.2. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmlari bo‘yicha belgilangan biznes-rejalarning bajarilishi tahlili

Hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida sanoat korxonalarini ishlab chiqargan mahsulotlari hajmi miqdoriy, shartli – miqdoriy, mehnat va qiymat o‘lchovlarida o‘rganilishi mumkin. Bu o‘lchovlar tarkibida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmini o‘rganishda qiymatda hisoblangan ko‘rsatkichlarni tahlil etish muhim o‘rin egallaydi, ya’ni korxonada barcha turdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi qiymat o‘lchovida umumlashadi. *Moliyaviy va boshqaruv tahlili uchun sanoat korxonalarini ishlab chiqargan mahsulot hajmini o‘rganishda quyidagi umumlashtiruvchi ko‘rsatkichlar o‘rganiladi:*

- yalpi mahsulot;
- tovar mahsuloti;
- sotilgan mahsulot;
- normativ sof mahsulot;
- shartli mahsulot.

Yalpi mahsulot – bu korxonaning ma’lum bir davrda (kun, oy, chorak, yil) ishlab chiqargan mahsuloti, ko‘rsatgan xizmat va bajargan ishlarining amaldagi va solishtirma bahoda o‘lchangan hajmiga aytiladi. Bunda uning tarkibiga ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot, bajarilgan ishlar, ko‘rsatilgan xizmatlar, tugallanmagan ishlab chiqarish qiymatlari, korxonaning o‘z kapital remonti uchun sarflangan yarimfabrikatlar qiymati, buyurtmachilarning xomashyosidan tayyorlangan mahsulotlar qiymati ham qo‘shilgan holda aks etadi. Ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hajmi korxonaning quvvati, imkoniyati va ixtisoslashuvini o‘rganishga hamda tahlil o‘tkazishga imkoniyat yaratadi.

Tovar mahsuloti – bu iste’molchilarga yetkazib berish uchun mo‘ljallangan mahsulotlar bo‘lib, yalpi mahsulotdan shu jihatlari bilan farq qiladiki, uning tarkibiga tugallanmagan ishlab chiqarish va korxonada

ichki iste'moli (oboroti) uchun foydalanilgan mahsulotlar hamda buyurtmachilarning xomashyosidan tayyorlangan mahsulotlar kiritilmaydi.

Sotilgan mahsulot deb – iste'molchilarga jo'natilgan yoki xaridorlardan puli kelib tushgan mahsulotlar qiymatiga aytiladi. Sotilgan mahsulotlar hajmi solishtirma, biznes-rejadagi va amaldagi baholarda hisoblanishi mumkin. Bu ko'rsatkichga qarab ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi bog'liqlik, korxonaning mahsulotlarini sotish hajmini ko'paytirish bo'yicha imkoniyatlari bor yoki yo'qligini tahlil qilishga asos bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimiga tovar mahsuloti solishtirma bahosidan tashqari fond qaytimi, ya'ni asosiy vositalar qiymatining har so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi ham kiradi. Fond qaytimi jami asosiy vositalardan unumli foydalanishni ifodalovchi umumlashtiruvchi ko'rsatkich.

$$F_q = \frac{N}{F},$$

bunda F_q - fond qaytimi;

N – mahsulot hajmi (ish xizmat) solishtirma bahoda;

F – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini kompleks tahlilining asosiy vazifasi – mahsulot hajmlarini qanday omillar evaziga oshganligini aniqlash, so'ngra ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilishdan iborat. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillar tufayli sotishdan kelgan tushum o'tgan yildan farqlanadi. Umumlashgan tarzda ishlab chiqarish omillarini uch guruhga: mehnat, mehnat predmetlari va mehnat vositalariga ajratib o'rganish talab etiladi. Bu omillar uzviy bog'liqlikda kompleks tarzda mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etadi. Uch omilning mahsulot hajmiga bo'lgan ta'siri quyidagi formulalar asosida aniqlanadi:

$$N = R * D = R * \frac{N}{R}, \quad (1)$$

bunda R – xodimlarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, D – mehnat unumdorligi (bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot)

$$N = F * F_q = F * \frac{N}{F}, \quad (2)$$

bunda F – asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati;

F_q - asosiy ishlab chiqarish fondlarini fond qaytimi.

$$N = M_x * M_q = M_x * \frac{N}{M_x}, \quad (3)$$

bunda M_x - mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati;

M_q - material qaytimi (materiallar xarajatini har soʻmiga toʻgʻri keladigan mahsulot hajmi)

Birinchi formula mahsulot hajmi xodimlar soni va mehnat unumdorligiga, ikkinchi formula - asosiy ishlab chiqarish fondlari va fond qaytimiga, uchinchi formula – materiallar sarfi va material qaytimiga bogʻliqligini ifodalaydi.

Mehnat unumdorligi xodimlarni fond bilan qurollanishi ($\frac{F}{R}$) va asosiy ishlab chiqarish vositalarining fond qaytimi ($\frac{N}{F}$) ga bogʻliqligi quyidagicha ifodalanadi.

$$D = \frac{F}{R} * \frac{N}{F} = \frac{N}{R} = D$$

Birinchi formuladagi D ni oʻrniga kengaygan shaklda mahsulot hajmiga omillar taʼsirini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$N = R * \frac{F}{R} * \frac{N}{F} \quad \text{yoki} \quad N = RF_v * F_q$$


Demak, bu formulaga muvofiq mahsulot hajmi uch omilga bogʻliq: korxonani xodimlar bilan taʼminlanishi, mehnatni fond bilan qurollanishi, asosiy vositalarning fond qaytimi.

Sotish hajmi indeksining dinamikasi «Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobot» (shakl-2) maʼlumotlari asosida inflatsiya darajasini hisobga olgan holda aniqlanadi.

$$I_N = \frac{N_1}{N_0},$$

Ishlab chiqarish turgʻun holatga ega boʻlish sharti: $I_N \approx i_{inf}$, bunda i_{inf} - oʻtgan yilga nisbatan inflatsiya indeksi. $I_N > i_{inf}$ - boʻlsa ishlab chiqarish oʻsishini; $I_N < i_{inf}$ - ishlab chiqarish pasayishini ifodalaydi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmini oshirish rezervlarini manbalari 14-chizmada keltirilgan.



14-chizma. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini oshirish rezervlari manbayi.

Ishlab chiqarish amaliyoti natijalarini kuzatishga ko'ra korxonaning optimal ishlash quvvati 70-80 foizni tashkil etadi. Bu optimal darajadan mashina va uskunalarni ishlashini past bo'lishi zararga, undan yuqori bo'lishi riskni kuchaytiradi, ya'ni mashina va uskunalarni buzilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi va oborot mablag'lar zaxiralarini nisbati orqali mahsulot ishlab chiqarish darajasi va uning dinamikasini o'rganish mumkin. Bu metod quyidagi tajriba natijalariga tayangan:

Tayyor mahsulot qoldig'ini pasayishi, ishlab chiqarish hajmini ortishiga va buning aksi bo'lgan hollarda mahsulot hajmini kamayishiga olib keladi. Talabga nisbatan ishlab chiqarishni yuqori bo'lishi, tayyor mahsulot qoldig'ini ortishiga sabab bo'ladi, demak, ishlab chiqarish darajasini egri usuli – zaxiralarning aylanishini ifodalaydi. Zaxiralarning aylanish tezligini ortishi ishlab chiqarishni yuqori darajada olib borishni ta'minlaydi.

Amaldagi e'lon qilinayotgan moliyaviy hisobotning ikkinchi shakli «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlarida sotilgan mahsulotlar hajmini o'tgan va joriy yillardagi ko'rsatkichlarini o'rganish uchun sotishdan sof tushum, sotilgan mahsulotlarning ishlab chiqarish

tannarxi kabi ko‘rsatkichlar aks ettirilmoqda. Bu ma’lumotlar ham tahlil uchun muhim manba sifatida foydalaniladi.

Korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda miqdoriy ko‘rsatkichlarni o‘rganish muhim o‘rin egallaydi. Bunda mahsulot turlari bo‘yicha dona, metr, tonna va hokazo birliklarda ishlab chiqarish sur‘ati, dinamikasi va o‘zgarish darajalarini aniqlash borasidagi tahlilning imkoniyatlari yaratiladi.

Boshqaruv tahlilida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini o‘rganishda shartli – miqdoriy ko‘rsatkichlardan ham foydalaniladi. Ayniqsa, tovarlar hajmini o‘rganishda, masalan, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi korxonalarda ming shartli banka, paxtani qayta ishlovchi korxonalarda shartli – paxta toyi, poyafzal ishlab chiqaruvchi korxonalarda shartli – juft oyoq kiyimlari kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi.

26-jadval

Aksionerlik jamiyatida mahsulot ishlab chiqarishning umumlashtirilgan ko‘rsatkichlari tahlili (ming so‘mda)

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	o‘tgan yilga nisbatan	Biznes-rejaga nisbatan
Yalpi mahsulot:					
Amaldagi bahoda	1912902	2236548	2721401	+808499	+484853
Solishtirma bahoda	2113430	2198763	2553967	+440537	+355204
Tovar mahsuloti:					
Amaldagi bahoda	1902784	2209568	2701893	+799109	+492325
Solishtirma bahoda	2109528	2117539	2515931	+406403	+398392
Sotilgan mahsulot:					
Amaldagi bahoda	1452513	2367492	3040381	+1587868	+672889
Shartnomaviy bahoda	1402677	2301769	2984387	+1581710	+682618

Shuningdek, ko‘p turdagi mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan korxonalarining faoliyatini tahlil qilishda sarflangan mehnat miqdoriga qarab ham ma’lumotlar o‘rganiladi.

Sanoat korxonalarining mahsulotlar ishlab chiqarish darajasini tahlil qilishda muhim o‘rinni biz yuqorida ta’kidlaganimizdek, qiymat o‘lchovida hisoblangan umumlashgan ma’lumotlarni o‘rganish egallaydi, ya’ni ishlab chiqarilgan yalpi tovar mahsuloti, sotilgan mahsulotlar qiymatini bir necha yillar ma’lumotlariga asoslanib tahlil o‘tkazish lozim.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan aksionerlik jamiyatida joriy davrda yalpi mahsulot ishlab chiqarish

hajmi o'tgan yilga nisbatan solishtirma baho bo'yicha 440537 ming so'mga ko'paygan bo'lsa, biznes-rejaga nisbatan esa 355204 ming so'mga ko'paygan. Amaldagi baholar bo'yicha yalpi mahsulot hajmi esa bundan ko'proqqa oshgan. Bu shundan dalolat beradiki, joriy yilda o'tgan yillarga nisbatan mahsulotlar bahosining o'sishi ham kuzatilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aksionerlik jamiyatida ishlab chiqarilayotgan yalpi mahsulotlarning aksariyati sotishga mo'ljallangan, ya'ni tovar sifatiga ega, biroq, aksionerlik jamiyatida o'tgan yili tovar mahsulotlarining kattagina qismi sotilmay omborda qolib ketgan. Bu miqdor amaldagi baholar bo'yicha o'tgan yili 450271 ming so'mni tashkil etgan. Hisobot yili ma'lumotlariga e'tibor qiladigan bo'lsak, ishlab chiqarilgan yalpi mahsulotga nisbatan sotilgan mahsulotlar hajmi amaldagi baholar bo'yicha 318980 ming so'mga oshgan. Bu shundan dalolat beradiki, aksionerlik jamiyatida joriy yilda o'tgan yildan qolgan mahsulotlar qoldig'ining kattagina qismini sotishga muvaffaq bo'lingan. Bu esa korxonaning mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlari bo'yicha yaxshi natijalarga erishganligidan dalolatdir. Bundan tashqari korxonada joriy yilida o'tgan yili va biznes-rejaga nisbatan bir qadar ko'p mahsulot realizatsiya qilingan. Masalan, amaldagi baholar bo'yicha korxonada joriy yilda o'tgan yilga nisbatan 1587868 ming so'mlik ko'p mahsulot sotilishiga erishilgan. Bunday natijalarni korxonada uchun ijobiy baholamoq lozim deb hisoblaymiz.


Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini o'lchov birliklari quyidagilardan iborat:

- qiymat (ulgurji baho);
- natura (dona, metr, tonna va h.k.);
- shartli-natura (tonna-kilometr, shartli yoqilg'i tonna va h.k.);
- mehnat (mehnat sarfi norma-soatda).

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini kompleks tahlili ikki yo'nalishda olib beriladi:

- a) mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishini baholash;
- b) bir necha yillar bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish dinamikasini tahlili.

Hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmini reja ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali rejaning bajarilishi, rejadan farqlanishi mutlaq summada, o'tgan yil bilan taqqoslash orqali esa mahsulot hajmini o'sish sur'ati aniqlanadi.



15-chizma. Ishlab chiqarish va mahsulot sotish tahlilining natijalari va uni kompleks baholash tizimi.

Mahsulot ishlab chiqarish dinamikasining quyidagi ko'rsatkichlari aniqlanmog'i lozim:

- hisobot davrida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini o'tgan yildagisi bilan taqqoslash orqali o'zgarish tezligining o'sishi mutlaq summada quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta N = N_1^T - N_0^T; \text{ (bunda «T» - tovar mahsuloti)}$$

- o'rganilayotgan davr bo'yicha mahsulotni umumiy o'sish sur'ati:

$$\Delta N^T = \sum_{i=1}^n \Delta N_i^T;$$

bunda n- mahsulot hajmi dinamikasining davrlari (yillar)

- mahsulotning umumiy o'sish ko'rsatkichini o'rganilayotgan davrlar soniga bo'lish orqali mutlaq o'rtacha yillik o'sish aniqlanadi.

$$\Delta N_{o'y} = \frac{1}{\Pi} \sum_{i=1}^n \Delta N_i^T \blacklozenge;$$

- mahsulot hajmini o'sishi (K_N) (indeks dinamikasi) va o'sish sur'ati (ΔK_N) (zanjirli indeks)lari o'rganilayotgan davrlardagi ishlab chiqarish hajmining intensivligini quyidagicha aniqlash mumkin.

$$K_N = \frac{N_1}{N_0};$$

Kompleks iqtisodiy tahlilga oid ayrim manbalarda mahsulot hajmini o'sishi mahsulot hajmini indeksi deb ham ataladi. Bu ko'rsatkich korxonaning rivojlanish dinamikasini ifodalaydi. Tadqiqotchi faqat tashqi moliyaviy hisobot ma'lumotlari asosida (shakl №2)- quyidagi ikki indeks – sotishdan kelgan tushum va sotilgan mahsulot tannaxlari bo'yicha dinamikasini aniqlashi mumkin.

Mahsulot hajmini o'rtacha yillik o'sishi ($KT_{o'y}$) va o'sish sur'atlari o'rtacha geometrik formula asosida quyidagicha aniqlanadi.

$$K_{No'y} = \sqrt[n]{N_1 / N_0}; \quad K_{No'y} = \sqrt[n]{\frac{N_1}{N_0}} - 1,$$

bunda N_1, N_0 –hisobot va bazis davrlaridagi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi.

Sotish hajmini o'rtacha yillik o'sishi (o'sish sur'ati) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_N = \sqrt[n]{K_1 * K_2 * K_3 \dots K_n},$$

bunda $K_1, K_2, K \dots K_n$ – o'sish sur'ati; n- o'rganilayotgan davr, yillar soni.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmlarini kompleks tahlili yig'ma ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi. Bazisli o'sish sur'ati tahlil etilayotgan davrning birinchi yiliga nisbatan, zanjirli o'sish sur'ati esa oldingi yillarga nisbatan ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi hisobotlarda amaldagi bahoda ifodalanadi. Tahlil etish uchun ishlab chiqarish va sotish hajmlari taqqoslanadigan holatga keltiriladi, so'ng o'sish sur'atlari aniqlanadi.

$$215000:(1,0*1,30)=165384$$

$$220000:(1,30*1,35)=125356$$

O'rganilayotgan davr mobaynida mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish hajmlari dastlabki ikki yil ichida pasayishi kuzatilgan, keyingi yillarda o'sish ro'y bergan.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi to'rt yilda 27,3 foizga, uni sotish hajmi esa 33,1 foizga tayyor mahsulot qoldiqlarini o'zgarishi hisobiga ortgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'rtacha yillik o'sish sur'ati 7,4 foizni tashkil etgan.

$$K_N = \sqrt[n]{K_1 * K_2 * K_3 * K_4 * K_5} = \sqrt[4]{1,0 * 0,827 * 0,758 * 1,670 * 1,276} = \\ = \sqrt[4]{1,335} = 1,074 = 107,4\%; 107,4 - 100 = 7,4\%$$

Mahsulot ishlab chiqarish va sotish dinamikasini tahlili

Yillar	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi joriy yil bahosida, ming. so'm	Baho indeksi	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi bazis davri bahosida, ming. so'm	O'sish sur'ati, %		Mahsulot sotish hajmi, ming so'm	O'sish sur'ati, %	
				bazisli	zanjirli		bazisli	zanjirli
XXX1	200000	1,0	200000	100	100	210700	100	100
XXX2	215000	1,30	165384	82,7	82,7	168300	79,9	79,9
XXX3	220000	1,35	125356	62,6	75,8	170500	81,0	101,3
XXX4	339150	1,20	209352	104,6	167,0	250000	118,7	146,7
XXX5	336006	1,10	254550	127,3	127,6	280380	133,1	112,2

Mahsulotlarni sotish majburiyatlarini bajarilishi korxonaning moliyaviy holati, moliyaviy natijalariga katta ta'sir qiladi. Yaqin o'tmishda rejali iqtisodiyot davrida ham shartnomalar tizimidan foydalanilgan, ammo yakka mulkchilik, ya'ni davlat mulkchiligining tanho huquqi hukmronlik qilgan zamonda shartnomalar reja va topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan bir vosita hisoblangan.

Bugungi kunda shartnoma rejali ishlab chiqarish va taqsimlash omillariga asoslanmaydi. Bil'aks, bozor qonuniyatlari talabiga binoan, shartnomaviy munosabatlar tovar-pul, ya'ni teng to'lovlar tarzida amalga oshirilib, shartnoma ularga huquqiy shakl o'rnida xizmat qila boshladi. Konstitutsiya, Fuqorolik kodeksi, xo'jalik ishlarini yuritish qonunlari majmuasi, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar to'g'risidagi qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar shartnoma munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquqiy manbalar hisoblanadi.

Shartnoma ijrosi jarayoni, bozor iqtisodiyoti qonuniyatiga ko'ra moddiy ijrodan, ya'ni o'zaro majburiyatlarning bajarilishidan, ijroning hujjatli asosda tasdiqlanishidan iborat. Shartnoma bajarilmasligi korxonaga katta iqtisodiy zarar keltiribgina qolmay, uning istiqbolini xavf ostiga qo'yadi, moliyaviy ahvolini inqirozga uchrashiga sabab bo'ladi. Mahsulotni yetkazib berish shartnomasini bajarilishi (foizda) quyidagi formula asosida aniqlanadi.

$$K_n = \frac{(N^0 - N_H) * 100\%}{N^0}$$

bunda:

K_n - shartnoma majburiyatini bajarilishi, % ;

N^0 - shartnoma tuzish uchun mo'ljallangan mahsulot hajmi;
NH - yetkazib berilmagan mahsulot.

Bozor munosabatlari rivojlangan sari rejaning ahamiyati tobora oshib boradi. Biror-bir ishlab chiqarish, xususan, tijorat g'oyasini rejasiz amalga oshirib bo'lmashligini xorijiy ishbilarmon va tadbirkorlar allaqachon tushunib etishgan. Bu yerda gap avvalgi sobiq ittifoq davridagi «besh yillik» rejalarimiz haqida ketmayapti. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarning «besh yillik» rejaları butunlay boshqacha usulda tuziladi. Ularni «Biznes-reja» deb atashadi. Erkin bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining ishlab chiqarish faoliyatini hamda kelgusida amalga oshirishi mumkin bo'lgan taktik va strategik rejalarini biznes-rejasida aks ettiradi.

Biznes-reja – bu xo'jalik yurituvchi subyektning rivojlanish strategiyasini belgilab beradigan asosiy hujjatlardan biridir. Shu bilan birga u:

- korxonalar rahbarlariga strategiya holatini aniq belgilashga yordam berib samarali boshqarishga olib keladi;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida biznesni qanday rejalashtirish va amalga oshirishni o'rgatadi;
- haqiqiy faoliyatni rejalashtirilgan ko'rsatkichlar bilan taqqoslashga va o'z vaqtida ularga o'zgartirishlar kiritishga yordam beradi;
- korxonalar faoliyati bo'yicha kerakli axborotlarni banklarga, investorlarga va kreditorlarga taklif etadi.

Biznes-reja korxonaning ish jarayonini tasvirlab, korxonalar rahbarlarining o'z maqsadlariga qanday erishishlarini, birinchi navbatda ishning daromad keltirishini qay tariqa oshirish mumkinligini ko'rsatib beradi. Yaxshi ishlab chiqilgan biznes-reja korxonaning o'sib borishiga, bozorda ijobiy natijalarni qo'lga kiritishga, o'z taraqqiyotining istiqbollarni belgilab olishga, yangi tovarlar ishlab chiqarish va yangi xizmat turlarini yaratishga mo'ljallarni amalga oshirishning maqsadga muvofiq usullarini tanlab olishga yordam beradi.

Biznes-reja korxonaning ichki hujjati bo'libgina qolmay, balki undan investorlar va kreditorlarni taklif qilishda ham foydalanish mumkin. Investorlar tavakkal qilib sarmoya berishdan avval loyihaning sinchiklab ishlab chiqilganiga ishonch hosil qilishlari va uning samarali ekanligidan xabardor bo'lishlari kerak. Ular sarmoya berish imkoniyatlarini ko'rib chiqishdan oldin biznes-rejani sinchiklab o'rganib chiqishadi, so'ngra loyihani ishlab chiqqanlar bilan uchrashadilar.

Jahon amaliyoti shuni ko‘rsatmoqdaki, biznes-reja hamma uchun o‘ta zarurdir. ***Uning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:***

- ***birinchidan***, iqtisodiyotimizga bozor munosabatlari kirib kelmoqda. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar bozor sharoitida vujudga keladigan muammolarni tasavvur eta olmaydilar. Ularga javob beradigan darajada tayyor emaslar;

- ***ikkinchidan***, butunlay o‘zgarib borayotgan xo‘jalik faoliyati sohasi katta tajribaga ega bo‘lgan rahbarlarning ham ish yuritishda o‘zgartirish kiritishlarini taqozo etadi va ayniqsa, hozirgi kunda bir narsa – raqobatga tayyor bo‘lib turishga chaqiradi. Bu sohada ikkinchi darajali ishlar bo‘lmaydi;

- ***uchinchidan***, xorijdan investitsiya olish zarur, buning uchun buyurtmalarimizni isbotlab berish qobiliyatiga ega bo‘lishimiz, investitsiya mablag‘larining har bir jihatini xorijiy tadbirkorlardan qolishmaydigan darajada ishlab chiqishimizni investorlarga ko‘rsata olishimiz kerak.

Tuziladigan biznes-rejaning hajmi korxonalar bajaradigan ish faoliyatiga bog‘liq bo‘ladi. Biznes-rejani ishlab chiqishda tashqi maslahatchilardan ham foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

28-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasi tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili		Farqi (+,-)			
		Biznes-reja bo‘yicha	Haqiqatda	Rejadan		O‘tgan yildan	
				Mutlaq, ming so‘m	Nisbiy, %	Mutlaq, ming so‘m	Nisbiy, %
Mahsulot hajmi (ish, xizmat) ulgurji bahoda, ming so‘mda:							
Solishtirma ulgurji bahoda	2113430	2198763	2553967	+355204	+16,15	+440537	+20,84
Amaldagi ulgurji bahoda	1912902	2236548	2721401	+484853	+21,68	+808499	+42,26

Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o‘rganishda solishtirma, ulgurji baholarda hamda joriy yilning amaldagi baholarida aniqlangan ma’lumotlar tahlil qilinadi. Dinamikasini aniqlash uchun hisobot davrida ishlab chiqarilgan haqiqiy mahsulot hajmi o‘tgan yillardagisi bilan taqqos-

lanib ko'rsatkichlarni o'zgarishi mutlaq va nisbiy (foiz)larda aniqlanishi lozim. Bunday tahlil qilishda taqqoslanuvchi ko'rsatkichlar bir xil baholarda hisoblangan, ya'ni taqqoslanuvchi talabga keltirilgani maqsadga muvofiqdir. Sababi, aniqlangan o'zgarish va farqlarda baho omilining ta'siri bo'lmasdan faqat miqdoriy o'sish yoki kamayishlar aniq holati ko'ringani tahlilning ta'sirchanligini orttiradi. Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini o'tgan yillarga nisbatan o'sish sur'atlari bir xil solishtirma ulgurji bahoda aniqlanadi. Amaldagi ulgurji bahoda ifodalangan mahsulot (ish, xizmat)lar hajmini solishtirma bahodagisi bilan taqqoslash orqali bahoning o'zgarishini mahsulot miqdoriga ta'siri aniqlanadi.

Aksionerlik jamiyati mahsulot ishlab chiqarish rejasini solishtirma va amaldagi ulgurji baholar bo'yicha ortig'i bilan ado etgan. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, aksionerlik jamiyatida hisobot yili mahsulot ishlab chiqarish hajmi solishtirma ulgurji baho bo'yicha o'tgan yilga nisbatan 440537 ming so'mga, biznes-rejaga nisbatan esa 355204 ming so'mga ko'paygan. Amaldagi ulgurji baholar bo'yicha esa mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'gan yilga nisbatan 808499 ming so'mga yoki 42,26 foizga, biznes-rejaga nisbatan esa 484853 ming so'mga yoki 21,68 foizga o'sgan. Bunday natijalar shundan dalolat beradiki, mahsulot hajmining solishtirma bahosi bilan amaldagi bahosi o'rtasidagi farq baho o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'sirini aks ettiradi. Bundan ko'rinadiki, korxonada joriy yilda tovarlar bahosida o'sish kuzatilgan. Bu esa iqtisodiyotda ma'lum darajada inflatsiyaning mavjudligidan dalolatdir.

Mahsulot ishlab chiqarish biznes-rejasini bajarilishi va uning dinamikasi miqdoriy (dona, kg, tonna) o'lchamlarda aniqlanib tahlil etiladi. Bunday tahlil miqdor o'lchamidagi ma'lumotlarni o'rgansa-da, aniq holatni va mavjud imkoniyatni batafsilroq aks ettiradi. Sababi, firma qancha turdagi va miqdordagi mahsulotlar ishlab chiqargan bo'lsa, faqat haqiqatda erishilgan natijalargina o'rganiladi. Tahlil davomida mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'rtacha yillik o'sish darajasini aniqlash lozim.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishini tahlil qilish uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning har bir turi bo'yicha haqiqiy miqdorini reja bo'yicha ko'zda tutilgan miqdoriga solishtiriladi va o'zgarishi mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarda aniqlanib, baho beriladi. Mahsulotlarning turlari bo'yicha dinamikasini tahlil qilish uchun hisobot yilida yetishtirilgan mahsulotning haqiqiy

miqdorini bazis yilida yetishtirilgan mahsulotning haqiqiy miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi va baho beriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha reja bajarilishining tahlilini quyidagi aksionerlik jamiyatining 2011-yildagi ma'lumotlari misolida ko'rib chiqamiz.

Paxta xomashyosini qayta ishlash natijasida aksionerlik jamiyati 6 xil mahsulot ishlab chiqaradi. Ushbu mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasi bajarilishi va dinamikasining qiyoslama tahlilini jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkin.

29-jadval

Mahsulotlarning turlari bo'yicha ishlab chiqarish rejasini bajarilishi va dinamikasining tahlili

№	Mahsulot turlari	2010-yil	2011-yil		Rejaga nisbatan		2010-yilga nisbatan	
			Reja bo'yicha	Amalda bajarilishi	Farqi (+;-)	Bajarilishi, %	Farqi (+;-)	Dinamikasi, %
1	Tola	5403	8362	8775	+413	104,9	+3372	162,4
2	Chigit	8510	14618	15038	+420	102,9	+6528	176,7
3	Momiq	412	935	344	-591	36,8	-68	83,5
4	Katta momiq	286	761	1175	+414	154,4	+889	410,8
5	Ulyuk	48	450	64	-386	14,2	+16	133,3
6	Kuyundi	-	2039	2027	-12	99,4	-	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2011-yilda sanoat mahsulotining asosiy turlari – tola va chigit bo'yicha ishlab chiqarish rejasi oshig'i bilan bajarilgan. Masalan, paxta tolasi bo'yicha haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori rejaga nisbatan 413 tonnaga yoki 4,9 %ga, chigit bo'yicha esa 420 tonnaga yoki 2,9 %ga ko'p ishlab chiqarilgan. Ushbu mahsulotlarning miqdori 2010-yilga nisbatan keskin oshgan. Paxta tolasi bo'yicha 3372 tonna yoki 62,4 foizga, chigit bo'yicha 6528 tonnaga yoki 76,7 foizga mahsulot ko'p ishlab chiqarilgan. Paxta tolasi chiqimining tahlili shuni ko'rsatadiki, 2011-yil reja oshig'i bilan bajarilgan, ammo 2010-yilga nisbatan u keskin kamaygan.

Aksionerlik jamiyatida paxtani qayta ishlashga 2010-yilda 14659 tonna, 2011-yilda 27423 tonna paxta xomashyosi sarf bo'lgan.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, qayta ishlangan paxta xomashyosidan olingan paxta tolasi 2010-yilda 36,9 foizni ($5403 \cdot 100 / 14659$), 2011-yilda reja bo'yicha 30,5 foizni ($8362 \cdot 100 / 27423$), haqiqatda esa u

32 foizni ($8775 \cdot 100 / 27423$) tashkil qildi. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, paxta tolasi bo'yicha chiqim darajasi rejaga nisbatan 1,5 % ga oshgan, ammo 2010-yilga nisbatan 13,3 % ga kamaygan

$$(100 - \frac{32,0 \cdot 100}{36,9}) = 100 - 86,7 = -13,3 \%$$

36,9

Ushbu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, aksionerlik jamiyati paxta tolasi bo'yicha chiqimini oshirish imkoniyatidan to'liq foylangan emas.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar miqdori va hajmi bo'yicha dinamikasi yoki rejasi bajarilishining tahlili qiyoslashdan boshlanadi. Hisobot yilidagi mahsulot miqdorini rejadagi yoki o'tgan yildagi mahsulot miqdoriga solishtirib, o'zgarishi aniqlanadi. Ushbu o'zgarish ekstensiv va intensiv omillar ta'siri ostida yuzaga keladi. Ushbu omillarning mahsulot miqdorining o'zgarishiga ta'sirini aniqlash uchun «Zanjirli bog'lanish», «Ko'rsatkichlar farqi», «Indeks» usullaridan foydalanish mumkin. Biz ushbu bo'limda «Zanjirli bog'lanish» usulidan foydalanib natijaning o'zgarishiga omillarning ta'sirini aniqladik. Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2011-yilda ishlab chiqarilgan paxta tolasi 2010-yilga nisbatan 3372 tonnaga oshgan. Ushbu o'zgarish quyidagi ikki omil ta'siri ostida yuzaga kelgan:

1) qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdorining o'zgarishi (ekstensiv omil);

2) tola chiqimi koeffitsiyentining o'zgarishi (intensiv omil).

Ushbu omillarning ta'siri «Zanjirli bog'lanish» usuli yordamida aniqlandi.

Omillarning ta'sirini aniqlangunga qadar quyidagi bog'lanish ko'rsatkichlarini aniqlab olish zarur.

I. $\Sigma Q_0 Ch_0$ - bazis yilidagi (yoki rejadagi) tola miqdori.

II. $\Sigma Q_1 Ch_0$ - shartli tola miqdori.

III. $\Sigma Q_1 Ch_1$ - hisobot yilidagi tola miqdori.

Bunda, Q_0 , Q_1 - mos holda bazis va hisobot yillarida qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori: Ch_0 , Ch_1 - mos holda bazis va hisobot yillarida paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti.

Ushbu ko'rsatkichlar aniqlangandan keyin ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdorining o'zgarishi aniqlanadi va ushbu o'zgarishga omillarning ta'siri aniqlanib, tahlil qilinadi.

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishini (ko'payishi yoki kamayishini) aniqlash uchun hisobot yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdoridan

(III-bog‘lanishdan) bazis yilida ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdorini (I-bog‘lanishni) chegirib tashlash kerak:

$\Sigma Q_1 Ch_1 - \Sigma Q_0 Ch_0 = \pm \Delta_{Q,Ch}$ – bu o‘zgarish ikki omil ta’siri ostida yuzaga kelgan.

Paxta tolasi miqdorining o‘zgarishiga qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun «shartli paxta tolasi miqdori»dan (II-bog‘lanishdan) bazis yilidagi paxta tolasi miqdorini (I-bog‘lanishni) ayirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q Ch_0 - \Sigma Q_0 Ch_0 = \pm \Delta_q$$

Paxta tolasi miqdorining o‘zgarishiga paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti o‘zgarishining ta’sirini aniqlash uchun hisobot yilidagi paxta tolasi miqdoridan (III-bog‘lanishdan) shartli paxta tolasi miqdorini (II-bog‘lanishni) chegirib tashlash kerak:

$$\Sigma Q_1 Ch_1 - \Sigma Q_1 Ch_0 = \pm \Delta_Z$$

Shu ikki omil ta’sirlarining yig‘indisi paxta tolasi miqdorining umumiy o‘zgarishiga teng kelishi kerak:

$$\Delta_q \pm \Delta_{ch} = \Delta_{qch}$$

30-jadval

Aksionerlik jamiyati bo‘yicha paxta tolasi dinamikasining omilli tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	2010-yil	2011-yilda qayta ishlangan xomashyo miqdori va 2010-yildagi tolasi chiqimi bo‘yicha	2011-yil	O‘zgari-shi (+;-)	Sh.j. jami o‘zgarishi (+;-)	
						Paxta xomash-yosi miqdori hisobiga	Tola koeffi-siyenti hisobiga
1	Qayta ishlan-gan paxta xomashyosi miqdori, tonna	14659	27423	27423	+12764	X	X
2	Paxta tolasi chiqimi koef-fitsiyenti	0,369	0,369	0,320	-0,049	X	X
3	Paxta tolasi miqdori, tonna	5403	10119	8775	+3372	+4716	-1344

Endi, yuqorida bayon qilingan «Zanjirli bog‘lanish» usulining qoidalari asosida paxta tolasi dinamikasining omilli tahlilini jadvaldagi ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqamiz.

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, aksionerlik jamiyati

bo'yicha ishlab chiqarilgan paxta tolasi miqdori 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 3372 tonna ko'paygan. Bu o'zgarish miqdoriy omilning ijobiy, sifatli omilning salbiy ta'siri ostida paydo bo'lgan. Miqdoriy omilning, ya'ni qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdorining oshishi ijobiy ta'sir qilib, paxta tolasi miqdorini 4716 tonna oshishiga olib kelgan:

$$\Sigma Q_1 Ch_0 - \Sigma Q_0 Ch_0 = (27423 * 0,369) - (14659 * 0,369) = 10119 - 5403 = +4716 \text{ t}$$

Demak, qayta ishlangan paxta xomashyosi miqdori 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 12764 tonnaga oshgan, natija ushbu omil hisobiga paxta tolasi miqdori 4716 tonna ko'paygan.

Paxta tolasi miqdorining o'zgarishiga intensiv (sifatli) omilning o'zgarishi salbiy ta'sir qilgan. Paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti 2011-yilda 2010-yilga nisbatan 0,049 miqdorga kamaygan (4,9% ga pasaygan), natijada shu omil hisobiga paxta tolasi miqdori 1344 tonnaga kamaygan:

$$\Sigma Q_1 Ch_1 - \Sigma Q_1 Ch_0 = (27423 * 0,320) - (27423 * 0,369) = 8775 - 10119 = -1347 \text{ tonna}$$

Agar 2011-yilda paxta tolasi chiqimi koeffitsiyenti kamaymasdan 2010-yil darajasida saqlanib qolganda, 2011-yilda qayta ishlangan paxta xomashyosidan olingan paxta tolasi 8775 tonna o'rniga 10119 tonnani tashkil qilgan bo'lar edi. Demak, paxta tolasi miqdorini ko'paytirishning asosiy rezervi, paxta chiqimi koeffitsiyentini oshirish hisoblanadi, ammo aksionerlik jamiyati 2011-yilda ushbu imkoniyatdan foydalangan emas.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik subyektlari oldida turgan dolzarb masalalardan biri mahsulot ishlab chiqarish bilan bir qatorda, ishlab chiqarilgan mahsulotlarni o'z vaqtida va ko'zlangan baholarda sotish ham hisoblanadi. Mahsulot sotish rejasini bajarilishi iste'molchilarga jo'natilgan tovar qismini o'rganishdan boshlanadi, chunki jo'natilgan tovar bilan sotilgan mahsulot vaqt jihatdan farqlanadi. Iste'molchilarga jo'natilgan tovar, ko'rsatilgan xizmatlar uchun belgilangan muddat davomida hisob schotiga pulni kelib tushmasligi tufayli korxonaning moliyaviy holati izdan chiqadi. Buning natijasida korxonaning budjet, bank, mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan qarzi ortib boradi, to'lov qobiliyati pasayadi. Bugungi kunda tovarlar uchun to'lov muddati 3 oy, ya'ni 90 kalendar kuni qilib belgilangan. 3 oydan oshgan qarz muddati o'tgan qarz deb ataladi. Muddati o'tgan qarzlarni surunkali davom etishi bankrotlikka sabab bo'ladi.

Bankrotlik (iqtisodiy nochorlik) - xo‘jalik sudi tomonidan e‘tirof etilgan yoki qarzdor ixtiyoriy ravishda tugatilayotganida uning o‘zi e‘lon qilgan qarzdorning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talabini to‘la hajmda qondirishga qodir emasligi, shu jumladan, budjetga va budjetdan tashqari fondlarga soliqlar, yig‘imlar va boshqa majburiy to‘lovlarni ta‘minlashga qodir emasligi.

O‘zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to‘g‘risida»gi Qonuni-ning 3-moddasi «bankrotlik alomatlari» deb ataladi. Bu moddada quyidagilar qayd etilgan. Yuridik shaxsning pul majburiyatlari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyati yuzaga kelgan kundan e‘tiboran 9 oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, uni bankrotlik alomati deb e‘tirof etadi.

Jismoniy shaxsning tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirayotgan shaxsning pul mablag‘lari bo‘yicha kreditorlar talablarini qondirishga va (yoki) majburiy to‘lovlarni to‘lash majburiyatini bajarishga qodir emasligi, agar tegishli majburiyatlar va (yoki) to‘lov majburiyati ularni bajarish sanasi boshlangan paytdan e‘tiboran 6 oy davomida qarzdor tomonidan bajarilmagan bo‘lsa, agar majburiyatlarning summasi unga tegishli mol-mulkning qiymatidan oshib ketgan bo‘lsa, uning bankrotlik alomati deb e‘tirof etiladi.

Qarzdorning to‘lov qobiliyatini tiklash uchun quyidagi chora-tadbirlarni qo‘llash lozim:

- ishlab chiqarishni qayta ixtisoslashtirish;
- norentabel ishlab chiqarishlarni yopish;
- debitorlik qarzlarni undirish;
- qarzdor mol-mulkining bir qismini sotish;
- qarzdorning talabidan o‘zganing foydasiga voz kechish;
- qarzdor majburiyatlarini uchinchi shaxslar tomonidan bajarilishi;
- qarzdorning to‘lov majburiyatini tiklashning boshqa usullari.

Jo‘natilgan tovarlarni tahlili uchun ma‘lumotlar tezkor hisob va dastlabki hujjatlar hamda hisobotdan olinadi. Tovarlar iste‘molchilarga tuzilgan shartnoma asosida jo‘natiladi.

Quyidagi jadvalda keltirilgan ma‘lumotlar «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot» (2-shakl) shaklidan olingan, ya‘ni yuqoridagi jadvalda mahsulot (ish, xizmat)lar sotish hajmi 2-shaklning 010 satridan olingan bo‘lib, mahsulot sotishdan olingan sof tushum solishtirma

ulgurji bahoda aks ettirilgan. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan aksionerlik jamiyatida o'tgan yili jami 1452513 ming so'mlik mahsulot sotilgan bo'lsa, hisobot yilida bu ko'rsatkich 3040381 ming so'mni tashkil qilgan, ya'ni o'tgan yilga nisbatan mahsulot sotish hajmi 209,32 % ni tashkil etgan.

31-jadval

Mahsulot sotish rejasining umumiy hajmda bajarilishi va dinamikasining tahlili, (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Hisobot yilining haqiqiysi	
		Biznes-rejada	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan, %	Rejaga nisbatan, %
Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'm	1452513	2367492	3040381	209,32	128,42

Korxonada hisobot yilida biznes-reja bo'yicha o'tgan yilga nisbatan ancha ko'p mahsulot sotishni rejalashtirgan bo'lib, mazkur reja joriy yilda 128,42 % ni tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada o'tgan yilga nisbatan joriy yilda bir qadar ko'p mahsulot sotishni oldindan taxmin qilgan, ya'ni mahsulot sotish hajmini o'tgan yilga nisbatan biznes-rejada 914979 ming so'mga ko'p qilib belgilagan hamda ushbu reja ortig'i bilan ado etilgan. Bunday natijalar korxonaning moliyaviy holati yaxshilanib borayotganligidan hamda ichki va tashqi bozorda o'z mavqeyiga ega bo'lib borayotganligidan dalolatdir.

Mahsulot (ish, xizmat)lar sotish rejasini umumiy hajmda bajarilishi tahlilidan so'ng asosiy mahsulotning ayrim turlari bo'yicha sotish rejasini natira va qiymat shakllarida bajarilish muddatlari bo'yicha aniqlanishi lozim bo'ladi.

32-jadval

Mahsulotlarning ayrim turlari bo'yicha sotish rejasining natira shaklida bajarilishi (dona hisobida)

Mahsulot turlari	Mahsulot birligining bahosi, so'm	Yanvar		Fevral		Mart	
		Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda
«A»	8950	7880	8129	7160	8032	7580	8229
«B»	7600	9560	10567	9010	9561	9120	9067
«V»	3460	3870	3051	3270	3157	3210	3171

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan korxonada joriy yilning birinchi choragida sotish rejalashtirilgan «A» mahsulot bo'yicha sotish rejasi yanvar oyida rejadagi 7880 dona o'rniga haqiqatda 8129 donani, fevral oyida rejadagi 7160 dona o'rniga haqiqatda 8032 donani, mart oyida esa rejadagi 7580 dona o'rniga 8229 donani tashkil etgan.

Ya'ni «A» mahsuloti bo'yicha sotish rejasi birinchi chorakning barcha oylarida ortig'i bilan ado etilgan. «B» mahsuloti bo'yicha sotish rejasi birinchi chorakning yanvar va fevral oylarida ortig'i bilan bajarilgan bo'lsada, mart oyida reja bajarilmagan. «V» mahsuloti bo'yicha sotish rejasi esa birinchi chorakning barcha oylarida birdek qisman bajarilmagan, demak, korxonada ma'muriyati «V» mahsulotini kam sotilishiga sabab bo'layotgan omillarni aniqlashi va tegishli choralar ko'rish lozim bo'ladi.

Jadvalda keltirilgan natura shaklidagi mahsulotlarni uning bahosiga ko'paytirish orqali sotish hajmini qiymat ko'rinishida ifodalaymiz va rejasining bajarilishini aniqlaymiz.

33-jadval

Aksionerlik jamiyatida mahsulot sotish rejasining qiymat shaklida bajarilishi tahlili

Mahsulot turlari	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Biznes-rejaning bajarilishi, %
«A» mahsuloti:			
Yanvar	7880 * 8950=70526	8129 * 8950=72754,6	103,16
Fevral	7160 * 8950=64082	8032 * 8950=71886,4	112,18
Mart	7580 * 8950=67841	8229 * 8950=73649,5	108,56
Jami:	22620 * 8950=202449	24390 * 8950=218290,5	107,82
«B» mahsuloti:			
Yanvar	9560 * 7600=72656	10567 * 7600=80309,2	110,53
Fevral	9010 * 7600=68476	9561 * 7600=72663,6	106,11
Mart	9120 * 7600=69312	9067 * 7600=68909,2	99,42
Jami:	27690 * 7600=210444	29195 * 7600=221882	105,43
«V» mahsuloti:			
Yanvar	3870 * 3460=13390,2	3051 * 3460=10556,5	78,83
Fevral	3270 * 3460=11314,2	3157 * 3460=10923,2	96,54
Mart	3210 * 3460=11106,6	3171 * 3460=10971,7	98,78
Jami:	10350 * 3460=35811	9379 * 3460=32451,4	90,62
Hammasi	448704	472623,9	105,33
Shu jumladan:			
Yanvar	156572,2	163620,3	104,50
Fevral	143872,2	155473,2	108,06
Mart	148259,6	153530,4	103,55

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida aksionerlik jamiyatining

birinchi chorak mobaynida mahsulot sotish rejalarining natura va qiymat ifodalarida bajarilishiga baho berishimiz mumkin bo‘ladi. Ma’lumotlardan ko‘rinadiki, korxonada «A» mahsulotini sotish rejasi birinchi chorakda jami natura shaklida 1770 donaga ko‘p bo‘lgan, ya’ni reja 107,82 % ga bajarilgan. «A» mahsulotini sotish bo‘yicha rejaning bajarilishi birinchi chorakning yanvar oyida 103,16 % ni, fevral oyida 112,18 % ni, mart oyida esa 108,56 % ni tashkil etgan. Bundan ko‘rinadiki, «A» mahsulotga bo‘lgan bozor talabi yuqori ekan, ya’ni ushbu mahsulot korxonaga uchun yuqori rentabelli mahsulot hisoblanar ekan. «B» mahsulotni sotish bo‘yicha birinchi chorak rejasi jami 105,43 % ga ado etilgan bo‘lsada, sotish rejasi yanvar oyida 110,53 % ni, fevral oyida 106,11 % ni tashkil etgani holda, mart oyida esa sotish rejasi 0,58 % ga bajarilmagan, demak, ushbu mahsulot turiga oxirgi oylarda bozordagi talab pasayib borayotganligidan dalolat beradi. Korxonaga ma’muriyati ushbu mahsulotning tobora kamroq sotilish sabablarini aniqlashi va tegishli choralar ko‘rishi lozim bo‘ladi. Korxonada birinchi chorakda «V» mahsulotini sotish rejasi 90,62 % ni tashkil etgan, ya’ni belgilangan reja 9,38 % ga bajarilmagan. Bunga sabab ushbu mahsulotni sotish rejalarini birinchi chorakning yanvar oyida 78,83 % ga, fevral oyida 96,54 % ga, mart oyida esa 98,78 % ga bajarilishi ta’sir etgan. Bundan ko‘rinadiki ushbu mahsulotga bo‘lgan bozordagi talab borgan sari yaxshilanib bormoqda va so‘nggi oylarda deyarli sotish rejalashtirilgan mahsulot hajmida mahsulot sotilmoqda ekan. Korxonaga ma’muriyati esa ushbu mahsulotga bo‘lgan iste’molchilarning talablarini yanada puxta-roq o‘rganishi hamda ko‘proq mahsulot sotish choralarini topishi lozim bo‘ladi.

Umuman olganda, korxonada birinchi chorak mobaynida uch xil turdagi mahsulot sotish rejalarini umumiy tartibda to‘liq bajarilgan. Bu albatta yaxshi natijadir, faqatgina, korxonaga mahsulot sotish hajmlariga salbiy ta’sir etayotgan omillarni aniqlashi va ularni bartaraf etish choralarini ko‘rishi darkor. Mazkur jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, korxonaga mahsulotni iste’molchilarga jo‘natish rejasini birinchi chorakda 105,33 % ($472623,9 \cdot 100 : 448704$)ga bajargan. Belgilangan assortimentda reja bajarilgan. Mahsulot jo‘natish rejasini bunday tarzda bajarilishi korxonani bir maromda ishlab chiqarishni tashkil etishga harakat qilayotganligidan dalolatdir. Tahlil davomida mahsulot yetkazib berilmagan iste’molchilar aniqlanadi va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish choralarini belgilanadi.

Mahsulotlarning turlari bo'yicha reja bajarilishining tahlili bilan bir qatorda assortimenti tahlilini ham amalga oshirish zarur.

5.3. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi iste'molchilar bilan avvaldan tuzilgan shartnomalardagi talablar miqdoriga bog'liq. Korxonada mahsulot ishlab chiqarishning biznes-rejadagi ko'rsatkichini faqat qiymat hajmida bajaribgina qolmasdan, balki har bir tovar bo'yicha belgilangan nomenklatura va assortimentlarda ham bajarishi talab etiladi. Mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish biznes-rejasining bajarilishi barcha sohalarning turli tarmoqlarini mutanosib rivojlanishiga, iste'molchini mahsulotlar (ish, xizmat)ga bo'lgan talabini to'laroq qondiribgina qolmasdan, bozorni mo'l-ko'lligini ta'minlaydi.

Mahsulot, ish va xizmatlarning turi va assortimenti tahlilida ularning segmentlar bo'yicha taqqoslanadigan va taqqoslanmaydigan, profildagi va profilda bo'lmagan turlari, asosiy va qo'shimcha mahsulotlar turlari bo'yicha turkumlanishi o'rganiladi. Ular bo'yicha reja topshiriqlarining bajarilishi, umumiy reja topshiriqlarining bajarilishida ularning ta'siri, mahsulotlar tuzilishidagi tarkibiy o'zgarishlarga baho beriladi.

Mahsulotlar nomenklaturasi – deb, miqdor holida tovarlar guruhlarini, kichik guruhlarini va pozitsiyalarini belgilashda hamda hisobga olishda qabul qilingan ro'yxatidir.

Tovar (ish, xizmat)lar assortimenti deb - esa, mahsulotlarning ma'lum bir belgilariga qarab, ya'ni uning turlari, navi, o'lchami, markasi, artikullariga qarab ajratiladigan mahsulotlar xilidir.

Tovarlar nomenklaturasi va assortimentini o'rganishda o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi tahlil etiladi.

Firma va kompaniyalar faoliyatini tahlil etishda o'rtacha assortiment rejasini bajarilishini ham aniqlash muhim hisoblanadi. O'rtacha assortimenti rejasini bajarilishi, odatda, eng kichik raqamlarni jamlash usuli oraliq amalga oshiriladi. Bunda har bir assortiment turlarini haqiqatda ishlab chiqarilish miqdorlari biznes-rejasi bilan solishtirilib har ikki ko'rsatkichdan eng kichigi assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilinadi. Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot tarkibiga qabul qilingan ko'rsatkichlarning jamini

biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarilishi lozim bo'lgan jami mahsulotlarga bo'lish orqali o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi aniqlanadi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan aksionerlik jamiyatida joriy hisobot davrida besh xil assortimentdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan «A», «V» va «D» assortimentdagi mahsulotlar natura holatida ortig'i bilan ishlab chiqarilgan. Qolgan ikki xil assortimentdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish rejalari esa to'liq bajarilmagan. Natijada mazkur aksionerlik jamiyatida joriy yilda jami assortiment hisobiga 2059597 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, o'rtacha assortiment rejasining bajarilishi 97,26 % ($2059597 / 2117539 * 100$) ni tashkil etgan. O'rtacha assortiment rejasining bajarilmasligiga «B» va «G» turdagi mahsulotlar bo'yicha ishlab chiqarish rejasining bajarilmasligi sabab bo'lgan, ammo korxonada o'rtacha assortiment rejasi 100 % ga bajarilmagan bo'lsada, mahsulot ishlab chiqarish rejasi 118,81 % ($2515931 / 2117539 * 100$) ga bajarilgan, ya'ni reja ortig'i bilan bajarilgan. Korxonada ma'muriyati assortiment rejasining bajarilmaslik sabablarini chuqur o'rganishlari va o'z vaqtida tegishli choralarni ko'rishini lozim bo'ladi.

Assortiment rejasining bajarilmasligi ko'rsatkichi orqali ham assortimentga baho berish mumkin.

Aksionerlik jamiyatida mahsulotlar nomenklaturasi va assortimentining tahlili

Mahsulot turi	Mahsulot birligini bahosi, so‘m	Ishlab chiqarilgan mahsulot natura shaklida, (dona)		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida, (ming so‘m)		Assortiment hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot
		Biznes-rejada	Haqiqatda	Biznes-rejada	Haqiqatda	
«A»	8950	96700	103458	865465	925949	865465
«B»	7600	102700	97639	780520	742056	742056
«V»	3460	56800	61528	196528	212887	196528
«G»	2570	65200	57621	167564	148086	148086
«D»	5680	18919	85731	107462	486953	107462
Jami:	x	x	x	2117539	2515931	2059597

Bizning misolimizda u quyidagilarni tashkil etgan.

"B" - (742056-780520)= -38464 ming so‘m

"G" - (148086-167564)= -19478 ming so‘m

57942 ming so‘m

57942 x 100

----- = 2,74% assortiment rejasini bajarilmasligi

2117539

100 - 2,74 = 97,26 % o‘rtacha assortiment rejasining bajarilishi.

Mahsulot ishlab chiqarish assortimentining o‘zgarishi xo‘jalik faoliyati natijalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Mahsulot ishlab chiqarish assortimentini shakllantirishda korxonada birinchi navbatda, mahsulotlar turiga bo‘lgan talabni hamda bozordagi holatini, ikkinchidan esa, korxonada mavjud bo‘lgan mahsulot, xomashyo, texnik-texnologik, moliyaviy va boshqa imkoniyatlardan to‘laroq foydalanishni e’tiborga olishi zarur. ***Assortimentni shakllantirish sistemasi quyidagi asosiy jihatlarni o‘z ichiga olishi shart:***

- iste’molchilarning istiqbolli ehtiyojini aniqlash;
- chiqarilayotgan mahsulotning raqobatbardoshlik darajasini aniqlash;
- mahsulotning bozordagi hayotiylik siklini o‘rganish, o‘z vaqtida yangi zamonaviy bo‘lgan tovarlar turini yaratish bo‘yicha choralar ko‘rish va ishlab chiqarish dasturidan ma’naviy eskirgan va iqtisodiy jihatdan kam foydali bo‘lgan mahsulotni chiqarib tashlash;
- iqtisodiy samaradorlik va mahsulot assortimenti o‘zgarishida xavf-xatar darajasini baholash.

5.4. Tovarlar tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarning mahsulot hajmiga ta’siri tahlili

Korxonada (firma)larning ixtisosligiga kiruvchi ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning tarkibi bozordagi talab va taklifning o‘zgarishiga qarab muntazam takomillashib, rivojlanib hamda mukammallashib boradi. Ayniqsa, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar, qiymat o‘lchamidagi hajmi strukturaviy o‘zgarishlar ta’sirida ortib yoki kamaytirilib aniqlanishi mumkin. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi sarflanayotgan

moddiy va mehnat xarajatlarini e'tiborga olgan holda o'rganilishi tahlil-da erishilgan natijalarni yanada aniqroq o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Korxonada uchun ko'proq foyda keltiruvchi, kam xarajat tovarlarni ishlab chiqarish o'ta manfaatlidir. Shuning uchun ham tovarlarni ishlab chiqarish hajmini tahlil qilishda strukturaviy o'zgarishlarni e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir. Mahsulotlar hajmida strukturaviy o'zgarishlarni mehnat sig'imi ko'rsatkichlari orqali aniqlash mumkin. Mehnat sig'imini me'yor-soat, me'yorashtirilgan ish haqi ko'rsatkichlari orqali aniqlanadi.

Mahsulot turlari bo'yicha rejaning bajarilishi har xil darajada bo'lishi strukturani o'zgarishidan dalolat beradi. Struktura bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi uchun haqiqiy ishlab chiqarilgan mahsulotning barcha xillari rejalashtirilgan mahsulot tarkibi va tuzilishiga teng kelishi kerak. Ishlab chiqarilgan mahsulot strukturasi o'zgarishi firmaning barcha iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'sir etadi. Mahsulot ishlab chiqarish tarkibida qimmatbaho mahsulot turlari ulushini ortishi tufayli mahsulot qiymat shaklida ortadi va buning aksi bo'lsa, qiymat shaklida mahsulot kamayadi. Xuddi shunday yuqori rentabellikka ega bo'lgan mahsulot turlarini ortishi, rentabelligi past turlarini pasayishi tufayli umumiy foyda miqdori ortadi.

Eng kichik usul orqali assortiment rejasining bajarilishi har bir mahsulot turining reja va haqiqiy ko'rsatkichlaridan eng kichigi olinib ularning yig'indisi reja bo'yicha jami mahsulot hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_{as} = \frac{N_{as}}{N_p};$$

bunda K_{as} - mahsulot assortimentini bajarilishi koeffitsiyentda;

N_{as} - assortimentga qabul qilingan mahsulot;

N_p - jami rejadagi mahsulot qiymati.

Mahsulot strukturasi - ayrim mahsulot turlarini jami ishlab chiqarishda tutgan ulushidir.

Mahsulot material sig'imli, mehnat sig'imli va yuqori rentabellikka ega bo'lgan mahsulot turlaridan iborat. Bu turdagi mahsulot miqdorlarini belgilangan rejadan farqlanishi strukturani o'zgarishiga olib keladi.

Jami ishlab chiqarishda yuqori narxlardagi mahsulot turlari ulushini salmoqli bo'lishi mahsulot hajmini qiymat shaklida ortishiga va buning aksi bo'lgan hollarda mahsulot hajmini kamayishiga olib keladi.

Yuqori rentabellik darajasiga ega bo'lgan mahsulot turlarini ortishi

(past rentabellik mahsulot turlarini pasayishi) tufayli umumiy foyda miqdori ortadi.

35-jadval

Struktura o'zgarishining mahsulot hajmiga ta'siri

Mahsulot turi	Mahsulot birligini bahosi, so'm	Ishlab chiqarish hajmi, dona		Mahsulot strukturasi, %		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymat shaklida, ming so'm			Struktura o'zgarishi -ning mahsulot hajmiga ta'siri gr.9-gr.8
		biznes-reja	haqiqatda	biznes-reja	haqiqatda	biznes-reja	haqiqiy ishlab chiqarish reja strukturasi bo'yicha	haqiqatda	
A	4000	10000	13000	50,0	68,4	40000	38000	52000	+14000
B	2500	10000	6000	50,0	31,6	25000	23750	15000	-8750
Jami:	-	20000	19000	100,0	100,0	65000	61750	67000	+5250

$$19000 * 50 * 4000 : 100 = 38000$$

$$19000 * 50 * 2500 : 100 = 23750$$

$$52000 - 38000 = + 14000$$

Rejalashtirilgan mahsulot strukturasi saqlangan holda ishlab chiqarish hajmi qiymat shaklida 61750 ming so'mni tashkil etishi kerak. Haqiqatda esa 67000 ming so'mni tashkil etgan. Yuqori narxdagi mahsulot ulushini rejadagi 50 foizdan haqiqatda 68,4 foizga qadar ko'tarilishi tufayli mahsulot qiymat shaklida 5250 ming so'mga ortgan.

Struktura o'zgarishining asosiy sabablari:

- har xil kategoriyadagi iste'molchilarning mahsulotga bo'lgan talabini o'zgarishi;
- korxonani uskuna va moddiy resurslar bilan yetarli darajada ta'minlanmagani;
- zarur malakali mutaxassislarni yetishmasligi;
- korxonani kam mehnat sig'imli, yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko'proq ishlab chiqarishga intilishi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida tovarlar tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar mahsulot ishlab chiqarish hajmlariga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Tovarlarni tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarning mahsulot hajmiga ta'sirini quyidagi jadval ma'lumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz.

**Tovarlarning strukturaviy o'zgarishini mahsulot ishlab
chiqarish hajmlariga ta'siri**

Mahsulot turlari	Ishlab chiqarilgan mahsulot, dona		Mahsulot birligining bahosi, so'mda	Bir birlik mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt, norma-soatda	Ishlab chiqarilgan mahsulot			
	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda			Qiymat shaklida, ming so'm		Norma-soatda	
					Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda
«A»	96700	103458	8950	1,3	865465	925949	125710	134495,4
«V»	102700	97639	7600	1,6	780520	742056	164320	156222,4
Jami:	x	x	x	x	1645985	1668005	290030	290717,8
Rejaning bajarilishi, %	x	x	x	x	x	101,34	x	100,28

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida, tahlil qilinayotgan aksionerlik jamiyatida ikki xil turdagi mahsulotlar strukturasi o'zgarishlar hisobiga mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini o'rganishimiz mumkin. Mazkur aksionerlik jamiyati mahsulot ishlab chiqarish rejasini qiymat shaklida 101,34 foizga, norma-soat shaklida esa 100,28 foizga bajargan. Har ikki ko'rsatkich o'rtasidagi foizlar farqi tovar tarkibida strukturaviy o'zgarishdan dalolat beradi, ya'ni korxonaga nisbatan qimmatroq, ammo kam mehnat talab etadigan mahsulot turini ko'proq ishlab chiqargan. Bunday natijalarni korxonaga uchun ijobiy deb baholashimiz mumkin.

5.5. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili

Turli mulkchilik shaklidagi firma va kompaniyalar yil davomida o'zidagi mavjud bo'lgan barcha moddiy, mehnat va moliyaviy boyliklaridan oqilona foydalanilishi hamda yil davomida uzluksiz samarali aylanishini ta'minlashi talab etiladi. Samarali faoliyat tashkil etilganda mahsulotlar ishlab chiqarish bozordagi talabni e'tiborga olgan holda yil mobaynida bir xil hajmda bo'lishiga erishiladi. Buning uchun korxonalar kun, hafta, oy, chorak yarmi va yil mobaynida mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini biznes-rejada mo'ljallangan miqdorda bajarilishini tahlil etishi lozim.

Ishlab chiqarish maromi - grafik asosida bir maromda mahsulot ishlab chiqarishdir. Ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish tufayli ish kuchi, ishlab chiqarish quvvati, moddiy resurslardan to'liq foydalanishga, mahsulot sifatini yaxshilanishiga, shartnomaviy majburiyatlarni bajarilishiga erishiladi. Ishlab chiqarish maromini izdan chiqishi tufayli korxonaning iqtisodiy ko'rsatkichlari yomonlashadi: mahsulot sifati buziladi, brakka yo'l qo'yiladi, tugallanmagan ishlab chiqarish va tayyor mahsulotning qoldig'i ortadi, kapital aylanishi sekinlashadi, shartnoma grafigidan chetlashish natijasida jarimalar to'lanadi. Bulardan tashqari mahsulot sotilishi kechikadi, undan keladigan tushum miqdori kamayadi. Ayniqsa, kichik va o'rta tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchilar maromiylik buzilishi tufayli bankrotga uchrashi mumkin. Ishlab chiqarish maromini tahlil etishning **to'g'ri va egri ko'rsatkichlari** mavjud.

To'g'ri ko'rsatkichlar - maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya

ko'effitsiyenti, har o'n kunlikni oylik mahsulotda; oy, kvartallarda ishlab chiqarilgan mahsulotni yillik mahsulot hajmida tutgan ulushi.

Egri ko'rsatkichlar - brakdan yo'qotishlar, qo'shimcha ishlangan vaqt uchun to'langan haq, shartnoma buzilishi tufayli to'langan jarimalar.

Maromiylik ko'effitsiyenti marom hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulotni (N_H) jami reja bo'yicha mahsulot (N_P) hajmiga bo'lish orqali aniqlanadi.

$$K_{marom} = \frac{N_H}{N_P};$$

Ayrim korxonalar yillik, kvartal, oylik rejalarini ortig'i bilan bajarishi mumkin, ammo ayrim oylarda ishlab chiqarishni bir maromda tashkil eta olmasligi mumkin. Mahsulot ishlab chiqarishdagi maromiylikni buzilishi shartnoma majburiyatlarini barbod bo'lishiga, uning oqibatida jarimalar to'lanilishiga olib keladi. Amaldagi tajribalar shuni ko'rsatadiki, ayrim firmalar oylik ishlab chiqarish biznes-reja ko'rsatkichlarini qisqa kunlarda hal etishni mo'ljallashadi, lekin mahsulotlarning sifati talabga javob bermaslikka, ombordagi sotilmay qolgan tovarlar qiymati keskin ortishiga hamda iste'molchilarga jo'natiladigan tovar muddatlarini buzilishiga olib keladi.

Aksionerlik jamiyatining maromida ishlayotganligini tahlil etishda har 10 kunlikda ishlab chiqarilgan tovarlarni oylik mahsulotda tutgan ulushi hisoblanadi va aniqlangan ma'lumotlar biznes-reja ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, faoliyatning maromida bo'layotganligiga baho beriladi.

37-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining tahlili (ming so'mda)

O'n kunliklar	Hisobot yili		Maromiylik hisobiga ishlab chiqarilgan mahsulot	Jamida tutgan ulushi, %	
	Biznes-rejada	Haqiqatda		Biznes-rejada	Haqiqatda
I o'n kunlik	724000	715874	715874	34,20	28,45
II o'n kunlik	714800	865407	714800	33,76	34,40
III o'n kunlik	678739	934650	678739	32,04	37,15
Jami:	2117539	2515931	2109413	100,0	100,0

Maromiylik koeffitsiyenti:

2109413

$$K_M = \frac{2109413}{2117539} = 0,996$$

2117539

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida mazkur aksionerlik jamiyatining mahsulot ishlab chiqarish maromiyligiga baho berish mumkin. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada hisobot davrida mahsulot ishlab chiqarish maromiylik koeffitsiyenti 0,996 ni tashkil etgan. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishiga joriy yildagi oylarning birinchi o'n kunligida biznes-rejada belgilangan 724000 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarilishi o'rniga, haqiqatda 8126 ming so'mga kam mahsulot ishlab chiqarilganligi sabab bo'lgan. Natijada mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi 0,004 koeffitsiyentga bajarilmagan. Shunday bo'lsada, aksionerlik jamiyatida hisobot yilidagi oylarda keyingi ikkinchi va uchinchi o'n kunliklari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish rejalari ortig'i bilan ado etilganligi bois, korxonadagi umumiy mahsulot ishlab chiqarish rejasi ortig'i bilan bajarilgan. Umuman olganda, bunday natijalarni ijobiy baholasak bo'ladi, chunki, korxonada maromiylik buzilishi unchalik katta emas ekan, odatda, mahsulot ishlab chiqarish maromiyligining buzilishi oqibatida korxonada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatiga putur yetishiga, xo'jalik subyektlari o'rtasidagi o'zaro shartnomalarning o'z vaqtida to'liq bajarilmasligiga, iqtisodiy jarimalar qo'llanilishiga, kassa rejalarining to'liq bajarilmasligiga hamda mahsulotlarni sotish hajmlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Korxonada ma'muriyati imkon qadar mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini buzilmaslik choralarini ko'rish kerak bo'ladi.

Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi tovarlar sifati, miqdori, shartnoma va bozordagi baholarning o'zgarishlari bilangina bog'liq bo'lib qolmasdan, sotish uchun mo'ljallangan tovarlarning turib qolishidan sifatining buzilishi, ishlab chiqarishdagi braklar hajmiga ham bog'liqdir. Ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik o'zgarishlar evaziga, bajaruvchilarning layoqatsizligi va mas'uliyatsizligi tufayli yo'l qo'yilgan kamchiliklar ta'sirida tovarlarning sifatini pasayishi va brak mahsulotlar paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Shuningdek, xomashyo sifatini pastligi, standartga mos kelmasligi, dastgohlarni tez buzilishi, ishlab chiqarish jarayonidagi nuqsonlar, kadrlar malakasini pastligi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida brakka yo'l qo'yilishi mumkin. Brakka yo'l qo'yilishi tufayli

iste'molga chiqadigan tayyor mahsulot hajmi kamayadi, mahsulot tannarxi qimmatlashadi, chunki mahsulot brak ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarni zoyi ketganligini, unumsizligidan dalolat beradi. Tomonlarning o'zaro tuzgan shartnomalarida yetkazib beriladigan tovarlarning miqdori, narxidan tashqari assortimenti va sifati ham kelishiladi, demak, brak mahsulotlar ishlab chiqarish yoki tovarlar sifatining buzilishi iste'molchining huquqini buzilishiga va iqtisodiy zarar ko'rishga olib keladi. Shartnomaga muvofiq ishlab chiqaruvchi iste'molchiga sifatsiz mahsulot ishlab chiqargani uchun yetkazilgan zararni qoplashi shart. Ishlab chiqaruvchi firma da'vogarlik muddati tugamasdan avval nuqsonga ega bo'lganligi uchun qaytarilgan tovar o'rniga boshqa mahsulotlar jo'natishi yoki avvalgi tovarlarning nuqsolini tuzatib iste'molchiga jo'natishi lozim. Mahsulotlar braki – tuzatiladigan va tuzatilmaydigan turlarga bo'linadi. Yo'l qo'yilgan brakni mahsulotlar qiymatiga ta'sirini aniqlash uchun brak natijasida firma behuda sarflagan barcha moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlari jamlanadi, shuningdek, kamchilikni tugatish uchun amalga oshirilgan qo'shimcha sarflar ham qo'shilgan holda brak tannarxi aniqlanadi. Bu aniqlangan yo'qotishlarni tovar mahsuloti tannarxiga bo'lish orqali brak tufayli mahsulot hajmining kamayishi aniqlanadi. Buni quyidagi shartli misolimiz orqali ko'rsatib o'tishimiz va tahlil qilishimiz mumkin bo'ladi:

Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hajmi – 10000 ming so'm;

Brak mahsulot uchun ketgan barcha sarflar – 26 ming so'm;

Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti tarkibidagi brak mahsulotlarning tutgan ulushi – $26/10000 \cdot 100 = 0,26 \%$.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt o'zining ishlab chiqarish faoliyatida chiqimsiz texnologiyaga asoslanishi hamda imkon qadar mahsulotlarning brakligi darajasini pasaytirishi lozim bo'ladi.

5.6. Mahsulot sifati tahlili

Sanoat korxonasi faoliyatining muhim samaradorlik ko'rsatkichlaridan biri, ishlab chiqarilgan mahsulotning sifati hisoblanadi. Mahsulot sifatining o'shishi, o'z navbatida, sotilgan mahsulot hajmining oshishiga va foydaning ko'payishiga, oqibatda rentabellik darajasining yuqori bo'lishiga sababchi bo'ladi. Mahsulot sifatining oshishi unga bo'lgan

talabning oshishiga olib keladi. Mahsulot sifatining oshishi bozorda raqobat kurashida yutib chiqish yoki o'z mavqeini ushlab turish imkoniyatini yaratadi. Sifatli mahsulot bozorda yuqori baholarda sotilib, qo'shimcha daromad olib kelish manbayiga aylanadi. Mahsulot sifatini tahlil qilishning asosiy maqsadi bu ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatiga baho berish hamda mahsulot hajmining va foydaning o'zgarishiga tegishli ta'sirini aniqlash bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mahsulot sifatini yaxshilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Sifat deganda mahsulotning tovarlilik darajasi va uning xaridorlar dididagi yuqori tasnifiy belgilarga hamda mazkur mahsulot uchun belgilangan mamlakat va xalqaro standart me'yorlariga egaligiga aytiladi. Tovarlilik darajasi uning taklif elementi sifatida o'z xaridoriga ega ekanligini, tasnifiy belgilari esa texnik-iqtisodiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik-iqtisodiy belgilarning muvofiqligini xarakterlaydi.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatiga doimo e'tibor berib kelingan, chunki, aynan mahsulot sifati iste'molchilar ehtiyojini yaxshiroq qondirishga imkon beruvchi tovarlar mo'l-ko'lligi, mahsulot ishlab chiqarish hajmining pul ko'rinishidagi ifodasining oshishiga, shuningdek, xalq xo'jaligi tarmoqlarida kapital qo'yilmalardan tejab qolish va foyda miqdorining o'sishiga imkoniyat beradi.

O'zbekiston Respublikasi «Korxonalar to'g'risida»gi qonunning 35-moddasi 1-bandida korxonani sifatli mahsulot ishlab chiqarish mas'uliyati xususida quyidagilar qayd etilgan: «Shartnoma majburiyatlari ... mahsulot sifatiga qo'yiladigan talablarni, xo'jalik faoliyatini amalga oshirishning boshqa qoidalarini buzganlik uchun korxonalar qonunlarda ko'zda tutilganidek to'la mulkiy javobgar bo'ladi.»

Sifatli mahsulot uni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan mehnatni tejaydi, iste'molchi talabi to'la qondiriladi, realizatsiya jarayoni tezlashadi, mahsulot hajmi qiymat shaklida ortadi, aylanma mablag'lar aylanishi tezlashadi.

Mahsulot sifati ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi. Sifatni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi: *umumlashtiruvchi, individual (yakk), egri* ko'rsatkichlar.

Umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar

- jami ishlab chiqarishdagi yangi mahsulot ;
- sertifikatlashgan va sertifikatlashmagan mahsulot;
- jahon andozalariga mos keladigan mahsulot;

- eksport qilinadigan mahsulotlarni tutgan ulushlari ifodalaydi.

Mahsulot sifatini ifodalovchi individual (yakka) ko'rsatkichlari:

- foydaliligi (sutning yog'liligi, ko'mirning issiqliligi, oziq-ovqat mahsulotlaridagi oqsil moddalari va hokazo);

- ishonchliligi (chidamliligi, benuqson ishlashi);

- texnologiya shartlariga mos kelishi;

- mahsulotning estetik ko'rinishi.

Egri ko'rsatkichlari – sifatsiz mahsulot uchun to'langan jarimalar, brak mahsuloti va uni jami mahsulotdagi ulushi va hokazo.

Mahsulot sifati navlar bo'yicha belgilanadigan mahsulotlarni ikki kategoriya bo'yicha tarkiblash mumkin:

- oliy sifat kategoriyasi;

- birinchi sifat kategoriyasi.

Mazkur sifat kategoriyalari orqali mahsulotning xalqaro va mamlakat standarti talablariga mosligi o'rganiladi.

Mahsulot sifatini oshirish realizatsiya jarayonini tezlashtiradi, mahsulotga bo'lgan talabni to'laroq qondiradi, tovar pul muomalasini tezlashtiradi, eksport imkoniyatlarini oshiradi. Mahsulot sifati ko'rsatkichlar sistemasi bilan o'lchanadi. Xarakterli xossalariga ko'ra o'z belgilangan xossasiga loyiq, pishiq va puxtaligi, chidamliligi, xalqaro va mamlakat standartlariga mosligi ko'rsatkichlariga ko'ra farqlanadi.

Sifatni yaxshilanishi ishlab chiqarilgan mahsulotni qiymat shaklida ortishiga, foydani ko'payishiga olib keladi.

Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar sistemasi:

1. Jami ishlab chiqarishda yangi mahsulot ulushi.

2. Attestatsiyadan o'tgan va o'tmagan mahsulotlarni tutgan ulushi.

3. Oliy nav (kategoriya)dagi mahsulot ulushi.

4. Jahon standarti talablariga javob beradigan mahsulot ulushi.

5. Eksport qilinadigan mahsulot ulushi, shu jumladan, yuqori rivojlangan sanoat korxonalariga.

Umumiy ko'rsatkichlardan tashqari har bir mahsulotni individual xususiyatlari ham sifatni ifodalaydi. Masalan, sutning yog'lilik darajasi, ko'mirni issiqlik darajasi, ayrim mahsulotlarni chidamliligi, pishiq-puxtaligi; mahsulotni estetik ko'rinishga ega bo'lishi; texnologiyaga mosligi va h.k.

Reklamatsiya – bu iste'molchi tomonidan mahsulot sifati xususida bildirilgan e'tiroz demakdir.

Mahsulot butligi - mahsulot tarkibidagi barcha qism, detallarni

mavjud bo'lishi uni butligini ifodalaydi, ayniqsa, murakkab turdagi mahsulotlarni butligiga e'tibor qaratilmog'i lozim. Korxonada to'liq butlangan mahsulotlarni standart va texnik shartlar talablariga javob beradigan holda iste'molchilarga jo'natishi shart. Butlanmagan mahsulot realizatsiya va ishlab chiqarish jarayonini sekinlashtiradi. Natijada aylanma mablag'lar aylanishi sekinlashadi, korxonani iqtisodiy jihatdan nochor holatga keltiradi. Traktor, avtomobil tayyor mahsulot deb hisoblanadi, qachonki ularga tegishli asboblardan, ehtiyot qismlar bilan butlangan bo'lsa.

Iste'molchi mahsulot yetkazib beruvchiga kafolat muddati davomida reklamatsiya bildirishi va jarima undirib olish huquqiga ega. Mahsulot butlangan (komplekt)ga ega bo'lishi kerak. Shundagina u tayyor mahsulot deb hisoblanadi.

Yengil sanoatda mahsulot nav (sort)larga bo'linadi. Mahsulot nav (sort)larga bo'linganda uning sifatini quyidagi ko'rsatkichlar orqali ifodalash mumkin:

1. O'rtacha nav (sort)lilik koeffitsiyenti.
2. O'rtacha mahsulot birligini sotish bahosi.

38-jadval

Aksionerlik jamiyatida «A» turdagi mahsulot sifati tahlili

Ko'rsatkichlar	Mahsulot birligini bahosi, so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot, (dona)		Reja-ning bajarilishi, %	Jami mahsulotdagi ulushi, (%)		Ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati (ming so'm)	
		biznes-rejada	haqiqatda		biznes-rejada	haqiqatda	biznes-rejada	haqiqatda
Oliy navli mahsulot	9400	82400	89123	108,16	85,21	86,14	774560	837756,2
Birinchi navli mahsulot	6300	14300	14335	100,24	14,79	13,86	90090	90310,5
Jami	X	96700	103458	106,99	100,0	100,0	864650	928066,7

1. O'rtacha nav (sort)lilik koeffitsiyenti:

$$\text{Rejada bo'yicha} = \frac{864650 \text{ ming so'm}}{96700 * 9400} = 0,951 \quad \text{Haqiqatda} = \frac{928066,7 \text{ ming so'm}}{103458 * 9400} = 0,954$$

2. Mahsulot birligining o'rtacha sotish bahosi:

864650 ming so'm	928066,7 ming so'm
Rejada ----- = 8942 so'm	Haqiqatda ----- = 8971 so'm
bo'yicha 96700 dona	103458 dona

Mahsulot birligini o'rtacha sotish bahosini 29 so'mga ortishi qiymat shaklida mahsulotni 3000,28 ming so'mga ortishiga olib keldi.

$$(8971-8942) \cdot 103458 = 3000,28 \text{ ming so'm}$$

«A» mahsuloti hajmi qiymat shaklida rejadagiga nisbatan 63417,22 ming so'mga ko'paygan. Mahsulot hajmining bunday tarzda ko'payishiga mahsulot birligining sotish bahosini oshganligi 3000,28 ming so'mga, mahsulotning o'rtacha navlilik darajasining ortganligi esa 60416,42 ming so'mga ijobiy ta'sir ko'rsatgan hamda umumiy «A» mahsulotning rejaga nisbatan haqiqatda 63417,22 ming so'mga ortishiga olib kelgan.

Mahsulot sifatiga, odatda, quyidagi omillar ta'sir qiladi:

- foydalanilayotgan xomashyo va materiallar sifati;
- xodimlarning malakasi va texnik tayyorgarlik darajasi;
- ishlab chiqarishda ishtirok etadigan texnika va texnologiyani holati va uning progressivligi;
- ishchi va xodimlarning mahsulot sifatiga javobgarligi hamda ularning moddiy rag'batlantirilishi va hokazo.

Respublikamizda mahsulot sifatini xarakterlovchi eng asosiy ko'rsatkich bu O'zbekiston Davlat Standartlashtirish qo'mitasi tomonidan belgilangan ko'rsatkichlardir.

5.7. Mahsulotlarni sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tahlili

Istiqlol yillarida o'tkazilgan islohotlar tufayli boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik usullari o'rnini egallagan bozor iqtisodiyoti sharoitida shartnoma barcha mulk shaklidagi korxonalar, muassasa va tashkilotlar, shuningdek, tadbirkorlar o'rtasida iqtisodiy munosabatlarni o'rnatuvchi asosiy huquqiy hujjatga aylandi. Yaqin o'tmishda rejali iqtisodiyot davrida ham shartnomalar tizimidan foydalanilgan, ammo, yakka mulkchilik, ya'ni davlat mulkchiligining tanho huquqi hukmronlik qilgan zamonda shartnomalar reja va topshiriqlarni bajarish uchun qo'llaniladigan bir vosita hisoblangan xolos, qolaversa, ilgari

shartnomaga uni tuzgan tomonlarning istak va manfaatlarini ifoda etuvchi to'la huquqli yuridik hujjat deb ham qaralmasdi. Ularning qo'llanilishi cheklangan bo'lib, hattoki, fuqarolarning o'zaro bitim tuzishi qonun yo'li bilan jazolanadigan ayb - chayqovchilik sifatida, qoralanar edi. Shu ma'noda, shartnomaning huquqiy maqomini tamomila o'zgartirish va umuman, shartnoma tuzish madaniyatini yuksaltirish borasida mamlakatimizda jiddiy ishlar amalga oshirilayotgani e'tiborga loyiqdir. Endilikda, shartnoma rejali ishlab chiqarish va taqsimlash omillariga asoslanmaydi. Bil'aks, bozor qonuniyatlari talabiga binoan, shartnomaviy munosabatlar tovar-pul, ya'ni teng to'lovlar tarzida amalga oshirilib, shartnoma ularga huquqiy shakl o'rnida xizmat qila boshladi. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik kodeksi, xo'jalik ishlarini yuritish qonunlari majmuasi, mulkchilik, tadbirkorlik, korxonalar to'g'risidagi qonunlar, boshqa me'yoriy hujjatlar shartnoma munosabatlarini tartibga solib turuvchi huquqiy manbalar hisoblanadi.

Shartnoma ijrosi bugungi kunda eng dolzarb muammolardan biridir. Shartnoma bajarilmasligi korxonaga iqtisodiy zarar keltiribgina qolmay, uning istiqbolini xavf ostiga qo'yadi, har ikki tomondagi korxonalar ishchilarining maosh ololmasligiga sabab bo'ladi.

39-jadval

Shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda
1	2	3
1. Sotilgan mahsulot hajmi, ming so'mda	2367492	3040381
2. Shartnomaviy majburiyatlarga nisbatan yetkazib berilmagan mahsulot hajmi, ming so'mda	X	103672
3. Shartnomaviy majburiyatlarni hisobga olgan holda mahsulot sotish hajmi, ming so'mda	-	2263820
4. Shartnomaviy majburiyatlarni hisobga olgan holdagi mahsulot sotish rejasining bajarilishi, %	X	95,62

Xo'jalik shartnomalarining malakali va puxta tuzilishi tomonlar majburiyatlarining noto'g'ri talqin etishlariga, sheriklardan biri shartnomaga noinsof munosabatda bo'lganida yoki uni beixtiyor buzib

qo‘yganida, bu holat boshqa tomonga zarar keltirishiga imkon bermaydi. Korxonalar rahbarlari va tadbirkorlarning barchasida ham o‘z faoliyatining moliyaviy natijalari bilan bog‘liq mas‘uliyat hissi shakllangan, deb bo‘lmaydi. Huquq idoralari o‘tkazgan tekshirishlarda ayrim korxonalar va tashkilotlar rahbarlari tomonidan shartnomalarni tuzish va ijro etishda qonunchilikka rioya etmaslik holatlari ko‘plab aniqlangan. Aksariyat rahbarlarda hozirgacha mulkdorlik tuyg‘usi shakllanib ulgurmagan.

Sotish rejasining bajarilishini shartnoma majburiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash lozim. Bu ko‘rsatkich orqali korxonaning shartnomaviy majburiyatlarga bo‘lgan munosabatlariga va faoliyatiga baho beriladi.

Majburiyatni hisobga olgan holda sotish rejasi 95,62 % ($2263820 \times 100 : 2367492$) ga bajarilgan xolos. Shartnomadagi 103672 ming so‘mlik mahsulot iste‘molchilarga shartnomada kelishilgan muddatlarda yetkazib berilmagan. Bu esa, mahsulot yetkazib beruvchi korxonaga bo‘lgan ishonchning pasayishiga, ushbu korxonaga nisbatan turli iqtisodiy jarimalar qo‘llanilishiga sabab bo‘ladi. Natijada korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holati yomonlashuviga va raqobat bozorida o‘z mavqegini yo‘qotishiga olib kelishi mumkin.

5.8. Mahsulot (ish, xizmat)larning buzilishi va yo‘qotishlar tahlili

Mahsulotlar sotishdan olingan sof tushum hajmi tovarlar sifati, miqdori, shartnoma va bozordagi baholarning o‘zgarishlari bilangina bog‘liq bo‘lib qolmasdan, sotish uchun mo‘ljallangan tovarlarning turib qolishidan sifatining buzilishi, ishlab chiqarishdagi braklar hajmiga ham bog‘liqdir. Ishlab chiqarish jarayonidagi texnologik o‘zgarishlar evaziga, bajaruvchilarning layoqatsizligi va mas‘uliyatsizligi tufayli yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar ta‘sirida tovarlar sifatining pasayishi va brak mahsulotlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Shuningdek, xomashyo sifatining pastligi, standartga mos kelmasligi, dastgohlarning tez buzilishi, ishlab chiqarish jarayonidagi nuqsonlar, kadrlar malakasining pastligi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibida brakka yo‘l qo‘yilishi mumkin. Brakka yo‘l qo‘yilishi tufayli, iste‘molga chiqadigan tayyor mahsulot hajmi kamayadi,

mahsulot tannarxi qimmatlashadi, chunki brak mahsulot ishlab chiqarish uchun qilingan xarajatlarning samarasiz ketganligi, unumsizligidan dalolat beradi. Tomonlarning o‘zaro tuzgan shartnomalarida yetkazib beriladigan tovarlarning miqdori, narxidan tashqari assortimenti va sifati ham kelishiladi, demak, brak mahsulotlar ishlab chiqarish yoki tovarlar sifatining buzilishi iste’molchi huquqining buzilishiga va iqtisodiy zarar ko‘rishiga olib keladi. Shartnomaga muvofiq ishlab chiqaruvchi iste’molchiga sifatsiz mahsulot ishlab chiqargani uchun yetkazilgan zararini qoplashi shart. Ishlab chiqaruvchi firma da’vogarlik muddati tugamasdan avval nuqsonga ega bo‘lganligi uchun qaytarilgan tovar o‘rniga boshqa mahsulotlar jo‘natishi yoki avvalgi tovarlarning nuqsonini tuzatib, iste’molchiga jo‘natishi lozim.

Mahsulotlar braki – tuzatiladigan va tuzatilmaydigan turlarga bo‘linadi. Yo‘l qo‘yilgan brakning mahsulotlar qiymatiga ta’sirini aniqlash uchun brak natijasida firma behuda sarflagan barcha moddiy, mehnat va moliyaviy xarajatlari jamlanadi, shuningdek, kamchilikni tugatish uchun amalga oshirilgan qo‘shimcha sarflar ham qo‘shilgan holda brak tannarxi aniqlanadi. Bu aniqlangan yo‘qotishlarni tovar mahsuloti tannarxiga bo‘lish orqali brak tufayli mahsulot hajmining kamayishi aniqlanadi. Buni quyidagi shartli misolimiz orqali ko‘rsatib o‘tishimiz va tahlil qilishimiz mumkin bo‘ladi:

Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hajmi – 10 ming so‘m.

Brak mahsulot uchun ketgan barcha sarflar – 26 ming so‘m.

Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti tarkibidagi brak mahsulotlarning tutgan ulushi – $26/10000 * 100 = 0,26 \%$.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining ishlab chiqarish faoliyatida chiqitsiz texnologiyaga asoslanishi hamda imkon qadar mahsulotlarning brakligi darajasini pasaytirishi lozim bo‘ladi.

5.9. Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

Korxonalar tajribasida mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sir etuvchi omillarni turlicha guruhlashtirish mumkin, *lekin bular ichida eng muhimlari quyidagilar:*

- tadbirkorlik omili;
- mehnat omillari;

- moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganlik omili;
- asosiy vositalar bilan qurollanganlik omili.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida ta'sirchan omillardan biri bu tadbirkorlik omilidir. Shu sababli, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga tadbirkorlik layoqati omili ham kiritilishi tartiblangan va bu tarkiblash iqtisodiy jihatdan o'rinlidir, chunki yuqorida qayd etilgan ishlab chiqarish omillari tadbirkorlik omili bilan birgalikda ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga ta'sir etadi.

Mehnat ishlab chiqarishning muhim omili sanaladi, chunki u moddiy boyliklar, zaxiralarni xomashyo sifatida asosiy vositalardan foydalaniib ishlab chiqarishni tashkil etadi va tayyor mahsulot yaratiladi. Barcha omillar bir-biri bilan uzviy bog'langan holda ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etadi. Mehnat omillarini tahlil etishda firmaning mehnat kuchlari tarkibi, harakati va ular bilan ta'minlanganlik, ish vaqtida foydalan-ganlik, mehnatning unumi va mehnat omillarini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishiga bo'lgan ta'sirlari aniqlanadi.

Tovar va moddiy zaxiralardan foydalanganlik omilini o'rganishda ular bilan ta'minlanganlik, tovar zaxiralarining harakati, moddiy javobgarlar bo'yicha saqlanish holati, samarali foydalanganlik, moddiy boyliklarning qaytimi va sig'imi hamda moddiy boyliklardan foydala-nishning ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmiga ta'siri kabi ko'rsat-kichlar tahlil qilinadi.

Bugungi kunda firma va kompaniyalarni texnik jihatdan qayta qu-rollanishi muhim ahamiyat kasb etadi, sababi, zamonaviy asosiy vositalardan foydalanish ish unumini ortishiga, mahsulotlar sifatini yaxshilanishiga hamda texnologik jarayonlardagi yo'qotish – braklarni kamayishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham bu omilning tahlilida firmani asosiy vositalari tarkibi, harakati va texnik holati, ishlab chiqarish quvvatlari va asosiy vositalardan foydalanish ko'rsatkichlari hamda asosiy vositalardan oqilona foydalanishning ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga ta'siri o'rganiladi.

Boshqa omillar deyilganda, bozor konyukturasi, talab va taklif, raqobatchilar imkoniyati, iste'molchi va buyurtmachilarning xarid qobiliyati, xalqaro iqtisodiy aloqalarning o'zgarishi va shu kabi boshqa sabablar tushuniladi.

Rivoj topayotgan bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarishdan ko'ra ko'proq ularni sotish muammosi


oldingi o‘ringa chiqadi. Korxonalar erkin faoliyat yurituvchi subyektlar sifatida oldi-sotdi munosabatlarini ham mustaqil belgilaydi. Mahsulot, ish va xizmatlarni oldi-sotdi jarayonlari bozor munosabatlarining negizida turadi. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotish mulkiy munosabatlardan kelib chiqqan holda o‘zaro shartnomaviy kelishuvlarga tayanadi. Respublikamizdagi soliq qonunchiligiga, asosan, mahsulot ortib jo‘natilgan va hisob hujjatlari qarshi tomonga (xaridor va buyurtmachilarga) taqdim etilgan bo‘lsa, mahsulot sotilgan deb hisoblanadi. Mahsulotlarga egalik huquqi ular ortib jo‘natilgan paytdanoq korxonadan chetlanadi va qarshi tomonga o‘tadi. Ular bo‘yicha hisob-kitoblar tomonlarning o‘zaro kelishuvida hal etiladi.

Mahsulotlarni sotilgan deb hisoblashning, odatda, ikki sharti, ya’ni ular ortib jo‘natilgan va korxonaga hisob raqamiga puli kelib tushishini xarakterlovchi «kassali usul» hamda ortib jo‘natilgan va hisob hujjatlari taqdim etilgan paytdanoq sotilgan hisoblanuvchi «hisobga olish usul»i xarakterlanadi. Mulkga egalikning yangi huquqiy aspektlarida, asosan, ikkinchi usul tarkiblanadi, shuningdek, butun-butun hisob-kitoblar tizimi ham ushbu qonuniyat asosida tuziladi. Oldi-sotdi munosabatlarida yagona belgi shuki, ortib jo‘natilgan yoki sotilgan mahsulotlar bo‘yicha mablag‘larni undirib olish bevosita mulk egasining muammosidir.


Shartnomaviy munosabatlarda uning subyektlari o‘zaro kelishuvining huquqiy aspektlari ifodalanadi, mahsulotlarni sotuvchi va sotib oluvchilar, ularning majburiyatlari, hisob-kitoblarning shakli, davri va shartlari, ularning buzilishida qo‘llaniladigan choralar, ularning tartibga solinishi aks ettiriladi. Mahsulotlarni sotish ulgurji va chakana narxlarda amalga oshiriladi. Korxonaga tomonidan qo‘llaniladigan narxlarni quyidagicha tasvirlash mumkin.

Tovarlarning ishlab chiqarish tannarxi	Korxonaga foydasi	Sotish jarayonida qo‘llaniladigan egri soliqlar	Savdo ustamasi
Korxonaning ulgurji sotish bahosi			
Korxonaning chakana sotish bahosi			

Tahlilda mahsulot, ish va xizmatlarni sotish rejasining bajarilishi va dinamikasi, uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi. Mahsulot sotish hajmiga ta’sir etuvchi omillarni quyidagi chizma va jadval misolida ko‘rishimiz mumkin:



16-chizma. Mahsulotlarni sotish shakllari.



17- chizma. Sotish shakllari bo'yicha narxlarning shakllanishi.

Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun tovar balansini tuzamiz. Tovar balansini ko'rsatkichlari tayyor mahsulot harakati nomli ma'lumotnomadan olinadi. Bu hisobot shaklida tayyor mahsulotning yil boshiga, yil oxiriga bo'lgan qoldig'i, ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti hamda sotilgan mahsulot ulgurji bahoda va ishlab chiqarish tannarxida ifodalangan. Tovar balansini quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$Yb+T=St+Yo$$

Bunda:

Yb – tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i

T – ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti

St – sotilgan mahsulot hajmi

Yo – tayyor mahsulotning yil oxiridagi qoldig'i.

40-jadval

**Mahsulot sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlili
(ming so'mda)**

Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Hisobot yili		Farqi (-,+)	Sotish hajmiga ta'siri
		Biznes-rejada	Haqiqatda		
1. Tayyor mahsulot yil boshiga qoldig'i	Yb	367847	563974	+196127	+196127
2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti	T	2117539	2515931	+398392	+398392
Jami: (1 satr+2 satr)	X	2485386	3079905	+594519	+594519
3. Sotilgan mahsulot	St	2367492	3040381	+672889	x
4. Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i	Yo	117894	39524	-78370	+78370
Jami: (3 satr+4 satr)	x	2485386	3079905	+594519	+78370

Mahsulot sotish hajmi 280380 ming so'mni tashkil etib rejaga nisbatan 19926 ming so'mga ortgan. Sotish hajmiga quyidagi omillar ta'sir etgan.

$$St=Yb+T-Yo$$

1. Tayyor mahsulotning yil boshiga bo'lgan qoldig'ini o'zgarishi.
2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti.
3. Tayyor mahsulotning yil oxiriga bo'lgan qoldig'ini o'zgarishi.

Sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillardan ikkitasi, ya'ni tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i (Yb) va ishlab chiqarilgan mahsulotning (T) rejaga nisbatan o'zgarishi bevosita va bilvosita ta'sir etadi. Bu ko'rsatkichlarni (Yb,T) ortishi sotish hajmini ham ortishiga, rejaga nisbatan kamayishiga olib keladi.

Yil oxiridagi (Yo) tayyor mahsulot sotish hajmiga teskari ta'sir etadi, ortishi sotish hajmini kamayishiga, kamayishi sotish hajmini ortishiga olib keladi.

1. Yil boshidagi tayyor mahsulot qoldig'ining rejaga nisbatan 196127 ming so'mga ortishi tufayli sotilgan mahsulot shu summaga ko'paydi. Bu omilning hissasi 29,15 % ($196127 \times 100 : 672889$) ni tashkil etadi.

2. Ishlab chiqarilgan tovar mahsulotini rejasi 118,81 % ga bajarilgan, ya'ni rejani 18,81 % ga ortig'i bilan bajarilishi tufayli mahsulot hajmi 398392 ming so'mga ortgan. Shu summaga sotilgan mahsulot hajmi ham ko'paygan.

3. Yil oxiridagi tayyor mahsulot qoldig'i rejadagi 117894 ming so'mdan haqiqatda 39524 ming so'mga qadar, ya'ni 78370 ming so'mgacha kamaygan. Bu foiz hisobida 11,65 % ($78370 \times 100 : 672889$) ni tashkil etadi.

Yil oxiridagi qoldiqning kamayishi tufayli realizatsiya hajmi 78370 ming so'mga ko'paygan.

41-jadval

**Omillar ta'sirining natijalarini quyidagi jadvalda
umumlashtiramiz**

Ko'rsatkichlar	Summa, ming so'mda	Rejaga nisbatan % hisobida
1	2	3
1. Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'ini ortishi hisobiga	+196127	+8,28
2. Tovar mahsuloti rejasini ortig'i bilan bajarilishi hisobiga	+398392	+16,82
3. Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'ini kamayishi hisobiga	+78370	+3,31
Jami:	+672889	+28,42

Yuqorida qayd etilgan omillardan tashqari sotish rejasining bajarilishiga mahsulot sifatini rejaga nisbatan o'zgarishi, assortimentni

belgilangan rejaga nisbatan o'zgarishi, ishlab chiqarish maromiyligini buzilishi, bozordagi talab va taklifning o'zgarishi, o'rindosh tovarlarning bozordagi hajmi va ularning bahosini o'zgarishi, mahsulotning qadoqlanishi hamda tashqi ko'rinishi ta'sir etadi.

Sotish hajmini tahlilining xotima qismida ishga solinmagan ichki imkoniyatlar hisobiga mahsulot hajmini oshirish imkoniyatlari aniqlanmog'i lozim. Ishga solinmagan imkoniyatlar sotish hajmini oshirishga, foyda va rentabellikni ko'paytirishga qaratilmog'i lozim. Belgilanadigan tadbiriy choralar korxonaning barcha bo'g'inlarini o'z ichiga olishi kerak, ya'ni ishlab chiqarish, moliyaviy holat, moliyaviy natijalarni samaradorligini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Mahsulot sotish hajmini oshirish rezervlari tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin: raqobatbardosh, yuqori talabga ega bo'lgan mahsulotlarni ko'plab ishlab chiqarish, tayyor mahsulot qoldig'ini belgilangan me'yor darajasida saqlash, sifatsiz mahsulotlarni arzonlashtirilgan narxlarda realizatsiya qilish, ishlab chiqarishni bir maromda tashkil etish, ombordagi tayyor mahsulot kamomadini (inventarizatsiya natijasiga ko'ra) undirib olish, mahsulot sifatini oshirish va h.k.

Tahlil natijalariga ko'ra korxonada mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlariga ega.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- ishlab chiqarish hajmi;
- mahsulot nomenklaturasining tavsifi;
- mahsulot assortimentining tavsifi;
- mahsulot assortimentini tahlil etish uslublari;
- mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarni aniqlash uslublari;
- ishlab chiqarish maromiyligi;
- ishlab chiqarish maromiyligini buzilish sabablari;
- maromiylikni korxonada iqtisodiy ko'rsatkichlariga ta'siri;
- mahsulotlar ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi omillar tasnifi;
- tadbirkorlik omili;
- mehnat omili;
- tovar-moddiy zaxiralar bilan ta'minlanganlik omili;
- asosiy vositalar bilan qurollanganlik omili.

- sotish hajmi;
- sotish hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahlilining uslublari;
- mahsulot yetkazib berish va sotish shartnomalari;
- shartnoma bajarilishini tahlil etish usullari;
- sifat ko'rsatkichlari tahlili;
- mahsulot sifatini tahlil etish uslublari;
- reklamatsiya to'g'risida tushuncha.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo'jalik subyektlarining mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini tahlil etishning ahamiyati nimalarda ko'rinadi?

2. Mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?

3. Qanday axborot manbalaridan foydalaniladi?

4. Mahsulot hajmini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini ifodalab bering?

5. Yalpi tovar mahsuloti deganda nimani tushunasiz?

6. Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va uning dinamikasi qanday tahlil etiladi?

7. Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti qanday tahlil etiladi?

8. Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi nima?

9. Mahsulot (ish, xizmat)larning sifatsizligidan ko'rilgan zarar qanday tahlil etiladi?

10. Maromiylikning buzilishiga nimalar sabab bo'ladi?

11. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillarni ko'rsatib bering?

12. Korxonalarda mahsulot sotish hajmi qaysi ko'rsatkichlar orqali ifodalanadi?

13. Mahsulot sotish hajmini tahlil etishda boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

14. Mahsulot sotish hajmiga tovarlar strukturasi o'zgarishi qanday ta'sir etadi?

15. Mahsulot sotish hajmining reja bajarilishi va ularning dinamik o'zgarishlari oylar bo'yicha qanday tahlil etiladi?

16. Mahsulot sotish hajmining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir etadi?

17. Mahsulot sotish bo'yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi qanday tahlil etiladi?

18. Shartnoma majburiyatlarining bajarilmasligiga qanday omillar ta'sir etadi?

19. Mahsulot sifati qanday tahlil qilinadi?

20. Mahsulot sotish hajmini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib bering.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

1. Berilgan ma'lumotlar asosida mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish rejasining bajarilishi va dinamikasini tahlil qiling. Tahlil natijalariga xulosa yozing?

Iqtisodiy ko'rsatkichlar-xos raqami-815

Ko'rsatkichlar	Satr tartib raqami	Amalda ishlab chiqarildi	
		Hisobot yili	O'tgan yilda
Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi, korxonalar bahosida, qiyoslama narxlarida, ming so'm	810	404316	403603
Tegishli yilning amaldagi narxlarida	821	453781	314720
Ilmiy texnika mahsulotlari hajmi	822	-	-
Sertifikatlangan mahsulot hajmi	828	-	-
O'rtacha ish haqi va boshqa miqdorlarni hisoblash uchun qabul qilinadigan sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni, kishi	829	121	120
Shundan ilmiy tadqiqot xodimlari	830	-	-

Reja ma'lumotlari:

Mahsulot (ish, xizmat)lar hajmi:

- amaldagi bahoda - 412314 ming so'm:

- qiyoslama bahoda - 403810 ming so'm.

2-topshiriq.

1. Berilgan ma'lumotlar asosida tovar mahsulot strukturasi, ularning o'zgarish sabablarini hamda dinamikasini o'rganing va xulosa yozing?

**Sanoat mahsuloti ayrim turlarini ishlab chiqarish – xos
raqami 814**

Mahsulot turlari (davlat statistika idoralari belgilangan nomenklatura bo'yicha)	o'lchov birligi	Xos raqamlar		Hisobot yilida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati korxonan- ning solishtirma ulgurji narxlarida, ming so'm	Amalda ishlab chiqarildi		Hisobot yilida haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati korxonan- ning amaldagi ulgurji narxlarida, ming so'm
		K-OKP (A- OKP)	SOEI		Hisobot yilida	O'tgan yilda	
non va non mahsulotlari:				78487			87649
- oliy navli non							
- birinchi navli non				287643			320975
- qora jo'xori noni				9872			12973
- patir non				16418			16879
- bo'rsildoq non				4829			5971
- «navruz» bulochkasi				1764			2017
- baton noni				2349			2476
- palochka noni				1238			2036
makaron mahsulotlari:							
- vermishel makaroni				730			1660
- rachki makaroni				946			1103
- konditer mahsuloti				40			42
Non va non mahsulotlari	tn			402600	5213	5260	450976
Makaron mahsulotlari	tn			1676	14	11	2763
Konditer mahsulotlari	tn			40	0,1	-	42
Jami:							453781
Elektr energiyasi	ming kvt \soat	011000	0216				
Issiqlik energiyasi (yuborilgan) – jami:	Ming G kal	012000	0301				
Shu jumladan: elektr stansiyalar tomonidan	«-«	012100	0391				
Korxonalar tomonidan	«-«	012200	0391				
Utilizatsiya qurilmalari tomonidan	«-«	012300	0391				

Hisobot yili ma'lumotlari

1.	<p>mahsulot assortimentlari: non va non mahsulotlari, dona;</p> <ul style="list-style-type: none"> - oliy navli non - birinchi navli non - qora jo'xori noni - patir non - bo'rsildoq non - «navruz» bulochkasi - baton noni - palochka noni <p>makaron mahsulotlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - vermishel makaroni - rachki makaroni - konditer mahsulotlari 	<p>872078</p> <p>3551148</p> <p>151877</p> <p>156362</p> <p>76651</p> <p>36750</p> <p>22806</p> <p>103167</p> <p>2028</p> <p>3724</p> <p>47,3</p>
2.	<p>mahsulot birligini bahosi, so'm non va non mahsulotlari, dona:</p> <ul style="list-style-type: none"> - oliy navli non - birinchi navli non - qora jo'xori noni - patir non - bo'rsildoq non - «navruz» bulochkasi - baton noni - palochka noni <p>makaron mahsulotlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - vermishel makaroni, kg - rachki makaroni, kg - konditer mahsulotlari, kg 	<p>90</p> <p>81</p> <p>65</p> <p>105</p> <p>63</p> <p>48</p> <p>103</p> <p>12</p> <p>360</p> <p>254</p> <p>845</p>

Biznes-reja ma'lumotlari

1.	<p>mahsulot assortimentlari: non va non mahsulotlari, ming so'mda:</p> <ul style="list-style-type: none"> - oliy navli non - birinchi navli non - qora jo'xori noni - patir non - bo'rsildoq non - «navruz» bulochkasi - baton noni - palochka noni <p>makaron mahsulotlari:</p> <ul style="list-style-type: none"> - vermishel makaroni - rachki makaroni - konditer mahsulotlari 	<p>78500</p> <p>286410</p> <p>10000</p> <p>15000</p> <p>5000</p> <p>1500</p> <p>4239</p> <p>1400</p> <p>800</p> <p>910</p> <p>51</p>
----	---	--

2.	mahsulot assortimentlari: (ishlab chiqarilgan mahsulot, dona) non va non mahsulotlari, dona: - oliy navli non - birinchi navli non - qora jo‘xori noni - patir non - bo‘rsildoq non - «navruz» bulochkasi - baton noni - palochka noni makaron mahsulotlari: - vermishel makaroni, kg - rachki makaroni, kg - konditer mahsulotlari, kg	 872222 3535926 153846 142857 79365 31250 41155 116667 2222 3583 60,3
----	--	--

3-topshiriq.

2-topshiriq. ma’lumot manbalaridan foydalangan holda tovarlar strukturaviy o‘zgarishining mahsulot hajmiga ta’sirini aniqlang va xulosa qiling?

4-topshiriq.

2-topshiriq. ma’lumot manbalaridan foydalangan holda mahsulot nomenklaturasi va assortimentini tahlil qiling va xulosa yozing?

5-topshiriq.

Berilgan ma’lumotlar asosida mahsulot ishlab chiqarish maromiyligini tahlil eting va xulosa yozing?

	mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi, ming so‘mda: - birinchi o‘n kunliklar bo‘yicha - ikkinchi o‘n kunliklar bo‘yicha - uchinchi o‘n kunliklar bo‘yicha	 124516 128467 151333
--	--	--------------------------------

Biznes-reja ma’lumotlari

	mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi, ming so‘mda: - birinchi o‘n kunlikda - ikkinchi o‘n kunlikda - uchinchi o‘n kunlikda	 122451 135810 145549
--	--	--------------------------------

Test savollari:

1. Qaysi javobda ishlab chiqarish maromini ifodalovchi ko'rsatkich to'g'ri ko'rsatilgan?

a) maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, oylik mahsulotning jami yillik mahsulotda tutgan ulushi;

b) brakdan yo'qotish, mahsulot sotish hajmini o'sishi, variatsiya koeffitsiyenti;

d) maromiylik koeffitsiyenti, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'sish sur'ati;

e) har oyda ishlab chiqarilgan mahsulotni jami yillik mahsulotdagi ulushi, variatsiya koeffitsiyenti, mahsulot hajmini o'sish sur'ati.

2. Ishlab chiqarish maromiyligini buzilishi qanday salbiy oqibatlarga olib keladi.

a) mahsulot sifati pasayadi, tannarxi ortadi, shartnoma majburiyatlari bajarilmaydi;

b) brak hosil bo'ladi, ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilmaydi, jarimalar to'lanadi;

d) ishlab chiqarish hajmi pasayadi, ishlab chiqarish uskunalari muddatidan oldin safdan chiqadi, unumdorlik pasayadi;

e) barcha javoblar to'g'ri.

3. O'rtacha assortiment rejasining bajarilishi qanday aniqlanadi?

a)
$$\frac{\text{Assortiment hisobiga qabul qilingan mahsulot}}{\text{Hisobot davridagi haqiqatga ishlab chiqarilgan jami mahsulot}} \times 100 \%$$

b)
$$\frac{\text{Biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Hisobot davridagi haqiqatga ishlab chiqarilgan jami mahsulot}} \times 100 \%$$

d)
$$\frac{\text{Hisobot davrida ishlab chiqarilgan jami mahsulot}}{\text{Biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmi}} \times 100 \%$$

e)
$$\frac{\text{Assortiment hisobiga qabul qilingan mahsulot}}{\text{Hisobot davridagi biznes-reja bo'yicha ishlab chiqarish hajmi}} \times 100 \%$$

4. Yuqori sifatga erishish uchun tovar qanday xususiyatlarga ega bo'lishi kerak?

a) texnik parametrlar;

- b) estetik parametrlar;
- d) ergonomik parametrlar;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

5. Qaysi javobda mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkich to'g'ri ko'rsatib o'tilgan?

- a) sifatsiz mahsulot uchun to'langan jarimalar;
- b) texnologiya shartlariga mos kelishi;
- d) oliy nav mahsulot hajmi;
- e) tovarning kafolat muddati.

6. Mahsulot hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi mehnat omillarini belgilang:

- a) ishchilar soni va ishlangan kishi kunlari sonining o'zgarishi;
- b) ishchilar soni va ishlangan kishi kuni va kishi soatlarining o'zgarishi;
- d) ishchilar soni, bajarilgan kishi kuni, kishi ish kunining davomiyligi va ishchilarning bir soatdagi unumdorligining o'zgarishi;
- e) ishchilar soni va mehnat unumdorligi.

7. Assortiment rejasining bajarilishini aniqlang:

(mln.so'm)

Mahsulot turlari	Reja	Haqiqatda	Assortiment rejasini bajarish hisobiga
A	189	179	?
B	91	93	?
V	82	80	?
G	62	65	?
Jami:	424	417	?

- a) 98,1; b) 98,3; d) 98,7; e) 97,2.

8. Tovar mahsulotining yillik mutlaq o'sishini aniqlang:

Ko'rsatkichlar	Bazis yil	Yillar		
		2002	2003	2004
1. Tovar mahsuloti, ming so'm	92647	93235	94410	93423

Tovar mahsulotining yillik mutlaq o'sishi, ming so'm:

- a) +588; +1763; +776.
- b) +588; +1175; -987.

d) +588; +1175; +987.

e) -588; +1763; -776.

9. Mahsulot sifatini ifodalovchi ko'rsatkichlar:

a) oliy kategoriyadagi mahsulotni tutgan ulushi, eksport qilingan tovar, attestatsiyadan o'tgan mahsulot ulushi, jahon standartlariga mos keladigan mahsulot ulushi;

b) eksport qilingan mahsulot, I nav mahsulot ulushi, mahsulot sotish bahosi, sertifikatga ega bo'lmagan mahsulot ulushi;

d) brak mahsulot ulushi, sertifikatga ega bo'lgan mahsulot ulushi, I nav mahsulot ulushi, sotilmay qolgan mahsulot ulushi;

e) sertifikatlangan mahsulot ulushi, oliy navli mahsulot ulushi, eksport ulushi, bozorni tuzilishi.

10. Maromiylik koeffitsiyentini aniqlang.

Kvartal	Ishlab chiqarish hajmi		Tutgan ulushi, %		Rejani bajarilishi, %
	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	
I- kvartal	20000	24244	25,0	29	121,2
II- kvartal	20000	18392	25,0	22	92,0
III- kvartal	20000	17556	25,0	21	87,8
IV- kvartal	20000	23408	25,0	28	117,0
Jami:	80000	83600	100	100	104,5

a) $83600/80000*100=104,5\%$

b) $29+22+21+28=100$

d) $(121,2+92,0+87,8+117,0)/4=104,5\%$

e) $25+22+21+25=93\%=0,93$

11. Tayyor mahsulot balansini formula orqali aniqlang.

Tayyor mahsulot qoldig'i:

Yil boshiga – Yb

Yil oxiriga – Yo

Tovar mahsuloti – T

Realizatsiya hajmi – R

a) $Yb+Yo=T+P$

b) $Yb+R=T-Yo$

d) $Yb+T=R-Yo$

e) $Yo+T=R+Yb$

12. Sotish hajmiga tayyor mahsulotning yil oxiridagi qoldiq o'zgarishining ta'sirini aniqlang.

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Rejadan farqi
	Reja	Haqiqatda	
1. Tayyor mahsulotning qoldig'i:			
Yil boshiga	500	550	+50
Yil oxiriga	600	530	-70
2. Tovar mahsuloti	40000	44000	+4000
3. Sotish hajmi	39900	44020	+5020

- a) – 20
- b) – 70
- d) + 70
- e) + 1020

13. Hisobot yilining IV kvartalida realizatsiya bo'yicha shartnoma majburiyatini bajarilishini aniqlang

Oylar	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ming so'm		Yetkazib berilmagan mahsulot		Shartnoma bajarilishi %	
	O'tgan yil	hisobot yili	O'tgan yil	hisobot yili	O'tgan yil	Hisobot yili
Oktabr	5000	5000	-	200	?	?
Noyabr	4900	5200	100	350	?	?
Dekabr	5100	4900	200		?	?
IV kvartal	15000	15100	300	550	?	?

- a) 98; 96,3
- b) 100; 96
- d) 100; 93,2
- e) 96; 100

14. Shartnoma bajarilmaslik sabablarini aniqlang?

- a) Ishchi kuchidan to'liq foydalanmaslik, ishlab chiqarish dastgohlarini buzilishi, moddiy texnika ta'minotidagi uzilishlar;
- b) Ishlab chiqarish resurslaridan unumli foydalanmaslik, mahsulot sifatini buzilishi, bozor talablaridan kelib chiqqan holda shartnomaga tuzatilishlar kiritilishi;
- d) Tashqi sabablar, ichki sabablar, ishlab chiqarish obyektlarini ishga tushirish muddatlarini uzayishi;
- e) Noto'g'ri javob yo'q.

VI BOB. MEHNAT RESURSLARI BILAN TA'MINLANGANLIK, MEHNAT UNUMDORLIGI VA ULARNING MAHSULOT HAJMIGA TA'SIRI TAHLILI

6.1. Korxonada mehnat resurslarini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarda mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishda asosiy o'rinni jonli mehnat omili, ya'ni inson omili muhim ahamiyat kasb etadi, chunki har qanday fan-texnika taraqqiyotining rivojlangan bosqichida ham inson omilining bo'lishi talab etiladi, ya'ni yuqori texnologiyaga asoslangan ishlab chiqarish uskunalari ham inson boshqarishi lozim bo'ladi. Bunday sharoitda korxonalarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganlik darajasini o'rganib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishiga, mahsulot tannarxining pasayishiga, foyda miqdorining oshishiga hamda boshqa bir qator texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarining yaxshilanishi korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanish darajasiga bog'liq. Mehnat ko'rsatkichlarining bajarilish darajasi mashina va jihozlardan maksimal foydalanishga, ishlab chiqarishni bir maromda amalga oshirilishiga va mehnat unumdorligini o'sishiga ta'sir ko'rsatadi.

Bugungi kunda respublikamizda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar mavjud mehnat resurslaridan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. ***Mehnat ko'rsatkichlari tarkibiga, odatda, quyidagilar kiradi:***

- a) ish haqi fondi;
- b) xodimlar soni;
- d) mehnat unumdorligi;
- e) o'rtacha yillik ish haqi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov mamlakat aholisining turmush darajasiga baho berar ekan, quyidagilar haqida ta'kidlab o'tdi: «... o'tgan 2011-yilda ijtimoiy sohani yanada rivojlantirish, mamlakatimiz aholisining daromadlari va turmush dara-

jasini muttasil oshirib borish masalalari doimiy e'tiborimiz markazida bo'ldi.

2011-yilda respublikamizda ish haqi **20,2** foizga, budget tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdori esa **26,5** foizga o'sdi. Aholining real daromadlari yil mobaynida **23,1** foizga ortdi. Ayni paytda - shunga e'tibor berish lozimki – aholi jami daromadlarining 47 foizi tadbirkorlik faoliyatidan olinmoqda.

Sir emaski, biz mustaqil taraqqiyotimizning dastlabki yillaridan boshlab ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlash, aholining daromadlari va turmush sharoitida keskin tafovut bo'lishiga yo'l qo'ymaslikka katta e'tibor qaratmoqdamiz.

Keyingi o'n yil davomida yurtimizda aholi daromadlari hajmi **8,1** barobar ortgan bir paytda, ish haqi, ijtimoiy ko'makka muhtoj toifalarning daromadlari miqdorini jadal oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash va soliq imtiyozlari berish hisobidan aholining eng past va eng yuqori daromadga ega bo'lgan guruhlari o'rtasidagi tafovut, boshqacha aytganda, daromadlardagi farq koeffitsiyenti 21,1 barobardan 8,3 barobarga qisqardi. Aytish kerakki, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari va bir qator iqtisodiy rivojlangan davlatlar o'rtasida bu koeffitsiyent eng past ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Yurtimizda o'tgan yillar davomida ish haqi va pensiyalarning xarid qobiliyati izchil va barqaror o'sgani aholining hayot darajasi va sifati ortib borayotganining yaqqol tasdig'idir.

Buning isboti tariqasida quyidagi misol va raqamlarni keltirish mumkin. Agar 1991-yilda eng kam ish haqiga Xalqaro mehnat tashkiloti va Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining tavsiyalariga muvofiq tarzda hisoblab chiqilgan iste'mol savatchasi qiymatining faqat 8 foizini tashkil etadigan tovar va xizmatlarni xarid qilish mumkin bo'lgan bo'lsa, 2011-yilda bu ko'rsatkich iste'mol savatchasining 120 foizini tashkil etdi yoki 15 barobar o'sdi, eng kam pensiyaning xarid qobiliyati esa 9 karra oshdi.

Ayni shu ko'rsatkichlar 2000-yilda mos ravishda 11,0 va 3,6 barobarni tashkil etdi».¹

Respublikamizda 2012-yilning 9 oyi davomida yalpi ichki mahsulot, sanoat mahsulotini ishlab chiqarish hajmi yuqori sur'atlar bilan oldingi yillarga nisbatan o'sdi. So'nggi yillar davomida YaIM hajmining o'sish darajasi o'rtacha 8 % dan yuqori bo'ldi. Mehnat unumdorligini

¹ Каримов И.А. 2012 йил ватанимиз тараққиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Тошкент. «Ўзбекистон», 2012 йил 14 б.

o'sish darajasi mahsulot hajmini o'sish darajasiga nisbatan yuqori bo'lishi mamlakat miqyosida katta iqtisodiy samara berdi. Xalqaro tajribalaridan ma'lumki, shu ko'rsatkich davlat iqtisodiyoti qudrati, kishilar turmush farovonligi omillarini mezon bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda yalpi ichki mahsulot, shu jumladan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi yuqori sur'atlar bilan o'sib borayotganligini turli o'zgarishlar bilan bog'lash mumkin. Masalan, turli mulk shakllari va mazmunining o'zgarishi, boshqaruv tizimidagi o'zgarishlar, erkin iqtisodiy faoliyatning cheklanmaganligi, tashqi iqtisodiy faoliyatga keng yo'l ochilishi va hokazo. Mamlakatimizdagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ayniqsa, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni tez o'sib bormoqda. Shu bois ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlik masalasini hal etish mamlakatimizdagi eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biridir. Bu vazifani hal etishning eng samarali yo'nalishlaridan biri Prezident I.Karimov ta'kidlaganidek, «Kichik va o'rta korxonalar sonini ko'paytirish, xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iborat. Yuqorida zikr etilgan sohalar, birinchi galda, biz uchun eng dolzarb bo'lib turgan aholi bandligi va uning daromadlarini oshirish muammolarini hal etishda o'ziga xos lokomotiv vazifasini bajaradigan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida biz tanlagan siyosatning mutlaqo to'g'ri va uzoqni ko'zlagan holda olib borilayotganini takror va takror isbotlamoqda».¹

Moddiy ishlab chiqarishda mehnat resurslaridan samarali foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar quyidagilardir.

1. Mehnat unumdorligini o'sish darajasi.
2. Mehnat unumdorligi hisobiga mahsulot hajmini o'sishi.
3. Xodimlar sonini nisbiy kamayishi.
4. Mehnat haqi fondidan nisbiy iqtisod.
5. Mehnat unumdorligi o'sish darajasini mehnat haqini o'sish darajasiga nisbati.

Mehnat resurslarini tahlil etish orqali korxonani xodimlar bilan ta'minlanishi va ulardan foydalanish, ularning tarkibi, tuzilishi, kasbiy mahorati, xodimlarni malakasini oshirish, ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga baho beriladi. Ayniqsa, mehnat unumdorligini oshirish

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг 2007 йилда мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш яқунлари ва 2008 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлиштиришнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси.»Тошкент оқшоми» газетаси 2008 й. (2 февраль)

imkoniyatlariga ko‘proq e‘tibor beriladi. Mehnat resurslari va ulardan foydalanishni tahlil etishdan maqsad, mehnat unumdorligini oshirish rezervlari hisobiga mahsulot hajmini o‘shirish, ish vaqtdan to‘liq foydalanish va boshqa omillar evaziga mahsulot tannarxini pasaytirishdan iboratdir.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganligini o‘rganishda boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mehnat resurslari bilan ta‘minlanishi, ularning tarkibi, strukturasi o‘zgarishini mehnat unumdorligiga bo‘lgan ta‘sirini hisoblash va baho berish.

2. Ish vaqtini yo‘qotish sabablarini aniqlash va unga baho berish;

3. Mehnat unumdorligi rejasining bajarilishi va dinamikasiga obyektiv baho berish.

4. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash.

5. Xodimlar qo‘nimsizligiga baho berish.

6. Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta‘sir etuvchi mehnat omillarini aniqlash va ularga baho berish.

7. Bir xodimning mehnat unumdorligini aniqlash va uning o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarga baho berish.

8. Ish vaqtdan foydalanish va bir soatlik ish unumdorligini o‘zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta‘sirini o‘rganish.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mehnat resurslari bilan ta‘minlanganlik va ulardan samarali foydalanganlik holatlariga baho berishda boshqaruv tahlilining asosiy axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- biznes-reja ma‘lumotlari;
- mehnat resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlarini aks ettirgan 1-T shaklidagi «Mehnat hisoboti» statistik hisobot shakli ma‘lumotlari;
- ish vaqtdan foydalanish, ish vaqti balansi to‘g‘risidagi hisobot, ishga kelish, ketish to‘g‘risidagi tabel, ish kunini fotografiyasi, ishlab chiqarish normasini bajarilishi to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma va boshqa ma‘lumotlar.

6.2. Korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi tahlili

Bugungi raqobatdosh iqtisodiyot sharoitida respublikamizda mehnat resurslariga katta e'tibor berib kelinmoqda. Xususan, mamlakatimiz Prezidenti I.Karimov bu borada quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: «Mamlakatimizdagi demografik vaziyatning o'ziga xos xususiyatini inobatga oladigan bo'lsak, bizda aholi, ayniqsa, mehnatga qobiliyatli yoshlarning soni tez o'sib bormoqda. Ularning soni yiliga taxminan 200-300 ming kishiga ko'paymoqda. Shu nuqtayi nazardan qaraganda ortiqcha ishchi kuchlarini ish bilan ta'minlash, ishsizlik masalasini hal etish – mamlakatimizdagi eng dolzarb iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biridir. Bu vazifani hal etishning eng samarali yo'nalishlaridan biri – kichik va o'rta korxonalar sonini ko'paytirish, xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir».

O'zbekistonda doimiy yashaydigan aholi soni 2012-yilning 1-oktabr holatiga ko'ra 29 million 874,6 ming kishiga yetdi. Yil boshidan hisoblaganda mamlakat aholisi 319,2 mingtaga, ya'ni 1,1 % ga ko'paygan. Bu haqda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, shahar aholisi 15 million 269,4 mingta, qishloqlarda yashovchi aholi soni esa 14 million 605,2 ming kishini, ya'ni mos ravishda 51,1% va 48,9%ni tashkil qildi.

Tug'ilish ko'rsatkichi yanvar-sentabr oylarida 20,4 promillni ko'rsatdi. 2011-yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 0,2 promillga kamaydi.

O'lim holatlari esa 4,7 promill, ya'ni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,1 promill o'sganini ko'rsatdi.

O'lim holatlarining 62,4 % ni yurak-qon-tomir kasalliklari, 5,8 % ni nafas yo'llari kasalliklari, 5,8 % ni baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohatlar hamda 5,6 % ni oshqozon-ichak kasalliklari tashkil etadi.

Yanvar-sentabr oylarida FHDYO bo'limlarida 189,3 mingta nikoh qayd etildi va 13,9 mingta ajrim ro'yxatga olindi. Har 1000 nafar aholiga 8,5ta nikoh, 0,6 ta ajrim to'g'ri kelgan.

2012-yilning 9 oyi davomida Respublikaga kirib kelgan aholi 127,9 ming kishini, chiqib ketganlar esa 157,8 mingtani tashkil qildi. Shunga mos ravishda migratsiya saldosini -29,9 mingtani ko'rsatdi.

Sentabr oyining oxiriga kelib mehnat organlarida ro'yxatdan o'tgan ish qidirayotgan fuqarolar soni 18 mingtani tashkil qildi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davrida 24,1 ming kishini ko'rsatgandi.

Yanvar-sentabr oylarida ish bilan band bo‘lmagan aholi soni 621,7 mingtani tashkil qildi va bu iqtisodiy faol aholining 4,8% ni tashkil qiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatimizda eng yirik mehnat bozori, mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirishning asosiy omili, millionlab odamlar uchun daromad manbayi hisoblanadi. Mamlakatimizda ishchi kuchi bandligi samaradorligini ta‘minlash uchun davlatni bandlik siyosatining quyidagi yo‘nalishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir:

- oilaviy biznes va kichik xususiy korxonalarni rivojlantirishni jadallashtirishni ta‘minlash;

- mazkur maqsadlarda mikrokreditlash tizimini rag‘batlantirish;

- yirik sanoat korxonalari va nisbatan kichikroq bo‘lgan ishlab chiqarish korxonalari bilan kasanachilikni kengaytirish asosidagi kooperasiyaning rivojlantirish imkoniyatlaridan keng qamrovli foydalanish;

- mahalliy xomashyoni puxta qayta ishlashga va tayyor raqobatbardoshli mahsulot ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yengil, oziq-ovqat va qayta ishlash sanoatining ko‘p mehnat talab qiladigan tarmoqlarini jadal rivojlantirish;

- xizmat ko‘rsatish sohalarini rivojlantirish, qishloq joylarida qishloq xo‘jaligiga taalluqli bo‘lmagan bandlik sohalarini kengaytirish masalalarini hal etishga e‘tiborni kuchaytirish;

- ishsizlarni kasbiy o‘qitish va jamoat ishlari tizimlarini takomillashtirish bilan shug‘ullanadigan xizmatlar ishini faollashtirish.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi korxonani ish kuchi bilan ta‘minlanishi va ulardan foydalanish ko‘rsatkichlariga ko‘p jihatdan bog‘liq. ***Mehnat resurslari ishlab chiqarishga uch yoqlama ta‘sir etadi.***

1. Korxonani mehnat resurslari bilan ta‘minlanish darajasi.


2. Ish vaqtidan foydalanish.

3. Mehnat unumdorlik darajasi.

Korxonaning barcha bo‘g‘inlarida xizmat qiladigan xodimlar ikki guruhga bo‘linadi:

1. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari.

2. Noishlab chiqarish sohasidagi xodimlar.



21- chizma. Mehnat resurslaridan foydalanish tahlili.

Ishlab chiqarish jarayonida mehnat qiladigan kategoriyadagi sex uskunalari kapital ta'mirlash, korxonada boshqaruv bo'limi, konstruktor byurosi, yong'indan muhofaza qilish sohasidagi xodimlar sanoat ishlab chiqarish xodimlari deb ataladi.

Transport, uy-joy xo'jaligi, bolalar bog'chasi va yaslisi, madaniy-ma'rifiy sohalardagi xodimlar noishlab chiqarish xodimlari tarkibiga kiradi. ***Sanoat ishlab chiqarish xodimlari ishlab chiqarishdagi roliga qarab quyidagi kategoriyadagi xodimlarga bo'linadi:***

- ishchilar;
- xizmatchilar;
- rahbar xodimlar;
- mutaxassislar;
- qorovullik xizmati xodimlari.

Ishchi kuchining tahlili korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlashini aniqlashdan boshlanadi. Buning uchun jami sanoat ishlab chiqarish xodimlarini soni shu jumladan, ayrim kategoriyadagi xodimlari rejasini bilan taqqoslanib xodimlarni ortiqcha, yetishmasligi aniqlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi nafaqat korxonani umumiy miqdorda mehnat resurslari bilan ta'minlanishiga bog'liq bo'lmay, balki xodimlarning malakaviy darajasi va kategoriyalari bo'yicha tuzilishiga bog'liq.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat resurslari bilan ta'minlanganligiga baho berishda asosiy e'tibor mehnat resurslaridan foydalanishga qaratilishi lozim. Mehnat resurslaridan foydalanishni quyidagi chizma yordamida ifodalab berishimiz mumkin.

51-jadval

Mehnat resurslarining tarkibi, strukturasi va dinamikasini tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili				Mutlaq farqi (+,-)	
		Biznes-rejada		Haqiqatda		O'tgan yildan	Rejadan
		Soni, kishi	Salmo g'i, %	Soni, kishi	Salmo g'i, %		
1. Ishchilar	617	605	73,78	599	73,59	-18	-6
2. Xizmatchilar	123	120	14,63	117	14,37	-6	-3
3. Rahbar xodimlar	41	35	4,27	37	4,54	-4	+2
4. Mutaxassislar	47	50	6,10	53	6,51	+6	+3
5. Qorovullik xizmati xodimlari	10	10	0,01	8	0,98	-2	-2
Jami:	838	820	100,0	814	100,0	-24	-6

Tahlil etishda sanoat ishlab chiqarish xodimlarini soni reja va o'tgan yildagisi bilan solishtirilib, korxonaning mehnat resurslari bilan ta'minlanishi va dinamikasi aniqlanadi. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining strukturasi tarmoq xususiyati, mahsulot nomenklaturasi, ixtisoslashish darajasiga bog'liq.

Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, tahlil qilinayotgan korxonada o'rganilayotgan davrda sanoat ishlab chiqarish sohasidagi mehnat resurslari tarkibida bir qator o'zgarishlar sodir bo'lgan. Xususan, o'tgan yilga nisbatan jami mehnat resurslari soni hisobot yilida 24 kishiga kamaygan. Bunga asosan ishchilar sonining 18 kishiga, xizmatchilarning 6 kishiga, rahbar xodimlarning 4 kishiga va qorovullik xizmati xodimlarining 2 kishiga kamayganligi ta'sir etgan. Joriy yilda mutaxassislar soni esa o'tgan yilga nisbatan 6 kishiga ko'paygan. Korxonada hisobot yilida belgilangan biznes-rejaga nisbatan ham mehnat resurslari soni 6 kishiga kamaygan. Bunga asosan ishchilar sonining rejalashtirilganiga nisbatan 6 kishiga, xizmatchilarning 3 kishiga kamayganligi, rahbar xodimlar va mutaxassislarning ortishi ta'sir etgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonadagi sanoat ishlab chiqarish sohasidagi mehnat resurslarining asosiy salmog'ini ishchilar va xizmatchilar tashkil etmoqda. Xodimlar tarkibida mutlaq tarkibiy o'zgarishlar kuzatilgan bo'lsada ularning umumiy tarkibdagi salmog'ida deyarli keskin o'zgarishlar kuzatilmaydi. Rahbar xodimlarning biznes-rejada belgilanganiga nisbatan ortishi korxonada uchun samara bermaydi. Shu sababli korxonada bevosita ishlab chiqarish jarayonida to'g'ridan-to'g'ri qatnashadigan xodimlar sonini oshirishga harakat qilishi, bu esa samaradorlikni oshirishga olib kelishi mumkin.

6.3. Ish kuchi qo'nimsizligi va ishchilarning malaka darajasi tahlili

Ishlab chiqarish rejalarining bajarilishi sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlarga ham bog'liq. Yil davomida korxonada xodimlari tarkibi ishga qabul qilish va bo'shatish hisobiga o'zgarib turadi. Bunday o'zgarishlar ish kuchi oboroti koeffitsiyenti orqali ifodalanadi. Tahlil etishda kadrlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish bo'yicha belgilangan tadbirlarni bajarilishi nazorat qilinadi. Buning uchun ishchilarni o'rtacha razryadi aniqlanadi.

Xodimlarning qo'nimsizligi ishlab chiqarishga salbiy ta'sir etadi. Qo'nimsizlik koeffitsiyentini aniqlash uchun o'z arizasiga muvofiq ishdan bo'shagan va mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan ketgan xodimlar sonining yig'indisini xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soniga bo'lish lozim. Bu ko'rsatkich o'tgan yillar bilan taqqoslanadi va tegishli xulosalar qilinadi.

52-jadval

Xodimlar qo'nimsizligi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
1. Ishchilarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, kishi	617	599	-18
2. Yil davomida ishga qabul qilinganlar soni, kishi	38	39	+1
3. Yil davomida ishdan bo'shatilganlar soni, kishi	56	43	-13
Shu jumladan:			
a) o'z xohishiga ko'ra	16	12	-4
b) progul va mehnat intizomini buzganligi uchun	28	18	-10
d) o'qishga kirganligi, nafaqaga chiqqanligi, harbiy xizmatga chaqirilganligi sababli	12	13	+1
4. Ishga qabul qilish oboroti, % (gr2/gr1)	6,16	6,51	+0,35
5. Ishdan bo'shatish oboroti, % (gr3/gr1)	9,08	7,18	-1,9
6. Qo'nimsizlik koeffitsiyenti (gr3a+gr3b/1)	0,071	0,050	-0,429

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, tahlil qilinayotgan xo'jalik subyektida joriy yilda xodimlar qo'nimsizligiga bir qadar barham berilgan, ya'ni o'tgan yili xodimlar qo'nimsizligi 0,071 koeffitsiyentni tashkil etgan bo'lsa, hisobot yilida bu ko'rsatkich 0,050 koeffitsiyentni tashkil qildi. Qo'nimsizlik 0,429 koeffitsiyentga pasayganligini ijobiy baholamoq lozim. Mazkur korxonada ishdan bo'shatish oboroti o'tgan yilgi 9,08 foizdan hisobot yilida 7,18 foizga qadar pasaygan. Bunday natijalar korxonada ijtimoiy-iqtisodiy muhitning yaxshilanayotganligidan dalolatdir. Bu ko'rsatkichlar orqali korxonada mehnatni tashkil etish, rag'batlantirish sistemalari talab darajasida tashkil etila boshlanganligini ifodalaydi. Bundan tashqari korxonada mehnat intizomi kuchayganligini ham ko'rishimiz mumkin. Joriy yilda mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shatilganlar soni o'tgan yilga nisbatan 10 kishiga kamayganligini uning tasdig'i sifatida ko'rishimiz

mumkin. Bunday natijalarni korxonaga uchun ijobiy hol deb baholash lozim.

Tahlil davomida ishchilarni kasbi bo'yicha korxonaning ta'minlanishini aniqlash lozim, chunki, mahsulot ishlab chiqarish, korxonani, ishchilarning kasbini hisobga olgan holda ta'minlanishiga bog'liq.

53-jadval

Ishchilarning kasbi bo'yicha ta'minlanishi tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	Rejaning bajarilishi, %	Farqi (+,-)	
				Mutlaq, kishi	Nisbiy, %
1. Bo'yoq tayyorlovchilar	240	245	102,08	+5	+2,08
2. Rang tanlovchilar	98	97	98,97	-1	-1,03
3. Bo'yoq qoruvchilar	56	58	103,57	+2	+3,57
4. Chilangarlar	28	25	89,28	-3	-10,72
5. Boshqa toifadagi ishchilar	183	174	95,08	-9	-4,82
Jami:	605	599	99,01	-6	-0,99

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida o'rganilayotgan davrda jami ishchilar soni biznes-rejada belgilanganiga nisbatan 6 kishiga kamaygan. Ishchilar sonining kamayishiga asosan chilangarlarning 3 kishiga va boshqa toifadagi ishchilarning 9 kishiga kamayganligi sabab bo'lgan. Korxonadagi ishchilarning asosiy salmog'ini bo'yoq tayyorlovchilar, rang tanlovchilar va boshqa toifa ishchilari tashkil etgan. Korxonaga asosiy kasbdagi ishchilar bilan 99,01 foizga ta'minlangan. Bo'yoq tayyorlovchilar, bo'yoq qoruvchilar kasbidagi ishchilar rejaga nisbatan ortiqcha bo'lgan holda qolgan kasbdagilar kamaygan. Bunday holatni bo'lishi ishlab chiqarishni normal tashkil etishga to'sqinlik qiladi, natijada belgilangan ish vaqtdan ortiqcha mehnat sarf qilinishiga va ish haqi fondidan ortiqcha sarfga yo'l qo'yilishiga olib keladi. Ishlab chiqarish natijasi, mehnat unumdorligi ishchining mehnat stajiga ham bog'liq. Tahlil etishda uzluksiz mehnat staji (1-yilgacha, 1-5 yil; 5-10; 10-15; 15-20; 20-25; 25 yildan ortiq)ni jami ishchilar sonida tutgan ulushi aniqlanadi va tegishli xulosa qilinadi.

6.4. Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishi tahlili va uning o'zgarish sabablari

Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ishni tashkil etish va mehnat resurslarining ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlariga ham ko'p jihatdan bog'liq. Ishchilarni ish vaqti fondi ishchining yil davomida ishlagan kishi-kunlari va kishi-soatlari ko'rinishida hisobotlarda ifodalanadi. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etish uchun ishchilar tomonidan ishlangan jami kishi-kunlari va kishi-soatlari rejasi bilan taqqoslanib ish vaqtini yo'qotilishi va uni o'zgarish sabablari aniqlanadi. Tahlil jarayonida ish vaqti fondidan to'liq foydalanmaslik sabablari atroflicha o'rganilmog'i lozim. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etishda quyidagi ko'rsatkichlarni qo'shimcha aniqlash lozim.

1. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlari.
2. Ish kuni davomiyligi.

Ishchilarning ish vaqti fondiga (IVF) quyidagi omillar ta'sir etadi:

$$IVF = I_S * K_K * K_D$$

Bu yerda:

- ishchilar sonining o'zgarishi (I_S);
- bir ishchini ishlagan kunlarining o'zgarishi (K_K);
- ish kuni davomiyligining o'zgarishi (K_D).

Ish vaqti fondi (kishi-soatlari)ning o'zi esa quyidagi ko'rsatkichlar ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$\begin{array}{l} \text{Jami} \\ \text{ishlangan} \\ \text{kishi-soatlari} \end{array} = \begin{array}{l} \text{Ishchilar soni} * \text{Bir ishchining ishlagan kishi-} \\ \text{kunlari} * \text{Ish kuni davomiy ligi} \end{array}$$

Ish vaqtidan foydalanish tahlili kalendar ish vaqti fondlarini o'z ichiga oladi. Kalendar ish vaqti fondi o'rganilayotgan davrdagi kunlarni ishchilarni ro'yxat bo'yicha soniga ko'paytmasidan hosil bo'ladi. Kalendar ish fondidan dam olish va bayram kunlari hamda rejalashtirilgan ta'til, qo'shimcha ta'til, kasallik kunlarini ayirish orqali reja bo'yicha ish vaqti fondi hosil bo'ladi. Ish vaqtidan foydalanishni tahlil etishda jami ishchilarni ishlagan ish vaqti fond (kishi-kun, kishi-soat) lari rejalashtirilgan o'tgan yil ko'rsatkichlari bilan taqqoslanib, ish vaqtidan to'liq foydalanmaslik sabablari aniqlanadi. Ularga ma'muriyat ruxsati bilan ishchilarni boshqa ishlarga jalb etilishi, kasallik sababli, mehnat intizomiga rioya qilinmasligi tufayli ish vaqti yo'qotilishi kiradi.

Ishchilarning ish vaqti fondi (IVF) ishchilar soni (I_s), bir ishchini yil davomida ishlagan kunlari (K) va ish kuni davomiyligi (D) ni ko‘paytmalaridan hosil bo‘ladi.

$$IVF = I_s \cdot K \cdot D$$

1-T «Mehnat hisoboti» shakli ma’lumotlari asosida bir ishchini yil davomida ishlagan kunlari, ish kunining davomiyligi quyidagicha aniqlanadi.

$$K = \frac{\text{Jami ishchilarni ishlagan kishi} - \text{kunlari}}{\text{Ishchilarni ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni}}$$

$$D = \frac{\text{Jami ishchilarni ishlagan kishi} - \text{soatlari}}{\text{Jami ishchilarni ishlagan kishi} - \text{kunlari}}$$

54-jadval

Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishi tahlili

№	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
			Reja	Haqiqat-da	o‘tgan yildan	rejadan
1.	Ishchilarni ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni (I_s)	649	624	601	-48	-23
2.	Bir ishchini yil davomida ishlagan kunlari (K)	263	260	257	-6	-3
3.	Bir ishchini yil davomida ishlagan soatlari (S)	2055,9	2027,5	2017,9	-38,0	-9,6
4.	Ish kuni davomiyligi (D), soatda	7,79	7,80	7,85	+0,06	+0,05
5.	Ish vaqti fondi (IVF), ming kishi-soatda	1334,3	1265,2	1212,8	-121,5	-52,4

O‘tgan yilga nisbatan ish vaqtini yo‘qotilishi 121,5 ming kishi – soat, hisobot yilining rejasiga nisbatan 52,4 ming kishi – soatlarini tashkil etgan. Ish vaqti fondini o‘zgarishi quyidagi omillar ta’siri natijasida ro‘y bergan:

a) ishchilar soni

$$\Delta IVF(is) = (I_s^1 - I_s^0) \cdot K^o \cdot D^o$$

$$\Delta IVF(is) = (601 - 624) \cdot 260 \cdot 7,80 = -46,6 \text{ ming kishi} - \text{soat}$$

b) bir ishchini ishlagan kunlari

$$\Delta IVF(k) = Is^1 \cdot (K^1 - K^0) \cdot D^0$$

$$\Delta IVF(k) = 601 \cdot (257 - 260) \cdot 7,80 = -14,0 \text{ ming kishi - soat}$$

v) ish kuni davomiyligi

$$\Delta IVF(D) = Is^1 \cdot K^1 \cdot (D^1 - D^0)$$

$$\Delta IVF(D) = 601 - 257 \cdot (+0,05) = +7,7 \text{ ming kishi - soat}$$

55-jadval

Ish vaqtidan foydalanish natijalarini quyidagi jadvalga joylashtiramiz

Ko'rsatkich	Reja bo'yicha	Haqiqatda	Rejada n farqi	Shu jumladan o'zgarishi			
				Ishchilar soni	Bir ishchini ishlagan kunlari	Ish kuni davomiyligi	Hisob-kitobda yo'l qo'yilgan xato
Ish vaqti fondi (IVF), ming kishi-soatda	1265,2	1212,8	-52,4	-46,6	-14,0	+7,7	+0,5

Ish vaqtini yo'qotilishi 60,6(46,6+14,0) ming kishi-soatni tashkil etgan. Ish kuni davomiyligini uzayishi hisobiga yo'qotilgan soat biroz qisqarib 52,4 ming soatni tashkil etgan.

Ish vaqtidan foydalanishni kompleks iqtisodiy tahlilida ish vaqtini unumsiz sarflanishiga katta ahamiyat beriladi. Ish vaqtini unumsiz sarflanishiga brakni tuzatish uchun sarflangan vaqt, texnologik jarayonlardagi xatolarni bartaraf etish bilan bog'liq ish vaqtini sarflari kiradi.

6.5. Mehnat unumdorligi dinamikasi tahlili

Mehnat unumdorligi – ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich, uni oshirish – iqtisodiy o'sishning asosiy omilidir. Mahsulot hajmini oshirishda mehnat unumdorligini ulushi yuqoridir. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Mehnat unumdorligini o'lchov birliklari:

- a) qiymat;
- b) natura;
- d) mehnat.

Unumdorlik darajasini natura shakli aniq ifodalaydi, ammo bu ko'rsatkichni qo'llash cheklangan. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko'rsatkich bu har bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotdir.

Bulardan tashqari ishchining bir kunlik ish unumi, ishchining bir soatlik ish unumi ko'rsatkichlari ham mehnat unumdorligini ifodalaydi. Tahlil etishda bu mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari o'tgan yildagisi bilan taqqoslanib ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Mehnat unumdorligining dinamikasi ko'p jihatdan korxonani ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, ish vaqti fondi, tannarxi va hokazo ko'rsatkichlari bilan bog'liq.

Mehnat unumdorligini tahlil etishda ko'rsatkichlar o'tgan yil, hisobot yilining rejasi, bir xil ixtisoslashuvga ega bo'lgan korxonalarni ma'lumotlari bilan taqqoslanib ishga solinmagan ichki imkoniyatlar aniqlanadi.

Mehnat resurslaridan samarali foydalanishni quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

- mehnat unumdorligini o'sish sur'ati;
- mahsulot hajmini ortishida mehnat unumdorligi o'sishining hisyasi;
- xodimlar sonini nisbiy qisqarishi;
- ish haqi fondidan nisbiy iqtisod;
- mehnat unumdorligining o'sish sur'atini o'rtacha ish haqi o'sishiga nisbati.

Mehnat unumdorligini o'lchov birliklari:

- qiymat, natura va mehnat

a) qiymat shakli $Mu = \frac{Q}{x}$,

bunda Mu -mehnat unumdorligi (Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mahsulot);

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot solishtirma ulgurji bahoda;

X – xodimlarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni.

b) natura $Mu = \frac{Q_{tonna, kg, m, \dots}}{x}$,

v) mehnat $Mu = \frac{T}{Q}$,

T - mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt (kishi-kun, kishi - soat)

Q – mahsulot miqdori (dona, kg, va h.k.)

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichining qiymat shakli kamchiliklardan xoli emas. Masalan, sarflangan xomashyo, yoqilg'i, energiya narxlari va ta'riflari, mahsulot tarkibidagi strukturaviy o'zgarishlar unumdorlik darajasiga ta'sir etadi.

Natura shakli mehnat unumdorligini aniq ifodalaydi, ammo bu o'lchov birligi bir turdagi mahsulot ishlab chiqaradigan korxonalarda qo'llanilishi mumkin (ko'mir qazish, elektr energiya, neftni qayta ishlash korxonalari).

Mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari:

- bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot;
- bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot;
- ishchini bir kunlik ish unumi;
- ishchini bir soatlik ish unumi.

Mehnat unumdorlik ko'rsatkichlarini kompleks tahlil etish uchun ko'rsatkichlar o'tgan yil, hisobot yilining rejasi, bir xil ixtisosga ega bo'lgan korxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslanib ishga solinmagan ichki imkoniyatlar aniqlanadi.

Mehnat unumdorligini umumiy ko'rsatkichi - bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulotdir (GV_x). Bu ko'rsatkich ishchini bir kunlik, bir soatlik (ChV) ish unumlaridan tashqari, ishchini jami xodimlar tarkibida tutgan ulushi (Ul), bir ishchini ishlagan kunlari (K) va ish kuni davomiyligi (D) ga ham bog'liq.

Ishchini bir soatlik ish unumini ortishi, ishchilarni ish vaqtidan to'liq unumli foydalanish bir xodimning mehnat unumdorligini oshishini ta'minlaydi, demak, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmini quyidagicha ifodalash mumkin:


$$GV_x = Ul \cdot K \cdot D \cdot ChV$$

O'z navbatida, bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi quyidagi omillar ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$GV_u = K \cdot D \cdot ChV$$

Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot (GV_x) qisqargan shaklda quyidagi omillar ko'paytmasidan iborat:

$$GV_x = Ul \cdot GV_u$$



22-chizma. Mehnat unumdorligini omilli tizimi.

Quyida biz mehnat unumdorligi darajasi va uning dinamik o'zgarishlarini jadval yordamida ifodalab o'tamiz.

56-jadval

Mehnat unumdorligi ko'rsatkichlarining darajasi va dinamikasi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	O'tgan yildan	Biznes-rejadan
1	2	3	4	5	6
1. Mahsulot hajmi (ish, xizmat) solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm	2113430	2198763	2553967	+440537	+355204
2. Sanoat ishlab chiqarish xodimlarini ro'yxat bo'yicha soni, kishi	838	820	814	-24	-6
3. Shu jumladan, ishchilar soni, kishi	617	605	599	-18	-6

1	2	3	4	5	6
4. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlari, kishi-kun	263	265	256	-7	-9
5. Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-soatlari, kishi-soat	2087,15	2074,71	2008,01	-79,14	-66,7
6. O'rtacha ish kuni davomiyligi, soat	7,85	7,83	7,84	-0,01	+0,01
7. Ishchilar sonini sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida tutgan salmog'i, %	73,63	73,78	73,59	-0,04	-0,19
8. Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'mda (1\2)	2522,0	2681,4	3137,6	+615,6	+456,2
9. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'mda (1\3)	3425,3	3634,3	4263,7	+838,4	+629,4
10. Ishchining bir kunlik ish unumi, so'm (1\4)	8035,855	8297,219	9976,433	+1940,578	+1679,214
11. Ishchining bir soatlik ish unumi, so'm (1\5)	1012,591	1059,793	1271,889	+259,298	+212,096

Ushbu jadval ma'lumotlari asosida xo'jalik subyektidagi mehnat unumdorligiga va uning dinamik o'zgarishlariga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada barcha turdagi mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari o'tgan yili va biznes-rejaga nisbatan o'sgan. Mehnat unumdorligining o'sishiga, asosan, mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi va aksincha, ishchi va xodimlarning kamayganligi sabab bo'lgan. Unumdorlikning o'sishini ijobiy baholash lozim.

6.6. Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\text{Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot} = \text{Sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi ishchilarni tutgan ulushi, (\%)} * \text{Bir ishchining o'rtacha yillik mahsuloti}$$

Mehnat unumini tahlil etishda uning dinamikasi, rejasini bajarilishiga baho beriladi. Unumdorlik darajasini o'zgarish sabablari aniqlanadi va unga ta'sir etuvchi omillar miqdor jihatdan hisoblanadi.

57-jadval

Bir xodimning mehnat unumi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Biznes-reja bo'yicha	Haqiqatda	O'tgan yildan	Biznes-rejadan
Mahsulot (ish, xizmat) hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm	2113430	2198763	2553967	+440537	+355204
Sanoat ishlab chiqarish xodimlarni o'rtacha soni, kishi	838	820	814	-24	-6
Shu jumladan:					
Ishchilar soni, kishi	617	605	599	-18	-6
sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibidagi ishchilar salmog'i, % $gr3*100/gr2$	73,63	73,78	73,59	-0,04	-0,19
Bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'm $gr1/gr2$	2522,0	2681,4	3137,6	+615,6	+456,2
Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot, ming so'm $gr1/gr3$	3425,3	3634,3	4263,7	+838,4	+629,4
Bir xodimni rejaga nisbatan mehnat unumining o'zgarishi:	x	x	x	x	+456,2
A) Ishchilar salmog'ini o'zgarishi hisobiga $-0,19*3634,3 /100$	x	x	x	x	-6,905
B) bir ishchini mehnat unumini o'zgarishi hisobiga $+629,4*73,59/100$	x	x	x	x	+463,175

Tahlil etilayotgan xo'jalik subyektida hisobot davrida bir xodimning o'rtacha yillik mehnat unumdorligi biznes-rejaga nisbatan 456,2 ming so'mga o'sgan. Bunga, asosan, ikkita omil ta'sir etgan. Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda o'tgan yilga, rejaga nisbatan ortgan. Xodimlar va ishchilar soni esa shu davr ichida kamaygan, demak, mahsulot hajmining o'sishi mehnat unumdorligini o'sishi bilan izohlanadi, ya'ni korxonaning sanoat ishlab chiqarish xodimlari tarkibida ishchilar salmog'ining o'zgarishi hisobiga bitta xodimning o'rtacha yillik mehnat

unumdorligiga 6,905 ming soʻmga pasayishiga taʼsir etgan. Aksincha, ikkinchi omil boʻlmish, bir ishchining mehnat unumdorligini biznes-rejaga nisbatan 629,4 ming soʻmga ortganligi hisobiga bitta xodimning mehnat unumdorligi ham 463,175 ming soʻmga ortgan. Har ikkala omilning taʼsiri umumlashtirilganda, ularning natijasi ijobiy boʻlib, bu koʻrsatkich 456,2 ming soʻmni tashkil qilgan.

6.7. Ishchining mehnat unumdorligiga taʼsir etuvchi omillar tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalar mahsulot ishlab chiqarish hajmini koʻpaytirishga va uni bozorga taklif qilish orqali koʻproq foyda olishga intiladi. Bunday sharoitda mahsulot hajmini korxonani kengaytirish yoki xodimlar sonini koʻpaytirish bilan bir qatorda, bevosita ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi ishchilarning mehnat unumdorligini koʻtarish orqali amalga oshirgani korxonaga uchun koʻproq samarali hisoblanadi. Shu tufayli ham har bir xoʻjalik yurituvchi subyekt oʻz ishchilarining mehnat unumdorligini oshirish choralarini koʻrishga harakat qiladi hamda unumdorlikka taʼsir etuvchi omillarni oʻrganib boradi.

Odatda, bir ishchiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha yillik mahsulot hajmi quyidagi omillarga bogʻliq.

1. Bir ishchining yil davomida ishlagan oʻrtacha kishi kunlari = (jami kishi kunlari / ishchilar soni).

2. Ish kuni davomiyligi, soat = (jami ishlangan kishi soat / jami ishlangan kishi kunlari).

3. Ishchining bir soatlik ish unumi = (mahsulot hajmi / jami ishlangan kishi-soat).

Tahlil etishda bir ishchiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha yillik mahsulot hajmining rejasiga, oʻtgan yilga nisbatan oʻzgarish sabablari va unga taʼsir etuvchi omillar quyidagicha aniqlanadi.

$$\text{Bir ishchiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha mahsulot} = \frac{\text{Bir ishchining ishlagan kishi-kunlari} \cdot \text{Ish kuni davomiyligi}}{\text{Ishchining 1 soatlik kunlari}}$$

Bir ishchiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha yillik mahsulot hajmi ishchining ish vaqtidan toʻliq foydalanish va ishchini bir soatlik ish unumiga bogʻliq. Mahsulot hajmi ishchilar soni va ish kuchidan intensiv

foydalanish natijasi mehnat unumdorligiga bog‘liq. Mehnatni texnik jihatdan qurollanish darajasi ishchi kuchi mehnati unumdorligini oshirish omilidir. Mehnat intensivligi vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulot miqdori bilan o‘lchanadi. Uning darajasi ish vaqtidan to‘liq foydalanishga bog‘liq. Bir ishchining yillik mahsulot hajmini (GV_i) bazis davridan farqiga ta’sir etuvchi omillar formula asosida quyidagicha aniqlanadi.

$$GV_u = K \cdot D \cdot ChV$$

- bir ishchini ishlagan kunlari (K) ni ta’siri


$$\Delta GV_u(k) = (K^1 - K^0) \cdot D^0 \cdot ChV^0$$

- ish kuni davomiyligi (D) ni ta’siri

$$\Delta GV_u(D) = K \cdot (D^1 - D^0) \cdot GV^0$$

- ishchini bir soatlik ish unumini ta’siri (ChV)

$$\Delta GV_u(ChV) = K^1 \cdot D^1 (ChV^1 - ChV^0)$$



23-chizma. Mehnat unumdorligini oshirish rezervlari.

Mehnat unumdorligini kompleks tahlilida bir soatlik ish unumini o‘shir sur‘atlari va ish vaqtini yo‘qotish sabablari o‘rganiladi. Buning uchun ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi unga sarflangan vaqt bilan taqqoslanadi. Bunday taqqoslash natijalarini quyidagi variantlari mavjud:

a) mahsulotni ishlab chiqarish uchun mehnat sarfi qisqargan holda mahsulot hajmini ortishi;

b) mahsulot hajmi o‘shishini mehnat sarfiga nisbatan yuqori sur’atlarda o‘shishi;

d) mehnat sarfi o‘zgarmagan holda mahsulot hajmini ortishi;

e) mehnat sarfini qisqarish darajasiga nisbatan mahsulot hajmi kamayishini sekinlashishi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchining ish vaqtidan foydalanishi va bir soatlik mehnat unumdorligi o‘zgarishini mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta’sirini quyidagi jadval ma’lumotlari asosida tahlil qilib chiqishimiz mumkin.

58-jadval

Ish vaqtidan foydalanishni va o‘rtacha 1 soatlik ish unumdorligini ishchining yillik mahsulot hajmiga ta’siri tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili		Farqi (+,-)	
		Biznes-rejada	Haqiqat-da	O‘tgan yildan	Biznes-rejadan
Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so‘m	2113430	2198763	2553967	+440537	+355204
Ishchilarning jami ishlagan kishi-kunlari, ming kishi-kuni	162,27	160,2	153,5	-8,77	-6,7
Ishchilarning jami ishlagan kishi-soatlari, ming kishi-soat	1287,8	1255,2	1202,8	-85,0	-52,4
Ishchilarni ro‘yxat bo‘yicha o‘rtacha soni, kishi	617	605	599	-18	-6
Hisob-kitoblar:					
Bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik mahsulot, ming so‘m gr1/4	3425,3	3634,3	4263,7	+838,4	+629,4
Bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlari, kishi-kuni gr2/4	263	265	256	-7	-9
O‘rtacha ish kuni davomiyligi, soat gr3/gr2	7,85	7,83	7,84	-0,01	+0,01
Ishchini 1 soatlik ish unumi, (so‘m) gr1/gr3	1641,117	1751,723	2123,351	+482,234	+371,628
Bir ishchini o‘rtacha yillik mahsulot hajmini rejadan farqiga ta’siri:	x	x	x	x	+629,4
a) yo‘qotilgan ish kunlari hisobiga	x	x	x	x	-123,4
b) ish kuni davomiyligini uzayishi hisobiga	x	x	x	x	+4,5
v) 1 soatlik ish unumini ortishi hisobiga	x	x	x	x	+745,9

a) $-9 * 7,83 * 1751,723$ b) $+0,01 * 256 * 1751,723$

d) $+371,628 * 7,84 * 256$

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektida o‘rganilayotgan davrda bir ishchining o‘rtacha yillik

mehnat unumdorligi 629,4 ming soʻmga koʻtarilgan. Ishchilarning mehnat unumdorligini oshishida, asosan, ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining oʻsishi hamda aksincha, ishchilar sonining va bir ishchining yil davomida ishlagan kishi kunlarining kamayganligi ijobiy taʼsirini koʻrsatgan. Bundan tashqari jadval maʼlumotlaridan koʻrinib turibdiki, korxonada ishchining mehnat unumdorligini oshishiga, asosan, uchta omil, yaʼni ish kunlarining yoʻqotilishi hisobiga 123,4 ming soʻmga salbiy taʼsir koʻrsatgan boʻlsa, ish kuni davomiyligining biznes-rejadagiga nisbatan 0,01 soatga uzayganligi mehnat unumini 4,5 ming soʻmga, ishchilarning bir soatlik ish unumini 371,628 soʻmga ortganligi ham mehnat unumini 745,9 ming soʻmga oshirgan. Har uchala omilning taʼsiriga koʻra bir ishchining oʻrtacha yillik mehnat unumdorligi biznes-rejadagiga nisbatan 629,4 ming soʻmga ortishiga olib keldi. Bunday natijalarni aksionerlik jamiyati uchun ijobiy deb baholamoq lozim.

6.8. Mahsulot mehnat sigʻimi tahlili

Ishlab chiqarish hajmi, mahsulot strukturasi va assortimentini oʻzgarishiga ham bogʻliq. Kam mehnat talab etadigan mahsulot turlarini koʻproq ishlab chiqarish tufayli mahsulot struktura va assortimentini oʻzgarishi mehnat unumdorligini oʻsishiga olib keladi.

Struktura va assortimentni unumdorlik darajasiga taʼsirini mehnat sigʻimi orqali aniqlash mumkin.

Mehnat sigʻimi – mahsulot, yarimfabrikat mahsulotni ayrim qismlarini ishlab chiqarish uchun sarflangan ish vaqti bilan oʻlchanadi.

Sanoatda mehnat unumdorligini oʻsishi ilmiy-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni texnik jihatdan takomillashtirish natijasida mehnat sigʻimini pasaytirish hisobiga erishiladi.

Mehnat sigʻimi bilan mehnat unumdorligi bilvosita bogʻliqlikka ega. Mehnat sigʻimi pasayishi tufayli mehnat unumdorligi ortadi va buning aksicha, mehnat sigʻimi ortsa-mehnat unumdorligi pasayadi.

Mehnat sigʻimini pasaytirish mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan ish vaqtini qisqartirish orqali erishiladi.

Mehnat sigʻimini pasaytirish hisobiga mehnat unumdorligini oʻsishi (foiz hisobida) quyidagicha aniqlanadi.

$$\text{Mu} = \frac{100 \times A}{100 - A}$$

Bunda: A- ishlab chiqarilgan mahsulot mehnat sig'imini pasaytirish (foiz hisobida).

Mu – mehnat unumdorligini o'sish darajasi (foiz hisobida).

Masalan, mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan mehnat 8550 kishi-soatni tashkil etib, norma bo'yicha 9000 kishi-soatga nisbatan 450 kishi-soat iqtisod qilingan. Demak, mehnat sig'imini 5 % ($450:9000 \times 100$) ga pasayishi mehnat unumdorligini 5,26% ($9000:8550 \times 100$) ga ortishiga olib keldi.

Erishilgan natijani yuqoridagi formula orqali ham aniqlash mumkin.

$$\mathbf{Mu} = \left(\frac{\mathbf{100 \times 5}}{\mathbf{100 - 5}} \right) = \mathbf{5,26 \%}$$

Mehnat unumdorligini mehnat sig'imiga ta'siri quyidagicha aniqlanadi.

$$\mathbf{A} = \frac{\mathbf{Mu \times 100}}{\mathbf{100 + Mu}}$$

Bizning misolimizda mehnat unumdorligini 5,26% ga o'sishi, mehnat sig'imini 5 % ga pasayishiga olib keldi.

$$\mathbf{A} = \frac{\mathbf{5.26 \times 100}}{\mathbf{100 + 5,26}} = \mathbf{5 \%}$$

Ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt mehnat unumini tavsiflaydi. Mehnat unumdorligi ishlab chiqarilgan mahsulot, ish va xizmatlar hajmini mehnat sarfiga bo'lish asosida aniqlanadi, mehnat sarfi sifatida sarflangan ish soatlari yoki ish kunlari olinadi.

Mehnat unumdorligining o'sish darajalari va dinamikasiga baho berishda uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarga alohida ahamiyat beriladi:

- intensiv omil;
- ekstensiv omil;
- ishlab chiqarishning texnik-texnologik holati.

Mehnat sig‘imining o‘shirishini mehnat unumdorligiga bo‘lgan ta’siri quyidagi jadval ma’lumotlari asosida o‘rganib chiqiladi.

59-jadval

Mehnat sig‘imining o‘zgarishini mehnat unumdorligiga ta’siri tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili		Ko‘rsatkichlarni o‘zgarishi		
		Biznes-rejada	Haqiqatda	reja o‘tgan yilga nisbatan, %	haqiqiy o‘tgan yilga nisbatan, %	Reja-ning bajarilishi, %
1. Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so‘m	2113430	2198763	2553967	104,04	120,84	116,15
2. Ishchilarni jami ishlagan kishi-soatlari, ming k/soat	1287,8	1255,2	1202,8	97,47	93,40	95,82
3. Har 1000 so‘m mahsulot uchun sarflangan mehnat, soat (2 satr: 1 satr)	0,61	0,57	0,47	93,44	77,05	82,45
4. Ishchining bir soatlik ish unumi, so‘m (1 satr: 2 satr)	1641,1	1751,723	2123,351	106,74	129,38	121,21

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki xo‘jalik subyektida o‘rganilayotgan davrda mahsulot ishlab chiqarish hajmi solishtirma ulgurji bahoda o‘tgan yilga nisbatan ham, biznes-rejaga nisbatan ham o‘sgan. Bunga aksincha o‘laroq, ishchilarning jami ishlagan kishi soatlari hajmi qisqargan. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada mahsulot mehnat sig‘imi qisqargan va aksincha mehnat qaytimi ko‘rsatkichlari ortgan. Shularning natijasida ishchilarning bir soatlik ish unumlari ham o‘sgan. Mehnat sig‘imini pasayishi hisobiga ishchining 1 soatlik ish unumini 29,38 % ga oshirish ko‘zda tutilgan. Haqiqatda esa 1 soatlik ish unumi 21,21 % ga mehnat sig‘imini pasayishi hisobiga erishilgan.

6.9. Mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi mehnat omillari tahlili

Bugungi raqobatdosh iqtisodiyotda korxonalarining mahsulot ishlab chiqarish hajmlarini o‘zgarishiga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi omillarni shartli ravishda to'rtta guruhga ajratish mumkin:

- mehnat predmetlari;
- mehnat vositalari;
- mehnat omillari;
- tadbirkorlik.

Mazkur omillar tarkibida asosiy o'rinni mehnat omillari tashkil etadi. Shu sababli ham mehnat omillarini tahlil qilib borish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Mahsulot hajmiga quyidagi mehnat omillari ta'sir etadi.

- ishchilar sonini o'zgarishi.
- bir ishchini yil davomida ishlagan kishi-kunlarini o'zgarishi.
- ish kuni davomiyligini o'zgarishi.
- ishchini 1 soatlik ish unumini o'zgarishi.

Bu mehnat omillarini mahsulot hajmiga bo'lgan ta'sirini zanjirli bog'lanish, foizlar farq usullari orqali aniqlash mumkin.

60-jadval

**Mehnat omillarini mahsulot hajmiga ta'siri tahlili
(foizlarni farq usuli orqali aniqlash)**

Ko'rsatkichlar	Rejaning bajarilishi, (%)	Foizlarning farqi, (+,-)	Hisob- kitoblar	O'zgarish sababi
1. Ishchilar sonining o'zgarishi	99,01	-0,99	$2198763 * (-0,99) \backslash 100$ -21767,7	Ishchilar sonini kamayishi
2. Jami ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi	95,81	-3,2	$2198763 * (-3,2) \backslash 100$ -70360,4	Yo'qotilgan ish kunlari
3. Jami ishlangan kishi soatlarining o'zgarishi	95,82	+0,01	$2198763 * (+0,01) \backslash 100$ +219,9	Ish kuni davomiyligini uzayishi
4. Mahsulot hajmi (bir soatlik ish unumining o'zgarishi)	116,15	+20,33	$2198763 * (+20,33) \backslash 100$ +447008,5	1 soatlik ish unumini ortishi
Jami:	x	x	355100,3	x

Ilova:

1. Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm

Reja	Haqiqatda	Farqi
2198763	2553967	+355204

$$\begin{aligned} \text{Hisob-kitoblar : } & 99,01 - 100 = -0,99 \\ & 95,81 - 99,01 = -3,2 \\ & 95,82 - 95,81 = +0,01 \\ & 116,15 - 95,82 = + 20,33 \end{aligned}$$

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan davrda korxonada mahsulot hajmi biznes-rejada belgilanganiga nisbatan 355204 ming so'mga ko'paygan. Mahsulot hajmining ortishiga mehnat omillari ham o'z ta'sirini o'tkazgan, ya'ni ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga 21767,7 ming so'mlik, jami ishlangan kishi kunlarining o'zgarishi hisobiga esa 70360,4 ming so'mlik mahsulot yo'qotilgan, ammo, mahsulot hajmiga ijobiy ta'sir etgan mehnat omillari ham mavjud bo'lib, bulardan jami ishlangan kishi soatlarining o'zgarishi hisobiga 219,9 ming so'mlik, bir soatlik ish unumdorligini ortishi hisobiga esa 447008,5 ming so'mlik mahsulot hajmini ortishiga olib kelgan. Mehnat resurslaridan to'liq foydalanilgan taqdirda korxonada mahsulot hajmi qo'shimcha yana 92128,1 ming so'mga ortishi mumkin edi. Umuman olganda, bunday natijalarni korxonaga uchun ijobiy deb baholasak bo'ladi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- mehnat resurslari;
 - mehnat kuchlari;
 - mehnat resurslarining tarkibi va strukturasi;
 - mehnat resurslarini tahlil qilishning vazifalari;
 - mehnat ko'rsatkichlari, ularni tahlil etish uslubi;
 - xodimlar va ishchilar qo'nimsizligi;
 - ishga qabul qilish oboroti;
 - ishdan bo'shatish oboroti;
 - qo'nimsizlikni tahlil etish uslubi;
 - ish vaqtidan foydalanish tahlili;
 - mehnat unumdorlik ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi.
- a) qiymat o'lchovi;
- b) natura o'lchovi;
- d) mehnat o'lchovi.
- qiymat shaklida unumdorlik darajasini aniqlashning kamchiliklari;

- 1 xodimga va 1 ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot, ularni bir-biridan farqi;
- 1 xodimga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha mahsulotga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash uslubi;
- 1 ishchiga to‘g‘ri keladigan mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi;
- mahsulot mehnat sig‘imini tahlil etish uslublari;
- mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi mehnat omillari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Korxonaning mehnat resurslarini tahlil etishning ahamiyati nimalardan iborat?
2. Mehnat resurslarini tahlil etishda boshqaruv tahlilining vazifalari nimalardan iborat bo‘ladi?
3. Mehnat resurslarini va mehnat unumdorligi ko‘rsatkichlarini tahlil qilishda tahlilning asosiy axborot manbalari qaysilar hisoblanadi?
4. Korxonalarda mehnat resurslarining tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlari qanday tahlil etiladi?
5. Mehnat resurslari ishlab chiqarish faoliyatidagi qatnashuviga qarab qanday guruh va kategoriyalarga ajratiladi?
6. Korxonada band bo‘lgan xodimlarning tarkibi qanday tahlil qilinadi?
7. Korxonaning ishchi kuchi bilan ta’minlanganlik darajasi qanday tahlil qilinadi?
8. Xodimlar qo‘nimsizligi nima va u qanday aniqlanadi?
9. Ishdan bo‘shatish va ishga qabul qilish oboroti ko‘rsatkichlarining iqtisodiy mazmuni nimadan iborat hamda mazkur ko‘rsatkichlar qanday aniqlanadi?
10. Ish vaqtidan foydalanish darajasi qanday usullar orqali tahlil qilinadi?
11. Mehnat unumdorligining iqtisodiy mazmuni va uni aniqlash tartibi nimalardan iborat?
12. Mehnat unumdorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlarni ko‘rsatib o‘ting va ular qanday aniqlanadi?
13. Mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi omillar tarkibiga qaysi omillar kiradi?

14. Mehnat sig'iminining mahsulot hajmiga ta'siri qanday aniqlanadi?

15. Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat omillari tarkibiga nimalar kiradi va ular qanday aniqlanadi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Berilgan ma'lumotlar asosida korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini, xodimlar tarkibi va dinamikasini tahlil eting va xulosa yozing?

Mehnat to'g'risidagi hisobot

	Hisobot davrida xodimlarning ro'yxatdagi o'rtacha soni (o'rindoshlarsiz), kishi	O'rtacha ish haqi va boshqa o'rtacha miqdorlarni hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni, kishi				Shu jumladan: Ro'yxatdagi xodimlar (qarindoshlar bilan)				Yil oxiriga ro'yxatdagi xodimlar (qarindoshlarsiz) soni, jami kishi	Shu jumladan: Ma'muriy boshqaruv xodimlari, kishi
		Jami:	Shu jumladan: Ayollar	2-ustundan		Jami:	Shu jumladan: Ayollar	10-ustundan			
				Ishchilar	Xizmatchilar			Ishchilar	Xizmatchilar		
Korxonalar bo'yicha jami: (2satr+3satr)	121	117	47	97	20 (12, 5, 3)	29547,3	11768,8	24288,9	5258,4	121	20
Asosiy faoliyat	112	112	45	92	20	28939,6	11324,2	23681,2	5258,4	116	20
Asosiy bo'lmagan faoliyat	5	5	2	5	-	607,7	444,6	607,7	-	5	-

Qo'shimcha ma'lumotlar

Mehnat resurslarining tarkibi, kishi (o'tgan yilida):	
- ishchilar	95
- xizmatchilar	13
- rahbar xodimlar	9
- mutaxassislar	4
- jami sanoat ishlab chiqarish xodimlari	121

Biznes-reja ma'lumotlari

	mehnat resurslarining tarkibi, kishi:	
	- ishchilar	98
	- xizmatchilar	12
	- rahbar xodimlar	5
	- mutaxassislar	4
	- jami sanoat ishlab chiqarish xodimlari	119

2-topshiriq.

Jadval ma'lumotlaridan foydalangan holda kadrlar qo'nimsizligini tahlil qiling va xulosa yozing? (2-topshiriq. ma'lumotlaridan foydalaning).

Xodimlar soni va mehnat haqi fondi

Ko'rsatkichlar nomi	Satr xos raqami	Hisobot yilida		
		yil boshidan	chorakda	oy mobaynida
O'rtacha ish haqi va boshqa o'rtacha miqdorlarni hisoblash uchun qabul qilinadigan xodimlar soni, kishi	01	114	115	115
Shu jumladan, asosiy faoliyat bilan shug'ullunuvchilar	02	111	112	112
Ro'yxatda va ro'yxatdan tashqari bo'lgan ishchilar ish haqi fondi, pul va natura shakllarida ming so'm	03	17214,8	9859,5	4795,2
Shu jumladan: Ro'yxatdagi xodimlar tarkibi, o'rindoshlar bilan	04	17214,8	9859,5	4795,2
Mehnat haqi berish bo'yicha muddati o'tib ketgan qarz (soliq va boshqa ushlab qolishlarni chegirib, o'tgan davrdan qolgan qarzni qo'shgan holda), hisobot davri oxiriga – jami, ming so'm	05	-	-	-
Shu jumladan: hisob raqamida mablag' yo'qligi sababli	06	-	-	-
Amalda ishlagan kishi – soat soni, ming so'm	07	178,9	56,9	18,1
Hisobot taqdim etuvchi subyekt tarkibiga kiruvchi yuridik shaxslar soni	08	1	1	1

Xodimlar soni va ishchi kuchi harakati

Ko'rsatkichlar nomi	Satr xos raqami	— chorakda
Hisobot davri boshiga ro'yxatdagi xodimlar soni (o'rindoshlarsiz)	10	116
Qabul qilingan xodimlar – jami	11	3
Ketgan xodimlar – jami	12	1
Ulardan: Xodimlar soni qisqarishi munosabati bilan	13	

o'z ixtiyoriga ko'ra	14	1
Hisobot davri oxiriga ro'yxatdagi xodimlar (o'rindoshlarsiz), soni	15	118
boshqa korxonada va tashkilotlardan qabul qilingan o'rindoshlar soni	16	
Pudrat shartnomasi asosida ishlayotgan xodimlar soni	17	
Shu jumladan: Korxonada ishlovchilar ro'yxati tarkibida bo'lmaganlar	18	
Boshqa korxonalardan qabul qilingan o'rindoshlar ish haqi fondi, ming so'm	19	
Mazkur korxonada ro'yxati tarkibida turmaydigan, pudrat shartnomasi asosida ishlovchi xodimlar ish haqi fondi, ming so'm	20	
To'liqsiz ish kuni yoki to'liqsiz ish haftasida ishlovchilar soni – jami:	21	
Shu jumladan, ishlab chiqarish hajmi qisqarishi sababli ko'rsatilgan ish rejimiga o'tkazilganlar	22	
Ish haqi saqlanmagan (qisman saqlangan) majburiy ta'tilda bo'lgan xodimlar soni – jami:	23	
Shu jumladan, ish haqi saqlanmagan holda	24	
23-satrdan ko'rsatilgan xodimlar bo'yicha kishi – kunlari ta'tillar soni	25	
Hisobot davri oxiriga ish o'rinlari soni, o'rin	26	63
Yangi ochilgan ish o'rinlari soni, o'rin	27	-
Hisobot davri oxiriga mavjud bo'sh ish o'rinlari soni, o'rin	28	-
Bu o'rinlarga talab qilinadigan xodimlar soni	29	-
Birinchi smenada ishlayotganlar soni	30	63
01-satrdan chet el fuqarolari, soni	31	-
15-satrdan ma'muriy-boshqaruv xodimlari	32	20

3-topshiriq.

Berilgan ma'lumotlar asosida korxonada ishchilarini kasbi bo'yicha ta'minlanishini tahlil qiling va xulosa yozing?

Hisobot yili ma'lumotlari

Ishchilarni kasbi bo'yicha ta'minlanishi, kishi:	
- Operator	6
- xamir qoruvchi	14
- yuk tashuvchi	13
- mahsulot sifatini tekshiruvchi	6
- pech nazoratchisi	19
- chilangar	7
- nonvoy	32

Biznes-reja ma'lumotlari

1.	Ishchilarni kasbi bo'yicha ta'minlanishi, kishi:	
	- operator	7
	- xamir qoruvchi	13
	- yuk tashuvchi	12
	- mahsulot sifatini tekshiruvchi	6
	- pech nazoratchisi	21
	- chilangar	8
	- nonvoy	31

4-topshiriq.

Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishini tahlil qiling va xulosa yozing? (2-topshiriq. ma'lumot manbalaridan foydalaning).

Hisobot yili ma'lumotlari

	ishchilarni jami ishlagan kishi kunlari, ming kishi-kunida:	
	- hisobot yili	28,6
	- o'tgan yili	30,9
	ishchilarni jami ishlagan kishi soatlari, ming kishi-soatda:	
	- hisobot yili	217,9
	- o'tgan yili	240,4

Biznes-reja ma'lumotlari

1.	ishchilarni jami ishlagan kishi kunlari, ming kishi-kunida	181,4
2.	ishchilarni jami ishlagan kishi soatlari, ming kishi-soatda	1560

Test savollari:

1. Mehnat resurslaridan foydalanish tahliliga oid ko'rsatkichlarni aniqlang.

- korxonani mehnat resurslari bilan ta'minlanishini tahlili;
- mehnat resurslari harakatini tahlili;
- mehnat unumdorligini tahlili;
- barcha javoblar to'g'ri.

2. Mahsulot hajmiga qanday mehnat omillari ta'sir etadi?

- xodimlar soni, jami ishlangan kishi – kunlari, kishi – soatlari, mehnat unumdorligi;
- ishchilar soni, bir ishchini ishlagan kunlari, kishi – soatlari, mehnat unumdorligi;
- ishchilar soni, jami ishlangan kishi – kunlari, kishi soatlari, mehnat unumdorligi;
- ishchilar soni, ishchi kuchini qo'nimsizligi, mehnat unumdorligi, bir ishchini ishlagan kunlari.

3. Bir kishi kunining unumdorligini tahlil qilishda hisoblanadigan qiymat ko'rsatkichi qanday hisoblanadi?

- tovar mahsuloti / ishchilar soni;
- tovar mahsuloti / kishi soat;
- tovar mahsuloti / kishi kunlar;
- tovar mahsuloti / boshqaruv xodimlar soni;

4. Bir ishchini ishlagan kishi-soatlarini hisoblovchi ko'rsatkich:

- a) ishchilar soni / jami sanoat xodimlari;
- b) jami xodimlarning haqiqatda ishlagan kishi-soatlari / jami kalendar ish vaqti fondi;
- d) jami ishlangan kishi-soatlari / jami xodimlar;
- e) jami ishlangan kishi-soatlari / ishchilar soni.

5. Ish kuni davomiyligi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi-kunlari}}{\text{Jami ishlangan kishi-soatlari}}$;
- b) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi-soatlari}}{\text{Ishchilar soni}}$;
- d) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi-kunlari}}{\text{Ishchilar soni}}$;
- e) $\frac{\text{Jami ishlangan kishi-soatlari}}{\text{Jami ishlangan kishi-kunlari}}$.

6. Ishchilarning ish vaqtidan foydalanishiga ta'sir etuvchi omillar:

- a) ishchilar soni, bir ishchini ishlagan kunlari, ish kuni davomiyligi (soatda);
- b) ishchilar soni, bir ishchini ishlagan soatlari, ish kuni davomiyligi;
- d) bir ishchini ishlagan kunlari, ishlagan soatlari, ish kuni davomiyligi;
- e) bir ishchini ishlagan soatlari, ishchilarni qo'nimsizligi, ish kuni davomiyligi

7. Ishchilarning qo'nimsizlik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shaganlar + nafaqaga chiqqanlar soni}}{\text{Xodimlarning ro'yxat bo'yicha soni}}$;
- b) $\frac{\text{O'z xohishiga binoan ishdan ketganlar soni + nafaqaga chiqqanlar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}$;
- d) $\frac{\text{O'z arizasiga muvofiq + mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shaganlar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}$;
- e) $\frac{\text{Mehnat intizomini buzganligi uchun ishdan bo'shaganlar + nafaqaga chiqqanlar soni}}{\text{Ishchilarning ro'yxat bo'yicha soni}}$.

8. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish orqali:

- a) mehnat unumdorligi, mahsulot hajmi ortadi;
- b) xodimlar soni qisqaradi, ish haqidan nisbiy iqtisodga erishiladi;
- d) xodimlar soni qisqargan holda o'rtacha ish haqi ortadi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

9. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik mahsulot hajmi aniqlanadi:

- a) $\frac{\text{Mahsulot sotishdan kelgan tushum}}{\text{Xodimlarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}}$;
- b) $\frac{\text{Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi}}{\text{Ishchilarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}}$;
- d) $\frac{\text{Mahsulot sotishdan kelgan tushum}}{\text{Ishchilar soni}}$;
- e) $\frac{\text{Ishchilarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}$.

10. Ishchilarning ishlagan ish vaqti fondi (kishi-soatlari)ga qanday mehnat omillari ta'sir ko'rsatadi?

- a) ishchilar soni, mehnat unumdorligi, ish kuni davomiyligi;
- b) ishchilarning nisbiy soni, ish kuni davomiyligi, bir ishchining ishlagan kunlari;
- d) ishchilar soni, bir ishchining ishlagan kunlari, ish kuni davomiyligi;
- e) mehnat unumdorligi, ishchilarning nisbiy soni, ish kuni davomiyligi.

11. Bir ishchining o'rtacha yillik mahsulot hajmini rejadan farqiga quyidagi omillar ta'sirini hisoblang.

- Bir ishchini ishlagan kunlari (K)
- Ish kuni davomiyligi (D)
- Ishchini bir soatlik ish unumi (SV)
- a) $(K^1 - K^0) \cdot D^0 \cdot SV^0$
- b) $K^1 \cdot (D^1 - D^0) \cdot SV^0$
- d) $K^1 \cdot D^1 \cdot (SV^1 - SV^0)$
- e) Barcha javoblar to'g'ri.

12. Mahsulot hajmiga qanday mehnat omillari ta'sir etadi?

a) xodimlar soni, mehnat unumdorligi, ish vaqti fondi, ish kuni davomiyligi;

b) ishchilar soni, 1 ishchini ishlagan kunlari, ish kuni davomiyligi, ishchining bir soatlik ish unumi;

d) mehnat unumdorligi, ish vaqti fondi, ish kuni davomiyligi, 1 ishchining ishlagan kunlari;

e) xodimlar soni, jami ishlagan kishi-kunlari, kishi-soatlari, ishchining bir soatlik ish unumi.

13. Kadrlar qo'nimsizlik koeffitsiyentini aniqlang.

Jami xodimlar soni - 168 ta

Ishga qabul qilindi – 50 ta

Ishdan bo'shatildi – 20 ta

Shu jumladan:

- o'z xohishiga muvofiq - 10

- mehnat intizomini buzganligi uchun - 2

a) 0,3

b) 0,12

d) 0,07

e) 0,77

14. Quyidagi ma'lumotlar asosida 1 ishchining ishlagan kunlari, ish kuni davomiyligini o'zgarish hisobiga yo'qotilgan kishi soatlarini aniqlang?

Ko'rsatkichlar	Hisobot yili		Rejadan farqi, (;-)
	Reja	Haqiqatda	
1. Ishchilar soni	160	164	+4
2. 1. Ishchining ishlagan kunlari	225	215	-10
3. 1. Ishchining ishlagan kishi soatlari	1755	1612,5	-142,5
4. Ish kuni davomiyligi, soatda	7,8	7,5	-0,3
5. Ish vaqti fondi (kishi - soat)	280800	264450	-16350

a) – 16350; b) – 142,5; d) – 12792; e) – 23370.

VII BOB. MODDIY RESURLAR BILAN TA'MINLANGANLIK VA ULARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING TAHLILI

7.1. Xo'jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Korxonani to'liq hajmda xomashyo va assortimentdagi boshqa materiallar bilan ta'minlanishi va ulardan samarali foydalanish tufayli mahsulot hajmi, foyda va rentabelligi ortadi, mahsulot tannarxi pasayadi. Buning aksi bo'lgan hollarda esa ishlab chiqarish izdan chiqadi, maromdan chetlashiladi, ayrim hollarda ishlab chiqarish to'xtab qoladi. Xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa mehnat predmetlariga bo'lgan talab mustaqil ravishda korxonadan tomonidan rejalashtiriladi. O'zbekiston Respublikasining «Korxonalar to'g'risida»gi Qonunining 22-moddasi 1-bandida bu xususda shunday deyiladi: «**Korxonada bozor talablarini, ehtimol tutilgan sheriklarning imkoniyatlarini o'rganish, narx-navoning o'zgarishi to'g'risidagi axborot asosida o'z ishlab chiqarishining ta'minotini, bozorlarda (tovarlar, xizmatlar, moliya bozorlarida) monopoliyaga qarshi qonunlarning talablarini nazarda tutgan holda bevosita yoki vositachi orqali oldi-sotdini, mahsulot sotishni va o'z ishlab chiqarishining ta'minotini mustaqil amalga oshiradi.**»

Texnika taraqqiyoti (mashina va mexanizmlar konstruksiyasini takomillashtirish, ularning parametrlarini yaxshilagan holda massasini kamaytirish, elektronikaning so'nggi yutuqlari asosida buyumlarni **miniaturalashtirish va mikrominiaturalashtirish**, progressiv materiallarni, kamchiqitli va chiqitsiz texnologiyani qo'llash), tejamkorlik rejimiga rioya qilish har bir ishlovchida omilkorlik, jamoaviy mehnat natijalariga ongli munosabatda bo'lish tuyg'usini singdirish material sig'imini kamaytirishning asosiy omillaridir.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ro'y berayotgan jiddiy tarkibiy o'zgarishlar tashqi iqtisodiy ko'rsatkichlarda o'zining aniq ifodasini topmoq-

da. 2011-yilda tovarlar va xizmatlar eksporti hajmi 15,4 foizga ortdi. Eksport tarkibida tayyor mahsulot hajmi keyingi yillarda yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Bular qatoriga, avvalambor, mashina va asbob-uskunalar, neft-kimyo mahsulotlari, mineral o'g'itlar, paxta tolasidan tayyorlangan ip – kalava va gazlama, trikotaj va oziq-ovqat tovarlari, kabel - o'tkazgich mahsulotlari, qurilish materiallari kiradi. Eksport korxonasi faoliyatining eng muhim yo'nalishiga, butun iqtisodiyotimizning rivojlanish natijalarini baholash mezoniga aylandi. Eksport, mahsulot sifati, materiallardan foydalanishda iqtisodga erishish, yangi texnikani ishlab chiqarishga jalb etishga bog'liq. Respublikada ishlab chiqarishni texnik jihatdan muntazam modernizatsiya qilib borish uchun samarali rag'batlantirish tizimi yaratilgan. Unga muvofiq keltirilgan yangi texnikadan undiriladigan mulk solig'i bekor qilindi. Ko'p yillik kuzatishlar shuni ko'rsatadiki xususiy sektorda texnikadan unumli foydalanish evaziga moddiy resurslardan iqtisodiy samaraga erishilmoqda, chunki, ularda mulkka egalik qilish hissi yuqoridir. Moddiy resurslar bilan korxonani ta'minlanishi, zaxira holati, ulardan samarali foydalanish, ichki imkoniyatlarini aniqlashda iqtisodiy tahlilning roli kattadir.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har qanday korxonasi asosiy maqsadiga erishish uchun ishlab chiqarish xarajatlarini, jumladan, mehnat predmetlaridan tejab-tergab foydalanishga alohida e'tibor beradi. Shuning natijasida ular o'z foydalarini ko'paytirishga, oqibat natijada foydalilik darajasini oshirishga erishadilar. Mahsulot ishlab chiqarishda mehnat predmetlarining ahamiyati katta. Ularsiz ayrim hollarda mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati cheklanadi ayrim hollarda esa umuman mumkin emas.

Masalan, mehnat predmeti hisoblangan metallar elektr quvvati va boshqalar mavjud bo'lmasa mahsulot ishlab chiqarish ham cheklanadi. Shunday ekan mehnat predmetlariga sanoat ishlab chiqarishida nimalar kirishligini aniqlab olish lozim. ***Adabiyotlarda, korxonasi hujjatlarida ko'rsatilishicha mehnat predmetlariga quyidagilar kiritilgan:***

- xomashyo va materiallar;
- elektro-energiya;
- yoqilg'i;
- yog'lovchi materiallar;
- kam baholi va tez to'zuvchi buyumlar va boshqalar.

Mehnat predmetlaridan samarali foydalanish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari yoki tannarxlari

pasayadi. Buning natijasida korxonalarining sof foydalari ortadi. Shuning bilan birgalikda mehnat predmetlaridan o‘rindoshlik bilan foydalanish oqibatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning sifatlari yaxshilanadi, xizmat qilish muddatlari esa ko‘payadi.

Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, tannarxning pasayishi, foyda va rentabelligining oshishi, korxonani moddiy resurslar bilan belgilangan assortimenti va sifati bo‘yicha ta‘minlanishiga bog‘liq. Shuning uchun sanoat korxonalari o‘z ishlab chiqarishini bir meyorda samarali rivojlanishini ta‘minlash maqsadida uzoq muddatga mo‘ljallangan biznes-rejalariga asoslangan holda mehnat predmetlari bilan ta‘minlashga alohida e‘tibor beradilar, chunki hozirgi paytda mehnat predmetlarini yo‘qligi yoki o‘z vaqtida olib kelinmaganligi sababli sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyati turib qolmoqda.

Korxonalarining moddiy resurslar bilan o‘z vaqtida, zaruriy miqdorlarda, belgilangan sifatda hamda bir maromda ta‘minlanishi shu bilan birgalikda ulardan ratsional foydalanish pirovardida uning iqtisodiy rivojlanishi va taraqqiy etishi uchun har tomonlama ta‘sir etadi.

Korxonalarining rivojlanishi, taraqqiy etishi hamda iqtisodiy jihatdan baquvvat bo‘lishi oqibat natijada mustaqil respublikamizning iqtisodiyotini barqarorlashishiga zamin yaratadi. Xalqimiz turmush darajasining yanada yuksalishiga har tomonlama o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishi, o‘z navbatida, moddiy resurslardan foydalanish ko‘lamining ham kengayishiga olib keladi. Shuning uchun moddiy resurslardan tejabtergab foydalanish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mehnat predmetlaridan to‘liq va samarali foydalanishni ta‘minlash uchun hozirgi davrda zamonaviy yangi texnikalardan to‘g‘ri foydalanish, shuningdek, samarali texnologiyalarni ishlab chiqarishga tezkorlik bilan tatbiq etishni taqozo etadi, chunki ular yordamida mehnat predmetlari ishlab chiqarishga sarf qilinishi, tejalishi ta‘minlanadi. Ishlab chiqarish turli mulk shakllarini, xususan, asosiy e‘tiborni nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarni barpo etish va rivojlantirishga qaratish maqsadga muvofiqdir, sababi ularda mulkka egalik qilish hissiyoti doimo yuqori darajada bo‘ladi. Darhaqiqat, nodavlat mulkchiligiga asoslangan korxonalarda mehnat predmetlari ularning mulki hisoblanadi. Undan imkoniyat doirasida samarali foydalanishga katta e‘tibor beriladi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yishda iqtisodiy tahlilning ahamiyati katta. Korxonada moddiy resurslardan qay

darajada foydalanilayotganligini tahlil etish natijasida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga sarflanayotgan xarajatlarni tejash maqsadida foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarni topish mumkin.

Erkin iqtisodiy munosabatlar sharoitida korxonalarining moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini va ulardan samarali foydalanishni tahlil etishda boshqaruv tahlilining eng asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- korxonaga, birlashmalarning zarur bo'lgan moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlash;
- moddiy resurslarni korxonaga yetkazib berish hajmini, kompleksligini, sifatligini, navini hamda maromiylik darajasini belgilash;
- moddiy resurslarni yetkazib berish borasida korxonalararo tuziladigan shartnomalarning o'z vaqtida tuzilganligini aniqlash;
- moddiy texnika ta'minoti belgilangan rejasining haqiqatga yaqinligini tekshirish;
- transport-tayyorlov xarajatlarini hisoblash;
- materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarini aniqlash va ularni mahsulot hajmiga hamda uning tannarxiga ta'sirini miqdor jihatdan hisoblash;
- xomashyo, yoqilg'i va materiallarga baho berishda foydalanilmay qolgan ichki imkoniyatlarini aniqlash, tahlil etish va boshqalar.

Tahlil uchun zarur ma'lumotlar, moddiy texnika ta'minoti rejasi, xomashyo va materiallar bo'yicha tuzilgan shartnoma hamda moddiy resurslar mavjudligi va ulardan foydalanishning statistik hisobotidan olinadi. Korxonalarda mehnat predmetlaridan foydalanishni tahlil etishda ularni sarflanishi bo'yicha o'rnatilgan me'yoriy ma'lumotlardan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mehnat predmetlaridan samarali foydalanishga Respublikamiz hukumati tomonidan ham doimo alohida e'tibor qaratilmoqda. Ular qabul qilingan normativ hujjatlarda o'z aksini topgan. Masalan, «O'zbekiston Respublikasida korxonalar to'g'risida»gi, «Tadbirkorlik to'g'risida»gi, «Mulknii davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida»gi va boshqa qonunlarda, farmonlarda, qarorlarda o'z aksini topgan.

7.2. Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi

Korxonalarda moddiy resurslardan to'liq, bir me'yorda hamda samarali foydalanganlik darajasini tahlil etish uchun shu holatlarni ifodalaydigan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish zarur:

a) Shu jumladan, asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik hamda aylanma fondlar va mablag'lar bilan ta'minlanganlik darajasi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlarni moddiy resurslarni alohida-alohida turlari bo'yicha ham hisoblash mumkin. Masalan, stanoklar, xomashyo, elektr energiya, yoqilg'i va boshqa moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini aniqlash mumkin.

b) Moddiy resurslardan foydalanishning to'liqliligini, asosan, korxonaning ishlab chiqarish quvvatidan foydalanish darajasi isbotlaydi.

d) Sanoat korxonalarida mehnatni moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasini jami moddiy resurslar qiymatini korxonada mavjud bo'lgan ishchi va xizmatchilar soniga taqsimlash natijasida aniqlash mumkin. Bu ko'rsatkichni yanada aniqlashtirish maqsadida moddiy resurslar qiymatini faqatgina ishchilar soniga taqsimlash natijasida ham aniqlash mumkin, alohida asosiy fondlar bilan qurollanganlik hamda aylanma fondlar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari bo'yicha ham aniqlash mumkin.


e) Moddiy resurslardan foydalanishni iqtisodiy samaradorligini korxonalaridagi fondlar qaytimi hamda fondlar sig'imi isbotlaydi. Fondlar qaytimini aniqlash uchun korxonada yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hamda tovar mahsuloti qiymatini asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymatiga taqsimlash lozim. Fondlar qaytimining iqtisodiy mohiyati korxonaning har ming so'mlik asosiy fondlariga to'g'ri keladigan yalpi mahsulot yoki tovar mahsulotini ko'rsatkichi hisoblanadi.

Asosiy fondlardan samarali foydalanishni ko'rsatuvchi keyingi ko'rsatkich fond sig'imi hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni hisoblash uchun korxonadagi mavjud bo'lgan asosiy vositalarning yillik o'rtacha qiymati yil davomida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot hamda tovar mahsuloti qiymatlariga taqsimlanadi. Fondlar sig'imining iqtisodiy mohiyati korxonada yil mobaynida ishlab chiqarilgan yalpi mahsulot yoki tovar mahsulotining har ming so'miga to'g'ri keladigan asosiy fondlarning qiymati hisoblanadi.

Materiallardan foydalanishning samaradorlik ko'rsatkichlarini material qaytimi va material sig'imi ko'rsatkichlari ifodalaydi. Material qaytimi ko'rsatkichini aniqlash uchun korxonada yil davomida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymati material xarajatlar qiymatiga taqsimlanadi. Material sig'imi ko'rsatkichi buning aksi bo'lib, material xarajatlar qiymatini korxonaning yil davomida ishlab chiqarilgan tovar mahsuloti qiymatiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Buni tavsiflaydigan bo'lsak, ushbu, ko'rsatkich korxonada yil mobaynida ishlab chiqarilgan tovar

mahsulotining har bir soʻmiga qancha material xarajatlari sarflanganligini koʻrsatadi.

Materiallar xarajati koeffitsiyenti - haqiqiy sarflangan materiallar xarajatini biznes-rejadagisi haqiqiy ishlab chiqarish hajmiga korrektyrovka qilingan koʻrsatkichga nisbatini ifodalaydi. Bu koʻrsatkich ishlab chiqarish jarayonida materiallar sarfidan iqtisod (yoki ortiqcha sarf)ga erishganligini ifodalaydi. Bu koeffitsiyent 1 dan katta boʻlsa moddiy resurslardan samarali foydalanilganligini bilish mumkin.



24-chizma. Material sigʻimining omilli tahlili tuzilishi.

Material sigʻimini alohida koʻrsatkichlari moddiy resurslarning ayrim turlaridan samarali foydalanishni xarakterlaydi. Ular qatoriga yoqilgʻi sigʻimi, material sigʻimi, xomashyo sigʻimi kabi koʻrsatkichlarni kiritish mumkin, odatda, material sigʻimini oʻzgarishiga bir

qator omillar ta'sir etadi. Material sig'iminining omilli tahlilining tuzilishini quyidagi chizma ko'rinishida berishimiz mumkin bo'ladi.

7.3. Korxonaning moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi tahlili

Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish davrida sanoat korxonalariga qonun doirasida harakat qilish mustaqilligi berilgan. Respublikamizda mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy-lashtirish natijasida turlicha mulkchilikka asoslangan korxonalar shakllari tashkil etilgan. Ular iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirilishi natijasida yanada takomillashtirilmoqda. Natijada, ijara korxonalar, hissadorlik jamiyatlari, kompaniyalari, qo'shma korxonalar, xususiy korxonalar va boshqalar tashkil etilmoqda. Ular talab va taklifdan kelib chiqqan holda ko'proq foyda olish maqsadida o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatlarini qonun doirasida erkin mustaqil amalga oshirmoqdalar. Bu holat korxonalarining moddiy texnika ta'minoti masalalarini hal etishga ham bevosita bog'liq.

Korxonalar ishlab chiqarishining rivojlanishini rejalashtiradilar. Ular qisqa hamda uzoq muddatga mo'ljallangan bo'ladi. Bu masalalar korxonalarining biznes-rejalarida va boshqa hujjatlarda aks ettirilgan bo'ladi.

Korxonalar o'z maqsadining muvaffaqiyatli amalga oshirish maqsadida o'zlarini ishlab chiqarishlar moddiy texnika resurslari bilan ta'minlash jarayonini bajarilishiga alohida e'tibor beradilar. Buning uchun aniqlangan, ya'ni korxonalar uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarini yangi turlari mavjudligi hamda ular jahon bozorida taklif qilinganligi o'rganiladi. Korxonalar o'zi uchun zarur bo'lgan moddiy texnika resurslarining yaxshilarini, ya'ni samaralisini olishga harakat qiladi.

Moddiy resurslardan samarali foydalanish va mahsulot sotish hajmini oshirish uchun korxonalar xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa resurslar bilan yetarli miqdorda ta'min etilishi kerak. Materiallarni belgilangan miqdorda, assortimentda kelib tushmasligi, muddatlarini uzayishi ishlab chiqarishni to'liq quvvat bilan ishlashini ta'min etmaydi. Shu bilan birga ortiqcha xomashyo zaxiralariga ega bo'lish, mablag'lar aylanishini sekinlashtiradi, naqd pul mablag'larini yetishmasligiga olib keladi. Demak, moliyaviy va boshqaruv tahlilining asosiy vazifalaridan

biri, ishlab chiqarishni normal tashkil etish uchun korxonani optimal miqdordagi moddiy-texnika resurslariga bo'lgan talabini aniqlashdan iboratdir. Moddiy texnika resurslariga bo'lgan ehtiyoj ikki manba hisobiga qondiriladi.

1. Tashqi ta'minot.

2. Ichki ta'minot.

Tashqi ta'minot deganda, xomashyo birjalari, ko'rgazmalari orqali tuzilgan shartnomalar asosida xomashyo, yoqilg'i va boshqa resurslarni kelib tushishi tushuniladi.

Ichki ta'minot, ta'minot rejasining bajarilishi ichki resurslardan unumli foydalanish, chiqindilarni kamaytirish, iqtisod rejimiga rioya qilish evaziga amalga oshiriladi.

Respublika iqtisodiyotini shakllanishida lizing kreditlarini roli kattadir. Lizing kreditlaridan foydalanish uchun dastlab lizing kompaniyalari yoki lizingni amalga oshiruvchi subyektlar bilan lizing kreditlari bo'yicha shartnomalar tuziladi. Bunda uch tomon qatnashishi mumkin.

Lizing kreditini amalga oshiruvchi moliyaviy mablag'ga ega bo'lganligi uchun moddiy – texnika resurslarini ijaraga beruvchilardan olib ularni foydalanuvchilarga yetkazib berish bilan shug'ullanishi mumkin. Ayrim hollarda esa moddiy texnika resurslarini to'g'ridan – to'g'ri ijaraga beruvchilar ularni ijaraga oluvchilarga yetkazib berishlari mumkin. Bu masalalar shartnomalarda batafsil o'z aksini topishi zarur.

Tahlil davomida korxonani moddiy resurslar bilan **ta'minlanish koefitsiyenti** aniqlanadi:

$$K_T = \frac{M_X}{M_R};$$

Bunda, M_X, M_R - materiallarni haqiqiy tushumi va materiallarga bo'lgan talab (shartnoma).

Moddiy resurlarning me'yor zaxirasi joriy va muhofaza (har ehtimolga qarshi) zaxiralaridan iborat.

$$Z_{me'yor} = Z_{joriy} + Z_{muhofaza}$$

Joriy zaxira yetkazib berish intervali (Int) kunda va materiallarni bir kunlik sarflari (S_{kun}) ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$Z_{joriy} = Int * S_{kun}$$

Muhofaza zaxiralari ishlab chiqarishni uzluksiz davom etishini kafolatlovchi, moddiy resurlar ta'minotidagi uzilishlar ro'y bergan hollar uchun zarurdir.

Moddiy - texnika ta'minotini kompleks tahlil etishda talabni shartnoma bo'yicha qoplanishi va bajarilishi aniqlanadi.

61-jadval

Moddiy resurslar ta'minoti rejasi bajarilishi tahlili

Material- lar turi	Material- larga bo'lgan talab, tn	Talabni qoplash manbayi		Shartnoma tuzildi, tonna	Talabni shartnoma bo'yicha qoplanishi, %	Material- larni kelib tushishi, tonna	Shartno- ma bajari- lishi, %
		ichki	tashqi				
A	25000	500	24500	23300	95,1	21902	94,0
B	47000	50	4650	4420	95,0	4190	94,8

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, «A» xomashyo turiga tuzilgan tashqi shartnoma 95,1 ($23300:24500 \times 100$) foizga, «B» turi bo'yicha 95,0 foizga bajarilgan xolos. Korxonani ichki va tashqi manbalar bo'yicha xomashyoga bo'lgan talabi «A» xomashyosi bo'yicha 95,2 ($\frac{500+23300}{2500}$) foizga, «B» xomashyosi bo'yicha esa 95,1 ($\frac{50+4420}{4700}$) foizga ta'minlangan. Materiallarni yetkazib berish rejasi 10,4 foizga bajarilmagan.

$$\left(\frac{(21902+500)*100}{25000} \right) = 89,6 \text{ foiz}; 100-89,6=10,4$$

Zaxira holatini tahlil etish uchun belgilangan me'yor bilan zaxirani kundalik sarfi taqqoslanib xomashyo, yoqilg'i va boshqa resurs-larni ortiqchaligi yoki yetishmasligi aniqlanadi.

62-jadval

Moddiy resurslar zaxira holati tahlili

Materiallar	Bir kunlik materiallar sarfi, tonna	Haqiqatdagi mavjud zaxira		Zaxira me'yor		Maksimal me'yordan farqi	
		tonna	kun	maksimal	minimal	kun	tonna
A	400	3200	8	12	10	-4	-1600

$3200:400=8$ kun; $12-8=4$ kunga zaxira yetishmaydi; $-4 \times 400 = -1600$ tonna.

Moliyaviy va boshqaruv tahlilida optimal hajmdagi buyurtma va zaxiralarni aniqlash muhim o'rin tutadi. Zaxiralarni boshqarish eng zarur va mas'uliyatli hisoblanadi. Korxonaning barcha yakuniy natijalari zaxiralarni optimallashtirishga bog'liq. Zaxiralarni samarali boshqarish sarmoyalarni aylanishini tezlashtiradi va uning daromadlilikini oshiradi, zaxiralarni saqlash xarajatlarini kamaytiradi, xo'jalik oborotidan sarmo-

yalarni bo'shshini ta'minlaydi. Joriy zaxiralarni optimallashtirishda xorijiy mamlakatlarda bir qancha modellardan foydalaniladi. Ulardan keng tarqalgani iqtisodiy jihatdan asoslangan buyurtma modeli (EOQ – tovarlarni yetkazib berishning o'rtacha miqdori modeli)dir. Bu modelning asosiy maqsadi zaxiralarni xarid etish va uni saqlash bilan bog'liq xarajatlarni mumkin qadar qisqartirishdan iborat. Xarajatlar ikki guruhga bo'lib o'rganiladi:

- 1) tovarlarni tashish xarajatlari;
- 2) tovarlarni omborlarda saqlash xarajatlari;

Tovarlarni omborlarda saqlash xarajatlari (Z_{sak}) quyidagicha aniqlanadi:

$$Z_{sak} = \frac{RPP}{2} * S_{sak},$$

RPP – kelib tushgan bir partiyadagi tovarni o'rtacha miqdori;

S_{sak} - tovar birligini saqlash xarajati. Bu formula orqali xulosa qilish mumkinki, tovar birligini saqlash xarajati o'zgarmagan holda jami tovar mahsulotini omborda saqlash xarajatlari bir partiyadagi tovarni o'rtacha miqdorini kamaytirish hisobiga pasaytirishga erishish mumkin. Matematik formula tarzida *EOQ* quyidagicha ifodalanadi:

$$EOQ = \sqrt{\frac{2 * VPP * B_{jq}}{S_{sak}}},$$

bunda, *EOQ* – tovarlarni yetkazib berishning o'rtacha miqdori;

VPP – xomashyo va materiallarga bir yillik talab;

B_{jq} – bir birlik buyurtmani joylashtirish qiymati.

Ishlab chiqarish zaxirasini (PZ_{onm}) o'rtacha optimal miqdori quyidagi formula orqali ifodalanadi:

$$PZ_{onm} = \frac{EOQ}{2}$$

Rivojlangan mamlakatlarda zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimida ABC – analiz, XVZ – analiz va logistika keng tarqalgan.

ABC – analiz boshqaruv muammolari yechimini aniqlashga qaratilgan.

Bu nazorat turi ishlab chiqarish jarayoni, mahsulot yetkazib beruvchilar, mahsulot guruhlari va ularni sotish bozori, iste'molchilarning kategoriyalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi. Zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimida barcha zaxiralar uch guruhga bo'lib o'rganiladi.

A – kategoriyasiga tegishli zaxiralar bahosi qimmat bo‘lgan buyurtmalar bo‘lib ularni nazorat qilish doimiy tusga ega.

V – kategoriya tarkibiga operatsion jarayonning uzluksizligini ta‘minlashda muhim bo‘lmagan tovar – moddiy qiymatliklar kiradi. Bu guruhdagi zaxiralar har oyda bir marotaba nazorat qilinadi.

S – kategoriya tarkibiga arzon qiymatlikka ega bo‘lgan tovar moddiy qiymatliklar kiradi. Moliyaviy natijalarni shakllanishida bu guruhdagi zaxiralar muhim rol o‘ynamaydi. Har kvartalda bir marotaba zaxira xarajati nazorat qilinadi.

XVZ – analizda materiallar ishlatilishi bo‘yicha strukturaga bo‘linadi.

X – guruhiga doimiy ishlatiladigan materiallar, V – guruhiga mavsumiy, Z – guruhiga doimiy xarakterga ega bo‘lmagan materiallar kiradi.

Zaxiralarni boshqarishda logistika asosiy rolni o‘ynaydi. U tovarlar harakatini «mol yetkazib beruvchi – korxonalar – iste‘molchi» sikllarini muvofiqlashtiradi, iste‘molchiga materiallar, mahsulotlarni o‘z muddatida, sifatli yetkazib berilishini kafolatlaydi. Buning natijasida omborda tovarlarni saqlash muddatlari qisqarishi tufayli zaxiralar aylanishi tezlashadi, korxonalar faoliyati samaradorligi ortadi.

7.4. Korxonaning moddiy resurslar bilan ta‘minlanganligi tahlili

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarini natijasi hamda samaradorligi ularning material resurslari bilan ta‘minlanganligiga bevosita bog‘liqdir. Korxonalarda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni hajmi, sifati ulardagi material resurslarining talab darajasida bo‘lishligini obyektiv ravishda taqozo etadi. Resurslar universalligi, yangiligi hamda arzonligi nuqtayi nazaridan zamon talabiga ham mos kelishi lozim, ya‘ni korxonalarining material resurslariga bo‘lgan talabini aniqlashda me‘yoriy hujjat va me‘yoriy ma‘lumotlardan foydalanish lozim. Sanoat korxonalarida biznes-rejada ko‘rsatilgan mahsulotlar miqdorini ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan material resurslarining miqdori va qiymati aniqlanadi, ya‘ni qancha stanoklar qancha mashinalar, mexanizmlar, shuningdek, boshqa moddiy resurslar bo‘yicha alohida-alohida hisob-kitoblar qilinadi.

Korxonalarining o‘zlarida mavjud bo‘lgan material resurslarining yil

boshiga bo'lgan miqdori yillik inventarizatsiya natijasida aniqlanadi. Ularda mavjud bo'lgan material resurslar korxonada ishlab chiqarishini davomiyligini ta'minlash uchun yetarli bo'lmagan holda korxonalarni zarur bo'lgan material resurslari bilan ta'minlash uchun shartnomalar tuziladi. Bu masalalar yuqoridagi savolda batafsil yoritilgan.

Sotib olinayotgan material resurslarini oqimi natijasida korxonalariga material resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi ortib boradi. Sanoat korxonalarining material resurslari bilan ta'minlanganligi hamda mehnatni ular bilan qurollanganligini ikkinchi savolda keltirilgan ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi. Masalan, korxonada ixtiyorida yil boshiga 100 mln so'mlik material resurslarining mavjudligi balansda ko'rsatilgan. Korxonada uchun esa ishlab chiqarishni bir me'yorda rivojlantirish uchun rejaga muvofiq 170 mln so'mlik material resurslari zarurligi aniqlangan, demak, korxonada uchun ularga bo'lgan talab to'liq qondirilayotgani yo'q. Bu masalani hal etish uchun korxonada qo'shimcha 70 mln so'mga material resurslarini sotib olishni yoki qarzga, ijaraga olishni rejalashtiradi. U shu masala bo'yicha tuzilgan shartnomalarda o'z aksini topadi. Korxonada moddiy texnika ta'minotini hal etilishi natijasida yil davomida 50 mln so'mlik material resurslari sotib olingan. Shunda korxonaning material resurslar bilan ta'minlanganlik darajasi 88,2 % ni tashkil etgan bo'ladi $(100+50)/170$. Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada material resurslari bilan to'liq ta'minlanmagan, ya'ni ularning miqdori 11,8 % ga kam bo'lgan. Bu hol korxonada ishlab chiqarish faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Korxonaning material resurslari bilan ta'minlanganligini tahlil etish natijasida ular bilan to'liq ta'minlanmaganlik faktlari aniqlansa, u holda uni kelib chiqish sabablari o'rganiladi. Shuning bilan birgalikda ushbu salbiy natijalarni bartaraf etish imkoniyatlari va chora tadbirlari belgilanadi.

Korxonada ishlab chiqarilgan mahsulotlarning o'rtacha xarajatlari ya'ni tannaxlari – ko'p jihatdan xomashyo va materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga bog'liq.

Material resurslar miqdorini rejalashtirilgan hajmda tayyorlash mahsulot ishlab chiqarish rejasini bajarish uchun imkoniyat yaratadi. Material resurslardan tejab-tergab foydalanilmasa hamda ularning amaliyotdagi foydalanilishi belgilangan me'yorlarga nisbatan ortiqcha bo'lsa, u holda keltirilgan materiallar mahsulot ishlab chiqarish davomiyligi rejasini bajarish uchun yetarli bo'lmaydi.

Material resurslardan foydalanishni tahlil etishdan maqsad ishlab chiqarish jarayonida ulardan foydalanishda ortiqcha sarf-xarajatlarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsa, bu holda mahsulot hajmi qanchaga kam yaratilganligi yoki moddiy resurslardan samarali foydalanish natijasida qancha qo‘shimcha mahsulot barpo etilganligi aniqlanadi. ***Ularni quyidagi usullardan foydalangan holda hisoblash mumkin:***

- korxonada ishlab chiqariladigan mahsulot birligi uchun belgilangan xarajat me‘yori material resurslarga ketgan haqiqiy xarajatlar bilan taqqoslanadi;

- erishilgan iqtisod yoki ortiqcha xarajat ishlab chiqarilgan mahsulotning umumiy miqdoriga ko‘paytiriladi;

- moddiy resurslardan foydalanish natijasida yuzaga kelgan ortiqcha xarajat reja bo‘yicha ko‘zlangan xarajat me‘yoriga taqsimlanadi.

Shu tartibda materiallardan samarali foydalanish natijasida erishilgan iqtisod asosida qo‘shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot yoki ularni tejab-tergab foydalanmaslik oqibatida ortiqcha xarajatlarni yuzaga kelishi zaminida ishlab chiqarilmagan mahsulot hajmi aniqlanadi. Materiallardan foydalanishni yanada chuqurroq tadqiq etish maqsadida quyidagi jadvaldan foydalanamiz:

63- jadval

Materiallardan foydalanishning tahlili

Ko‘rsatkichlar	«A»	«B»
1	2	3
1. Reja bo‘yicha mahsulot birligiga sarflangan material (100 dona)	18170	13200
-Haqiqatda	18050	13270
-Farqi (+, -)	-120	+70
2. Haqiqatda ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (100 dona)	78500	50700
3. Iqtisod (-), ortiqcha (+) jami mahsulotga (ming birlik)	-9420	+3549
4. Qo‘shimcha yoki kam mahsulot ishlab chiqarish	+52	-27

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib tiribdiki tahlil etilayotgan «AVS» aksionerlik jamiyatida «A» mahsulotni tayyorlashda unga sarflangan rangli metall materiallari iqtisod qilinishi natijasida qo‘shimcha ravishda 52 dona «A» turdagi mahsulot ishlab chiqarishga muvaffaq bo‘lingan. «B» mahsulotni tayyorlashda esa rejadagidan ko‘proq materiallarning sarflanishi natijasida asoslanmagan ortiqcha xarajatlar amalga oshirilgan. Buning natijasida esa 27 ta «B» nomdagi mahsulot kam ishlab chiqarilgan.

Shu bilan birgalikda materiallardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari tahlil etilganda alohida materiallardan foydalanishni tadqiq etish

bilan birgalikda korxonada bo'yicha materiallardan foydalanishni o'rganish maqsadga muvofiqdir. Uni quyida keltirilgan jadval yordamida amalga oshirish mumkin (64-jadval).

Tahlil etilayotgan jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, moddiy xarajatlarni iqtisod qilish natijasida qo'shimcha ravishda 6914 ming so'mlik mahsulot ishlab chiqarishga erishildi. Bundan ko'rinadiki, korxonada tovar mahsulotiga sarflanadigan materiallardan samarali foydalanish borasida ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Korxonada material qaytimi biznes-rejada belgilangan 1,73 so'mdan haqiqatda 1,89 so'mga o'sgan. Bunday natija korxonada materiallardan samarali foydalanganligidan dalolat beradi.

64-jadval

Materiallardan foydalanish tahlili

Ko'rsatkichlar	Biznes-rejada	Xaqiqatda	Farqi, (+,-)
1	2	3	4
1. Moddiy xarajatlar (ming so'm)	42843	42043	-800
2. Tovar mahsuloti (ming so'm)	74260	79797	+5537
3. Tovar mahsuloti, material hajmi (so'm) (1/2)	0,5769	0,5268	-0,050
4. Material sarfi o'zgarishining ta'siri (+, -)			
- tovar mahsuloti tannarxidagi moddiy xarajatlarning qimmatlashishi (+), pasayishi (-)			
- $0.050 * 79797 = - 3989$			-3989
- tovar mahsulotining hajmi, ming so'm	x	x	
- $3989 : 0.5769 = 6914$	x	x	+6914
5. Material qaytimi, so'm (2 / 1)	1,73	1,89	+0,16

7.5. Material resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'siri tahlili

Material qaytimi hamda material sig'imi, avvalo, ishlab chiqarish hajmi va material xarajatlariga bog'liq. Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, uning strukturasi va mahsulot sotish bahosining o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining qiymat shakliga ta'sir etadi. Material xarajatlariga ham aynan shu omillar, ya'ni ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, uning strukturasi, mahsulot birligi uchun materiallar sarfi, materiallar bahosi ta'sir etadi. Materiallar sig'imiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$M_{yo} = \frac{M_x}{Q} = \frac{\sum (VQ_M * M_S * M_{MS} * M_b)}{\sum (VQ_M * M_S * M_b)}$$

bunda M_{yo} - mahsulot material sig'imi;

M_x - materiallar xarajati;

Q – ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati;

VQ_M - jami ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori;

M_S - mahsulot strukturasi;

M_{MS} - mahsulot material sarfi;

M_b - material bahosi;

Materiallardan samarali foydalanishni ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri – material xarajatlarning har so'miga to'g'ri keladigan foyda hisoblanadi. Bu ko'rsatkichdan yuqori darajaga erishish korxonada faoliyatining ijobiy tomonini ifodalaydi. Materiallardan foydalanishni kompleks tahlilida material xarajatlarini har so'miga to'g'ri keladigan foyda ko'rsatkichining dinamikasi o'rganiladi, raqobatdagi korxonada ma'lumotlari bilan taqqoslanib ishga solinmagan ichki imkoniyatlari aniqlanadi. Material xarajatlarini har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdorini bazis davridan farqlanishiga omillar ta'siri quyidagicha ifodalanadi:

$$\frac{F}{M_x} = \frac{F}{S_T} * \frac{S_T}{VQ_M} * \frac{VQ_M}{M_x} = R_S * U_S * M_K$$

bunda F - sotishdan ko'rilgan foyda;

M_x - materiallar xarajati;

S_T - sotishdan kelgan sof tushum;

VQ_M - ishlab chiqarish hajmi;

R_S - sotishdan ko'rilgan rentabellik, %;

U_S - ishlab chiqarish hajmida sotishdan kelgan tushum hissasi, %

M_Q - material qaytimi

65-jadval

Materiallardan foydalanish tahlili

T №	Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Hisobot yili		Biznes-rejadan farqi (+,-)
			biznes-reja	haqiqatda	
1	Sotishdan ko'rilgan foyda	F	75200	87640	+12440
2	Sotishdan kelgan tushum	S_T	200500	280300	+79800
3	Mahsulot ishlab chiqarish hajmi	VQ_M	220388	254550	+34162

4	Material xarajatlari	M_x	143252	166730	+23478
5	Sotishdan ko‘rilgan rentabellik darajasi, % (1q:2q)x100	R_C	37,50	31,26	-6,24
6	Jami ishlab chiqarishda sotishdan kelgan tushum hissasi, % (2q:3q)x100	S_C	0,909	1,101	+0,192
7	Material qaytimi, so‘m (3q:4q)	M_K	1,54	1,52	-0,02
8	1 so‘m material xarajatiga to‘g‘ri keladigan foyda, tiyin (5q:6qx7q)		52,49	52,31	-0,18

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki korxonada hisobot yilida material xarajatlarini har so‘miga to‘g‘ri keladigan foyda 52,31 tiyinni tashkil etib biznes-reja ko‘rsatkichiga nisbatan quyidagi omillar o‘zgarishining ta’sirida 0,18 tiyinga pasaygan.

a) sotishdan ko‘rilgan rentabellik

$$(P_s^1 - P_s^0) * U_C^0 * M_K^0$$

$$(-6,24) * 0,909 * 1,54 = -8,73$$

b) jami ishlab chiqarishda sotuvdan kelgan tushum hissasi

$$R_s^1 * (U_s^1 - U_s^0) * M_K^0$$

$$31,26 * (0,192) * 1,54 = +9,24$$

v) material qaytimi

$$R_s^1 * U_s^1 * (M_Q^1 - M_Q^0)$$

$$31,26 * 0,101 * (-0,02) = -0,69$$

$$\text{tekshirish: } -0,18 = -8,73 + 9,24 - 0,69$$

$$-0,18 = -0,18$$

Umumiy material sig‘imini pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash maqsadida sarf etilayotgan materiallarning turlari bo‘yicha ham sig‘imini aniqlash lozim.

66-jadval

Material turlari sig‘imi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi (+,-)
1	2	3	4
Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so‘m	220388	254550	+34162
Materiallar xarajati, ming so‘m	143252	166730	+23478
Shu jumladan: xomashyo va materiallar	45179	52946	+7767
Yarimfabrikatlar	84629	96474	+11845
Yoqilg‘i	7934	8909	+975
Energiya	2865	5092	+2227

1	2	3	4
boshqa materiallar	2645	3309	+464
Umumiy material sig'imi, tiyin	65,0	65,5	+0,5
Shu jumladan: xomashyo sig'im	20,5	20,8	+0,3
yarimfabrikat sig'imi	38,4	37,9	-0,5
yoqilg'i sig'imi	3,6	3,5	-0,1
energiya sig'imi	1,3	2,0	+0,7
boshqa materiallar sig'imi	1,2	1,3	+0,1

Umumiy material sig'imi rejaga nisbatan 0,5 tiyinga xomashyo, energiya va boshqa materiallar sig'imini 0,3; 0,7; 0,1 tiyinga ortishi tufayli ro'y bergan. Bu turdagi materiallar sig'imini pasaytirish evaziga umumiy material sig'imi 1,1 tiyinga (0,3+0,7+0,1) qisqarishi mumkin. Yarimfabrikat, yoqilg'ilar bo'yicha sig'im rejaga nisbatan 0,6 tiyinga pasaygan.

Mahsulot tannarxidagi material xarajatlarini ulushini aniqlash uchun ma'lumotlar mahsulot kalkulyatsiyasidan olinadi. A-400 mahsulot turi bo'yicha ulush sig'imini dinamikasi va rejasining bajarilishini quyidagi ma'lumotlar asosida tahlil etamiz.

67-jadval

Mahsulot ulushi sig'imi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili		Hisobot yilining haqiqiysi	
		Reja	Haqiqatda	O'tgan yilga nisbatan, %	Rejaga nisbatan, %
Xomashyo va asosiy materiallar	4790	4730	4700	X	X
Chetdan keltirilgan yarimfabrikatlar	10500	10500	10900	X	X
Mahsulot bahosi	44319	44532	44706	X	X
Mahsulotning ulush sig'imi, so'm	0,345	0,342	0,349	101,0	102,0

A-400 mahsulot turining ulush sig'imi 0,349 ($\frac{4700+10900}{44706}$) so'mni tashkil etib o'tgan yilga nisbatan 1,1; hisobot yilining rejasiga nisbatan esa 2,0 foizga ortgan.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- moddiy resurslar to'g'risida tushuncha va tahlil etish vazifalari;
- moddiy resurslar bilan ta'minlanish manbalari;

- ichki manba;
- tashqi manba;
- zaxira holatini tahlili;
- joriy zaxira, muhofaza zaxiralari;
- ABC – analiz, XVZ – analiz mohiyati;
- ta'minot rejasining realligini tekshirish uslublari;
- moddiy resurslar holatini tahlil etish uslublari;
- ishlab chiqarishda moddiy resurslardan samarali foydalanish tahlilini uslublari;
- material sig'imi va uni mahsulot hajmiga ta'siri;
- material sig'imi va uni tannarxiga ta'siri;
- material sig'imi va uni pasaytirish rezervlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Korxonaning moddiy resurslari nima maqsadda tahlil etiladi?
2. Moddiy resurslarni tahlil qilishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?
3. Qaysi axborot manbalariga asoslanib korxonaning moddiy resurslari tahlil qilinadi?
4. Moddiy resurslar tarkibi va uning dinamik o'zgarishlari qanday tahlil etiladi?
5. Zaxira holatini tahlil etish usullarini ayting.
6. Tovarlarni omborlarda saqlash xarajati qanday aniqlanadi?
7. ABC – analiz, XVZ – analiz, logistika nimani anglatadi?
8. Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichlari qanday aniqlanadi?
9. Material qaytimi va material sig'imi qanday aniqlanadi?
10. Material qaytimining mahsulot hajmiga ta'siri qanday tahlil etiladi?
11. Material sig'imini pasaytirish imkoniyatlarini ko'rsatib bering.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Berilgan ma'lumotlar asosida mahsulotni material sig'imini tahlil qiling va xulosa yozing?

Asosiy faoliyat turi bo'yicha (ming so'm)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr xos raqami	Hisobot davrida	
		Chorak	Yil boshidan
Ishlab chiqarilgan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) amaldagi narxi (qo'shimcha qiymat va aktsiz solig'isiz)	011	131408	453781
Xarajatlar – jami (satrlar yig'indisi 013, 040, 061, 070)	012	125304	437297
1. Ishlab chiqarilgan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi (satrlar yig'indisi 014, 024, 025, 026, 028)	013	105797	369696
Shu jumladan: Ishlab chiqarilgan moddiy xarajatlar (qaytadan chiqindilarni chegirgan holda) (satrlar yig'indisi 015, 017, 018, 021, 022, 023)	014	98062	340452
Ulardan: Xomashyo va materiallar (xarid qilinadigan)	015	94522	329069
Ulardan: materiallar	016		
Chet tashkilotlar bajargan ishlab chiqarish tarzidagi ishlar va xizmatlar	017	196	645
Tabiiy xomashyo	018	221	412
Shu jumladan: Korxonalarining suv xo'jaligi tizimidan oladigan suvga to'laydigan haq (me'yor doirasida va undan ortiq)	019	221	412
Yerlarni rekultivatsiya qilish uchun ajratmalar	020		
Chetdan olinadigan barcha turdagi yoqilg'i	021	1418	5039
Xarid qilinadigan barcha turdagi energiya	022	1705	5287
Boshqa ishlab chiqarish moddiy xarajatlari	023		
Ishlab chiqarish tarzidagi ish haqi to'lash xarajatlari (sutkaliksiz)	024	5292	20235
Ishlab chiqarish ijtimoiy sug'urta ajratmalari	025	1965	7697
Asosiy vositalar va ishlab chiqarish nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	026	267	1101
Ulardan: Nomoddiy aktivlar	027		
Ishlab chiqarishning boshqa turdagi xarajatlari (satrlar yig'indisi 029, 030, 032 dan 037 gacha)	028	211	211

Biznes-reja ma'lumotlari

Mahsulot hajmi, korxonalar ulgurji bahosida-403810 ming so'm

Ishlab chiqarish xarajatlari tarkibida moddiy xarajatlar-322457 ming so'm.

2-topshiriq.

1- topshiriq ma'lumotlari asosida material xarajatlarni mahsulot hajmini o'zgarishiga ta'sirini hisob-kitob qiling va xulosa yozing?

3-topshiriq.

Moddiy xarajatlarni o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi ma'lumotlar asosida tahlil qiling va xulosa yozing?

Hisobot yili ko'rsatkichlari

1.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun material sarfi miqdori, kg - oliy navli un - tuxum, dona - tuz - suv	0,850 2 0,016 0,285
2.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun sarflangan material birligini bahosi, so'm - oliy navli un - tuxum, dona - tuz - suv	134 52 85 12

Biznes-reja ma'lumotlari

1.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun material sarfi miqdori, kg - oliy navli un - tuxum, dona - tuz - suv	0,840 2 0,015 0,280
2.	Bir birlik (kg) «vermishel» makaroni ishlab chiqarish uchun sarflangan material birligini bahosi, so'm - oliy navli un - tuxum, dona - tuz - suv	129 53 90 10

Test savollari:

1. Korxonani moddiy resurslar bilan ta'minlanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $K = \frac{\text{Materiallarni haqiqiy tushumi}}{\text{Reja bo'yicha materiallar tushumi}}$;
- b) $K = \frac{\text{Materiallarni haqiqiy tushumi}}{\text{Materiallarga bo'lgan talab}}$;
- d) $K = \frac{\text{Materiallarga bo'lgan talab}}{\text{Materiallarni haqiqiy tushumi}}$;
- e) $K = \frac{\text{Materiallarni zaxira me'yori}}{\text{Hisobot davrida sarflangan materiallar miqdori}}$.

2. Moddiy resurslarga bo'lgan tashqi ta'minotga nimalar kiradi?

- a) moddiy resurslarni fond birjalari orqali tuzilgan shartnoma asosida kelib tushishi;
- b) ko'rgazmalar orqali tuzilgan shartnoma asosida moddiy resurslarni kelib tushishi;
- d) xo'jalik subyektlari orqali tuzilgan shartnoma asosida moddiy resurslarni kelib tushishi;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

3. Zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimidagi AVS – analiz funksiyalari nimalardan iborat?

- a) moddiy resurslar yetkazib beruvchilar, sotish bozori, iste'molchilarning kategoriyalari bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi;
- b) moddiy resurslar ta'minoti va ulardan foydalanishi bo'yicha qarorlar qabul qiladi;
- d) iste'mol bozori, moddiy resurslar yetkazib beruvchilar harakatini nazorat qiladi;
- e) zaxiralar harakatini nazorat qilish tizimidagi barcha zaxiralar bo'yicha boshqaruv qarorlarini ishlab chiqadi.

4. Materiallardan samarali foydalanish ko'rsatkichi qaysi javobda to'g'ri ifodalangan?

- a) material qaytimi, material sig'imi, materiallar xarajati ko'effitsiyenti;
- b) materiallar qaytimi, materiallar sig'imi, fond qaytimi
- d) materiallar sig'imi, fond sig'imi material qaytimi;
- e) materiallar sig'imi, fond sig'imi, materiallar xarajati ko'effitsiyenti.

5. Materiallar qaytimi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{materiallar xarajati}}{\text{ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati}}$;
- b) $\frac{\text{materiallar xarajati}}{\text{sotishdan kelgan tushum}}$;
- d) $\frac{\text{sotishdan kelgan tushum}}{\text{materialarni o'rtacha yillik qoldig'i}}$;
- e) $\frac{\text{ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati}}{\text{ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati}}$.

6. Materiallar sig'imi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{moddiy resurslar}}{\text{ishlab chiqarilgan mahsulot}}$;
- b) $\frac{\text{ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar xarajati}}{\text{ishlab chiqarilgan mahsulot qiymati}}$;
- d) $\frac{\text{ishlab chiqarish hajmi}}{\text{moddiy resurslar}}$;
- e) $\frac{\text{materiallar xarajati}}{\text{sotishdan kelgan tushum}}$;

7. Materiallar xarajatining bazis davridan farqlanishiga qanday omillar ta'sir etadi?

- a) mahsulot miqdori, uning strukturasi, material sarfi me'yori, material baholari;
- b) ishlab chiqarish hajmi, uning strukturasi, material qaytimi, material baholari;
- d) mahsulot hajmi, uning strukturasi, material sig'imi, material sarf me'yori;
- e) ishlab chiqarish hajmi, material sarfi me'yori, material bahosi, material sifati.

8. Material bahosini shakllanishidagi transport – tayyorlov xarajatlari nimalarga bog'liq?

- a) yuk tashish masofasi, transport turi, kadrlar malakasi;
- b) transport turi, transport xizmati tarifi, kadrlar malakasi;
- d) yuk tashish masofasi, transport turi, transport xizmati tarifi;
- e) tashiladigan yuk miqdori, foydalanilgan transport turi, transport xizmat tarifi.

9. Materiallardan samarali foydalanish darajasini tahlil qiling:

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1. Tovar mahsuloti, mln. so'm	3300	3000
2. Material sarflar, mln. so'm	1870	2400
3. Material sig'imi	?	?

- a) 0,58:0,9; b) 0,60:10; d) 0,54:0,7; e) 0,57:0,8.

VIII BOB. MAHSULOT (ISH, XIZMAT)LAR ISHLAB CHIQRISH XARAJATLARI TAHLILI


8.1. Ishlab chiqarishni tashkil etishning nazariy va uslubiy jihatlari

Ishlab chiqarishni tashkillashtirish mavjud mehnat, moddiy va pul resurslaridan unumli foydalanishni o'zida aks etgan kompleks tadbiriy choralar yig'indisidan iborat. Ishlab chiqarishni tashkillashtirish mahsulot ishlab chiqarish hajmi, shartnoma, majburiyatlarni bajarilishi, xarajatlarni kamaytirish, ijtimoiy va iqtisodiy muammolar yechimini o'z ichiga oladi. Kompleks tahlil orqali korxonaning ishlab chiqarishini tashkil etish darajasi, haqiqiy va bazis davridagi ko'rsatkichlarini taqqoslash tufayli ko'rilgan tadbiriy choralar rejasining bajarilishini baholaydi; ishlab chiqarishni tashkil etishning takomillashtirishni xo'jalik faoliyati natijalariga bo'lgan ta'sirini aniqlaydi; rezervlar hisoblanadi va ulardan foydalanish yo'llarini belgilaydi. Qimmatli uskuna, mexanizm, mehnat resurslaridan to'liq foydalanmaslik ishlab chiqarish xarajatlarini ortib ketishiga olib keladi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi (25-chizma):

1. Ishlab chiqarishni ixtisoslashuv va kooperatsiya darajasi.
2. Ishlab chiqarish jarayonining davom etish muddati va strukturasi.
3. Ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi.
4. Ishlab chiqarishni maromiyligi.
5. Ishlab chiqarishning faollik darajasi.

Ishlab chiqarishni tashkil etish darajasini kompleks baholash tizimida ishlab chiqarishni ixtisoslashuvi, tig'izligi va ixchamlik ko'rsatkichlari hamda ishlab chiqarishning ta'minlanish va xizmat ko'rsatish ko'rsatkichlari muhim o'rin egallaydi. Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarni ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvi mahsulot tannarxini pasaytirish, unumdorlik darajasini oshirishda asosiy omil hisoblanadi. Ishning natijasi ishlab chiqarish maromi, ishlab chiqarishning faolligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.



25-chizma. Ishlab chiqarishni tashkil etish daraja ko'rsatkichlari va ularni baholash.

Ixtisoslashuv darajasini yuqori bo'lishi texnika, ishlab chiqarish texnologiyasi va uni tashkillashtirishning takomillashuviga va korxonani mavjud resurslardan unumli foydalanishga olib keladi. Ishlab chiqarishni ixtisoslashuv darajasini kompleks tahlili bir necha ko'rsatkichlar orqali amalga oshiriladi. Ixtisoslashuv darajasi sexda ishlab chiqarilgan mahsulot tipi, o'lchami, jami mahsulotdagi maxsus bo'linmalarning tutgan ulushlari orqali aniqlanadi va baholanadi. Ehtiyot qism va detallarni yetkazib berish bo'yicha tutgan ulushlari baholashning asosiy ko'rsatkichlari sifatida qabul qilinishi mumkin.

Ishlab chiqarishni tashkillashtirishning kompleks tahlilini asosiy maqsadi ishlab chiqarishni mutanosibligi, uzluksizligi, maromiyligi ko'rsatkichlari bajarilishini baholashdan iborat.

Ishlab chiqarishda tashkillashtirishning mutanosibligi sex, bo'lim, ishchi o'rinlarida vaqt birligi ichida yaratilgan mahsulotni korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlariga mos kelishi tushuniladi. Mutanosiblikni tahlili orqali ayrim bo'g'inlardagi to'liq foydalanilmagan quvvatlar

aniqlanadi. Tahlil natijalaridan kelib chiqqan xulosalar asosida belgilangan tadbiriy choralar mutanosibligini yanada mustahkamlashga safarbar etish lozim. Ishlab chiqarish intensivligi darajasini oshirishda ishlab chiqarish jarayonini uzluksizligi muhim o‘rin tutadi. Uzluksizlik koeffitsiyenti (K_u) quyidagicha aniqlanadi:

$$K_u = \frac{t_{texn}}{t_{ich}} \text{ bunda } t_{texn} - \text{ ishlab chiqarishning texnologik siklini davomiyligi, soatda } t_{ich} - \text{ ishlab chiqarish sikllari davomiyligi, soatda.}$$

Ishlab chiqarishni tashkiliy darajasini oshirishning yo‘nalishlari ishlab chiqarishni markazlashuvi va kooperatsiyalash hisoblanadi.

Ishlab chiqarishni markazlashuv tahlilida guruhlashtirish usulini qo‘llash orqali tarmoq ichidagi korxonalarining ishlab chiqargan mahsuloti, asosiy ishlab chiqarish fondlari, mehnat unumdorligi, tannarxi, fond qaytimi va boshqa ko‘rsatkichlari o‘rganiladi. Ishlab chiqarishni kooperatsiyalash korxonalar o‘rtasidagi hamda, korxonalar ichidagi o‘zaro aloqalarni ifodalaydi.

Kooperatsiyalash darajasini tahlil etish uchun quyidagi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi:

- 1) mahsulot tannarxidagi kooperatsiyalash asosida olingan yarim-fabrikat, butlovchi buyumlarni tutgan ulushi;
- 2) korxonalar bilan kooperatsiyalash aloqasidagi korxonalar soni;
- 3) jami ishlab chiqarish hajmida kooperatsiyalash asosidagi buyurtma qiymati.

Ishlab chiqarishning davomiylik muddati va strukturasi (DMS) ishlab chiqarishni tashkil etishning asosiy ko‘rsatkichi hisoblanadi. Davomiylik muddati mahsulot konstruksiyasini xususiyati, ishlab chiqarishning texnik darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etishning shakli va uslublari samaradorligiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ishlab chiqarish siklini kompleks tahlili mahsulotning asosiy turi bo‘yicha olib boriladi va ishlab chiqarish sikli davomiylik muddati o‘zgarishini asosiy texnik – iqtisodiy omillari bo‘yicha baholaydi.

8.2. Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Mahsulot tannarxi korxonalar moliya xo‘jalik faoliyatini hamma tomonlarini aks ettiruvchi ko‘rsatkichlardir. Shu tufayli ishlab chiqarish

xarajatlarini to'g'ri hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, tahlil qilish boshqaruv hisobi hamda moliyaviy va boshqaruv tahlili fanlarining muhim vazifalaridan biridir.

Bugungi kunda korxonada faoliyatining muhim ko'rsatkichlaridan va unga baho beradigan mezon ko'rsatkichlaridan biri, foyda va rentabellikdir. Foydaga ta'sir etuvchi omil bu tannarxdir.

Har bir xo'jalik subyektini moliyaviy va boshqaruv tahlili orqali ishlab chiqarish, bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmatlar uchun xarajatlarni maqsadga muvofiq sarflanishi va ular samaradorligi baholanadi.

Xarajatlar jami ishlab chiqarish (tovarlar, xizmatlar), uchun sarflangan pul mablag'laridir.

Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg'i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog'liq xarajatlarning qiymat ko'rinishini ifoda etadi.

Tannarx iqtisodiy kategoriyadir.

- xarajatlarni hisobga olish va nazorat qilishga xizmat qiladi;
- mahsulot bahosini shakllanishi va korxonaning foyda va rentabelligini aniqlash asosini tashkil etadi;
- korxonaning boshqaruv va investitsiya faoliyatlari bo'yicha qarorlarni qabul qilishning zaruriy elementidir;
- resurslardan foydalanish, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etish tizimini takomillashtirishdan ko'rilgan samaradorlikni ifodalaydi.

O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi Qonuni, «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarning tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom talablari asosida mahsulot tannarxi bugungi kunda aniqlanmoqda.

Mahsulot tannarxi – shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun ketgan barcha bevosita va bilvosita xarajatlarning qiymat ifodasidir.

Bugungi kunda amalda bo'lgan Nizomga muvofiq mahsulot (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish xarajatlari tarkibiga kiradigan moddalar sirasiga o'zgarishlar kiritilgan. ***Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar tarkibini aniqlashdan maqsad:***

1. Buxgalteriya hisobi shotida jami xarajatlar to'g'rida to'liq va aniq ma'lumotlarga ega bo'lish, korxonada faoliyatini rentabelligi va bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardoshligini aniqlash.


2. Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxini aniq hisob-kitobini qilish;

3. Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlarni alohida tarkiblash va ularni moliyaviy natijaviylikka bog'lash.

4. Ishlab chiqarish xarajatlarini yuzaga chiqishi va javobgarlik markazlari bo'yicha hisobga olish va nazorat qilish.

5. Soliq to'lanadigan bazani aniq hisob-kitobini yurtish va bu orqali ishlab chiqarish xarajatlari hamda korxonada sarflarini boshqarishni tashkil etishdan iboratdir.

Mahsulot tannarxini kompleks tahlil etishning obyekti, bosqichlari va maqsadlari quyidagilardan iborat:



26-chizma. Mahsulot tannarxini kompleks tahlili.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ishlab chiqarayotgan mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda boshqaruv tahlilining eng asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

- ishlab chiqarish xarajatlarini o‘rganish va ularning holatiga baho berish;
- mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha belgilangan rejani bajarilishi va dinamikasini nazorat qilish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalari bo‘yicha o‘rganish va ularga baho berish;
- mehnat unumdorligi bilan ish haqi xarajatlari o‘rtasidagi nisbatni o‘rganish;
- tannarxning o‘zgarish sabablarini aniqlash va unga ta’sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan hisoblash;
- ayrim turdagi mahsulot tannarxini xarajat moddalari bo‘yicha tahlil etish;
- tannarxni pasaytirish bo‘yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va hokazo.

«Mahsulot (ish, xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish bo‘yicha xarajatlar tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish haqida»gi Nizomga muvofiq ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olishning umumiyliги ta’minlangan. Buning yakunida mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini rejalashtirish, tahlil etish va nazorat qilishga imkoniyat tug‘iladi.

Mazkur Nizom buxgalteriya hisobi maqsadlarida va soliqqa tortish maqsadlarida xarajatlarni hisoblash tartiblaridagi farqlanishlarni hisobga olib ishlab chiqilgan. Boshqaruv hisobi va boshqaruv tahlilining asosiy maqsadi xo‘jalik yurituvchi subyektlarning bozor iqtisodiyoti sharoitlarida raqobatga bardoshligini aniqlashdir.

Nizomda buxgalteriya hisobi bo‘yicha foyda bilan soliqqa tortiladigan foyda o‘rtasidagi tafovutlarga izoh berilgan.

Soliqqa tortiladigan foyda buxgalteriya hisobidagi foydadan farq qilishining sababi shundaki, davlat soliq siyosatiga muvofiq amaldagi soliq qonunchiligi bo‘yicha korxonalar xarajatlarining bir qismi soliqqa tortiladigan bazaga kirmaydi. Nizomda moliyaviy natijalarni shakllantirishning asosiy qoidalari va xarajatlarni guruhlash berilgan. Birinchi ilovada korxonalar hisobot davridagi balans foydasini hisoblashda chegi-

riladigan, lekin xo‘jalik subyektining soliqqa tortiladigan bazasiga qo‘shiladigan xarajat moddalari berilgan. Ikkinchi ilovada xarajatlar amalga oshirilishi paytida soliqqa tortiladigan bazadan chegirilmaydigan, lekin keyingi davrlarda chegiriladigan xarajatlar ro‘yxati berilgan (vaqt bo‘yicha farqlanishlar).

Uchinchi ilovada foydasi emas, daromadi soliqqa tortilayotgan korxonalar uchun qo‘shimcha chegirilmaydigan xarajatlar ro‘yxati berilgan.

Bugungi kunda xo‘jalik yurituvchi subyektlarning mahsulotlari tannarxini tahlil qilishda boshqaruv tahlilining asosiy axborot manbalari quyidagilar hisoblanadi:

- Xo‘jalik subyektlarining biznes-reja ma’lumotlari.
- 5-S «Korxonalar sarf-xarajatlari to‘g‘risida»gi hisoboti ma’lumotlari.
- 1-T «Mehnat hisoboti» ma’lumotlari.
- Buxgalteriya hisobining ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olib boruvchi schot ma’lumotlari va boshqa turdagi qo‘shimcha ma’lumotlar.

8.3. Xarajatlarni turkumlash: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, «o‘zgaruvchan» va «o‘zgarmas» xarajatlar

Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish tannarxi ishlab chiqarish yoki qayta ishlash jarayonida ishlatilgan tabiiy resurslar, xomashyo, materiallar, yoqilg‘i, energiya, asosiy vositalar (amortizatsiya), mehnat resurslari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarning qiymat ko‘rinishini ifoda etadi.

Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxiga ishlab chiqarishni tashkil qilish uslubi va texnologiyasi bilan belgilangan mahsulotni ishlab chiqarish (ish, xizmatlar bajarish) bilan bevosita bog‘liq xarajatlar kiritiladi. Bularga: bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar, bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari, ishlab chiqarish yo‘nalishidagi ustama xarajatlar hamda boshqa bevosita va bilvosita xarajatlar kiradi.

Ishlab chiqarishning moddiy xarajatlari tarkibiga quyidagilar kiradi:

- tashqaridan sotib olinadigan ishlab chiqariladigan mahsulot tarkibiga kirib, uning asosini tashkil etadigan yoki mahsulot tayyorlashda (ish bajarishda, xizmat ko‘rsatishda) zarur komponent hisoblanadigan xomashyo va materiallar;

- mahsulotni o'rash hamda boshqa ishlab chiqarish zaruriyatlari uchun sotib olingan materiallar, ta'mirlash uchun ehtiyot qismlar, moslamalar va boshqa mehnat buyumlari;

- texnologik maqsadlar, binolarni isitish, barcha turdagi energiyani ishlab chiqarish uchun sarflanadigan chetdan sotib olingan yoqilg'ining hamma turlari;

- korxonaning texnologik, transport va boshqa ishlab chiqarish, shuningdek, xo'jalik zaruriyatlariga sarflanadigan sotib olinadigan barcha turdagi energiya;

- tabiiy kamayishining me'yor chegarasidagi moddiy resurslarning kamomadi va buzilishlaridan yo'qotishlar;

Ishlab chiqarishdagi mehnatga haq to'lash xarajatlariga quyidagi moddalar kiradi:

- korxonada qabul qilingan mehnatga haq to'lash shakl va tizimlariga muvofiq ishbay haqlari, tarif stavkalari va mansab okladlari asosida haqiqiy bajarilgan ishlar uchun ishlab chiqarishdagi hisoblangan ish haqi;

- natura shaklida haq to'lash tartibi bo'yicha beriladigan mahsulot qiymati;

- amaldagi tartiblarga ko'ra rag'batlantiruvchi to'lovlar, jumladan, ishlab chiqarish natijalari uchun mukofotlar (natural mukofotlarni qo'shgan holda) ta'rif stavkalari va okladlarga kasb mahorati uchun qo'shimcha ustama to'lovlar, amaldagi qonunchilikka muvofiq ko'p yillik xizmatlari uchun (shu xo'jalikda bir ixtisoslikdagi ish staji uchun) ishlab chiqarish xodimlariga beriladigan taqdirlanishlar, mukofotlar, kasb mahorati uchun ta'rif stakalar va okladlarga nisbatan) ustama to'lovlar, harakatdagi qonunchilikka muvofiq ko'p yillik xizmatlari uchun ishlab chiqarish xodimlariga beriladigan taqdirlashlar;

- ish rejimi va mehnat sharoitlari bilan bog'liq tovon to'lovlari, jumladan, tungi ish vaqti, ish vaqtidan so'nggi ish uchun to'lovlar.

Amaldagi Nizomga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlarning barcha xarajatlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1) mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;

a) ishlab chiqarish tannarxiga qo'shilmaydigan xarajatlar, ammo, davr xarajatlariga qo'shiladigan xarajatlar (asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani aniqlash uchun);

2) korxonaning umumxo'jalik faoliyatidan ko'rgan foyda yoki zararini aniqlashda hisobga olinadigan moliyaviy faoliyat xarajatlari.

3) favqulodda zarar (soliq to'lashga qadar aniqlanadigan foydani hisoblashda ishtirok etadigan).

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlarini yuqoridagi tarkib bo‘yicha guruhlanganda, har bir guruh xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga qo‘shiladigan xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

- a) bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar;
- b) bevosita va bilvosita mehnat xarajatlari;
- d) ishlab chiqarishdagi ma‘muriy xarajatlar.

2. Davr xarajatlari quyidagicha turkumlanadi:

- a) sotish bo‘yicha xarajatlar;
- b) boshqaruv xarajatlari;
- d) boshqa muomala xarajatlari va zararlar.

3. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlar quyidagicha turkumlanadi:

- a) foizlar bo‘yicha sarflar;
- b) chet el valutasini kursi o‘zgarishidan ko‘rilgan zarar;
- d) qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zarar;
- e) moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa sarf-xarajatlar.

4. Favqulodda zararlar, odatda, turkumlanmaydi.

Ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari.

Mahsulot ishlab chiqarish bilan bog‘liq xarajatlarga **ishlab chiqarish xarajatlari** deb ataladi. Ularga quyidagilar kiradi:

- material xarajatlari;
- mehnat haqi xarajatlari;
- ishlab chiqarish bilan bog‘liq ma‘muriy xarajatlar.

Bevosita material xarajatlari mehnat haqi bilan birgalikda dastlabki xarajatlarni tashkil etadi.

Mehnat haqi va ishlab chiqarish xarakteridagi ma‘muriy boshqaruv xarajatlari birgalikda konversiya xarajatlarni tashkil etadi.

Material xarajatlari konversiya xarajatlari bilan birgalikda to‘liq ishlab chiqarish tannarxini tashkil etadi.

Noishlab chiqarish xarajatlari.

Ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan barcha xarajatlarga noishlab chiqarish xarajatlari deb ataladi. Ular tarkibiga sotish bilan bog‘liq xarajatlar, ilmiy tekshirish va tadqiqot xarajatlari, umumiy va ma‘muriy boshqaruv xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, olingan kredit uchun foiz to‘lovlari va boshqa ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan, xarajatlar kiritiladi.

Mahsulot tannarxini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar quyidagilarni tashkil etadi.

1. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat.
2. Taqqoslanadigan mahsulot tannarxi.
3. Mahsulot birligining tannarxi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatidagi xarajatlarni yuqoridagi ko'rinishda turkumlash bilan bir qatorda yana quyidagi xususiyatlari bo'yicha ham tasniflab chiqishimiz mumkin.

Yuzaga chiqish shakliga ko'ra:

- asosiy ishlab chiqarish xarajatlari;
- moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar;
- tasodifiy, favquloddagi xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga qo'shilishiga ko'ra:

- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar.

Yuzaga chiqish o'rni bo'yicha:

- bo'lim bo'yicha qilingan xarajatlar;
- sex bo'yicha qilingan xarajatlar;
- uchastka bo'yicha qilingan xarajatlar va hokazo.

Sotish hajmiga hisobdan chiqarilishiga ko'ra:

- mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari;
- davr xarajatlari.

Davriga ko'ra:

- joriy davr xarajatlari;
- kelgusi davr xarajatlari.

Soliqqa tortiladigan foyda summasini aniqlashda hisobga olinishiga ko'ra:

- soliqqa tortiladigan bazaga qayta qo'shiladigan doimiy tafovutlar;
- soliqqa tortiladigan bazaga qo'shiladigan davri bo'yicha tafovutlar;
- soliqqa tortiladigan bazani aniqlashda hisobga olinmaydigan xarajatlar.

Mahsulot hajmining o'zgarishiga muvofiq:

- o'zgaruvchan xarajatlar;
- o'zgarmas xarajatlar.

Mahsulot tannarxiga qo'shilishiga qarab:

- to'g'ri xarajatlar (bevosita);
- egri xarajatlar (bilvosita).

Moliyaviy natijalarga daxlsizligi bo'yicha:


- mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar;
- foyda hisobidan qoplanadigan xarajatlar.

Tahlil etishda o'rganish obyekti va maqsadidan kelib chiqqan holda korxonada xarajatlarining u yoki bu turkumi bo'yicha o'zgarishlar va o'zgarish sabablariga baho beriladi. Taqqoslash yoki qiyosiy o'rganishda joriy davr va o'tgan yil ma'lumotlari, biznes-reja ko'rsatkichlari, o'rtacha ko'rsatkichlar va tarmoq bo'yicha boshqa ma'lumotlar olinadi. Taqqoslashda ko'rsatkichlar bo'yicha mutlaq o'zgarishlar nisbiy ko'rsatkichlarni qo'llash orqali to'ldiriladi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmiga bog'liqligi jihatidan xarajatlar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) o'zgaruvchan xarajatlar;
- b) o'zgarmas xarajatlar;
- d) yarim o'zgaruvchan xarajatlar

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ortishi bilan o'sib boruvchi xarajatlar o'zgaruvchan xarajat hisoblanadi. Ular tarkibiga ishlab chiqarishdagi ishchilarni ish haqi, yoqilg'i, energiya materiallar xarajati kiradi.



27-chizma. O'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlar chizmasi.

O'zgarimas xarajatlar – mahsulot miqdoriga bog'liq bo'lmagan holda bir xil darajada saqlanuvchi xarajatlardir. Masalan, ijara to'lovlari, amortizatsiya ajratmalari, reklama xarajatlari o'zgarimas xarajatlar sirasiga kiradi.

Yarim o'zgaruvchan harjatlar – o'zgaruvchanlik va ayni paytda davriylik yoki doimiylik xarakteriga ega xarajatlardir.

68-jadval

Jami ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot birligi tannarxini mahsulot hajmiga bog'liqligi

Mahsulot hajmi, dona	Jami mahsulot tannarxi, mln. so'm			Mahsulot birligi tannarxi, ming so'm		
	o'zgarimas xarajatlar	o'zgaruvchan xarajatlar	jami	o'zgarimas xarajatlar	o'zgaruvchan xarajatlar	jami
500	50	40	90	100	80	180
1000	50	80	130	50	80	130
1500	50	120	170	33	80	113
2000	50	160	210	25	80	105
2500	50	200	250	20	87	100

Mahsulot hajmi besh marotaba ortgan holda mahsulot birligidagi o'zgarimas xarajatlar besh marotaba qisqarib tannarx 180 ming so'mdan 100 ming so'mgacha pasaygan.

8.4. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili

Rejali iqtisod davrida har bir korxonaga mahsulot tannarxini pasaytirish bo'yicha yuqori tashkilotlar tomonidan topshiriq berilar edi. Korxonaning ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqqan holda quyidagi ko'rsatkichlardan biri bo'yicha tannarxni pasaytirish rejasi belgilangan.

1. Taqqoslanadigan mahsulot tannarxi.
2. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat.
3. Mahsulot birligini tannarxi.

Mahsulot tannarxini ifodalovchi ko'rsatkichlardan eng muhimi bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajattir. Bu ko'rsatkich tiyin hisobida quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat (tiyin)} = \frac{\text{Ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Tovar mahsulotini ulgurji bahosi}}$$

Bu ko‘rsatkich orqali qilingan xarajatlarning samaradorligini aniqlash mumkin.

Tahlil etishda bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar dinamikasi, biznes-rejaga nisbatan o‘zgarishi aniqlanadi.

69-jadval

Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yili	Hisobot yili	
		Biznes-rejada	Haqiqatda
1. Mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so‘mda	1227503	1374356	1975926
2. Tovar mahsulotining solishtirma ulgurji bahosi, ming so‘mda	2113430	2198763	2553967
3. Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin hisobida	58,08	62,51	77,37

70-jadval

Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlarni pasaytirish bo‘yicha biznes-rejasining bajarilishi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Summa
1. Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar, tiyin hisobida:	
- O‘tgan yil	58,08
- Hisobot yil:	
• Biznes-reja bo‘yicha	62,51
• Haqiqatda	77,37
2. O‘tgan yildan farqi:	
• tiyin hisobida	+19,29
• foiz hisobida	+33,21
3. Rejadan farqi:	
• tiyin hisobida	+14,86
• foiz hisobida	+23,77
4. Bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatdan olingan iqtisod (-) yoki sarflangan ortiqcha xarajat, ming so‘mda	+379519,5


Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektida ishlab chiqarilgan tovar mahsulotining har so‘mi uchun qilingan xarajat hisobot davrida 77,37 tiyinni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 19,29 tiyinga yoki 33,21 %ga, biznes-rejaga nisbatan esa 14,86 tiyinga yoki 23,77 %ga ko‘paygan. Xarajatlarning bunday tartibda ortishi korxonaning rentabelligini pasaytirib yuboradi. O‘rganilayotgan davrda har bir so‘mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat biznes-rejaga nisbatan 14,86 tiyinga ortishi hisobiga korxonada bo‘yicha ortiqcha

379519,5 ming so‘mlik xarajat qilinishiga yo‘l qo‘yilgan. Agarda korxonada o‘rganilayotgan davrda har bir so‘mlik mahsulot uchun ortiqcha 14,86 tiyin xarajat qilinishiga yo‘l qo‘ymaganda edi korxonaning oladigan daromadi shuncha so‘mga ortgan bo‘lardi.

Tahlil davomida 1 so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni rejaga, o‘tgan yildagiga nisbatan o‘zgarish sababalari va unga quyidagi omillarni ta‘sirini aniqlash lozim.

1. Mahsulot strukturasi va assortimenti o‘zgarishi.
2. Xomashyo yoqilg‘i energiya bahosini o‘zgarishi.
3. Mahsulot bahosini o‘zgarishi.

Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarni o‘tgan yil, hisobot yilining rejasiga nisbatan o‘zgarishiga, ta‘sir etuvchi omillarni quyidagi 2-chizmada keltiramiz.



28-chizma. Bir so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta‘sir etuvchi omillar.

8.5. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalari bo'yicha tahlili

Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va tahlil etishning uslubiy va me'yoriy shakli O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 1999-yil 5-fevralda tasdiqlangan 54-sonli «Mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish tannarxi, mahsulot (ish bajarish va xizmat ko'rsatish) ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizom (o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilgan holda) bilan belgilanadi.

Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish xarajatlarini rivojlantirish maqsadida buxgalteriya hisobi va hisobotida uning yo'nalishlari bo'yicha guruhlariga ajratish maqsadga muvofiqdir:

1. Xarajatlarning iqtisodiy elementlari bo'yicha;

2. Xarajatlarning kalkulyatsion moddalari bo'yicha.

Xarajatlarni elementi bo'yicha guruhlariga ajratishdan maqsad ularni strukturasi, dinamikasini nazorat qilishdan iborat.

Ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali jonli mehnat bilan boshqa xarajat turlarini nisbati, ishlab chiqarish zaxiralarini normalashtirish va tahlil etish, oborot mablag'larini tezligini aniqlash va milliy daromadni hisoblash imkoniyati tug'iladi.

Xarajatlarni elementlari bo'yicha tahlil natijalariga muvofiq material sig'imi, mehnat sig'imi va fond sig'imi darajalari bo'yicha tannarxni pasaytirish imkoniyatlarini aniqlash mumkin.

Tahlil etishda jami xarajatdagi har bir xarajat elementning tutgan salmog'i aniqlanib, o'tgan yildagisi hamda smetadagi ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi va bu ko'rsatkichlarni o'zgarish sabablari aniqlanadi.

Mahsulotlarning ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlari tarkibini iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha quyidagi tarkibda berish mumkin.

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlari va kalkulyatsion moddalari bo'yicha o'rganish quyidagicha farqlanadi, ya'ni bo'limlar va korxonalar bo'yicha jami xarajatlar faqat iqtisodiy elementlari bo'yicha o'rganiladi, mahsulotlar turi va turkumi bo'yicha esa ishlab chiqarish xarajatlari kalkulyatsiya moddalari asosida ko'rib chiqiladi. Tahlil etishda ishlab chiqarish xarajatlarining jami o'zgarishi va uning tarkibi bo'yicha o'zgarishlari mutlaq va nisbiy jihatdan o'rganiladi. Nisbiy jihatdan o'rganishda har bir turkum xarajat moddasi yoki elementning jami ishlab chiqarish xarajatlari tarkibidagi salmog'iga baho beriladi.

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari va moddalari bo'yicha turkumlanishi

Iqtisodiy elementlari bo'yicha	Kalkulatsion moddalari bo'yicha
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita moddiy xarajatlar	Xomashyo
	Yoqilg'i
	Elektr quvvati
	Ehtiyot qismlar
	Idishlar va hokazo
Ishlab chiqarish xarakteridagi bevosita va bilvosita mehnat haqi xarajatlari	Asosiy ish haqlari
	Qo'shimcha ish haqlari
	Ish haqiga ustamalar
Ishlab chiqarishga taalluqli mehnat haqidan ajratmalar	Ijtimoiy ta'minot bo'limiga
	Mehnat birjasiga
	Kasaba uyushmasiga
Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, eskirish xarajatlari	Asosiy vositalarning eskirishi
	Nomoddiy aktivlarning eskirishi
	Asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni ijara haqlari
Ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar	Turli ishlar va xizmatlar
	Soliqlar, yig'imlar va hokazo.

Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementlari bo'yicha tarkibi va strukturasi tahlili

Xarajat guruhleri	O'tgan yili		Hisobot yili	
	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %
1. Moddiy xarajatlar	1001408	81,58	1539843	77,93
2. Mehnat haqi xarajatlari	121594	9,91	231624	11,72
3. Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	48395	3,94	92359	4,67
4. Amortizatsiya ajratmalari	3859	0,31	7370	0,37
5. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	52247	4,26	104730	5,30
Jami ishlab chiqarish xarajatlari:	1227503	100,0	1975926	100,0

Jadval ma'lumotlari asosida xo'jalik subyektining ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil qilib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, jami xarajatda xomashyo, yoqilg'i, energiya, yarimfabrikat xarajatlarining tutgan ulushi yuqoridir. Ularni ulushi bazis davridagi 81,58 foizdan, hisobot davriga kelib 77,93 foizgacha pasaygan. Shu davr ichida mehnat haqi xarajatlarining ulushi esa 9,91 foizdan hisobot davriga kelib 11,72 foizga o'sgan. Moddiy xarajatlar

bilan mehnat haqi xarajatlari o'rtasidagi nisbatni bunday tarzda o'zgarishi mehnat unumdorligi darajasining o'sganligidan hamda xodimlarning moddiy manfaatdorligi oshganligidan dalolat beradi. Fan-texnika taraqqiyotiga tayangan holda ishlab chiqarishni tashkil etgan korxonalarda unumdorlik darajasi ortadi, amortizatsiya ajratmalari mutlaq summada o'tgan yilga nisbatan ortsa ham, ularning nisbiy ko'rsatkichlari ya'ni mahsulot narxidagi ulushi pasayadi.

Xarajatlarning kalkulyatsiya moddalarini tahlili, asosan, bir elementli bo'lib, ya'ni bir xil iqtisodiy mazmunga ega bo'lgan xarajatlardan iborat. Xomashyo, yoqilg'i, energiya va boshqa xarajat moddalarini har birini ishlab chiqarilgan mahsulot hajmiga bo'lish orqali xarajatlarni darajasi (tiyin) aniqlanadi va bu ko'rsatkichni bazis davri yoki hisobot davrining rejasi bilan taqqoslash orqali erishilgan iqtisod yoki ortiqcha xarajat aniqlanadi.

73-jadval

Xarajatlarni moddalari bo'yicha tahlili

T №	Xarajat moddalari	Hisobot yilining rejadagi xarajat darajasi, tiyin	Hisobot yilining haqiqiy xarajat darajasi, tiyin	Rejadagi farqi	
				+	-
1.	Xomashyo va materiallar	20,50	20,80	0,30	
2.	Yoqilg'i va energiya texnologik maqsadlar uchun	4,90	5,50	0,60	
3.	Chetdan olingan butlovchi buyum va yarimfabrikatlar	29,97	26,62		3,35
4.	Ishchilarning asosiy ish haqi	13,23	12,16		1,07
5.	Qo'shimcha ish haqi	1,61	1,45		0,16
6.	Ijtimoiy sug'urta ajratmalari	3,42	3,27		0,15
7.	Asosiy vositalarni saqlash xarajatlari	2,73	2,53		0,20
8.	Ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish xarajatlari	1,04	1,04		
9.	Brakdan zarar	X	0,35	0,35	
10.	Boshqa xarajatlar	0,99	0,61	1,25	0,38
	Jami – 1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat	78,39	74,33	1,25	5,31

1 so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat reja darajasiga nisbatan 4,06 tiyinga pasaygan holda xomashyo yoqilg'i va brakdan ko'rilgan zararlarni reja darajasidan ortib ketishi 1,25 tiyinni tashkil etgan. Qolgan xarajat moddalaridan 5,31 tiyin miqdorida iqtisodga erishilgan.

8.6. Ishlab chiqarishdagi mehnatga haq to'lash xarajatlarining tahlili

Raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida har bir korxonada maqsadlarini amalga oshirilishida asosiy omil inson, ya'ni korxonada xodimlaridir. Korxonada xodimlarining moddiy va ma'naviy manfaatdorligi esa ish samaradorligini oshirishga olib keladi.

Iste'mol fondi xarajatlari deganda korxonada band bo'lgan xodimlar va ular nomidan to'lanadigan xarajatlar tushuniladi. Bunga, mehnat haqi sifatida hisoblanadigan va to'lanadigan xarajatlar, to'lovlar, rag'batlantirishlar kiritiladi. Xodimlar nomidan to'lanadigan to'lovlar tarkibiga ularning ishga qatnashi va ovqatlanishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, kiyim-kechaklar, kommunal xizmat va uy-joy uchun to'lovlar, ularni o'qitish bilan bog'liq, shu kabi va boshqa to'lovlar kiritiladi.

Mehnat haqi – bu jamiyat ko'lamida Milliy daromadning ishchilar va xizmatchilar o'rtasida ular mehnatini miqdori va sifatiga muvofiq taqsimlanadigan hamda shaxsiy iste'moli maqsadlari uchun foydalaniladigan qismidir. Korxonada mehnatga haq to'lashdan mehnat unumdorligini oshirishni, fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni eng muhim vositasi sifatida foydalaniladi. Ish haqini tashkil etish va ularni shakllantirishdan asosiy maqsad barcha xodimlarni ish haqi yakka va kollektiv mehnat natijalariga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lishiga erishishdan, mehnatga haq to'lashga bir xillik elementlarini bartaraf etishdan iborat.

Korxonada mehnat haqi xarajatlarini tahlil etishda, mehnat haqi fondining reja va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va o'zgarish sabablariga, bir xodimga to'g'ri keladigan o'rtacha mehnat haqi fondi hamda uning o'zgarishiga baho beriladi. Mehnat haqi fondining shakllanishi va uning berilishi davlat tashkilotlari tomonidan tartibga solib turiladi va nazorat qilinadi. Bu bevosita kredit tashkiloti hisoblangan bank tizimi va uning bo'limlari bo'lishi mumkin. Mehnat haqi fondining hisoblanishi va berilishi yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan har yili qayta tuziladigan uslubiy yo'riqnomada bu boradagi me'yoriy hujjat sifatida olinadi.

Bugungi kunda korxonalarda xodimlarning ish haqini tahlil etishning asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi:

1. Bazis davri va rejadagi ish haqi fondining realligini baholash.
2. Ish haqi fondining mutlaq va nisbiy farqlarini aniqlash.
3. Ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillarni miqdor jihatidan o'lchash.

4. Ish haqi fondi tarkibidagi unumsiz xarajatlarni hisoblash.

5. Mehnat unumdorligi bilan o'rtacha ish haqi o'rtasidagi nisbatni tannarxga bo'lgan ta'sirini hisoblash.

Ish haqini kompleks tahlil etishda ish haqini mutlaq va nisbiy farqlari aniqlanadi. Hisobot davrida sarflangan ish haqi- (IHF^1) ni bazis davridagi ish haqi fondi (IHF^0) bilan taqqoslash orqali ish haqining mutlaq farqi aniqlanadi.

$$\Delta IHF_{mut} = IHF^1 - IHF^0 .$$

Ish haqining nisbiy farqi haqiqatda sarflangan ish haqi (IHF^1) ni bazis davridagi ish haqi fondini mahsulot ishlab chiqarish indeksiga ko'paytmasidan (korrektirovka) hosil bo'lgan (IHF_{kor}) ko'rsatkich bilan taqqoslash orqali aniqlanadi.

$$\Delta IHF_{nisb} = IHF^1 - IHF_{kor} = IHF^1 - (IHF_{o'z-cha}^0 \cdot ig + IHF_{o'z-mas}^0)$$

bunda ΔIHF_{nisb} - ish haqini nisbiy farqi;

IHF^1 - hisobot davrida sarflangan ish haqi;

IHF_{kor} - bazis davridagi ish haqi fondini mahsulot ishlab chiqarish indeksiga ko'paytmasi (korrektirovkasi)

ig - mahsulot ishlab chiqarish hajmining indeksi

74-jadval

Ish haqi fondidan foydalanish tahlili

Ko'rsatkich	Bazis davri	Hisobot davri	Farqi	
			Mutlaq summa	%
Mahsulot ishlab chiqarish hajmi ish, xizmat solishtirma ulgurji bahoda, ming so'm	2203880	2545500	+341620	+15,5
Ish haqi fondi, ming so'm	343340	361400	+18060	+5,26
Shu jumladan:				
- o'zgaruvchan qismi	257505	275748	+18243	+7,08
- o'zgarimas qismi	85835	85652	-183	-0,21

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini indeksi

$$ig = \frac{q_1}{q_0} = \frac{2545500}{2203880} = 1,15$$

Ish haqi fondini mutlaq farqi

$$\Delta IHF_{mut} = 361400 - 343340 = +18060 \text{ ming so'm}$$

Ish haqi fondini nisbiy farqi

$$\Delta IHF_{nisb} = 361400 - (257505 \cdot 1,15 + 85835) = 361400 - 181965 = -20565$$

ming so'm.

Ish haqi fondida ishchilarning ish haqi yuqori salmoqqa ega. Uning o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etadi.

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmi (ig)
2. Ishchilar (nisbiy) soni (IS_{nisb})
3. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi (\bar{IH})
Ishchilarni ish haqi fondini bazis davridan farqi

$$\Delta IHF = IHF'_{is} - IHF^o_{is} .$$

1. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini ta'siri $\Delta IHF_{(N)} = IHF^o \cdot ig - IHF^o$
2. Ishchilar (nisbiy) sonini ta'siri

$$\Delta IHF_{(is)} = \frac{IHF^o}{IS^o} \cdot IS_{nisb}$$

3. Bir ishchining o'rtacha yillik ish haqini ta'siri
- $$\Delta IHF_{(yx)} = \left(\frac{IHF'}{IS'} - \frac{IHF^o}{IS^o} \right) \cdot IS'$$

Ishchilar sonini nisbiy farqi quyidagicha aniqlanadi.

$$IS_{nisb} = IS' - (IS^o \cdot ig)$$

Xizmatchilarning ish haqi fondiga quyidagi ikki omil ta'sir etadi.

1. Xizmatchilar sonini o'zgarishi (Xs)
2. Bir xizmatchiga to'g'ri keladigan o'rtacha ish haqi (Ix)

Xizmatchilarning ish haqi fondini bazis davridan farqi formula asosida quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta IHF_{(x)} = IHF'_x - IHF^o_x$$

Shu jumladan:

1. Xizmatchilar sonining o'zgarishini ta'siri $\Delta IHF_{(xc)} = \frac{IHF^o_x}{X^o_c} \cdot (x^1_c - x^o_c)$
2. Bir xizmatchining o'rtacha ish haqining o'zgarishini ta'siri

$$\Delta IHF_{(ix)} = X^1_s \cdot \left(\frac{IHF^1_x}{X^1_s} - \frac{IHF^o_x}{X^o_s} \right)$$

8.7. Ishchilarning ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Sanoat ishlab chiqarish xodimlari ish haqi fondi tarkibida ishchilarning ish haqi yuqori salmoqqa ega. Shu bois ishchilarning ish haqidan qay darajada foydalanganligini nazorat qilish, unumsiz xarajatlarga yo'l qo'ymaslik tannarxni pasaytirish imkoniyatini beradi. Tahlil etishda ishchilarni hisobot davridagi haqiqiy sarflangan ish haqini rejadagi, o'tgan yildagi ish haqi fondi bilan taqqoslanadi, **uning farqi aniqlanadi va unga ta'sir etuvchi quyidagi omillar miqdor jihatdan hisoblanadi.**

1. Mahsulot hajmini o'zgarishi.
2. Ishchilar (nisbiy) sonini o'zgarishi.
3. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqining o'zgarishi.

Mahsulot hajmi o'zgarishini ishchilarning ish haqi fondiga bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun rejadagi ish haqi fondini mahsulot ishlab chiqarish hajmini rejaga nisbatan o'sish darajasiga ko'paytirish lozim.

Ikkinchi omil ta'sirini aniqlash uchun ishchilarni nisbiy farqi rejadagi bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqiga ko'paytirish kerak. Bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqini o'zgarishini ish haqi fondiga bo'lgan ta'sirini aniqlash uchun shu ko'rsatkichning rejadagi farqi hisobot davridagi ishchilarning haqiqiy soniga ko'paytirish lozim (75-jadval).

75-jadval

Ishchilarning ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Korrektirovka qilingan ko'rsatkich	Hisobot davri	Farqi (+,-)	
				Mutlaq, ming so'mda	Nisbiy, %
1. Ishchilarning yillik ish haqi fondi, ming so'mda	95672	111123	184569	+88897	+73446
2. Ishchilarni ro'yxat bo'yicha o'rtacha soni, kishi	617	717	599	-18	-118
3. 1 ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi, so'm	155060	154983	308128	+153068	+153145
4. Ish haqi fondini bazis davriga nisbatan o'zgarish sabablari:	x	x	x	+88897	x
a) mahsulot hajmini o'zgarishi hisobiga $95672 * 16,15 \setminus 100$	x	x	x	+15451	
b) Ishchilar (nisbiy) sonini o'zgarishi hisobiga $-118 * 154983$	x	x	x	-18288	x
d) Bir ishchining o'rtacha yillik ish haqini o'zgarishi hisobiga $+153068 * 599$	x	x	x	+91688	x

Izoh: Mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi – 116, 15 %

75-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida o'rganilayotgan davrda ishchilarning ish haqi fondidan rejaga nisbatan 88897 ming so'm ortiqcha sarfga yo'l qo'yilgan. Mahsulot ishlab chiqarish hajmini o'sishini hisobga olgan

holda esa 73446 ming so‘m ortiqcha sarfga yo‘l qo‘yilgan. Ish haqi fondini mutlaq farqi mahsulot ishlab chiqarish hajmini o‘sishi hamda 1 ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish haqini rejaga nisbatan ortishi bilan izohlanadi. Ishchilar sonini nisbatan 118 kishiga qisqarishi ish haqi fondidan 18288 ming so‘m miqdorida iqtisod qilinishiga olib keldi. Tahlil davomida har bir ishchiga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha yillik ish haqi rejaga nisbatan 153068 so‘mga o‘sish sabablari aniqlanadi. O‘rtacha yillik ish haqini ortishi ishchini mahsulot ishlab chiqarish bo‘yicha belgilangan normani ortig‘i bilan bajarishi, hamda ish haqi tarkibidagi unumsiz xarajatlar mavjudligi tufayli yuz beradi. Bundan tashqari bir ishchining o‘rtacha yillik ish haqining o‘zgarishi hisobiga ishchilarning ish haqi fondiga 91688 ming so‘mlik ta’sir etgan. Korxonada joriy yilda ishchilarning moliyaviy ahvoriga bir qadar e’tibor kuchayganligini hamda ularning moddiy holati yaxshilanganligini ko‘rishimiz mumkin.

8.8. Material xarajatlariga «sarf me’yori» va «material bahosi» o‘zgarishi ta’sirining tahlili

Ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibida asosiy ulushni bevosita material xarajatlari tashkil etadi. Ularning salmog‘i ayrim sanoat korxonalarida salkam 60-80 % tashkil etadi. Shu jihatdan, material xarajatlarining o‘zgarishi va o‘zgarish sabablarini o‘rganishdagi muhim vazifa, ularni (mahsulot hajmining kamayishiga yo‘l qo‘ymagan holda) iqtisod qilish va ulardan samarali foydalanishdir. Yengil sanoatda mahsulot tannarxida materiallar xarajati yuqori salmoqqa (60-80 %) ega. Shu bois tannarxni pasaytirish rezervlarini aniqlash maqsadida material xarajatini rejaga nisbatan o‘zgarish sabablari aniqlanmog‘i lozim. Tahlil uchun kerakli ma’lumotlar «Mahsulot kalkulyatsiyasi»dan olinadi. Bu hisobot shaklida mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan materiallar turlari, ularni miqdori, material bahosi keltirilgan. Mahsulot birligi uchun sarflangan materiallar xarajatini aniqlash uchun mahsulot birligiga sarflangan materiallar miqdorini material bahosiga ko‘paytirish lozim. *Tahlil etishda haqiqiy materiallar xarajati reja bilan taqqoslanib ular o‘rtasidagi farqiga quyidagi omillar ta’siri hisoblanadi.*

1. Materiallar miqdorini o‘zgarishi (sarf me’yori).
2. Materiallar bahosini o‘zgarishi (bahoni o‘zgarishi).

Bu omillarni materiallar xarajatiga bo‘lgan ta’sirini zanjirli

bogʻlanish usuli orqali aniqlash mumkin. ***Buning uchun materiallar xarajati 3 xil koʻrinishga ega boʻlishi lozim.***

1. Rejadagi materiallar xarajati (rejadagi sarf meʼyori rejadagi bahoda).

2. Haqiqiy materiallar xarajati (haqiqiy sarf meʼyori haqiqiy bahoda).

3. Shartli material xarajati (haqiqiy sarf meʼyori rejadagi material bahosi boʻyicha).

Har 3 koʻrsatkichni bir-biri bilan taqqoslash orqali materiallar xarajatiga sarf meʼyorini hamda material bahosining oʻzgarishini taʼsiri hisoblab topiladi. Materiallarning oʻrindosh qiymatlari bilan almashirilishi va hokazo omillar taʼsiri ham, albatta, ushbu ikki omil taʼsirida hisob-kitob qilinadi. Omillar taʼsirini aniqlashda iqtisodiy tahlilning bogʻlanish va aloqadorlik uchun mos boʻlgan usullari qoʻllaniladi.

Material xarajatlar mahsulot hajmining oʻzgarishiga taʼsir qiluvchi oʻzgaruvchan xarajatlar hisoblanadi. Shu sababli ularning oʻzgarishini oʻrganishda, albatta, oʻzaro aloqadorlik darajasiga ham ahamiyat berish talab etiladi. Bunda har bir soʻmlik mahsulot hajmiga toʻgʻri keladigan yoki ishlab chiqarish xarajatlarining material sigʻimi koʻrsatkichlariga muhim eʼtibor berilishi lozim.

Material xarajatlar oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillarning bir necha jihatini keltirish mumkin, lekin hisob-kitob qilinadigan ikki omilni farqlash lozim. Bular, material xarajatlar sarf meʼyori hamda material xarajatlar bahosining oʻzgarishidir. Barcha omillar taʼsirini shu ikki omil vositasida hisoblash mumkin. Bu yerda meʼyor oʻzgarishiga miqdoriy birlik, baho taʼsirini esa sifat birligi deb qaralishi ham mumkin.

76-jadval

Oshxona servizini ishlab chiqarish uchun materiallar xarajati

Materiallar	Biznes-reja			Haqiqatda		
	sarf meʼyori, kg	material bahosi, soʻm	material xarajati, soʻm	sarf meʼyori, miqdori kg	material bahosi, soʻm	material xarajati, soʻm
Loy	3,35	1529	5122,1	3,50	1500	5250
Kaolin	15,16	1369	20754	15,26	1380	21058,8
Dala shpati	-	-	480	-	-	480
Kvars	5,44	1184	6440,9	5,54	1190	6592,6
Pegmatit	-	-	444	-	-	444
Jami:	X	X	33241	X	X	33841,4

Oshxona servizini ishlab chiqarish uchun materiallar xarajati 33841,4 so‘mni tashkil etib biznes-rejaga nisbatan 600,4 so‘m ortiqcha sarfga yo‘l qo‘yilgan. Materiallar xarajatini o‘zgarishiga omillar ta’sirini zanjirli bog‘lanish usuli orqali aniqlaymiz.

77-jadval

Materiallar xarajatiga «sarf me’yori» va «material bahosi» o‘zgarishlarining ta’siri tahlili

Materiallar	Materiallar xarajati, so‘m			Farqi (+,-)		
	Reja, rejadagi sarf me’yori reja bahosida	Haqiqatda, haqiqiy sarf me’yori haqiqiy bahoda	Shartli, haqiqiy sarf me’yori reja bahosida	Jami: gr2 – gr1	shu jumladan o‘zgarishi	
					sarf me’yori gr3-gr1	material bahosi gr2-gr3
Loy	5122,1	5250	5351,5	+127,9	+229,4	-101,5
Kaolin	20754	21058,8	20890,9	+304,8	+136,9	+167,9
Dala shpati	480	480	480	-	-	-
Kvars	6440,9	6592,6	6559,3	+151,7	+1184	+33,3
Pechmatit	444	460	460	+16	+16	-
Jami:	33241	33841,4	33741,7	+600,4	+500,7	+99,7

Sarf me’yoriga rioya qilmaslik tufayli materiallar xarajati rejaga nisbatan 500,7 so‘mga ortgan. Barcha material turlari bo‘yicha mahsulot birligi uchun sarflangan materiallar miqdori rejaga nisbatan yuqori bo‘lgan. Materiallar bahosining o‘zgarishi tufayli materiallar xarajati 99,7 so‘mga ortgan.

Mahsulot tannarxidagi materiallar xarajatlarini pasaytirish uchun qimmatbaho materiallarni arzoni bilan almashtirish (mahsulot sifatiga putur yetkazmagan holda), ikkilamchi resurslardan keng foydalanish, xomashyoga ishlov beruvchi zamonaviy ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, materiallarni transport – tayyorlov xarajatlarini pasaytirishning optimal variantlarini qo‘llash, kadrlar malakasini oshirish lozim.

Sarf me’yorining o‘zgarishiga, asosan, quyidagilar ta’sir ko‘rsatishi mumkin:

1. Dastgohlar texnik jihatdan nosozligi.
2. Xomashyo sifati.
3. Ishchining malakasi.

Material bahosi o‘zgarishiga quyidagi sabablar ta’sir ko‘rsatadi:

1. Xomashyo yetkazuvchi bazalarni uzoq yoki yaqin joylashganligi.
2. Transport turlarini o‘zgarishi.
3. Davlat tomonidan material narxini o‘zgartirilishi.

8.9. Mahsulot turlari bo'yicha tannarxning tahlili va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Alohida mahsulot turlari bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish va mahsulotlar tannarxini aniqlash, moliyaviy natijaga daxldor bo'lgan elementlarni iqtisodiy jarayonlarning turi, o'rni, joyi va javobgarlik bo'yicha hisobga olinishi va nazorat qilinishi korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini boshqarishda muhim hisoblanadi. Alohida olingan mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxini aniqlashga hisob-kitoblarning muhim obyekt sifatida qaraladi. Bunda mahsulot tannarxining to'g'ri aniqlanishiga ahamiyat beriladi. Mahsulotlar tannarxini aniqlash va hisobga olish, moliyaviy natijaviylikni tarkibli o'rganish bilan birga, foydaning shakllanish qatorlarini to'g'ri baholash imkonini beradi. Bir xildagi mahsulot turlarini ishlab chiqaradigan korxonalarda mahsulot tannarxini qiyosiy tahlili va uning natijalari iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qiladi.

Alohida olingan mahsulotlar tannarxining tahlili xarajatlarni iqtisodiy elementlari bo'yicha emas, balki, xarajat moddalari bo'yicha o'rganishni, ularning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho berishni hamda o'zgarish sabablarini o'rganishni tavsiflaydi. Mahsulot ishlab chiqarishning kalkulyatsiya moddalari ishlab chiqarish va texnologiya jarayonlari xususiyatiga bog'liq. Sanoat korxonalaridagi kalkulyatsiya moddalari tarkibini bir xil ko'rinishga ega bo'lishi tannarxni umumiy hajmda va moddalari bo'yicha tahlil etish imkoniyati tug'iladi. Bunday tahlil bozor iqtisodiyoti sharoitida mahsulot birligiga belgilanadigan narxni aniqlashda foyda va rentabellikni oshirishda muhim o'rin tutadi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish tannarxiga va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni xarajat moddalarining har bir turi bo'yicha alohida tarkiblash mumkin. Masalan, material xarajatlari yoki xomashyo xarajatlari qatori bo'yicha xarajatlari o'zgarishiga moddiy sarflar me'yoring o'zgarishi, ularni sotib olish baholarining o'zgarishi ta'sir qilsa, mehnat haqi xarajatlarining o'zgarishida ishchilar soni va bir xodimga to'g'ri keladigan ish haqlarining o'zgarishi ta'sir qiladi. Amortizatsiya xarajatlari bo'yicha ham xuddi shu shaklda tarkiblashni aytib o'tish mumkin, ya'ni amortizatsiyalangan qiymatning o'zgarishi, amortizatsiya me'yorlari, shuningdek, amortizatsiya ajratmalari ajratiladigan asosiy vositalar turi, salmog'iga bog'liq va hokazolar. Omillar ta'sirini aniqlashda har bir ta'sir birligi alohida va boshqa omillar ta'sirisiz o'rganiladi.

Mahsulot birligining ishlab chiqarish xarajatlari tahlili

Xarajat moddalari	Korxonada 1		Korxonada 2	
	Mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat, soʻmda	Jamiga nisbatan salmogʻi, %	Mahsulot birligi uchun sarflangan xarajat, soʻmda	Jamiga nisbatan salmogʻi, %
1. Xomashyo va materiallar xarajati	304	27,6	231,7	22,5
2. Yarimfabrikat xarajatlari	100	9,0	154,5	15,0
3. Yoqilgʻi va energiya xarajatlari	62	5,6	63,9	6,2
4. Ish haqi xarajatlari	273	24,8	219,4	21,3
5. Ijtimoiy sugʻurta ajratmalari	55	5,0	55,6	5,4
6. Brakdan koʻrilgan zarar	25	2,3	30,9	3,0
7. Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	281	25,7	274	26,6
Jami ishlab chiqarish xarajatlari	1100	100,0	1030	100,0

Jadval maʼlumotlari shuni koʻrsatadiki, «A» mahsulotini ishlab chiqarish uchun sarflangan xarajatlar ikkinchi korxonada birinchi korxonaga qaraganda 70 soʻm iqtisod qilingan. Har bir xarajat moddasini bir-biri bilan taqqoslash ularning strukturasi oʻrganish tufayli shunday xulosaga kelish mumkin: 2-korxonada chetdan keltirilgan yarimfabrikat, tayyor detall va mahsulotni boshqa qismlari 1-korxonaga nisbatan koʻproq keltirilishi mahsulot tannarxidagi mehnat haqi xarajatlarini ulushini 1-korxonadagi 24,8 foizdan 2-korxonada 21,3 foizga qisqartirishga erishilgan. Shu tufayli 2-korxonada strukturaviy oʻzgarishlar tufayli tannarx 70 soʻmga pasaygan.

8.10. Mahsulot tannarxini pasaytirish rezervlarini aniqlash usuli

Korxonada boʻyicha mahsulot tannarxini pasaytirish maqsadida mahsulotning ayrim turlari kalkulyatsiya moddalarini rejadagi koʻrsatkichlar bilan taqqoslash orqali ortiqcha xarajatga yoʻl qoʻyilish sabablari aniqlanadi va ularni pasaytirish yoʻllari belgilanadi.

Bir xil ixtisosga ega bo'lgan korxonada ma'lumotlari bilan ham taqqoslash orqali korxonani erishgan yutuq va kamchiliklari aniqlanadi. Mahsulot birligi tannarxi quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$S_1 = \frac{A_1}{VBP_1} - B_1,$$

bunda S_1 - mahsulot birligi tannarxi;

A_1 - doimiy xarajat summasi;

VBP_1 - mahsulot ishlab chiqarish hajmi;

B_1 - mahsulot birligi tannarxidagi o'zgaruvchan xarajat.

79-jadval

«A» turdagi mahsulot tannarxiga tegishli manbalar

Ko'rsatkichlar	Shartli belgi	Reja	Haqiqatda	Rejadan farqi
1. Mahsulot hajmi, dona	VBP_1	6760	6040	-720
2. Doimiy xarajatlar, ming so'm	A_1	7912	8056	+144
3. O'zgaruvchan xarajatlar, so'm	B_1	3800	4100	+300
4. Mahsulot birligi tannarxi, so'm	C_1	4970,4	5433,7	+463,3

Mahsulot birligi tannarxi

$$\text{Reja bo'yicha} = \frac{7912}{6760} + 3800 = 4970,4 \text{ so'm}$$

$$\text{Haqiqatda} = \frac{8056}{6040} + 4100 = 5433,7 \text{ so'm}$$

80-jadval

Mahsulot birligi tannarxiga omillar ta'sirini zanjirli bog'lanish usuli orqali aniqlash

Almashuv davriyligi	Omillar			Mahsulot birligi tannarxi, S_1
	VBP_1	A_1	B_1	
I - reja	Reja 6760	Reja 7912	Reja 3800	Reja 4970,4
II – shartli №1	Haq 6040	Reja 7912	Reja 3800	Shartli №1 5110
III – shartli № 2	Haq 6040	Haq 8056	Reja 3800	Shartli №2 5133,7
IV – haqiqatda	Haq 6040	Haq 8056	Haq 4100	Haqiqatda 5433,7

Mahsulot birligi tannarxini rejadan farqi $5433,7 - 4970,4 = +463,3$

Shu jumladan:

a) mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi

$$5110 - 4970,4 = +139,6 \text{ so'm};$$

b) doimiy xarajat summasining o'zgarishi

$$5133,7 - 5110 = +23,7 \text{ so'm};$$

d) o'zgaruvchan xarajat summasining o'zgarishi

$$5433,7 - 5133,7 = +300 \text{ so'm}.$$

Hisob-kitoblar to'g'riligini tekshirish:

$$+139,6 + 23,7 + 300 = +463,3 \text{ so'm}.$$

$$5433,7 - 4970,4 = +463,3 \text{ so'm}.$$

Mahsulot tannarxini pasaytirishning ($R \downarrow S$) asosiy manbalari quyidagilardan iborat:

1) korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish tufayli mahsulot hajmini oshirish ($R \uparrow VBP$);

2) mehnat unumdorligini oshirish, xomashyo, material, elektr energiya, yoqilg'i, uskunalardan iqtisod rejimiga rioya qilgan holda foydalanish, unumsiz xarajatlarni bartaraf etish, brakka yo'l qo'ymaslik hisobiga ishlab chiqarish xarajatlarini ($P \downarrow 3$) qisqartirish.

Mahsulot birligi tannarxini pasaytirish rezervi formula orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$R \downarrow S = S_b - S_1 = \frac{3_1 - P \downarrow 3 + 3q}{VBP_1 + R \uparrow VBP} - \frac{3_1}{VBP_1}$$

Bunda:

S_b, S_1 - mahsulot birligini ko'zlangan va haqiqiy tannarxi;

3_1 - mahsulot ishlab chiqarish uchun haqiqatda qilingan xarajat;

3_q - mahsulot hajmini oshirish bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar;

$VBP_1, R \uparrow VBP$ - haqiqatdagi ishlab chiqarilgan mahsulot va mahsulot ishlab chiqarishni oshirish rezervi.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervi – ishlab chiqarish dasturi bajarilishini tahlil etish orqali aniqlanadi. Mahsulot hajmini ortishi tufayli xarajatlarni o'zgaruvchan qismi (ishchilarning ish haqi, material xarajatlari va boshqa xarajatlar) ortgan holda, xarajatlarni o'zgarmas qismi turg'un holatda saqlanadi va shu tufayli tannarxni pasayishiga erishiladi.

Xarajatlarni qisqartirish rezervi har bir xarajat moddalari bo'yicha innovatsiyani (yangi texnika, ilg'or texnologiyalarni qo'llash, mehnatni tashkil etishni takomillashtirish), pullash orqali ish haqi, xomashyo, material, energiyalarni qisqartirilishiga erishiladi.

Mehnat haqi xarajatlaridan iqtisod ($R \downarrow 3P$) mahsulot mehnat sig'imini pasaytirishga qaratilgan choralarni qo'llashgacha (TE_o) va qo'llashdan so'ng aniqlangan mahsulot mehnat sig'imi (TE_1)ni farqi rejadagi bir soatlik ish haqi (OT_{pl}) va reja bo'yicha mahsulot hajmi (VPB_{pl}) ko'paytmalaridan hosil bo'ladi

$$R \downarrow 3P = \varepsilon(TE_1 - TE_o) \cdot OT_{pl} \cdot VPB_{pl}$$

Materiallar xarajatini qisqartirish rezervlari ($P \downarrow M3$) rejalashtirilgan mahsulot hajmi bo'yicha material xarajatlarini pasaytirish rezervlari yangi texnologiya va boshqa choralarni qo'llash orqali quyidagicha aniqlanadi.

$$R \downarrow M3 = \varepsilon(YR_1 - YR_o) \cdot VBR_{pl} \cdot TS_{pl},$$

bunda YR_1, YR_o - innovatsiya choralarni qo'llashga qadar, qo'llashdan keyin mahsulot birligi uchun materiallar xarajati;

TS_{pl} - rejadagi material bahosi.

Asosiy vositalarni saqlash xarajatlarini qisqartirish rezervlari, keraksiz, ortiqcha, ishlatilmay kelinayotgan bino, mashina, uskunalarni sotish, uzoq muddatli ijaraga berish orqali rezervlar ($P \downarrow OC$) asosiy vositalarni dastlabki qiymatini uning amortizatsiya normasi (NA) ga ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$P \downarrow A = \varepsilon(P \downarrow OC_i \cdot NA_i)$$

Mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish rezervlari bo'yicha qo'shimcha xarajatlar mahsulotning har bir turi bo'yicha aniqlanadi. Bunday xarajatlarga qo'shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan ortiqcha ish haqi, xomashyo, material, energiya va mahsulot hajmiga bog'liq boshqa o'zgaruvchan xarajatlar kiradi. Qo'shimcha xarajatlar mahsulotning har bir turi bo'yicha aniqlangan rezervlar haqiqatdagi o'zgaruvchan xarajatlar ulush darajasiga ko'paytmasidan hosil bo'ladi.

$$3q = P \uparrow VBP_i \cdot b_{i1}$$

Misol, A mahsulotini ishlab chiqarish hajmi 13300 dona, uni oshirish rezervi – 1500 dona, jami ishlab chiqarish uchun qilingan

xarajat - 63840 ming so‘m; xarajat moddalarini qisqartirish rezervlari – 2130 ming so‘m; qo‘shimcha ishlab chiqarilgan mahsulot uchun sarflangan ortiqcha o‘zgaruvchan xarajatlar – 4890 ming so‘m (1500·3260), demak, mahsulot birligi tannarxini pasaytirish rezervi 0,3 ming so‘mni tashkil etadi.

$$R \downarrow S = \frac{63840 - 2130 + 4890}{13300 + 1500} - \frac{63840}{13300} = 4,5 - 4,8 = -0,3$$

Rezervlarni bunday tartibdagi hisob – kitobi mahsulotning har bir turi, imkoniyat chegarasida innovatsiya choralari bo‘yicha ham alohida aniqlanishi maqsadga muvofiqdir.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- tannarx to‘g‘risida tushuncha va uni hisoblash uslublari;
- tannarx tahlil etishning mazmuni va maqsadi;
- xarajatlarni turkumlash;
- o‘zgaruvchan va o‘zgarmas xarajatlar;
- mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar;
- mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar;
- 1 so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarini tahlil etish uslublari;
- 1 so‘mlik mahsulot uchun qilingan xarajatlarga ta’sir etuvchi omillar;
- xarajatlarni iqtisodiy elementi bo‘yicha tahlil etish uslublari;
- ish haqini bank usuli orqali nazorat qilish tartibi;
- ish haqini mutlaq farqini aniqlash uslublari;
- ish haqini nisbiy farqini aniqlash uslublari;
- ishchilar ish haqi fondiga ta’sir etuvchi omillarning hisoblash uslublari;
- mehnat unumdorligi bilan o‘rtacha ish haqini tahlil etish uslublari;
- materiallar xarajatini tahlili;
- sarf me‘yorini ta’sirini aniqlash tartibi;
- material bahosining o‘zgarish sabablari;
- ishlab chiqarish yo‘nalishidagi boshqa xarajatlarni tahlil etish uslublari;
- ayrim mahsulot turlari tannarxini tahlil etish uslublari;
- mahsulot tannarxini pasaytirish bo‘yicha rezervlarni aniqlash tartibi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Mahsulot tannarxi deganda nimani tushunasiz?
2. Sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini tahlil etishning ahamiyati nimadan iborat?
3. Mahsulot tannarxini tahlil etishda boshqaruv tahlilining asosiy vazifalari nimalardan iborat bo'ladi?
4. Mahsulot tannarxini tahlil etishda foydalaniladigan asosiy axborot manbalari nimalardan iborat?
5. Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajat qanday aniqlanadi?
6. Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalari qanday tahlil etiladi?
7. Mahsulot tannarxiga qo'shiladigan material xarajatlari qanday tahlil etiladi?
8. Mehnat haqi xarajatlari va unga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?
9. Mehnat unumdorligi bilan o'rtacha ish haqi o'rtasidagi nisbat qanday tahlil qilinadi?
10. Material bahosining o'zgarishini mahsulot tannarxiga ta'siri qanday tahlil etiladi?
11. Mahsulot tannarxida amortizatsiya xarajatlarining tutgan o'rnini nimalardan iborat?
12. Tannarxga qo'shiladigan boshqa turdagi xarajatlari qanday tahlil etiladi?
13. Ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish yo'llarini ko'rsatib bering.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Korxonada ma'lumotlariga tayangan holda bir so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlarni o'rganing, tahlil qiling va xulosa yozing?

Asosiy faoliyat turi bo'yicha (ming so'm)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr xos raqami	Hisobot davrida	
		Chorak	Yil boshidan
Ishlab chiqarilgan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) amaldagi narxi (qo'shimcha qiymat va aktsiz solig'isiz)	011	131408	453781
Xarajatlar – jami (satrlar yig'indisi 013, 040, 061, 070)	012	125304	437297
1. Ishlab chiqarilgan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi (satrlar yig'indisi 014, 024, 025, 026, 028)	013	105797	369696
Shu jumladan: Ishlab chiqarilgan moddiy xarajatlar (qaytadan chiqindilarni chegirgan holda) (satrlar yig'indisi 015, 017, 018, 021, 022, 023)	014	98062	340452
Ulardan: Xomashyo va materiallar (xarid qilinadigan)	015	94522	329069
Ulardan: materiallar	016		
Chet tashkilotlar bajargan ishlab chiqarish tarzidagi ishlar va xizmatlar	017	196	645
Tabiiy xomashyo	018	221	412
Shu jumladan: Korxonalarining suv xo'jaligi tizimidan oladigan suvga to'laydigan haq (me'yor doirasida va undan ortiq)	019	221	412
Yerlarni rekultivatsiya qilish uchun ajratmalar	020		
Chetdan olinadigan barcha turdagi yoqilg'i	021	1418	5039
Xarid qilinadigan barcha turdagi energiya	022	1705	5287
Boshqa ishlab chiqarish moddiy xarajatlari	023		
Ishlab chiqarish tarzidagi ish haqi to'lash xarajatlari (sutkaliksiz)	024	5292	20235
Ishlab chiqarish ijtimoiy sug'urta ajratmalari	025	1965	7697
Asosiy vositalar va ishlab chiqarish nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	026	267	1101
Ulardan: Nomoddiy aktivlar	027		
Ishlab chiqarishning boshqa turdagi xarajatlari (satrlar yig'indisi 029, 030, 032 dan 037 gacha)	028	211	211

Mahsulot hajmi -o'tgan yil-314720

Biznes-reja ma'lumotlari

№	Ko'rsatkichlar	Summasi
1.	Tovar mahsuloti ulgurji bahosi, ming so'mda	403810
2.	Sotilgan mahsulot, ming so'mda	406813
3.	Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i, ming so'mda	3456
4.	Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i, ming so'mda	453
5.	Mahsulot hajmi, ming so'mda: - amaldagi bahoda - solishtirma bahoda	412314 403810
6.	Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi	361421

2-topshiriq.

1-topshiriq. ma'lumotlariga tayangan holda 1 so'mlik mahsulot hajmiga to'g'ri keladigan xarajatlarni pasaytirish rejasini bajarilishi va uning natijasida erishilgan iqtisodiy natijalarni aniqlang va tahlil eting?

3- topshiriq

Ishlab chiqarish xarajatlarini iqtisodiy elementlar bo'yicha tahlilini qiling va xulosa yozing?

Korxonalar sarf-xarajatlari to'g'risidagi hisobot

1. Asosiy faoliyat turi bo'yicha (ming so'm)

Ko'rsatkichlar nomi	Satr xos raqami	Hisobot davrida	
		Chorak	Yil boshidan
1	2	3	4
Ishlab chiqarilgan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) amaldagi narxi (qo'shimcha qiymat solig'i va aksizsiz)	011	131408	453781
Xarajatlar – jami (satrlar yig'indisi 013, 040, 061, 070)	012	125304	437297
1. Ishlab chiqarilgan mahsulotning (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish tannarxi (satrlar yig'indisi 014, 024, 025, 026, 028)	013	105797	369696
Shu jumladan: Ishlab chiqarilgan moddiy xarajatlar (qaytadan chiqindilarni chegirgan holda) (satrlar yig'indisi 015, 017, 018, 021, 022, 023)	014	98062	340452
Ulardan: Xomashyo va materiallar (xarid qilinadigan)	015	94522	329069
Ulardan: materiallar	016		
Chet tashkilotlar bajargan ishlab chiqarish tarzidagi ishlar va xizmatlar	017	196	645
Tabiiy xomashyo	018	221	412
Shu jumladan: Korxonalarining suv xo'jaligi tizimidan oladigan suvga to'laydigan haq (me'yor doirasida va undan ortiq)	019	221	412
Yerlarni rekultivatsiya qilish uchun ajratmalar	020		
Chetdan olinadigan barcha turdagi yoqilg'i	021	1418	5039
Xarid qilinadigan barcha turdagi energiya	022	1705	5287
Boshqa ishlab chiqarish moddiy xarajatlari	023		
Ishlab chiqarish tarzidagi ish haqi to'lash xarajatlari (sutkaliksiz)	024	5292	20235
Ishlab chiqarish ijtimoiy sug'urta ajratmalari	025	1965	7697
Asosiy vositalar va ishlab chiqarish nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi	026	267	1101
Ulardan: Nomoddiy aktivlar	027		

1	2	3	4
Ishlab chiqarishning boshqa turdagi xarajatlari (satrlar yig'indisi 029, 030, 032 dan 037 gacha)	028	211	211
Shu jumladan: Ishlab chiqarish ishchilari va aktivlarini majburiy sug'urta qilish	029		
Xizmat safari xarajatlari	030		
Ulardan: Kundalik xarajatlar	031		
Boshqaruvning texnik vositalari, aloqa tarmoqlari, hisoblash markazlarini saqlash va ularga xizmat ko'rsatish	032		
Idoradan tashqari yong'inga qarshi va qo'riqlash xizmati	033		
Ta'mirlash ishlari zaxirasiga ajratmalar	034		
Joriy ijara bo'yicha xarajatlar: Mulikka	035		
Yerni	036		
Ishlab chiqarish jarayoniga oid boshqa xarajatlar	037		
2. Davr xarajatlari – jami (satrlar yig'indisi 041, 045, 053, 059)	040	17965	60015
Shu jumladan: Sotish xarajatlari – jami (satrlar yig'indisi 042, 043, 044)	041	456	940
Shu jumladan: Mahsulot tashish xarajatlari (tovarlar)	042	-	1
Marketing va reklama xarajatlari	043		
Sotish bo'yicha boshqa xarajatlar	044	456	939
Ma'muriy xarajatlar – jami (satrlar yig'indisi 046, 047, 049 dan 052 gacha)	045	5000	17586
Shu jumladan: Boshqaruv xodimlariga ish haqi to'lash xarajatlari	046	2245	8705
Xizmat safari xarajatlari	047		
Ulardan kundalik xarajatlar	048		
Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar (boshqaruv xodimlar)	049	816	3256
Ma'muriy asosiy vositalar amortizatsiyasi	050	43	181
Ishlab chiqarish jarayoniga aloqador bo'lmagan mol-mulk va xodimlarni majburiy sug'urta qilish	051		
Boshqa ma'muriy sarf-xarajatlar	052	1896	5444
Boshqa muomala sarf-xarajatlari – jami (sotr yig'indisi 054, 055, 056, 057, 058)	053	12509	41489
Shu jumladan: Budjetga majburiy to'lovlar, soliq va yig'imlar	054	4383	11210
Budjetdan tashqari maxsus fondlarga ajratmalar (ijtimoiy sug'urta ajratmalaridan tashqari)	055	2841	9855
Nomoddiy xizmatlar va banklar xizmatiga to'lovlar	056	1893	7582
Ijtimoiy to'lovlar	057	529	529
Boshqa muomala xarajatlari	058	2863	12313
Boshqa davr xarajatlari	059		
Ulardan: Ixtiro va ratsionalizatorlik takliflari uchun mukofot berish	060		
3. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar – jami (satrlar yig'indisi 062 dan 067 gacha).	061	1542	7586

1	2	3	4
Shu jumladan: Stavkalar doirasida va ularning hisobdagi miqdoridan ortiq bank kreditlari xizmati to'lovlari	062	1542	7586
Uzoq muddatli mulk ijarasi yuzasidan foiz to'lovlari xarajatlari	063		
Yerdan foydalanganlik uchun ijara to'lovi	064		
Chet el valutasi muomalalari bo'yicha salbiy qiymatli farq va zarar	065		
Qimmatli qog'ozlarni chiqarish va tarqatish xarajatlari	066		
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar	067		
4. Favqulodda zarar	070		
Ma'lumot uchun: Umumiy xarajatlardan kapital ta'mirlash xarajatlarni (012 satr) ajratib ko'rsatish kerak: Bino va inshootlarni	074		
Mashina va asbob-uskunalarni	075		
O'sish (+) yoki kamayish (-) hisob bo'yicha qoldiq «Qilinadigan sarf-xarajatlar va to'lovlar zaxirasi»	076		
«Kelgusi davr sarf-xarajatlari» hisobi bo'yicha qoldiqning o'sishi (+) yoki kamayishi (-)	077	+1647	-212
Korxonada mablag'lari hisobidan ijtimoiy yordamlar	078	529	529
Noishlab chiqarish hisobiga hisobdan chiqarildi ^x	079		
Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldiqlarining o'zgarishi, mahsulot qiymatini qo'shmagan holda ^x	080		
Mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmiga kiritiladigan zavod ichki aylanmasi ^x	081		
Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish xarajatlariga kiritiladigan korxonaning ichki aylanmasi ^x	082		

2. Asosiy bo'lmagan faoliyat turlari bo'yicha (ming so'm)

Faoliyat turlari	Satr xos raqami	Ishlab chiqarilgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) narxi	Xarajatlari jami
1	2	3	4
Sanoat	085		
Qishloq xo'jaligi	086		
Shu jumladan: Baliqchilik xo'jaligi	087		
O'rmon xo'jaligi	088		
Transport va aloqa	089		
Qurilish	090		
Savdo va umumovqatlanish	091	3200	940
Shu jumladan: Tashqi savdo	092		
Moddiy texnik ta'minot va savdo	093		
Tayyorlov	094		
Axborot - hisoblash xizmati	095		
Ko'chmas mulk bilan bog'liq muomalalar	096		

1	2	3	4
Bozor ishlab turishini ta'minlashga doir umumiy tijoriy faoliyat	097		
Boshqa faoliyat turlari	098		
Asosiy bo'lmagan faoliyat turlari bo'yicha – jami (satrlar yig'indisi 085, 086, 088, 089, 090, 091, 093, 094, 095, 096, 097, 098)	099	3200	940

Ma'lumot uchun: (yilga to'ldiriladi):

Ko'rsatkichlar nomi	Satr xos raqami	Xarajat summasi
2 ustun 014 – satrdan yuk tashish bo'yicha chet tashkilotlar ko'rsatgan xizmatlar	110	
2 ustun 017 satrdan – chet tashkilotlar bajargan ishlab chiqarish tarzidagi ishlar va xizmatlar: bino va inshootlarni joriy ta'mirlash	120	
Bino va inshootlarni kapital ta'mirlash	130	
Mashina va asbob-uskunalarni ta'mirlash	140	

O'tgan yil ma'lumotlari

	Xarajat elementlari	Summasi
1	Moddiy xarajatlar	346024
2	Mehnat haqi xarajatlari	18103
3	Mehnat haqidan ajratmalar	7241
4	Amortizatsiya xarajatlari	1916
5	Boshqa ishlab chiqarish xarajatlari	1037

4-topshiriq.

Korxonada ma'lumotlari asosida sanoat ishlab chiqarish xodimlarini mehnat haqi fondi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qiling?

	Ko'rsatkichlar	Summasi
1	Sanoat ishlab chiqarish xodimlarining ish haqi fondi, ming so'mda: - o'tgan yili - hisobot yili	18103 20235
2	Ishchilarni yillik ish haqi fondi, ming so'mda: - o'tgan yili - hisobot yili	16419,3 17214,8
3	Mehnat resurslarining tarkibi, kishi (o'tgan yilida): - ishchilar - xizmatchilar - rahbar xodimlar - mutaxassislar - jami sanoat ishlab chiqarish xodimlari	95 13 9 4 121

Biznes-reja ma'lumotlari

№	Ko'rsatkichlar	Summasi
1	2	3
1.	Tovar mahsuloti ulgurji bahosi, ming so'mda	403810
2.	Sotilgan mahsulot, ming so'mda	406813
3.	Tayyor mahsulotning yil boshiga qoldig'i, ming so'mda	3456
4.	Tayyor mahsulotning yil oxiriga qoldig'i, ming so'mda	453
5.	Mahsulot hajmi, ming so'mda: - amaldagi bahoda - solishtirma bahoda	412314 403810
6.	mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, ming so'mda	375617
7.	ishchilarni yillik ish haqi fondi, ming so'mda	17114,2
8.	mehnat resurslarining tarkibi, kishi: - ishchilar - xizmatchilar - rahbar xodimlar - mutaxassislar - jami sanoat ishlab chiqarish xodimlari	98 12 5 4 119

Test savollari:

1. Mahsulot tannarxi nima?

- a) me'yoriy ishlab chiqarish xarajatlarning puldagi ifodasi;
- b) to'g'ri va egri xarajatlarning puldagi ifodasi;
- d) bevosita va bilvosita xarajatlarning puldagi ifodasi;
- e) mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan barcha doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarning puldagi ifodasi.

2. Mahsulot tannarxi qanday xarajatlardan tashkil topadi?

- a) to'g'ri va egri xarajatlar;
- b) bevosita va bilvosita xarajatlar;
- d) doimiy va o'zgaruvchan xarajatlar;
- e) me'yor bo'yicha ishlab chiqarish xarajatlari.

3. O'zgaruvchan xarajatlar deb qanday xarajatlarga aytiladi?

- a) mahsulot hajmini o'zgarishiga bog'liq tarzda o'zgaruvchi xarajatlarga aytiladi;
- b) to'g'ri va egri xarajatlarga aytiladi;
- d) bevosita va bilvosita xarajatlarga aytiladi;
- e) barcha turdagi ishlab chiqarish xarajatlariga aytiladi.

4. Ishlab chiqarish tannarxi xarajat elementlari bo'yicha qanday guruhlariga bo'linadi?

- a) moddiy xarajatlar, mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta, amortizatsiya ajratmalari, ishlab chiqarish xarakteridagi boshqa xarajatlar;

b) xomashyo, yoqilg'i, energiya sarflari; xodimlarni ish haqi, asosiy vosita va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, reklama xarajatlari;

d) ish haqi, amortizatsiya ajratmalari, safar xarajatlari va boshqa xarajatlar;

e) moddiy xarajatlar, mehnat haqi, ijtimoiy sug'urta va amortizatsiya ajratmalari.

5. Mahsulot tannarxini xarajat elementlari bo'yicha tahlil qilishdan asosiy maqsad nimadan iborat?

a) mahsulot turlari bo'yicha xarajatlar o'zgarishiga baho berish;

b) xarajatlar o'zgarishini nazorat etish;

d) moddiy resurslarga bo'lgan talabni aniqlash uchun;

e) ishlab chiqarish xarajatlarida xarajat elementlari salmog'i va o'zgarishiga baho berish.

6. Bir so'mlik mahsulot uchun qilingan xarajat qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda}}$;

b) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Mahsulot hajmi amaldagi ulgurji bahoda}}$;

d) $\frac{\text{Mahsulot hajmi amaldagi bahosi}}{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}$;

e) $\frac{\text{Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi}}{\text{Mahsulot sotishdan kelgan tushum}}$.

7. Ish haqini nisbiy farqi qanday aniqlanadi?

a) hisobot davrida sarflangan ish haqidan bazis davridagi ish haqi fondini ayirish orqali aniqlanadi;

b) hisobot davrida sarflangan ish haqi bazis davridagi ish haqi fondini mahsulot ishlab chiqarish indeksiga ko'paytmasidan hosil bo'lgan ko'rsatkich bilan taqqoslash orqali aniqlanadi;

d) ishchi va xizmatchilarga sarflangan ish haqi bazis davridagi ish haqi fondi bilan taqqoslanadi;

e) ish haqining bazis davridan mutlaq farqini foizda ifodalanishidir.

8. Doimiy xarajatlar deb qanday xarajatlarga aytiladi?

a) mahsulot hajmining o'zgarishiga bog'liq bo'lmagan xarajatlarga aytiladi;

b) davr xarajatlariga aytiladi;

- d) ma'muriy va boshqaruv xarajatlariga aytiladi;
- e) barcha turdagi ish haqi xarajatlariga aytiladi.

9. Ishchilarning yillik ish haqi fondiga qanday omillar ta'sir etadi?

- a) mahsulot ishlab chiqarish hajmi, xodimlar soni, xodimlarning o'rtacha yillik ish haqi;
- b) mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ishchilar soni, ishchini o'rtacha yillik ish haqi;
- d) mahsulot sotish hajmi, ishchilar soni, ishchini o'rtacha yillik ish haqi;
- e) mahsulot ishlab chiqarish hajmi, ishchilarni nisbiy farqi, bir ishchiga to'g'ri keladigan o'rtacha yillik ish haqi.

10. Davr xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?

- a) sotish xarajatlari, ma'muriy boshqaruv xarajatlari;
- b) umumsex va umumkorxonalar xarajatlari;
- d) amortizatsiya, telefon uchun to'lov, ijara haqi;
- e) sotish xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, muomala xarajatlari, tijorat va boshqa umumxo'jalik xarajatlari;

11. Bir so'mlik mahsulotga qilingan ishlab chiqarish xarajatlari aniqlang:

Ko'rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi (+,-)
1. Mahsulot ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	22610	28400	+5790
2. Mahsulot hajmi, amaldagi bahoda, ming so'm	28400	32600	+4200
3. 1 so'mlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajat, tiyin	?	?	?

- a) 78,6; 87,1; +8,5.
- b) 79,6; 87,1; +7,5.
- d) 80,4; 86,4; +6.
- e) 82,2; 86,4; +4,2.

12. Mahsulot tannarxining o'zgarishiga qanday omillar ta'sir qiladi?

- a) materiallar bahosi, tarkibi, tuzilmasining o'zgarishi;
- b) ish haqining o'zgarishi;
- d) material xarajatlari bahosi tarkibining o'zgarishi, me'yor o'zgarishi;
- e) noto'g'ri javob yo'q.

III BO‘LIM. MOLIYAVIY TAHLIL

IX BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING MOLIYAVIY HOLATI TAHLILI

9.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini o‘rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari

Mustaqillik, bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida turli mulk shaklidagi korxonalar faoliyatiga to‘liq erkinlik berdi. Ayniqsa, savdo-sotiqqa nisbatan erkin munosabat yuritish, hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish uchun sherik tanlay bilish, o‘zi ishlab chiqargan mahsulot va uni sotishdan olgan daromadga to‘liq egalik qilish huquqini berdi va bu moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘zgarishiga bevosita ta’sir etadi.

Yangicha ish yuritish, jumladan, tashqi va ichki bozordan tajribali mijoz va hamroh tanlash bilan birga ularning moliyaviy imkoniyatlarini o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

Korxonalarining xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish, ularning ishlarini yaxshilash, samaradorligini oshirishning muhim omili bo‘lib kelgan va shunday bo‘lib qoladi. Xo‘jalik faoliyatini tahlil qilish korxonalarining ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish darajasini aniqlashga yodam beradi, foydalanilmagan resurslarni aniqlab; korxonalarining kelgusida rivojlanishi, ularning moliyaviy holatini yaxshilash uchun zarur tavsiyalarni ishlab chiqishga imkon beradi.

Respublikamiz iqtisodiyotini bozor munosabatlariga o‘tkazish bilan korxonalar xo‘jalik faoliyatini tahlil qilishni ahamiyati yanada ortdi, chunki bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarishga joriy etilmagan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanish dolzarb muammoga aylanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi, rivojlanishi ko‘p ukladli bozor iqtisodiyotini barpo etish, har xil shakldagi biznesni va ishbi-

larmonlikni rivojlantirish shunga olib keladiki, korxonalar faoliyatini moliyaviy natijalari – foyda va rentabellik korxonalar faoliyatini asosiy ko‘rsatkichlariga aylanadi.

Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o‘tayotgan bir sharoitda, iqtisodiyot sektorlarining uzluksiz faoliyat yuritishi va barqaror rivojlanishi muhim hisoblanadi. Mustaqil mamlakatimiz dastlabki yillardanoq sobiq ittifoq respublikalari singari rejali va markazlashtirilgan iqtisodiyotdan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun qadam qo‘ya boshladi. Mustaqillik yillarida respublikamizda iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishga katta e‘tibor qaratib kelinmoqda. Respublikamiz bozor iqtisodiyotiga o‘tishda o‘ziga xos va mos bo‘lgan bosqichma-bosqich hamda kuchli ijtimoiy muhofaza qilish yo‘lini tanladi.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki bosqichida iqtisodiyotni isloh qilishning g‘oyat muhim yo‘nalishlarini belgilab beruvchi asosiy ustuvor yo‘nalishlar belgilab olindi. Shu jihatdan, O‘zbekistonda isloh qilish – mulkdorlar sinfini shakllantirish masalasini tubdan hal etish bilan belgilanadi. Mazkur masalalarni to‘g‘ri mushohada qilgan holda Prezidentimiz I.Karimov shunday degan edi: - «Oldimizda turgan birinchi va asosiy vazifa - bu izchil iqtisodiy o‘sish, chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni mukammallashtirish va ilg‘or texnologiyalar bilan qayta qurollantirishning bosh sharti bo‘lgan makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlikka erishish muammosidir».¹ deb ta’kidlagan. Bu, Respublika iqtisodiyotida faoliyat yuritayotgan barcha soha korxonalari foyda ko‘rish maqsadida, bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqarishi yoki xizmat ko‘rsatishini talab etadi.

Shu jihatdan qaraganda, korxonalarining barqaror faoliyat yuritishida, ishlab chiqarish jarayonining barcha elementlari, shu jumladan, buxgalteriya hisobi, audit va iqtisodiy tahlil mukammal ishlashi kerak. Iqtisodiyot sektorida bozor munosabatlarini chuqurlashtirish ushbu sohada iqtisodiy islohotlarni yanada jadallashtirishni taqozo etadi. Shu sababli, moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlilini takomillashtirish, uni barcha sektorlarning tuzilmasiga va o‘zgarishlariga mos tarzda qayta qurish, korxonaning moliyaviy-iqtisodiy holatini o‘rganish va nazorat qilishning maqsadli shaklini ishlab chiqish hamda qaror toptirish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi. Shu

¹ И.Каримов. «Ўзбекистон иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида». Т.: «Ўзбекистон». 1995 й.

jihatdan ham, keyingi yillarda respublikamizda boshqaruv va moliyaviy tahlilga e'tibor kuchaygan. Bu esa bu borada ilmiy tadqiqotlar olib borishni hamda zamonaviy iqtisodchi mutaxassislar tayyorlashni taqozo etmoqda.

Ushbu holatni hisobga oladigan bo'lsak, korxonalarining moliyaviy holatini baholash va uning tahlilini to'g'ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi bozor iqtisodiyotining eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim bo'ladi. Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etish orqali uni yanada sog'lomlashtirish imkoniyatlariga baho beriladi hamda moliyaviy mustahkamligi kuchaytiriladi.

Agar ilgari korxonalarining xo'jalik faoliyatini, ularning moliyaviy holatini tahlil qilish bilan faqat moliya, bank, statistika organlari va yuqori tashkilotlar shug'ullangan bo'lsalar, endilikda bu ish bilan yuqorida ko'rsatilgan tashkilotlardan tashqari soliq organlari, auditorlik idoralari, jamoa tashkilotlari, aksionerlar, ta'minlovchilar, iste'molchilar va boshqa organlar, tashkilotlar ham shug'ullanishmoqda.

Bu holat moliyaviy tahlil, jumladan, uni bajarish uslubi oldiga yangi talablar qo'yimoqda.

Ma'lumki, sobiq ittifoq davrida korxonalar xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, jumladan, korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishning uslubiy masalalari markazda - butun ittifoq organlari tomonidan ishlab chiqilgan va muammolar yechilgan ittifoqdosh respublikalarga foydalanish uchun jo'natilgan.

Sobiq ittifoqning parchalanishi tufayli ittifoqdosh respublikalar mustaqil davlatlarga aylandi, ulardan har bittasi bozor munosabatlariga o'tish uchun o'z yo'lini tanlab, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni davom ettirib, bozor iqtisodiyotini shakllantirmoqda. Ular orasida O'zbekiston ham o'zining bozor iqtisodiyotiga o'tish modelini ishlab chiqib, xalq xo'jaligini bozor munosabatlari sharoitida rivojlantirgan holda ijobiy natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarni huquqiy bazasini tashkil qiluvchi Respublika Qonunlari, Prezident Farmonlari va Qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining yuzlab qarorlari qabul qilindi va qabul qilinmoqda.

Respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng asosiy yo'nalishlaridan biri - bu boshqaruv tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Bu masalani ijobiy hal etishda korxonalarining xo'jalik faoliyati va moliyaviy holatini tahlil qilish muhim rol o'ynaydi, chunki korxonalar faoliyatini tahlil qilish boshqaruv tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

Bozor munosabatlari davrida bu shartning asosiy qismi korxonalar moliyaviy holatining tahlili hisoblanadi. Respublikada yangi moliyaviy hisobot shakllari qabul qilindi, ularni o'rganish va ulardan keng foydalanish uslublarini barpo etish muhim ahamiyatga ega.

Bozor munosabatlari davrida respublikada bu masalani yechish maqsadida moliyaviy tahlil uslubiyatini takomillashtirish uchun bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda, lekin bu borada hali yechilmagan muammolar ham kam emas. Moliyaviy tahlil o'tkazishdan manfaatdor tashkilotlar, organlar, mutaxassislar hali ham ilmiy, ham amaliy nuqtayi nazardan asoslangan uslub bilan ta'minlanmagan. Bu holat, albatta bozor munosabatlarini shakllantirish davrida korxonalar va tashkilotlarga samarali boshqaruvchilik qilishda salbiy rol o'ynamoqda.

Moliyaviy holat davlat, tashkilot va shaxslar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq pul hisob – kitoblarini ifodalaydi. Moliyaviy holat korxonani mablag' bilan ta'minlanganligi, barcha turdagi mablag'larni maqsadga muvofiq yo'nalishi va ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi, budjet, bank, xomashyo yetkazib beruvchilar, xaridorlar va boshqa tashkilotlar bilan olib boriladigan hisob-kitob holati bilan xarakterlanadi. Korxonani moliyaviy holati barqaror, nobarqaror va krizis darajasida bo'lishi mumkin. Moliyaviy barqarorlikka ega bo'lgan korxonalarda ishchi va xizmatchilar bilan ish haqi, budjet, bank, mol yetkazib beruvchilar bilan bo'ladigan hisob – kitob ishlari o'z muddatida amalga oshiriladi. Moliyaviy intizomga rioya qilmaslik, debitorlik va kreditorlik qarzlarni ortib ketishiga olib keladi va muddati uzaytirilgan qarzlarni surunkali davom etishi bankrotlik alomatlarini vujudga keltiradi.

Korxonalarining moliyaviy holati bu –

- kompleks ravishdagi tushuncha bo'lib, u o'z ichiga keng ko'rsatkichlar tizimini oladi, ular korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligini va ulardan foydalanish darajasini ifodalaydi;

- korxonalar faoliyatidagi butun ishlab chiqarish va xo'jalik omillarining harakati, ularning o'zaro aloqadorlik natijasidir;

- korxonalarining mo'tadil ishlab chiqarish, tadbirkorlik va boshqa faoliyati uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslar bilan ta'minlanganligi va ulardan samarali foydalanish ifodasi;

- korxonalarining boshqa xo'jalik subyektlari, organlari va tashkilotlari bilan o'zaro aloqalarni haqiqiy aks ettirishidir.

Korxonalarining ichki va tashqi omillar ta'siri ostida shakllangan

moliyaviy holati, ularning istiqbolini aniqlash bilan birga, bu korxonalar bilan aloqada bo'lgan boshqa tashkilotlar va korxonalarining moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatadi. Korxonalarining ishlab chiqarish, xo'jalik faoliyatini, jumladan, ularning moliyaviy holati tahlili asosini bir butun kompleks iqtisodiy fanlar: iqtisodiy nazariya, makro va mikro iqtisodiyot, menejment va marketing, statistika, buxgalteriya hisobi, audit, moliya, kredit, pul muomalasi va boshqalar tashkil etadi, demak, tahlilchi mutaxassis-auditorlar keng iqtisodiy ilmga ega bo'lishlari lozim.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil qilish, ya'ni moliyaviy tahlil – bu keng ko'rsatkichlar yordamida, kompleks usullaridan foydalanib korxonalarining moliyaviy resurslari borligini, holatini, joylashganligi va ulardan foydalanish darajasini ifodalashdir.

Moliyaviy tahlil ko'p qirrali murakkab jarayon bo'lib, u tashkil qilinishi, buning uchun esa bir qator talablarga asoslanishi kerak. Bu talablar quyidagilardan iborat:

- absolut va nisbiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi aloqalarni borligini bilish;

- moliyaviy tahlil mobaynida absolut va nisbiy ko'rsatkichlardan birgalikda foydalanish;

- moliyaviy tahlil mantiqiy ravishda amalga oshirilib, u induktiv usulga - alohida hodisalardan umumiy hodisalarga o'tish, moliyaviy holatning bir shakl ko'rinishidan umumiy ko'rinishga o'tish va deduktiv usulga – umumiy hodisalardan alohida hodisalarga o'tishga asoslanib tahlil qilish;

- hamma foydalanilayotgan ko'rsatkichlar bir xil, asoslangan usulda aniqlanishi lozim;

- moliyaviy holatni tahlil qilishda tahlil qilinayotgan korxonalar ko'rsatkichlarini boshqa korxonalar, o'rtacha tarmoq ko'rsatkichlari va ilg'or korxonalar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash;

- moliyaviy tahlilning har tomonlama bo'lishligi va korxonalarining umumiy moliyaviy holatiga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil etish;

- moliyaviy tahlilni samarali o'tkazish uchun kerakli ma'lumotlarni oldindan tayyorlash va bu borada asosiy tasdiqlangan moliyaviy manbalar bilan cheklanmasdan birlamchi buxgalteriya hisobi ma'lumotlaridan foydalanish;

- moliyaviy tahlil obyektiv ravishda tashkil qilinib, u korxonalarining moliyaviy holati real darajasini ifodalashi lozim;

- moliyaviy tahlil o'z vaqtida o'tkazilib, tahlil yakunlariga

asoslanib, moliyaviy holatni yaxshilash choralarini o‘z vaqtida amalga oshirishga imkon berish;

- moliyaviy tahlil kompleks ravishda o‘tkazilib, unda moliyaviy holatning hamma shakl va yo‘nalishlari ifodalanishi lozim;

- moliyaviy tahlil o‘z vaqtida va haqqoniy o‘tkazilishi moliyaviy holatni ko‘tarishga bag‘ishlangan tadbirlarni ishlab chiqib, ularni amalga oshirishga imkon berishi kerak;

- moliyaviy holatni tahlil qilish shunday vaqtda o‘tkazilishi kerakki, tahlil yakunlari quyidagi maqsadni amalga oshirib, korxonada boshqaruv faoliyatini takomillashtirish imkoniyatini tug‘dirishi lozim;

- moliyaviy tahlil barcha yig‘ilgan va umumlashtirilgan ma‘lumotlarga asoslanib, kerakli ko‘rsatkichlardan foydalanib, bu ko‘rsatkichlarning asosliligi to‘g‘ri usullarda aniqlanishi lozim.

Moliyaviy tahlil quyidagi xususiyatlarga ega:

- moliyaviy tahlilning natijalaridan hamma foydalanishi mumkin;
- moliyaviy tahlilning subyektlari va bu tahlilning yakunlaridan foydalanuvchi organ, korxonada, tashkilotlar tarkibi keng;

- moliyaviy tahlil hamma uchun moslangan, nashr etilgan hisobot ma‘lumotlariga asoslanadi;

- moliyaviy tahlil korxonalar ichki boshqaruv muammolarini yechish uchun o‘tkaziladi;

- moliyaviy tahlilning yo‘nalishi moliyaviy hisobot ma‘lumotlari bilan cheklangan bo‘lib, unda chegaralangan aniq bir vazifalar yechiladi. Bu moliyaviy mustahkamlik, balans likvidligi, foyda, rentabellik darajasi va boshqalardir.

Ko‘rinib turibdiki, korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilish keng miqyosda va aniq vazifalarni bajarish uchun o‘tkaziladi. Korxonalarni ishlab chiqarish, xo‘jalik faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilish uchun an‘anaviy, qadimdan qo‘llanilib kelinayotgan usullar bilan birga, keng tarzda statistika usullari, moliyaviy holatni ifodalovchi ma‘lumotlarni yig‘ish va umumlashtirish, statistik kuzatishlarni o‘tkazish, absolut, nisbiy, o‘rtacha, dinamik ko‘rsatkichlardan foydalanish, dinamik qatorlardan, iqtisodiy indekslar tizimidan, omillararo korrelatsiya aloqalarini aniqlash, jadval va chizma tizimidan foydalanish lozim.

Moliyaviy tahlil ko‘p qirrali murakkab va muhim bo‘lganligi sababli u bir qancha talablarga asoslangan bo‘lishi lozim. ***Yuqorida ko‘rilgan talablarga asoslanib, moliyaviy tahlil korxonalarning moliyaviy holatini tahlil qilishda quyidagi vazifalarni bajarishga yo‘naltirilishi lozim:***

1. Korxonalarining moliyaviy darajasini baholash.
2. Moliyaviy holatning o'zgarishini aniqlash.
3. Korxonaning to'lov qobiliyatiga baho berish.
4. Moliyaviy holatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tahlil qilish.
5. Korxonaning moliyaviy barqarorligi va moliyaviy mustahkamligiga baho berish.
6. Korxonalar balansini likvidligiga baho berish va unga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash.
7. Aylanma mablag'lar aylanishiga baho berish.
8. Korxonalarda qo'lga kiritilgan moliyaviy holat darajasini ifodalab, bu borada hali foydalanilmagan imkoniyatlarni, mavjud zaxiralarni ko'rsatib berish.
9. Korxonalarda hali foydalanilmagan imkoniyatlarni safarbar etish maqsadida tavsiyalar, takliflar ishlab chiqish va ularni amalga oshirish shart-sharoitlarini ko'rsatib berish.

Bajariladigan vazifalar shuni ko'rsatayaptiki, moliyaviy holatni tahlil qilish korxonalarda shakllanayotgan boshqaruv tizimini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega. Moliyaviy tahlil boshlanmasdan tahlilning obyektlari va predmetlari aniqlanishi lozim. Moliyaviy tahlilning asosiy obyekti, xo'jalik subyektlari, alohida korxonalar, tashkilotlar hisoblanadi, lekin moliyaviy holat korxonalar guruhi, ishlab chiqarish tarmoqlari miqyosida ham aniqlanishi mumkin.

Moliyaviy tahlilning yo'naltirilganligi nuqtayi nazardan moliyaviy tahlil quyidagi shakllarda o'tkazilishi mumkin:

- gorizontallikda hisobot davridagi moliyaviy holatni ifodalovchi ko'rsatkichlar o'tgan davr bilan taqqoslanadi, ya'ni bu ko'rsatkichlarning dinamikasi aniqlanadi;
- vertikal tahlilida moliyaviy holatga taalluqli bo'lgan ko'rsatkichlarning tarkibiy tuzilmasi o'rganiladi. Masalan, korxonalar mablag'larining yoki ularni qoplovchi manbalarning hisobot davridagi tarkibi va uni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi ifodalanadi;
- nisbiy ko'rsatkichlar tahlilida moliyaviy holat ko'rsatkichlari o'rtasidagi aloqa o'rganiladi. Masalan korxonalar mablag'larining va ularning manbalari o'rtasidagi aloqa, moliyaviy resurslar va ulardan foydalanish o'rtasidagi aloqa ifodalanadi;
- taqqoslash tahlilida korxonalar bo'yicha moliyaviy holat uning alohida kichik bo'limlari moliyaviy holati bilan taqqoslanadi, bu korxonalar moliyaviy holati boshqa korxonalar moliyaviy holati

bilan solishtiriladi va pirovardida, omillar tahlilida korxonaning moliyaviy holatiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar tahlil etiladi.

Korxonalar faoliyatini o'rganishda buxgalteriya hisoboti asosiy manba bo'lib xizmat qiladi. Ular moliyaviy ma'lumotlarning umumlash-tirilishi natijasida tuziladi hamkorlikda ishlovchilar o'rtasida bir-birini o'rganish vositasi bo'ladi.

Hisobot ma'lumotlari asosida korxonalar faoliyatini o'rganishga qiziquvchilarni shartli ravishda bevosita va bilvosita talabgorlarga ajratish mumkin. Birinchi guruhga mulk egalari, qarz beruvchi, mol yetkazib beruvchi, xaridorlar, soliqchilar, moliyachilar, korxonalar ishchi va rahbar xodimlari kiradi. Har bir qiziquvchi o'zining manfaati va talabiga qarab moliyaviy hisobotlarni tahlil etadi. Mulki egasi sarmoyadan qanchalik samarali foydalanilayotganligi, qo'shma olinadigan daromad summasi bilan qiziqsa, qarz beruvchi berilgan mablag'ni qaytarib olish imkoniyatini oldindan bilishga harakat qiladi. Bilvosita qiziquvchi iste'molchilarga auditorlik firmalari, birjalar, assotsiatsiya vakillari, matbuot xodimlari, kasaba uyushmalari va boshqalar kiradi. Ular moliyaviy holatga aloqador bo'lmasada, birinchi guruh talabgorlarining manfaatini himoyalash maqsadida hisobot ma'lumotlarini o'rganadilar.

Moliyaviy ma'lumotlardan foydalangan holda korxonalar faoliyatiga to'g'ri baho berish muhim vazifadir. Ushbu kitobda buxgalteriya hisoboti asosida korxonalar faoliyatining moliyaviy tahlilini o'tkazish uslubi bayon etilgan. U moliyaviy hisobotni o'rganishga qiziquvchi tadbirkorlar, soliq, moliya, bank tizimi xodimlari va keng kitobxonlar ommasiga uchun mo'ljallangan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida jamoa, qo'shma, kichik, hissadorlik, xususiy va boshqa shakldagi mulkka ega bo'lgan korxonalar moliyaviy ahvolini o'rganishning mazmuni shundan iboratki, bunda o'z vaqtida pul tushumlarining kelishi, hisoblashish intizomiga rioya qilish, xususiy va qarz mablag'larining to'g'ri nisbatga bo'lishini ta'minlash, moliyaviy tartib va intizomga, barcha ishlab chiqarish bo'g'inlarida iqtisod va tejamkorlikka rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalarining moliyaviy holati ko'p jihatdan - baho, kredit, foyda va uni iqtisodiy taqsimlanish mexanizmiga bog'liqdir. Barqarorlik bo'lgan joyda barcha xo'jalik muomalalari va hisob-kitoblar o'z vaqtida bajariladi. Shu bois, bozor, sharoitida har qanday korxonaning moliyaviy ahvolini bilish va o'rganishga e'tibor kuchaymoqda.

Korxonalarining moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat bo‘ladi:

- korxonaning moliyaviy ahvolini har tomonlama o‘rganib, uning holatiga aniq va xolisona baho berish;
- mablag‘ va manbalarning joylanishini tekshirish, ularni to‘g‘ri yo‘nalishda ishlatilganligini aniqlash;
- hisoblashish ishlarining o‘z muddatida bajarilganligi, debitor va kreditorlik qarzlari tarkibini o‘rganish;
- korxonaning o‘ziga qarashli mablag‘lari bilan qarz mablag‘lari o‘rtasidagi nisbat va aylanma mablag‘larni manba bilan ta’minlanganligini tekshirish;
- moliyaviy intizomga qanchalik amal qilishni aniqlash va to‘lov qobiliyatiga baho berish;
- korxonada mulkning kadrligi va tez pulga aylana olish darajasini o‘rganish;
- aylanma mablag‘lardan foydalanishga baho berish va korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo‘yicha takliflar bayon etish va hokazo.

Tahlilning asosiy maqsadi – moliyaviy faoliyatdagi yutuq va kamchiliklarni aniqlab, mablag‘lardan yanada to‘g‘ri foydalangan holda hisob-kitob tartibini mustahkamlashga qaratiladi. Demak, bu mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, xarajatlarni tejash, pul-moliya aloqalari va boshqa faoliyatlarning bir-biriga bog‘liqligini ko‘rsatadi. Moliyaviy tahlilni bajarishda zarur bo‘ladigan manbalarga korxonada balans, unga qilingan ilovalar va boshqa hisobot ma’lumotlari kiradi. Shuningdek, buxgalteriyaning sintetik va analitik schetlari ma’lumotlaridan ham keng foydalanish lozim, chunki keyingi yillarda tuziladigan hisobotlarning hajmi qisqarib, tahlil imkoniyatlarini chegaralashga olib kelmoqda. Ayniqsa, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish, maxsus va maqsadli mablag‘lar, zaxira jamg‘armasi, foyda va zararlar, turli xil hisob-kitoblar, qimmatli qog‘oz va veksellar bo‘yicha ma’lumotlardan ko‘proq foydalaniladi. Bular xo‘jalik faoliyatining to‘g‘ri boshqarilishi, uning moliyaviy barqaror bo‘lishi va to‘lov qobiliyatining yaxshilanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

9.2. Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi

Balans – korxonada mablag‘lari va qoplash manbalarining ma’lum davrdagi holatini ko‘rsatadi. Hisob-kitob ishlarini xalqaro an’anaviy talablar bo‘yicha yuritishga o‘z bo‘lsada yaqinlashtirilishi hamda 1997-

yilda joriy qilingan va korxonalar tuzadigan yangi buxgalteriya balansi bozor iqtisodi sari qo'yilgan dastlabki qadam edi. Mazkur balans yillar davomida amaliyotda qo'llanildi va uni takomillashtirish xalqaro standartlarga moslashtirish zaruriyati tug'ildi. Shu sababli ham 2002-yilda yangi schotlarga asoslangan moliyaviy hisobot shakllari, jumladan, buxgalteriya balansi qabul qilindi. Bugungi kunda mazkur balans amalda keng qo'llanilmoqda.

Zamonaviy ish yuritish shart-sharoitiga mos keluvchi balansda aktiv va passiv tomonlar bo'ladi. Aktiv tomonida korxonalar mablag'lari, passivida esa xo'jalikning o'ziga tegishli manbalar, kreditga va qarzga olingan boshqa manbalar ko'rsatiladi. Aktiv mablag'larning oshishi, passivdagi manbalar va foyda (daromad)ning ko'payishi bilan bog'liqdir. Balansning barcha bo'lim va bandlarini chuqur o'rganish moliyaviy ahvolni to'liq o'zlashtirishning asosini tashkil qiladi. Quyida bugungi kunda amalda bo'lgan, ya'ni 2002-yil 27-dekabrda tasdiqlangan buxgalteriya balansining kengaytirilgan shakli keltirilgan.

**O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining 2002-yil 27-dekabrda
140-sonli buyrug‘iga 1-sonli ilova**

**Приложение №1
к приказу Министерства финансов Республики Узбекистан от
27 декабря 2002 года №140**

**BUXGALTERIYA BALANSI (1-sonli shakl)
БУХГАЛТЕРСКИЙ БАЛАНС (форма №1)**

_____ 200_ yilga		Kodlar
на _____ 200_ год	BHUT bo‘yicha 1-shakl	0710001
Korxonalar, tashkilot _____	KTUT bo‘yicha	
Tarmoq _____	XXTUT bo‘yicha	
Tashkiliy-huquqiy _____ shakli	TShT bo‘yicha	
_____ shakli	MShT bo‘yicha	
Vazirlik, idora va boshqalar _____	DBIBT bo‘yicha	
Soliq to‘lovchining identifikatsion raqami _____	STIR	
Hudud _____	MHOBT	
Manzil _____	Jo‘natilgan sana	
O‘lchov birligi, ming so‘m _____	qabul qilingan sana	
Taqdim qilish muddati _____		

Ko'rsatkichlar nomi Наименование показателя	Satr raqami Код стр.	Hisobot davri boshiga На начало отчетного периода	Hisobot davri oxiriga На конец отчетного периода
1	2	3	4
A K T I V			
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR ДОЛГОСРОЧНЫЕ АКТИВИ			
Asosiy vositalar: Основные средства:			
Boshlang'ich (tiklanish) qiymat (0100, 0300) Первоначальная (восстановительная) стоимость	010	541379,4	1003973,9
Eskirish summasi (0200) Сумма износа	011	171122,1	313624,7
qoldiq (balans) qiymat (010-011 satr) Остаточная (балансовая) стоимость	012	370257,3	690349,2
Nomoddiy aktivlar: Нематериальные активы:			
Boshlang'ich qiymat (0400) Первоначальная стоимость	020	575,0	575,0
Amortizatsiya summasi (0500) Сумма амортизации	021	230,0	339,2
qoldiq (balans) qiymat (020-021 satr) Остаточная (балансовая) стоимость	022	345,0	235,8
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (040+050+060+070+080 satrlar), shu jumladan: Долгосрочные инвестиции, всего (040+050+060+070+080), в том числе:	030	-	-
qimmatli qog'ozlar (0610) Ценные бумаги	040	-	-
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620) Инвестиции в дочерние хозяйственные общества	050	-	-
qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630) Инвестиции в зависимые хозяйственные общества	060	-	-
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investitsiyalar (0640) Инвестиции в предприятие с иностранным капиталом	070	-	-
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690) Прочие долгосрочные инвестиции	080	-	-
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700) Оборудование к установке	090	-	-
Kapital qo'yilmalar (0800) Капитальные вложения	100	-	-

1	2	3	4
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940) Долгосрочная дебиторская задолженность	110	-	-
Shundan: muddati kechiktirilganlari Из неё: просроченная	111	-	-
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990) Долгосрочные отсроченные расходы	120	-	-
I bo'lim bo'yicha jami (012+022+030+090+100+110+120 satrlar) Итого по разделу I (стр. 012+022+030+090+100+110+120)	130	370602,3	690585,0
JORIY AKTIVLAR II. ТЕКУЩИЕ АКТИВЫ			
Tovar-moddiy zahiralari, jami (150+160+170+180 satrlar), shu jumladan: Товарно-материальные запасы, всего (стр. 150+160+170+180), в том числе:	140	499131,5	361443,8
Ishlab chiqarish zahiralari (1000, 1100, 1500, 1600) Производственные запасы	150	157974,4	94010,4
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700) Незавершенное производство	160	105937,0	-
Tayuor mahsulot (2800) Готовая продукция	170	235220,1	267433,4
Tovarlari (2900 dan 2980 ning ayirmasi) Товары	180	-	-
Kelgusi davr xarajatlari (3100) Расходы будущих периодов	190	204758,2	165726,3
Muddati kechiktirilgan xarajatlar (3200) Отсроченные расходы	200	-	-
Debitorlar, jami (220+230+240+250+260+270+280+290+300+310 satrlar) Дебиторы, всего (стр. 220+230+240+250+260+270+280+290+300+310)	210	84386,9	61630,7
Shulardan: muddati o'tgani (kechiktirilganlari) Из неё: просроченная	211	-	-
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi) Задолженность покупателей и заказчиков	220	65455,8	61630,7
Alohida bo'linmalarining qarzlari (4110) Задолженность обособленных подразделений	230	-	-
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120) Задолженность дочерних и зависимых хозяйственных обществ	240	-	-
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200) Авансы, выданные персоналу	250	-	-

1	2	3	4
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300) Авансы, выданные поставщикам и подрядчикам	260	-	-
Budjetga soliqlar va yig'imglar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400) Авансовые платежи по налогам и сборам в бюджет	270	-	-
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500) Авансовые платежи в государственные целевые фонды и по страхованию	280	-	-
Ta'sischiarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari (4600) Задолженность учредителей по вкладам в уставной капитал	290	-	-
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (4700) Задолженность персонала по прочим операциям	300	-	-
Boshqa debitorlik qarzlari (4800) Прочие дебиторские задолженности	310	18931,1	-
Pul mablag'lari, jami (330+340+350+360 satrlar), shu jumladan: Денежные средства, всего (стр. 330+340+350+360), в том числе:	320	23168,6	23871,2
Kassadagi pul mablag'lari (5000) Денежные средства в кассе	330	-	-
Hisob-kitob varag'idagi pul mablag'lari (5100) Денежные средства на расчетном счете	340	23168,6	23871,2
Xorijiy valutadagi pul mablag'lari (5200) Денежные средства в иностранной валюте	350	-	-
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar (5500, 5600, 5700) Прочие денежные средства и эквиваленты	360	-	-
qisqa muddatli investitsiyalar (5800) Краткосрочные инвестиции	370	-	-
Boshqa joriy aktivlar (5900) Прочие текущие активы	380	-	-
II-bo'lim bo'yicha jami (140+190+200+210+320+370+380 satrlar) Итого по разделу II (стр. 140+190+200+210+320+370+380)	390	811455,2	612672,0
BALANS AKTIVI BO'YICHA JAMI (130+390 satrlar) ВСЕГО ПО АКТИВУ БАЛАНСА (стр. 130+390)	400	1182047,5	1303257,0
P A S S I V			
O'Z MABLAG'LARI MANBALARI I. ИСТОЧНИКИ СОБСТВЕННЫХ СРЕДСТВ			
Ustav kapitali (8300) Уставный капитал	410	27590,0	27590,0

1	2	3	4
qo'shilgan kapital (8400) Добавленный капитал	420	9021,7	9021,7
Rezerv (zaxira) kapital (8500) Резервный капитал	430	298311,3	623718,1
Sotib olingan o'z aksiyalari (8600) Выкупленные собственные акции	440	-	-
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700) Нераспределенная прибыль (непокрытый убыток)	450	-62807,7	-62807,7
Maqsadli tushumlar (8800) Целевые поступления	460	-	-
Bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari (8900) Резервы предстоящих расходов и платежей	470	-	-
<i>I-bo'lim bo'yicha jami</i> <i>(410+420+430+440+450+460+470 satrlar)</i> <i>Итого по разделу II</i> <i>(стр. 410+420+430+440+450+460+470)</i>	480	272115,3	597522,1
MAJBURIYATLAR II. ОБЯЗАТЕЛЬСТВА			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+510+520+530+540+550+560+570+580+590 satrlar) Долгосрочные обязательства, всего	490	10471,4	25269,8
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (500+520+540+560+590 satrlar) В том числе: долгосрочная кредиторская задолженность	491	-	-
Ulardan: muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari Из неё: просроченная долгосрочная кредиторская задолженность	492	-	-
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari (7000) Долгосрочная задолженность поставщикам и подрядчикам	500	10471,4	25269,8
Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzlari (7110) Долгосрочная задолженность обособленным подразделениям	510	-	-
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari (7120) Долгосрочная задолженность дочерним и зависимым хозяйственным обществам	520	-	-
Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar (7210, 7220, 7230) Долгосрочные отсроченные доходы	530	-	-
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar (7240) Долгосрочные отсроченные обязательства по налогам и обязательным платежам	540	-	-

1	2	3	4
Muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar (7250, 7290) Прочие долгосрочные отсроченные обязательства	550	-	-
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300) Авансы, полученные от покупателей и заказчиков	560	-	-
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810) Долгосрочные банковские кредиты	570	-	-
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840) Долгосрочные займы	580	-	-
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900) Прочие долгосрочные кредиторские задолженности	590	-	-
Joriy majburiyatlar, jami (610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760 satrlar) Текущие обязательства, всего (стр.610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720+730+740+750+760)	600	899460,8	680465,1
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (610+630+650+670+680+690+700+710+720+760 satrlar) В том числе: текущая кредиторская задолженность (стр.610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601	899460,8	680465,1
Ulardan: muddati o'tgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari Из неё: просроченная текущая кредиторская задолженность	602	-	-
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (6000) Задолженность поставщиками и подрядчикам	610	885163,4	658079,7
Alohida bo'linmalardan qarzlari (6110) Задолженность обособленным подразделениям	620	-	-
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan qarzlari (6120) Задолженность дочерним и зависимым хозяйственным обществам	630	-	-
Muddati kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230) Отсроченные доходы	640	-	-
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (6240) Отсроченные обязательства по налогам и обязательным платежам	650	-	-
Muddati o'tgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar (6250, 6290) Прочие отсроченные обязательства	660	-	-
Olingan bo'naklar (6300) Полученные авансы	670	-	-

1	2	3	4
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlar (6400) Задолженность по платежам в бюджет	680	12325,4	20746,5
Sug'urtalash bo'yicha qarzlar (6510) Задолженность по страхованию	690	1022,6	685,3
Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlar (6520) Задолженность по платежам в государственные целевые фонды	700	214,4	370,9
Ta'sisчилarga qarzlar (6600) Задолженность учредителям	710	-	-
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlar (6700) Задолженность по оплате труда	720	735	578,6
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810) Краткосрочные банковские кредиты	730	-	-
Qisqa muddatli qarzlar (6820, 6830, 6840) Краткосрочные займы	740	-	-
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950) Текущая часть долгосрочных обязательств	750	-	-
Boshqa kreditorlik qarzlari (6900, bundan 6959 mustasno) Прочие кредиторские задолженности	760	-	4,1
II bo'lim bo'yicha jami (490+600 satrlar) Итого по разделу II (стр. 490+600)	770	909932,2	705734,9
BALANS PASSIVI BO'YICHA JAMI (480+770 satrlar) ВСЕГО ПО ПАССИВУ БАЛАНСА (стр. 480+770)		1182047,5	1303257,0

Balansdan tashqari schotlarda hisobga olinadigan qiymatliklarning mavjudligi to'g'risida ma'lumot

Справка о наличии ценностей, учитываемых на забалансовых счетах

Ко'rsatkichlar nomi Наименование показателя	Satr kodi Код строки	Hisobot davri boshiga На начало отчетного периода	Hisobot davri oxiriga На конец отчетного периода
1	2	3	4
qisqa muddatli ijaraga olingan asosiy vositalar (001) Основные средства, полученные по краткосрочной аренде (001)	790		
Mas'ul saqlashga qabul qilingan tovar-moddiy qiymatliklar (002) Товарно-материальные ценности, принятые на ответственное хранение (002)	800		

1	2	3	4
qayta ishlashga qabul qilingan materiallar (003) Материалы, принятые в переработку (003)	810		
Komissiyaga qabul qilingan tovarlar Товары, принятые на комиссию (004)	820		
O'rnatish uchun qabul qilingan uskunalar (005) Оборудование, принятое для монтажа (005)	830		
qat'iy hisobot blankalari (006) Бланки строгой отчетности (006)	840		
To'lovga qobiliyatsiz debitorlarning zararga hisobdan chiqarilgan qarzi (007) Списанная в убиток задолженность неплатежеспособных дебиторов (007)	850		
Olingan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (008) Обеспечение обязательств и платежей – получение (008)	860		
Berilgan majburiyat va to'lovlarning ta'minoti (009) Обеспечение обязательств и платежей – выданные (009)	870		
Uzoq muddatli ijara shartnomasiga asosan berilgan asosiy vositalar (010) Основные средства, сданные по договору долгосрочной аренды (010)	880		
Ssuda shartnomasi bo'yicha olingan mulklar (011) Имущество, полученное по договору ссуди (011)	890		
Kelgusi davrlarda soliq solinadigan bazadan chiqariladigan xarajatlar (012) Расходы, исключаемые из налогооблагаемой базы следующих периодов (012)	900		
Vaqtinchalik soliq imtiyozlari (turlari bo'yicha) (013) Временные налоговые льготы (по видам) (013)	910		
Foydalanishdagi inventar va xo'jalik jihozlari (014) Инвентарь и хозяйственные принадлежности в эксплуатации (014)	920		

Rahbar

Руководитель _____

Bosh buxgalter

Главный бухгалтер _____

Balans ma'lumotlarida ishlab chiqarishni uzluksiz olib borish uchun zarur bo'lgan va hisobot tuzish davriga qiymat shaklidagi mol-mulki hamda uni qoplashga jalb qilingan manbalar o'z aksini topadi. Bu ko'rsatkichlar mol-mulk hajmi, tarkibi va qiymatini qay darajadiligini ifodalaydi. Shuningdek, mol-mulkning moliyalashtirish manbalari, ya'ni o'ziga tegishli manbalar va chetdan qarzga jalb qilingan manbalar holati ham passivda keltirilgan. Balansdagi har bir band bo'lim korxonalarining moliyaviy holatiga bog'liq, shuning uchun ham uni chuqur o'rganish lozim.

Aktiv qism - asosiy va aylanma mablag'larning holatini ko'rsatib, moliyaviy xo'jalik jarayonini yuritish vazifasini bajarishda bu mulklardan foydalanadi. Mulk to'plangan moliyaviy hamda davlat tashkilotlari mablag'i, xususiy shaxslar jamg'armasi, hissador va ta'sischilarning ulushi, bank krediti, chet ellik sarmoyadorlar va hokazo mablag'lar evaziga sotib olinadi. Ayrim hollarda ta'sischilar asosiy vosita va moddiy boyliklarning o'zini berishi ham mumkin. Asosiy va aylanma mablag'lar ishlab chiqarish faoliyatini uzluksiz yuritishga xizmat qiladi. O'z-o'zidan bu faoliyat davomida o'zgaradi, harakatda bo'ladi va tarkibi yanada yangilanadi.

Balansning birinchi bo'limi «**Uzoq muddatli aktivlar**» deb nomlanib, nomoddiy aktiv va asosiy vositalar boshlang'ich, eskirish va qoldiq qiymatda, o'rnatiladigan asbob-uskunalar, tugallanmagan kapital va uzoq muddatli qo'yilma ta'sischilar bilan hisob-kitoblar va boshqa oborotdan tashqari bo'lgan aktivlardan iboratdir. Nomoddiy aktivlar korxonaga daromad keltirish yoki uning ishlab chiqarishini yuritishga shart-sharoit yaratuvchi, natural buyum shakliga ega bo'lgan mulkiy huquqiy qiymatlar, patentlar, mualliflik huquqi, savdo markalari, «Nou-xau», yerdan, suvdan va boshqa tabiiy boyliklardan, bino, inshoot va qurilmalardan foydalanish huquqlaridan iborat bo'ladi, shuningdek, bu bandeda hissadorlik jamiyati boshqaruvi kelishuviga muvofiq Nizom jamg'armasini tashkil etish uchun ajratgan nomoddiy aktivlari ham aks etadi. Nomoddiy aktivlar tarkibida korxonaga manfaati uchun kelgusida ishlatilishi mo'ljallangan ilg'or texnologiyalardan foydalanish huquqi, ularni olib kelish va ishlatishga tayyorlash xarajatlari qo'shilgan holda aks etadi. Bu holat qo'shma korxonalaridagi O'zbekiston Respublikasining rezidenti bo'lgan yuridik shaxs bilan xorijiy sarmoyadorlar hamkorligi tufayli ko'proq vujudga keladi.

Ishlab chiqarish va xizmat binolari, inshootlar va uskunalardan

foydalanish xarajatlari ijara haqi summasiga teng bo'ladi. Umuman nomoddiy aktivlar boshlang'ich bahoda ko'rsatiladi, xizmat muddatiga qarab uning eskirishi hisoblanadi va balans jamlanganda qoldiq bahodagi summa qo'shiladi. «Asosiy vositalar» bandida balans tuzilgan vaqtgacha bo'lgan 0100 schotlari qoldig'i ko'rsatiladi. Bu schotning debetida yil davomida kirim qilingan, kreditida esa yil davomida chiqib ketganlari aks ettiriladi. Asosiy vositalar bo'yicha eskirish hisoblanadi. To'liq tiklash uchun hisoblangan amortizatsiya summasiga eskirish teng deb shartli qabul qilinadi. Amortizatsiyani hisoblash maxsus me'yorlar asosida (boshlang'ich yoki tiklash bahosiga nisbatan foiz hisobida) aniqlanadi. Me'yorlar har bir asosiy vosita turlari bo'yicha differentsiyalashgan, lekin amortizatsiyani hisoblashda asosiy vositalarning xizmat muddati tugaguncha, boshlang'ich yoki qoldiq qiymatini eskirish sifatida yangi yaratilayotgan qiymatga o'tkazishi lozim. Hisoblashning tezlashgan me'yori qo'llash mumkin, faqat bu tartib faol qatnashuvchi (mashina, uskuna va transport) vositalarga taalluqli.

Asosiy vositalarning eskirishi 0200 schotlarida hisoblangach, shunga qarab amortizatsiyalashgan yoki qoldiq bahodagi asosiy vositalar hajmi aniqlanadi, ya'ni boshlang'ich bahodan (0100 schot) eskirish summa (0200 schot) ayirib topiladi. Shu bandda uzoq muddatga ijara olingan, ishlatilishi yoki kontservatsiyada turganligidan qat'iy nazar balansidagi asosiy vositalar qiymati aks etadi. Balansning qolgan qismida kapital qo'yilmalar, shu'ba korxonalaridagi aksiyalar, shu'ba korxonalariga berilgan qarzlari, uyushma korxonalaridagi aksiyalar, uyushma korxonalariga berilgan qarzlari, uzoq muddatli investitsiyalar va boshqa aktivlar ko'rsatiladi. Bu xo'jalik yoki pudrat usulida bajarilayotgan tugallanmagan kapital qurilish asosiy foda tuzish xarajatlari, moddiy boyliklar qidirish ishlari uchun sarflar va shu maqsadlarga ajratiladigan mablag'larni ko'rsatadi. Kapital xarajatlarni korxonaga o'z mablag'i yoki uzoq muddatli kredit evaziga bajarishi mumkin.

«Uzoq muddatli investitsiyalar» bandida hamkorlikda ishlashga kelishganlarning korxonaga ustav fondiga qo'shgan hissasi yoki bergan qarzi, bir yildan ortiq muddatga qimmatli qog'oz uchun qo'ygan mablag'i ko'rsatiladi. Qimmatli qog'ozlar mulk egasining huquqini aks ettirib, ma'lum darajadagi qo'shimcha foydani foizi daromad keltiradi. Bunday qog'ozlar boshqa korxonalarining aksiya va obligatsiyalari, davlat tomonidan chiqarilgan ichki zaym hamda bankdan sotib olingan uzoq muddatli jamg'armali sertifikatlaridir. Bu band uchun

summani 0600 «Uzoq muddatli investitsiyalar» schotlari qoldig'idan olinadi.

Balans aktivining II bo'limi «**Joriy aktivlar**» deb nomlanib, asosiy o'rinni «Tovar-moddiy zaxiralar» bandi egallaydi. Bu bandda korxonada ishlab chiqarishini yuritishga zarur bo'lgan buyumlar jamlanadi. Unda xomashyo va materiallar, sotib olingan yarimtayyor mahsulotlar va butlovchi buyumlar, konstruksiyalar va detallar, urug', yem-xashak, yoqilg'i, idishlar va idishbop materiallar, ehtiyot qismlar, qayta ishlash uchun chetga berilgan materiallarning haqiqiy tannarxi (sotib olish va olib kelish bilan bog'liq xarajatlar) ko'rsatiladi. Ushbu bo'limning yangi xususiyati shundaki, arzon baholi va tez eskiruvchan buyumlar boshlang'ich, eskirish va qoldiq baholarda keltiriladi hamda balans jamlanganda faqat qoldiq bahodagi, ya'ni yaroqli qiymati qo'shiladi.

Pul mablag'lari, valuta mablag'lar, g'aznadagi pullar, qisqa muddatli qo'yilmalar bandlarida material shaklida bo'lmagan boyliklar aks ettiriladi. Bu mablag'larning hajmi korxonaning ixtisoslashganligi, bozor munosabatlarida ta'minotning tashkillashtirilishi va boshqa ko'pgina sabablarga bog'liq. Masalan, sanoatda pul salmog'i yuqori bo'lsa, savdo tashkilotlarida esa debitorlar bilan hisob-kitoblar ko'p bo'lishi mumkin, chunki bu tovarlarni sotishga borib qadaladi. Eng avvalo, debitorlar bilan hisob-kitoblar ko'rsatiladi, chunki hozirgi sharoitda bu masalani tahlil qilib turish zarur. Debitorlar boshqa yuridik (korxonada, tashkilot va muassasa) va jismoniy shaxslar to'lashi lozim bo'lgan qarzdorlardir. Qarzdorlarni shartli ikki guruhga ajratish mumkin: odatdagi va asoslanmagan. Odatdagi qarzlarga ishlab chiqarish, tovarlar sotish va xizmat ko'rsatishga avvaldan qarz berish, da'vo qilish va shu kabi munosabatlar tufayli yuzaga kelgan, ammo to'lash muddati hal etmaganlari kiradi. Asoslanmagan qarzlarda faoliyat davomidagi kamchiliklar, tovar va moddiy boyliklarning kamomadi, o'g'rilik va har xil yo'qolishlar hisobiga paydo bo'ladi. Bu holat doimo nazoratda bo'lib, muntazam tahlil etib borishni talab qiladi. Umuman, debitor qarzlarning mavjudligi moliyaviy ahvolda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois tovar, bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar uchun olingan veksellar bo'yicha, sho'ba korxonalarida, budjet, xodimlar va boshqa debitorlar bilan bo'lgan munosabatlar xususida balans tuzilgan davrdagi holat ko'rsatiladi. II bo'lim aktivida mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan avanslar va qisqa muddatli moliyaviy qo'yilmalar ham keltiriladi.

Mablag'larni o'rganishda pul mablag'lari tahlili alohida o'rinni

egallaydi. Bunday mablag'lar hisob-kitobiga, valuta schoti va g'aznadagi pullar tushuniladi. Mazkur mablag'lar to'lov majburiyatlarini bajarilishida birlamchi vosita bo'lib xizmat kiladi. Ayniqsa, hisob-kitob va valuta schotidagi mablag'lar mahsulot yetkazib beruvchilar, pudratchilar, ishchi-xizmatchilar, budjet, bank, sug'urta va boshqalar bilan bo'ladigan aloqa manbayidir. Shu tufayli bu masala alohida o'rganilishi lozim. Shu yerda o'tgan va joriy yildagi ko'rilgan zararlar ham aks ettirilishi kerak.

Korxonada mulki va mablag'larning kelib chiqish manbalari balansning passivida ko'rsatiladi. Bular o'ziga qarashli va chetdan jalb qilingan manbalarga ajratiladi. Jalb qilingan manbalarga bank kreditlari va kreditorlik qarzlari kiradi.

Passiv ham xuddi aktiv qism kabi ikkita bo'limdan iborat. Balans passivining birinchi bo'limi «**O'z mablag'lari manbalari**» deb nomlanib, bunda ustav kapitali, qo'shilgan kapital, rezerv kapital, taqsimlanmagan foyda yoki qoplanmagan zarar, maqsadli tushum va fondlar kelgusi davr sarflari va to'lovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari aks ettiriladi. Passivning «Ustav kapitali» bandida xo'jalik faoliyatini yuritish uchun ajratilgan mablag'lar ko'rsatiladi. Hissadorlik jamiyatlarida esa har bir qatnashchining qo'shgan hissasi ustav fondida ko'rsatiladi. Dividend sifatida taqsimlanadigan sof foyda hajmi ham qo'shilgan hissaga qarab aniqlanadi. Ustav fondi bozor iqtisodi sharoitida yuridik shaxs sifatida korxonaning o'ziga tegishli mablag'i va aksionerlarning qo'shgan hissasidan iborat bo'ladi. Har bir qatnashchi shaxsiy hissasiga qarab korxonaning xo'jalik va moliyaviy faoliyatiga aralashadi. Hamkorlikdagi, hissadorlik, qo'shma va kichik korxonalarining nizom jamg'armasi hajmi qatnashchilar qo'shgan badallar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

Qo'shilgan kapital, rezerv kapital bandlarida korxonaning boyliklarini qayta baholanishidan, olgan foydasidan tashkil etilgan rezervlardan, qo'shimcha aksiyalar chiqarish natijalaridan ko'paygan xususiy manbalar ko'rsatiladi.

Passiv I bo'limiga taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) ham kiritiladi. Bu bandning summasi korxonani olgan foydasi miqdoriga va uning taqsimlanishiga bog'liqdir. Korxonada o'z oldidagi foydadan to'lashi lozim bo'lgan majburiyatlarini bajarib bo'lgandan so'ng, qolgan qoldiq kelgusida rezerv sifatida foydalanilishi ko'zlanib qoldiriladi. Taqsimlanmagan foyda bandi o'tgan yillardagi foydadan qolgan summa-

larni ham ifodalaydi. Balansda korxonaning o'z mablag'lari manbayi qancha ko'p ulushni egallasa, shunchalik moliyaviy ahvol ishonchli bo'ladi.

Balans passivining ikkinchi bo'limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, unda korxonaning uzoq muddatli joriy majburiyatlari aks ettiriladi. Uzoq muddatli majburiyatlarga uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq muddatli qarzarlar hamda shu kabi uzoq muddatli majburiyatlar kiritiladi. Bank kreditlari ishlab chiqarishni texnik jihozlash, asosiy vositalar sotib olish va ko'rish, asosiy poda tashkil qilish va boshqa ko'pgina istiqbolli loyihalarni mablag' bilan ta'minlash maqsadida olinishi mumkin. Qarzarlar bandida esa boshqa korxonalaridan (bankdan tashqari) olingan qarzar summalari ko'rsatiladi. Bu bandlarni to'ldirish uchun zarur ma'lumotlar «Banklarning uzoq muddatli kreditlari» va «Uzoq muddatli qarzarlar» schotlar qoldig'idan olinadi.

II bo'lim passivini o'rganish ham katta ahamiyatga ega. Balans passivining ikkinchi bo'limi «Majburiyatlar» deb nomlanib, bu bo'limda qisqa muddatli bank kreditlari va qarzarlarini, korxonada ishchi-xizmatchilari uchun bank kreditlari, tovarlar, bajarilgan ishlar, xizmatlar uchun, berilgan veksellar, mehnatga haq to'lash bo'yicha, ijtimoiy himoyalash, sug'urta, ta'minot, mulkiy va shaxsiy sug'urta, budjet bilan, undan tashqari to'lovlar, sho'ba korxonalarini bilan bo'ladigan hisob-kitoblar ko'rsatiladi. Bulardan tashqari xaridorlar va buyurtmachilardan olingan avanslar, ko'zda tutilgan daromadlar, xarajatlar va to'lovlar zaxirasi, dargumon qarzarlar bo'yicha zaxiralar va boshqa qisqa muddatli passivlar ham ushbu bo'limda aks ettiriladi. Ushbu bo'lim passivida juda ko'p buxgalteriya hisobi schotlarining kredit qoldig'i keltiriladi. Korxonada balansini o'rganishda asosiy e'tibor yil boshida o'tgan davrda mulk va mablag'larning qanchalik o'zgarganligi hamda aktivdagi har bir band passivdagi manbalar bilan qanchalik ta'minlaganligiga qaratiladi.

Shunday qilib, korxonada balansining tuzilish shakli doimo takomillashtirilgan. Bu takomillashtirish quyidagi o'zgarishlarni o'z ichiga oladi:

Birinchidan, balansning ham aktiv, ham passivi bo'yicha bo'limlari soni o'zgarib, korxonada mablag'lari va ularning manbalari konsentratsiyalanib bordi.

Ikkinchidan, balans bo'limlarining nomlari o'zgarib, yangi nomlarda mablag'lar va ularning manbalari mazmuni to'liqroq aks ettirila boshlandi.

Uchinchidan, korxonada balanslarining o'zgarishida alohida ishlab

chiqarish tarmoqlarining mablag‘lari va ularni qoplovchi manbalarining xususiyatlari e‘tiborga olingan.

To‘rtinchidan, xalq xo‘jaligini bozor munosabatlariga o‘tkazilishi munosabati bilan korxonalar balans bozor iqtisodiyotining talablariga javob beradigan yo‘nalishda takomillashtirilmoqda.

Beshinchidan, moliyaviy tahlil o‘tkazishni yengillashtirish maqsadida balans-bruttodan balans-nettoga o‘tildi.

Oltinchidan, respublikamiz jahon iqtisodiyoti bilan integratsiyalashib borar ekan, mamlakatda buxgalteriya hisobi va hisobotni tashkil qilish xalqaro standartlarga o‘tkazilmoqda.

Yuqorida aytilganidek, korxonalar balans ikki shaklda bo‘lishi mumkin: balans-brutto, balans-netto.

«Brutto» atamasi italyancha «brutto» so‘zidan olingan bo‘lib, u dag‘al, toza emas degani, «netto» atamasining ma‘nosi toza demakdir. Sobiq ittifoq davrida ham balans-brutto, balans-netto keng foydalanilgan. Balans-brutto 1938-yilgacha bo‘lgan, 1938-1952-yillarda balans-nettoga o‘tilgan, 1952-1992-yillarda balans-bruttoga qaytilgan, 1993-yildan boshlab, yana balans-nettoga o‘tildi.

Balans-brutto, balans-nettoda korxonalar mablag‘lari har xil ifodalandi. Balans-bruttoda tartibga soluvchi moddalar bo‘lib, korxonalar mablag‘larini, ularning manbalari haqiqiy hajmlarini aniqlashda to‘sqinlik qiladi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, moliyaviy tahlilni o‘tkazish uchun balans-netto ma‘lumotlaridan foydalanish lozim.

Buxgalteriya balansini tahlil qilishga tayyorlash uni tuzishning to‘g‘riligini va ayrim moddalarining aniqligini tekshirishni, balans ko‘rsatkichlari bilan hisobotning boshqa shakllari o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlashni, uning ayrim ko‘rsatkichlarini tartibga soluvchi summalardan «tozalash»ni va yirikroq pul o‘lchamidagi summalarni yaxlitlashni nazarda tutadi.

9.3. Mol-mulk tarkibining tahlili

Yangicha ish yuritish sharoitida korxonalar mulkining tarkibini o‘rganish va uni ko‘paytirish yo‘llarini aniqlash xo‘jalik faoliyatining tahlilida muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, balansga qarab korxonalar mol-mulki va boyligining tarkibini kuzatish, sof mablag‘ holatini aniqlash, imkoniyat me‘yorini o‘lchashga yordam beradi. Korxonalar mablag‘lariga, asosan, vositalar va oborotdan tashqari aktivlar hamda material (me‘yorlashtirilgan) aylanma pul mablag‘lari kiradi. Ularni miqdori hissadorlik,

hamkorlik, kichik va boshqa korxonalarining katta-kichikligiga, ixtisoslashuvi va bozor sharoiti raqobatlariga bardoshligiga bog‘liqdir.

Moliyaviy tahlilning muhim xususiyatlaridan biri korxonada mulki, zaxiralar va xarajatlarni har tomonlama o‘rganishdir. Bunday mablag‘lar tarkibiga ishlab chiqarish zaxiralari, ya’ni xomashyo va materiallar, sotib olingan yarimfabrikatlar va komplektlovchi buyumlar, konstruksiya va detallar, ikkilamchi materiallar va o‘rnatilgan asbob-uskunalar, ehtiyot qismlar, parvarish va boquvdagi chorva mollari, urug‘ va yemxashak, arzon baholi va tez eskiruvchi buyumlar kiradi. Ular korxonaning bir me’yorda ishlashi hamda mahsulot ishlab chiqarishi va shartnoma bo‘yicha sotish rejasini ta’minlashga yetarli bo‘lishi lozim. Shuningdek, zaxira va xarajatlar tarkibiga o‘simlik va chorvachilik bo‘yicha tugallanmagan ishlab chiqarish, kelgusi davr chiqimlari, tayyor mahsulot va boshqalar ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlarini ham o‘rganish va tahlil etish lozim bo‘ladi. Quyidagi jadvalda korxonada mulkining hajmi va tarkibi keltirilgan. Uni tuzishda balans ma’lumotlaridan foydalanib, sof, ishlatishga layoqatli boyliklar holati o‘rganiladi. Keltirilgan ma’lumotlar balansning jami summasiga teng bo‘ladi.

81-jadval

Buxgalteriya balansi aktiv moddalarining tahlili

Mol-mulkning tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so‘m	Salmoq‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmoq‘i, %	Summadagi, ming so‘m	Salmoqdagi, %	Yil boshiga nisbatan o‘sishi, %
1. Uzoq muddatli aktivlar	186790	25,99	203491	22,80	+16701	-3,19	+8,94
2. Joriy aktivlar Shu jumladan:	531756	74,01	689066	77,20	+157310	+3,19	+29,58
a) Tovar-moddiy zaxiralari, kelgusi davr va muddati kechiktirilgan xarajatlar	470833	65,52	531450	59,54	+60617	-5,98	+12,87
b) Pul mablag‘lari va qisqa muddatli qo‘yilmalar	7657	1,08	9491	1,07	+1834	-0,01	+23,95
d) Debitorlar	53266	7,41	148125	16,59	+94859	+9,18	+178,08
Balans aktivining jami:	718546	100,0	892557	100,0	+174011	-	+24,22

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektida o‘rganilayotgan joriy davrda jami aktivlar summasi

174011 ming soʻmga yoki 24,22 % ga koʻpaygan. Aktivlarning koʻpayishini ijobiy baholagan holda, maʼlumotlarga eʼtibor qiladigan boʻlsak, aktivlarning koʻpayishi, asosan, joriy aktivlarning 157310 ming soʻmga ortganligi hisobiga boʻlgan. Korxonaning uzoq muddatli aktivlari ham 16701 ming soʻmga ortganligini ijobiy baholamoq lozim. Joriy aktivlarning tarkibini oʻrganadigan boʻlsak, joriy yil oxirida yil boshiga nisbatan tovar-moddiy zaxiralar 12,87 % ga koʻpaygan, yaʼni bu 60617 ming soʻmni tashkil etadi. Xoʻjalik subyektining debitorlik qarzlari ham yil oxiriga kelib 178,08 % ga yoki 94859 ming soʻmga koʻpayganligini salbiy baholamoq kerak, chunki, debitorlik qarzining bunday tartibda ortib borishi korxonaning aylanma mablagʻlarini aylanishini sekinlashtiradi, toʻlov qobiliyatini yomonlashuviga olib keladi. Korxonada aktivlari tarkibida asosiy salmoqni tovar-moddiy zaxiralari egallamoqda, yaʼni u 60 % ga yaqin aktivlar summasini tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada meʼyordan ortiqcha tovar-moddiy zaxirasi yaratilganligini hamda uning natijasida korxonada joriy aktivlarini aylanishi sekinlashishini koʻrsatmoqda. Xoʻjalik yurituvchi subyekt maʼmuriyati mavjud aktivlardan unumli foydalanish choralarini koʻrishi lozim.

Bozor sharoitida aylanma mablagʻlar, zaxiralar va tugallanmagan ishlab chiqarish hajmi eng kam, sof faoliyat koʻrsatadigan sharoitiga yetarli boʻlishi lozim. Tahlilda esa balans maʼlumotlari va materiallarni hisoblovchi schotlardan foydalaniladi.

9.4. Mablagʻlar manbayi tahlili

Balansning passiv qismida korxonada mablagʻlarini qoplash manbalari koʻrsatiladi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida mablagʻlarni toʻldirish quyidagilardan iborat:

1. Oʻzlik mablagʻlarning manbalari.
2. Majburiyatlar.

Bunda eng muhim oʻrinni korxonaning oʻziga qarashli boʻlgan ustav kapitali, qoʻshilgan va rezerv kapitali, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va toʻlovlari uchun rezervlar, kelgusi davr daromadlari egallaydi. Ustav kapital korxonada ixtiyorida doimiy berkitilgan asosiy va aylanma mablagʻlarning hajmini koʻrsatadi. U turli xoʻjalik muomalalari taʼsirida

o'zgarib turadi. Bunga foydaning taqsimlanishi hisobiga to'ldirilish, homiylarning a'zolik badallari, asosiy vositalarning qayta baholanishi va boshqalar sabab bo'lishi mumkin. Mablag'larning ko'paytirish manbalari tarkibida foyda alohida o'rinni egallaydi. Foyda hajmining ko'payishi eng avvalo Ustav jamg'armasini to'ldirishga va boshqa rezerv jamg'armalari yaratilishiga olib keladi. Amortizatsiya va boshqa fondlarning tashkil bo'lishi ham bozor sharoitida mazmunan o'zgarmoqda.

Kredit va boshqa mablag'larga qisqa, o'rta, uzoq muddatga mo'ljallab olingan kreditlar, o'z muddatida uzilmagan ssudalar va boshqa qarz mablag'lari kiradi, shuningdek, kreditorlar bilan hisoblashishlar va boshqa passivlar ham shu yerda inobatga olinadi. Bunda kreditorlik qarzlardan tashqari budjetga, sug'urta va mehnat haqi yuzasidan korxonaning qarzlari ko'rsatiladi.

Bozor iqtisodi qonuniyatlari va talabidan kelib chiqqan holda korxonada qarz kam bo'lgani ma'qul. 3-jadvalda korxonada mablag'larining manbalari ko'rsatilgan.

82-jadval

Buxgalteriya balansini passiv moddalarining tahlili

Mol-mulkni tashkil topish manbayining tarkibi	Yil boshiga		Yil oxiriga		O'zgarishi (+,-)		
	Summa, ming so'm	Sal-mog'i %	Summa, ming so'm	Sal-mog'i %	Summa-dagi, ming so'm	Salmoq-dagi, %	Yil boshiga nisbatan o'sishi, %
1	2	3	4	5	6=4-2	7=5-3	8=6\2*100
1. O'z mablag'larining manbalari	460499	64,09	729410	81,72	+268911	+17,63	+58,39
2. Majburiyatlar Shu jumladan:	258047	35,91	163147	18,28	-94900	-17,63	-36,98
a) uzoq muddatli majburiyatlar	-	-	-	-	-	-	-
b) joriy majburiyatlar	258047	35,91	163147	18,28	-94900	-17,63	-36,98
Balans passivining JAMI:	718546	100,0	892557	100,0	+174011	-	+24,22

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida joriy yilning boshiga nisbatan yil oxirida jami passivlari summasi 174011 ming so'mga yoki 24,22 % ga ortgan. Korxonada mol-mulkni tashkil etuvchi manbalarning bunday tartibda ko'payishini ijobiy

holat sifatida baholamoq lozim, ammo, ushbu manbalar qaysi manbalar hisobiga ko'payganligiga alohida ahamiyat qaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Manbalarning ko'payishi o'z mablag'lari manbalari hisobigami yoki qarz manbalari hisobiga ekanligini aniqlash lozim. Xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxirida o'z mablag'lari manbalari yil boshiga nisbatan 268911 ming so'mga yoki 58,39 % ga o'sgan. Bunday natijalarni korxonada uchun ijobiy deb baholamoq lozim, chunki, o'z mablag'larining manbalarini ko'payishi korxonaning moliyaviy mustaqilligini ortishiga, to'lov qobiliyatining yaxshilanishiga hamda korxonaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga olib keladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada joriy yil oxiriga majburiyatlar summasi 94900 ming so'mga yoki 36,98 % ga pasaygan. Bu esa majburiyatlarning umumiy passivlarda tutgan salmog'ini 17,63 % ga kamaytirgan. Bundan ko'rinadiki korxonaning to'lov likvidligi ancha ko'tarilgan. Balans passividagi moddalarga e'tibor qiladigan bo'lsak, asosiy salmoqni, ya'ni 81,72 foizni o'z mablag'lari manbalari tashkil etmoqda. Bu korxonaning mustahkam moliyaviy barqaror ekanligidan dalolat beradi. Mazkur korxonada hisobot davrida joriy majburiyatlari, ya'ni kreditorlik qarzlari bir qadar kamayganligini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

Xususiy kapital (o'z mablag'lar manbayi) hisobi o'z ichiga bir qancha ko'rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- ustav kapitali;
- qo'shilgan kapital;
- rezerv kapitali;
- taqsimlanmagan foyda;
- xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o'z mablag'lar manbayining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta'sischi tomonidan qo'yilgan pay to'lovlari, aksiyalarining nominal qiymatini o'zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta'sischi tomonidan qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat budjeti tomonidan ajratilgan mulkni ko'rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko'rsatiladi.

Korxonalar amalda qo'llanilayotgan qonunlarga ko'ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko'rsatilgan tartibda mablag' chegirilib boriladi.

Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

1. Ko‘rilgan zararlarni qoplash uchun.
2. Korxonada hisobot yilida foyda olmagan bo‘lsa imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
3. Boshqa to‘lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda – bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko‘rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan sanaladi, lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710 – «Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720 – «Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralari orqali aniqlanib olinadi.

Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsiyentlar usuli eng ilg‘or metodlardan hisoblanib, bizning o‘rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar o‘rganiladi va ular shartli ravishda to‘rtta katta guruhlarga ajratiladi:

1. Rentabellik koeffitsiyentlari.
2. Likvidlik koeffitsiyentlari.
3. To‘lov qobiliyati koeffitsiyentlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko‘rsatkichlar ham o‘z tarkibiga bir qancha koeffitsiyentlarni oladi: ***demak, birinchi ko‘rsatkich tarkibiga:***

1. Xususiy kapital rentabelligi.
2. Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi.
3. Leveridj.
4. Sotish rentabelligi.

Likvidlilik koeffitsiyentlariga:

- a) tez likvidlilik koeffitsiyenti;
- b) debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti;
- d) ishlab chiqarish zaxiralarini aylanishi koeffitsiyenti;
- e) qiyin likvidlilik koeffitsiyenti.

To‘lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsiyentlarga quyidagilar kiradi:

1. Qarz va xususiy kapital nisbati koeffitsiyenti.
2. Xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsiyenti.
3. Qarz mablag‘larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summolari o'rganiladi.

Bu koeffitsiyentlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsiyentlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turida har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

Sof foyda

Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati

ko'rinishida hisob-kitob ishlarini bajarishimiz kerak.

Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

Jami investitsiyalar rentabelligi. Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun,

*Sof foyda + (Kreditlar uchun foiz*foyda solig'ining korrektilrovka qilingan stavkasi)+Rezervlar uchun ajratma.*

Jami aktivlarning o'rtacha qiymati

kabi hisoblashish ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu yerda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymatini yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'ining korrektilrovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Leveridj. Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsiyenti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa korxonaning xususiy kapitalini shunchalik o'sganligini beradi.

Bir aksiya uchun daromadni hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti.

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbayiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsiyent yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa $A_1 > A_2$ u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi, aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.

Xususiy kapital qiymati

Jami mablag'lar

formulasi orqali topiladi. Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsiyentning kamida 50 % ga ega bo'lishlari lozim.

9.5. Aylanma mablag'larni qoplashga o'zlik manbalarining yetarliligi yoki yetishmasliligi tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning moliyaviy holatini tahlil etishda moliyaviy tahlilning korxonalar moliyaviy holatini umumiy baholash bosqichidan keyingi eng asosiy bosqich bo'lib – korxonaning moliyaviy mustahkamligi tahlili bosqichi hisoblanadi. Ushbu bosqichda korxonaning aylanma mablag'larini qoplashga korxonaning o'z mablag'larini yetarli yoki yetishmasligi ham o'rganiladi.

Balans ma'lumotlariga qarab korxonani aylanma mablag'lari qanday manbalar hisobiga tashkil etilganligi o'rganiladi. Bunday tahlilning zarurligi shundaki, korxonalarni moliyaviy mustaqilligi, barqarorligi, kredit olishga layoqatliligini aniqlashda o'zlik manbalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichi muhim ahamiyatga ega. Quyidagi jadvalda zaxira va xarajatlarni qoplashga o'zlik manbalarning yetarliligini aniqlash uslubi keltirilgan.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida hisobot yili boshiga nisbatan yil oxirida 268911 ming so'mga o'z mablag'lari manbalari ko'paygan. Xo'jalik subyekting uzoq muddatli aktivlari esa yil boshiga nisbatan 16701 ming

soʻmga ortgan. Buning natijasida korxonada joriy yil oxiriga kelib tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli oʻzlik manbalari hajmi 252210 ming soʻmga koʻpaygan.

83-jadval

Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli manbalar bilan taʼminlanganlik tahlili (ming soʻmda)

Koʻrsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	Farqi (+,-)
1. Oʻz mablagʻlarining manbalari	460499	729410	+268911
2. Uzoq muddatli aktivlar	186790	203491	+16701
3. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli oʻz manbalari (1-2)	273709	525919	+252210
4. Uzoq muddatli kredit va qarzarlar	-	-	-
5. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli oʻzlik va uzoq muddatli qarz manbalari (3+4)	273709	525919	+252210
6. Qisqa muddatli kredit va qarzarlar	258047	163147	-94900
7. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga tegishli jami manbalar (5+6)	531756	689066	+157310
8. Tovar-moddiy zaxiralarning jami	470833	531450	+60617
9. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga oʻz manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-), (3-8)	-197124	-5531	-191593
10. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga oʻz va uzoq muddatli qarz manbalarining yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-), (5-8)	-197124	-5531	-191593
11. Tovar-moddiy zaxiralarni qoplashga jami manbalarning yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-) (7-8)	+60923	+157616	+96693

Oʻzlik manbalarining koʻpayishini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim. Xoʻjalik yurituvchi subyektda joriy yil boshida va oxirida uzoq muddatli majburiyatlari boʻlmagan. Qisqa muddatli majburiyatlari esa yil boshida 258047 ming soʻm boʻlgan boʻlsa, yil oxiriga kelib 163147 ming soʻmni tashkil etgan, yaʼni qisqa muddatli majburiyatlari 94900 ming soʻmga kamaygan. Bunday holat esa korxonaning tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga tegishli manbalarini qisqarishiga taʼsir etgan. Mazkur xoʻjalik yurituvchi subyektda tovar-moddiy zaxiralari hajmi birmuncha yuqori boʻlganligi uchun joriy yil boshida ham, yil oxirida ham tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga oʻz manbalari hamda oʻz va uzoq muddatli qarz manbalari 191593 ming soʻmga yetarli boʻlmagan, faqatgina qisqa muddatli majburiyatlar hisobigagina tovar-moddiy zaxiralarini qoplashga jami manbalar 96693 ming soʻmga ortiqcha (yetarli) boʻlgan. Bundan koʻrinadiki, korxonaning moliyaviy

barqarorligi joriy yilning boshida ham, yil oxirida ham nobarqaror holatda bo'lgan. Bunday natijalar bozor iqtisodiyoti sharoitida unchalik yaxshi natija deb hisoblanilmaydi. Shu sababli ham, korxonalar ma'muriyati moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash uchun tegishli chora-tadbirlar ko'rishni maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda korxonaning moliyaviy barqarorligi yil boshiga nisbatan yil oxirida biroz bo'lsada yaxshilanganligini ko'rishimiz mumkin.

9.6. Moliyaviy barqarorlik tahlili

Moliyaviy holat barqarorligini tahlili orqali ma'lum davr mobaynida moliyaviy resurslarni korxonalar qanday boshqarganligiga baho beriladi. Avvalo, moliyaviy resurslar holati bozor va korxonalar rivojlanishining talablariga mos kelishi kerak, chunki moliyaviy barqarorlikni talab darajasidan past bo'lishi korxonani to'lovga qobilligini zaiflashtiradi, ishlab chiqarishni rivojlanishi uchun mablag'lar yetishmasligiga olib keladi. Buning aksi bo'lgan holatlarda esa moliyaviy resurslarni ortiqchaligi ishlab chiqarishni rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, ishlab chiqarish zaxiralari va rezervlarini me'yordan ortib ketishiga sabab bo'ladi, demak, moliyaviy resurslarni samarali shakllanishi, taqsimlanishi va ulardan foydalanishi moliyaviy barqarorlik mohiyatini ifodalaydi.

Iqtisodiy adabiyotlarning ko'pchiligida moliyaviy mustahkamlikka (barqarorlikka) va balans likvidligiga bir xil ta'rif berishadi va aniqlanayotgan ko'rsatkichni moliyaviy mustahkamlik yoki balans likvidligi, ya'ni korxonalarining olingan qarzlarni qaytarib berish qobiliyatiga egalik deb tushuniladi. Moliyaviy mustahkamlik va balans likvidligi – bu o'z mazmuniga ega bo'lgan ikki xil moliyaviy ko'rsatkichlar bo'lib, korxonalar moliyaviy faoliyatini har xil nuqtayi nazardan ifodalaydi. *Bu haqda respublikamizning eng yirik iqtisodchi olimlaridan biri hurmatli ustozimiz E.Akromovning «Korxonalarining moliyaviy holatini tahlili» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida shunday deyiladi:*

Moliyaviy mustahkamlik ko'rsatkichi kompleks sifatidagi ko'rsatkich bo'lib, u:

- Korxonalarining murakkab bozor munosabatlari davrida ishlab chiqarishni saqlanib qolish imkoniyatini;
- Korxonalar mablag'laridan erkin ravishda foydalanish imkoniyati borligini;

- Ishlab chiqarishni to‘xtatmasdan, mahsulot sotish imkoniyati borligini;
- Korxonalar faoliyatining umumiy mustahkamliligini;
- Korxonalar faoliyatiga to‘g‘ri boshqaruchilik qilinayotganligini;
- Korxonalarda mavjud moliyaviy resurslarni bozor munosabatlarining talablariga javob berishligini;
- Korxonalarining zaxira va xarajatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qoplovchi manbalar borligi darajasini ko‘rsatadi.

Moliyaviy mustahkamlik korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanishi va ulardan foydalanish bilan aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligiga korxonalarining butun xo‘jalik ishlab chiqarish faoliyatining hamma yo‘nalishlari ta‘sir ko‘rsatadi. Unga ham ichki, ham tashqi omillar, shart-sharoitlar ta‘sir etadi.

Ichki omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

- korxonada ishlab chiqarishning barqarorligi;
- ishlab chiqarishni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni boshqarish;
- korxonada ustav jamg‘armasining hajmi;
- korxonada xarajatlari va daromadlarining nisbati;
- o‘zlik mablag‘larining manbalari va korxonada majburiyatlarining nisbati;
- korxonada aylanma mablag‘lari tarkibi.

Korxonalar o‘z faoliyati davomida boshqa xo‘jalik subyektlari bilan iqtisodiy aloqalarda bo‘lar ekan, ***korxonalar moliyaviy barqarorligiga tashqi omillar ham ta‘sir etadi.. bunday omillar tarkibiga quyidagilarni kiritish mumkin:***

- korxonaning tovarlar bozoridagi holati;
- korxonaning eksport va import aloqalari;
- korxonaning boshqa korxonalar bilan ishga doir aloqalarda aktivligi;
- bank organlari, debitor va kreditor korxonalar bilan aloqalar;
- respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy siyosat, soliq, narx-navo va moliya, bank siyosati, texnika, texnologiya siyosati.

Moliyaviy mustahkamlikka korxonada ichidagi va undan tashqaridagi vaziyat, omillar, shart-sharoitlar ta‘sir ko‘rsatadi, bundan ko‘rinadiki, moliyaviy mustahkamlikning darajasi korxonalarining hozirgi va kelgusidagi faoliyatiga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Yuqoridagi fikr-muloha-

zalardan kelib chiqib talabalar oldiga shunday muammoli savolni qo'yish mumkin. ***Korxonaning moliyaviy mustahkamlik (barqarorlik) ko'rsatkichlarining darajasiga binoan, korxonadagi qanday muammolarni yechish mumkin bo'ladi?*** Bu savolga talabalarning munosabat qanday? Moliyaviy mustahkamlik bir qancha omillar, shart-sharoitlar ta'sirining yakuni bo'lib, u o'z navbatida, korxonada faoliyatining ko'p tomonlariga ta'sirini ko'rsatadi. ***Moliyaviy mustahkamlik tahlilini boshlamasdan oldin yana bir muammoni hal qilish lozim. Bu moliyaviy mustahkamlik atamasining mazmuni haqidagi muammodir.*** Ushbu muammoli savolni yechish maqsadida quyida iqtisodchi olimlarning fikrlari bilan tanishish lozim.

Moliyaviy mustahkamlikning mazmuni shundan iboratki, moliyaviy mustahkamlikni o'lchash, baholash uchun foydalaniladigan ko'rsatkichlar tizimini chegaralab olish lozim.

Bunga ko'ra, V.G.Artemenko, M.V.Bellendirlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik korxonada moliyaviy resurslarini shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligini ifodalaydi.

Ma'lumki, korxonalar moliyaviy resurslarining shakllanish, taqsimlanish va foydalanish samaradorligi ularning umuman moliyaviy holati bo'lsa, moliyaviy mustahkamligi korxonalar faoliyatini faqat bir shaklini, yo'nalishini ifodalaydi.

A.D.Sheremet, R.S.Sayfulinlarning fikricha moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik bir mazmunga ega bo'lib, to'lashga qodirlik moliyaviy mustahkamlikning tashqari ko'rinishini ifodalaydi deb ta'kidlanadi. A.N.Li va S.I.Shevchenkolar ham xuddi shu fikrga ega. Ular o'z maqolalarida moliyaviy mustahkamlik koeffitsiyentining tahlili to'g'risida to'xtalib, to'lashga qodirlik ko'rsatkichini tahlil etganlar.

Haqiqatda moliyaviy mustahkamlik va to'lashga qodirlik har xil mazmunga ega bo'lib, bu moliyaviy ko'rsatkichlar turli usulda aniqlanadi. Undan tashqari A.N.Li va S.I.Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni moliyaviy barqarorlik deb qabul qilishgan. Bu ham bizning fikrimizcha notug'ri. Moliyaviy barqarorlik bu – korxonalar moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishini, pasaymasligini ifodalaydi. Moliyaviy mustahkamlik to'g'risida gap borar ekan, yana ikkita narsaga e'tibor berish lozim. Bu moliyaviy mustahkamlikning kriteriyasi va moliyaviy mustahkamlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi. A.N.Li va S.I.Shevchenkolar fikricha, moliyaviy mustahkamlikning kriteriyasi aniqlanishi lozim va bu kriteriya sifatida korxonalar bankrot bo'lishi ehtimolligining past darajasi tavsiya

etiladi. Bizningcha esa, avvalambor, moliyaviy mustahkamlikning darajasiga binoan korxonalarining bankrot bo'lish ehtimolligi aniqlanilmaydi. Moliyaviy ko'rsatkichlarni, shu jumladan, moliyaviy mustahkamlik bo'yicha ham kriteriyalar emas, optimal yoki me'yoriy darajalari tasdiqlanishi kerak.

Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlik darajasini o'lchash uchun har xil ko'rsatkich tizimlari tavsiya etiladi. A.N.Li va S.I.Shevchenkolar moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun korxonaning kapitalining tarkibiy ko'rsatkichlari, V.G.Artemenko va M.V.Bellendir-lar esa moliyaviy mustahkamlikni tahlil etishda nisbiy ko'rsatkichlar bilan birga absolut ko'rsatkichlardan ham foydalanishgan.

Moliyaviy mustahkamlik albatta, nisbiy ko'rsatkichlar, zaxiralar va xarajatlar hamda ularni qoplovchi manbalar nisbati bilan aniqlanishi lozim. Zaxira va xarajatlar bilan ularni qoplovchi manbalar o'rtasidagi absolut farq esa – moliyaviy mustahkamlikni ko'rsatmaydi. Ulardan faqat moliyaviy mustahkamlikni aniqlash uchun axborot bazasi sifatida foydalaniladi. Shunday qilib, iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy mustahkamlikni tahlil qilishdagi eng asosiy muammo, uning iqtisodiy mazmuni bo'yicha iqtisodchi olimlar o'rtasida kelishuvchanlik hali mavjud emas ekan.

Moliyaviy barqarorlik keng qamrovli ko'rsatkich bo'lib, korxonaning faoliyatining barcha tomonlari natijasi unda aks etadi. Moliyaviy barqarorlikka erishgan korxonalar quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

- bozor munosabatlarini har xil sharoitlarida ham faoliyat yuritish olishi;
- korxonaning pul mablag'larini erkin harakat qilishi;
- moliyaviy resurslarni bozor talablariga mos kelishi;
- moliyaviy resurslar holati ishlab chiqarishni rivojlantirish va to'lov qobiliyati, kreditga layoqatligini ta'minlay olishi;
- ishlab chiqarish zaxiralari va xarajatlarini manbalar bilan qoplanishi.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda moliyaviy barqarorlikka taalluqli ko'rsatkichlar, ularni hisoblash yo'llari va tahlili yetarlicha yoritilmagan.


Moliyaviy barqarorlik mazmun jihatidan turlicha ta'riflanadi. To'lov qobiliyati, balans likvidligi, korxonaning bozor faolligi ko'rsatkichlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari sifatida ko'rilishi mutlaqo noto'g'ri.

Tahlil davomida moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillarga e'tiborni qaratmoq lozim.

Ichki omillarga quyidagilarni kiritish mumkin.

- korxonada faoliyatini tarmoq xususiyatiga mos kelishi;
- ishlab chiqarilayotgan mahsulot, ko'rsatilayotgan xizmat tuzilishi (strukturasi);
- ustav kapitaliga to'langan miqdor hajmi;
- xarajatlar miqdori, ularni daromadlarga nisbati dinamikasi;
- mol-mulk va moliyaviy resurslar holati, shu jumladan, zaxira va rezervlar, ular tarkibi va tuzilishi.

Tashqi omillarga xo'jalikni yuritishning iqtisodiy shartlari, to'lovga qodirlik, xaridorlarning daromadlik darajasi, davlatning soliq va kredit bo'yicha siyosati, tashqi iqtisodiy aloqalar va boshqalar kiradi.



29-chizma. Korxonada barqarorligining turlari.

Umumiy barqarorlik chegarasini yuqori yoki past bo'lishi turli xil sabablarga bog'liq (-chizmaga qarang).

- **«Barqarorlik zaxirasi»** - bir necha yillar davomida shakllangan moliyaviy zaxiralar miqdori tasodifiy va keskin tashqi kutilmagan o'zgarishlarni oldini olishga qaratilgan.


- **texnik – iqtisodiy barqarorlik** – investitsiya loyihalari samardorligi, texnika bilan qurollanish darajasi, ishlab chiqarish, mehnat, boshqaruvni tashkillashtirish; pul oqimlarini harakati tufayli foydaga erishishni ifodalaydi.

- **moliyaviy barqarorlik** – daromadni xarajatlarga nisbatan va resurslar holatini yuqori bo'lishi, pul mablag'larining erkin harakatini ta'minlaydi, mablag'lardan samarali foydalanish ishlab chiqarish uzluksizligi, uni kengaytirish va yangilanishi uchun zamin yaratadi.

Moliyaviy barqarorlik o'z va chetdan jalb etilgan kapitallar nisbati, joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyat tufayli o'z kapitali

jamg'armasini o'sish darajasi, harakatchan va immobilizatsiya qilingan resurslar nisbati, zaxiralarni o'z mablag'lari manbai bilan ta'minlanishini ifodalaydi. Demak, moliyaviy barqarorlik moliyaviy resurslar holati birinchidan, bozor talabiga mos kelishi, ikkinchidan, ishlab chiqarishni rivojlanishini ta'minlashi lozim.

Moliyaviy barqarorlik tuzilishini quyidagicha ifodalash mumkin.



30-chizma. Korxonada moliyaviy barqarorligini turlari.

- **joriy** – konkret (aniq) davr mobaynidagi moliyaviy barqarorlik;
- **imkon** – tashqi sharoit o'zgarishini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik;
- **yuzaki** – davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan, chetdan beriladigan yordam tufayli moliyaviy barqarorlik;
- **real** – raqobat sharoitida kengaygan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarini hisobga olgan holdagi moliyaviy barqarorlik.

Professional so'z boyligida «moliyaviy barqarorlik» terminini ishlatilishi bir xil ma'noni anglatmaydi.

Chet el iqtisodiy adabiyotlari va jahon amaliyotida «moliyaviy barqarorlik» so'zini ifodalashidagi farqlanish korxonada balans tahliliga ikki xildagi yondoshish, ya'ni balans likvidligini an'anaviy va zamonaviy funksional usullarini qo'llash orqali yuzaga keladi.

Moliyaviy barqarorlikni balans likvidligi tahlilining an'anaviy usuli orqali aniqlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- **minimal moliyaviy tenglik qoidasi** – ijobiy likvidlikka asoslangan bo'lib, bunda joriy aktivlar likvidligining o'sishi majburiyatlarga nisbatan yuqori bo'lishi shart;

- **maksimal qarzdorlik qoidasi** – an'anaviy me'yorlarga muvofiq korxonada qarzini o'z mablag'lari bilan qoplanish chegarasi: uzoq va o'rta muddatli qarzlarda doimiy kapitalning yarmidan yuqori bo'lmasligi lozim.

- **maksimal moliyalashtirish qoidasi** – oldingi qoidaga rioya qilin-

gan holda qarz kapitali barcha qo'yilmalar uchun to'lanadigan foiz summalaridan ortib ketmasligi lozim.


- Funktsional balans likvidligini tahlili orqali moliyaviy barqarorlik quyidagi shartlarga rioya qilgan holda aniqlanadi:

- **moliyaviy muvozanatni saqlanishi uchun** stabil resurslar – doimiy kapital va unga tenglashtirilgan mablag'lar stabil joylashtirilgan aktivlarni 100 % qoplashi lozim. Nisbatni 100 % dan past bo'lishi stabil joylashgan mablag'lar stabilga ega bo'lmagan resurslar bilan, ya'ni qisqa muddatli majburiyatlar shaklida moliyalashtirilganligini ifodalaydi. Oborot aktivlariga bo'lgan talab qisqa muddatli moliyalashtirish tufayli hisobot davri mobaynida o'zgarib turadi va bu o'zgarishlar quyidagilarga olib keladi:

- oborot aktivlarini ortiqcha ta'minlanishiga, buning natijasida vaqtinchalik erkin harakatdagi oborot mablag'lari vujudga keladi;

- oborot aktivlari bilan yetarli darajada ta'min etilmasligiga, buning natijasida chetdan qarz mablag'larini jalb etilishiga;

- **umumiy qarzdorlikni baholash** – chetdan jalb etilgan qarz mablag'lari o'z mablag'lariga nisbat ko'rinishidagi ifodasidir.



31-chizma. Korxonada moliyaviy barqarorligini tahlil etish usullari

Amaldagi iqtisodiy fan o'z tasarrufida moliyaviy ko'rsatkichlarni tahlil etishning ko'plab usullari va uslublarni jamlagan.

Ular bozor munosabatlari sharoitida tahlil oldiga qo'yilgan yangi talablar tufayli o'zgarib boradi. Korxonada moliyaviy barqarorligini tahlil etishning usullari chizmada keltirilgan.

Korxonada faoliyati murakkab tizim va tizimlardan iborat bo'lib, shu tufayli uning barqarorligini baholash kompleks tarzda yondoshgan holda moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tizimidan foydalanish kerak. Ko'rsatkichlar ikki guruhga bo'linadi: **mutlaq, nisbiy**.

Moliyaviy barqarorlikni mutlaq ko'rsatkichlar ishtirokida aniqlash uchun ishlab chiqarish zaxiralarini uni tashkil etuvchi manbalari, ya'ni o'z aylanma mablag'lari, bankdan olingan uzoq muddatli va qisqa muddatli kredit va qarzlarning summalarini bilan taqqoslanadi. Nisbiy ko'rsatkichlar foiz, koeffitsiyent, indekslar ko'rinishida ifodalanadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida moliyaviy barqarorlik va to'lovga qobiliyatlik korxonaning muhim iqtisodiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik balansdagi ma'lumotlar asosida o'rganiladi. Undagi ko'rsatkichlarni bir-biri bilan taqqoslab, mablag'lar o'rtasidagi nisbat va o'zaro bog'lanish aniqlanadi. Korxonaning moliyaviy barqarorligini belgilovchi eng muhim ko'rsatkichlar quyidagilardan iboratdir:

1. Jami mablag'dagi korxonaning o'ziga qarashli mablag' ulushini qanchaligini hisoblashdir yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

$$a) \frac{\text{korxonaning o'ziga qarashli mablag'}}{\text{jami mablag' (balans jami)}}$$

Bunda o'ziga qarashli mablag' qanchalik ko'p bo'lsa, shunchalik moliyaviy barqarorlik yuqori bo'ladi.

2. Korxonadagi o'ziga qarashli mablag' bilan qarzga olingan mablag'lar o'rtasidagi nisbat yoki bu quyidagi tartibda topiladi:

$$b) \frac{\text{qarzga olingan mablag'}}{\text{o'ziga qarashli mablag'}}$$

O'ziga qarashli mablag' ulushi ortgan sari moliyaviy barqarorlik kuchayib boradi.

3. Uzoq muddatli qarzlardan foydalanish koeffitsiyenti, ya'ni uzoq muddatli qarz mablag'larini korxonaning o'ziga qarashli va qarz

mablag'lar summasining yig'indisiga bo'linadi yoki bu quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$d) \frac{\text{uzoq muddatga olingan qarz mablag'}}{\text{korxonaning o'ziga+uzoq muddatga olingan qarashli mablag' qarz mablag'}}$$

4. *Korxonaning o'ziga qarashli mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti quyidagicha topiladi:*

$$e) \frac{\text{o'ziga qarashli aylanma mablag'}}{\text{o'ziga qarashli jami mablag'}}$$

5. *Eskirishning jamlanish koeffitsiyenti yoki bu quyidagicha topiladi:*

$$f) \frac{\text{asosiy vositalarning eskirish summasi}}{\text{asosiy vositalar + nomaterial aktiv}}$$

Bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari bo'yicha topiladi:

6. *Korxonada mulki tarkibidagi asosiy vositalarning aniq qiymati koeffitsiyenti, bu ko'rsatkich balans ma'lumotlari asosida hisoblanadi va quyidagicha topiladi:*

$$j) \frac{\text{asosiy vositalar (qoldiq bahoda)}}{\text{jami sof mulk}}$$

7. *Korxonadagi jami mulkning harakatchanligi (chaqqonlik) koeffitsiyenti, buni hisoblash quyidagicha bo'ladi:*

$$k) \frac{\text{aylanma mablag'lar (zaxira va pul mablag'lari)}}{\text{jami mulk (balans jami)}}$$

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni tahlil qilish korxonaning moliyaviy barqarorligini aniqlash va uning ahvolini baholashga yordam beradi.

9.7. Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili

Korxonaning iqtisodiy salohiyati va undan foydalanish to'g'risida to'liq xulosa chiqarish uchun, albatta, ko'rsatkichlar tizimidan foydalanish lozim, ammo, ko'rsatkichlar sonining ko'pligi yoki ozligiga qarab o'rganilayotgan obyekt yoki kategoriyani baholash uchun yetarli yoki kam degan xulosa chiqarib bo'lmaydi. Shu tufayli ko'rsatkichlardan to'g'ri va oqilona foydalanish yo'llarini ishlab chiqish lozim.

Ko'rsatkichlar to'g'risida to'g'ri xulosa chiqarish uchun, eng avvalo ularni ilmiy asoslangan holda tasniflash lozim. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini baholashda koeffitsiyentlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, moliyaviy koeffitsiyentlar orqali moliyaviy holatining ma'lum bir jihatlariga baho berish imkoni yuzaga keladi. Respublikamizdagi xo'jalik yurituvchi subyektlar amaliyotida eng ko'p qo'llaniladigan moliyaviy koeffitsiyentlarni quyidagi jadval misolida tahlil qilib chiqamiz.

84-jadval

Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga	Yil oxiriga	O'zgarishi (+,-)
1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti	0,641	0,817	+0,176
2. To'lov qobiliyati koeffitsiyenti	2,061	4,223	+2,162
3. Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti	0,560	0,223	-0,337
4. Zaxira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti	0,978	1,372	+0,394
5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik koeffitsiyenti	0,594	0,721	+0,127

Buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida moliyaviy koeffitsiyentlar quyidagi tartibda aniqlanadi:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

O'z mablag'larining manbalari (480 satr)

Balans jami (780 satr)

2. To'lov qobiliyati koeffitsiyenti quyidagi tartibda aniqlanadi:

Joriy aktivlar (390 satr)

Majburiyatlar (770 satr)

3. Qarz va o'z mablag'lari o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti quyidagi tartibda aniqlanadi:

Majburiyatlar – uzoq muddatli majburiyatlar

O'z mablag'larining manbalari (480 satr)

4. Zaxira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti quyidagi tartibda aniqlanadi:

O'z mablag'lari manbalari + uzoq muddatli majburiyatlar – uzoq muddatli aktivlar (480+490-130 satr)

Tovar-moddiy zaxiralar (140 satr)

5. Mablag'larning chaqqon harakatchanlik (manyovrlashganlik) koeffitsiyenti quyidagi tartibda aniqlanadi:

O'z mablag'lari manbalari + uzoq muddatli majburiyatlar – uzoq muddatli aktivlar (480+490-130 satr)

O'z mablag'larining manbalari (480 satr)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra, xo'jalik subyektining moliyaviy ahvoriga to'g'ri baho berish uchun buxgalteriya balansiga asoslangan holda moliyaviy koeffitsiyentlardan foydalanamiz. Shunga ko'ra, korxonaning moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 0,176 koeffitsiyentga yoki 17,6 % ga o'sgan. To'lov qobiliyati koeffitsiyenti yil boshiga nisbatan 2,162 koeffitsiyentga o'sgan. Mazkur koeffitsiyentlarning bunday tartibda o'zgarishi korxonaning moliyaviy holatini joriy yil boshiga nisbatan yil oxirida birmuncha yaxshilanib borayotganligidan dalolat beradi. Bundan tashqari korxonada majburiyatlarning o'z mablag'lariga nisbatan ulushini pasayganligini ham ijobiy baholamoq lozim, ya'ni bu korxonaning majburiyatlarini qisqarganligidan dalolatdir. Mablag'lar harakatchanligi esa yil boshiga nisbatan yil oxirida 0,127 koeffitsiyentga o'sgan. Bu esa korxonada aylanma mablag'larga bo'lgan talabni yanada to'laroq qondirib borish imkonini beradi. Umuman olganda korxonada ma'lumotlari asosida uning moliyaviy koeffitsiyentlari o'rganilganda, ushbu koeffitsiyentlarning o'zgarishi ijobiy bo'lgan.

9.8. Korxonaning to'lov qobiliyati tahlili

Korxonalar ko'p turdagi iqtisodiy aloqalarni, jumladan, xomashyo va materiallar sotib olish, tayyor mahsulotlarni sotish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarni bajarishadi. Shuningdek, davlat budjeti, moliya,

bank, sug'urta va kreditorlar bilan munosabatda bo'linadi. Ularga hisob berishni belgilangan muddatda amalga oshirish, moliyaviy tartib intizomiga rioya qilish katta ahamiyatga ega.

To'lov qobiliyati deyilganda, xo'jalikning muddati kelgan to'lov majburiyatlarni bajarish uchun zarur bo'lgan mablag'larni yetarli yoki kamchiligini aniqlash tushuniladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarining to'lov qobiliyatiga ega bo'lishi muhim va bu uning o'z vaqtida zarur bo'lgan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini belgilaydi. Korxonalar balansi ma'lumotlarga asoslanib, to'lov qobiliyatining qay ahvoldaligi hisoblanadi. Buning uchun korxonaning to'lash uchun zarur bo'lgan mablag'lari bilan qarz majburiyatlarini solishtirish mumkin.

To'lov mablag'lariga pul mablag'lari, jo'natilgan tovar va mahsulotlar qiymati (hali pul kelib tushmagan), debitor sotishdagi tushum va boshqalar kiradi, shuningdek, qisqa muddatga olingan ssudalar ham vaqtincha to'lov majburiyatlarni amalga oshirish uchun manba bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'oz, aksiya, obligatsiya sotishdan olingan mablag' va qo'shimcha korxonalarda qatnashishdan kelgan daromadlar ham to'lov majburiyatlarini bajarishdagi manba bo'lishi kerak. To'lov majburiyatlariga mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga, budjet va sug'urtaga, mehanat haqi, turli xil kreditorlarga bo'lgan va boshqa turdagi qarzlarni kiradi. Korxonaning ma'lum bir kundagi to'lov qobiliyatini aniqlash uchun shu muddatdagi to'lov majburiyatlari bilan mablag'lar solishtiriladi.

Korxonalar balansi aktividagi moddalarni pulga aylanishi aktiv likvidligi, to'lovga qodirlik (to'lov qobiliyati) esa muddatida va to'liq hajmda qarzlardan uzulishni ifodalaydi.

To'lovga qodirlikning zarur va muhim sharti likvidlikdir.

«To'lovga qodirlik» so'zi keng ma'noni anglatadi, chunki u aktivdagi moddalarni tez pulga aylanishidan tashqari, savdo, kredit va boshqa pul muomalalari bilan bog'liq majburiyatlarni muddatida va to'liq hajmda bajara olish qobiliyatini ham ifodalaydi.

Xo'jalik yurituvchi subyektning to'lov qobiliyati tahlili

To'lash uchun mablag'lar	Satr raqami	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm	To'lov qarzlari	Satr raqami	Hisobot yili oxiriga summasi, ming so'm
1. Pul mablag'lari, ya'ni kassadagi va hisob raqamidagi pul mablag'lari	330-340	9374	1. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to'lanadigan schotlar (qarzlari)	610	90387
2. Valuta mablag'lari	350	117	2. Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari	680	400
3. Qisqa muddatli investitsiyalar, boshqa pul mablag'lari va joriy aktivlar	360-380	12009	3. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar	650	-
4. Tayyor mahsulot	170	167464	4. Mulkiy va shaxsiy sug'urta bo'yicha qarzlari	700	
5. Debitorlik qarzlari	210	148125	5. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari	690	6721
			7. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari	720	5007
			8. Qisqa muddatli kredit va qarzlari	730-740	35593
			9. Boshqa joriy majburiyatlar	-	25039
Jami to'lash uchun mablag'lar	xxx	337089	Jami to'lov qarzlari	xxx	163147
Qarz to'lov majburiyatlarining ko'pligi	xxx	-	To'lov qarzlariidan to'lov mablag'larining ko'pligi (ortiqchaliligi)	xxx	173942
Balans	xxx	337089	Balans	xxx	337089

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyekti joriy davrda to'lov qobiliyatiga ega hisoblanadi. Korxonaning jami to'lov mablag'lari 337089 ming so'm bo'lgani holda, jami to'lov qarzlari 163147 ming so'mni tashkil qilgan. Bundan ko'rinadiki korxonada to'lov qarzlariga nisbatan to'lov mablag'lari 173942 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu esa korxonaning mutlaq to'lov qobiliyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Bundan tashqari to'lov mablag'lari tarkibiga e'tibor qiladigan bo'lsak, uning asosini tayyor mahsulotlar (167464 ming so'm) hamda debitorlik qarzlari (148125 ming so'm) tashkil qilmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada ayni vaqtda tez to'lov qobiliyatiga ega emas ekan. To'lov qarzlarining asosini esa mol yetkazib beruvchilardan bo'lgan qarzlardan hamda boshqa shu kabi majburiyatlar tashkil qilmoqda. Bu esa ushbu qarzlarni qisqa muddatlarda to'lab beish lozimligini bildiradi. Korxonada ma'muriyati to'lov qobiliyatini yaxshilash uchun mavjud tayyor mahsulotlarini sotish choralarini ko'rishi hamda debitorlik qarzlarini undirib olish choralarini ko'rishi lozim bo'ladi. Aks holda, korxonaning to'lov qobiliyati bundanda yomonlashishi mumkin.

Korxonaning to'lov layoqatini baholashda, odatda, quyidagi ko'rsatkichlardan foydalaniladi:

- Mutlaq to'lov layoqati koeffitsiyenti.
- Oraliq to'lov layoqati koeffitsiyenti.
- Joriy to'lov layoqati koeffitsiyenti.

Mutlaq to'lov layoqati ko'rsatkichi korxonaning joriy aktivlarida harakatchan aktivlarning to'lov majburiyatlarini qoplashiga yetarliligi yoki yetishmasligini; oraliq to'lov layoqati ko'rsatkichi joriy aktivlarda harakatchan va tez pulga aylanadigan aktivlarni to'lov majburiyatlarini qoplashga yetarliligi yoki yetishmasligini; joriy to'lov layoqati ko'rsatkichi esa joriy aktivlarda barcha aylanma aktivlarning to'lov majburiyatlarini to'lashga yetarliligi yoki yetishmasligini tasniflaydi.

Korxonaning to'lov layoqatiga baho berishda muqobilik variantlarini ham qo'llash lozim bo'ladi. Yangi ochilgan va hali faoliyat boshlamagan korxonalariga kredit berish yuzasidan qaror qabul qilishda, uning biznes-reja ko'rsatkichlari va u bo'yicha aniqlangan to'lovga qodirlikning ehtimoligiga, korxonaga maqsadli, markazlashgan kredit resurslarining tushirilishiga, texnik loyihalar asosida kredit ajratilishi va hokazolarga ahamiyat berilishi muhimdir.

Mutlaq likvidlik koeffitsiyenti to'lov qobiliyatining qat'iy me'yori qisqa muddatli majburiyatlarni darhol mavjud pul mablag'lari bilan qoplanishidir. Bu ko'rsatkich qancha yuqori bo'lsa, qarzni uzish kafolati

shuncha yuqori bo‘ladi. Oz miqdordagi mablag‘ga ega bo‘lib, pul mablag‘larini kirimi va chiqimini muddati va miqdorini nazorat qilish orqali balans likvidligini ta‘minlagan holda korxonada doimiy ravishda to‘lovga qodir bo‘lishi mumkin. Mutlaq likvidlik koeffitsiyentining, ya‘ni pul mablag‘lari va qisqa muddatli investitsiyalarni qisqa muddatli majburiyatlarni qoplashning yil boshi va yil oxiridagi natijalari biroz tavsiya etilgan me‘yorlarga yaqin.

Oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti joriy qarzlarni qancha qismi (zaxiralarsiz) debitorlik qarzlarni to‘liq undirilgan holda qoplay olishini ifodalaydi. Ushbu ko‘rsatkich darajasi 0,5 dan 1,0 gacha va undan yuqori bo‘lishi korxonaning faoliyat turi, joriy aktivlarining strukturasi va debitorlik qarzlarni sifati va boshqa moliyaviy ko‘rsatkichlarning nisbatiga: sotish hajmi bilan aylanma mablag‘lar, sotish hajmi va debitorlik qarzlarni, obrot aktivlari va qisqa muddatli majburiyatlarga bog‘liq. Debitorlik qarzlarni yuqori hajmda va jami mablag‘larda salmoqli ulushga ega bo‘lishi korxonaning to‘lovga qodirligini amalda pasayishga olib keladi. Likvidlikni tahlil etishda debitorlik qarzlarni miqdori va sifatiga katta e‘tibor qaratiladi, chunki ularni to‘lov manbalariga aylanishi uchun ketadigan vaqt uzoq muddatni tashkil etadi, inflatsiya tufayli yana qo‘shimcha yo‘qotishlarga duch keladi. Bizning misolimizda oraliqni qoplash likvidlik koeffitsiyenti yil boshi va yil oxirida tavsiya etilgan me‘yordan kichik. Ammo, korxonada rahbariyati debitorlik qarzlarni bilan ishlashni faollashtirib bu shakldagi obrot mablag‘larni pul shaklida muomalaga kiritilishini tezlashtirish orqali mol yetkazib beruvchilar bilan bo‘ladigan hisoblashishni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Joriy likvidlik (qoplash) koeffitsiyenti yoki umumiy qoplash koeffitsiyenti:

- joriy qarzlarning qancha qismi joriy aktivlar bilan qoplanishini;
- joriy majburiyatlarning har so‘miga necha so‘mlik joriy aktivlar (aylanma mablag‘lar) qiymati to‘g‘ri kelishini;
- joriy majburiyatlarni jami aylanma mablag‘lari bilan qoplanish darajasini ifodalaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyenti korxonani chiqargan aksiyalari va obligatsiyalarini xarid etgan subyektlar va jismoniy shaxslar uchun muhim ko‘rsatkich hisoblanadi. Aksiyadan olinadigan dividendlar miqdori, obligatsiyalardan foizlar joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasiga bog‘liqdir. Joriy aktivlarni qisqa muddatli majburiyatlarga nisbatan yuqori bo‘lishi rezerv zaxirasini hosil qiladi. Rezerv zaxirasi korxonada zarar ko‘rganda

qoplashga sarflanadi. Bu ko'rsatkichni qanchalik yuqori bo'lishi kreditorlarda qarzni uzishga bo'lgan ishonchini ta'minlaydi.

Joriy likvidlik koeffitsiyentining me'yor ko'rsatkichi 1 dan 2 gacha hisoblanadi, ammo, barcha tarmoqlar uchun yagona me'yor belgilanishi maqsadga muvofiq emas, chunki, bu ko'rsatkich darajasi korxonaning faoliyat turi, uning tuzilishi va balans aktivining sifati, operatsion jarayon davomiyligi, kreditorlik qarzlarni qoplanish muddatlari va h.k. larga bog'liq. Joriy likvidlik koeffitsiyenti darajasining hisob – kitobiga ko'ra likvidlik yil boshi va yil oxirida me'yor darajasida, uning o'sish su'rati 1,08 koeffitsiyentni tashkil etgan. Joriy likvidlik koeffitsiyentining darajasi ko'p jihatdan zaxiralarni tashkil etish manbalari uzoq muddatli majburiyat va korxonaning o'z kapitaliga bog'liq. Uning darajasini oshirish uchun o'z kapitalini manbalar bilan to'ldirish, aktivlar va debitorlik qarzlarni o'sishini turg'un holda saqlashdan iborat. Mazkur ko'rsatkichdan korxonaning aktivi likvidligini baholash va uzoq muddatli istiqbolda to'lovga qodirligini aniqlashda foydalaniladi. Oborot aktivlarini qisqa muddatli majburiyatlardan ikki marotaba ortiq bo'lishi korxonaning ishlab chiqarish va moliyaviy holatini barqaror o'sishi uchun zamin yaratadi. Buning natijasida ishchi kapitali yoki «sof oborot aktivi» shakllanadi.

86-jadval

Korxonaning to'lov layoqati ko'rsatkichlari va ularni hisoblash tartibi

Ko'rsatkichlar	Aniqlash tartibi	Izoh:
1. Mutlaq to'lov layoqati koeffitsiyenti	$K_M = \frac{PM + QQ}{QMM}$	PM - pul mablag'lari QQ - qimmatli qog'ozlar QMM - qisqa muddatli to'lov majburiyatlari
2. Oraliq to'lov layoqati koeffitsiyenti	$K_O = \frac{PM + QQ + DM}{QMM}$	DM - debitorlik majburiyatlari
3. Joriy to'lov layoqati koeffitsiyenti	$K_J = \frac{PM + QQ + DM + TMZ}{QMM}$	TMZ - tovar-moddiy zaxiralar

Ishchi kapitali likvid rezervlari hisoblanib, kutilmagan hollarda vujudga keladigan pul tushumlari va qarz majburiyatlari o'rtasidagi uzilishlar tufayli vujudga keladigan xarajatlarni qoplashga sarflanadi. Sof ishchi kapitali sof aktivning bir qismi, bank-kreditorlar uchun bank kreditini korxonaga qaytara olmagan hollarda undan garov sifatida foydalanadilar.

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil etishda qisqa muddatga to'lov

qobiliyati va uzoq muddatga to'lov qobiliyati ko'rsatkichlari ham o'rganiladi. ***Shunga ko'ra qisqa muddatli to'lov qobiliyati quyidagicha aniqlanadi:***

= > Pul mablag'lari + Qisqa mud. qim. qog'ozlar

Qaytarish mud. yetgan kreditor qarzlari

Uzoq muddatli to'lov qobiliyati esa:

=> Oborot aktivlar = 125152 = 3,4

Majburiyatlar 35772

Demak, korxonaga yuqori to'lov qobiliyatiga ega bo'lgan. Bu korxonaga faoliyati uchun ijobiy holat hisoblanadi.

Korxonaning mavjud pul mablag'lari doim to'lov majburiyatlarini qaytarishga tayyor bo'lgan manba bo'lganligi uchun hamda qimmatli qog'ozlar ham shu maqsadga ishlatilishi mumkinligini hisobga olib, to'lov qobiliyatini belgilovchi koeffitsiyent hisoblaniladi, shuningdek, turli aylanma mablag'larning pul shakllariga o'tish muddati har xilligi e'tiborga olinganda, tayyor mahsulot zaxiralari tugallanmagan ishlab chiqarish xarajatlar va yarimfabrikatlarning pulga aylantirish tezligini o'rganish zurrur. Bundan tashqari to'lov qobiliyatining o'zgarishida debitorlik qarzlarning pulga aylanish tezligi, bankdagi to'lov hujjatlarini o'z vaqtida rasmiylashtirilishi va ularning tez harakat qilishiga bog'liqdir. Agarda, debitor, mablag'larni qarz majburiyatlarini uzishga yo'naltirilsa, oraliq to'lov qarzlarni qoplashlik koeffitsiyenti ko'rsatkichi hisoblanadi, demak, korxonaga qisqa muddatli to'lov majburiyatlarini qoplashga o'zining barcha aylanma mablag'larini, ya'ni zaxiralar, pul mablag'lari, hisob-kitoblar va boshqa aktivlarini jalb etishi lozim bo'ladi.

Kelgusi yilda korxonaning to'lov qobiliyatida yuz berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni bilish uchun mahsulotlar sotishdan keladigan tushum hajmini tahlil qilish lozim. Jami tushum hisobiga sarflangan xarajatlar qoplanadi, majburiy to'lovlar bajariladi va ehtiyot rivojlantirish jamg'armalari yaratiladi. Sof tushum bevosita korxonaga oborotida qatnashadi, bunga asosiy vosita eskirishi va sof foyda kiradi.

Korxonaning to'lov qobiliyatini tahlil qilishda sof tushum koeffitsiyentini hisoblash muhimdir, bu ko'rsatkich quyidagicha aniqlanadi.

Sof foyda + asosiy vositalar eskirishi (amortizatsiya)

sotishdan tushum

Hissadorlik, kooperativ, kichik va hamkorlikda ishlaydigan

korxonalarda o'ziga qarashli mol-mulkni ko'paytirish ahamiyatli hisoblanadi. Ayniqsa, hissadorlik va boshqa jamg'armalarni to'ldirib borish zurrdir. Bu hissadorlar, ustav fondi qatnashchilari va a'zolarining badallari hisobiga to'ldiriladi. Shuning uchun ham a'zolarining kelishuviga muvofiq, qonun bilan belgilangan ustav fondining hajmi kamaytirilmasligi va u to'ldirib borilishi zarur. Korxonalar balansini o'rganishda, albatta, nizom jamg'armasining o'tgan yilga nisbatan o'zgarish sabablari tahlil qilinadi. Ustav fondining ko'payishi ham moliyaviy barqarorlik yaxshilanganligi belgisi hisoblanadi.

9.9. Mol-mulk va mablag'lar harakatchanligi tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida balans ma'lumotlari asosida korxonalar aktivlarining holatini o'rganishda ularning pulga aylanuvchanligiga baho berish tahlilning muhim vazifasi hisoblanadi. Bunday tahlilning zaruriyati bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarda qattiq moliyaviy cheklanishlarning paydo bo'lishi va olingan qarzlarni qaytarish imkoniyatlarini o'z vaqtida hisoblab baho berishda ko'rinadi. Ayniqsa, to'lov majburiyatlarining muddati korxonalar mulki faoliyat natijasida pulga aylanish muddatiga mos kelishi moliyaviy holatni yaxshilanishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, korxonalar aktivlarining harakatchanligini tahlil qilgan holda qarzlarni qaytarishga yetarli yoki yetishmasligi muntazam o'rganilishi lozim.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining erkin faoliyat yuritishida bankrotlik holatiga tushish va sinish xavfidan saqlanish maqsadida balans likvidligi tahlili natijalaridan foydalaniladi. Tahlil etish uchun balans aktividagi moddalarni pulga aylanish muddati passividagi moddalarning qarzni uzish muddatlari bilan taqqoslanadi. Bunday taqqoslash natijasiga ko'ra balans aktividagi moddalarni sotishidan kelgan tushumi korxonalar qarzlari (majburiyatlari)ni uzishi uchun yetarli bo'lsa balans likvidlikka ega deb hisoblanadi.

Likvidlik deganda, avvalo, mablag'larning joylanishi, ularning pulga aylanish darajasi, yaqin va uzoq davriylikdagi to'lov majburiyatlarining oqlanishi, joriy aktivlar va passivlarning o'zaro farqlanishidagi zaruriy shartlarning saqlanishiga aytiladi.

Iqtisodchi olim E.Akramovning fikricha, **balans likvidligi bu** – balansning aktiv tomonidagi bir davrga borib naqd pulga aylanadigan mablag'lar bilan shu davrda qaytariladigan majburiyatlarni solishtirish demakdir.

Pulga aylanish tezligiga qarab, korxonalar aktivlari quyidagi guruhlariga ajratiladi:

1. Doimiy harakatdagi aktivlar.
2. Tez sotiluvchi aktivlar.
3. Sekin sotiluvchi aktivlar.
4. Qiyin sotiluvchi aktivlar.

Doimiy harakatdagi aktivlar guruhiga balansdagi barcha pul mablagʻlari va qisqa muddatli moliyaviy qoʻyilmalar, yaʼni qimmatli qogʻozlari kiradi. Bunday aktivlar doimo qarz majburiyatlarini toʻlash uchun tayyor turgan mablagʻ hisoblanadi, bu pul mablagʻi koʻp boʻlgan korxonalar bilan iqtisodiy aloqalarni, oʻzaro hisob-kitoblarni kelishilgan muddatlarda bajarish imkonini beradi.

Tez sotiluvchi mulklarga balansning II boʻlim aktividagi debitor qarzlarni koʻrsatish mumkin. Bu mablagʻlar ham zurur boʻlgan hollarda toʻlov vositasi boʻlib xizmat qiladi. Sekin sotiluvchi aktivlarga balansning «Tovar-moddiy zaxiralari» jami tushunilib, naqd pul mablagʻlari yetishmagan hollarda toʻlov majburiyatlarni qoplashga sarflanishi mumkin. Qiyin sotiluvchi guruhlariga esa «Asosiy vositalar va boshqa oborotdan tashqari aktivlar» kiradi. Bu mulk turli ishlab chiqarishda uzoq muddat qatnashib, oʻz qiymatini asta-sekin yaratilayotgan mahsulotlarga oʻtkazib beradi. Shuning uchun ham asosiy vositalarning pulga aylanib, toʻlov vositasi va majburiyatlarni uzishga manba boʻlishi koʻp vaqt talab etadi.

Korxonalar aktivlari, albatta, oʻz va qarz kapitali hisobiga manbalanganligi bois, uning passiv tomoni ham toʻlov majburiyatlarining muddati va shartidan kelib chiqqan holda tarkibiy oʻrganishni talab etadi. ***Shu maʼnoda likvidlik sharti boʻyicha passivlar quyidagi moddalar boʻyicha turkumlab chiqiladi:***

1. Muddati kelgan toʻlov majburiyatlari.
2. Qisqa muddatli toʻlov majburiyatlari.
3. Uzoq muddatli toʻlov majburiyatlari.
4. Doimiy passivlar.

Balansning birinchi guruh toʻlov majburiyatlariga balansning II boʻlim passividagi kreditorlar bilan hisob-kitoblar va oʻz vaqtida qaytarilmagan ssudalar kiradi. Qisqa muddatli passivlar guruhiga esa II boʻlim passivdagi qolgan bandlar, yaʼni bankning qisqa muddatli kreditlari, korxonalar xizmatchilari uchun bank kreditlari, qisqa muddatli qarzlarni kelgusi davr xarajatlari va toʻlovlar zaxirasi, dargumon qarzlarni boʻyicha zaxiralarni va boshqa qisqa muddatli passivlar kiradi. Oʻrta va uzoq muddatli passiv deyilganda uzoq muddatli bank kreditlari va uzoq

muddatli qarz bandlari tushuniladi. Doimiy passivlar guruhiga esa I bo'lim passividagi barcha bandlar, ya'ni ustav fondi, zaxira jamg'armasi, maxsus maqsadlarga mo'ljallangan fondlar, maqsadli moliyalashtirish va tushumlar, ijara majburiyatlari, ta'sischilar bilan bo'ladigan hisob-kitoblar, o'tgan yil va hisobot yilidagi taqsimlangan foyda kiradi.

Mablag'larning aylanish holatini tahlil qilishda joriy va kelgusi davrda kutiladigan harakatchanlik ko'rsatkichlarini o'rganish zarur. Mablag'larning joriy harakatchanligi doimiy va tez sotiluvchi aktivlar bilan muddati yetgan to'lov majburiyatlari va qisqa muddatli passivlarni taqqoslash orqali aniqlanadi. Kelajakda kutiladigan harakatchanlik ko'rsatkichi esa sekin sotiluvchi aktivlar bilan o'rta va uzoq muddatli passivlarni solishtirish orqali o'rganiladi. Bunda korxonani mo'ljallangan har xil tushumlari bilan kelajak to'lovlarini oldindan bashorat qilish mumkin.

Korxonaning balansining likvidlilik darajasiga har xil omillar, korxonaning aktivlarining, passivlarining tarkibiy o'zgarib turishi ta'sir ko'rsatadi. Bu omillarning ta'sirini bilish uchun balans likvidligini tahlil qilishda yana bir guruh ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ular quyidagilar:

1. ***Umumiy kapitalning chaqqonlik koeffitsiyenti.*** Bu koeffitsiyent korxonaning umumiy aylanma aktivlarini uning mol-mulki qiymatiga bo'lish yo'li bilan aniqlanib, u korxonaning mablag'lar bilan ta'minlanganligini va o'z majburiyatlaridan qutulish salohiyatini ko'rsatadi. Bu quyidagicha aniqlanadi:

Tovar-moddiy zaxiralar + pul mablag'lari va debitorlik qarzlari

Balans jami

2. ***Ishlab turgan kapitalning chaqqonlik koeffitsiyenti.*** Bu koeffitsiyent korxonaning zaxiralari va xarajatlarini, korxonaning zaxira va xarajatlarga bo'lgan ehtiyojini qoplovchi o'zlik mablag'lar manbalariga bo'lish bilan aniqlanadi. Bu quyidagi tartibda bo'ladi:

Tovar-moddiy zaxiralar

O'z mablag'larining manbalari – Uzoq muddatli aktivlar

3. ***O'z aylanma mablag'lari bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti.*** Bu quyidagicha aniqlanadi:

O'z mablag'lari manbalari - Uzoq muddatli aktivlar

Balans jami

Balans aktiv va passiv moddalarining harakatchanligini (likvidliligini) tahlili (ming soʻmda)

Aktiv	Yil boshiga	Yil oxiriga	Passiv	Yil boshiga	Yil oxiriga	Toʻlash uchun mablagʻlarning yetarliligi (+) yoki yetishmasligi (-)	
						yil boshiga	yil oxiriga
1. Doimiy harakatdagi aktivlar	7657	9491	1. Muddati kelgan toʻlov majburiyatlari	249458	127554	-241801	-118063
2. Tez sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar	53266	148125	2. Qisqa muddatli passivlar	8589	35593	+44677	+112532
3. Sekin sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar	470833	531450	3. Uzoq muddatli passivlar	-	-	+470833	+531450
4. Qiyin sotiluvchi (pulga aylanuvchi) aktivlar	186790	203491	4. Doimiy passivlar	460499	729410	-273709	-525919
BALANS	718546	892557	BALANS	718546	892557	0	0

Maʼlumotlarga asoslangan holda quyidagi shartlarni bajarilishini tekshiramiz. 1. $A_1 \geq P_1$. 2. $A_2 \geq P_2$. 3. $A_3 \geq P_3$. 4. $A_4 < P_4$.

Yil boshiga

1. $7657 < 249458$

2. $53266 > 8589$

3. $470833 > 0$

4. $186790 < 460499$

Yil oxirida

1. $9491 < 127554$

2. $148125 > 35593$

3. $531450 > 0$

4. $203491 < 729410$

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada balans likvidligiga qo'yilgan to'rtta shartdan birinchisi yil boshida ham, yil oxirida ham bajarilmagan, ya'ni korxonaning doimiy harakatdagi aktivlari uning muddati kelgan to'lov majburiyatlarini qoplashga yetishmas ekan. Bu esa korxonada balansining tez likvidlikka ega emasligidan dalolat beradi. Qolgan shartlar esa yil boshiga ham, yil oxiriga ham bajarilgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada balansi mutlaq likvidlikka ega bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, korxonada balansining likvidligi yil boshiga nisbatan yil oxirida bir qadar yaxshilangan. Bunday natijalarni ijobiy baholasa ham bo'ladi.

Umuman olganda, ***quyidagi shartlarga amal qilinsa, korxonada mablag'i harakatdagi deb baholanadi:***

a) doimiy harakatdagi aktivlar > muddati kelgan to'lov majburiyatlar;

b) tez sotiluvchi aktivlar > qisqa muddatli passivlar;

v) sekin sotiluvchi aktivlar > o'rta va uzoq muddatli passivlar;

g) qiyin sotiluvchi aktivlar < doimiy passivlar

9.10. Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili

Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi deganda ularning pulga aylanish tezligi tushuniladi. Aylanma mablag'lar aylanuvchanligi koefitsiyenti joriy aktivlarning moddiy aktivlar va debitorlik qarzlarga bo'lgan nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkichlar bevosita korxonaning bozordagi faolligini tavsiflaydi. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi korxonada faoliyatining samaradorligini tavsiflovchi ko'rsatkich bo'lib, u asosida biznesni boshqarishda resurslar cheklanganligi va ulardan unumli foydalanish darajasi tahlil qilinadi va uning muhim yo'nalishlari belgilanadi. ***Aylanma mablag'lardan samarali foydalanishning muhim yo'nalishlariga quyidagilarni kiritish mumkin:***

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmini o'stirish;

- mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat)larni iste'molchilarga yetib borishi va ular bo'yicha hujjatlar aylanishini tezlashtirish;

- aylanma mablag'lar bo'yicha me'yoriy zaxiralar saqlanishiga amal qilish;

- aylanma mablag‘larning me‘yordan ortiqchaligini maqsadli boshqarishni yo‘lga qo‘yish (mollarni imtiyozli shartlarda sotish, ijaraga berish va hokazolar);

- aylanma mablag‘larni qayta baholashni balans tuzish sanasiga hisobga olish va to‘g‘ri belgilash;

- aylanma mablag‘larni hisobdan chiqarishning xalqaro usullaridan foydalanish;

- korxonaning hisob siyosatini, shuningdek, aylanma mablag‘larini baholash usulini belgilashda tarmoq rivoji va texnologik jarayonlarning murakkabligiga ahamiyat berish;

- tugallanmagan ishlab chiqarishni to‘g‘ri baholash;

- aylanma mablag‘lar normativini belgilash;

- aylanma aktivlar aylanishini tezlashtirish maqsadida tovar va moddiy boyliklarni sotish bo‘yicha hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

- mahsulotlarni markazlashgan holda sotib olish, sotuvchi va sotib oluvchining monopolligini cheklash;

- moddiy aylanma mablag‘lardan samarali foydalanishda texnik va texnologik yangilanishni ta‘minlash va hokazolar.

Moliyaviy tahlilning muhim qismi aylanma mablag‘lardan samarali foydalanganlikni o‘rganish egallaydi, bunda, aylanma mablag‘lar, ayniqsa, ishlab chiqarish zaxiralari, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, debitorlik qarzlari, pul va valuta mablag‘lari, qimmatli qog‘ozlar harakatini o‘rganish muhimdir.

Aylanma aktivlarning aylanishi va ularning samaradorligiga quyidagi omillar ta’sir qiladi:

• mahsulot (bajarilgan ish, ko‘rsatilgan xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum summasining o‘zgarishi;

• moddiy aylanma mablag‘larining o‘rtacha yillik qiymatini o‘zgarishi va hokazo.

Aylanma mablag‘larning aylanishini tahlil qilganda quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi:

$$a) \text{ aylanish koeffitsiyenti} = \frac{\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum}}{\text{tovar-moddiy zaxiralari}};$$

$$b) \text{ aylanish kuni} = \frac{\text{tovar-moddiy zaxiralari} * \text{hisobot davr kuni (360)}}{\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum}};$$

$$d) \text{ aylanish salmog'i koeffitsiyenti} = \frac{\text{tovar-moddiy zaxiralari}}{\text{mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan sof tushum}}$$

Bu koeffitsiyentlardan tashqari aylanma mablag'larning samaradorligini aniqlash maqsadida har bir yoki ming so'mlik zaxira va xarajatlar hisobiga olingan yalpi mahsulot, sof tushum va hisobot yilining sof foydasi kabi ma'lumotlar ham tahlil etiladi.

88-jadval

Aylanma mablag'lar aylanishini tahlili

Ko'rsatkichlar nomi	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum, ming so'mda	1452513	3040381	+1587868
2. Jami tovar – moddiy zaxiralari, ming so'mda	470833	531450	+60617
3. Tovar moddiy zaxiralarning (aylanma mablag'larning) aylanish koeffitsiyenti (1\2)	3,085	5,721	+2,636
4. Tovar moddiy zaxiralarning (aylanma mablag'larning) aylanish davri, kun hisobida	116,7	62,9	-53,8
5. Aylanish salmog'i koeffitsiyenti (2\1)	0,324	0,175	-0,149
6. Aylanishni tezlashishi yoki sekinlashishidan mablag'larning bo'shashganligi (-) yoki qo'shimcha (+) jalb qilinganligi:			
a) kun hisobida	x	x	-53,8
b) summada, ming so'mda	x	x	-454368,02

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda joriy yilda mahsulotlarni sotishdan olingan sof tushum miqdori 1587868 ming so'mga ortgan. Bunga mos ravishda tovar-moddiy zaxiralarning qiymati ham 60617 ming so'mga o'sgan. Bularning natijasida tovar-moddiy zaxiralarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilgi 3,085 koeffitsiyentdan hisobot yiliga kelib, 5,721 koeffitsiyentga ko'tarilgan. Aylanish davri esa o'tgan yilga nisbatan 53,8 kunga qisqargan, ya'ni tezlashgan. Korxonaning tovar-moddiy zaxiralarni aylanishini tezlashishi natijasida korxonada oborotidan mablag'larning bo'shashishi 454368,02 ming so'mni tashkil etgan. Bunday natijalarni korxonada uchun ijobiy baholamoq lozim.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- buxgalteriya balansini tahlil etishdan maqsad;
- tashqi foydalanuvchilarni o'ziga jalb ettiruvchi balansdagi asosiy ko'rsatkichlar;

- balans aktivining bo‘linishi;
- asosiy vositalar;
- joriy aktiv (mablag‘)lari;
- moddiy aktivlar;
- nomoddiy aktivlar;
- moliyaviy qo‘yilmalar (uzoq muddatli);
- zaxiralar;
- pul mablag‘lari;
- qisqa muddatli moliyaviy qo‘yilmalar;
- debitorlik qarzlari;
- o‘z kapitali;
- qarz mablag‘lari (majburiyatlar);
- joriy mablag‘lar aylanish tezligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar;
- joriy mablag‘larini ayrim moddalari bo‘yicha aylanish tezligini aniqlash tartibi;
- aylanish davri o‘zgarishining iqtisodiy natijasi;
- moliyaviy holatni mustahkamlash yo‘llari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilishdan maqsad nima?
2. Moliyaviy tahlilning uslubi deganda nimani tushunasiz va ularning tarkibiga qaysi usullar kiritiladi?
3. Moliyaviy tahlilning axborot manbasi va ularga qo‘yiladigan huquqiy talablar deganda nimani tushunasiz?
4. Moliyaviy tahlilda umumlashtirilgan moliyaviy hisobot shakllari va ularning tahlili qanday amalga oshiriladi?
5. Moliyaviy tahlil subyektlari deganda kimlarni tushunasiz va ularning maqsadi nima?
6. Korxonada balansni qanday tahlil qilinadi?
7. Korxonaning to‘lov layoqati deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?
8. Korxonada moliyaviy barqarorligi deganda nimani tushunasiz va uning tahlili qanday bajariladi?
9. Likvidlilik ko‘rsatkichlarini ko‘rsatib o‘ting?
10. Korxonada balansni likvidliliigi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil qilinadi?

11. Bank kreditidan foydalanish darajasi tahlil qilinayotganda nimalar o'rganiladi?

12. Aylanma mablag'lar samaradorligi deganda nimani tushunasiz va ular qanday tahlil etiladi?

13. Aylanma mablag'lar aylanishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

14. Xo'jalik subyektlarining ish faolligi qanday aniqlanadi va tahlil qilinadi?

15. Xo'jalik subyektlarining iqtisodiy nochorligini aniqlash tartibini ko'rsatib bering?

16. Xo'jalik subyektlarining moliyaviy holatini yaxshilash imkoniyatlarini ko'rsatib bering?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Quyida ilova qilingan buxgalteriya balansi ma'lumotlari asosida mustaqil ravishda korxonada faoliyatining moliyaviy holatini tahlil qilib chiqing, xulosalar va takliflar bering.

Buxgalteriya balansi (1-sonli shakl)

Ko'rsatkichlar nomi Наименование показателя	Satr raqami Код стр.	Hisobot davri boshiga На начало отчетного периода	Hisobot davri oxiriga На конец отчетного периода
1	2	3	4
AKTIV			
UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR I. ДОЛГОСРОЧНЫЕ АКТИВЫ			
Asosiy vositalar: Основные средства:			
Boshlang'ich (tiklanish) qiymat (0100, 0300) Первоначальная (восстановительная) стоимость	010	1520147,6	3271538,0
Eskirish summasi (0200) Сумма износа	011	216380,6	668925,5
Qoldiq (balans) qiymat (010-011 satr) Остаточная (балансовая) стоимость	012	1303767,0	2602612,5
Nomoddiy aktivlar: Нематериальные активы:			
Boshlang'ich qiymat (0400) Первоначальная стоимость	020	3866,4	5350,5
Amortizatsiya summasi (0500) Сумма амортизации	021	1572,5	2493,3

1	2	3	4
Qoldiq (balans) qiymat (020-021 satr) Остаточная (балансовая) стоимость	022	2293,9	2857,2
Uzoq muddatli investitsiyalar, jami (040+050+060+070+080 satrlar), shu jumladan: Долгосрочные инвестиции, всего (040+050+060+070+080), в том числе:			
Qimmatli qog'ozlar (0610) Ценные бумаги	030	920449,7	941106,9
Sho'ba xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0620) Инвестиции в дочерние хозяйственные общества	040		
Qaram xo'jalik jamiyatlariga investitsiyalar (0630) Инвестиции в зависимые хозяйственные общества	050		
Xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalariga investitsiyalar (0640) Инвестиции в предприятие с иностранным капиталом	060		
Boshqa uzoq muddatli investitsiyalar (0690) Прочие долгосрочные инвестиции	070		
O'rnatiladigan asbob-uskunalar (0700) Оборудование к установке	080	603229,2	640120,4
Kapital qo'yilmalar (0800) Капитальные вложения	090		
Uzoq muddatli debitorlik qarzlari (0910, 0920, 0930, 0940) Долгосрочная дебиторская задолженность	100	296515,7	300986,5
Shundan: muddati kechiktirilganlari Из неё: просроченная	110	20704,8	
Uzoq muddatli kechiktirilgan xarajatlar (0950, 0960, 0990) Долгосрочные отсроченные расходы	111	20704,8	
I bo'lim bo'yicha jami (012+022+030+090+100+110+120 satrlar) Итого по разделу I (стр. 012+022+030+090+100+110+120)	120		
JORIY AKTIVLAR II. ТЕКУЩИЕ АКТИВЫ			
Tovar-moddiy zahiralalar, jami (150+160+170+180 satrlar), shu jumladan: Товарно-материальные запасы, всего (стр. 150+160+170+180), в том числе:			
Ishlab chiqarish zahiralari (1000, 1100, 1500, 1600) Производственные запасы	140	171321,8	227414,2
Tugallanmagan ishlab chiqarish (2000, 2100, 2300, 2700) Незавершенное производство	150	161448,4	224264,2
Tayyor mahsulot (2800) Готовая продукция	160		
Tovarlar (2900 dan 2980 ning ayirmasi) Товары	170		
Kelgusi davr xarajatlari (3100) Расходы будущих периодов	180	9873,4	3150,0
Muddati kechiktirilgan xarajatlar (3200) Отсроченные расходы	190	8224,5	16003,1
Debitorlar, jami (220+230+240+250+260+270+280+290+300+310 satrlar) Дебиторы, всего (стр. 220+230+240+250+260+270+280+290+300+310)	200		
Shulardan: muddati o'tgani (kechiktirilganlari) Из неё: просроченная	210	339592,0	984633,7
	211	-	169,2

1	2	3	4
Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzlari (4000 dan 4900 ning ayirmasi) Задолженность покупателей и заказчиков	220	4271,3	77415,2
Alohida bo'linmalarining qarzlari (4110) Задолженность обособленных подразделений	230	250882,1	480048,3
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzlari (4120) Задолженность дочерних и зависимых хозяйственных обществ	240	-	355967,1
Xodimlarga berilgan bo'naklar (4200) Авансы, выданные персоналу	250		
Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga berilgan bo'naklar Авансы, выданные поставщикам и подрядчикам (4300)	260	-	6165,1
Budjetga soliqlar va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400) Авансовые платежи по налогам и сборам в бюджет	270	24773,6	16518,6
Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500) Авансовые платежи в государственные целевые фонды и по страхованию	280		
Ta'rischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzlari (4600) Задолженность учредителей по вкладам в уставной капитал	290		
Xodimlarning boshqa operatsiyalar bo'yicha qarzlari (4700) Задолженность персонала по прочим операциям	300		
Boshqa debitorlik qarzlari (4800) Прочие дебиторские задолженности	310	59665,0	48519,4
Pul mablag'lari, jami (330+340+350+360 satrlar), shu jumladan: Денежные средства, всего (стр. 330+340+350+360), в том числе:	320	240164,2	492321,6
Kassadagi pul mablag'lari (5000) Денежные средства в кассе	330	12,3	59,0
Hisob-kitob varag'idagi pul mablag'lari (5100) Денежные средства на расчетном счете	340	196910,4	306037,9
Xorijiy valutadagi pul mablag'lari (5200) Денежные средства в иностранной валюте	350	43241,5	186224,7
Boshqa pul mablag'lari va ekvivalentlar (5500, 5600, 5700) Прочие денежные средства и эквиваленты	360		
Qisqa muddatli investitsiyalar (5800) Краткосрочные инвестиции	370	621534,0	934000,0
Boshqa joriy aktivlar (5900) Прочие текущие активы	380		
II-bo'lim bo'yicha jami (140+190+200+210+320+370+380 satrlar) Итого по разделу II (стр. 140+190+200+210+320+370+380)	390	1380836,5	2654372,6
BALANS AKTIVI BO'YICHA JAMI (130+390 satrlar) ВСЕГО ПО АКТИВУ БАЛАНСА (стр. 130+390)	400	3607347,1	6200949,2
P A S S I V			
O'Z MABLAG'LARI MANBALARI I. ИСТОЧНИКИ СОБСТВЕННЫХ СРЕДСТВ			
Ustav kapitali (8300) Уставный капитал	410	2000000,0	2000000,0
Qo'shilgan kapital (8400) Добавленный капитал	420		

1	2	3	4
Rezerv (zaxira) kapital (8500) Резервный капитал	430	27130,0	1100846,8
Sotib olingan o'z aksiyalari (8600) Выкупленные собственные акции	440		
Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) (8700) Нераспределенная прибыль (непокрытый убыток)	450	193036,0	256165,3
Maqsadli tushumlar (8800) Целевые поступления	460	1225762,3	947403,2
Bo'lg'usi xarajatlar va to'lovlar zaxiralari (8900) Резервы предстоящих расходов и платежей	470	3284,9	10,4
I bo'lim bo'yicha jami (410+420+430+440+450+460+470 satrlar) Итого по разделу I (стр. 410+420+430+440+450+460+470)	480	3449213,2	4304425,7
MAJBURIYATLAR II. ОБЯЗАТЕЛЬСТВА			
Uzoq muddatli majburiyatlar, jami (500+510+520+530+540+550+560+570+580+590 satrlar) Долгосрочные обязательства, всего	490		
Shu jumladan: uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (500+520+540+560+590 satrlar) В том числе: долгосрочная кредиторская задолженность	491		
Ulardan: muddati kechiktirilgan uzoq muddatli kreditorlik qarzlari Из неё: просроченная долгосрочная кредиторская задолженность	492		
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan uzoq muddatli qarzlari (7000) Долгосрочная задолженность поставщикам и подрядчикам	500		
Alohida bo'linmalardan uzoq muddatli qarzlari (7110) Долгосрочная задолженность обособленным подразделениям	510		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan uzoq muddatli qarzlari (7120) Долгосрочная задолженность дочерним и зависимым хозяйственным обществам	520		
Muddati kechiktirilgan uzoq muddatli daromadlar (7210, 7220, 7230) Долгосрочные отсроченные доходы	530		
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati kechiktirilgan uzoq muddatli majburiyatlar (7240) Долгосрочные отсроченные обязательства по налогам и обязательным платежам	540		
Muddati kechiktirilgan boshqa uzoq muddatli majburiyatlar (7250, 7290) Прочие долгосрочные отсроченные обязательства	550		
Xaridorlar va buyurtmachilardan olingan bo'naklar (7300) Авансы, полученные от покупателей и заказчиков	560		
Uzoq muddatli bank kreditlari (7810) Долгосрочные банковские кредиты	570		
Uzoq muddatli qarzlari (7820, 7830, 7840) Долгосрочные займы	580		
Boshqa uzoq muddatli kreditorlik qarzlari (7900) Прочие долгосрочные кредиторские задолженности	590		

1	2	3	4
Joriy majburiyatlar, jami (610+620+630+640+650+660+670+680+690+700 +710+720+730+740+750+760 satrlar) Текущие обязательства, всего (стр.610+620+630+640+650+660+670+680+690+700+710+720 +730+740+750+760)	600	158133,9	1896523,7
Shu jumladan: joriy kreditorlik qarzlari (610+630+650+670+680+690+700+710+720+760 satrlar) В том числе: текущая кредиторская задолженность (стр.610+630+650+670+680+690+700+710+720+760)	601		
Ulardan: muddati o'tgan (kechiktirilgan) joriy kreditorlik qarzlari Из неё: просроченная текущая кредиторская задолженность	602		
Mahsulot yetkazib beruvchilar va pudratchilardan qarzlari (6000) Задолженность поставщиками и подрядчикам	610	3624,8	2139,6
Alohida bo'linmalardan qarzlari (6110) Задолженность обособленным подразделениям	620		
Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlaridan qarzlari (6120) Задолженность дочерним и зависимым хозяйственным обществам	630		
Muddati kechiktirilgan daromadlar (6210, 6220, 6230) Отсроченные доходы	640		
Soliqlar va majburiy to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan (kechiktirilgan) majburiyatlar (6240) Отсроченные обязательства по налогам и обязательным платежам	650		
Muddati o'tgan (kechiktirilgan) boshqa majburiyatlar (6250, 6290) Прочие отсроченные обязательства	660		
Olingan bo'naklar (6300) Полученные авансы	670		1671437,2
Budjetga to'lovlar bo'yicha qarzlari (6400) Задолженность по платежам в бюджет	680	22983,4	36808,7
Sug'urtalash bo'yicha qarzlari (6510) Задолженность по страхованию	690	33984,7	65850,6
Davlatning maqsadli jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzlari Задолженность по платежам в государственные целевые фонды (6520)	700		
Ta'rischilarga qarzlari (6600) Задолженность учредителям	710		
Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzlari (6700) Задолженность по оплате труда	720	23910,7	90638,5
Qisqa muddatli bank kreditlari (6810) Краткосрочные банковские кредиты	730		
Qisqa muddatli qarzlari (6820, 6830, 6840) Краткосрочные займы	740	43631,5	1022,9
Uzoq muddatli majburiyatlarning joriy qismi (6950) Текущая часть долгосрочных обязательств	750		
Boshqa kreditorlik qarzlari (6900, bundan 6959 mustasno) Прочие кредиторские задолженности	760	29998,8	28626,2
II bo'lim bo'yicha jami (490+600 satrlar) Итого по разделу II (стр. 490+600)	770	158133,9	1896523,7
BALANS PASSIVI BO'YICHA JAMI (480+770 satrlar) ВСЕГО ПО ПАССИВУ БАЛАНСА (стр. 480+770)	780	3607347,1	6200949,4

Test savollari:

1. Pul mablag‘lari harakatdagi aktivlarning qaysi qatoriga kiradi?

- a) tez sotiluvchi aktivlarga;
- b) doimiy harakatdagi aktivlarga;
- d) sekin sotiluvchi aktivlarga;
- e) aylanma mablag‘larga.

2. Yillik moliyaviy hisobot tarkibiga qaysi shakllar kiradi?

a) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari va ishlab chiqarish qarorlari to‘g‘risidagi hisobotlar.

b) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari va mahsulotlar sotish to‘g‘risidagi hisobotlar.

d) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari va xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobotlar.

e) Buxgalteriya balansi, moliyaviy natijalar, asosiy vositalar, pul oqimlari, debitorlik va kreditorlik qarzlari to‘g‘risidagi ma’lumotnoma.

3. Quyidagi ko‘rsatkichlardan qaysi biri joriy to‘lov qobiliyatini ifodalaydi?

a) pul mablag‘lari / qisqa muddatli to‘lov majburiyatlari;

b) pul mablag‘lari va boshqa aktivlar / qisqa muddatli to‘lov majburiyatlari;

d) (pul mablag‘lari + qimmatli qog‘ozlar) / qisqa muddatli to‘lov majburiyatlari;

d) aylanma aktivlar / majburiyatlar;

4. Ishlab chiqarish fondlari bo‘yicha rentabellik qanday aniqlanadi?

a) $(\text{foyda} \times 100) / \text{asosiy vositalar} + \text{aylanma mablag‘lar}$;

b) $(\text{foyda} \times 100) / \text{aktiv fondlar} + \text{passiv fondlar}$;

d) $(\text{foyda} \times 100) / \text{balans aktivi 1-bo‘lim} + \text{2-bo‘lim jami}$;

e) barcha javoblar to‘g‘ri.

5. Aylanma mablag‘larning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) $(\text{mahsulotni sotishdan tushgan tushum} + \text{tayyor mahsulot}) / \text{aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qiymati}$;

b) $\text{mahsulotni sotishdan tushgan tushum} / \text{aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qiymati}$;

- d) sotilgan mahsulotning tannarxi / aylanma mablag‘larning yillik o‘rtacha qiymati;
- e) mahsulotni sotishdan tushgan tushum / aylanma aktivlar.

6. Qisqa muddatli passivlar deganda nimani tushunasiz?

- a) kreditor qarzarlar;
- b) qisqa muddatli kredit va qarzarlar;
- d) maqsadli tushumlar;
- e) kelgusi davr sarflari.

7. Quyidagi ma‘lumotlarga ko‘ra qaysi bir korxonaga ko‘proq moliyaviy barqarorlikka egaligini ko‘rsating:

(ming so‘m)

Passivlar	Korxonalar			
	A	B	V	G
1. O‘z mablag‘lari	24	20	18	14
2. Majburiyatlar	12	9	3	6
Jami:	36	29	21	20

Javob: a), b), d), e).

8. Qiyin sotiluvchi aktivlar deb nimalar sanaladi?

- a) aylanma aktivlar;
- b) uzoq muddatli aktivlar;
- d) pul mablag‘lari;
- e) asosiy vositalar.

9. Buxgalteriya balansi ma‘lumotlari asosida quyidagi ko‘rsatkichlar aniqlanadi:

- a) korxonaning barqarorlik darajasi;
- b) sotishdan kelgan tushum tuzilishi;
- d) asosiy faoliyat bo‘yicha xarajatlarning dinamikasi;
- e) korxonaga daromadlarini tuzilishi.

10. Joriy likvidlik koeffitsiyenti orqali:

- a) qisqa muddatli majburiyatlarning har so‘miga joriy aktivlarning qancha miqdori to‘g‘ri kelishi;
- b) uzoq muddatli majburiyatlarning har so‘miga uzoq muddatli aktivlarning qancha miqdori to‘g‘ri kelishi;
- d) o‘z kapitalining har so‘miga joriy aktivlarning qancha miqdori to‘g‘ri kelishi;
- e) doimiy kapitalning har so‘miga o‘z kapitalini qancha miqdori to‘g‘ri kelishi aniqlanadi.

11. Moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etish tamoyillari turli mamlakatlarda:

- a) turlicha ;
- b) bir xil;
- d) moliyaviy hisobotni tuzish tamoyillari bo'yicha farqlanadi;
- e) moliyaviy hisobotni taqdim etish tamoyillari bo'yicha farqlanadi.

12. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari qanday tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi?

- a) moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha Qo'mita – Financial Accounting Standards Board (FASb);
- b) xalqaro hisobot standartlari bo'yicha Qo'mita – International Accounting Standards Committee (IASS);
- d) buxgalteriya masalalari bo'yicha Qo'mita – Committee on Accounting Procedures (GAP);
- e) buxgalteriya hisobi muommolari bo'yicha tadqiqot olib boruvchi guruh.

13. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{Joriy majburiyatlar}}{\text{Majburiyatlar}}$;
- b) $\frac{\text{Majburiyatlar}}{\text{O'z mablag'larinig manbalari}}$;
- d) $\frac{\text{O'z mablag'larinig manbalari}}{\text{Balans passivining jami}}$;
- e) $\frac{\text{O'z mablag'larinig manbalari}}{\text{Majburiyatlar}}$.

14. Doimiy harakatdagi aktivlar tarkibiga nimalar kiradi?

- a) Debitorlik qarzlari, pul mablag'lari, valuta mablag'lari;
- b) Pul mablag'lari, valuta mablag'lari, qisqa muddatli investitsiyalar;
- d) Pul mablag'lari, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli investitsiyalar;
- e) Valuta mablag'lari, debitorlik qarzlari, qisqa muddatli investitsiyalar.

15. Moliyaviy holatning mutlaq barqarorligi qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) O'z aylanma mablag'lari > Ishlab chiqarish zaxiralari

O‘z aylanma mablag‘lari va uzoq muddatli kredit, qarzlarni > Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar > Ishlab chiqarish zaxiralari;

b) O‘z aylanma mablag‘lari < Ishlab chiqarish zaxiralari

O‘z aylanma mablag‘lari va

uzoq muddatli kredit, qarzlarni > Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar > Ishlab chiqarish zaxiralari;

d) O‘z aylanma mablag‘lari < Ishlab chiqarish zaxiralari

O‘z aylanma mablag‘lari va

uzoq muddatli kredit, qarzlarni < Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar > Ishlab chiqarish zaxiralari;

e) O‘z aylanma mablag‘lari < Ishlab chiqarish zaxiralari

O‘z aylanma mablag‘lari va

uzoq muddatli kredit, qarzlarni < Ishlab chiqarish zaxiralari

Jami asosiy manbalar < Ishlab chiqarish zaxiralari;

16. Tez likvidlik koeffitsiyenti qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

a)
$$K = \frac{\text{Pul mablag‘lari} + \text{Qisqa muddatli investitsiyalar} + \text{Debitorlik qarzlari}}{\text{Qisqa mudatli majburiyatlar}};$$

b)
$$K = \frac{\text{Pul mablag‘lari} + \text{Qisqa muddatli investitsiyalar} + \text{Zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa mudatli majburiyatlar}};$$

d)
$$K = \frac{\text{Qisqa muddatli investitsiyalar} + \text{Debitorlik qarzlari} + \text{Zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa mudatli majburiyatlar}}$$

e)
$$K = \frac{\text{Pul mablag‘lari} + \text{Debitorlik qarzlari} + \text{Zaxira va xarajatlar}}{\text{Qisqa mudatli majburiyatlar}};$$

X BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING MOLIYAVIY NATIJALARI TAHLILI

10.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subyektning oldiga qo‘ygan asosiy maqsadi bu – foyda olishdir. Foyda ijtimoiy ishlab chiqarishni hamma bosqichlarining iqtisodiy kategoriyasidir. Foyda iqtisodiy kategoriya va moliyaviy yakun sifatida o‘zining eng yuqori ahamiyatiga bozor munosabatlari rivojlangan davrida ko‘tariladi. Foydani shakllantirish, uni realizatsiya qilish bu – kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishning, qiymat qonunining va xo‘jalik hisobining obyektiv talabidir.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko‘tarib turishni talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqa faoliyatlarning natijasi sifatida foyda olish asosiy maqsad hisoblanadi. Foyda olishni ko‘paytirish jamiyat manfaatiga ham mos keladi, chunki, iqtisodiy faoliyatning yuqori foydaliligi individual foydaning ko‘payishi bilan mamlakat milliy daromadining ortishiga olib keladi. Aytish mumkinki, foyda miqdori va uning darajasi bozor ishtirokchilari, ayniqsa, investorlarni harakatga keltiruvchi kuchdir. Bozor ishtirokchisining manfaatdorligi foyda miqdori bilan belgilanadi. Korxonalar, tashkilotlar hamda tadbirkorlar qaysi tarmoq va faoliyat foydani ko‘proq keltiradigan bo‘lsa, sarmoyani shu yerga joylashtirib, barcha imkoniyatlarini ishga solib shu faoliyatni rivojlantirish, rentabellik darajasini oshirib, ko‘proq foyda olishga intiladilar. Agar

mazkur sohada kapital o‘zini oqlamasa, foyda keltirmasa va bozorda o‘z o‘rnini topa olmasa investorlar kapitalni bu tarmoq yoki faoliyat turidan olib, boshqa yanada daromadliroq bo‘lgan tarmoqqa yo‘naltiradilar.

Bozor ishtirokchilari, shu jumladan tadbirkorlarning manfaati xalq iste‘moli tufayligina ro‘yobga chiqadi. Ishlab chiqarilayotgan tovarlar, mahsulotlar, ko‘rsatilayotgan xizmatlar va bajarilayotgan ishlarga talab bo‘lsagina ular iste‘molga yo‘l oladi, boshqacha qilib aytganda, sotiladi. Demak, talabsiz foyda yuzaga kelmaydi. Bozor qonuniyatining mazmuni ham shundan iborat va bozor sharoitida daromad olish, foyda qilishning boshqacha usuli bo‘lishi mumkin emas. Foyda mexanizmining ta’siri ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar faoliyatini iste‘molchi manfaatiga qaratadi, chunki shu yo‘l orqaligina foyda olishni biladi.

Foyda (daromad) iqtisodiy harakatning zaruriy sharti, maqsadi sifatida qaraladi. Jahon amaliyotida foyda, deyilganda ko‘pincha, biznes samaradorligining tadbir vositasi sifatida qaraladi. Foyda bu daromadlar va xarajatlar farqlanishidagi yuqori o‘zgaruvchanlikdir. Ular orasidagi quyi o‘zgaruvchanlik esa zararni ifodalaydi.

Daromadlar va xarajatlar moliyaviy natijalarni xarakterlovchi foydani o‘lchashga daxldor bo‘lgan elementlar hisoblanadi. Daromadlar va xarajatlarni, ya’ni foydani aniqlash va o‘lchash – korxonada o‘z moliyaviy hisobotini tayyorlashda foydalaniladigan kapital konsepsiyasi hamda kapitalning saqlanishiga bog‘liq bo‘ladi.

Daromadlar va xarajatalar elementlari quyidagicha aniqlanadi.

Daromadlar - bu hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning oqimi yoki ko‘payishi shaklida o‘sishi yoki passivlarning qatnashchilarning kapitaldagi omonatlaridan farq etuvchi o‘sishiga olib keluvchi kamayishidir.

Xarajatlar – hisobot davrida iqtisodiy foydaning aktivlarning chiqib ketishi yoki ulardan foydalanish shaklida kamayishi, shuningdek, qatnashchilar o‘rtasida kapitalning kamayishiga olib keluvchi majburiyatlarining yuzaga kelishidir.

Daromad va xarajatlarni aniqlash ularning asosiy xususiyatlarini belgilaydi, ammo ularni moliyaviy natijalar hisobotida aks ettirishda talab qilinadigan mezonlarni aniqlashni maqsad qilib qo‘ymaydi.

Moliyaviy natijalar tahlilida daromad va xarajatlarning o‘zaro farqlanishidagi holatga baho beriladi. Moliyaviy natijalar foyda va zararlarning shakllanish qatorlari bo‘yicha o‘zgarishlari o‘rganiladi. Foyda va zararlarning omilli tahlili olib boriladi. Korxonada moliyaviy

natijaviylikni yaxshilash yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi va ularni yoʻlga qoʻyishning chora va tadbirlari belgilanadi. Korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi rentabellik koʻrsatkichi va uning omilli tahlili oʻtkaziladi.

Tahlil moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotni oʻqish, vertikal tahlil, gorizontal tahlil, trendli tahlil va koʻrsatkichlarni aniqlash usullarida olib boriladi. Moliyaviy natijalar toʻgʻrisidagi hisobotni oʻqishda uning satrlar boʻyicha koʻrsatkichlar tartiblanishiga, moliyaviy natijaviylikni xarakterlovchi umumiy qatorlarning qiymat ifodasi, hisobot davri va oʻtgan yilning shu davri boʻyicha maʼlumotlarga umumiy izoh beriladi.

Vertikal tahlilda moliyaviy natijalarning shakllanishini bir qatorli va koʻp qatorli usullarida oʻzaro farqlanishlarga va nisbiy oʻzgarishlarga baho beriladi.

Gorizontal tahlilida esa moliyaviy natijalarning boʻylamasiga tarkiblanishi va ularning oʻzgarishlari oʻrganiladi.

Asosli yoki trend tahlilida moliyaviy natijalar va ularning yillar boʻyicha oʻzgarishi, dinamikasi yoki asos yiliga nisbatan oʻzgarishlariga baho beriladi.

Moliyaviy natijalar tahlilida qoʻllaniladigan asosiy koʻrsatkichlar qatoriga esa korxonada foydaliligi yoki natijaviyligi koʻrsatkichlari, bozor aktivligi koʻrsatkichlari kiritiladi. Korxonada foydaliligini xarakterlovchi asosiy koʻrsatkichlar sifatida rentabellik koʻrsatkichlari olinadi. Bozor aktivligi koʻrsatkichlariga aksiyalar, qimmatli qogʻozlarning foydalilik darajasini xarakterlovchi koʻrsatkichlar kiritiladi. Ular qatoriga bitta aksiyaga toʻgʻri keladigan hisob foydasi (soliq toʻloviga qadar boʻlgan foyda), bitta aksiya toʻgʻri keladigan sof foyda, bitta aksiyaga toʻgʻri keladigan dividend summasi, aksiyaning bahosi va foydasi orasidagi nisbat koeffitsiyentlari kiradi.

Moliyaviy natijalar tahlili tashqi va ichki subyektlar tomonidan olib boriladi. Ichki subyektlar tomonidan olib boriladigan tahlil ichki moliyaviy tahlil qatoriga kiritilib, faqat shu korxonaning xodimlari tomonidan olib boriladi.

Tashqi tahlil subyektlariga esa soliq organlari, bank tashkilotlari, aksionerlar, mulk egalari, investorlar, shuningdek, korxonada faoliyati bilan bilvosita qiziquvchi uchinchi shaxslar, erkin sohibkorlar kirishi mumkin.

Ularni koʻproq korxonaning foydalilik darajasi va uning yillar boʻyicha oʻzgarishlari qiziqtiradi. Agar aksiya egasi boʻladigan boʻlsa,

uni sof foyda va dividend to'loviga tortiladigan foyda summasi, soliq idorasini esa soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda va unga qayta qo'shiladigan xarajat moddolari, xaridor va buyurtmachilar yoki sheriklarni korxonaning yil yakuni bo'yicha erishilgan iqtisodiy foydasi qiziqtiradi.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini tahlil etishda moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning foydalilik darajasiga baho berish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- biznes-rejada belgilangan foydalilik darajasiga erishilganligi va unga ta'sir etgan omillarni o'rganish hamda baho berish;
- foydaning shakllanishi va ishlatilishining asoslanganligini tekshirish;
- foydaning ko'paygan yoki kamayganligiga mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan va boshqa faoliyatlardan erishilgan natijaning ta'sir etishini aniqlash;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning yalpi foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- soliqqa tortilgunga qadar bo'lgan foydaning shakllanishiga va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning sof foydasi va unga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish hamda baho berish;
- sof foydani ko'paytirish yo'nalishlarini belgilab berish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning rentabellik ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga ta'sir etuvchi omillarga baho berish;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning umumiy rentabellik darajasini oshirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini tahlil etishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlarning biznes-reja ma'lumotlari;
- xo'jalik yurituvchi subyektlarning «Moliyaviy natijalar to'g'risida»gi hisobot (2-shakl) ma'lumotlari;
- buxgalteriya hisobining moliyaviy natijalarni aks ettiruvchi tegishli schot ma'lumotlari.

10.2. Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlari, ular bilan shug'ullanuvchilarning iqtisodiy manfaatlari

Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini amalga kiritish zarurati asosan, buxgalteriya hisobining bazaviy qoidalari va tamoyillarini tushuntirish va umumlashtirish, asosiy tushunchalarni bayon qilish, u yoki bu buxgalteriya usullarini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasida hisobning o'ziga xos xususiyatlarini qo'llashdan iborat. Moliyaviy natijalar hisobini yuritishda «Hisob siyosati va moliyaviy hisobot» nomli 1-son BHMS, «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olingan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot» nomli 3-son BHMS, «Tovar-moddiy zaxiralar» nomli 4-son BHMS, «Inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish» nomli 19-son BHMS, «Xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy-xo'jalik faoliyatining buxgalteriya hisobi hisobvaraqlar rejasi va uni qo'llash bo'yicha yo'riqnoma» nomli 21-son BHMSlar uslubiy asos sifatida qo'llanilishi mumkin.

Moliyaviy hisobotning betarafligi shundaki, undan ham ichki, ham tashqi axborot foydalanuvchilarning manfaatlari mujassamlashgan. Ichki moliyaviy tahlilda korxonada ko'proq moliyaviy natijalarni yuzaga chiqish o'рни, shakli bo'yicha o'zgarishlariga ahamiyat beriladi, ya'ni ularning analitik qatoriga ko'proq ahamiyat beriladi.

Foyda iqtisodiy kategoriya, uning umumiy mohiyati quyidagicha ifodalanadi:

- firma, kompaniya, korxonalarining qisqa va uzoq muddatli rivojlanishining asosiy manbayi;
- kreditga layoqatligini ifodalovchi ko'rsatkich ;
- mulk egasining asosiy maqsadi;
- raqobatga bardoshlikning mezoni;
- ijtimoiy - ehtiyojlarni qondirishning manbayi;

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi umumlashgan ma'lumotlar moliyaviy hisobotning muhim shakli 2-shaklda «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi» hisobot shaklida ifodalanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot choraklik hisobot shakliga kirib barcha xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan tuziladi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot va uni to'ldirish tartibi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002-yil 27-dekabrda 140-sonli buyrug'i asosida belgilanadi.

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot shaklining asosiy ko‘rsatkichlariga quyidagilar kiritiladi:

1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi (sof) tushum.
2. Mahsulot sotishdan yalpi foyda.
3. Asosiy faoliyatdan foyda (zarar).
4. Moliyaviy faoliyatdan foyda (zarar).
5. Umumxo‘jalik faoliyatidan foyda (zarar).
6. Favqulodda foyda (zarar).
7. Soliq to‘langunga qadar foyda (zarar).
8. Sof foyda (zarar).

Ushbu ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilish yuzasidan albatta korxonaning quyidagi xarajat qatorlarini ham tarkiblash va farqlash lozim.

1. Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi.
2. Davr xarajatlari.
3. Moliyaviy faoliyatdan xarajatlar.
4. Favqulodda xarajatlar.

Daromad va xarajatlarning bu tarkib turkumlanishi quyidagilarga imkon beradi:

❖ Ishlab chiqarish xarajatlarini boshqa xarajatlardan farqlash va korxonada ishlab chiqarish faoliyati samaradorligiga baho berish.

❖ Moliyaviy boshqaruv yuzasidan operatsion xarajatlarni boshqa xarajatlardan farqlash.

❖ Korxonada tomonidan olinadigan daromadlarni ularning yuzaga kelishi yoki shakllanishi bo‘yicha alohida tarkiblash (asosiy faoliyatdan, moliyaviy faoliyatdan hamda kutilmagan holatlardan).

Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi yangi hisobot shakli ularning har bir shakllanish qatori bo‘yicha to‘liq axborotlarni olish imkonini beradi. Bu axborotlar ichki va tashqi axborot foydalanuvchilarining manfaatlar to‘qnashuvini keltirib chiqarmaydi. Agar shunday bo‘lganda moliyaviy hisobotni tuzish qoidasi buzilgan bo‘lar edi, chunki moliyaviy hisobotdagi ma’lumotlarda hech qachon bir turkum axborot foydalanuvchilar foydasiga boshqa turkum zarari hisobiga aks ettirishlar bo‘lmasligi talab etiladi. Ushbu qoida O‘zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» Qonunining 6-moddasida ko‘rsatilgan.

1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum qatori. Mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan jami tushum summasidan sotishga soliqlar, to‘lovlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi.

Sotishga soliqlar, to'lovlar, ajratmalarga quyidagilar kiritiladi:

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- reklama solig'i;
- mahsulot hajmidan ijtimoiy sug'urta bo'limiga ajratma va h.k.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotilgan qatorga kiritishning, odatda, ikkita sharti xarakterlanadi. Bular kassali va hisobga olish usullaridir. Kassali usulning mohiyati shundaki, bunda mahsulotlar ortib jo'natilib hisob hujjatlari taqdim etilgan va ularning hisob raqamiga puli kelib tushgandan keyingina sotilgan hisoblash va tushum qatoriga qo'shish, sotishga soliqlar summasini ham ularning amalga oshish davriga muvofiq hisoblashni xarakterlaydi. «Buxgalteriya hisobi to'g'risidagi» qonunning qabul qilinishiga qadar respublikamizda ushbu usul qo'llanib kelindi.

Mahsulot (ish va xizmat)larni sotilgan qatorga kiritishning yoki daromadlarni tan olishning hisobga olish usuli esa ularning ortib jo'natilib, hisob hujjatlari taqdim etilgan vaqti bo'yicha hisobga olish bilan xarakterlanadi. Bunda pul tushumlari yoki to'lovlarning amalga oshish vaqtiga ahamiyat berilmaydi. Sotishga soliqlarning hisob-kitobi ham bevosita ularning tushum sifatida tan olish vaqti bo'yicha hisobga olinadi.

2. *Mahsulot sotishdan yalpi foyda.* Mahsulot sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija – foyda yoki zarar quyidagi bog'lanishlar asosida, ya'ni mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot (ish va xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi.

Korxonada foydasining asosiy qismini bevosita mahsulot (ish va xizmat) lardan olingan foyda tashkil etadi.

3. *Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi* (foyda yoki zarar). Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasi quyidagi bog'lanishlarda, ya'ni mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan foyda summasidan davr xarajatlari tarkibiga kiruvchi sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va boshqa umumxo'jalik xarajatlarini chegirish hamda asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlarni tartibli farqlash asosida aniqlanadi.

4. *Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda (zarar).* Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar qatoriga moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda quyidagi umumlashgan ko'rsatkichlar kiritilgan.

- sho'ba va qo'shma korxonalaridan olingan dividendlar;
- boshqa olingan dividendlar;
- sho'ba va qo'shma korxonalariga berilgan va olingan qarzlarning bo'yicha foizlar;
- boshqa to'langan va olingan foizlar;
- valuta kursining o'zgarishidan farqlar;
- moliyaviy faoliyatdan boshqa daromadlar va xarajatlar.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining moliyaviy natijasiga moliyaviy faoliyatdan olingan natijani qo'shish asosida umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natija (foyda, zarar) aniqlanadi.

5. Umumxo'jalik faoliyatidan moliyaviy natija. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan moliyaviy natija soliq to'loviga qadar foyda summasidan yoki hisob foydasi summasidan favqulodda foyda va zararlar summasiga farq qiladi.

Umumxo'jalik faoliyatidan olingan foyda summasi moliyaviy natijaning shakllanish qatori emas, balki uni jamlovchi qator sifatida tarkiblanadi.

6. Favqulodda foyda (zarar). Favqulodda foyda (zarar) – korxonadan tomonidan odatiy hol hisoblanmagan va uch yillik oraliqda bunday faoliyat bilan shug'ullanmagan holatlardan oladigan daromad va yo'qotishlar favqulodda foyda va zararlar qatoriga kiritiladi.

Favqulodda foyda va zararlar moliyaviy natijalar shakllanishining uchinchi tarkibi sifatida qaraladi.

Kutilmagan suv toshqini, yong'inlar, tabiiy ofatlar ta'siridagi yo'qotishlar ham ushbu qatorga kiritiladi. Ular bo'yicha foyda va zararlarining boshqa shakllanish qatorlarida soliqqa tortish bo'yicha hech qanday farqlanish yo'q. Agar foyda olinadigan bo'lsa, u bo'yicha ham tegishli tartibda soliq to'lanadi, zarar olinadigan bo'lsa, umumxo'jalik faoliyatidan olinadigan foyda summasi zarar summasiga kamaytiriladi. Lekin amaliy kuzatishlar natijasi shuni ko'rsatadiki ularning shakllanish ehtimoli nihoyatda qisqa yoki kam. Bo'lgan taqdirda ham faqat zarar shaklida bo'lishi mumkin.

7. Soliq to'loviga qadar foyda (zarar). Soliq to'loviga qadar foyda (zarar) summasi umumxo'jalik faoliyatidan foyda (zarar) summasiga favqulodda foyda (zarar) summasini qo'shish asosida aniqlanadi. Soliq

to'loviga qadar foyda summasi axborot iste'molchilari e'tiboridagi va kuzatuvidagi qator hisoblanadi. U bevosita asosiy faoliyatning moliyaviy natijasidan, moliyaviy faoliyatning moliyaviy natijasidan hamda favqulodda foyda va zararlar jamlangan summasidan iborat bo'ladi.

8. Sof foyda (zarar). Sof foyda korxonada qoladigan foyda summasini ifodalaydi. Ushbu qator soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasidan foyda (daromad)dan to'langan soliqlar va boshqa solikli to'lovlarni chegirish asosida aniqlanadi.

Sof foyda korxonaning erkin tasarruf shartidagi va foydalanishidagi foyda summasidir, lekin sof foyda summasi ham turli to'lovlar va ajratmalar bazasi sifatida olinishi mumkin ekan. Masalan, korxonada sof foydasidan olinadigan ijtimoiy infrastrukturani rivojlantirishga ajratmalar, futbol federatsiyasiga ajratmalar va boshqa to'lovlar va ajratmalarni shular qatoriga kiritish mumkin.

Sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi ko'rsatkichida faqat sotilgan mahsulotnigina ishlab chiqarish tannarxi aks etadi. Mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi esa uning uchun ketgan barcha ishlab chiqarish xarajatlarining qiymatini o'zida ifodalaydi.

Davr xarajatlari qatoriga sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar va operatsion xarajatlar kiradi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar qatoriga foizlar bo'yicha xarajatlar, bank xizmat haqi xarajatlari, valuta kursining tushib ketishidan yo'qotishlar va boshqa sarflar kiradi.


Favqulodda xarajatlar qatoriga kutilmagan holatlar ta'sirida yuzaga keladigan xarajatlar kiritiladi.

Soliqqa tortiladigan foydani aniqlash uchun soliqqa tortilgungacha bo'lgan foydaga:

- Nizomda keltirilgan birinchi ilovaga asosan chegirilmaydigan xarajatlar yoki doimiy tafovutlar qo'shiladi;
- Nizomda keltirilgan ikkinchi ilovaga binoan vaqtlar bo'yicha tafovutlar qo'shiladi yoki ayirib tashlanadi;
- qabul qilingan soliqlar bo'yicha qonunlarga binoan korxonalarda soliqlar bo'yicha tasdiqlangan imtiyozlar ayirib tashlanadi.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot yil bo'yicha har bir chorakka jamlangan hisobda tuziladi. Uni topshirish organlariga soliq idoralari, bank tashkilotlari, yuqori tashkilotlar kiritiladi. O'lchov qiymati *ming so'm* hisobida hisobga olinadi, shuningdek, ushbu hisobot

shakliga spravka, ma'lumotnoma shaklida budgetga to'lovlari hisobi ham kiritilgan. Unda korxonadan respublika va mahalliy budgetga to'laydigan soliqlar to'lovi bo'yicha hisobga olingan va to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotlar ko'rsatiladi.



32-chizma. Foydani shakllanishi.

Foyda mulk shaklidan qat'iy nazar barcha korxonalar faoliyatini baholash ko'rsatkichi va rag'batlantirish manbayidir.

Shu tufayli faoliyatni obyektiv baholash uchun foyda tarkibi, tuzilishi, uni tashkil etuvchi elementlarini dinamik tarzda chuqur o'rganmoq lozim.

Foyda nafaqat mahsulot birligi uchun qilingan xarajatlarni qisqartirish, balki mahsulot sotish hajmining belgilangan assortimentda

ortishi, talab va ehtiyojni hisobga olgan holda yuqori rentabellikka ega mahsulot turlarini ko‘proq ishlab chiqarishga erishishga ham bog‘liq. Shu bois korxonada faoliyatining barcha tomonlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar bilan uzviy bog‘langan holda foyda kompleks tarzda tahlil etilishi maqsadga muvofiqdir. Foyda miqdorini tahlil etishda gorizontaal va vertikal tahlil metodlari muhim o‘rin tutadi.

89-jadval

Foydaning gorizontaal tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Hisobot yili – o‘tgan yilga nisbatan, %
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum	4547,8	6548,9	144,0
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat) tannarxi	2865,5	4449	155,2
Yalpi foyda (1 satr-2 satr)	1682,3	2099,9	124,8
Balans aktivi	7744,5	10543,7	136,1
Davr xarajatlari	435,9	572,5	131,3
Sof foyda	32,1	112,6	350,8

Gorizontaal tahlil natijalari asosidagi xulosalar:

- tushumning o‘shish sur‘ati (1,44)ning balans aktivining o‘shish sur‘ati (1,36) ga nisbatan yuqori bo‘lishi balans aktivi aylanishining tezlashishiga, samaradorligining ortishiga olib kelgan;

- sof foyda (3,508)ning yalpi foyda (1,248) ga nisbatan o‘shish sur‘atini yuqori bo‘lishi korxonada soliq siyosati ratsional tarzda tashkil etilganligini ifodalaydi;

- sotishdan kelgan tushum (1,44) o‘shish sur‘atining yalpi foyda (1,248) ga nisbatan yuqori darajada bo‘lishi ishlab chiqarish xarajatlarining ortib ketishiga olib kelgan;

- sotishdan kelgan tushumning davr xarajatlariga nisbatan yuqori sur‘atlarda o‘shishi davr xarajatlaridan nisbiy iqtisodga 55,1 mln so‘m $[572,5-(435,9 \times 1,440)]$ olib kelgan.

Vertikal tahlil orqali foyda turlari tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarga baho beriladi. Foyda solig‘i to‘lagunga qadar foydaga nisbatan yalpi foyda, davr xarajatlari, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko‘rilgan daromad, asosiy faoliyatning foydasi, moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromad va xarajatlar, umumxo‘jalik faoliyatining foydasi,

favqulodda foyda va zararlarning tutgan ulushlari o'tgan yildagi ma'lumotlar bilan taqqoslanadi va tegishli xulosa qilinadi.

10.3. Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularning turlari


Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida respublikamizda qabul qilingan amaldagi huquqiy me'yorlarga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy natijalarining shakllanishi Moliya vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan hamda 1999-yil 5-fevralda tasdiqlangan «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to'g'risida»gi Nizomga asosan belgilanadi. ***Mazkur Nizomga muvofiq moliyaviy natijalarning shakllanish qatorlariga quyidagilar kiritiladi:***

1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi moliyaviy natija.
2. Asosiy faoliyatning yalpi moliyaviy natijasi.
3. Moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan natija.
4. Umumxo'jalik faoliyatidan olingan yalpi moliyaviy natija.
5. Favqulodda kutilmagan holatlardan natija.
6. Soliq to'languncha bo'lgan yalpi moliyaviy natija.
7. Yilning sof foydasi (zarari).

Moliyaviy natijalarning bu tarkib turkumlanishini xalqaro hisob andozalariga nisbatan berilgan deyish mumkin. Bunda asosiy faoliyatning moliyaviy natijalari qatorida korxonaning mahsulot sotishdan olgan natijasi, asosiy vositalarni sotishdan olgan natijasi va boshqa aktivlarni sotishdan olgan moliyaviy natijasi aks etadi. Davr xarajatlari ulardan chegiriluvchi qator sifatida olinadi.

Nizomda keltirilgan xarajatlar tasnifi eng avvalo buxgalteriya hisobida xarajatlarni to'g'ri va to'liq aks ettirishga, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisobotini tuzish uchun uning faoliyati moliyaviy natijalarini (foyda yoki zararni) aniqlashga yo'naltirilgan.

Xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatining moliyaviy natijalari foydaning quyidagi ko'rsatkichlari bilan tavsiflanadi:

 mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda, bu sotishdan olingan sof tushum bilan sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi o'rtasidagi tafovut sifatida aniqlanadi:

$$YaF=SST-IT$$

bunda,

YaF - yalpi foyda;

SST- sotishdan olingan sof tushum;

IT - sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi;

✚ asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda, bu mahsulotni sotishdan olingan yalpi foyda bilan davr xarajatlari o‘rtasidagi tafovut, va plyus asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa daromadlar yoki minus boshqa zararlar sifatida aniqlanadi:

$$AFF = YaF-DX+BD-BZ$$

bunda,

AFF-asosiy faoliyatdan olingan foyda;

DX-davr xarajatlari;

BD-asosiy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar;

BZ-asosiy faoliyatdan ko‘rilgan boshqa zararlar;

✚ xo‘jalik faoliyatidan olingan foyda (yoki zarar), bu asosiy faoliyatdan olingan foyda summasi plyus moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromadlar va minus zararlar sifatida hisoblab chiqiladi:

$$UF=AFF+MD-MX$$

bunda,

UF - umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda;

MD - moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar;

MX - moliyaviy faoliyat xarajatlari;

✚ soliq to‘langungacha olingan foyda, u umumxo‘jalik faoliyatidan olingan foyda plyus favqulodda (ko‘zda tutilmagan) vaziyatlardan ko‘rilgan foyda va minus zarar sifatida aniqlanadi:

$$STF=UF+FP-FZ$$

bunda,

STF - soliq to‘langungacha olingan foyda;

FP - favqulodda vaziyatlardan olingan foyda;

FZ - favqulodda vaziyatlardan ko‘rilgan zarar;

✚ yilning sof foydasi, u soliq to‘langandan keyin xo‘jalik yurituvchi subyekt ixtiyorida qoladi, o‘zida daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliqni va minus qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa soliqlar va to‘lovlarni chiqarib tashlagan holda soliqlar to‘langunga qadar olingan foydani ifodalaydi:

$$\mathbf{SF = STF - DS - BS}$$

bunda,

SF - sof foyda;

DS - daromad (foyda)dan to‘lanadigan soliq;

BS - boshqa soliqlar va to‘lovlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar qatoriga korxonaning moliya bozoridagi faolligidan oladigan daromadlari va mulkiy munosabatlardagi ishtirokidan olinadigan daromadlari, erkin almashtiriladigan valuta resurslarini boshqarishdan oladigan daromadlari, korxonaning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadigan turli xarajatlar kiritiladi. Ularning korxonada hisob foydasidagi salmog‘i so‘nggi yillarda tobora oshib bormoqda.

Favqulodda kutilmagan holatlardan daromadlar va xarajatlar qatoriga korxonaning asosiy va moliyaviy faoliyatidan tashqari tasodifiy holatlar bo‘yicha oladigan daromad va xarajatlari kiritiladi. Ularning tarkibiga kiritiladigan aniq ko‘rsatkichlar «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida»gi Nizomda ifoda etilmagan, faqat ularning farqlanishiga ta‘rif berilgan xolos, ya‘ni korxonada uchun yaqin uch yillik oraliqda odatiy hol yoki faoliyat turi hisoblanmagan holatlardan oladigan daromadlari yoki yo‘qotishlar ushbu qatorga kiritiladi (shuningdek, tasodifiy holatlar ham).

Moliyaviy natijalarning shakllanishi bo‘yicha tahlilni quyidagi jadval ma‘lumotlari asosida berish mumkin.

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektining sof foydasi joriy yilda o‘tgan yilga nisbatan 4843 ming so‘mga kamaygan. Sof foydaning kamayishiga, asosan, davr xarajatlarining o‘tgan yilga nisbatan 189388 ming so‘mga ortishi hamda to‘langan soliqlarning, ya‘ni daromad solig‘i va boshqa soliq hamda ajratmalarning o‘tgan yilga nisbatan 182230 ming so‘mga ko‘p to‘langanligi ta‘sir etgan. Ushbu omillar korxonaning mahsulot sotish-

dan olgan yalpi foydasining 349154 ming so‘mga ortganini ham qoplab yubordi demak, korxonada ma‘muriyati birinchi navbatda davr xarajatlarini qisqartirish choralarini ko‘rishi lozim bo‘ladi. Bundan tashqari to‘langan soliqlarning keskin ortishiga qanday omillar sabab bo‘lganligini ham o‘rganib chiqish lozim bo‘ladi.

90-jadval

Moliyaviy natijalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o‘zgarishlarining tahlili

Ko‘rsatkichlar	Yil boshiga		Yil oxiriga		O‘zgarishi (+,-)	
	Summa, ming so‘m	Soliq to‘langun-gacha bo‘lgan foydaga nisbatan salmog‘i,%	Summa, ming so‘m	Soliq to‘langun-gacha bo‘lgan foydaga nisbatan salmog‘i,%	Summa-dagi	Salmog‘idagi
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda	522905	189,69	872059	192,45	+349154	+2,76
2. Davr xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar	-281602	102,16	-470990	103,96	+189388	+1,8
3. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	241303	87,53	401069	88,53	+159766	+1,0
4. Umumxo‘jalik faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi	275657	100,0	453044	100,0	+177387	-
5. Favquloddagi foyda va zararlar	-	-	-	-	-	-
6. Daromad solig‘i to‘lagunga qadar foyda (zarar)	275657	100,0	453044	100,0	+177387	-
7. Daromad (foyda)dan soliq va boshqa soliqlar	245414	89,03	427644	94,39	+182230	+5,36
8. Hisobot davridagi sof foyda yoki zarar	30243	10,97	25400	5,61	-4843	-5,36

10.4. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija va unga ta‘sir etuvchi omillar tahlili

Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalari tarkibida asosiy o‘rinni mahsulot (ish, xizmat)larni

sotishdan olingan yalpi foyda tashkil etadi. Moliyaviy natijalarning asosiy qismi mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan shakllanganligi sababli tahlilda asosiy e'tibor ushbu qatorning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishi va omilli ta'siriga qaratiladi.

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan moliyaviy natija mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulot ish va xizmatlarning ishlab chiqarish tannarxini chegirish asosida aniqlanadi. Savdo tashkilotlarida moliyaviy natijalar tovarlarni sotishdan olingan sof tushumdan shu mahsulotlarni sotib olish qiymatini chegirish asosida aniqlanadi.

Tahlilda sotishning uchta qatori xarakterlanadi.

1. Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan moliyaviy natija.
2. Asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotishdan natija.
3. Boshqa aktivlarni sotishdan olingan natija.

Ularni buxgalteriya hisobida alohida hisob obykti yoki daromadlar-ning yuzaga chiqish shakli yoki o'rni sifatida tarkiblanishi belgilangan. Bunda asosiy vositalarning hisobdan chiqarilishi va sotilishi, boshqa aktivlarni sotishdan olingan natijalar asosiy ishlab chiqarishning boshqa jarayonlari sifatida qaraladi. Ularni moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda operatsion daromadlar va xarajatlar qatori ko'rsatilishi tartiblangan.

Mahsulot ish va xizmatlarni sotishdan olingan foyda yoki zarar o'zgarishida omilli tahlilga alohida ahamiyat beriladi.

Mahsulot sotishdan olingan foyda o'zgarishiga quyidagi omillar ta'sir etishi mumkin:

- ❖ Korxonaning o'ziga bog'liq omillar yoki ichki omillar.
- ❖ Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillar.

Korxonaning o'ziga bog'liq bo'lgan omillarga mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi, hajmi, assortiment va struktura omillari kiritiladi. Uning o'ziga bog'liq bo'lmagan yoki tashqi omillarga davlat soliq siyosatining o'zgarishi, baho omili va boshqa omillar kiradi.

Umumiy jihatdan olganda faqat korxonaning o'ziga tegishli va tegishli bo'lmagan ta'sir omillarini tartiblash qiyin. Ularni faqat nisbiy jihatdan qarash mumkin.

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotilgan qatorga kiritishda bevosita mulkiy egalik va ularni tasarruf etish shartidan kelib chiqiladi. Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda tahlilida bevosita mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik shartiga ham baho berish

mumkin. Mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik sharti mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan tushum summasidan barcha o'zgaruvchan xarajatlarni chegirishni xarakterlaydi. Bunda yangidan yaratilgan qiymat faqat o'zgaruvchan qiymatning o'zidan iborat bo'ladi, ya'ni korxonada marjinallik shartida kritik hajm darajasida foyda summasiga ega bo'lmaydi. U faqat ishlab chiqarish xarajatlarini, o'zgaruvchan va o'zgarmas xarajatlarni qoplash darajasidagi mahsulot hajmigagina ega bo'ladi. Mahsulot ishlab chiqarishning marjinallik sharti korxonada ishlab chiqarish rejasi va faoliyat natijaviyligini oldindan belgilash imkonini beradi.


Mamlakatimizda tub islohotlar davriga qadar korxonalar rejali iqtisodiyot sharoitida o'zlarining ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatini ma'muriy buyruqbozlik tamoyillariga tayanib yuritib keldi.

Iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi korxonalarda ishlab chiqarish munosabatlarini iqtisodiyotning obyektiv qonuniyatlariga bo'ysungan holda tashkil etishga majbur etadi. Katta salmoqqa ega bo'lgan davlat korxonalarini xususiylashtirish va davlat tasarrufidan chiqarish jarayoni jadal boshlanib, korxonalar turli mulkchilik shakllari ko'rinishida barpo etildi, o'z navbatida bu davlatning mamlakat ishlab chiqarishidagi hajmi qisqarishiga, uning o'rniga nodavlat sektori ishlab chiqarishi ulushi ortib borishiga olib keldi. Shunday qilib, xususiy sektorni kengaytirish, kichik biznes va fermer xo'jaliklari hamda tadbirkorlikni rivojlantirish borasida tub qurilishga erishildi.

Kengaytirilgan qayta ishlab chiqarish ishlab chiqarishning doimo kengayishini, uning texnikaviy darajasini muntazam ko'tarib turishini talab etadi. Buning uchun ishlab chiqarishda hamma vaqt foydaga erishilishi, realizatsiya qilinishi va undan ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalanish lozim.

Respublikamizda «Mahsulot (ish, xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida» gi Nizom qabul qilinmasdan oldin korxonalar foydasi quyidagi chizmadagi shakllarda hisobga olinar edi.

Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va xarajatlar qatoriga korxonaning moliya bozoridagi faoligidan oladigan daromadlari va mulkiy munosatlardagi ishtirokidan olinadigan daromadlar, erkin almashtiriladigan valuta resurslarini boshqarishdan oladigan daromadlari, korxonaning moliyaviy faoliyatidan kelib chiqadigan turli xarajatlar kiritiladi. Ularning korxonada hisob foydasidagi salmog'i so'nggi yillarda tobora oshib bormoqda.



Manba: E. A. Akramov «Korxonalarining moliyaviy holati tahlili», Toshkent-«Moliya»-2004-yil, 153-bet.

Mahsulot ishlab chiqarish hajmining kritik darajasi ham odatda ushbu qator bo'yicha o'rganiladi. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda korxonaning foyda ham, zarar ham ko'rmasdan faoliyatko'rsatishi uchun ishlab chiqarishi kerak o'lgan mahsulot (ish va xizmat)lar hajmini belgilash hisoblanadi. Kritik hajm darajasida mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan tushum faqat shu mahsulot ish va xizmatlarga ketgan o'zgaruvchan va doimiy o'zgarmas xarajatlarni qoplashga yetishi kuzatiladi.

Kritik hajm darajasi amaliyotga endigina kirib kelayotgan ko'rsatkich hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichni aniqlash asosida korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rejasini yoki foyda rejasini oldindan chamalash, belgilashda asosiy ko'rsatkich sifatida foydalanashimiz mumkin.

Tahlilda kritik hajm darajasi va uni aniqlashning usulubiy bog'lanishlari belgilanadi, shuningdek, uning o'zgarishini omilli tahlil etish orqali o'rganiladi.

Kritik hajm darajasini quyidagi formula shaklida ifoda etish mumkin. Bunda bevosita mahsulotning qiymat ifodasidan yoki sotish bahosidan kelib chiqiladi. Mahsulotning qiymat ifodasini esa quyidagicha belgilash mumkin.

$$\text{Mahsulot qiymati} = \text{O'zgaruvchan xarajat} + \text{O'zgarmas xarajatlar} + \text{foyda.}$$

Bundan kritik hajm darajasiga yuqorida berilgan ta'rifdan kelib chiqqan holda quyidagi bog'lanishni berish mumkin.

$$\text{Kritik hajm darajasida mahsulot hajmi} = \text{O'zgaruvchan xarajatlar} + \text{o'zgarmas xarajatlar} + 0$$

Bu bevosita qiymatni iqtisodiy kategoriya sifatida belgilashdagi ifodalashning o'zidan iborat, ya'ni:

$$\text{Mahsulot hajmi} = \text{Doimiy kapital} + \text{O'zgaruvchi kapital} + \text{Foyda}$$

Kritik hajm darajasida mahsulot ishlab chiqarishning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin.

- mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlarning o'zgarishi;
- mahsulot birligining bahosi;
- mahsulotlar miqdor o'zgarishlari;
- o'zgarmas xarajatlar o'zgarishi va hokazo.

Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasini quyidagi misol asosida aniqlash mumkin.

91-jadval

Mahsulot ishlab chiqarish kritik hajm darajasi tahlili

Ko'rsatkichlar	Summasi
Mahsulot birligining bahosi	500
Jami o'zgarmas xarajatlar	100000
Mahsulot birligiga to'g'ri keladigan o'zgaruvchan xarajatlar	300

Aniqlash kerak:

Kritik hajm darajasini

- qiymat ifodasi;
- miqdor ifodasi;

$$\text{Kritik hajm darajasi} = 1 - \frac{\text{Jami o'zgarmas xarajatlar}}{\text{birlikka o'zgaruvchan xarajat}} \cdot \frac{1}{\text{birlik bahosi}}$$

Yuqoridagi belgilashlardan kritik hajm darajasini aniqlash mumkin.

$$\text{Kritik hajm} = \frac{100000}{300} = 250000 \text{ so'm}$$

$$1 - \frac{300}{500}$$

Kritik hajm darajasining qiymat ifodasini uning birlik bahosiga bo'lish asosida kritik hajm darajasida mahsulot miqdorini aniqlash mumkin.

$$\text{Kritik hajm} = \frac{250000}{500} = 500 \text{ dona}$$

Uning o'zgarishini bevosita yuqoridagi formula asosida o'zaro bog'lanishlarda aniqlash mumkin.

92-jadval

Mahsulot sotishdan olingan foyda va uning o'zgarishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili o'tgan yil tannarxida	Hisobot yili
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	1452513	2578146	3040381
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	929608	1789537	2168322
3. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	522905	788609	872059

Tahlil etuvchining tushunishi osonroq bo'lishi uchun quyidagi bog'lanishlarni keltirish o'rinlidir.

93-jadval

Mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan yalpi foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yilida sotish hajmi o'tgan yil tannarxida	Hisobot yili
1. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum	Q_0P_0	Q_1P_0	Q_1P_1

2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi	Q_0S_0	Q_1S_0	Q_1S_1
3. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda	$Q_0(P_0 - S_0)$	$Q_1(P_0 - S_0)$	$Q_1(P_1 - S_1)$

Bu yerda:

Q – mahsulot hajmi;

S – mahsulot birligining tannarxi;

P – mahsulot birligining bahosi.

1. Mahsulot hajmining o'zgarishi:

$$788609 - 522905 = +265704.$$

2. Baho va ishlab chiqarish tannarxi o'zgarishining yalpi foyda o'zgarishiga ta'siri:

$$872059 - 788609 = +83450.$$

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, tahlil qilinayotgan korxonada joriy yilda mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda miqdori o'tgan yilga nisbatan 349154 ming so'mga o'sgan. Bu o'zgarish quyidagi omillar hisobiga bo'lgan: ya'ni mahsulot ishlab chiqarish hajmining miqdor jihatidan o'zgarishi hisobiga mahsulot sotishdan olingan foyda summasi 265704 ming so'mga ortgan. Umuman olganda korxonaning mahsulot sotishdan olingan yalpi foydasining ortishiga, asosan, mahsulot hajmi miqdorining o'sishi sabab bo'lgan. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foydaning o'sganligini ijobiy holat sifatida baholamoq lozim.

10.5. Davr xarajatlari tahlili

Davr xarajatlari deyilganda – bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lmagan xarajatlar va sarflar tushuniladi. Davr xarajatlari tarkibiga mahsulot ishlab chiqarish tannarxiga kiritilmaydigan xo'jalik sarflari kiritiladi. ***Ularni yuzaga chiqish shakli va o'rniga qarab quyidagilarga ajratish mumkin.***

- sotish xarajatlari;

- ma'muriy xarajatlar;

- boshqa umumxo'jalik xarajatlari.

Sotish xarajatlari «Mahsulot (ish bajarish, xizmat ko'rsatish)lar ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalar-

ning shakllanish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq to‘g‘ridan to‘g‘ri korxonada faoliyati natijaviyligi bilan bog‘lanishi tartiblangan.

Sotish xarajatlari mahsulotlarni xaridor va buyurtmachilarga ortib jo‘natish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni o‘z ichiga oladi.

Sotish xarajatlarini ish haqi xarajatlari, ish haqidan ajratmalar, material xarajatlari, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi, reklama xarajatlari, ish va xizmatlar, boshqa xarajat moddalari bo‘yicha tarkiblash va tahlil etish mumkin.

Sotish xarajatlarining qoplanishi korxonaning dastlab hisob foydasidan amalga oshiriladi.

Ma‘muriy xarajatlar qatoriga korxonada boshqaruvi bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiritiladi va ularning korxonada sarflari tarkibidagi salmog‘i sezilarli ulushni tashkil etadi. Bu bevosita rahbarlar va boshqaruv apparatining xizmat xarajatlaridir.

Boshqa umumxo‘jalik xarajatlari qatoriga yuqoridagi tarkibga kiritilmagan xarajatlar – ishlab chiqarishni takomillashtirish, o‘zlashtirish va yangi mahsulotlarni ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlar kiritiladi.

10.6. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili

Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va xarajatlar tahlilida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan tashqari faoliyatlardan olingan daromad va yo‘qotishlari tahlil etiladi. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlar ko‘pincha **operatsion daromadlar va xarajatlar**, deb ham aytiladi. Operatsion xarajatlar va daromadlar qatoriga boshqa sotishlardan olingan daromadlar yoki ular bo‘yicha yo‘qotishlar kiradi.

Korxonaning boshqa operatsion xarajatlariga quyidagilar kiradi: kadrlar tayyorlash va ularni qayta tayyorlash xarajatlari, loyiha va qurilish-montaj ishlarida kamchilikni bartaraf etish xarajatlari, maslahat va axborot tizimlariga haq to‘lash, auditorlik xizmatlari uchun to‘lovlar, salomatlikni muhofaza qilish va xodimlarni ishlab chiqarish jarayonida bevosita qatnashuvi bilan bog‘liq bo‘lmagan dam olishlarni tashkil etish tadbirlari xarajatlari, shahar obodonchilik ishlari va qishloq xo‘jaligiga yordam berish bilan bog‘liq xarajatlar, kompensatsiya va rag‘batlantirish tusidagi to‘lovlar ish haqini hisoblashda e‘tiborga olinmaydigan to‘lov-

lar va xarajatlar, ya'ni moddiy yordam, sog'liqni saqlash obyektlari, qariyalar va nogironlar uylari, bolalar maktabgacha tarbiya muassasalari, sog'lomlashtirish lagerlari, madaniyat va sport obyektlarini asrash xarajatlari, vaqtincha to'xtatib qo'yilgan ishlab chiqarish quvvatlari va obyektlarini saqlash xarajatlari, bank xizmati uchun to'lovlar, har xil xayriya jamg'armalari, ekologiya, sog'lomlashtirish, madaniyat, xalq ta'limi, ijtimoiy ta'minot va shu kabi tashkilotlarga badallar, budjetga majburiy to'lovlar, soliqlar va yig'imlar hamda budjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar, zararlar, jarimalar, penyalar va boshqa xarajatlardan iborat.

Asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olingan boshqa daromadlarga quyidagilar kiradi:

- undirilgan yoki qarzdor tomonidan e'tirof qilingan jarimalar va penyalar;
- hisobot yilida aniqlangan o'tgan yilga tegishli foyda;
- yordamchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlardan olingan tushumlar;
- asosiy vositalar, nomoddiy aktivlar va boshqa mol-mulklarni sotishdan olingan daromadlar;
- da'vo bildirish muddati o'tgan kreditorlik va deponent qarzlarni hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar;
- tovar-moddiy boyliklarni qayta baholanishdan ko'rilgan natijalar;
- davlat subsidiyalaridan daromadlar;
- xolisona moliyaviy yordam;
- boshqa operatsion daromadlar.

10.7. Operatsion jarayonlardan olingan daromadlar va yo'qotishlar tahlili

Operatsion jarayonlardan olingan daromadlar qatoriga korxonaning asosiy ishlab chiqarish faoliyatining mahsulot ishlab chiqarish va sotishdan tashqari faoliyatidan olinadigan daromadlar kiritiladi. Ular bo'yicha xarajatlar va daromadlar qatori alohida tarkiblangan holda umumiy summada moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushiriladi. Operatsion daromadlar va xarajatlar o'zining sof qiymati bo'yicha ham moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotga tushirilishi belgilangan. Bunda operatsion jarayonlardan olingan daromadlar ular bo'yicha xarajatlar qiymatiga farqlangan holda hisobotga foyda yoki zarar qatoriga tushiriladi.

Boshqa sotishlar bo'yicha Respublika Soliq kodeksiga muvofiq alohida soliqlar to'lovi qo'llaniladi, shuningdek, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishga soliqlar daromad yoki tushumlarning bu qatori bo'yicha ham amal qiladi. Boshqa sotishlardan sof tushum summasi ham mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan sof tushumni aniqlashdagi kabi uslubiy bog'lanishga ega.

Operatsion jarayonlardan daromadlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Korxonada ortiqcha sanalgan yoki foydalanilmayotgan asosiy vositalarni sotishdan olingan natija, ularni hisobdan chiqarishdan olingan natija, nomoddiy aktivlarni hisobdan chiqarish va sotishdan olingan natija, kapital qo'yilmalar bo'yicha natija, uzoq muddatli ishlatishga olingan, lizing qo'llovidan daromadlar, qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan daromadlar, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotishdan olingan daromadlar, material va xomashyolarni sotishdan olingan daromadlar, valuta mablag'larini sotishdan olingan daromadlar, ular bo'yicha sarflar va yo'qotishlarni o'z ichiga oladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan korxonada joriy yilda jami 106824 ming so'mlik operatsion faoliyatdan foyda ko'rilgan bo'lsa, 189652 ming so'mlik zarar ko'rilgan. O'tgan yilga nisbatan korxonaning operatsion faoliyatidan ko'rgan foydasi 8187 ming so'mga, zarari esa 11398 ming so'mga o'sgan. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, operatsion faoliyatdan ko'rilgan foydaning asosini asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotish, xorijiy valutilarni sotish, materiallarni sotishdan bo'lgan foyda tashkil etgan. Operatsion faoliyatdan ko'rilgan zararlarining asosiy qismini esa asosiy vositalarni hisobdan chiqarish va sotish hisobiga, kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotish hisobiga bo'lgan. Qimmatli qog'ozlar sotishdan olingan zarar summasi esa hisobot yilida bir qadar kamayishiga erishilgan.

94-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektning operatsion faoliyatidagi daromadlar va xarajatlar tahlili (ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili		Hisobot yili		Farqi (+, -)	
	foyda	zarar	foyda	zarar	foyda	zarar
1	2	3	4	5	6	7
1. Asosiy vositalarni sotishdan olingan natija	54793	96387	51389	89328	-3404	-7059
2. Kam baholi va tez eskiruvchi buyumlarni sotishdan olingan natija	-	35697	-	52131	-	+16434

1	2	3	4	5	6	7
3. Valuta mablag'larini sotishdan olingan natija	36982	-	50836	-	+13854	-
4. Mulknii uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan natija	-	-	3645	-	+3645	-
5. Materiallarni sotishdan olingan natija	6862	42397	954	39821	+5908	-2576
6. Qimmatli qog'ozlarni sotishdan olingan natija	-	3773	-	-	-	-3773
7. Nomoddiy aktivlarni sotishdan olingan natija	-	-	-	8372	-	+8372
Jami:	98637	178254	106824	189652	+8187	+11398

Yuqoridagi korxonaga ma'lumotlarini tahlil etish bilan bir qatorda mazkur korxonaga bilan hamkorlik qiluvchi boshqa bir xo'jalik yurituvchi subyektning asosiy faoliyatidagi moliyaviy natijalarini tahlil qilib chiqamiz.

Foydaning shakllanishida asosiy ishlab chiqarish faoliyatining natijasi salmoqli o'rinni egallaydi.

$$AFKF = YaF - DX + BD$$

bunda:

AFKF – asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda;

YaF – yalpi foyda;

DX – davr xarajatlari;

BD – asosiy faoliyatning boshqa daromadlari.

Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaga bir necha omillar ta'sir etadi. Omillar ta'sirini hisoblashdan oldin analitik jadval orqali sotishdan kelgan sof tushumda sotilgan mahsulotning ishlab chiqarish tannarxi, sotish xarajatlari, ma'muriy xarajatlari, operatsion xarajatlari va asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan ko'rilgan daromadlarning hisobot davri va o'tgan yillardagi tutgan ulushlari aniqlanadi. So'ngra asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydani sof tushumga bo'lish orqali rentabellik darajasi, ya'ni tushumning har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori aniqlanadi. Aniqlangan ko'rsatkich ishtirokida har bir omilning foydaga bo'lgan ta'siri hisoblab topiladi.

**Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foydaga ta‘sir
etuvchi omillar tahlili**

T №	Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	O‘tgan yildan farqi	Tutgan ulushi, %		Ulush farqi, %
					o‘tgan yil	hisobot yili	
1	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelgan sof tushum	4547,8	6548,9	+2001,1	100	100	-
2	Sotilgan mahsulotlar tannarxi	2865,5	4449	+1583,5	63,0	67,94	+4,94
3	Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi	1682,3	2099,9	+417,6	x	x	x
4	Sotish xarajatlari	54,2	66,3	+12,1	1,19	1,01	-0,18
5	Ma‘muriy xarajatlar	381,7	506,2	+124,5	8,40	7,73	-0,67
6	Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari va operatsion xarajatlari	-255,9	-219,7	-36,2	5,63	3,35	-2,28
7	Asosiy faoliyatning foydasi (3 satr – 4-5± 6)	990,5	1307,7	+317,2	21,78	19,97	-1,81

Asosiy faoliyatdan ko‘rilgan foyda o‘tgan yilga nisbatan quyidagi omillar ta‘sirida 317,2 mln so‘mga ortgan.

1. Mahsulot sotish hajmi. Bu omilning foydaga bo‘lgan ta‘sirini aniqlashda inflatsiya darajasini hisobga olish lozim. Masalan, inflatsiya darajasi 10 foizni tashkil etgan bo‘lsa, baho indeksi 1,10 ga teng bo‘ladi.

$$ib = \frac{100 + 10}{100} = 1,1\%$$

Hisobot davridagi sotishdan kelgan tushum solishtirma bahoda quyidagicha aniqlanadi:

$$T = T_1 : ib$$

bunda: T – sotishdan kelgan tushum solishtirma bahoda;
 T_1 – hisobot davridagi sotishdan kelgan tushum;
 ib – baho indeksi.

$$T=6548,9:1,10= 5953,5 \text{ mln so‘m.}$$

Demak, hisobot davrida mahsulot sotishdan kelgan tushum baho o'zgarishi hisobiga 595,4 mln so'mga ortgan.

$$6548,9 - 5953,5 = +595,4 \text{ mln so'm.}$$

Sotish hajmining o'zgarishini (baho o'zgarishidan tashqari) foydaga bo'lgan ta'siri quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{(2001,1 - 595,4) \cdot 21,78}{100} = +306,2 \text{ mln so'm.}$$

2. Baho o'zgarishi:

$$\frac{+595,4 \cdot 21,78}{100} = +129,6 \text{ mln so'm.}$$

3. Sotilgan mahsulot tannarxining o'zgarishi:

$$\frac{6548,9 \cdot (+4,94)}{100} = +323,5 \text{ mln so'm.}$$

Tannarx ortishi tufayli foyda 323,5 mln so'mga kamaygan.

4. Sotish xarajatlarining o'zgarishi:

$$\frac{6548,8 \cdot (-0,18)}{100} = -11,8 \text{ mln so'm.}$$

Foyda 11,8 mln so'mga ortadi.

5. Ma'muriy xarajatlar o'zgarishi:

$$\frac{6548,9 \cdot (-0,67)}{100} = -43,8 \text{ mln so'm.}$$

Foyda 43,8 mln so'mga ortadi.

6. Operatsion xarajatlarning kamayishi hisobiga foyda 149,3 mln so'mga ortgan.

$$\frac{6548,9 \cdot (-2,28)}{100} = -149,3 \text{ mln so'm.}$$

96-jadval

Omillar ta'siri natijalari

T №	Omillar ta'siri natijalari	Summa, mln so'm
	Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foydaning o'tgan yildan farqi	+317,2
	Shu jumladan:	
1	Sotish hajmining ortishi	+306,2
2	Mahsulot bahosining o'zgarishi (INFLYaTsIYa)	+129,6
3	Sotilgan mahsulot tannarxining ortishi	-323,5
4	Sotish xarajatlarining pasayishi	+11,8
5	Ma'muriy xarajatlarning kamayishi	+43,8
6	Operatsion xarajatlarning kamayishi	+149,3

10. 8. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va yo‘qotishlar tahlili

Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar va xarajatlar 9510-9590 «Moliyaviy faoliyatdan daromadlar» hisobvaraqlarida alohida aks ettiriladi. Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar va xarajatlar bevosita korxonaning asosiy faoliyatiga daxldor emas. **Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarga «Xarajatlar tarkibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq quyidagilar kiradi:**

1. Olingan royaltlar va sarmoya transferti.
2. O‘zbekiston Respublikasi hududida va uning tashqarisida boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida ulush qo‘shgan holda qatnashishdan olingan daromad, aksiyalar bo‘yicha dividendlar va obligatsiyalar hamda xo‘jalik yurituvchi subyektga tegishli qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha daromadlar.
3. Mol-mulkni uzoq muddatli ijaraga berishdan olingan daromadlar (lizing to‘lovini olish).
4. Valuta schotlari, shuningdek, chet el valutalaridagi operatsiyalari bo‘yicha ijobiy kurs tafovutlari.
5. Sarflangan (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalarga va hokazo) mablag‘larni qayta baholashdan olingan daromadlar.
6. Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar.

Moliyaviy faoliyatdan olingan boshqa daromadlar soliqqa tortishda yalpi daromadga kiritilmaydi.

Moliyaviy faoliyat bo‘yicha daromadlar hisobi «Asosiy xo‘jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMS, «Lizing hisobi» nomli 6-son BHMS, «Moliyaviy investitsiyalar hisobi» nomli 12-son BHMSlar asosida tartibga solinadi.

Moliyaviy natijalar tarkibiga quyidagi ko‘rinishdagi moliyaviy investitsiyalarga oid daromadlar kiritiladi:

- uzoq muddatli va joriy investitsiyalar bo‘yicha foizlar, royalti, dividendlar va ijara to‘lovlari bo‘yicha tushumlar;
- joriy moliyaviy investitsiyalarning sotilishidan olingan daromad;
- qisqa muddatli moliyaviy investitsiyalarning xarid qiymati va bozor qiymatigacha pasaytirilishi va qaytadan qiymatning o‘zgartirilishi;
- balans qiymatining pasaytirilishi, uzoq muddatli moliyaviy investitsiyalar qiymatining vaqtinchalik pasaytirilishi va bu kabi pasaytirishlar qaytadan o‘zgartirilishi hollari bundan mustasno.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda moliyaviy faoliyat bo‘yicha xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan hisob stavkalari darajasida va ulardan ortiqcha olingan qisqa muddatli hamda uzoq muddatli kreditlar bo‘yicha, shu jumladan, to‘lov muddati o‘tgan va uzaytirilgan ssudalar bo‘yicha to‘lovlar.

- Mulknii uzoq muddatli ijaraga olish (lizing) bo‘yicha foizlarni to‘lash xarajatlari.

- Chet el valutasii bilan muomalalar bo‘yicha salbiy kurs tafovutlaridan zararlar.

- Sarflangan (qimmatli qog‘ozlarga, sho‘ba korxonalariga va hokazolarga) mablag‘larni qayta baholashdan ko‘rilgan zararlar.

- O‘z qimmatli qog‘ozlarini chiqarish va tarqatish bilan bog‘liq xarajatlar.

- Moliyaviy faoliyat bo‘yicha boshqa xarajatlar, shu jumladan, salbiy diskont.

Moliyaviy faoliyatdan olingan natija korxonaa faoliyat natijaviy- ligining alohida hisob qatori sifatida tarkiblanadi va tahlil etiladi. Moliyaviy faoliyatdan olingan foyda va zararlar korxonaning fond bozori, moliya bozoridagi faoliyatidan keladigan natijalarni o‘z ichiga oladi. Moliyaviy faoliyatdan olinadigan daromadlar qatori «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan xarajatlar, mahsulot (ish va xizmat)larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanish tartibi to‘g‘risida»gi Nizomga muvofiq tarkiblanadi. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlarning korxonalarining jami hisob foydasi tarkibidagi salmog‘i so‘nggi yillarda bir qadar o‘sib bormoqda. Moliyaviy faoliyatdan olingan daromadlar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin. Masalan, boshqa korxonalar foaliyatida hissali qatnashishdan olingan daromadlar, valuta mablag‘larining kurs o‘zgarishidan olingan daromadlar, boshqa korxonalariga, sho‘ba va qo‘shma korxonalariga berilgan qarzlari bo‘yicha olingan daromadlar, foizlar bo‘yicha olingan va to‘langan daromadlar, aksiyalar bo‘yicha olingan dividendlar summasi.

Tahlilda ularning rejaga va o‘tgan yillarga nisbatan mutlaq va nisbiy o‘zgarishlariga baho beriladi hamda uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi.

Ta’sir etuvchi omillar har bir tarkib qator bo‘yicha alohida va umumiy asosda o‘rganiladi.

Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar moliyaviy natijalar to'g'risidagi moliyaviy hisobotdan va uning qatorlari bo'yicha berilgan izohlardan olinadi.

Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarini iqtisodiy tahlil qilishdan maqsad ularni buxgalteriya hisobotida yuritilish metodikasi va ulardan olingan daromadlar bo'yicha soliqqa tortilish tartiblari respublikamizda tekshirilayotgan davrda, harakatdagi me'yoriy hujjatlarga mos kelishi, shu bilan birga, moliyaviy hisobot ma'lumotlarining ishonchliligi to'g'risida to'laqonli fikr shakllanishi hisoblanadi.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun tahlilchi xo'jalik yurituvchi subyektning ma'lum bir davrga tuzilgan moliyaviy hisobotini o'rganib, undagi amalga oshirilgan moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalariga tegishli ko'rsatkichlarning to'g'riligi, ishonchliligi va to'liqliligi to'g'risida xulosa berishi uchun quyidagi masalalarni yechishga to'g'ri keladi:

- Moliyaviy qo'yilmalarni korxonada aktivlari hisobiga to'g'ri olib borilganini baholash.

- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarini turlicha turkumlanishi nuqtayi nazaridan ularni buxgalteriya hisobida to'g'ri turkumlanishini baholash.

- Buxgalteriya hisobiga kirim qilish davrida ularning qiymatini to'g'ri shakllanganligini aniqlash.

- Moliyaviy faoliyat bo'yicha amalga oshirilgan xo'jalik muomalalarining qonuniyligi va korxonada uchun samaradorligiga baho berish.

- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarining sintetik va analitik hisobi holatini baholash.

- Xo'jalik muomalalarini buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda to'liq va to'g'ri aks ettirilishini baholash.

- Moliyaviy qo'yilmalar inventarizatsiyasi va uning natijalarini hisobda aks ettirilishining to'g'riligini tekshirish.

- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalaridan olingan daromad va xarajatlarni hisobda to'liq va o'z vaqtida aks ettirilishini tekshirish.

- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarining qayta baholanishini to'g'ri va asosligini o'rganish.

- Moliyaviy faoliyat bo'yicha xo'jalik muomalalarining soliq qonunchiligiga rioya etilishini baholash.

10.9. Favquloddagi foyda va zararlar tahlili

Favquloddagi foyda va zararlar moliyaviy natijaviylikning uchinchi tarkib qatori hisoblanadi. Uning qatoriga bevosita tasodifiy holatlardan ko‘riladigan natijalar kiritiladi. Masalan, suv toshqini yoki yer qimirlashi, yong‘in, bo‘ronlar oqibatida yoki boshqa tabiat hodisalari asosida ro‘y beradigan yo‘qotishlar kiritiladi. Favqulodda foyda yoki daromadlar yoki zararlar qatoriga kiritiladigan alohida moddalar «Mahsulot (ish va xizmat)lar tannarxiga kiritiladigan mahsulot (ish va xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi va moliyaviy natijalarning shakllanishi tartibi to‘g‘risida»gi Nizomda aniq ko‘rsatilmagan.

Ularning faqat bitta sharti umumiy Nizomda belgilangan, ya’ni yaqin uch yillik oraliqda korxonada uchun odatiy hol hisoblanmagan holatlardan olinadigan daromadlar yoki foyda summasi korxonada uchun kutilmagan holatlardan olingan daromadlar sirasiga kiritiladi.

Kutilmagan yoki favqulodda holatlardan olingan daromadlar yoki ular bo‘yicha yo‘qotishlar moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobotning alohida tarkib qatori sifatida belgilangan.

Ularni korxonada rejalashtirish amalga oshirilmaydi, ya’ni favqulodda daromad va xarajatlarni rejalashtirilmaydigan qatorga kiritiladi. Ularning hozirgi paytda korxonalar faoliyat natijaviylikdagi salmog‘i sezilarli ta’sirga ega emas.

10.10. Korxonada hisob foydasi (soliq to‘loviga qadar foyda) tahlili

Korxonada hisob foydasi va uning tarkibiga kiritiladigan qatorlar to‘g‘risida yuqorida kengroq to‘xtalgan edik. Korxonada hisob foydasi asosiy ishlab chiqarish faoliyatidan olinadigan natija, moliyaviy faoliyatdan natija, favqulodda faoliyatdan yoki holatlardan natijasi jamlangan holda joriy davr bo‘yicha korxonaning hisob foydasi aniqlanadi. Korxonada hisob foydasi davlatning va axborot foydalanuvchilarining e’tibor shartidagi asosiy qator hisoblanadi. Daromad va xarajatlarni ularning yuzaga chiqish vaqti va o‘rni bo‘yicha yuritilgan holda yakuniy natija ushbu qoida asosida tuziladi.

Korxonada hisob foydasi yoki soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda (zarar) summasidan foyda (daromad) solig'i va foydadan boshqa soliqlar, to'lovlar va ajratmalarni chegirish asosida korxonaning joriy davr bo'yicha sof foyda (zarar) summasi aniqlanadi. Respublikamiz soliq qonunchiligiga muvofiq barcha xo'jalik hisobidagi korxonalar foyda (daromad) solig'i to'lovchilari hisoblanadi va ularning ayrim guruhi bo'yicha doimiy va vaqtinchalik imtiyozlar belgilangan.

Boshqa soliqli to'lovlar qatoriga respublika va mahalliy budjetga tushadigan ayrim tur soliqlar kiritiladi. Yagona soliq to'loviga o'tgan korxonalarda ushbu soliq turi olingan daromaddan qat'iy stavkalarda hisoblanadi va to'lanadi.

10.11. Sof foyda va uning o'zgarishining omilli tahlili

Bozor munosabatlari sharoitida har bir xo'jalik subyekti o'z faoliyati natijasida sof foydaga erishishni ko'zlaydi. Shu sababli ham sof foyda miqdorini o'rganish va unga ta'sir etuvchi omillarga baho berish korxonada samaradorligini oshirishga olib keladi. Korxonada ixtiyorida qoladigan va uning erkin tasarrufidagi foyda sof foyda deyiladi. Ushbu ko'rsatkich soliq to'loviga qadar bo'lgan foyda summasidan foyda (daromad)dan soliq va boshqa soliqlar va ajratmalar summasini chegirish asosida aniqlanadi. Sof foyda tahlilida uning o'tgan yillarga, shuningdek, korxonada biznes-rejasi ko'rsatkichlariga nisbatan o'zgarishlari o'rganiladi. Moliyaviy natijaviylikning ushbu yakuniy qatori barcha ichki va tashqi axborotdan foydalanuvchilar e'tiboridagi masala hisoblanadi.

Tashqi axborotdan foydalanuvchilar korxonaning foydalilik darajasiga, o'z aktivlarini maqsadli boshqarishning shartlarini belgilashga ham jiddiy ahamiyat berishadi. Masalan, korxonada mulkida ta'sischi sifatida qatnashuvchilar aksiya egalari kelishuviga yoki xususiy kapitaldagi ulushiga qarab taqsimlanadigan hisob foydasining holatiga hamda korxonada ixtiyorida qoladigan sof foyda bilan qiziqsalar, investitsiya homiylari esa korxonada faoliyatining barqarorligi va o'sish darajalariga ko'proq qiziqadilar.

Bugungi kunda korxonada sof foydasining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- mahsulot, ish va xizmatlarni sotish hajmining o'zgarishi;
- mahsulot, ish va xizmatlar bahosining o'zgarishi;

- mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish xarajatlarining o'zgarishi;
- davr xarajatlarining o'zgarishi;
- moliyaviy faoliyatdan olinadigan foyda va zararlarining o'zgarishi;
- favqulodda foyda va zararlar o'zgarishi;
- foydadan olinadigan soliqlar va solikli to'lovlarning o'zgarishi.

Tahlil etishda har bir omilning sof foyda o'zgarishidagi mutlaq qiymatlari aniqlanadi. Ularning o'zgarishlariga baho berish orqali korxonada foydani o'stirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi.

97-jadval

Sof foyda va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

(ming so'mda)

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda	522905	872059	+349154
2. Davr xarajatlari	-201985	-388162	+186177
3. Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromad va yo'qotishlar	-79617	-82828	+3211
4. Moliyaviy faoliyatdan foyda va zararlar	34354	51975	+17621
5. Favquloddagi foyda va zararlar	-	-	-
6. Foydadan soliq va boshqa soliq hamda ajratmalar	245414	427644	+182230
Joriy yilning sof foydasi	30243	25400	-4843

Jadval ma'lumotlaridan shuni xulosa qilish mumkinki, tahlil qilina-yotgan xo'jalik subyektining hisobot davridagi sof foyda hajmi o'tgan yilga nisbatan 4843 ming so'mga kamaygan. Uning o'zgarishiga har bitta ko'rsatkichning ta'sirini farq qatoriga qarab baholash mumkin. Sof foydaning kamayishiga asosan davr xarajatlarining keskin oshib ketganligi hamda foydadan to'langan soliq summasining o'tgan yilga nisbatan deyarli ikki marta ko'payganligi sabab bo'lgan. Masalan, mahsulot (ish va xizmat)larni sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'tgan yilga nisbatan 349154 ming so'mga o'sishi sof foyda summasining shuncha o'zgarishiga olib kelgan. Davr xarajatlari, asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan zararlar summasining, favqulodda zararlar summasining, foydadan soliqlar summasining o'tgan yillarga nisbatan o'sishi natijasida korxonada sof foydasi o'tgan yilga nisbatan 371618 ming so'mga kamaygan.

Barcha omillar ta'sirida sof foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 4843 ming so'mga kamaygan, demak, korxonada foydani o'stirish yuzasidan 371618 ming so'mlik ichki rezerv mavjud deyish mumkin. Agar korxonada ushbu qatorlar bo'yicha o'zining oldingi yil ko'rsatkichlarini saqlaganda edi yana qo'shimcha tarzda shuncha foyda olishi mumkin edi.

10.12. Rentabellik va uning ko'rsatkichlar tizimi

Korxonada faoliyat natijaviyligiga baho berishning asosiy ko'rsatkichlaridan biri rentabellik ko'rsatkichi hisoblanadi.

Rentabellik – korxonada foydalilik darajasini xarakterlaydi, odatda, uning bir necha turlari hisob-kitob qilinadi. Bu bevosita mulkning shakli bo'yicha daromadlarning yuzaga chiqish o'rni yoki bazasi bo'yicha, foydaning o'zgarishiga ta'sir etuvchi birliklar bo'yicha yoki mustaqil birliklar bo'yicha aniqlanishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida rentabellikning quyidagi turlari aniqlanadi:

1. Ishlab chiqarish xarajatlariga nisbatan rentabellik;

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{ishlab chiqarish xarajatlari}} \times 100 \%$$

Ushbu ko'rsatkich bir so'mlik ishlab chiqarish xarajati hisobiga olingan foyda summasini xarakterlaydi.

2. Asosiy vositalar rentabelligi. Asosiy vositalar rentabelligi har bir so'mlik yoki ming so'mlik asosiy vosita hisobiga to'g'ri keladigan foyda summasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}} \times 100 \%$$

3. Sotish bo'yicha rentabellik. Sotish bo'yicha rentabellik sotilgan mahsulotlarning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Ushbu ko'rsatkich sotishdan olingan yalpi foyda summasini mahsulotlarni sotishdan olingan tushumga bo'lish asosida aniqlanadi, ya'ni:

$$R = \frac{\text{sotishdan olingan foyda}}{\text{sotishdan olingan tushum summasi}} \times 100 \%$$

4. Aylanma aktivlar rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich aylanma aktivlarning har bir so'miga to'g'ri keladigan foyda, sof foyda summasini xarakterlaydi. Aylanma aktivlar rentabelligi olingan sof foyda summasini aylanma aktivlarning o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi.

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{aylanma aktivlar o'rtacha yillik qiymati}} \times 100 \%$$

5. Jami mulk rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning foydalilik darajasini xarakterlovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Bu ko'rsatkich har bir so'mlik mulkka to'g'ri keladigan sof foyda summasini ifodalaydi.

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{korxonaning mulki jami}} \times 100 \%$$

6. O'z mablag'lari rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning o'ziga tegishli bo'lgan mablag'larning foydalilik darajasini xarakterlaydi. Korxonaning sof foydasini uning o'zlik mablag'lari manbayiga bo'lish asosida o'zlik kapitalining foydalilik darajasi o'rganiladi.

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{korxonaning o'zlik mablag'lari}} \times 100 \%$$

7. Qarz mablag'lari rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich korxonaning sof foydasini qarzga olingan mablag'lariga nisbati asosida aniqlanadi. Bu ko'rsatkich har bir so'mlik qarz mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini ifodalaydi.

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{qarz mablag'lari jami}} \times 100 \%$$

8. Asosiy vositalar va moddiy aylanma mablag'lari rentabelligi. Ushbu ko'rsatkich sof foyda summasini korxonaning asosiy vositalari va moddiy aylanma mablag'lari o'rtacha yillik qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi. U har bir so'mlik asosiy va aylanma mablag'iga to'g'ri keladigan foyda summasini xarakterlaydi.

$$R = \frac{\text{sof foyda}}{\text{asosiy va aylanma mablag'lari o'r. yil. qiym.}} \times 100 \%$$

Bugungi kunda amaliyotda keng tarqalgan rentabellik ko'rsatkichlarining ayrimlarini quyidagi jadval misolida tahlil qilib chiqamiz.

98-jadval

Rentabellik ko'rsatkichlari, ularning turlari va ta'sir etuvchi omillar tahlili

№	Ko'rsatkichlar	Utgan yili	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	1452513	3040381	+1587868
2	Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	929608	2168322	+1238714
3	Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan yalpi foyda, ming so'm	522905	872059	+349154
4	Sof foyda, ming so'm	30243	25400	-4843
5	Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati (qoldiq qiymatda), ming so'm	80892	91253	+10361
6	Aylanma mablag'larining o'rtacha yillik qiymati, ming so'm	531756	689066	+157310
7	Korxonaning jami mulki, ming so'm	718546	892557	+174011
8	O'zlik mablag'lari manbayi, ming so'm	460499	729410	+268911
9	Qarz mablag'lari, ming so'm	258047	163147	-94900
10	Mahsulot sotish rentabelligi, %	36,0	28,68	-7,32
11	Asosiy vositalar rentabelligi, %	37,98	27,83	-9,55
12	Aylanma mablag'lari rentabelligi, %	5,69	3,69	-2,0
13	Ishlab chiqarish tannarxi rentabelligi, %	56,25	40,22	-16,03
14	O'z mablag'lari rentabelligi, %	6,57	3,48	-3,09
15	Mol-mulk rentabelligi, %	4,21	2,85	-1,36
16	Umumiy rentabellik, % (4/5+6)*100	4,94	3,25	-1,69
17	Qarz mablag'lari rentabelligi, %	11,72	15,57	+3,85

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida hisobot yilida o'tgan yilga nisbatan aksariyat rentabellik turlari bo'yicha pasayish kuzatilgan. Bu korxonaning samaradorligi pasayib borayotganligidan hamda uning moliyaviy holati yomonlashayotganligidan dalolatdir. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, joriy yilda mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum miqdori +1587868 ming so'mga ortgan bo'lsada, bunga mos ravishda mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi ham, boshqa turdagi aktivlar ham o'sgan. Sof foyda miqdori esa o'tgan yilga nisbatan 4843 ming so'mga kamaygan. Natijada aksariyat rentabellik ko'rsatkichlarida

pasayish tendensiyasi hosil bo'lgan. Korxonada faqatgina qarz mablag'lari rentabelligi 3,85 foizga o'sishi kuzatilgan xolos. Korxonada ma'muriyati rentabellik ko'rsatkichlarini yaxshilash choralarini ko'rishi lozim bo'ladi. Aks holda korxonaning moliyaviy holati tang ahvolga tushib qolishi mumkin.

Daromadlilik yoki balans aktivining xarajatliligi; xususiy va qarz kapitali; sof aktiv, investitsiya, sotish, xarajat va boshqa ko'rsatkichlardan foydalanishni umumlashtiruvchi sifat ko'rsatkichlari daromad, xarajat va moliyaviy natijalarga asoslangan holda hisob-kitob ishlari amalga oshiriladi. Yuqorida nomlari keltirilgan daromadlilik (d) ko'rsatkichlarini hisoblash uchun jami daromad summalari, umumiy aktiv qiymati, sof aktiv, xususiy kapital va qarz kapitaliga nisbatan aniqlanadi.

$$d_{aktiv} = \frac{\text{Davr bo'yicha jami daromad}}{\text{Balans aktivlarining o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{A};$$

$$d_{sa} = \frac{\text{Davr bo'yicha jami daromad}}{\text{Sof aktivning o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{SA};$$

$$d_{xk} = \frac{\text{Davr bo'yicha jami daromad}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{XK};$$

$$d_{kk} = \frac{\text{Davr bo'yicha jami daromad}}{\text{Qarz kapitalning o'rtacha qiymati}} = \frac{\sum \text{Daromad}}{KK}.$$

Daromadlilik ko'rsatkichlarini sotish hajmining har so'miga, ishlab chiqarish tannarxiga hamda daromadlilikni umumlashtiruvchi ko'rsatkich –korxonaning jami daromadlarini, uning xarajatlariga nisbat ko'rinishida ham aniqlash mumkin.

$$d_{daromad} = \frac{\sum \text{Davr bo'yicha daromad}}{\sum \text{Davr bo'yicha xarajat}}.$$

Jami daromad summasining jami xarajatdan yuqori bo'lishi korxonaning sof foydasini ifodalaydi.

R sof foyda = \sum Daromad – \sum Xarajat.

Bu ko'rsatkichlarni aksi bo'yicha ham hisob-kitob ishlarini amalga oshirish tavsiya etiladi.

$$d_{xarajat} = \frac{\sum \text{Davri bo'yicha xarajat}}{\sum \text{Davri bo'yicha daromad}}$$

Jami xarajatlarni jami daromaddan yuqori bo'lishi korxonada faoliyatini zarar bilan yakunlaganligini ifodalaydi. Daromadlilikning umumiy ko'rsatkichlari qatori korxonada daromadi va xarajatlari bo'yicha yakka koeffitsiyentlarini ham aniqlash maqsadga muvofiqdir.

– sotishdan ko'rilgan daromadning jami daromadga ulushi:

$$d_{daromad} = \frac{\text{Davri bo'yicha sotishdan ko'rilgan daromad}}{\sum \text{Korxonaning jami daromadi}};$$

– sotilgan mahsulot tannarxini jami xarajatdagi ulushi:

$$d_{xarajat} = \frac{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}{\sum \text{Korxonaning jami xarajati}};$$

– jami to'liq xarajatni sotishdan kelgan tushumdagi ulushi:

Sotishdan kelgan tushumning har so'miga to'g'ri keladigan xarajat

$$= \frac{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}}{\text{Sotishdan kelgan tushum}}.$$

Daromadlar moliyaviy hisobotlarni tayyorlash va taqdim etishning konseptual asosiga va «Asosiy xo'jalik faoliyatidan olinadigan daromadlar» nomli 2-son BHMSda belgilanishicha, hisobot davri mobaynida aktivlarning ko'payishi yoki majburiyatlarining qisqarishi ko'rinishida iqtisodiy foydaning ko'payishidir, **ular o'z kapitalining ko'payishiga olib keladi** (bundan o'z kapitali egalari tomonidan qo'yilmalar bilan bog'liq ko'payishlar mustasno).

Daromadlar turli aktivlarning ko'payishi ko'rinishida yuzaga keladi; bular nafaqat pul mablag'lari, balki realizatsiya qilinayotgan tovarlar va xizmatlarning o'rniga olingan tovarlar va xizmatlar ham bo'lishi mumkin, agar tovarlar va xizmatlar haqi xaridor tomonidan to'liq to'lanmagan bo'lsa, bunday hollarda, debitorlik qarzlari ham bo'lishi mumkin. Daromadlar, shuningdek, majburiyatlarni kamaytirish ko'rinishida olinishi mumkin, bu esa korxonaning kapitaliga aktivlarning ko'payishi kabi ta'sir ko'rsatadi. Korxonaning daromadlari va xarajatlari hisobi, moliyaviy natijalarni shakllantirish va ulardan foydalanish hisobvaraqlar rejasining so'nggi, to'qqizinchi bo'limida, 9000-9900-son hisobvaraqlarda amalga oshiriladi.

Mazkur hisobvaraqlar tranzit (vaqtinchalik) hisobvaraqlardir, hisobot oyining oxiriga borib ularning barchasi (bundan 92-hisobvaraqlar mustasno) yakuniy moliyaviy natijani aniqlash 9910-hisobvaraqlar bilan yopiladi, uning saldosini keyin 8710-«Hisobot davrining taqsimlangan foydasi (qoplanmagan zarari)» hisobvarag'iga o'tkaziladi. Buxgalteriya hisobotida aks etgan quyidagi xarajat ma'lumotlariga e'tibor qaratilmog'i lozim.

Hisobotlarda odatdagi xo'jalik faoliyatining borishi chog'ida yuzaga keluvchi xarajatlardan tashqari, kelgusida biror-bir iqtisodiy manfaatlarni hosil qilmaydigan xarajatlardan tashkil topgan zararlar ham bo'lishi mumkin. Ularga quyidagi uchala mezonlardan biriga javob beruvchi xarajatlarni kiritiladi:

- kelgusida ma'lum bir daromadlarni keltirib chiqarmaydigan;
- aktivlar sifatida tan olib bo'lmaydigan (kelgusi davrlar daromadlari yoki oldindan to'langan boshqa xarajatlarga o'xshash);
- tashkilot balansida mol-mulkning o'sishiga kiritish mumkin bo'lmagan.

Daromadlilik, foydalilik bir xil ma'noga ega emas. Ayrim iqtisodiyotga oid manbalarda daromadlilik, foydalilik mazmun jihatdan bir deb qaraladi. Masalan, korxonaning ma'lum davrdagi jami daromadi, sof foydasini balans aktiviga nisbati bir xilda nomlanmaydi.

$$\text{Balans aktivi rentabelligi } (R_A) = \frac{SF \cdot 100\%}{A}$$

$$\text{Aktiv daromadlilik} = \frac{\sum \text{daromad}}{A}$$

99-jadval

Korxonaning aktivi, kapitali, majburiyatlari daromadlilik va rentabellik ko'rsatkichlarini hisoblash usuli

T №	Ko'rsatkich nomi	Buxgalteriya hisoboti shakli ma'lumotlari asosida hisoblash tartibi
1.	Balans aktivi daromadlilik ko'effitsiyenti, (dak)	$d_{ak} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl N\textcircled{2})}}{\text{Aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\sum \text{Dar}}{A}$
2.	Xususiy kapital daromadlilik ko'effitsiyenti, (dxk)	$d_{xk} = \frac{\sum \text{Daromad (shakli N\textcircled{2})}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\sum \text{Dar}}{XK}$
3.	Qarz kapitali daromadlilik ko'effitsiyenti, (dqk)	$d_{kk} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl N\textcircled{2})}}{\text{Qarz kapitalining o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{\sum \text{Dar}}{KK}$

4.	Sof aktiv daromadlilik ko'effitsiyenti, (dsa)	$d_{sa} = \frac{\sum \text{Daromad (shakl N\textcircled{2})}}{\text{Sof aktivning o'rtacha yillik qoldig'i}} = \frac{\sum \text{Dar}}{SA}$
5.	Balans aktivining rentabellik ko'effitsiyenti, (Rak)	$R_{ak} = \frac{\text{Soliq to'lagunga qadar foyda}}{\text{Aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{F \text{ soliq TK}}{A}$
6.	Xususiy kapital rentabellik ko'effitsiyenti, (R _{xk})	$R_{xk} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{XK}$
7.	Qarz kapitalining rentabellik ko'effitsiyenti, (R _{qk})	$R_{qk} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Qarz kapitalning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{QK}$
8.	Sof aktiv rentabellik ko'effitsiyenti, (R _{sa})	$R_{sa} = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Sof aktivning o'rtacha yillik qiymati}} = \frac{SF}{SA}$

97-jadvalda keltirilgan rentabellik turlaridan tashqari quyidagi rentabellik ko'rsatkichlarini aniqlash, ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarini hisoblash, kompleks iqtisodiy tahlilning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

$$\begin{aligned} & \text{Sotishdan ko'rilgan rentabellik, \% =} \\ & = \frac{\text{Sotishdan ko'rilgan yalpi foyda}}{\text{Mahsulot sotishdan sof tushum}} \times 100\% = \frac{FN}{N} \cdot 100\%. \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} & \text{Qilingan xarajat qaytimi, \% =} \\ & = \frac{\text{Sotishdan ko'rilgan yalpi foyda}}{\text{Sotilgan mahsulot tannarxi}} \times 100\% = \frac{FN}{SMT} \cdot 100\%. \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} & \text{Jami daromadga nisbatan rentabellik, \% =} \\ & = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami daromad}} \times 100\% = \frac{SF}{\sum \text{Daromad}} \cdot 100\%. \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} & \text{Jami xarajatga nisbatan rentabellik, \% =} \\ & = \frac{\text{Sof foyda}}{\text{Jami daromad}} \times 100\% = \frac{SF}{\sum \text{Xarajat}} \cdot 100\%. \end{aligned}$$

$$\begin{aligned} & \text{Mahsulot birligining rentabelligi, \% =} \\ & = \frac{\left(\begin{array}{c} \text{Mahsulot} \\ \text{bahosi} \end{array} - \begin{array}{c} \text{Mahsulot} \\ \text{tannarxi} \end{array} \right)}{\text{Mahsulot birligining bahosi}} \times 100\% = \frac{F}{B} \cdot 100\%. \end{aligned}$$

97-jadvalda aks etgan korxonalar balansi aktivi, kapitali va majburiyatlarining daromadlilik, rentabellik ko'rsatkichlarini kompleks

baholash tizimini dinamik shaklda bir-biri bilan taqqoslash orqali natijaviy ko'rsatkichlarni ekstensiv va intensiv omillar evaziga o'zgarish natijalarini quyidagi 98-jadval 9.1 va 9.2 satrga joylashtiramiz:

100-jadval

T №	Ko'rsatkichlar	Koeffitsiyentlarning o'sish (pasayish) sur'atlari, %
1.	Balans aktivi daromadlilik dinamikasi koeffitsiyenti	1,031
2.	O'z kapitali daromadlilik dinamikasi koeffitsiyenti	1,026
3.	Qarz kapitali daromadlilik dinamikasi koeffitsiyenti	1,022
4.	Sof aktiv daromadlilik koeffitsiyenti	1,018
5.	$K_j \text{ daromad} = \sqrt[4]{P\omega} = \sqrt[4]{1,031 \cdot 1,026 \cdot 1,022 \cdot 1,018} =$ $= \sqrt[4]{1,101} = 1,024 \cdot 100 = 102,4 \%$	102,4%
6.	Balans aktivi rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,021
7.	O'z kapitali rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,018
8.	Qarz kapitali rentabellik dinamikasi koeffitsiyenti	1,016
9.	Sof aktiv rentabellik koeffitsiyenti	1,014
	$K_j \text{ rent} = \sqrt[4]{P\omega} = \sqrt[4]{1,021 \cdot 1,018 \cdot 1,016 \cdot 1,014} =$ $= \sqrt[4]{1,107} = 1,026 \cdot 100 = 102,6 \%$	102,6%
9.1.	$K_{ekst} = \frac{\Delta K_j \text{ dar} - d; \%}{\Delta K_j \text{ rent}, \%} = \frac{+2,4}{+2,6} = 0,92 \cdot 100 = 92 \%$	+92%
9.2.	$K_{int} = 1 - 0,92 = 0,08 \cdot 100 = 8 \%$	8%

98-jadval ma'lumotlari asosida balans aktivi kapitali va majburiyatlarining daromadliliigi va rentabelligini kompleks baholash natijalari shuni ko'rsatadiki, daromadlilik dinamikasining kompleks ko'rsatkichi ($K_j \text{ daromad} = 102,4 \%$), rentabellik dinamikasining kompleks ko'rsatkichi ($K_j \text{ rent} = 102,6 \%$) darajasidan biroz pastroq. Resurslardan ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti 92 %, intensiv foydalanish (rentabellik) koeffitsiyenti 8 % ni tashkil etgan. Demak, resurslardan foydalanish rentabelligining 92 % ga qadar ko'tarilishi, asosan korxonada daromadining ortishi bilan, faqat 8 % esa sof foydani o'sishi bilan izohlanadi.

10.13. Rentabellikka ta'sir etuvchi omillar tahlili

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni ular-

da qatnashuvchi birliklarga nisbatan belgilash mumkin. Masalan, mahsulotni sotishga nisbatan rentabellik o'zgarishiga sotishdan olingan yalpi foyda summasining o'zgarishi va sotishdan olingan tushumlar summasining o'zgarishi ta'sir etsa, asosiy vositalar rentabelligiga korxonada sof foydasining o'zgarishi va asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi, umumiy rentabellikka bir so'mlik tushumga to'g'ri keladigan sof foyda summasining o'zgarishi, asosiy vositalar qaytimining o'zgarishi va moddiy aylanma mablag'lar qaytimining o'zgarishlari ta'sir qiladi va hokazo.

Rentabellik o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadval ma'lumotlari asosida ham aniq ko'rish mumkin.

101-jadval

Mol-mulk rentabelligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Shartli ko'rsatkich (rentabellik)	Hisobot yili	Jami o'zgarish (+, -)	Shu jumladan	
					Foydani o'zgarishi hisobiga	Mol-mulk qiymatining o'zgarishi hisobiga
1	2	3	4	5	6=4-3	7=3-2
Rentabellik, %	4,21	3,53	2,85	-1,36	-0,68	-0,68

Biz tahlil qilayotgan korxonada hisobot yilida mol-mulk rentabelligi o'tgan yilga nisbatan 1,36 foizga pasaygan. Bunga asosan ikkita omil, ya'ni sof foyda miqdorining hamda mol-mulk qiymatining o'zgarishi ta'sir etgan. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, sof foydaning hisobot davrida kamayganligi hisobiga mol-mulk rentabelligini o'tgan yilga nisbatan 0,68 foizga pasayishiga, mol-mulk qiymatining joriy davrda o'zgarganligi esa 0,68 foizga pasayishiga olib kelgan. Bunday natijalar, odatda, korxonada uchun salbiy holat sifatida baholanadi. Shu sababli korxonada ma'muriyati rentabellikni oshirish choralarini va mavjud imkoniyatlarni izlab topishi lozim bo'ladi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar::

- foyda – iqtisodiy kategoriya;
- foydaning shakllanishi;

- moliyaviy natijalar tahlilining mazmuni va tahlil vazifalari;
- moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, ular bilan qiziquvchilarni jalb etuvchi asosiy ko'rsatkichlar;
- moliyaviy natijalarning shakllanishi;
- sotishdan ko'rilgan foydaga ta'sir etuvchi omillarni hisoblash tartibi;
- foydaning gorizontal tahlili natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar;
- moliyaviy natijalarning vertikal tahlili natijalaridan kelib chiqadigan xulosalar;
- sof foydaning o'zgarish sabablari;
- aktivning rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar;
- korxonaning resurs potensialidan foydalanishini tahlil etish uslubi;
- resurslardan ekstensiv va intensiv foydalanish koeffitsiyentlari;
- davr xarajatlarini tahlil etish uslubi;
- asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan daromadlar va tushumlar;
- moliyaviy faoliyatdan ko'rilgan foyda (zarar)larni tahlil etish tartibi;
- rentabellik turlari, ularning mohiyati va aniqlash tartibi;
- korxonada aktiv (mol-mulk) rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar;
- ishlab chiqarish rentabelligi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- mahsulot turlari bo'yicha rentabellik darajasiga ta'sir etuvchi omillar:
- a) mahsulot tannarxi;
- b) mahsulot birligi bahosi;
- foyda va rentabellikni oshirish yo'llari.

Takrorlash uchun savollar::

1. Moliyaviy natija atamasining lug'aviy ma'nosi nimadan iborat?
2. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Moliyaviy natijalarni o'rganishda qanday ma'lumotlardan foydalaniladi?

4. Foyda qanday shakllarga ega?
5. Foydani tahlil etishda qanday usullardan foydalaniladi?
6. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning foydasi (zarari) tarkibiga nimalar kiradi va uni tahlil qilish qanday amalga oshiriladi?
7. Moliyaviy natijalarning aniqlanish tartibini ko‘rsatib bering.
8. Mahsulot sotishdan olingan yalpi foyda qanday tahlil etiladi?
9. Asosiy ishlab chiqarish faoliyatining yalpi moliyaviy natijasi qanday tahlil qilinadi?
10. Moliyaviy faoliyatdan ko‘rilgan daromad va yo‘qotishlar qanday o‘rganiladi?
11. Umumxo‘jalik faoliyatidan olingan yalpi moliyaviy natija va unga ta‘sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?
12. Favquloddagi foyda va zararlar qanday tahlil etiladi?
13. Soliq to‘languncha bo‘lgan moliyaviy natijalar qanday tahlil etiladi?
14. Sof foydaga qanday omillar ta‘sir etadi?
15. Foyda qanday taqsimlanadi va uning tahlili qanday amalga oshiriladi?
16. Mahsulot ishlab chiqarishning kritik hajm darajasi deganda nimani tushunasiz va u qanday tahlil etiladi?
17. Moliyaviy natijalar qanday baholanadi?
18. Daromadlarning joriy va kelgusidagi qiymatini aniqlash tartibini ko‘rsatib bering.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar::

1-topshiriq.

Quyida ilova qilingan «Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot ma‘lumotlari asosida korxonaning moliyaviy natijalarini mustaqil ravishda tahlil qilib chiqing, xulosalar yozing va takliflar bering.

2-topshiriq.

«Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot ma‘lumotlariga tayanib korxonaning zarar ko‘rmaslik nuqtasini aniqlang.

Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot
(2-sonli shakl)

Ko'rsatkichlar nomi Наименование показателя	Satr kodi Код стр.	O'tgan yilning shu davrida За соответствующий период прошлого года		Hisobot davrida За отчетный период	
		Daromad- lar (foyda) Доходы (прибыль)	Xarajatlar (zarar) Расходы (убытки)	Daromad- lar (foyda) Доходы (прибыль)	Xarajatlar (zarar) Расходы (убытки)
1	2	3	4	5	6
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan sof tushum Чистая выручка от реализации продукции (товаров, работ и услуг)	010	4035485,8	x	4517395,6	x
Sotilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)larning tannarxi Себестоимость реализованной продукции (товаров, работ и услуг)	020	x	2777126,7	x	1725282,9
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishning yalpi foydasi (zarari) (satr 010-020) Валовая прибыль (убыток) от реализации продукции (товаров, работ и услуг) (стр. 010-020)	030	1258359,1		2792112,7	
Davr xarajatlari, jami (satr. 050+060+070+080), shu jumladan: Расходы периода, всего (стр. 050+060+070+080), в том числе:	040	x	3358660,5	x	4320200,4
Sotish xarajatlari Расходи по реализации	050	x	209658,0	x	366798,4
Ma'muriy xarajatlar Административные расходы	060	x	1444062,3	x	2256047,1
Boshqa operatsion xarajatlar Прочие операционные расходы	070	x	1704940,2	x	1697354,9
Kelgusida soliqqa tortiladigan bazadan chiqariladigan hisobot davri xarajatlari Расходы отчетного периода, исключаемые из налогооблагаемой базы в будущем	080	x		x	

1	2	3	4	5	6
Asosiy faoliyatning boshqa daromadlari Прочие доходы от основной деятельности	090	469823,4	x	1703000,8	x
Asosiy faoliyatning foydasi (zarari) (satr. 030-040+090) Прибыль (убыток) от основной деятельности (стр. 030-040+090)	100		1630478,0	174913,1	
Moliyaviy faoliyatning daromadlari, jami (satr. 120+130+140+150+160), shu jumladan: Доходы от финансовой деятельности, всего (стр. 120+130+140+150+160), в том числе:	110	2188640,6	x		x
Dividendlar shaklidagi daromadlar Доходы в виде дивидендов	120	422509,6	x	218253,9	x
Foizlar shaklidagi daromadlar Доходы в виде процентов	130	214552,9	x	294266,2	x
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing)dan daromadlar Доходы от долгосрочной аренды (финансовый лизинг)	140	1497228,5	x	-	x
Valuta kursi farqidan daromadlar Доходы от валютных курсовых разниц	150	31767,9	x	80731,9	x
Moliyaviy faoliyatning boshqa daromadlari Прочие доходы от финансовой деятельности	160	22581,7	x		x
Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar (satr. 180+190+200+210), shu jumladan: Расходы по финансовой деятельности (стр. 180+190+200+210), в том числе:	170	X		X	
Foizlar shaklidagi xarajatlar Расходы в виде процентов	180	x		X	
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha foizlar shaklidagi xarajatlar Расходы в виде процентов по долгосрочной аренде (финансовому лизингу)	190	x		X	

1	2	3	4	5	6
Valuta kursi farqidan zararlar Убытки от валютных курсовых разниц	200	x		X	
Moliyaviy faoliyat bo'yicha boshqa xarajatlar Прочие расходи по финансовой деятельности	210	x		X	
Umumxo'jalik faoliyatining foydasi (zarari) (satr. 100+110- 170) Прибыль (убыток) от общехозяйственной деятельности (стр. 100+110- 170)	220	558162,6		768165,1	
Favquloddagi foyda va zararlar Чрезвычайные прибыли и убытки	230				
Daromad (foyda) solig'ini to'lagunga qadar foyda (zarar) (satr. 220+\-230) Прибыль (убыток) до уплаты налога на доходы (прибыль) (стр. 220+\-230)	240	558162,6		768165,1	
Daromad (foyda) solig'i Налог на доходы (прибыль)	250	x	425367,1	x	565516,7
Foydadan boshqa soliqlar va yig'imlar Прочие налоги и сбори от прибыли	260	x	10623,6	x	16225,2
Hisobot davrining sof foydasi (zarari) (satr. 240-250-260) Чистая прибыль (убыток) отчетного периода (стр. 240- 250-260)	270	122171,9		186423,2	

Budjetga to'lovlar to'g'risida ma'lumot

Ko'rsatkichning nomi Наименование показателя	Satr kodi Код стр	Hisob bo'yicha to'lanadi Причитается по расчету	Haqiqatda to'langan Фактически внесено
1	2	3	4
Daromad (foyda) solig'i, (satr. 281+282), shu jumladan: Налог на доходы (прибыль), (стр. 281+282), в том числе:	280	565531,3	565531,3
Yuridik shaxslardan С юридических лиц	281	565531,3	565531,3

1	2	3	4
Jismoniy shaxslardan С физических лиц	282		
Yalpi tushumdan olinadigan yagona soliq Единый налог с валовой выручки	290		
Belgilangan daromaddan olinadigan yagona soliq Единый налог на временный доход	300		
Yagona yer solig'i Единый земельный налог	310		
Yagona soliq Единый налог	320		
Qo'shilgan qiymat solig'i Налог на добавленную стоимость	330	5401,5	5401,5
Aksiz solig'i Акцизный налог	340		
Yerosti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq Налог за пользование недрами	350		
Ekologiya solig'i Экологический налог	360	24866,1	24866,1
Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq Налог за пользование водными ресурсами	370	475,1	475,1
Import bo'yuicha bojxona boji Импортные таможенные пошлины	380		
Mol-mulk solig'i Налог на имущество	390	45816,6	45816,6
Yer solig'i Земельный налог	400	13234,2	13234,2
Infrastrukturani rivojlantirish solig'i Налог на развитие инфраструктуры	410	16210,7	16210,7
Boshqa soliqlar Прочие налоги	420	1230,4	1230,4
Mahalliy budjetga yig'imlar Сборы в местный бюджет	430		
Budjetga to'lovlarning kechiktirilganligi uchun moliyaviy jazolar Финансовые санкции за просроченные платежи в бюджет	440		
Jami budjetga to'lovlar summasi (280 dan 440 satrgacha, 281 va 282 satrlardan tashqari) Всего сумма платежей в бюджет (стр. с 280 по 440 кроме стр. 281 и 282)	450	672765,9	672765,9

Test savollari:

1. Moliyaviy faoliyatning daromadlari tarkibiga kiradi:

a) foizlar, dividendlar shaklidagi daromadlar, ijaradan, valuta kursi farqidan daromadlar;

b) foizlar shaklidan, dividendlar shaklidan daromadlar, valuta kursi farqidan daromadlar, yordamchi ishlab chiqarishdan tushgan daromadlar;

d) uzoq muddatli (lizing)dan daromadlar, valuta kursi farqidan daromadlar, mol-mulkni sotishdan kelgan daromadlar, hisobot davrida o'tgan yilga tegishli foydani kelib tushishi;

e) foizlar shaklidagi daromadlar, mol – mulkni sotishdan kelgan daromadlar, boshqa daromadlar.

2. Hisobot davridagi korxonaning sof foydasi qanday maqsadlarga sarflanmaydi?

a) ishlab chiqarish xarakteridagi qurilish obyektlariga;

b) o'tgan yilga tegishli zararni qoplashga;

d) kelgusi davr daromadlarini shakllanishiga;

e) yangi texnikani sotib olishga.

3. Balans aktivining rentabellik darajasi qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Balans aktivining o'rtacha yillik qiymati}} \cdot 100\%$;

b) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Uzoq muddatli aktivlar} + \text{Joriy aktivlar}} \cdot 100\%$;

d) $\frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Balans aktivining jami}} \cdot 100\%$;

e) $\frac{\text{Yalpi foyda}}{\text{Balans aktivining o'rtacha yillik qiymati}} \cdot 100\%$.

4. Balans aktivining rentabellik darajasiga qanday omillar ta'sir etadi?

a) sotishdan ko'rilgan rentabellik, daromadning har so'miga to'g'ri keladigan tushum, balans aktivining har so'miga to'g'ri keladigan tushum;

b) sotishdan ko‘rilgan rentabellik, mahsulot birligining rentabelligi, daromadning har so‘miga to‘g‘ri keladigan tushum;

d) balans aktivining har so‘miga to‘g‘ri keladigan tushum, sotishdan ko‘rilgan rentabellik, asosiy faoliyatdan ko‘rilgan rentabellik;

e) sotishdan ko‘rilgan rentabellik, daromadning har so‘miga to‘g‘ri keladigan tushum, asosiy faoliyatdan ko‘rilgan rentabellik.

5. Foydaning mohiyati nimalardan iborat?

a) mulk egasining asosiy maqsadi, raqobatga bardoshlikning mezoni, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning manbayi;

b) korxonalar rivojlanishining asosiy manbayi, mulk egasining asosiy daromad manbayi, rentabellikka ta‘sir etuvchi omil;

d) mulk egasining asosiy maqsadi, raqobatga bardoshlikning mezoni, oborot mablag‘lar aylanishini tezlashtirish omili;

e) korxonalar rivojlanishining asosiy manbayi, ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishning manbayi, kelgusi davr daromadlarining shakllanish manbayi.

6. Mol-mulk rentabelligi qanday aniqlanadi?

a) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{O‘z kapitali}} \times 100\%$;

b) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Korxonaning jami mol-mulki}} \times 100\%$;

d) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Uzoq muddatli aktivlar}} \times 100\%$;

e) $\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Joriy aktivlar}} \times 100\%$.

7. Mahsulot sotishdan ko‘rilgan foydaga qanday omillar ta‘sir etadi?

a) mahsulot sotish hajmi, sotilgan mahsulot tannarxi, operatsion daromadlar;

b) mahsulot ishlab chiqarish hajmi, sotilgan mahsulot bahosi, sotilgan mahsulot tannarxi;

d) sotish hajmi, sotilgan mahsulot tannarxi, operatsion daromad;

e) mahsulot sotish hajmi, sotilgan mahsulot tannarxi, sotilgan mahsulot bahosi.

8. Faoliyat samaradorligining o'sish sur'atini tengsizlikning qaysi varianti aniqroq ifodalaydi?

a) $100\% < \text{kapitalning o'sish sur'ati} > \text{tushumning o'sish sur'ati} < \text{foydaning o'sish sur'ati}$;

b) $100\% < \text{kapitalning o'sish sur'ati} < \text{tushumning o'sish sur'ati} < \text{foydaning o'sish sur'ati}$;

d) $100\% > \text{kapitalning o'sish sur'ati} > \text{tushumning o'sish sur'ati} > \text{foydaning o'sish sur'ati}$;

e) $100\% > \text{kapitalning o'sish sur'ati} > \text{tushumning o'sish sur'ati} < \text{foydaning o'sish sur'ati}$.

9. Davr xarajatlariga qanday xarajatlar kiradi?

a) sotish xarajatlari, ma'muriy boshqaruv xarajatlari;

b) umumsex va umumkorxonalar xarajatlari;

d) amortizatsiya, telefon uchun to'lov, ijara haqi;

e) sotish xarajatlari, ma'muriy-boshqaruv xarajatlari, muomala xarajatlari, tijorat va boshqa umumxo'jalik xarajatlari.

10. Soliq to'lagunga qadar bo'lgan moliyaviy natijani hisoblang:

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1. Mahsulot sotishdan olingan foyda, mln so'm	300	240
2. Operatsion daromadlar	40	50
3. Moliyaviy faoliyatdan foyda	9	7
4. Favqulodda chiqimlar	26	32
Soliq to'lagunga qadar bo'lgan moliyaviy natija	?	?

a) 323:260; b) 323:255; d) 343:265; e) 323:265.

11. Quyidagi ma'lumotlar asosida mahsulot realizatsiyasidan ko'rilgan yalpi foyda miqdorini aniqlang:

(ming so'm)

Ko'rsatkichlar	Miqdori
1. Mahsulot realizatsiyasidan olingan tushum	106850
2. Qo'shilgan qiymat solig'i	20113
3. Aksiz solig'i	726
4. Boshqa soliqlar	168
5. Realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi	65196

a) 41654; b) 40760; d) 20815; e) 20647.

XI BOB. DEBITORLIK VA KREDITORLIK QARZLARI TAHLILI

11.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlari o‘rganishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Debitorlik qarzlardan tushadigan mablag‘lar ishlab chiqaruvchi korxonaning asosiy pul mablag‘lari manbalaridan biri hisoblanadi. Xaridorlar majburiyatlarini o‘z vaqtida bajarmasalar korxonada pul mablag‘lari defitsiti kelib chiqadi, joriy faoliyatini moliyalashtirish uchun korxonaning aylanma aktivlarga bo‘lgan ehtiyoji oshadi, moliyaviy holati yomonlashadi. Bu esa o‘z navbatida korxonada va xaridorlar o‘rtasidagi hisob munosabatlarni o‘zgartirish, kredit va qarzlarni so‘ndirishga qaratilgan mos siyosatni ishlab chiqish kerakligini keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari istalgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar nazorat qilish bo‘yicha asosiy e‘tiborini faqatgina debitorlik qarzlari emas, balki, kreditorlik qarzlari ham qaratadi. Shuning uchun qarzlarning harakati ustidan qo‘yiladigan nazoratning asosiy vazifalaridan biri debitorlik qarzlarning darajasini kreditorlik qarzlari darajasigacha oshmaydigan hajmgacha kamaytirish hisoblanadi.

Debitorlik qarzlari ustidan doimiy nazorat o‘rnatilishi qarzlarning kechikishiga va jarima solishgacha bo‘lgan holatga yo‘l qo‘ymay, o‘z vaqtida so‘ndirilishini ta‘minlashi kerak.

Debitorlik qarzlari korxonada naqd pulning kamayib ketishiga olib keladi, bu o‘z navbatida ishlab chiqarish uzluksizligi buzilishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun debitorlik qarzlari ustidan uzluksiz nazoratni o‘rnatish muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z vaqtida so‘ndirilmagan debitorlik qarzlari bo‘yicha qarzdorlarga nisbatan jazo choralari yoki biror-bir javobgarlikka tortish boshqaruvda muhim sanaladi.

Buxgalteriya hisobida «**debitor**» atamasi muayyan korxonadan qarzdor bo‘lgan jismoniy yoki yuridik shaxsga aytiladi. «**kreditor**» atamasi muayyan korxonani qarzdor qilgan jismoniy yoki yuridik

shaxsga aytiladi. Ya'ni boshqa korxonalarining bu korxonaga oldida hisob-kitoblar bo'yicha majburiyatlari bo'ladi. Bunda korxonaga tomonidan to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlar kreditorklik majburiyatlari, olinishi lozim bo'lgan majburiyatlar esa debitorlik majburiyatlar hisoblanadi. Ikki tomonlama shartnoma majburiyatlarda bir korxonaga ham debitor, ham kreditork bo'lishi mumkin. Masalan, tovar yetkazib berish shartnomasi bo'yicha tovarlar yetkazib berilgan bo'lsa-yu, ularning puli to'lanmagan bo'lsa, mahsulot yetkazib beruvchiga bu summa debitorlik qarzi deb ko'rsatiladi va u debitor, ya'ni xaridorlarga ma'lum summadagi tovarlarni qarzga bergan deb hisoblanadi. Shu korxonaning o'zi mazkur tovarlarni sotib olgan korxonalar uchun kreditork bo'ladi. Xaridor sotib olingan tovar bo'yicha mana shu qarz summasini batamom to'lab bo'lgunicha kreditorklik qarzi deb ko'rsatadi.

➤ **Debitorlik qarzi** – korxonaning aylanmasidan chiqib qolgan va boshqa jismoniy va yuridik shaxslarda turgan mablag'laridir. Korxonaning o'z mablag'lari yoki boshqa korxonalarining mablag'lari bu qarzlarni qoplash manbayi bo'lib xizmat qiladi.

➤ **Kreditorlik qarzi** – boshqa jismoniy va yuridik shaxslardan vaqtincha jalb etilgan mablag'lar. Ulardan shu korxonaning aylanmasida vaqtincha foydalaniladi. Ularni to'lash muddati kelganida bu mablag'lar aylanma mablag'lar summasidan olib berilishi kerak.

Debitorlik va kreditorklik qarzlari korxonalar, xo'jalik subyektlari faoliyatida uchraydigan muammolardan biri hisoblanadi. Ammo, debitorlik va kreditorklik qarzlarning me'yoridan oshib ketishi va to'lov muddatining o'tib ketishi korxonalar moliyaviy holatining yomonlashuviga, ishlab chiqarish jarayonida uzilishlarning vujudga kelishiga sabab bo'lishi mumkin. Bular korxonalar faoliyatida salbiy oqibatlarga olib kelishi bilan bir qatorda, budjetga daromad tushishini kamaytiradi va mamlakat makroiqtisodiy barqarorligiga ham salbiy ta'sir etadi. Shu sababli ham debitorlik va kreditorklik qarzlari muammosi davlat ahamiyatidagi masala sifatida doimo davlat nazorati ostida bo'ladi. Ayniqsa, bunda muddati o'tgan qarzlarga katta e'tibor beriladi. Muddati o'tgan qarzlarning summasi o'sishining oldini olish va ularni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish bugungi kunda har bir korxonaga va tashkilot rahbariyati oldidagi masalalardan biridir.

Ushbu holatni hisobga oladigan bo'lsak, xo'jalik yurituvchi subyektlarda debitorlik va kreditorklik qarzlari tahlilini to'g'ri tashkil etilishi hamda takomillashtirilib borilishi bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy

inqirozi davom etayotgan bir sharoitda eng dolzarb masalalardan biri ekanligini ta'kidlab o'tish lozim.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari hisob-kitoblarning doimiy yo'ldoshi hisoblanadi. Lekin ularning to'lov muddatining oshib ketishi xo'jalik subyektlarining moliyaviy ahvoliga katta ta'sir o'tkazadi. Shu maqsadda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini yuritishda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini to'g'ri boshqarish masalasiga alohida ahamiyat beriladi.

Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarining oldini olish bevosita davlat nazorati va e'tiboridagi masala ham hisoblanadi. Negaki, korxonalar va tashkilotlar o'rtasida bo'ladigan o'zaro munosabatlarda majburiyatlarni tartiblash asosida davlat naqd pul muomalasini boshqarish va iqtisodiy tadbirlar rejasini tuzib chiqish chora-tadbirlari belgilanadi.

Tahlil etishning asosiy maqsadi – debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida chora-tadbirlar belgilashdan iborat. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha hisobot, ma'lumotnomalar har oyning 1-sanasida tuzilib, tegishli tashkilotlarga topshiriladi. Ushbu ma'lumotnomadan korxonaning majburiyatlar balansini ham tuzish mumkin.

Tahlil etishda korxonalarining muayyan davrga bo'lgan o'zaro debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining holatiga, tarkibiga, tashkil topish muddatlariga, yuzaga chiqish sababalariga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oqlanuvchanligiga, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo'yicha dargumon qarzlarning yuzaga chiqishiga baho beriladi.

Bugungi bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida korxonalarining debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini o'rganishda moliyaviy tahlilning asosiy vazifalari:

- debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga chiqish sabablarini o'rganish;
- korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga baho berish;
- debitorlik va kreditorlik qarzlarni vujudga kelish muddatlari bo'yicha tasniflagan holda o'rganish;
- debitorlik qarzlarning tarkibiy tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- kreditorlik qarzlarning tarkibiy tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;

- debitorlik va kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligiga baho berish;
- muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlarning mavjudligini va ularni tugatish yo'llarini o'rganish;
- qarzlarni kamaytirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish va hokazolardan iborat.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- ◆ korxonaning «Buxgalteriya balansi» (1-shakl) ma'lumotlari;
- ◆ «debitorlik va kreditorlik qarzlarning haqida ma'lumotnoma»;
- ◆ buxgalteriya hisobining debitorlik va kreditorlik qarzlarni aks ettiruvchi tegishli schot ma'lumotlari.

11.2. Buxgalteriya balansi bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablari

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bevosita korxonalar bilan qarshi tomon o'rtasidagi o'zaro hisob-kitoblarda kelib chiqadigan majburiyatlardir. Bu majburiyatlar korxonalar bilan mol yetkazib beruvchilar yoki xaridorlar o'rtasidagi munosabatlarda, korxonalar bilan bank tashkilotlari o'rtasidagi, korxonalar bilan soliq organlari o'rtasidagi, korxonalar bilan ijtimoiy taminot bo'limlari va turli jamoat tashkilotlari, shuningdek, xodimlar, mulk egalari, aksionerlar va investorlar bilan bo'ladigan munosabatlarda yuzaga keladi. Ularning yuzaga kelishining asosiy sababi hisob-kitoblarda vaqtning o'zgaruvchanligidir, ya'ni bugun orilgan mahsulot ham puli to'langunga qadar debitorlik va kreditorlik majburiyatlar qatoriga kiritiladi. Bunda daromad va xarajatlarning yuzaga chiqishi bilan ular bo'yicha hisob-kitoblarning amalga oshishi orasida farqlanish kelib chiqadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishida quyidagi sabab qatorlarini tarkiblash mumkin:

- o'zaro hisob-kitoblarda tomonlarning to'lov layoqatiga ega emasligi;
- tovarlarni ortib jo'natish va sotishda hisob-kitoblarning zamonaviy shakllarining cheklanganligi;
- mulk va unga egalik qilishda mas'ullik hissining yo'qligi;

- o‘zaro shartnomaviy munosabatlarning yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi;
- daromadlarni tan olish yuzasidan korxonalar tarmoq xususiyatidan kelib chiqilmaganligi;
- xarajatlar tarkibiga kiruvchi ish va xizmatlarni hisobga olishda qat’iy hujjatlashtirish mezonlarining yo‘qligi;
- xodimlar va kapital egalari bilan korxonada o‘rtasidagi munosabatlarda qat’iy shartlarning yo‘qligi;
- kredit tashkilotlari bilan mijoz o‘rtasida bo‘ladigan munosabatlarda korxonalar faoliyatini baholashning uslubiy asoslaridagi kamchiliklar;
- sug‘urta tashkilotlari bilan korxonalar o‘rtasidagi munosabatlarda qat’iy davlat qonunchilik mexanizmining mavjud emasligi va boshqalar.

Yuqorida ta’kidlanganidek, korxonada debitorlik va kreditorlik majburiyatlari yuzaga kelishining asosiy sababi hisob-kitoblarda to‘lovlar muddatining yoki sanasining turli hisobot davriga tushib qolishidir. Bunda debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining yuzaga chiqishiga har qanday holda ham yo‘l qo‘yiladi. Agarda mahsulotlar ortib jo‘natish orqali sotiladigan bo‘lsa, bunda to‘lovlar amalga oshish sanasiga qadar, agarda tovarlar pulini oldindan to‘lash asosida sotiladigan bo‘lsa bunda ham tovarlarni jo‘natish sanasiga qadar majburiyat, qarz sifatida hisobda aks ettiriladi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari bo‘yicha hisobot, ma’lumotnomalar har oyning 1-sanasiga tuziladi va tegishli tashkilotlarga topshiriladi.

Debitorlik va kreditorlik qarzlari korxonada balans, ya’ni har chorakda tuziladigan korxonada aktivlari, kapitali va majburiyatlari holati to‘g‘risidagi hisobotda ham aks ettiriladi.

11.3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish. Muddati uzaytirilgan qarzlarning vujudga kelish sabablari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarning debitorlik va kreditorlik qarzlari baho berishda ularni balans holatiga keltirib o‘rganish ham mumkin bo‘ladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansida ular orasidagi o‘zaro tenglik nisbatini xarakterlaydi. Bunda debitorlik majburiyatlarining kreditorlik majburiyatlaridan ortib ketishi yoki aksincha holatlari ifodalanadi.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari qatoriga 2002-yil 27-dekabrda tasdiqlangan buxgalteriya balansiga ko'ra quyidagi qatorlar kiritiladi:

Debitorlar tarkibiga:

- ▶ xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi (4000 dan 4900 ning ayirmasi);
- ▶ ajratilgan bo'linmalarning qarzi (4110);
- ▶ sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120);
- ▶ xodimlarga berilgan bo'naklar (4200);
- ▶ mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300);
- ▶ budjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4400);
- ▶ maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500);
- ▶ ta'sisчилarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600);
- ▶ xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi (4700);
- ▶ boshqa debitorlik qarzlari (4800).

Kreditorlar tarkibiga:

- ▶ mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz (6000);
- ▶ ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110);
- ▶ sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz (6120);
- ▶ soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240);
- ▶ olingan bo'naklar (6300);
- ▶ budjetga to'lovlar bo'yicha qarz (6400);
- ▶ sug'urtalar bo'yicha qarz (6510);
- ▶ maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz (6520);
- ▶ ta'sisчилarga bo'lgan qarzlar (6600);
- ▶ mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz (6700);
- ▶ boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900).

102-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektning debitorlik va kreditorlik qarzlari balansi tahlili

Debitorlik qarzlari	Summa, ming so'm	Kreditorlik qarzlari	Summa, ming so'm
1	2	3	4
xodimlarga berilgan bo'naklar (4200)	-	ajratilgan bo'linmalarga qarz (6110)	400

1	2	3	4
xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi (4700)	-	solliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar (6240)	6721
sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi (4120)	1299	olingan bo'naklar (6300)	-
ta'sischi'larning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi (4600)	-	sug'urtalar bo'yicha qarzi (6510)	-
ajratilgan bo'linmalarining qarzi (4110)	-	maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarzi (6520)	-
mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar (4300)	-	ta'sischi'larga bo'lgan qarzlari (6600)	-
maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari (4500)	-	mehnatga haq to'lash bo'yicha qarzi (6700)	-
boshqa debitorlik qarzlari (4800)	67282	boshqa kreditorlik qarzlari (6950 dan tashqari 6900)	25039
Jami	136116	Jami	127554
kreditorlik qarzlari debitorlik qarzlardan ortiqchaligi	-	debitorlik qarzlari kreditorlik qarzlardan ortiqchaligi	8562
BALANS	136116	BALANS	136116

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida xo'jalik subyekting debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tahlil qilib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'rganilayotgan davrda korxonada jami debitorlik qarzlari 136116 ming so'm bo'lgan bo'lsa, jami kreditorlik qarzlari esa 127554 ming so'mni tashkil etgan. Ya'ni debitorlik qarzlari kreditorlik qarzlardan 8562 ming so'mga ko'p bo'lgan. Bu nisbatan ijobiy hol bo'lib hisoblanadi. Debitorlik qarzlari asosiy qismi «budjetga solliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari» 60609 ming so'mni va «boshqa debitorlik qarzlari» 67282 ming so'mni tashkil etmoqda. Bu shundan dalolat beradiki, korxonada to'lov intizomi ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ayniqsa, davlat budjeti oldida qarzidor bo'lib qolmaslik uchun solliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari o'z vaqtida o'tkazib borishga erishgan.

Kreditorlik qarzlari tarkibiga ham e'tibor beradigan bo'lsak, majburiyatlarning asosiy salmog'ini «mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga qarzlari» tashkil etmoqda. Bu esa aksiyadorlik jamiyati o'zining mol yetkazib beruvchilari oldidagi majburiyatlarini yetarli darajada amalga oshirmayotganligidan dalolatdir. Demak, korxonada ushbu majburiyatlarni

qisqartirish choralarini ko‘rish lozim bo‘ladi. Boshqa kreditorlik qarzlari esa 25039 ming so‘mni tashkil qilmoqda.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tengligi 136116 ming so‘mni tashkil etgan. Shundan sof debitorlik majburiyatlari summasi 8562 ming so‘mni tashkil etgan.

Umuman olganda, jami debitorlik qarzlarning kreditorlik qarzlardan ortiqcha ekanligi korxonaga uchun birmuncha ijobiy deb baholanadi. Chunki undirib olishi lozim bo‘lgan qarzi to‘lashi kerak bo‘lgan qarzidan ko‘pdir.

Tahlilda muddati uzaytirilgan debitorlik va muddati kechiktirilmaydigan kreditorlik majburiyatlarining yuzaga kelishiga alohida ahamiyat beriladi. Chunki, muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlar korxonaga moliyaviy ahvoning mushkullashishi va moliyaviy barqarorligining buzilishiga olib keladi. Bu, o‘z navbatida, korxonaning to‘lov layoqati buzilishiga sabab bo‘ladi.

Muddati o‘tkazib yuborilgan majburiyatlarning yuzaga chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirib o‘tish mumkin:

- √ korxonada moliyaviy holatning nosog‘lom ekanligi;
- √ korxonaning to‘lov layoqatiga ega emasligi;
- √ likvid mablag‘lari aylanuvchanligining uzoqligi;
- √ shartnoma majburiyatlariga va to‘lov shartlariga amal qilmaslik;
- √ xo‘jalik shartnomalari buzilishidan ko‘riladigan zararlarning to‘g‘ri qoplanmasligi (shartnomalar buzilishida qo‘llaniladigan choralarga amal qilmasligi);
- √ zamonaviy hisob-kitob shakllariga yo‘l berilmaganligi va hokazolar.

Debitorlik-kreditorlik majburiyatlarining undirib olish muddati 3 oy qilib yoki 90 kalendar kun qilib belgilangan. Ushbu muddatdan so‘ng debitorlik-kreditorlik majburiyatlari nazoratga olinadi hamda ularning holati bo‘yicha davlat qonunchiligiga muvofiq javobgarlik shartlari (ma‘muriy va moliyaviy) belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»ning 150-moddasiga muvofiq qarzlarni yuzasidan da‘vo arizasi berish mumkin bo‘lgan umumiy muddat uch yilni tashkil etadi. Shunga ko‘ra, debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chiqarish muddati sifatida huquqiy shaxslar o‘rtasida ham, korxonaga bilan jismoniy shaxslar o‘rtasida ham 3 yil muddat qilib belgilangan. Ushbu muddatda to‘lanmagan yoki undirib olinmagan majburiyatlar, qarzlarni korxonaga foyda va zararlarga olib

boriladi. Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlari davlat tomonidan nazorat qatori sifatida olingan. Muddati o'tkazib yuborilgan kreditorlik majburiyatlari korxonaga foydasiga qo'shiladi va umumiy asosda foydadan soliq stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi. Muddati o'tgan debitorlik majburiyatlarini zararga olib borish soliqqa tortiladigan foyda summasini kamaytirmaydi.

Muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foyda va zararlar qatoriga olib borish shartlari davlat hisob, soliq qonunchiligiga muvofiq qat'iy tartiblangan, ya'ni debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini foyda va zararlar qatoriga olib borishga qadar ularni to'lash yoki undirib olish yuzasidan qanday yozishmalar yoki murojaatlar bo'lgan, arbitraj qarori chiqarilgan yoki chiqarilmaganligi va hokazolar bo'yicha dastlabki hujjatlar to'plami tayyorlanmog'i lozim. Faqat shundagina uni foyda va zararlar qatoriga olib borish mumkin. Aks holda, zaruriylik shartida kechiktirilgan majburiyatlar sifatida olinib, mas'ullar javobgarlikka tortiladi.

11.4. Debitorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati hamda uning aylanuvchanligi tahlili

Raqobatdosh iqtisodiyotda har bir xo'jalik subyekti o'z faoliyatini olib borish jarayonida, albatta, ma'lum darajadagi debitorlik yoki kreditorlik qarzdorlikka yo'l qo'yadi, chunki ishlab chiqarish korxonalarida mahsulotni yetkazib berish bilan uning to'lovi o'rtasida doimo ma'lum bir vaqt tafovutlari (farqlanishlar) bo'lishi tabiiy. Shu sababli ham debitorlik qarzlarning tarkibiy tuzilishini va ularning vujudga kelish muddatlarini o'rganib, tahlil qilib chiqish muhim hisoblanadi.

Debitorlik qarzlari tarkibi deganda uning yuzaga chiqish qatorlari yoki o'rni tushiniladi. Korxonaga balansi bo'yicha uning quyidagi qatorlarini tarkiblab o'tganmiz. Xaridor va buyurtmachilardan bo'lgan debitorlik qarzlari, xodimlar bilan hisob-kitoblar bo'yicha debitorlik qarzlari, ish haqidagi ajratmalar yuzasidan debitorlik qarzlari, soliqlar va turli boshqa to'lovlar bo'yicha debitorlik qarzlari va hokazo. Shuningdek, debitorlik va kreditorlik majburiyatlari tarkibida muddati o'tgan, to'lov muddati kelgan va to'lov muddati o'tmagan majburiyatlarni alohida tarkiblash mumkin.

Muddati o'tgan va to'lash muddati kelgan majburiyatlar alohida-alohida hisobga olinadi va boshqariladi. Muddati o'tgan debitorlik qarzlari «Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari to'g'risidagi ma'lumotnoma»da alohida qatorlanadi. Ularning respublika ichkarisidagi korxonalar va respublikadan tashqaridagi korxonalar o'rtasida muddati o'tgan majburiyatlarga ajratish mumkin. Muddati o'tkazib yuborilgan majburiyatlar korxonalar moliyaviy holatini og'irlashtiruvchi asosiy sabab sifatida olinadi va muhim e'tibor beriladi.

Tahlil etishda debitorlik qarzlarning hajmi, tarkibi hamda vujudga kelish muddati bo'yicha o'rganish asosida ularning holatiga, aylanuvchanlik darajasiga, debitorlik qarzlari bilan bog'liq bo'lgan moliyaviy holat ko'rsatkichlariga baho beriladi.

103-jadval

Debitorlik qarzlari holati tahlili
(1-yanvar 2012-yil holatiga)

Debitorlik qarzlari moddalari	Davri oxiriga jami	Shu jumladan, yuzaga chiqish muddatlari bo'yicha				
		1 oyga-cha	1 oydan 2 oyga-cha	2 oydan 3 oyga-cha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1. Xaridorlar va buyurtmachilarning qarzi	6926	4582	1432	510	402	-
2. Xodimlarga berilgan bo'naklar	-	-	-	-	-	-
3. Budjetga soliq va yig'imlar bo'yicha bo'nak to'lovlari	60609	41238	14587	3763	1021	-
4. Xodimlarning boshqa operatsiyalari bo'yicha qarzi	-	-	-	-	-	-
5. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlarining qarzi	1299	298	468	367	166	-
6. Ta'sischilarning ustav kapitaliga ulushlar bo'yicha qarzi	-	-	-	-	-	-
7. Ajratilgan bo'linmalarining qarzi	-	-	-	-	-	-
8. Mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga berilgan bo'naklar	-	-	-	-	-	-
9. Maqsadli davlat jamg'armalari va sug'urtalar bo'yicha bo'nak to'lovlari	-	-	-	-	-	-
10. Boshqa debitorlik qarzlari	67282	45983	12450	6100	1491	1258
Jami:	136116	92101	28937	10740	3080	1258

Mazkur jadval ma'lumotlari asosida xo'jalik subyektining debitorlik qarzlari tarkibi, tuzilishi va vujudga kelish muddatlariga baho beriladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonadagi jami debitorlik qarzlari 136116 ming so'm bo'lgan bo'lsa, shundan asosiy qismi, ya'ni 92101 ming so'mligi yoki 67,67 foizi bir oygacha bo'lgan debitorlik qarzlari. Bir oydan ikki oygacha bo'lgan debitorlik qarzlari 28937 ming so'mni yoki 21,25 %ini tashkil qilmoqda. Ikki oydan uch oygacha bo'lgan debitorlik qarzlari 10740 ming so'mni yoki 7,89 %ni tashkil qilgan. Ya'ni 90 kungacha bo'lgan debitorlik qarzlari jami debitorlik qarzlarning 96,81 %ini tashkil qilmoqda. Qolgan 3,19 % debitorlik qarzlarning muddati o'tgan bo'lib hisoblanmoqda. Demak, korxonada mavjud debitorlik qarzlarni undirish choralarini hamda muddati o'tgan qarzlarni bartaraf etish yo'llarini izlab topishi lozim bo'ladi. Aks holda, korxonaning to'lov qobiliyatiga bu salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Debitorlik qarzlari tahlilida ularning aylanuvchanligiga alohida e'tibor beriladi, chunki debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining aylanuvchanlik darajasi korxonada moliyaviy ahvoriga baho berishning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi, deganda qarz majburiyatlarini undirib olish muddati va ularning aylanish koeffitsiyenti tushuniladi. Bu bevosita bugungi yuzaga kelgan majburiyatning necha kundan keyin naqd pulga aylanish darajasini xarakterlaydi.

Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi sotishdan olingan tushumni debitorlik qarzlarning mavjud summasiga bo'lish asosida aniqlanadi.

Debitorlik qarzlarning mavjud summasini tahlil etish davrining kalendar kuniga ko'paytirish va sotishdan olingan sof tushum summasiga bo'lish asosida debitorlik qarzlarning aylanishlar kuni aniqlanadi.

104-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektda debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1	2	3	4
1. Jami debitorlik qarzlari, ming so'm	53266	136116	+82850
2. Mahsulot (ish, xizmat)lar sotishdan olingan sof tushum, ming so'm	1452513	3040381	+1587868
3. Joriy aktivlar, ming so'm	531756	689066	+157310

1	2	3	4
5. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti (2/1)	27,269	22,337	-4,932
6. Debitorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida (1*360/2)	13	16	+3
7. Joriy aktivlari tarkibida debitorlik qarzlari ulushi, % (1/3*100)	10,02	19,75	9,73
8. Muddati o'tgan debitorlik qarzlari ulushi, % (4/1*100)	6,11	3,19	-2,92

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, o'rganilayotgan davrda biz tahlil qilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektda debitorlik qarzlarning holati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 82850 ming so'mga oshgan, ya'ni debitorlik qarzlari o'tgan yilga nisbatan deyarli 2,5 marotabaga ko'paygan. Ayni vaqtda mahsulot sotishdan olingan sof tushum summasi ham o'tgan yilning shu davriga nisbatan 1587868 ming so'mga o'sganligini kuzatish mumkin. Buning ta'sirida debitorlik qarzlarning undirilish davri o'tgan yilga nisbatan 3 kunga uzaygan. Ya'ni debitorlik qarzlarning undirib olinishi birmuncha sekinlashgan. Debitorlik qarzlari aylanishining sekinlashuviga, asosan qarzlarning sof tushumga nisbatan o'sishi yuqori bo'lganligi hisobiga bo'lgan, ya'ni korxonada joriy yilda debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan 4,932 koeffitsiyentga qisqarganligini ham ko'rish mumkin. Joriy davrda debitorlik qarzlarning jami joriy aktivlari tarkibidagi salmog'i o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,73 % ga ortishi, avvalo, debitorlik qarzlarning summasining ortishi hisobiga ro'y bergan. Bunday natijalar korxonaga uchun nisbatan salbiy deb baholanadi hamda korxonaning moliyaviy holati yomonlashuviga olib kelishi mumkin. Shunday bo'lsa-da, joriy davrda korxonaning muddati o'tgan debitorlik qarzlarning jami debitorlik qarzlari tarkibidagi salmog'i o'tgan yilning shu davridagi 16,11 % dan joriy davrning oxirgi hisobot sanasiga 3,19 % ga pasayganligini ijobiy baholash lozim.

Yuqoridagi bog'lanishlardan bevosita debitorlik qarzlarning aylanishiga ta'sir etuvchi omillarning ta'sir darajalarini ham aniqlashimiz mumkin.

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davriga omillar ta'siri quyidagicha bo'lgan. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan 4,932 koeffitsiyentga qisqargan. Bu o'zgarishda mahsulot, ish va xizmatlarni sotishdan olingan sof tushum

summasining o'zgarishi ta'sirida debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti +29,810 koeffitsiyentga, debitorlik qarzlari hajmining o'zgarishi hisobiga esa aylanish koeffitsiyenti -34,742 koeffitsiyentga kamaygan. Har ikkala omil ta'sirida aylanish koeffitsiyenti -4,932 koeffitsiyentga o'zgargan. Ushbu omillar ta'siri debitorlik qarzlarning aylanish davri ko'rsatkichi bo'yicha quyidagicha bo'lgan, ya'ni sotishdan olingan sof tushum summasi hisobiga o'zgarish -7 kunga, debitorlik qarzlarning summasining o'sishi hisobiga +10 kunga o'zgarish kuzatilgan.

105-jadval

Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti va aylanish davri o'zgarishining omilli tahlili

Ko'rsatkichlar	Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	Debitorlik majburiyatlarining aylanish davri, kun hisobida
1. O'tgan yil	27,269	13
2. Shartli hisobot yili	57,079	6
3. Hisobot yili	22,337	16
Jami farq	-4,932	+3
Ta'sir etuvchi omillar:	xxx	xxx
a) sotishdan olingan sof tushum summasining o'zgarishi (2-1)	+29,810	-7
b) debitorlik qarzlari summasining o'zgarishi (3-2)	-34,742	+10

$$\text{Debitorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsiyenti} = \frac{\text{Sotishdan olingan sof tushum haqiqatda}}{\text{Debitorlik qarzlarning o'tgan yil shu davri bo'yicha}}$$

$$\text{Debitorlik qarzlarning shartli aylanish davri} = \frac{\text{Debitorlik qarzlarning o'tgan yil shu davri bo'yicha} * 360}{\text{Sotishdan olingan sof tushum haqiqatda}}$$

11.5. Kreditorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va tashkil topish muddati hamda aylanuvchanligi tahlili

Kreditorlik majburiyatlari qarshi tomonga korxonaning to'laydigan majburiyatlarini xarakterlaydi. Biz yuqorida uning tarkibiga nimalar

kirishini va ularning yuzaga kelish sabablarini tarkiblab oʻtgan edik. Kreditorlik majburiyatlari yuzaga chiqishining asosiy sababi sifatida bevosita debitorlik majburiyatlarining vaqtida kelib tushmasligini ham tarkiblash mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi tahlilida qarzdor boʻlgan tomonlar boʻyicha majburiyatlarning qatorlanishi, ularni toʻlash muddatlari boʻyicha tarkiblanishiga baho beriladi. Shuningdek, debitorlik majburiyatlarining aylanish koeffitsiyenti va aylanish davrini aniqlashdagi kabi bunda ham kreditorlik majburiyatlarining aylanishi koeffitsiyenti va davri aniqlanadi. Lekin, bunda qatnashuvchi koʻrsatkichlar farqlanadi. Kreditorlik majburiyatlari aylanishini oʻrganishda asosiy koʻrsatkichlar sifatida nasiyaga olingan yoki hali puli toʻlanmagan mollar, ashyolar, ish va xizmatlar summasiga hamda kreditorlik majburiyatlarining haqiqiy koʻrsatkichlariga murojaat qilinadi.

Kreditorlik majburiyatlarini tahlil etishda ularning yuzaga kelish oʻrni, muddati va tarkibiga alohida ahamiyat qaratilmogʻi lozim. Muddati oʻtgan kreditorlik qarzlarga yoʻl qoʻyilishi korxonaga nisbatan turli iqtisodiy ogohlantirishlarning qoʻllanilishiga, iqtisodiy jarimalarga hamda korxonaga boʻlgan ishonchning pasayishiga olib keladi.

Kreditorlik majburiyatlarining toʻlash muddatlari boʻyicha quyidagi tarkibini berib oʻtish mumkin:

- toʻlash muddati kelgan majburiyatlari;
- toʻlash muddati oʻtib ketgan majburiyatlari.

Kalendar yili davrining taqsimi boʻyicha kreditorlik majburiyatlarining quyidagi shakllarini berish mumkin:

- 1 oygacha boʻlgan majburiyatlar;
- 1 oydan 2 oygacha boʻlgan majburiyatlar;
- 2 oydan 3 oygacha boʻlgan majburiyatlar;
- 3 oydan 6 oygacha boʻlgan majburiyatlar;
- 6 oydan 1 yilgacha boʻlgan majburiyatlar;
- 1 yildan ortiq mududatga boʻlgan majburiyatlar.

Korxonada jami kreditorlik qarzlarning hisobot davri oxiriga boʻlgan holati 31001 ming soʻmni tashkil qilgan. Shundan 1 oygacha boʻlgan kreditorlik qarzlari 19520,8 ming soʻmni, 1 oydan 2 oygacha boʻlgan kreditorlik qarzlari summasi 7258,1 ming soʻmni, 3 oydan 6 oygacha boʻlgan kreditorlik qarzlari summasi 2700 ming soʻmni tashkil qilgan. Muddati oʻtkazib yuborilgan, lekin undirilmagan kreditorlik qarzlari summasi 540 ming soʻmni tashkil qilgan.

Kreditorlik majburiyatlarining tarkibi va tashkil topish muddati bo'yicha tahlili

Kreditorlik majburiyatlari moddalari	Davr oxiriga jami	Shu jumladan yuzaga chiqish muddatlari bo'yicha				
		1 oygacha	1 oydan 2 oygacha	2 oydan 3 oygacha	3 oydan 1 yilgacha	1 yildan ortiq
1. Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga qarz	90387	51423	12196	15713	10023	1032
2. Ajratilgan bo'linmalarga qarz	400	312	56	32	-	-
3. Sho'ba va qaram xo'jalik jamiyatlariga qarz	5007	4019	872	101	15	-
4. Soliq va majburiy to'lovlar bo'yicha kechiktirilgan majburiyatlar	6721	4198	2103	420	-	-
5. Olingan bo'naklar	-	-	-	-	-	-
6. Sug'urtalar bo'yicha qarz	-	-	-	-	-	-
7. Maqsadli davlat jamg'armalariga to'lovlar bo'yicha qarz	-	-	-	-	-	-
8. Ta'sisчилarga bo'lgan qarzlari	-	-	-	-	-	-
9. Mehnatga haq to'lash bo'yicha qarz						
10. Boshqa kreditorlik qarzlari	25039	18728	1289	3217	1805	-
Jami:	127554	78680	16516	19483	11843	1032

Kreditorlik qarzlarning holatiga ularning aylanish darajalarini o'rganish asosida to'liq baho berish mumkin. Kreditorlik qarzlari aylanuvchanligi bo'yicha quyidagi bog'lanishlar jadvalini keltirib o'tish mumkin.

Kreditorlik majburiyatlarining aylanishi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1	2	3	4
1. Jami kreditorlik majburiyatlari, ming so'm	249458	127554	-121904
2. Sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi, ming so'm	929608	2168322	+1238714
3. Jami majburiyatlar, ming so'm	258047	163147	-94900

1	2	3	4
4. Kreditorlik qarzlarning muddati o'tgani, ming so'm	19856	12875	-6981
5. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti, (2/1)	3,726	16,999	+13,273
6. Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida (1*360/2)	97	21	-76
7. Majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlari ulushi, %da (1/3*100)	96,67	78,18	-18,49
8. Muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning jami kreditorlik qarzlari tarkibidagi salmog'i, % da (4/1*100)	7,96	10,09	+2,13

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida kreditorlik qarzlarning aylanishiga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, korxonada kreditorlik qarzlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 121904 ming so'mga qisqargan. Bunga aksincha, sotilgan mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi esa joriy yilda 1238714 ming so'mga o'sgan. Bularning natijasida korxonada kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilgi 3,726 koeffitsiyentdan hisobot yiliga kelib 16,999 koeffitsiyentgacha ko'tarilgan. Ya'ni kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi bir necha marotabaga tezlashgan. Bunday natijalarni korxonaga uchun ijobiy baholash lozim. Bundan tashqari kreditorlik qarzlarning aylanish davri o'tgan yilgi 97 kundan hisobot yiliga kelib 21 kungacha qisqargan.

Majburiyatlar tarkibida kreditorlik qarzlarning salmog'i ham joriy yilda 18,49 %ga kamayganligini ijobiy baholasak bo'ladi. Ammo muddati o'tgan kreditorlik qarzlarning salmog'i joriy yilda 2,13 %ga ortganligini salbiy baholash lozim bo'ladi. Chunki bunday holat korxonaning iqtisodiy jarimalar to'lashiga olib keladi va moliyaviy holatiga salbiy ta'sir etadi. Kreditorlik qarzlarning aylanishiga bir qator omillar ta'sir ko'rsatgan bo'lib, ushbu ta'sir etuvchi omillarni quyidagi jadvalda ko'rib chiqishimiz mumkin.

Quyidagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, korxonada kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti o'tgan yilga nisbatan joriy yilda 13,273 koeffitsiyentga oshgan. Bu o'zgarishda sotilgan mahsulot tannarxi o'zgarishining ta'siri +4,966 koeffitsiyentga, kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi esa +8,307 koeffitsiyentga teng bo'lgan.

Kreditorlik qarzlarning aylanishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti	Kreditorlik qarzlarning aylanish davri, kun hisobida
1. O'tgan yili	3,726	97
2. Shartli hisobot yili	8,692	41
3. Hisobot yili	16,999	21
Jami farq	+13,273	-76
Ta'sir etuvchi omillar:	xxx	xxx
a) sotilgan mahsulot (ish, xizmat)-lar tannarxining o'zgarishi (2-1)	+4,966	-56
b) kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi (3-2)	+8,307	-20

Kreditorlik qarzlarni to'lash muddati o'tgan yilga nisbatan 76 kunga tezlashgan. Bu o'zgarishda mahsulotlar tannarxining yoki sotib olingan qiymatliklar va xizmatlar summasining o'zgarishi ta'siri 56 kunga, kreditorlik qarzlari summasining o'zgarishi esa 20 kunga teng bo'lgan. Bunday natijalar korxonaning to'lov qobiliyati yaxshilanayotganligidan dalolat beradi.

Kreditorlik qarzlarning aylanishi tahlil qilinayotganda ularning shartli aylanish koeffitsiyenti va shartli aylanish davri kabi ko'rsatkichlar ham tahlil qilib borilishi lozim. Bu ko'rsatkichlar, odatda, quyidagicha aniqlanadi:

Kreditorlik qarzlarning shartli aylanish koeffitsenti va aylanish davri

$$K_A = \frac{2168322}{249468} = 8,692 \qquad A_D = \frac{249468 * 360}{2168322} = 41$$

11.6. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yo'llari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida har bir xo'jalik yurituvchi subyekti moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishi zarur. Demak,

ular iqtisodiy faoliyati davomida yuzaga kelgan debitorlik va kreditorlik qarzlarni imkon qadar o'z vaqtida bartaraf etishi muhim masala hisoblanadi. Shuning uchun ushbu qarzlarning samarali tahlilini o'tkazish va ularni kamaytirish chora-tadbirlari bugungi kunning dolzarb muammosidir. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil qilish asosidagina ularni baholash imkoniyatiga ega bo'lish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1995-yil 12-maydagi «Xalq xo'jaligida hisob-kitoblarni o'z vaqtida o'tkazilishi uchun korxonalar va tashkilotlar rahbarlarining mas'uliyatini oshirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 1996-yil 24-yanvardagi «To'lov intizomini va o'zaro hisob-kitoblar tizimini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risidagi» Farmonlarini bajarish borasida muayyan ishlar olib borilayotganligiga qaramasdan debitorlik-kreditorlik qarzlarni boshqarish murakkabligicha qolmoqda. Jumladan, Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash maqsadida 50 ta korxonaning budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha muddati o'tgan hamda joriy kreditorlik qarzdorligi qayta ko'rib chiqildi. Bu mazkur korxonalar tasarrufida 350 milliard so'mdan ortiq mablag'ni qoldirish, ularning ishlab chiqarish faoliyatini rivojlantirish imkonini berdi.¹

Debitorlik qarzlarni boshqarishni to'g'ri yo'lga qo'yish orqali ular hajmini ortib borishining oldini olish borasida quyidagi amaliy chora-tadbirlardan foydalanish mumkin:

- xaridor va buyurtmachilar bilan muddati uzaytirilgan hamda muddati o'tgan hisob-kitoblar ustidan nazoratni izchil tarzda olib borish;
- bir yoki bir nechta yirik xaridorlar tomonidan mahsulot va xizmatlar haqining to'lanmay qolishi riskini pasaytirish maqsadida ko'psonli xaridorlar bilan ishlashga intilish;

- debitorlik va kreditorlik qarzlari nisbatiga katta e'tibor qaratish; debitorlik qarzining kreditorlik qarzidan sezilarli darajada ortib ketishi qo'shimcha moliyalashtirish manbalarining jalb etilishiga, bu esa, o'z navbatida yuqori stavkali foiz xarajatlarning kelib chiqishiga olib kelishi bilan korxonaning moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Bu nisbatning maksimal chegarasi 1,0 hisoblanadi;

- pul mablag'lari harakati (pul mablag'larining kirimi va chiqimi)ni sinxronlashtirish, ya'ni debitorlik qarzlarning to'lanishi va kreditorlik qarzining so'ndirilishi davrini maksimal darajada bir-biriga yaqinlash-

¹ Karimov I.A. Asosiy vazifamiz – Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. Toshkent: «O'zbekiston», 2010. 38-bet.

tirish. Bu hisob-kitob schotidagi mablag‘lar qoldig‘ini kamaytirish va bank kreditlarini qisqartirishga olib keladi;

■ zamonaviy hisob-kitob usullarini qo‘llash orqali yo‘ldagi pul mablag‘lari hajmini qisqartirish;

■ debitorlik qarzlarni ixtisoslashgan faktoring kompaniyalariga yoki korxonalar xaridorlaridan qarzlarni qaytarib olish bilan shug‘ullanuvchi banklarga sotish;

■ selektivlik – ya‘ni ma‘lum tovarlar guruhi va turlari kreditga sotilmay, balki faqatgina o‘z vaqtida pul o‘tkazish yo‘li bilan sotiladigan oraliqlarni aniqlash. Bunday vaziyat ma‘lum tovarlarga bo‘lgan talabning juda ham ortib ketadigan davrlarda vujudga keladi.

Rivojlangan mamlakatlarda tovarlarni «2/10 to‘liq 30» sxemasida sotishga debitorlik qarzlarni kamaytirish yo‘llaridan biri sifatida qaraladi. U quyidagi tartibda ishlaydi:

▶ agar xaridor mahsulotni olgan kundan boshlab 10 kun ichida mahsulot qiymatini to‘lab bersa, unga mahsulot bahosining 2 % miqdorida chegirma beriladi;

▶ agar xaridor mahsulot qiymatini 11 kun bilan 30 kun oralig‘ida to‘lasa, mahsulot qiymatining 100 %ini to‘laydi;

▶ agar xaridor mahsulot qiymatini bir oy davomida to‘lamasa to‘lov vaqtiga qarab jarimaga tortiladi.¹

Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirishni bitta dastur asosida va uni nazorat qilish asosida uddalab bo‘lmaydi. Buning uchun bevosita keng qamrovli dastur ishlab chiqish lozim.

Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

– o‘zaro shartnomaviy munosabatlarda tomonlarning mas‘ulligi va ularning shartnoma shartlariga qat‘iy amal qilishi;

– muddati o‘tkazib yuborilgan har qanday to‘lovlar summasi bo‘yicha huquqiy javobgarlik shartlarini belgilash;

– hisob-kitoblarning zamonaviy shakllaridan foydalanish;

– dargumon qarzlari bo‘yicha rezervlar tashkil qilish mexanizmini ishlab chiqish va hokazo.

Xulosa o‘rnida aytish mumkin-ki, debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili bu debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga baho berish va ularni

¹ В.В.Бочаров «Управление денежным оборотом предприятий и корпораций» –М.: «Финансы и статистика». 2001. С. 40.

nazorat qilishda juda muhim jarayon sanaladi. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni boshqarish va muddati o'tgan qarzlarni kamaytirish yuzasidan ko'riladigan chora-tadbirlarning samaradorligi birinchi navbatda ushbu jarayonning qanday o'tkazilishiga bog'liq. Bunda muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari tahliliga katta e'tibor berish kerak. Chunki muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari korxonada faoliyati uchun salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Xorijiy mamlakatlar olimlari debitorlik qarzlarning vaqtida qaytarilmasligi bois ko'riladigan zararlarni hisoblash bo'yicha ba'zi ko'rsatkichlarni taklif qilishadi. Bu ko'rsatkichlar mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun juda ham o'rinli bo'lmas, ammo ularni hisoblash orqali mavjud vaziyatni qisman bo'lsa ham baholash imkoniga ega bo'lamiz.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- debitorlik qarzlari to'g'risida tushuncha va ularni tahlil etish uslubi;
- debitorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlil etish uslubi;
- kreditorlik qarzlari to'g'risida tushuncha va ularni tahlil etish uslubi;
- kreditorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati bo'yicha tahlil etish uslubi;
- qarzlarni kamaytirish yo'llari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlari deganda nimani tushunasiz?
2. Debitorlik va kreditorlik qarzlari qanday sabablarga ko'ra vujudga keladi?
3. Debitorlik qarzlarning tarkibi va tuzilishi qanday tahlil etiladi?
4. Kreditorlik qarzlarning tarkibi va tuzilishi qanday tahlil etiladi?
5. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzaga chiqish muddatlari bo'yicha qanday davrlarga bo'lib o'rganiladi?
6. Debitorlik qarzlarning aylanuvchanligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

7. Kreditorlik qarzlarning aylanuvchanligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

8. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yo'llarini ko'rsatib o'ting.

9. Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirishning mamlakat iqtisodidagi o'rni va roli?

10. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini nazorat etuvchi tashkilotlar va ularning huquqiy mezonlari?

11. Majburiyatlarni sotish va sotib olish degani nima?

12. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarining korxonada moliyaviy holatiga ta'siri?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar::

1-topshiriq.

Quyida ilova qilingan «Debitorlik va kreditorlik qarzlari haqidagi ma'lumotnoma» ma'lumotlari asosida korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlarni tahlil eting, xulosalar yozing va takliflar bering.

t/r	Debitor, kreditor vazirlik, idora, konsern va boshqalarning nomlari	Umumiy qarzarlar		Jumladan, respublikadan tashqarida		Umumiy qarzlardan muddati o'tgani		Jumladan, respublikadan tashqarida	
		Debitorlik	Kreditorlik	Debitorlik	Kreditorlik	Debitorlik	Kreditorlik	Debitorlik	Kreditorlik
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	JAMI:	984633,7	224063,6	-	-	169,2	-		
	Shu jumladan:								
1.	Ichki xo'jaliklararo	480048,3							
2.	Mahsulot, ish va xizmatlar	77415,2	2139,6			169,2			
	Paxta sanoati	47310,2				169,2			
	GUB	4587,9							
	«Jizzax akkumulyator» QK	1278,1							
	«Agromash» AJ	21037,7							
	AZDR	2289,1							
	Boshqalar	5500,1	2139,6						
3.	AVANSLAR:	6165,1	-						
	O'zqishloqxo'jmash-Xolding	398,7							
	Paxta sanoati	1027,5							

1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
	O'zdonmahsulot	2018,7							
	«O'zneftgaz»	697,2							
	«Quvasoysement»	1237,9							
	DSM	587,7							
	Boshqa avanslar	197,4							
4.	Boshqa debitor va kreditorlar:	404486,5	28626,2						
	«O'zavtoyol»	98763,1							
	Energiya vazirligi		10697,8						
	Kommunal xizmat vazirligi		17928,4						
	Aloqa vazirligi	4567,4							
	O'zneftgaz	90267,3							
	Yo'lovchitransservis	25679,4							
	Boshqalar	185209,3							
5.	Budjet bilan hisoblashish	16518,6	36808,7						
6.	Mehnat haqi bo'yicha hisob-kitoblar	-	90638,5						
7.	Ijtimoiy ta'minot bilan hisob-kitoblar	-	65850,6						

2-topshiriq.

Korxonaning muddati o'tgan debitorlik va kreditorlik qarzlari tarkibini o'rganing, tahlil eting va muddati o'tganlik sabablarini aniqlang hamda qarzdorlikni kamaytirish bo'yicha tegishli takliflaringizni bering.

Test savollari:

1. Debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / majburiyatlar;

b) mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / jami debitorlik qarzlari;

d) mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / majburiyatlar;

e) mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami debitorlik qarzlari.

2. Kreditorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

a) mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / kreditorlik majburiyatlari;

b) mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami kreditorlik majburiyatlari;

d) mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan sof tushum / jami debitorlik qarzlari;

e) mahsulot (ish, xizmat)larning ishlab chiqarish tannarxi / jami debitorlik qarzlari.

3. Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlilining axborot manbasi

a) buxgalteriya balansi;

b) debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma;

d) pul oqimlari to'g'risida hisobot;

e) debitorlik va kreditorlik qarzlari bo'yicha boshlang'ich hisob ma'lumotlari.

4. Debitorlik va kreditorlik majburiyatlarini hisobdan chiqarish muddati

a) 3 oy; b) 3 yil; d) 2 oy; e) 1 yil.

5. Hisobdan chiqarish muddati davomida to'lanmagan yoki undirib olinmagan majburiyatlar . . .

a) korxonaga foydasiga hisobdan chiqariladi;

b) korxonaga zarariga hisobdan chiqariladi;

c) korxonaga foyda va zararlariga olib boriladi;

d) rezerv kapitalidan qoplanadi .

6. Debitorlik va kreditorlik qarzlarning asosiy maqsadi - . . .

a) korxonaning debitorlik va kreditorlik qarzlari holatiga baho berishdan iborat;

b) debitorlik va kreditorlik majburiyatlari aylanish davrini tezlashtirish asosida korxonaning moliyaviy holatini yaxshilash borasida choratadbirlar belgilashdan iborat;

d) debitorlik qarzlarning tarkibiy tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berishdan iborat;

e) debitorlik va kreditorlik qarzlarning yuzga chiqish sabablarini o'rganishdan iborat.

7. Debitorlik qarzlarning shartli aylanish kuni qanday aniqlanadi?

a) hisobot davridagi sotishdan sof tushum summasi hisobot davridagi debitorlik qarzlari summasiga bo'linadi;

b) hisobot davridagi debitorlik qarzlari summasi hisobot davridagi sotishdan sof tushum summasiga bo'linib, hisobot davri kuniga ko'paytiriladi;

d) hisobot davridagi sotishdan sof tushum summasi o'tgan yilgi debitorlik qarzlari summasiga bo'linadi;

e) o'tgan yilgi debitorlik qarzlari summasini hisobot davridagi sotishdan sof tushum summasiga bo'linib, hisobot davri kuniga ko'paytiriladi

8. Kreditorlik qarzlarning muddati o'tishi korxonada moliyaviy holatiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

a) korxonada to'lov qobiliyati pasayadi ;

b) unumsiz xarajatlar ko'payadi;

d) korxonada qarz mablag'larini jalb etish imkoniyati pasayadi;

e) barchasi to'g'ri.

9. Debitorlik qarzlarning o'rtacha aylanish kuni qanday aniqlanadi?

a) mahsulot sotishdan sof tushum summasi debitor qarzlarning o'rtacha qiymatiga bo'linadi;

b) debitor qarzlarning o'rtacha qiymati hisobot davri kuniga ko'paytirilib, mahsulot sotishdan sof tushum summasiga bo'linadi;

d) joriy aktivlar summasi debitor qarzlarning o'rtacha qiymatiga bo'linadi;

e) debitor qarzlarning o'rtacha qiymati joriy aktivlar summasiga bo'linib, yuzga ko'paytiriladi.

XII BOB. ASOSIY VOSITALAR HOLATI VA ULARDAN FOYDALANISH TAHLILI

12.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt biror-bir mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarishni tashkil qilishi uchun unda asosan to‘rt xil resurs mujassam bo‘lishi lozim.

Bunday resurslar tarkibiga:

- Moddiy resurslar.
- Moliyaviy resurslar.
- Mehnat resurslari.
- Tadbirkorlik resursi va boshqalar kiradi.

Mazkur resurslar tarkibida bugungi kunda eng asosiylaridan biri bu moddiy resurslar bo‘lib, ularning tarkibida ham muhimlaridan biri asosiy vositalar hisoblanadi. Chunki keyingi yillarda asosiy vositalar bahosini muntazam oshib borishi va ularga qilinadigan xarajatlar mahsulot tannarxining asosini tashkil qilayotganligi ham ushbu vositalarni tahlil qilib borishni taqozo etmoqda.

Asosiy fondlar (vositalar) ishlab chiqarishning muhim omili sifatida qaralib, ular vositasida bevosita mehnat predmetlari va mehnat kuchlari birikuvida mahsulotlar ishlab chiqariladi, ishlar bajariladi va xizmatlar ko‘rsatiladi.

Asosiy vositalar deb ishlab chiqarish siklida bir necha bor qatnashib o‘zining qiymatini yaratilayotgan mahsulotlarga qisman-qisman o‘tkazuvchi hamda jismoniy shaklini saqlab qoluvchi mehnat vositalariga aytiladi.

Asosiy fondlar yoki vositalarni tarkiblashda jahon va respublika hisob belgiloviga muvofiq quyidagi ikkita jihat mezon sifatida olingan. Birinchisi, ularning qiymat ifodasi, ikkinchisi – xizmat muddati.

Asosiy vositalarning qiymat ifodasi uning kam baholi va tez eskiruvchi buyumlardan farqlanish chegarasini xarakterlaydi. Bu ifoda 5-sonli BHMS bilan ish haqi minimumining 50 barobarida qilib belgilangan. Asosiy vositalarning xizmat muddati ularning bir yildan ortiq muddat xizmat qilishini xarakterlaydi.

Xizmat muddati bir yildan ortiq bo'lgan, lekin qiymat jihatdan qat'iy chegaradan oshmaydigan qiymatliklar, shuningdek, qiymatliklar, xo'jalik inventarlarining ayrim turlari asosiy vositalar qatoriga kiritilmaydi. Bu qator bevosita kam baholi va tez eskiruvchi buyumlari tarkibida hisobga olinadi.

Asosiy vositalar va ularning tahlili to'g'risida bir qator iqtisodchi olimlar o'zlarining fikrlarini bildirib o'tishgan. Jumladan, T.Shog'iyosovning «Kompleks iqtisodiy tahlil» nomli darsligida quyidagicha mualliflik yondoshuvi aks ettirilgan: «**Asosiy vositalar**, deb moddiy ishlab chiqarish sohasida hamda noishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt mobaynida (bir yildan ortiq) ishlatiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlar (5-son BHMA 7-bandi)ga aytiladi.

Asosiy vositalar korxonaning ishlab chiqarish jarayonida muhim o'rin tutadi, ular birgalikda korxonaga tayanadigan ishlab chiqarish – texnika bazasini tashkil etadi va korxonaning ishlab chiqarish quvvatini baholash mezonini hisoblanadi.

Asosiy vositalar va korxonaning ishlab chiqarish quvvatlaridan samarali foydalanish natijasida barcha texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha yuqori darajaga erishiladi, jumladan, mahsulot hajmi mehnat unumdorligi o'sishi tufayli ortadi, uning tannarxi pasayadi. Eksport hajmining ortishi, mahsulotning raqobatbardoshligi korxonani zamonaviy ilg'or texnika bilan ta'minlanishiga, investitsiya hajmiga ko'p jihatdan bog'liq».¹

Asosiy vositalar tahlilida korxonaning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasiga, ularning texnik holati va harakat ko'rsatkichlariga, samaradorlik ko'rsatkichlari, dinamikasi va holatiga baho beriladi.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanish deyilganda korxonaning biznes-rejasiga yoki o'tgan yillarga nisbatan asosiy fondlar bilan qurollanishi darajasi tushuniladi. Shuningdek, asosiy vositalarning tarkibi, turi bo'yicha o'zgarishlariga baho beriladi. Tahlil etishda asosiy vositalarning holat va harakat ko'rsatkichlariga muhim e'tibor qaratiladi.

¹ T.Shog'iyosov. Kompleks iqtisodiy tahlil. Toshkent, «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2009-yil, 84-b.

Bu orqali bevosita asosiy vositalarning eskirish darajasi, yaroqlilik darajasi, kirim va chiqimi ko'rsatkichlariga baho beriladi.

Asosiy vositalarning unumini o'rganish asosida mahsulot ishlab chiqarishda ularning samaradorlik ko'rsatkichlariga baho beriladi. Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini omilli tahlili asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmini yoki fondlar samarasini oshirish yuzasidan ichki imkoniyatlarning mavjudligi o'rganiladi va tahlil yakunida korxonada asosiy fondlardan foydalanishga va ularning samaradorligini oshirish yuzasidan muhim iqtisodiy yo'nalishlar belgilanadi. Korxonaning asosiy vositalari, ularning holati, harakati va samarasiga iqtisodiy tashxis qo'yiladi.

Mamlakatimizdagi investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni jalb etish jarayonlariga bozor islohatlarini chuqurlashtirish, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mulk huquqini himoya qilishni mustahkamlash chora-tadbirlari ta'siri yuqori bo'lmoqda. Investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari orasida korxonaning xususiy mablag'lari hamda to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushi ortgan holda, davlat budjeti va bankning markazlashgan kreditlari hissasi keyingi yillarda qisqarib bormoqda.

Ayniqsa, asosiy kapitalga investitsiyalar oqimining qayta taqsimlanishi bilan bog'liq bo'lgan sanoat va infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishi iqtisodiy o'sishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Bu holat asosiy kapitalga investitsiyalarni iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha tarkibining o'zgarishiga olib kelmoqda.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek «Xorijiy investitsiyalarni jalb etmay, ayniqsa yetakchi tarmoqlarda chet el sarmoyasi ishtirokini kengaytirmay turib, iqtisodiyotimizda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va modernizatsiyalash, korxonalarimizni zamonaviy texnika bilan qayta jihozlash hamda raqobatga bardoshli mahsulot ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish mumkin emas».¹

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, to'g'ridan to'g'ri xususiy chet el investitsiyalari uchun qator imtiyozlar berilgan. Zero, bu borada Prezidentimiz shunday degan edi. «To'g'ridan to'g'ri kelayotgan sarmoyalar oqimi har bir kishi, umuman, jamiyat hayoti uchun suv va havodek zarur».²

2005-yilning ikkinchi yarmidan boshlab, to'g'ridan to'g'ri xususiy

¹ Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz T.T: «O'zbekiston». 2000, 393-bet.

² Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. «Xalq so'zi» gazetasi, 2001-yil 7-fevral.

xorijiy investitsiyalar jalb qilinish hajmiga qarab, ularni safarbar etadigan iqtisodiyot tarmoqlari korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha daromad (foйда) solig'i, mulk solig'i, ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish va hududlarni obodonlashtirish solig'i, mikrofirma va kichik korxonalar uchun belgilangan yagona soliq to'lashdan, shuningdek, Respublika yo'l jamg'armasiga majburiy ajratmalar to'lashdan ozod etilgan.

Asosiy vositalarni tahlil etishda korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanishi, asosiy vositalar harakati, texnik holati, ulardan unumli foydalanish ko'rsatkichlari va ishga solinmagan imkoniyatlari aniqlanadi.

Asosiy vositalar tahlili bir necha yo'nalishlarda olib boriladi va asosiy vositalarning tuzilishi, dinamikasi, ulardan hamda uzoq muddatli investitsiyalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga asoslangan holda tahlil natijalariga ko'ra baho beriladi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini o'rganishda moliyaviy tahlilning eng asosiy vazifalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- xo'jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta'minlanganlik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamik o'zgarishlariga baho berish;
- korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik holatini yaxshilash bo'yicha mavjud imkoniyatlarni aniqlash va ularga baho berish;
- asosiy vositalarning texnik holatiga baho berish;
- asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlarini o'rganish va ularga baho berish;
- asosiy vositalardan samarali foydalanganlik darajalariga baho berish;
- xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajalariga baho berish;
- asosiy vositalar samaradorligini oshirish bo'yicha mavjud imkoniyatlarni ko'rsatib berish va hokazo.

Bugungi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarining asosiy vositalarini tahlil etishda asosiy axborot manbalari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- √ korxonaning biznes-reja ma'lumotlari;
- √ «Buxgalteriya balansi» (1-shakl);

- √ «Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi» hisobot (3-shakl);
- √ asosiy ishlab chiqarish fondlarining ishga tushirilishiga oid ma’lumot;
- √ ishlab chiqarish quvvatlari balansi;
- √ ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanishiga oid hisobot;
- √ buxgalteriya hisobining asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni hisobga oluvchi schot ma’lumotlari.

12.2. Asosiy vosita (fond)larning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili, ularning aktiv va passiv qismlari nisbati

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir vositani ma’lum bir xususiyatlari bo‘yicha tasniflash va tarkibiy joylashtirib chiqish mumkin bo‘ladi. Xususan, korxonalarining asosiy vositalarini ham ma’lum bir xususiyatlari bo‘yicha tasniflab va ularni tahlil qilib chiqish maqsadga muvofiq sanaladi. Bugungi kunda asosiy vositalarni quyidagi xususiyatlari bo‘yicha tasniflashimiz mumkin:

1. Asosiy vositalarning korxonaning ishlab chiqarish jarayonida qatnashuviga qarab:

- aktiv asosiy vositalar;
- passiv asosiy vositalar.

2. Asosiy vositalarni ma’lum tarmoqlarga bo‘ysunuviga qarab:

- sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari;
- boshqa tarmoq asosiy vositalari;
- noishlab chiqarish asosiy vositalari.

3. Asosiy vositalarning foydalanish jarayonidagi qatnashuviga qarab:

- foydalanishdagi asosiy vositalar;
- foydalanishdan olib qo‘yilgan (konservatsiya qilingan) asosiy fondlar.

4. Asosiy vositalarning turlarga ajratilishi bo‘yicha:

- yer;
- binolar;
- inshootlar;
- uzatish moslamalari;
- hisoblash texnikasi va kompyuterlar;
- mashina va uskunalar;

- transport vositalari;
- asbob-uskunalar;
- xo‘jalik jihozlari;
- ishlab chiqarish inventarlari;
- ishchi va mahsuldor hayvonlar;
- ko‘p yillik ekinlar va boshqa asosiy vositalar.

5. Mulkiy egaligiga qarab:

- o‘ziga tegishli asosiy vositalar;
- ijaraga olingan asosiy vositalar.

Bundan tashqari asosiy vositalarning yana boshqa bir xususiyatlari bo‘yicha ham tasniflash mumkin.

Hozirgi sharoitda korxonalarda asosiy vositalarning barcha turlarini kerakli nisbatda va tarkibda bo‘lishini ta‘minlash maqsadga muvofiq. Ya‘ni sanoat ishlab chiqarishi, yordamchi tarmoqlar yoki ijtimoiy-maishiy sohalarda bo‘lmasin, barcha asosiy vositalar kerakli xizmatni bajaradi.

Tahlil asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasini o‘rganishdan boshlanadi. Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Shu bois ular tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarni atroflicha tahlil etish lozim.

Asosiy vositalar har bir turining jami asosiy vositalarda tutgan ulushi uning **strukturasi**ni ifodalaydi. Struktura ishlab chiqarishning xususiyati, xarakteri, ixtisoslashuv darajasi, texnologiyasiga bog‘liq. Strukturani tahlil etishda asosiy vositalarni aktiv va passiv qismlari nisbatiga e‘tibor qaratiladi. Ishlab chiqarish hajmi asosiy vositalarning aktiv qismiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Ularning passiv qismi esa, faqat ishlab chiqarish uchun sharoit yaratadi xolos.

Iqtisodiyotga oid adabiyotlarda asosiy vositalarning aktiv qismi to‘g‘risida aniq bir to‘xtamga kelinmagan. Bir guruh iqtisodchilar bino va inshootlardan tashqari jami asosiy vositalarni, ikkinchi guruhdagilar mashina va uskunalar, transport vositalarini aktiv qismga kiritadilar. Bino va inshootlar asosiy vositalarning passiv qismiga kirsa ham, ammo elektr quvvati, neftni qayta ishlash, gaz va boshqa sohalarda inshootlar aktiv qism tarkibiga kiradi. Demak, asosiy vositalarning aktiv qismiga mashina va uskunalar, kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi, transport vositalarini kiritish mumkin. Aktiv qismining yuqori bo‘lishi fond progressivligini ifodalaydi.

Bugungi kunda mehnat qurollarini jalb etishning yangi shakllari, masalan, lizing va ijaraning boshqa shakllaridan keng foydalanilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi «Fuqarolik kodeksi»ning 587-moddasi lizing shartnomasini quyidagicha sharhlaydi: «Lizing shartnomasi bo‘yicha bir taraf – lizing beruvchi (ijaraga beruvchi) boshqa taraf – lizing oluvchi (ijarachi)ning topshirig‘i bo‘yicha uchunchi taraf – sotuvchi bilan undan lizing oluvchi uchun mol-mulkni xarid qilish uchun bitimga kirishish majburiyatini o‘z zimmasiga oladi, lizing oluvchi esa buning uchun lizing beruvchiga lizing to‘lovlarini to‘lash majburiyatini o‘z zimmasiga oladi».

Asosiy vositalar harakati to‘g‘risidagi hisobot (3-sonli shakl)da konservatsiya qilingan asosiy vositalar, uzoq muddatli ijara (lizing)ga olingan asosiy vositalar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning ifodalinishi asosiy vositalarni kompleks iqtisodiy tahlil etish obyektini yanada kengaytiradi.

Xo‘jalik yurituvchi subyekt va firmalarda asosiy vositalar hisobini yuritishni soddalashtirish maqsadida ular muayyan tasnif ko‘rsatkichlari orqali guruhlariga bo‘linadi. Asosiy vositalarni guruhlariga bo‘lishning tasnif belgilari quyidagilardir:

- bajaradigan vazifasiga ko‘ra;
- obyektlarda foydalanish darajasiga ko‘ra;
- natural-moddiy tarkibiga ko‘ra.




33-chizma. Foydalanilishiga ko‘ra asosiy vositalarning turkumlanishi.

Asosiy vositalar bajaradigan vazifasiga ko‘ra ishlab chiqarish va noishlab chiqarish vositalariga bo‘linadi. Ishlab chiqarish asosiy vositalari bevosita moddiy ne‘matlarni yaratishda ishtirok etadigan vositalar. Noishlab chiqarish asosiy vositalari guruhiga uy-joy hamda kommunal-xo‘jalik, maishiy xizmat, sog‘liqni saqlash, ta‘lim va boshqalarning asosiy vositalari kiritiladi.

Ishlab chiqarish va xo‘jalik faoliyatida asosiy vositalar obyektlardan foydalanish darajasiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi:

Asosiy vositalarning bunday guruhlanishi ulardan foydalanish samaradorligini baholash, eskirgan vositalarni almashtirish, keraksiz asosiy vositalarni boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektga berish yoki sotish to‘g‘risida qaror qabul qilish, shuningdek, ularning eskirishini to‘g‘ri hisob-kitob qilish uchun zarur.

Asosiy vositalar natural-moddiy tarkibiga ko‘ra quyidagi guruhlariga bo‘linadi (-chizma).



34-chizma. Asosiy vositalarning turkumlanishi.

Yer amaldagi qonunchilikka binoan xo‘alilik yurituvchi subyektga mulk tarzida berilgan yer maydonidir. O‘zbekiston Respublikasi «Yer kodeksi»ning 17-moddasiga binoan, «Yuridik shaxslar «Yer kodeksi» va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq doimiy egalik qilish, doimiy foydalanish, muddatli (vaqtincha) foydalanish, ijaraga olish va mulk huquqi asosida yer uchastkalariga ega bo‘lishlari mumkin». Yerning qiymatiga uni xarid qilishda ko‘chmas mulk agentlariga to‘lanadigan komission to‘lovlar, advokatlar xizmati uchun haq, xarid qilishdagi soliq to‘lovlari, drenaj qiymati, yerni tozalash va boshqa xarajatlar qo‘shiladi.

Yerni obodonlashtirish bo‘yicha kapital xarajatlar tarkibiga yerning

unumdorligini oshirish, avtomobil va boshqa transport turlariga to'xtash joylarini barpo etish hamda shunga o'xshash boshqa xarajatlar kiradi.

Binolarga ishlab chiqarish korpuslari, sexlar, ustaxonalar, boshqar-ma binosi, omborxonalar, turar-joy binolari va boshqa ishlab chiqarish, ma'muriy-xo'jalik va ijtimoiy-maishiy maqsadlardagi obyektlar, shu-nindek, ulardan to'g'ri foydalanish zarur bo'lgan jami kommunikatsiya vositalari (isitish, yoritish, shamollatish, suv-gaz ta'minoti tizimi, ichki telefon va signalizatsiya vositalari, lift xo'jaligi) kiradi.

Inshootlarga mehnat jarayoni va uning natijalarini o'zgartirmagan holda ishlab chiqarish jarayonlarining texnikaviy yoki umumiy vazifalarini bajarishga xizmat qiladigan obyektlar (neft va gaz quduqlari, shaxta yo'llari, avtomobil yo'llari, ko'priklar, estakadalar, suv omborlari va boshqalar) kiradi.

Uzatuvchi moslamalarga mashina-dvigateldan ish mashinalariga elektr, issiqlik, mexanik energiyani uzatishga, shuningdek, suyuq va gazsimon moddalarni bir obyekt-dan boshqa obyektga yetkazib berishga xizmat qiladigan qurilmalar (elektr uzatish yo'llari, quvur yo'llari, issiqlik va gaz tarmog'i hamda boshqalar) kiradi.

Mashina va jihozlar asosiy vositalarning eng asosiy turi hisoblanadi va o'z navbatida quyidagi guruhlardan tarkib topadi:

- ◆ kuch mashina va jihozlari elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqaradigan yoki uni mexanik harakat energiyasiga aylantirib beradigan generator-mashinalar, divigatel mashinalar (qozonxonalar, bug' dvigatellari, turbinalar, kuch transformatorlari va boshqalar)dir;

- ◆ ish mashinalari va jihozlari mehnat predmetlariga mexanik, termik, kimyoviy yoki boshqa yo'sinda texnologik ishlov berishga, ular-ni ishlab chiqarish jarayonida qo'zg'atish, qazib olish, eritish, tayyor-lashga xizmat qiladigan qurilmalar (stanoklar, apparatlar, agregatlar)dir;

- ◆ o'lchov va rostlash asboblari hamda qurilmalari va laboratoriya jihozlari foydalaniladigan texnika ish-dagi turli parametr (ko'rsatkich)larni o'lchash, ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish, xomashyo, TMZlar va tayyor mahsulotlar sifatini tekshirish, namlik darajasi, shovqin ta'siri va boshqalarni o'lchashda ishlatiladi. Ularga monometrlar, tarozilar, mikroskoplar, dispetcherlik nazorati va bosh-qalar kiradi;

- ◆ hisoblash texnikasi ma'lumotlarni elektron hisoblash mashina-larida qayta ishlaydigan vositalardir. Ularga kompyuterlar, printerlar va boshqa kompyuter vositalari kiradi.;

◆ boshqa mashina va jihozlarga yuqorida sanab o‘tilmagan mashina va jihozlar (o‘t o‘chirish va boshqa maxsus mashinalar) kiradi.

Transport vositalari kishilar hamda yuk va turli maqsadlardagi narsalarni tashishga mo‘ljallangan harakat vositalari (temir yo‘l, suv, avtomobil, kommunal transporti va muhim neft quvur yo‘llari)dir.

Asbob va uskunalar qo‘l mehnati jarayonida ishlatiladigan yoki ish qismlarini kuchaytirish, oshirish uchun mashinaga biriktiriladigan vositalar (elektro-drellar, vibratorlar)dir.

Ishlab chiqarish inventarlari ishlab chiqarish jarayonini yengillash-tirishda ishlatiladi. Ularning tarkibiga bak, konteyner, inventar, idishlar kiradi.


Xo‘jalik inventari idora (ofis) ishlarini va xo‘jalikni yuritishda zarur bo‘lgan narsalardir.

Ish hayvonlari va mahsuldor chorva har bir yetilgan mol (ot, ho‘kiz, sigir)lar bo‘lib, alohida inventar obyekti sifatida hisobda aks ettiriladi.

Ko‘p yillik daraxtlar alohida xiyobon, park, bog‘dagi miqdori va yoshidan qat’iy nazar ekilgan daraxtlar guruhidir.

Boshqa asosiy vositalarga kutubxona vositalari, ijaraga olingan asosiy vositalar, konservatsiyadagi asosiy vositalar va boshqalar kiradi.

«Asosiy vositalar» nomli 5-son BHMSga binoan asosiy vositalar quyidagi baholarda baholanadi:



35-chizma. Asosiy vositalarning baholanishi.

Dastlabki qiymat – aktivni xarid qilishda haqiqatda to‘langan pul mablag‘lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy

xarajatlardir. Xarid qilishning haqiqiy qiymati asosiy vositani xarid qilish va uni ishlatish uchun tayyor holga keltirishda qilingan barcha xarajatlarni, ya'ni: xarid narxi, yuridik yig'imlar va boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Tashkilot tekinga olgan asosiy vositalarning dastlabki qiymati ekspert yo'li bilan bozor narxida baholangan qiymat bo'yicha tan olinadi. Tekinga olingan asosiy vositani kirim qilingan sanada amal qilgan narx asosida joriy bozor qiymati shakllantiriladi. Amaldagi narx to'g'risidagi ma'lumotlar ham hujjatlar va ekspert yo'li bilan tasdiqlanishi kerak.

Sotish qiymati asosiy vositalarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summa.

Asosiy vositani pulga xarid qilinsa, uning qiymati kontraktda ikkilamchi bozorda faol ishlayotgan shu singari aktivda aniqlangan bozor narxi bo'yicha ko'rsatilishi mumkin.

Asosiy vositani xo'jalik yurituvchi subyektning o'zi tomonidan yaratilgan va uni yaratish chiqimlarini aniq belgilash mumkin bo'lgan hollarda asosiy vosita **haqiqiy tannarx** bo'yicha aks ettiriladi.

Ba'zi vaqtlarda asosiy vositalarni qayta baholashga ehtiyoj tug'iladi. Asosiy vositalarni qayta baholaganda asosiy vositaning butun zanjiri qayta baholanishi kerak. Qayta baholash natijasida asosiy vositaning balans qiymati ko'paygan holda ushbu ko'payish avvalgi bahodan oshadigan summada 8510-»Aktivlarni qayta baholash bo'yicha tuzatishlar» schotining kreditida aks ettirilishi lozim.

Qayta baholash natijasida asosiy vositaning balans qiymati kamaygan bo'lsa, bu kamayish avvalgi bahodan oshadigan summada xarajat sifatida tan olinadi.

Asosiy vositalarning tarkibi, ularning tuzilishini o'rganish bilan bir qatorda dinamik o'zgarishlariga ham baho berib boriladi. Dinamik o'zgarishlar asosida korxonada asosiy vositalarning yillar bo'yicha mutlaq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida esa korxonaning asosiy vositalari tarkibiga, tuzilishiga va dinamikasiga baho berish mumkin bo'ladi.

Jadval ma'lumotlariga asoslanib, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida, o'rganilayotgan davrda o'tgan yilga nisbatan jami ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar hajmi 14122 ming so'mga ko'payganligini ko'rishimiz mumkin. Mazkur korxonadagi asosiy vositalarning asosiy salmog'ini yer, bino hamda mashina va jihozlar tashkil etgan. Ushbu

asosiy vositalar jami vositalarning 80-85 % ini tashkil qilmoqda. Joriy yilda korxonadagi asosiy vositalardan mashina va jihozlarning qiymati 8774 ming soʻmga, transport vositalarining qiymati 5712 ming soʻmga, uzatish moslamalarining qiymati 969 ming soʻmga koʻpaygan boʻlsa, binoning qiymati 860 ming soʻmga, inshoot 54 ming soʻmga va boshqa asosiy vositalar 663 ming soʻmga kamaygan.

109-jadval

Xoʻjalik yurituvchi subyektning asosiy vositalari tarkibi, tuzilishi va dinamik oʻzgarishlari tahlili

Asosiy vositalarning tarkibi	Oʻtgan yili		Hisobot yili		Oʻzgarishi (+, -)	
	Summa, ming soʻm	Salmogʻi, %	Summa, ming soʻm	Salmogʻi, %	Mutlaq, ming soʻmda	Salmogʻi, %
1. Yer	30591	18,4	30591	16,9	-	-1,5
2. Bino	52313	31,5	51453	28,5	-860	-3,0
3. Inshoot	11430	6,9	11376	6,3	-54	-0,6
4. Uzatish moslamalari	5040	3,0	6009	3,3	+969	+0,3
5. Transport vositalari	2939	1,8	8651	4,8	+5712	+3,0
6. Hisoblash texnikasi va kompyuterlar	5100	3,1	5050	2,8	-50	-0,3
7. Ishlab chiqarish inventarlari	2449	1,5	2693	1,5	+179	-
8. Mashina va jihozlar	55400	33,3	64174	35,7	+8774	+2,4
9. Xoʻjalik inventarlari	-	-	-	-	-	-
10. Ishchi va mahsuldor hayvonlar	-	-	-	-	-	-
11. Koʻp yillik ekinlar	-	-	-	-	-	-
12. Yer holatini yaxshilashdagi kapital xarajatlar	-	-	-	-	-	-
13. Asbob-uskunalar	210	0,1	225	0,1	+15	-
14. Boshqa asosiy vositalar	728	0,4	663	0,04	-663	-0,36
Jami ishlab chiqarishdagi asosiy vositalar	166100	100,0	180222	100,0	+14122	-

Joriy yilda mashina va jihozlarning qiymati oʻsganligi korxonaning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytiradi. Chunki mashina va jihozlar toʻgʻridan toʻgʻri ishlab chiqarishda qatnashadigan vositalar qatoriga kiradi.

Umuman olganda korxonada asosiy vositalarning dinamik oʻsishi kuzatilgan boʻlib, bu korxonada asosiy vositalarning bosqichma-bosqich yangilanayotganligidan dalolatdir.

Quyidagi ma'lumotlar asosida asosiy vositalarning dinamik o'zgarishlariga baho berish mumkin.

110-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektda asosiy vositalarning so'nggi besh yillikdagi dinamik o'zgarishlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2007-yil	2008-yil	2009-yil	2010-yil	2011-yil
1. Asosiy vositalar qiymati	157560	145935	158674	166100	180222
2. Bazis yiliga nisbatan o'sishi, %	x	-7,38	+0,71	+5,42	+14,38
3. Oldingi yilga nisbatan o'sishi, %	x	-7,38	+8,73	+4,68	+8,50

Korxonada asosiy vositalarning dinamik o'zgarishi quyidagicha bo'lgan. Joriy davr oxiriga kelib asosiy vositalarning o'sishi bazis davriga nisbatan 14,38 %ni tashkil etgan. Eng yuqori o'sish suratiga ham korxonada 2011-yilda erishgan. Shuningdek, oldingi yilga nisbatan o'sishda esa eng yuqori o'sish sur'ati 2009-yilga to'g'ri kelmoqda, ya'ni ushbu yilda asosiy vositalar qiymati oldingi yilga nisbatan 8,73 % ga o'sgan. Bundan ko'rinib turibdiki, korxonada so'nggi paytlarda asosiy e'tiborni eskirgan asosiy fondlarni hisobdan chiqarishga va ularni yangi fondlar bilan almashtirishga qaratmoqda.

Asosiy vositalarni aktiv va passiv fondlarga tarkiblashda asosiy jihat ularning mahsulot ishlab chiqarishdagi bevosita ishtirokiga qaratiladi. Aktiv asosiy vositalar, deb mahsulot ishlab chiqarishda bevosita va bilvosita qatnashuvchi asosiy vositalarga aytiladi.

Ishlab chiqarish uchun sharoit yaratib beruvchi asosiy vositalar esa passiv asosiy fondlar sifatida qaralib, ularning tarkibiga bevosita binolar, inshootlar, yerlar (qishloq xo'jaligi korxonalaridan tashqari) qiymati va hokazo. kiritiladi.

Tahlil etishda jami asosiy vositalar tarkibida ularning salmoq darajalariga baho beriladi va o'zgarishlari o'rganiladi.

Biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida hisobot davrida jami 180222 ming so'mlik asosiy vositasi bo'lib, shundan, 45,88 % aktiv asosiy vositalar va qolgan 54,12 % passiv asosiy vositalar bo'lib hisoblanadi. Joriy yilda o'tgan yilga nisbatan bevosita ishlab chiqarishda

ishtirok etadigan, ya'ni aktiv asosiy vositalar salmog'i 2,67 %ga ortganligini ijobiy baholash lozim bo'ladi. Bunga mos ravishda passiv asosiy vositalar salmog'i esa 2,67 %ga pasaygan. Asosiy vositalarning o'tgan yilga nisbatan mutlaq o'zgarishi +14122 ming so'mni yoki 8,5 foiz ($14122/166100 \cdot 100$)ni tashkil etgan. Tahlil etishda jami asosiy vositalar tarkibida ularning salmoq darajalariga baho beriladi va o'zgarishlari o'rganiladi.

111-jadval

Aktiv va passiv asosiy vositalar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil		Hisobot yili		Farqi, (+, -)	
	Summa, ming so'm	Salmoq'i, %	Summa, ming so'm	Salmoq'i, %	Summa, ming so'mda	Salmoq'i, %
Jami asosiy vositalar	166100	100,0	180222	100,0	+14122	-
Shu jumladan:						
• aktiv asosiy vositalar	71766	43,21	82693	45,88	+10927	+2,67
• passiv asosiy vositalar	94334	56,79	97529	54,12	+3195	-2,67

12.3. Tezlashgan amortizatsiya ajratmalari va ularning fond qaytimiga ta'siri tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalari o'z xizmat vazifasini bajarishi bilan bir qatorda eskirib ham boradi. Asosiy vositalarning eskirishi bugungi kunda asosan ikki xil ko'rinishda bo'ladi, ya'ni jismoniy eskirish va ma'naviy eskirish. Bugungi kunda ko'pgina asosiy vosita turlari jismoniy eskirishdan ko'ra ma'naviy jihatdan tezroq eskirib qolmoqda. Shu sababli ham korxonalarining asosiy vositalarini batamom eskirib qolishining oldini olish maqsadida, ularga amortizatsiya (eskirish) hisoblab boriladi va asosiy vosita o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga sekin-astalik bilan o'tkazib boradi.

Korxonaning amortizatsiya siyosati bevosita davlat amortizatsiya siyosati asosida belgilanadi. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Soliq qo'mitasining 1997-yil 27-fevraldagi me'yoriy xatiga hamda 2001-yil 9-yanvardagi Moliya vazirligining yo'riqnomasiga muvofiq

asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashni soddalashtirish maqsadida quyidagi beshta guruh asosiy vositalarga me'yorlar belgilangan:

1. Binolar, inshootlar va qurilmalar uchun – 5 %.
2. Yengil avtomobillar, taksilar, yo'l harakatida foydalaniladigan avtotraktorlar, maxsus buyumlar, inventarlar, kompyuterlar, ma'lumotlarni qayta ishlovchi uskunalar uchun – 20 %.
3. Yuk avtomobillari, avtobuslar, maxsus avtomobillar va avtopritseplar, mashina, asbob-uskunalar va mebellar uchun – 15 %.
4. Yuqoridagi guruhlarga kiritilmagan boshqa asosiy vositalar uchun – 10 %.
5. Temir yo'l, dengiz, daryo va havo transport vositalari, issiqlik, gaz va suv uzatuvchi truboprovodlar, dizel generatorlari, elektr va aloqa uzatish uskunalari uchun – 8 %.

Ushbu me'yoriy xatda firma va kompaniyalar uchun amortizatsiya hisoblashning o'zgartirilgan normalarini qo'llash imkoniyati berilgan, ya'ni ular sekinlashtirilgan yoki tezlashtirilgan (ikki koeffitsiyentga qadar) usullaridan foydalanishlari mumkin. Tezlashtirilgan amortizatsiya hisoblash tartibi qo'llanilsa, me'yoridan ortiqcha hisoblangan amortizatsiya summasi soliqqa tortiladigan foydaga qo'shib, o'rnatilgan tartibda soliq to'lashlari lozim.

Jahon tajribasida asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning turli-tuman muhim uslublari mavjud. ***Bunday muhim uslublariga quyidagilar kiritiladi:***

- teng ulushlarda, amortizatsiya normalaridan kelib chiqqan holda eskirish hisoblash;
- qoldiq usulda eskirish hisoblash;
- ishlab chiqarish hajmiga muvofiq eskirish hisoblash;
- kumulyativ usulda eskirish hisoblash va hokazo.

Asosiy vositalar ishlab chiqarish jarayonida ishlatilishi tufayli jismoniy va ma'naviy eskirib boradi.

Eskirish – asosiy vositalar (bino, inshoot, uskunalar va hokazo) fizik xususiyatlarini yo'qotishi, shuningdek, texnik-iqtisodiy xossalari va buning oqibatida ular qiymatini yo'qotish ko'rsatkichidir. Eskirish qiymatini mahsulot tannarxiga o'tkazish orqali korxonada mablag'larni yangi uskunalarni xarid qilishga jamlash va shu tariqa korxonaning asosiy vositalar bilan jihozlanish darajasini tiklash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Asosiy vositalarning qiymatini amortizatsiyani hisoblab yozish yo'li

bilan hisobdan chiqarishning turli xil usullari mavjud bo‘lib, ulardan asosiylari quyidagilardir:

- 1) qiymatni bir maromda (to‘g‘ri chiziqli) hisobdan chiqarish usuli;
- 2) eskirishni bajarilgan ishlar (ishlab chiqarish) hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli;
- 3) tezlashtirilgan hisobdan chiqarishning ikki usuli:
 - a) qiymatning yillar yig‘indisi bo‘yicha hisobdan chiqarish usuli (sonlar summasi usuli) yoki kumulyativ usul;
 - b) kamayib boruvchi qoldiq usuli.

Quyidagi misollar orqali yuqoridagi usullarni ko‘rib chiqamiz.

Asosiy vositalarning boshlang‘ich qiymati – 1.000.000 so‘m.

Asosiy vositalarni tugatish qiymati – 100.000 so‘m.

Asosiy vositalarning xizmat muddati – 5 yil.

Ushbu holatda har yilgi amortizatsiya amortizatsiyalanadigan qiymatning 20 %ini yoki to‘g‘ri chiziqli hisobdan chiqarish usuliga muvofiq 180.000 so‘mni tashkil qiladi $(1.000.000-100.000):5=180.000$ so‘m.

To‘g‘ri chiziqli usulda amortizatsiya hisoblash tartibi

Sana	Boshlang‘ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	820.000
2-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	640.000
3-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	460.000
4-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	280.000
5-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	100.000

Amortizatsiyani bajarilgan ishlar (ishlab chiqarish) hajmiga mutanosib ravishda hisoblab yozish usuli. Masalan, yuk mashinasining boshlang‘ich qiymati – 1.00.000 so‘m, tugatish qiymati – 100.000 so‘m, xizmat muddati – 5 yil, yo‘l bosishi – 90.000 km. 1 km.ga amortizatsiya xarajatlari quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{(\text{Boshlang‘ich qiymat} - \text{tugatish qiymat})}{\text{Taxmin qilinayotgan ish birliklari soni}} = \frac{1.000.000 - 100.000}{90.000} = 10 \text{ so‘m/km.}$$

Agar birinchi yildagi foydalanishi chog‘ida yuk mashinasi 20.000 km yo‘l yurgan, ikkinchi yilda – 30.000, uchinchi yilda – 1000, to‘rtinchi yilda – 20000 va beshinchida – 10000 km yo‘l bosgan bo‘lsa, u holda amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Sana	Boshlang'ich qiymat	Yillik amortizatsiya normasi	To'plangan eskirish	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	200.000	200.000	800.000
2-yil oxiri	1.000.000	300.000	500.000	500.000
3-yil oxiri	1.000.000	100.000	600.000	400.000
4-yil oxiri	1.000.000	200.000	800.000	200.000
5-yil oxiri	1.000.000	100.000	900.000	100.000

Kumulyativ usulda amortizatsiya hisoblash tartibi. Yuk mashinasining xizmat ko'rsatish muddati – 5 yil. Sonlar summasi – foydalanish yillari 15 (kumulyativ sana): $1+2+3+4+5=15$ ni tashkil qiladi. Keyin har bir kasrni 900.000 so'm ($1000.000-100.000$) ga teng bo'lgan amortizatsiyalanadigan qiymatga ko'paytirish yo'li bilan har bir yilga bo'lgan amortizatsiya summasini aniqlaymiz. $5/15$, $4/15$, $3/15$, $2/15$, $1/15$.

Ushbu holatda amortizatsiya ajratmalari jadvali quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	5/15	300.000	700.000
2-yil oxiri	1.000.000	4/15	240.000	460.000
3-yil oxiri	1.000.000	3/15	180.000	280.000
4-yil oxiri	1.000.000	2/15	120.000	160.000
5-yil oxiri	1.000.000	1/15	60.000	100.000

Qoldiq usulda amortizatsiya hisoblash tartibi

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	820.000
2-yil oxiri	1.000.000	20	240.000	460.000
3-yil oxiri	1.000.000	20	180.000	280.000
4-yil oxiri	1.000.000	20	120.000	160.000
5-yil oxiri	1.000.000	20	60.000	100.000

Bu usul orqali amortizatsiya hisoblanganda ikkinchi yildan so'ng xarajat sifatida qo'shiladigan eskirish summasi kamayib boradi. Demak, sof moliyaviy natija asosiy vositalarning so'nggi muddatlarida ko'payishi kuzatiladi.

Ikki karra oshirilgan usulda amortizatsiya hisoblash usuli

Sana	Boshlang'ich qiymat	Amortizatsiya normasi	Amortizatsiya summasi	Qoldiq summasi
1-yil oxiri	1.000.000	20x2	360.000	540.000
2-yil oxiri	1.000.000	20x2	216.000	324.000
3-yil oxiri	1.000.000	20x2	129.600	194400
4-yil oxiri	1.000.000	20x2	77760	116640
5-yil oxiri	1.000.000	20x2	-	116670

Quyidagi asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblanmaydi:

- yer;
- mahsuldor hayvonlar, buqa va ho‘kizlar;
- kutubxona fondi;
- budjet tashkilotlari, shu jumladan, ilmiy-tadqiqot, konstruktorlik va texnologik tashkilotlarning vositalari;
- belgilangan tartibda konservatsiyaga o‘tkazilgan asosiy vositalar;
- to‘liq amortizatsiyalangan asosiy vositalar.

Asosiy vositalarni uzoq muddatli asosda ijaraga olgan yuridik shaxslar amortizatsiya ajratmalarini ham o‘zining, ham ijaraga olgan asosiy vositalar bo‘yicha hisoblab yozadilar. Ushbu holda ijaraga beruvchi ijaraga berilayotgan asosiy vositalar uchun amortizatsiya ajratmalarini hisoblab yozmaydi.

Amortizatsiya ajratmalari mahsulot tannarxining bir elementi bo‘lib, o‘zgarmas xarajatlar turkumiga mansubdir. Mahsulot hajmining ortishi bilan mahsulot birligiga to‘g‘ri keladigan amortizatsiya ajratmalari qisqaradi, tannarxi pasayadi, foyda esa ortadi. Buning aksicha, mahsulot hajmining pasayishi amortizatsiya ajratmalarining mahsulot birligidagi ulushi ortishiga, tannarxning qimmatlashuviga va pirovard natijada foyda miqdorining kamayishiga olib keladi.

*Amortizatsiyani tannarxga bo‘lgan ta’siri formula orqali quyidagicha aniqlanadi:*¹

a) zanjirli bog‘lanish usuli:

$$\Delta C_N = \Delta C_N^{AF} + \Delta C_N^A = (\Delta AF \cdot A_1) + (\Delta A_1 \cdot A_{F2});$$

b) integral usuli:

$$\Delta C_N = \Delta C_N^{AF} + \Delta C_N^A = (\Delta AF \cdot A_1 + \dots) + (\Delta A_1 \cdot A_{F2} + \dots),$$

bunda: ΔC_N^{AF} ; ΔC_N^A amortizatsiya ajratmalari va amortizatsiya qaytimi o‘zgarishining sotilgan mahsulot tannarxini o‘zgarishiga ta’siri:

¹ Селезнева Н.Н., Ионова А.Ф. Финансовой анализ. –М.: Юнити, 2002. Стр. 176.

AF_1, AF_2 – hisobot va bazis davrlariga tegishli amortizatsiya ajratmalari;

ΔAF – hisobot davridagi amortizatsiya ajratmalari summasining bazis davriga nisbatan o‘zgarishi;

A_1 – bazis davrining amortizatsiya qaytimi;

ΔA_1 – hisobot davridagi amortizatsiya qaytimining bazis davriga nisbatan o‘zgarishi.

12.4. Asosiy vositalarning texnik holati tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida korxonalarining asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta’minlanganligini o‘rganish bilan bir qatorda, ularning texnik holatiga ham baho berib boriladi. Odatda asosiy vositalar tarkibida yil davomida o‘zgarishlar ro‘y beradi. Yangi asosiy vositalarni kirimi tufayli asosiy vositalar ortib boradi. Eskirgan asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan chiqarish tufayli asosiy vositalar kamayishi mumkin. Bunday tabiiy holatlarning ro‘y berishi asosiy vositalarning texnik holatini tahlil etishni taqozo etadi. *Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar quyidagilar hisoblanadi:*

– asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi;

– asosiy vositalarning eskirish darajasi.

Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti (K_{yar}) ularning qoldiq qiymatini daslabki qiymatiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

$$K_{yar} = \frac{1sh \cdot 012satr}{1sh \cdot 010satr}$$

Asosiy vositalarni eskirish koeffitsiyenti (K_e), ularning eskirish summasini asosiy vositalarni daslabki qiymatiga bo‘lish orqali aniqlanadi.

$$K_e = \frac{1sh \cdot 011satr}{1sh \cdot 010satr}$$

Asosiy vositalarning yaroqlilik va eskirish koeffitsiyentlari yig‘indisi koeffitsentda 1,0 ga, foizda 100 teng bo‘ladi.

Asosiy vositalarning holat ko‘rsatkichlariga qarab ularning texnik holatiga baho beriladi va ularni tartiblash bo‘yicha boshqaruv qarorlari qa’bul qilinadi.

Asosiy vositalarning holatini o'rganishda korxonada amortizatsiya siyosatiga, asosiy vositalarning ma'naviy eskirganlik darajasiga, foydalanishdan olib qo'yilgan va konservatsiya qilingan asosiy vositalar holatiga muhim e'tibor qaratiladi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlarini ularning har bir turi va jami bo'yicha o'rganiladi. Tahlil uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar 1-shakl «Buxgalteriya balansi» va 3-shakl «Asosiy vositalarning harakati to'g'risidagi» hisobot shakllaridan olinadi.

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlari bilan to'ldiriladi.

112-jadval

Asosiy vositalarining texnik holati tahlili

Asosiy vositalar	Boshlang'ich qiymati, ming so'm	Eskirish qiymati, ming so'm	Qoldiq qiymati, ming so'm	Eskirish darajasi, %	Yaroqlilik darajasi, %
1. O'tgan yili	166100	85118	80982	51,24	48,76
2. Hisobot yili	180222	88969	91253	49,36	50,64
3. Farqi, (+,-)	+14122	+3851	+10271	-1,88	+1,88

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyekting asosiy vositalari texnik holatiga baho berish mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, korxonada joriy yilda asosiy vositalarning yaroqlilik darajasi o'tgan yilga nisbatan 1,88 % ga ko'tarilgan bo'lib, jami asosiy vositalarning 50,54 % ini tashkil etmoqda. qolgan 48,76 % asosiy vositalar o'zining xizmat muddatlarini o'tab bo'lgan hamda eskirgan asosiy vositalar tashkil etadi. Korxonada asosiy vositalarning texnik holati ijobiy tomonga o'zgargan bo'lsada, asosiy vositalarning umumiy texnik holati yetarli darajada, deb baholay olmaymiz. Chunki asosiy vositalarning teng yarmiga yaqini eskirganligi bu yaxshi natija emas. Shu sababli ham korxonada ma'muriyati asosiy vositalarini yanada ko'proq qismini yangilab borish choralarini izlab topishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

12.5. Asosiy fondlarning yangilanish dinamikasi va mehnatning fond bilan qurollanishi tahlili

Asosiy vositalarning holat ko'rsatkichlari ularning harakat ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi.

Asosiy vositalarning harakat ko'rsatkichlariga ularning yangilanishi va chiqib ketish koeffitsiyentlari kiritiladi. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti joriy davrda yangidan kiritilgan asosiy vositalar qiymatini asosiy vositalarning yil oxiriga bo'lgan qiymatiga bo'lish orqali topiladi. Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymatini ularning yil boshiga bo'lgan qiymatiga bo'lish asosida aniqlanadi. Ya'ni ushbu koeffitsiyentlarni aniqlashni quyidagi formulalar orqali ham ifodalashimiz mumkin:

Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti quyidagicha aniqlanadi:

$$\frac{\text{Ishlab chiqarishga yangidan qabul qilingan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi boshlang'ich qiymati}};$$

Asosiy vositalarning chiqib ketish koeffitsiyenti esa quyidagi tartibda aniqlanadi:

$$\frac{\text{Joriy davrda chiqib ketgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil boshiga bo'lgan qiymati}}.$$

Bu tarkiblashni asosiy vositalarning jami qatori va har bitta tarkibi bo'yicha berib o'tish mumkin. Tahlil jarayonlarida asosiy vositalarning yangilanish va ishlab chiqarishdan chiqarish sabablariga ham e'tibor beriladi. **Bunda korxonaning asosiy vositalarini yangilash manbalari bo'lib:**

- kapital qo'yilmalar va investitsiyalar;
- xususiy kapitalning o'sishi;
- uzoq muddatli kreditlar va qarzlilar;
- maqsadli moliyalash va subsidiyalar;
- tekinga olingan asosiy vositalar;
- grantlar va boshqa manbalar hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ishlab chiqarishdan chiqarish sabablariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi;
- asosiy vositalarning jismoniy eskirishi va foydalanish uchun yaroqsiz holatga kelishi;
- asosiy vositalarning ortiqchaliligi;
- asosiy vositalarni sotish;
- o'g'irliklar, yo'qotishlar va boshqa chiqimlar.

Xo‘jalik yurituvchi subyektda asosiy vositalarning harakat ko‘rsatkichlari tahlili (qoldiq qiymatida)

Asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil boshiga qoldig‘i	Yangidan qabul qilingan asosiy vositalar	Chiqim qilingan asosiy vositalar	Asosiy vositalar yil oxiriga qoldig‘i	Yangilanish koeff.	Chiqib ketish koeff.
O‘tgan yil	76875	8469	4362	80982	0,105	0,054
Hisobot yili	80982	27918	13133	91253	0,306	0,144
Farqi (+, -)	+4107	+19449	+8771	+10271	+0,201	+0,090

Biz tahlil qilayotgan xo‘jalik yurituvchi subyektlarda asosiy vositalarning harakat ko‘rsatkichlari o‘zgarishining tahlili shuni ko‘rsatadiki, joriy davrda asosiy vositalarning yangilanish darajasi oldingi yilga nisbatan 0,201 koeffitsiyentga o‘sgan. Hisobdan chiqarilgan asosiy vositalarning o‘tgan yilga nisbatan o‘zgarishi esa +0,090 koeffitsiyentga ortgan. Umuman olganda korxonadagi asosiy vositalarning yangilanish darajasini o‘tgan yilga nisbatan yaxshilanganligini ijobiy baholash lozim. Demak, bu korxonada ma‘muriyati eskirgan asosiy vositalarini yangilash bo‘yicha amaliy choralar ko‘rayotganligidan dalolatdir. Ammo bunday sur‘atdagi yangilanish darajasi bugungi kun talabiga mos kelmaydi. Chunki fan-texnika taraqqiyoti rivojlanib borayotgan bugungi kunda korxonada asosiy vositalarining to‘liq bir marta yangilanish davri 3-4 yildan ortib ketmasligi lozim. Bunday natijalarga erishish uchun esa korxonada o‘z asosiy vositalarining 20-25 foizini har yili yangilab borishi kerak.

Bugungi kunda korxonadagi asosiy vositalarning texnik holati va harakat ko‘rsatkichlarini tahlil qilib borish bilan bir qatorda, korxonaning asosiy vositalar bilan ta‘minlanganligi darajasini hamda xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanganligi darajasini ham tahlil qilib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Korxonada (firma)ning asosiy vositalar bilan ta‘minlanganlik yoki qurollanganlik darajasi, deb ishlab chiqarishning me‘yor darajasida mehnat vositalari bilan ta‘minlanganligiga aytiladi.

Avvalo, korxonada (firma)ning mehnat vositalari bilan ta‘minlanganligida quyidagi jihatlarni farqlash lozim:

- o‘ziga tegishli bo‘lgan mehnat vositalari bilan ta‘minlanganligi;
- ijaraga olingan mehnat vositalari hisobiga ta‘minlanganligi.

Demak, korxonada har ikkala holatda ham asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikning me'yor ko'rsatkichlariga ega bo'lishi mumkin.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik tahlilida korxonada (firma) da asosiy vositalarning rejaga va o'tgan yillarga nisbatan mutlaq va nisbiy o'zgarishlariga baho beriladi.

114-jadval

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik va qurollanganlik tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)
Asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, ming so'mda	162387	173161	+10774
Sanoat ishlab chiqarish xodimlari soni, kishi	838	814	-24
Bir xodimga to'g'ri keladigan asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati, so'm	193779	212728	+18949

Asosiy vositalar bilan qurollanganlik ko'rsatkichlari sifatida bitta ishchiga to'g'ri keladigan mehnat vositalari, bir ish o'rniga to'g'ri keladigan asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi aniqlanadi. Asosiy vositalar bilan qurollanganlik darajasi ularning samaradorlik ko'rsatkichlarini o'rganish asosida to'ldiriladi. Ya'ni korxonada faoliyatiga faqat miqdor ko'rsatkichlar orqaligina emas, balki sifat ko'rsatkichlarini ham o'rganish asosida baho beriladi.

Ma'lumotlardan ko'rinadiki, biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyekti tida sanoat ishlab chiqarish xodimlarining asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi o'tgan yilga nisbatan 18949 so'mga o'sgan. Bu o'sish ikkita omil hisobiga to'g'ri kelgan. Birinchi omil bu ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga bo'lib $\{(173161/838)-(162387/838)\}$ 12857 so'mni, hamda ikkinchi omil asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi hisobiga $\{(173161/814)-(162387/838)\}$ 6092 so'mni tashkil etgan. Bundan ko'rinadiki, korxonada xodimlarning asosiy vositalar bilan qurollanish darajasi o'tgan yilga nisbatan 18949 so'mga ortgan. Bunday natijalarni ijobiy holat sifatida baholash maqsadga muvofiqdir.

Yil davomida asosiy vositalar tarkibida o'zgarishlar ro'y beradi. Sotib olingan va qurib bitkazilgan obyektlarni ishga tushirish, modernizatsiya va rekonstruksiya qilish tufayli asosiy vositalar safi kengayadi.

Jismoniy va ma'naviy eskirish tufayli ularni bir qismi safdan chiqariladi.

Asosiy vositalarning atmosfera sharoitlari ta'sirida va ulardan

foydalanish jarayonida uning moddiy tuzilishida ichki o'zgarishlar (zanglash, chirish) sodir bo'lganda boshlang'ich holatining yo'qolishi tufayli jismoniy eskirish ro'y beradi.

Jismoniy eskirish asosiy vositalardan foydalanish jarayonida, ulardan foydalanilmayotgan hollarda ham sodir bo'ladi.

Asosiy vositalarning ma'naviy eskirishi, ularning texnik tavsifi hamda iqtisodiy samaradorligining davr talabidan orqada qolishi tufayli ro'y beradi.

Ma'naviy eskirish ikki xil bo'ladi:

– asosiy vositalarni qayta ishlab chiqarishning arzonroqqa tushishi natijasida ular qiymatining kamayishi;

– yangi, ilg'or asosiy vositalarni joriy qilish va ularning texnik jihatdan orqada qolishi natijasida qiymatining pasayib ketishi hisoblanadi.

Asosiy vositalar harakatining tahlili quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlashdan boshlanadi. Asosiy vositalarni:

– ishga tushirish koeffitsiyenti;

– yangilanish koeffitsiyenti;

– chiqib ketish koeffitsiyenti;

– tugatish koeffitsiyenti;

– mashina va jihozlar parkini kengaytirish koeffitsiyenti.

Asosiy vositalar harakati bilan bog'liq ko'rsatkichlarni hisoblash va ularni tahlil etish uchun quyidagi ma'lumotlardan foydalanamiz.

115-jadval

Asosiy vositalar harakati

Ko'rsatkichlar	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan	Chiqim qilingan	Yil oxiriga qoldiq
Asosiy vositalar dastlabki qiymatda	4594,7	1608,1	442,9	5759,9
Shu jumladan:				
yangi asosiy vositalar		590,0		
Asosiy vositalar eskirishi	1581,0			2496,5
Asosiy vositalarning qoldiq qiymati	3013,7			3263,4

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar asosida asosiy vositalar harakatini ifodalovchi quyidagi koeffitsiyentlarni aniqlaymiz.

Asosiy vositalarni
ishga tushirish
koeffitsiyenti (K_{it}) = $\frac{\text{Ishga tushirilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i}}$

$$K_{it} = \frac{1608,1}{5759,9} \cdot 100 = 27,9\%$$

Yangilanish
koeffitsiyenti (K_{ya}) = $\frac{\text{Yangi asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarning yil oxiridagi qoldig'i}}$

$$K_{ya} = \frac{590,0}{5759,9} \cdot 100 = 10,2\%$$

Tezkor texnik taraqqiyot davrida ilg'or bo'lib ko'ringan texnologiyalar 5-7 yillik qisqa vaqt mobaynida ma'naviy jihatdan eskirib, ularning o'rnini yanada takomillashgan texnologiyalar egallamoqda.

Chiqib ketish
koeffitsiyenti = $\frac{\text{Asosiy vositalar chiqimi}}{\text{Asosiy vositalarni yil boshiga qoldig'i}}$

$$K_{ch} = \frac{442,9}{4594,7} \cdot 100 = 9,6\%$$

Tugatish
koeffitsiyenti = $\frac{\text{Tugatilgan asosiy vositalar qiymati}}{\text{Asosiy vositalarni yil boshiga qoldig'i}}$

Quyidagi xo'jalik operatsiyalari natijasida asosiy vositalar korxonalarining aktivlari tarkibidan chiqib ketadi:

- realizatsiya qilinganda;
- bundan buyon foydalanish maqsadga muvofiq emasligi tufayli;
- chet korxonalar va shaxslarga bepul berilganida;
- boshqa korxonalarning ustav kapitaliga ulush sifatida qo'shilganida;
- moliyaviy lizing shartnomasiga ko'ra topshirilganida;
- kamomad yoki yo'qotish aniqlanganida.

Mahsulot assortimentini yangilash, uning sifatini talab darajasiga ko'tarish, mehnat unumdorligini oshirish tannarxni pasaytirish doimo ishlab chiqarishni yangi texnika bilan qurollantirishni talab etadi.

$$\text{Almashtirish koeffitsiyenti} = \frac{\text{Asosiy vositalar chiqimi}}{\text{Kelib tushgan asosiy vositalar}}$$

$$K_a = \frac{442,9}{1608,1} \cdot 100 = 27,5\%$$

12.6. Fond qaytimi dinamikasi va unga tashkiliy-texnik omillar ta'siri tahlili

Firma, kompaniya va korxonalar asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanishi tufayli ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxi pasayadi, foyda va rentabelligi oshishiga erishiladi. Mahsulot tannarxining pasayishi, raqobatbardoshligini oshirishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 15-martdagi «Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlashni rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni muhim ahamiyatga ega.

Mazkur farmonga muvofiq xo'jalik yurituvchi subyektlar ishlab chiqarishga zamonaviy uskunalar muntazam kiritish asosida modernizatsiyalashni ta'minlasa, yangi texnika ishlab chiqarishga joriy etilgan paytdan boshlab quyidagi qo'shimcha imtiyozlarga ega bo'ladilar:

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik qayta jihozlash uchun berilgan kreditlarni qaytarishga, lizing obyektini to'lashga yo'naltirilgan mablag'lar miqdorida uch yil mobaynida foydadan olinadigan soliq bazasi tegishli hisobot davri uchun hisoblangan amortizatsiya mablag'lari foydalanish sharti bilan kamaytiriladi;

- ishlab chiqarishga joriy etilgan yangi texnologik jihozlar besh yil muddatga mulk solig'idan ozod etiladi;

- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi qo'llaniladigan ishlab chiqarish mikrofirmalari va kichik korxonalari uchun besh yil davomida yagona soliq to'lovi to'lashda soliqqa tortiladigan bazani xarid qilingan yangi tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha qonunchilikda belgilangan bojxona to'lovlarini to'lashda imtiyozlardan foydalaniladi.

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan samarali foydalanish quyidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali ifodalanadi.

- umumiy ko'rsatkichlar;
- yakka ko'rsatkichlar.

Umumiy ko'rsatkichlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- 1) fond rentabelligi;
- 2) fond qaytimi;
- 3) fond sig'imi;
- 4) asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbiy iqtisod.

Yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlarni kompleks tahlil etishda ko'rsatkichlar dinamikasi, rejasining bajarilishi, raqobatdagi korxonalar ma'lumotlari bilan taqqoslash orqali asosiy ishlab chiqarish fondlaridan foydalanish ko'rsatkichlariga baho beriladi. Bozor munosabatlari sharoitida asosiy ishlab chiqarish fondlarini har so'miga to'g'ri keladigan foyda miqdori (fond rentabelligi) muhim ahamiyat kasb etadi.

$$\text{Fond rentabelligi} = \frac{\text{Asosiy faoliyatdan ko'rilgan foyda}}{\text{Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati}}$$

Fond qaytimi (F_q) asosiy ishlab chiqarish fondlarining har so'mi (100, 1000 so'mi)ga to'g'ri keladigan mahsulot (Q) hajmini ifodalaydi.

$$F_q = \frac{Q}{A_f}.$$

Masalan, ishlab chiqarish hajmi – 10,0 mln so'm, asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati – 5 mln so'm

$$F_q = \frac{10,0}{5,0} = 2 \text{ so'm}.$$

Demak, asosiy ishlab chiqarish fondlarining har so'miga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi 2 so'mni tashkil etgan. Fond qaytimi barcha asosiy vositalar, shu jumladan, uning aktiv qismi bo'yicha ham aniqlanadi. Ko'rsatkichlarni bir necha yillar bo'yicha dinamikasini tahlil etishda mahsulot hajmi (ish, xizmat) hamda asosiy ishlab chiqarish fondlarini taqqoslash holatiga keltirish kerak. Mahsulot hajmi (ish, xizmat) o'zgarmas solishtirma bahoda, asosiy ishlab chiqarish fondlari esa qayta baholangan (qayta baholash koeffitsiyentini qo'llash) qiymatda ifodalanishi lozim.

Fond sig'imi (F_s) fond qaytimining aksidir. F_s – mahsulot qiymatining har so'mi (100, 1000)ga to'g'ri keladigan asosiy ishlab chiqarish fondlarini ifodalaydi.

$$F_s = \frac{\bar{A}_f}{Q}.$$

Asosiy ishlab chiqarish fondlaridan nisbiy iqtisod (ortiqcha sarf) quyidagicha aniqlanadi:

$$E_{nisb}(A_f) = (F_s^1 - F_s^0) \cdot Q',$$

bunda: A_f – asosiy ishlab chiqarish fondlari;

F_s^1, F_s^0 – hisobot davri, bazis davrlarining fond sig‘imi;

Q' - hisobot davridagi mahsulot ishlab chiqarish hajmi.

Asosiy vositalar va mahsulot hajmining o‘shish sur‘atlari nisbati orqali fond sig‘imining chegarasi, ya’ni mahsulot hajmi o‘shishining har bir foiziga asosiy vositalarning o‘shish sur‘ati aniqlanadi. Masalan, mahsulot hajmi (Q) ning bazis davriga nisbatan o‘shish sur‘ati – 108 %. Asosiy ishlab chiqarish fondlari (A_f) ning o‘shish sur‘ati 105 %. Mahsulot hajmi o‘shishining har bir foiziga asosiy ishlab chiqarish fondlarining o‘shishi 0,97 (105:108)ni tashkil etadi. Fond sig‘imining chegara ko‘rsatkichi «1» dan kichik bo‘lsa, asosiy vositalardan samarali foydalanilganlikni ifodalaydi. Fond qaytimining ortishi ishlab chiqilgan mahsulotning har so‘miga to‘g‘ri keladigan amortizatsiya ajratmalari summasi yoki amortizatsiya sig‘imining pasayishiga va mahsulot bahosidagi foyda hissasining ortishiga olib keladi.

Asosiy vositalardan foydalanish va ularning samaradorligiga baho berish moliyaviy tahlilning zarur shartlaridan biri hisoblanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalarining asosiy vositalarining bilan yetarli darajada ta‘minlanganligini o‘rganish bilan bir qatorda ularning samaradorlik ko‘rsatkichlarini o‘rganish asosiy o‘rinda turadi. Chunki, asosiy vositalar bilan yetarli darajada ta‘minlangan bo‘lsa-yu, lekin ulardan samarali foydalanmasak, u holda korxonaning samaradorligi pasayib ketadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko‘rsatkichlari korxonaga xo‘jalik faoliyatiga baho berishning muhim ko‘rsatkichlaridan biri sifatida olinadi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish va uning holatiga baho berishga iqtisodiy tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Korxonada ishlab chiqarish quvvati, deganda uning to‘la ish bilan bandlik holatiga aytiladi. Bu holat nafaqat mahsulot ishlab chiqarish darajasiga, balki uning xarajatlar tarkibiga, moliyaviy natijaviyligiga ham ta‘sir etuvchi birlik sifatida qaraladi. Ishlab chiqarish quvvatlari va uning foydalanish darajalariga baho berish asosida korxonaning joriy davrdagi iqtisodiy potentsiali hamda uni maqsadli boshqaruvi belgilanadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari

Fond qaytimi	Fond sig'imi
<i>Sanoat ishlab chiqarish fondlari qaytimi</i>	$F_q = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati}}$
<i>Mashina va uskunalarning qaytimi</i>	$F_q = \frac{\text{Mahsulot hajmi}}{\text{Mashina va uskunalarning o'rtacha yillik qiymati}}$
<i>Sanoat ishlab chiqarish fondlari sig'imi</i>	$F_s = \frac{\text{Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulot hajmi}}$
<i>Mashina va uskunalarning sig'imi</i>	$F_s = \frac{\text{Mashina va uskunalarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{Mahsulot hajmi}}$

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish tahlilining quyidagi qatorlarini xarakterlash mumkin:

– korxonada ishlab chiqarish quvvatlarining texnik iqtisodiy ko'rsatkichlari tizimi;

– texnik iqtisodiy ko'rsatkichlar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning qiyosiy tahlili;

– ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxonada xarajatlarga ta'siri tahlili;

– ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishning korxonada ishlab chiqarish samaradorligiga va faoliyat natijaviyligiga ta'siri tahlili.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanishda korxonada tomonidan oshkor etiladigan 2-b shakl «Korxonaning ijtimoiy iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi» ga muhim e'tibor beriladi.

Tahlilda asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning ta'sir etuvchi omillari ikkita tarkib bo'yicha o'rganiladi.

1. Asosiy vositalarning samaradorligi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.

2. Asosiy vositalar va ulardan samarali foydalanish ko'rsatkichlarining mahsulot hajmi o'zgarishiga ta'siri tahlili.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi.

Fond qaytimi (sig'imi) va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar:

- Mahsulot ishlab chiqarish hajmi va uning o'zgarishi.
- Asosiy fondlar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi.

Mahsulot hajmiga ta'sir etuvchi mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillar qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- Asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati o'zgarishi.
- Fond qaytimi (sig'imi)ning o'zgarishi.

117-jadval

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlari va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	Mahsulot hajmi, korxonalar ulgurji bahosida, ming so'm.	Sanoat ishlab chiqarish fondlari o'rtacha yillik qiymati	Fond qaytimi	Fond sig'imi
O'tgan yil	2113430	166100	12,724	0,079
Shartli, hisobot yili	2357682	173596	13,581	0,074
Hisobot yili	2553967	180222	14,171	0,071
O'tgan yildan farq	+440537	+14122	+1,447	-0,008
Fond qaytimining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar				
X	+0,857	+0,590	+1,447	X
Fond sig'imining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili				
X	-0,005	-0,003	X	-0,008
Mehnat vositalari bilan bog'liq omillarning mahsulot hajmiga ta'siri				
X	+440469,5	+179688,3	+260781,2	x

Biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektida asosiy vositalarning samaradorligi o'tgan yilga nisbatan bir qadar yaxshilangan. Fond qaytimi va uning o'tgan yilga nisbatan o'sishi +1,447 (14,171–12,724) so'mga teng bo'lgan. Bu o'zgarishda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining o'zgarishi ta'siri +0,857 (13,581–12,724) so'mni, asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi esa salbiy ta'sir etgan va uning natijasida fond qaytimi +0,590 (14,171–13,581) so'mga kamaygan. Barcha omillar ta'sirida asosiy fondlar qaytimi o'tgan yilga nisbatan +1,447 so'mga ortgan (14,171- 12,724).

Asosiy fondlar sig'imi o'tgan yilga nisbatan – 0,008 so'mga kamaygan. Bu o'zgarishga mahsulot hajmining ta'siri – 0,005 (0,074–0,079) so'mni, asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymati o'zgarishining ta'siri esa – 0,003 (0,071–0,074) so'mni tashkil qilgan.

Mehnat vositalari bilan bog'liq bo'lgan omillarning mahsulot ishlab chiqarish hajmiga ta'siri tahlilida asosiy vositalar o'rtacha yillik qiymatining o'zgarishi ta'sirida yalpi mahsulot hajmi +179688,3

(+14122·12,724) ming so‘mga, fond qaytimining o‘zgarishi hisobiga +260781,2 (1,447·180222) ming so‘mga o‘shini ko‘rish mumkin.

12.7. Ishlab chiqarish jihozlarining vaqti va quvvati bo‘yicha foydalanish tahlili

Ishlab chiqarish jihozlaridan vaqt va quvvat bo‘yicha foydalanish tahlilida korxonada asosiy fondlari va ularning tarkibida mashina va uskunalar, stanoklar ish vaqtidan foydalanishning darajasiga, quvvatlarning foydali ish koeffitsientlariga, foydalanishning real holatiga baho beriladi.

Mashina va uskunalarning ish vaqtidan samarali foydalanishda ularning jami sanoat ishlab chiqarish asosiy vositalari tarkibidagi salmog‘iga va ularning ish samarasiga ahamiyat beriladi.

Mashina va uskunalarning jami ishlagan vaqti hamda mashina va uskunalarning ish vaqtidan olingan samaradorlik ko‘rsatkichlarini aniqlash asosida mahsulot ishlab chiqarish hajmining o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillar tahlil etiladi hamda uni o‘stirishning ichki imkoniyatlari belgilanadi.

Quyidagi jadval ma‘lumotlari asosida ularni tahlil etishning uslubiy asoslarini ko‘rib o‘tish mumkin.

118-jadval

Mashina va uskunalardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlari tahlili

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)
Mahsulot hajmi solishtirma ulgurji bahoda, ming so‘m hisobida	2113430	2553967	+440537
Ishlangan stanok soatlar, ming stanok soat	128780	120280	-8500
Bir stanok soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi, ming so‘m	16,41	21,23	+04,82

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektida o‘rganilayotgan davrda o‘tgan yilga nisbatan mahsulot ishlab chiqarish hajmi 440537 ming so‘mga o‘sgan bo‘lsa, buning aksi o‘laroq, jami ishlangan stanok soatlar hajmi 8500 ming stanok soatga qisqargan. Buning natijasida esa bir stanok soatda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi o‘tgan yilgi 16,41 ming so‘mdan hisobot yiliga kelib 21,23 ming so‘mga ko‘tarilgan.

Uskunalar (ishlab chiqarish uskunalari, mashinalar) vaqt jihatdan kalendar, rejim va yillik ish vaqti fondlariga bo‘linadi.

Kalendar vaqt fondi koeffitsiyenti mashina, uskunalarni yil davomida ishlagan vaqt fondini kalendar bo‘yicha vaqt fondiga bo‘lish orqali aniqlanadi. Uskunalarning rejim vaqt fondidan foydalanish koeffitsiyentini aniqlash uchun yillik vaqt fondini rejim vaqt fondiga bo‘lish lozim.

119-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyektning 1-sexida mashina va uskunalar ish vaqtidan foydalanish tahlili

Ko‘rsatkichlar		Hisobot yili		Farqi	
		Reja	Haqiqatda	Soat	%
1.	Kalendar vaqt fondi	1305240	1305240	-	-
2.	Rejim vaqt fondi	470040	461382	-8658	-1,8
3.	Yillik vaqt fondi	421321	419699	-1622	-0,4
4.	Foydalanish koeffitsiyenti:				
4.1.	Kalendar vaqt fondi (3q:1q)	0,3228	0,3215	-0,0013	X
4.2.	Rejim vaqt fondi (3q:2q)	0,8963	0,9096	+0,0133	x

Mashina va uskunalarning ish vaqti fondi mashina – soat, stanok – soatlarda ifodalanadi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, mashina, uskunalarning kalendar vaqt fondi koeffitsiyenti rejaga nisbatan pasaygan.

120-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyektning 1-sexida mashina va uskunalardan vaqti va quvvati bo‘yicha foydalanish tahlili

T №	Ko‘rsatkichlar	Reja	Haqiqatda	Farqi	
				mutlaq summa	%
1.	Mahsulot hajmi, mln so‘m	10823	10853	+30	+0,3
2.	Ishlagan mashina – soat	421321	419699	-1622	-0,4
3.	1 mashina - soatga to‘g‘ri keladigan mahsulot, so‘m	25688	25859	+171	+0,6

Pasayish asosan mavjud uskuna va dastgohlar sonining kamayishi tufayli yuz bergan. Rejim vaqt koeffitsiyenti smenalar soni hamda yil davomida ishlagan ish kunlarining o‘zgarishiga bog‘liq. Yillik vaqt

fondining o'zgarishi esa uskuna va dastgohlarni ichki va tashqi sabablarga ko'ra ish vaqtining yo'qotilishiga bog'liq. Mashina va uskunalardan foydalanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar bo'lib uning intensiv, ekstensiv va integral koeffitsiyentlari hisoblanadi.

Mahsulot hajmining rejaga nisbatan 30 mln so'mga ortig'i bilan bajarilishi asosan mashina va uskunar unumdorligining o'sishi hisobiga yuz bergan. Yo'qotilgan vaqt 1622 mashina – soatni tashkil etgan. Mashina va uskunalardan vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish koeffitsiyentlari:

Ekstensiv foydalanish koeffitsiyenti:

$$419699:421321=0,9962.$$

Intensiv foydalanish koeffitsiyenti:

$$25859:25688=1,0066.$$

Integral foydalanish koeffitsiyenti:

$$0,9962 \cdot 1,0066=1,0027.$$

12.8. Fond qaytimini oshirish imkoniyatlari

Fond qaytimini oshirish imkoniyatlarini umumlashtirish tahlil etish bosqichining yakuni hisoblanadi. Unda tahlil etish natijalaridan kelib chiqqan holda korxonada asosiy vositalar samaradorligini oshirishning yo'nalishlari belgilanadi.

Asosiy vositalarning samaradorlik ko'rsatkichlarini oshirishning quyidagi yo'nalishlarini korxonaga uchun tavsiya sifatida keltirib o'tish mumkin.

Tashkiliy yo'nalishlar bo'yicha:

- asosiy vositalarning faqat korxonaga ish beradigan qisminigina olish;
- asosiy vositalarning ortiqcha qismini ushlab turmaslik;
- eskirgan asosiy vositalarni va ma'naviy talabga javob bermaydigan asosiy vositalarni hisobdan chiqarish;
- asosiy vositalarni farqlash va tarkiblashni qayta o'zgartirish;
- asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning eng maqbul shakllarini belgilash va hokazo.

Texnik yo'nalishlar bo'yicha:

- asosiy vositalarni ta'mirlash choralarini ko'rish, texnik qarov;
- eskirgan asosiy vositalarni yangilari bilan almashtirish;
- avtomatlashtirilgan tizimni yaratish;
- mexanizatsiyalashni kuchaytirish va hokazo.

Ekspluatatsion yo‘nalishlar bo‘yicha:

- bir smenalik va ko‘p smenalik;
- ishlab chiqarish hajmiga qarab asosiy vositalarni texnik holat va harakatini boshqarish;
- asosiy vositalar qarovi yuzasidan mas’ul shaxslarni ajratish;
- asosiy vositalar bo‘yicha javobgarlik markazlarini belgilash va hokazo.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida asosiy fondlardan samarali foydalanishning ahamiyati va tahlil vazifasi;
- asosiy fondlarni ishlab chiqarishdagi rolga qarab guruhlariga bo‘linishi;
- asosiy vositalarning aktiv va passiv qismlari;
- asosiy fondlar tarkibi, tuzilishidagi o‘ziga xos xususiyatlari;
- mahsulot sifatini yaxshilash, raqobatga bardoshligini ta’minlashda tezlashgan amortizatsiya ajratmalarini qo‘llashning afzalliklari;
- asosiy fondlarning texnik holati tahlili;
- yangilanish darajasi ;
- eskirish darajasi;
- yaroqlilik darajasi;
- fond qaytimini oshirish rezervlari.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vosita (fond)lari deganda nimani tushunasiz?
2. Asosiy vositalarning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi qanday tahlil etiladi?
3. Asosiy vositalarning holatini tahlil etishda tahlilning qanday usullari qo‘llaniladi?
4. Asosiy vositalarning harakat ko‘rsatkichlari qanday tahlil etiladi?
5. Asosiy vositalarning yangilanishi va chiqib ketishiga nimalar sabab bo‘ladi?
6. Asosiy vositalarning texnik holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlarga nimalar kiradi va ular qanday tahlil etiladi?
7. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsiyenti qanday aiqlanadi va tahlil etiladi?

8. Xo‘jalik subyektlarining asosiy vositalar bilan ta’minlanganligi va qurollanganlik darajalari qanday hisoblanadi?

9. Asosiy vositalar va ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish qanday tahlil etiladi?

10. Asosiy vositalarning samaradorligi qaysi ko‘rsatkichlar asosida aniqlanadi va u qanday tahlil etiladi?

11. Asosiy vositalar samaradorligi mahsulot ishlab chiqarish hajmiga qanday ta’sir ko‘rsatadi va ular qanday tahlil qilinadi?

12. Asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashning Milliy hisob standartlaridagi usullari va ularni qo‘llash shartlari.

13. Amortizatsiya siyosatining mahsulot ishlab chiqarish hajmiga va xarajatlarga ta’siri.

14. Asosiy vositalarni tarkiblashdagi muammolar va ularning hal etilishi.

15. Asosiy vositalarning baholanishi va ulardagi muammolar.

16. Asosiy vositalar lizingi va uni jalb etishning talablari.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Quyidagi ilova qilingan «Asosiy vositalar harakati to‘g‘risida»gi hisobot ma’lumotlari asosida korxonaning asosiy vositalar bilan ta’minlanganligini va ulardan samarali foydalanish ko‘rsatkichlarini mustaqil ravishda tahlil qilib chiqing va xulosalar yozing.

Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot
(3-sonli shakl)

Ko'rsatkichlar nomi Наименование показателя	Satr raqami Код строки	Boshlang'ich (tiklash) qiymati				Yig'ilgan amortizatsiya (eskirish) miqdori				Qoldiq qiymati	
		Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgan	chiqim	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga qoldiq	Kelib tushgani bo'yicha	Chiqimi bo'yicha	Yil oxiriga qoldiq	Yil boshiga	Yil oxiriga
Yer	010	76825,6	18095,6	4667,5	90253,7	-	-	-	-	76825,6	90253,7
Yerni obodonlashtirish	020	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Uzoq muddatli ijara shartnomasi bo'yicha olingan asosiy vositalarni obodonlashtirish	030	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Bino	040	1837836	344663,4	5363,9	2177136	150805,3	51579,2	1046,8	211885,4	1687031	1965250
Inshoot	050	9037,1	-	-	9037,1	294,4	775,1	1,8	1067,7	8742,7	7969,4
Uzatish moslamalari	060	2482,8	1443,8	-	3926,6	574,5	153,9	-	728,4	1908,3	3198,2
Mashina va jihozlar	070	104218,5	51206,6	9265,5	146159,6	61612,6	22436,6	81178,1	81534,5	42605,9	64624,7
Mebel va ofis jihozlari	080	10770,4	1360,8	498,9	11632,3	2343,0	955,6	1827,5	1471,1	8427,4	10161,2
Kompyuter jihozlari va hisoblash texnikasi	090	39781,5	24793,4	8734,5	55840,4	11387,4	4963,4	16821,9	16821,9	28394,1	39018,9
Transport vositalari	100	444541,3	143904,9	8848,8	579597,4	138999,8	56188,4	2722,9	200863,4	305541,5	378734,0
Ishchi hayvonlar	110	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Mahsuldor hayvonlar	120	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Ko'p yillik o'simliklar	130	226	45,8	45,8	226,0	8,4	7,0	2,4	13,0	217,6	213,0
Boshqa asosiy vositalar	140	105396,9	92791,7	458,8	197729,8	56553,6	39688,5	1266,6	102170,8	48843,3	95559,0
Konservatsiya qilingan asosiy vositalar	150	-	-	-	-	-	-	--	-	-	-
Uzoq muddatli ija- raga olingan asosiy vositalar	160	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-
Jami asosiy vositalar	170	2631116	678306	37883,7	3271538	465879,8	186721,5	16915,0	668925,5	2165236,6	2602612,5

Shulardan: – ishlab chiqarish	171										
– noishlab chiqarish	172										
Ma'lumot uchun:											
Yil davomida sotib olingan asosiy vositalar, jami Shu jumladan:	180					x	x	x	x	x	x
o'z mablag'lari hisobiga	181					x	x	x	x	x	x
Bank kreditlari hisobiga	182					x	x	x	x	x	x
Boshqa qarzga olingan mablag'lar hisobiga	183					x	x	x	x	x	x
Tugallanmagan qurilish	190	296505,4	135264,2	130783,1	300986,5	x	x	x	x	x	x

Test savollari:

1. Asosiy vositalar deb nimaga aytiladi?

- a) moddiy ishlab chiqarish, hamda noishlab chiqarish sohasidagi moddiy aktivlarga;
- b) moddiy ishlab chiqarish sohasida uzoq muddat mobaynida ishlatiladigan vositalarga;
- d) moddiy ishlab chiqarish va noishlab chiqarish sohasida uzoq vaqt mobaynida ishlatiladigan, shuningdek, ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlarga;
- e) moddiy ishlab chiqarish sohasida uzoq muddat mobaynida ishlatiladigan, ijaraga berish uchun ham foydalaniladigan moddiy aktivlarga.

2. Asosiy vositalar qanday guruhlarga bo'linadi?

- a) aktiv va passiv asosiy vositalar;
- b) Ijaradagi asosiy vositalar;
- d) Ishlab chiqarish sohasidagi asosiy vositalar;
- e) barcha javoblar to'g'ri.

3. Asosiy vositalar harakatini ifodalovchi koeffitsiyentlar qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?

- a) asosiy vositalarni ishga tushirish, yangilanish koeffitsiyentlari;
- b) asosiy vositalarning chiqib ketish, eskirish koeffitsiyentlari;
- d) asosiy vositalarning tugatish, eskirish koeffitsiyentlari;
- e) asosiy vositalarning yangilanish, eskirish koeffitsiyentlari.

4. Asosiy vositalardan samarali foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?

- a) mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- b) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- d) mehnat unumdorligini oshirish;
- e) korxonani fond bilan ta'minlanish darajasini oshirish.

5. Asosiy vositalardan samarali foydalanish ko'rsatkichlariga kiradi:

- a) material qaytishi koeffitsiyenti;
- b) fond qaytishi koeffitsiyenti;
- d) asosiy vositalarning eskirish koeffitsiyenti;
- e) asosiy vositalarni ishga tushirish koeffitsiyenti.

6. Asosiy vositalarning fond qaytimi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}{\text{asosiy vositalat qiymati}}$;
- b) $\frac{\text{asosiy vositalat qiymati}}{\text{mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}$;
- d) $\frac{\text{asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{sotishdan kelgan tushum}}$;
- e) $\frac{\text{mahsulot ishlab chiqarish hajmi}}{\text{asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}$.

7. Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsiyenti qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}{\text{asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$;
- b) $\frac{\text{asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}{\text{asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}$;
- d) $\frac{\text{asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}{\text{asosiy vositalarning qoldiq qiymati}}$;
- e) $\frac{\text{ishga tushirilgan asosiy vositalar}}{\text{asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$.

8. Asosiy vositalarning eskirish darajasi qanday aniqlanadi?

- a) $\frac{\text{asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}{\text{asosiy vositalarning eskirish summasi}}$;
- b) $\frac{\text{asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}{\text{asosiy vositalarning eskirishi summasi}}$;
- d) $\frac{\text{asosiy vositalarning eskirishi summasi}}{\text{asosiy vositalarning o'rtacha yillik qiymati}}$;
- e) $\frac{\text{asosiy vositalarning eskirishi summasi}}{\text{asosiy vositalarning dastlabki qiymati}}$.

9. Asosiy fondlarning texnik holatini tahlil qilishda hisoblanadigan ko'rsatkichlarni belgilang.

- a) yaroqlilik va eskirish darajasi;
- b) yangilanish, eskirish va yaroqlilik darajasi;
- d) eskirish va yangilanish darajasi;
- e) yaroqlilik va yangilanish darajasi.

10. Fond sig'imining o'tgan va hisobot yilgi miqdorlarini aniqlang:

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1. Asosiy vositalar qiymati, ming so'm	5100	5500
2. Mahsulot qymati, ming so'm	15300	17600
3. Fond sig'imi, tiyin	?	?

- a) 0,32:0,31; b) 0,33:0,31; d) 0,33:0,30; e) 0,32:0,30.

11. Asosiy vositalardan samarali foydalanishning ahamiyati nimalardan iborat?

- a) ishlab chiqarish samaradorligini oshirish;
- b) mahsulot ishlab chiqarish hajmini oshirish;
- d) korxonaning fond bilan qurollanish darajasini oshirish;
- e) noto'g'ri javob yo'q.

12. Korxonaning asosiy fondlar bilan ta'minlanganlik darajasini tahlil qiling:

Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili
1. Asosiy fondlar qiymati, mln so'm	1950	2200
2. Xodimlarning yillik o'rtacha soni, kishi	1410	1190
3. Bir xodimga to'g'ri keladigan fondlar	?	?

Ming so'm hisobida:

- a) 1483:1682,7; b) 1383:1849; d) 1283:1482; e)1450:1570.

XIII BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING PUL OQIMLARI TAHLILI

13.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag‘lari harakatini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizatsiya qilish sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarida ko‘p ukladli iqtisodiyot negizlarini yaratish muhim masala hisoblanadi. Respublikamiz hukumati iqtisodiyot tarmoqlarini isloh qilishga, ularning shaklan va mazmunan yangi tuzilmasini yaratishga asosiy e‘tiborni qaratmoqda. Bu borada Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni ilgari surganlar: «Iqtisodiyotimizda asosiy va yetakchi tarmoqlarda, xususan, qishloq xo‘jaligida tuzilmaviy o‘zgarishlarni amalga oshiribgina, biz mahsulotlarimiz eksporti ko‘payishiga, to‘lov balansida ijobiy qoldiqni ta‘minlashga va shu yo‘l bilan iqtisodiy mustaqilligimizni kafolatlashga erisha olamiz».¹

Hozirgi davrda dunyo mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti o‘zining ma‘no-mazmuni jihatidan oldingi bosqichlardan keskin farq qiladi. Bunda eng asosiy va muhim jihat – milliy iqtisodiyotlarning tobora integratsiyalashuvi va globallashuvining kuchayib borishidir. Ayni paytda bu jarayonlar xalqaro maydondagi raqobatning ham keskinlashuviga, har bir mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi o‘z mavqeyini mustahkamlash uchun kurashining kuchayishiga ham ta‘sir ko‘rsatadi.

Biroq o‘z o‘rnida ta‘kidlash lozimki, jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuv va globallashuvning ijobiy tomonlari bilan bir qatorda ma‘lum ziddiyatli jihatlari ham mavjud. Jumladan, turli mamlakatlardagi iqtisodiy rivojlanishning bir tekisda bormasligi, dunyo mamlakatlari o‘rtasida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jihatidan tafovutning, ekologik tahdidlarning kuchayib borishi, turli mamlakatlarda aholi soni o‘zgarishining keskin farqlanishi kabi holatlar jahon xo‘jaligining yaxlit

¹ Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. –T.: «O‘zbekiston». 2005-y. 317-b.

tizim sifatida barqaror rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, mazkur jarayonlarning yana bir xususiyatli jihati – jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi hisoblanadi.

Mamlakatimizda ijtimoiy yo'naltirilgan barqaror iqtisodiyotni amalga oshirish borasidagi keng ko'lamli islohotlar bugungi kunda, ayniqsa, hozirda hukm surayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davrida, o'zining natijalari bilan naqadar samarali va to'g'ri ekanligi o'z tasdig'ini topmoqda. Xususan, qisqa muddat ichida iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, aholi daromadlarining o'sishi ta'minlandi, samarali tashqi savdo hamda investitsiya jarayonlari kuchaydi, qishloq xo'jaligi isloh qilindi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi barqaror rivojlantirilmogda, moliya-bank tizimi mustahkamlandi va hokazo. Bularning barchasi O'zbekistonning jahon moliyaviy-iqtisodiy inqiroziga qarshi turishining asosiy omillari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shunga ko'ra, biz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining joriy va istiqboldagi chora-tadbirlarini belgilashda jahon moliyaviy inqirozi oqibatlarining ta'sirini har tomonlama hisobga olishimiz, iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ushbu jarayonlar ta'siri nuqtayi nazaridan shakllantirishimiz va ularni izchil amalga oshirishimiz taqozo etiladi.

Globalashuv jarayonlarining kengayishi jahon mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarning yanada takomillashuviga olib keladi. Jumladan, globalashuv natijasida transmilliy korporatsiyalar, ularning turli ko'rinishdagi xalqaro birlashmalari faoliyatining tarkib topishi va kengayishi, xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi va mehnat taqsimotining nisbatan yuqori darajaga o'tishi, xalqaro iqtisodiy tashkilotlar faoliyatining yanada kuchayishi ro'y beradi.

Umuman olganda, globalashuv jarayonlari jahon xo'jaligining yaxlit iqtisodiy tizim sifatida rivojlanishida sifat bosqichi hisoblanib, yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

Biroq globalashuv jarayonini mutlaqlashtirish va unga bir tomonlama qarash to'g'ri bo'lmaydi. Chunki mazkur jarayon o'zining ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ziddiyatli tomonlariga ham ega. Jahonning bir mamlakatida ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy larzalarning muqarrar ravishda boshqa mamlakatlarga ham o'z ta'sirini o'tkazishi ana shulardan biri hisoblanib, bugungi kunda ro'y berayotgan moliyaviy

inqiroz ham aynan shu ma'noda globallashuv jarayonlarining oqibati hisoblanadi.

Shunga ko'ra, Prezidentimiz o'z asarlarini bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat ekanligidan boshlab, jahon moliyaviy inqirozining mazmun-mohiyati, kelib chiqish sabablariga batafsil to'xtalib o'tdilar.

Shu o'rinda, jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallashuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan, AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi. Jumladan, o'tgan asrning 70-yillariga qadar amal qilib kelgan jahon valuta tizimlari pullarning oltin yoki tovar mazmunini ta'minlash orqali iqtisodiy munosabatlarning barqarorligiga zamin yaratdi. Biroq jahon amaliyotida 1976-yildan boshqariladigan, suzib yuruvchi valuta tizimiga o'tgach, pulning oltin mazmuni yo'qolib, asosan AQSH dollari yetakchi valutaga aylangach, uning muomalaga chiqarilishini nazorat qilib bo'lmay qoldi. Keyingi yillarda globallashuv jarayonining jadallashuvi ta'sirida xalqaro iqtisodiy aloqalarda qat'iy valutaga bo'lgan talabning yanada kuchayishi AQSH tomonidan hech qanday tovar bilan ta'minlanmagan pullarning muomalaga chiqarilish jarayonini yanada tezlatib yubordi. Ma'lumotlarga ko'ra, muomaladagi pul massasi (naqd, kredit pullar va turli to'lov vositalari)ning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmidan deyarli 10 baravar, agar pulning aylanish tezligini ham hisobga olinsa, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdoridan, ya'ni pulga bo'lgan talabdan bir necha o'n baravar ko'payib ketganligini anglatadi.

Shu bilan bir qatorda, asosan yetakchi rivojlangan mamlakatlarda kuzatilgan quyidagi salbiy holatlar ham moliyaviy inqirozning vujudga kelishiga asosiy sabablardan hisoblanadi:

- noratsional pul-kredit siyosatini, hamda qayta moliyalash stavkasini surunkali ravishda past darajada ushlab turilishi natijasida qarzga yashashning odatga va kundalik holatga aylanishi;
- moliyaviy institutlarning majburiyatlari bilan ustav mablag‘lari o‘rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi;
- qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha reyting tashkilotlari tomonidan soxta xulosalar berilishi;
- moliyaviy audit va professional etika tamoyillarining buzilishi va soxta audit xulosalari taqdim etilishi;
- moliyaviy rag‘batlantirish uslubi sifat ko‘rsatkichlariga emas, balki miqdoriy ko‘rsatkichlarga asoslanganligi;
- yuqori riskli va murakkab hosilaviy qimmatbaho qog‘ozlarning vujudga kelishi va hokazo.

Jahonning ko‘plab mamlakatlarini qamrab olgan moliyaviy inqiroz ko‘lami kengayotganiga qaramay, O‘zbekiston bank tizimi ishonchliligi va barqaror rivojlanayotgani, xorijiy moliyalashtirish manbalariga qaramligi yo‘qligi va tashqi inqiroz holatlarining salbiy ta‘siriga berilmaslik xususiyatlari bilan ajralib turdi.

Moliyaviy inqiroz dunyoni bir muddat vahimaga solib qo‘ygani rost. Ushbu bo‘hronning o‘tgan galgilaridan farqi – uning ko‘lami global miqyosda o‘tgan davrlardagidan ko‘ra yanada kengroq sarhadlarni qamrab oldi. Bu albatta, globallashuv jarayonining «ehsoni». O‘zbekiston ham dunyo hamjamiyatining ajralmas qismi hisoblanar ekan, jahonda yuz berayotgan moliyaviy inqiroz mamlakatimiz iqtisodiyotiga ta‘sir o‘tkazmay qolmaydi.

Bu borada Prezidentimizning **«...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta‘sir ko‘rsatmaydi, chetlab o‘tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o‘ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo‘lmas xato bo‘lur edi. Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim – O‘zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi»¹** – degan so‘zlarini yana bir bor esga olish muhim. Global iqtisodiy makonning uzviy bir qismi sifatida O‘zbekiston ham jahon iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini his etmoqda.

Buning tasdig‘ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib

¹ Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. –T.: «O‘zbekiston», 2009. 111-b.

borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko‘magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, O‘zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o‘sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Respublikamiz o‘zining mustaqilligiga erishganidan so‘ng Prezidentimiz boshchiligida respublikaning o‘ziga xos bo‘lgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish modeli ishlab chiqildi. Ushbu rivojlanish modeli asosida respublikamizda yangi iqtisodiy tizim – bozor iqtisodiyotiga o‘tilmoqda. Turli-tuman mulk shakllarining paydo bo‘lishi, davlat mulkining xususiylashtirilishi, hissadorlik jamiyatlari, hamkorlikdagi qo‘shma korxonalar, kichik korxonalarining vujudga kelishi o‘tish jarayoniga xos xususiyatlardandir. Bunday sharoitda tovar ishlab chiqaruvchilar o‘rtasida haqiqiy raqobat hukm surishiga, korxonalar mustaqil ravishda chet el korxonalarini bilan aloqa o‘rnatishga, mahsulot sotishning yangi zamonaviy usullarini rivojlantirishga, tijorat banklari, xususiy banklar, birjalar, kimoshdi savdolari faoliyatini rivojlantirishga imkoniyatlar paydo bo‘la boshladi.

Hozirda mulkiy birlik va munosabatlarning shunday tizimini shakllantirish lozimki, bu harakat avvalo faoliyat yakunida yuqori unum va natijaviylikni, butlik va manfaat uyg‘unligini, eng muhimi bozor to‘kin-sochinligi va jamiyatimiz farovonligini ta‘minlasin. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish jarayonida ushbu jihatga bosh masala sifatida qarash lozim.

Prezidentimiz I. Karimov bu haqda fikr yuritib, o‘zining asarlarida quyidagi fikrlarni ilgari surgan: «Pirovard maqsadimiz ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyotiga, ochiq tashqi siyosatga ega bo‘lgan kuchli demokratik huquqiy davlatni va fuqarolik jamiyatini barpo etishdan iboratdir».

Bozor munosabatlari sohasida har qanday xo‘jalik yurituvchi subyektning o‘z tasarrufidagi barcha resurslar – moliyaviy, moddiy, mehnat va pul resurslari harakati hamda ulardan foydalanish samaradorligini to‘g‘ri boshqarishni ta‘minlashi zarur bo‘ladi. Ko‘pgina korxonalar va tashkilotlar iqtisodiy mustaqillik hamda ichki va tashqi bozorda bitimlar tuzish huquqini qo‘lga kiritganlaridan so‘ng xo‘jalik yuritishning yangi sharoitlariga bosqichma-bosqich tayyor bo‘lib bordi.

Bozor iqtisodiyoti sohasida boshqaruv subyektlariga faqat axborot-

ga ega bo‘lishning o‘zi kifoya qilmaydi. Bu axborot bilan ishlash, to‘g‘ri xulosalar chiqarish va ulardan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish maqsadida foydalanish zarur bo‘ladi.

Korxonalarining xo‘jalik faoliyatini boshqarishda foydalaniladigan manbalar qatoriga pul mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi axborotlar ham kiradi. Xo‘jalik faoliyatini samarali boshqarishda pul mablag‘lari oqimi to‘g‘risidagi axborotlar muhim rol o‘ynaydi. Pul oqimlari to‘g‘risidagi ma‘lumotlar barcha darajadagi biznesmenlar tomonidan xalqaro amaliyotda keng qo‘llanilmoqda, u korxonalar ma‘muriyatiga ham, tashqi foydalanuvchilarga ham zarurdir. Korxonalar menejerlari mazkur ma‘lumotlardan foydalanib korxonalar likvidligini o‘rganishda, dividendlarni belgilashda, ish haqi ta‘minoti va budjet bilan o‘z vaqtida hisob-kitob qilinishi imkoniyatidan foydalanishlari mumkin.

Iqtisodchi olimlar T.P.Karlin va A.R.Makminlarning fikriga ko‘ra, «Pul mablag‘lari hisob-kitobi – moliyaviy tahlilning eng muhim qurolidir. Yillik moliyaviy bashorat shaklida ko‘rsatilishicha bunday bashorat kompaniya uchun oyma-oy kutilayotgan pul mablag‘lari kirimini va oyma-oy asosida majburiyatlar qoplanishining to‘lovini amalga oshirilishini ko‘rsatib beradi. Pul mablag‘lari hisob-kitobi kreditorlarga firmaning kreditga bo‘lgan tig‘iz talabini baholash uchun va operatsion sikl davomida qisqa muddatli ssudalarni qoplash uchun yetarli darajadagi pul mablag‘larini ishlab topishga qodirligini aniqlash imkoniyatini beradi. Bundan tashqari pul mablag‘lari hisob-kitobi kreditorlarga kompaniyaning uzoq muddatli yoki qisqa muddatli kreditlarga ehtiyoji mavjudligini aniqlashga yordam beradi. Korxonaning pul mablag‘lari harakati hisob-kitobi, ayniqsa, qarzdorlarning mavsumiy tijorat sikli davomidagi moliyaviy ehtiyojlarini aniqlash uchun qulaydir».

Bozor uchun ishlab chiqarish bor joyda pul mablag‘lari o‘ta muhim iqtisodiy vosita bo‘ladi. Pul mablag‘lari ishlab chiqarishning takrorlanishiga xizmat qiladi, iqtisodiy o‘rishga ko‘maklashadi. Pul shaklidagi mablag‘lar bozor orqali resursga aylanadi, resurslar ishtirokida tovarlar yaratiladi, tovarlar sotilib yana pul olinadi. Shunday harakatning qaytarilib turishi iqtisodiy jarayon yuz berganini bildiradi. Har bir xo‘jalik yurituvchi subyekt o‘zining iqtisodiy jarayonini muntazam ravishda davom ettirishi uchun ma‘lum miqdorda pul mablag‘lari bo‘lishini taqozo etadi.

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning fikr-mulohazalariga qoʻshilgan hamda ularning barchasining fikrlarini umumlashtirgan holda pul mablagʻlari atamasiga quyidagicha umumiy taʼrif berishni tavsiya etamiz: «**Pul mablagʻlari** – majburiyatlarni zudlik bilan toʻlash uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan turdagi mablagʻlarni oʻz ichiga oladi. Pul mablagʻlariga moliyaviy muassasalardagi joriy hisobvaraqlardagi qoldiqlar, naqd kupyuralar, tangalar, valutalar, kichik kassaning naqd pullari va moliyaviy muassasalar tomonidan muddatli depozitlar va muomaladan chiqarish uchun qabul qilingan, korxonada kassasidagi konkret oʻtkazib beriladigan pul hujjatlaridir.¹ Bu oʻtkaziladigan pul hujjatlariga oddiy cheklar, kassa orderlari, mijozlar cheklari, pul oʻtkazmalari va boshqa hisob-kitob vositalari kiradi». Balansning «Pul mablagʻlari» moddasidagi qoldiq pul hisobvaraqlariga kiradigan barcha turdagi mablagʻlarni aks ettiradi.

Pul ekvivalentlari - bu pul mablagʻlariga oʻxshaydigan, lekin boshqacha tasniflanadigan aktivlardir. Ular xazina veksellari, tijorat qoʻgʻozlari va depozit sertifikatlaridan iborat. Kechikishlar va jarima sanksiyalari pul ekvivalentlarini pul mablagʻlariga almashtirilishiga taʼsir qilishi mumkin. Shuning uchun, ekvivalentlar kassa hisobvaragʻidan olinadi. Koʻpincha, pul ekvivalentlarini hisob-kitob vositasiga aylantirish ehtiyoji yoʻq. Ekvivalentlar, odatda, qisqa muddatli investitsiya hisobvaragʻiga olib boriladi.

Pul mablagʻlaridan samarali foydalanishni tashkil etish koʻp jihatdan korxonalarda pul mablagʻlarining harakatini optimal boshqarishni tashkil etish va ular ustidan nazoratni yaxshilashga bogʻliq. Pul mablagʻlari nazoratini tashkil etishning asosiy elementlaridan biri esa korxonaning hisob-kitob schotidir, yaʼni hisob-kitob schotidan samarali foydalanishni maksimal darajada taʼminlash, barcha kirib kelayotgan pul mablagʻlarini albatta bank orqali hisobga olish, barcha turdagi toʻlovlarni banklar chiqargan cheklar yoki shunga oʻxshash yozma topshiriqnomalar va ularning maxsus pul mablagʻlari fondi orqali amalga oshirish lozim. Agarda koʻrsatilgan tartib qatʼiy amal qiladigan boʻlsa, u holda pul mablagʻlarining hisobi ikki tomonlama boʻladi: birinchisi – korxonaning oʻzida, ikkinchisi – bankda.

Moliyaviy axborot bilan ishlashning eng muhim jihatlaridan biri uni tahlil qilishdir. Tahlil qilishda xoʻjalik faoliyatini oʻrganishda hamda

¹ («Moliyaviy hisob» buxgalteriya hisobining Milliy va Xalqaro standartlari asosida tayyorlangan oʻquv qoʻllanma. Toshkent, 2000-yil.

xulosalar chiqarishda asos bo'ladigan bir qator ko'rsatkichlardan foydalaniladi.

Korxonada moliyaviy ahvolini tahlil qilish bilan shug'ullanayotgan har bir xodim moliyaviy hisobot shakllarini, shu jumladan, «Pul oqimi to'g'risidagi hisobot» shaklini erkin o'qiy olishi, uning moddalarini tushunishi, shuningdek, xulosalar chiqarish va tavsiyalar berishni bilishlari kerak.

Moliyaviy hisobot moddalaridan foydalanib, korxonada to'g'risida katta hajmda ma'lumot olish, uning moliyaviy ahvolini xizmat va bozor faolligini tahlil qilish mumkin.

«Pul oqimlari to'g'risida hisobot»da korxonada moliyaviy resurslaridagi barcha o'zgarishlar pul mablag'lari nuqtayi-nazaridan aks ettiriladi:

- xo'jalik faoliyatida olingan pullar harakati;
- olingan hamda to'langan foizlar va dividendlar;
- to'langan soliqlar;
- olingan va qo'yilgan investitsiyalar;
- aksiyalar va zayomlar, shuningdek, ijara majburiyatlari bo'yicha tushumlar va to'lovlar.

Kundalik xo'jalik faoliyati jarayonida sodir bo'lgan pul mablag'laridagi barcha o'zgarishlar shunday tartibda aks ettiriladiki, u pul mablag'lari qoldig'i bilan ularga ekvivalent bo'lganlar o'rtasida, ya'ni qisqa muddatli yuqori likvid investitsiyalar, erkin ayirboshlanadigan pul mablag'lari o'rtasida o'zaro bog'liqlikni aniqlash imkonini beradi.

4-son shaklga «Valuta mablag'larining harakati to'g'risida ma'lumotnoma» ilova qilinib, unda davr boshi va oxiriga bo'lgan qoldiqlar, valuta mablag'lari tushumi va xarajati to'g'risidagi ma'lumotlar keltiriladi.

Korxonaning moliyaviy ahvoli ko'p jihatdan real pul aylanmasiga bog'liq. Korxonaning hisob-kitob va o'zga hisob raqamlari orqali o'tadigan pul mablag'larining kelib tushishi va ularning sarflanishiga pul mablag'lari oqimi deyiladi.

Pul mablag'lari oqimini tahlil qilish uchun 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisoboti, shuningdek, 1-sh shaklidagi «Korxonada (tashkilot) moliyaviy faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida»gi statistika hisoboti asosiy ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi.

Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot – moliyaviy hisobot hujjati bo'lib, unda joriy xo'jalik faoliyati jarayonida pul mablag'lari kelib

tushishi, sarflanishi va ularning yil boshi va oxiridagi qoldig‘i, shuningdek, investitsiya va moliyaviy faoliyatga yo‘naltirilgan pul mablag‘lari aks ettiriladi.

Pul mablag‘lari oqimiga so‘m va valutadagi pul mablag‘lari kiritiladi. Shu tufayli 4-shakl «Pul mablag‘lari to‘g‘risidagi hisobot» moliya hisobotida maxsus «Valuta mablag‘larining harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma» bo‘lib, unda ularning davr boshi va oxiridagi qoldig‘i va ularning kelib tushish va sarflanish summasi ko‘rsatiladi.

Pul mablag‘lari oqimini o‘rganishda ishlatiladigan asosiy atamalar quyidagilardan iborat:

Pul oqimlari – pul va pul mablag‘larining hamda so‘m va o‘zga ekvivalentlarining kirimi (kelib tushishi) va chiqimi (sarflanishi).

Pul ekvivalentlari – bu pul mablag‘lariga erkin almashtiriladigan qisqa muddatli likvidlanadigan, qiymati o‘zgarishi xatariga kamroq moyil bo‘lgan investitsiyalar.

Pul mablag‘lari – bu kassadagi naqd pul va talab bo‘yicha beriladigan depozitlar, shuningdek, hisob-kitob, valuta va o‘zga bank hisob raqamlaridagi mablag‘lar.

Operatsiya faoliyati – bu investitsiya va moliyaviy faoliyatni istisno qilganda, korxonaning daromad keltiradigan asosiy va boshqa faoliyati.

Investitsiya faoliyati – pul ekvivalentlariga kiritilmagan uzoq muddatli aktivlar va boshqa investitsiyalarni sotib olish va sotish.


Moliyaviy faoliyat – xo‘jalik yurituvchi subyektning faoliyati bo‘lib, u natijada o‘z sarmoyasi va qarz olingan mablag‘lar hajmi va tarkibining o‘zgarishiga olib keladi.

Pul mablag‘larining oqimini quyidagi asosiy ko‘rsatkichlar ta‘riflaydi:

1. Pul mablag‘larining kelib tushishi va sarflanishi summasi.
2. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘larining tuzilmasi.
3. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘larining o‘zaro saldosi.
4. Kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘lari nisbatining koeffitsiyenti (pul mablag‘lari oqimi koeffitsiyenti).

Kelib tushgan va sarflangan pul mablag‘lari summasi moliyaviy hisobot shakli bo‘lmish 4-shakl «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» bo‘yicha to‘rt guruhga guruhlashtirilgan.

Bundan tashqari, pul mablag‘lari oqimini chizma ko‘rinishida tasvirlash mumkin.



36-chizma. Pul mablag'lari oqimi.

Pul mablag'lari kelib tushishi va chiqimining har bir turini ko'rib chiqamiz.

Pul mablag'larining kelib tushishi (kirimi).

Xaridorlardan olingan pullar (kirim), hisobot davrida korxonaning bank schotlariga yoki veksel ko'rinishida yuklab jo'natilgan mahsulot, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan mablag'lar summasini ko'rsatadi. Ushbu summani 4-shakl «Pul mablag'lari to'g'risidagi hisobot» moliyaviy hisobotidan (quyida 4-Sh) va 1-shakli statistika hisobotidan olish mumkin.

Boshqa pul tushumlari va royaltidan, turli ko'rinishdagi mukofotlar, komission yig'implardan olingan pul mablag'lari va ularning ekvivalentlari summasini ko'rsatadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida pul oqimlari to'g'risidagi hisobot Aksiyadorlik jamiyatlarining boshqaruv rahbariyati va tashqi foydalanuvchi investorlar, kreditorlar, korxonaga menenjerlari uchun zarurdir. Boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning likvidligi, dividendlar miqdorini aniqlash, boshqa yo'nalishlarga qo'shimcha investitsiyalarni joylashtirish uchun manba hisoblanadi.

Pul oqimi to'g'risidagi hisobot zarur bo'lgan hollarda korxonaga yuqori daromad keltiradigan loyihalarni rejalashtirish uchun zarur manbadir.

Korxonaning boshqaruv rahbariyati uchun bu hisobot korxonaning qisqa muddatli kreditorlik qarzlarni uzishga mavjud mablag'ni yetarli yoki yetishmasligi, hissadorlarga to'lanadigan dividendlar miqdorini ko'paytirish yoki kamaytirish hamda korxonani investitsiya va moliya masalalari bo'yicha siyosat kabi masalalarni hal etish zarur.

Pul oqimlari to'g'risidagi manbalar asosida investorlar kompaniya faoliyatini o'rganadi va ularning faoliyatiga baho beradi. Jumladan, korxonaga rahbariyati pul mablag'lari harakatini boshqara olish, korxonaga schotidan kreditor qarzlarni uzish hamda hissadorlarga dividend to'lash, qo'shimcha moliyalashtirish maqsadlari uchun yetarli miqdorda pul mablag'larini jamlash imkoniyatlari aniqlanadi. Bu hisobot shakli orqali sof foyda bilan pul mablag'lari harakati o'rtasidagi bog'liqlik va tafovutlari aniqlanishi mumkin. Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot korxonani investitsiya va moliyaviy faoliyati natijalarini o'zida aks ettiradi.

Korxonaning pul oqimini tahlil qilishda moliyaviy tahlil quyidagi vazifalarni bajaradi:

- pul mablag'larining harakatiga to'g'ri, aniq va xolis baho berish;

- operatsion faoliyatdagi pul mablag‘larining harakatiga baho berish;
- korxonaning joriy, investitsiya va moliyaviy faoliyatlari bo‘yicha pul mablag‘larining sof kirimini va chiqimini aniqlash hamda baho berish;
- pul mablag‘lari kirimi bo‘yicha manbalarini, chiqimi bo‘yicha harakatlarining tarkibini chuqur o‘rganish;
- pul mablag‘lari miqdorining optimal variantini aniqlash;
- korxonaning valuta mablag‘lari harakatini o‘rganish va unga ta’sir etuvchi omillarga baho berish;
- korxonani sof pul oqimlarida ijobiy saldoni ko‘paytirish imkoniyatlarini aniqlash va hokazolar.

13.2. Umumiy pul oqimlari tahlili

Pul mablag‘lari harakatini tahlil qilish moliyaviy ahvol va moliyaviy natijalarni tahlil qilish o‘rtasidagi tahliliy ish hisoblanadi. Pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotdagi umumlashtirish obyekti korxonaning bank schotlari va kassadagi pul mablag‘lari hisoblanadi. Ushbu hisobotni tuzishda pul mablag‘larining ekvivalentlari ham pul mablag‘lariga tenglashtiriladi. Pul mablag‘lari va ularning ekvivalentlarining muomalaga kirib kelishi va chiqib ketishi korxonaning operatsion, investitsion va moliyaviy faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi hisobotda ochib beriladigan pul oqimlarini tashkil qiladi.

Korxonalarda pul mablag‘larining harakati bir necha jarayonlar bo‘yicha sodir bo‘ladi. Bugungi kunda korxonalarda pul oqimi asosan to‘rtta jarayon bo‘yicha sodir bo‘ladi. Bularga:

___ operatsion faoliyatida pul mablag‘larining sof kirimi (+), chiqimi (-);

___ investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi;

___ moliyaviy faoliyatdagi pul mablag‘larining sof kirim yoki chiqimi;

___ soliqqa tortish (to‘langan soliqlar).

Pul oqimlarini faoliyat turiga ko‘ra ajratish foydalanuvchilarning hisobot ma’lumotlariga nisbatan turli talablar bilan bog‘liq. Operatsion faoliyatda kompaniyaning xo‘jalik jarayonini pul mablag‘lari bilan ta’minlab turish imkoniyatini baholash va ishlab chiqarish quvvatla-

rining kengayishi natijasida oborotning oshishi tendensiyalarini aniqlash muhim. Investitsiyalarga yo'naltirilgan mablag'lar bo'lajak ishlab chiqarish quvvatlarining shakllangan xo'jalik faoliyati darajasini va belgilangan rentabellik hamda likvidlik darajalarini qanchalik saqlay olish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Pul oqimlari to'g'risidagi moliyaviy tusdagi ma'lumotlar kompaniya mulkdorlari va kreditorlarining kompaniyada shakllantirilayotgan pul oqimlariga nisbatan kelgusidagi da'volari nuqtayi nazaridan qiziqish uyg'otadi.

Quyida real sektorda faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektning misolida yuqoridagi jarayonlar bo'yicha pul mablag'larining harakatini ko'rib chiqamiz.

121-jadval

Umumiy pul oqimlari tahlili

Ko'rsatkichlar	Pul mablag'lari kirimi		Pul mablag'lari chiqimi	
	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %	Summa, ming so'm	Jamiga nisbatan salmog'i, %
1. Pul va unga tenglashtirilgan mablag'larning hisobot yil boshiga qoldig'i	7657	0,21	-	-
2. Xo'jalik faoliyatida pul mablag'larining kirimi (+), chiqimi (-)	3654697	99,95	2927038	80,09
3. To'langan soliqlar	-	-	727646	19,91
4. Investitsiya faoliyatidagi sof pul oqimlarining kirimi yoki chiqimi	1938	0,05	117	0,003
5. Moliyaviy faoliyatdagi sof kirim yoki chiqim	-	-	-	-
Jami pul mablag'larining harakati:	3656635	100,0	3654801	100,0
Sof ko'payish yoki kamayish	9491	0,26	-	-

Yuqoridagi jadval ma'lumotlari asosida biz tahlil qilayotgan xo'jalik subyektining pul mablag'lari harakatiga baho berishimiz mumkin bo'ladi. Ma'lumotlardan ko'rinadiki, joriy davrda korxonada jami pul mablag'larining kirimi 3656635 ming so'mni tashkil etib, shundan 99,95 foizi xo'jalik (operatsion) faoliyatidagi pul mablag'larining kirimiga to'g'ri kelmoqda. qolgan 0,05 % pul mablag'larining kirimi investitsiya faoliyati hisobiga to'g'ri kelgan. Korxonaning jami pul mablag'lari

chiqimi esa 3654801 ming soʻmni tashkil qilib, shundan, 2927038 ming soʻmi yoki 80,09 foizi xoʻjalik faoliyatidan boʻlgan pul mablagʻlarining chiqimiga, 727646 ming soʻmi yoki 19,91 foizi esa toʻlangan soliqlar hissasiga toʻgʻri kelmoqda. Buning natijasida korxonaning pul mablagʻlari qoldigʻi yil boshidagi 7657 ming soʻmdan yil oxiriga kelib 9491 ming soʻmga koʻpaygan. Bunday natijalarni umuman olganda korxonaga uchun ijobiy baholasak ham boʻladi. Shuni xulosa qilib aytish mumkinki, korxonada pul mablagʻlarining harakati faqatgina asosiy xoʻjalik faoliyatida boʻlgan.

13.3. Xoʻjalik subyektlarining asosiy faoliyatidagi pul oqimlari tahlili

Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlarini tahlil qilish natijasida pul mablagʻlarining taqchillik sabablari toʻgʻrisidagi dastlabki xulosalarni qilish mumkin boʻladi.

Bunday sabablarga quyidagilarni koʻrsatib oʻtish mumkin:

- ◆ xoʻjalik subyektlarining mol-mulk va mahsulot sotish rentabelligi pastligi;

- ◆ soliqlar va turli toʻlovlarining yuqori ekanligi;

- ◆ korxonalarda qoplash manbalaridan yuqori boʻlgan kapital xarajatlarining amalga oshirilishi;

- ◆ meʼyordan ortiqcha boʻlgan zaxira va xarajatlarni tashkil etishga pul mablagʻlarining yoʻnaltirilganligi;

- ◆ korxonalarda aylanma mablagʻlar aylanishining pastligi, yaʼni aylanma mablagʻlarning aylanishi sekinligi hisobiga korxonaga oborotiga pul mablagʻlarining qaytishi sekinligi natijasida oborotga qoʻshimcha pul mablagʻlarini jalb etilganligi;

- ◆ balans passivida qarz majburiyatlari ulushining ortishi hisobiga qarz va kreditlarni qoplashga hamda foiz toʻlovlariga yuqori miqdorda toʻlanmalar qilinganligi.

Bugungi kunda xoʻjalik subyektlarining umumiy pul oqimiga, asosan, mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan tushgan tushum dinamikasi, mol-mulkning iqtisodiy rentabelligi va qarz mablagʻlari boʻyicha toʻlangan foizlar summalari taʼsir etmoqda.

Maʼlumki, pul oqimlarining dinamikasiga baho berishda har bir mamlakatning oʻziga xos xususiyatlari va ularning iqtisodiy rivojlanishiga qarab baho beriladi. Hozirda iqtisodiy jihatdan rivojlangan

mamlakatlarda pul oqimlarining dinamikasini o'rganish va ularga baho berishga katta ahamiyat qaratib kelinmoqda.

Respublikamiz iqtisodiyotida ham keyingi yillarda stabil o'sish tendensiyasini kuzatishimiz mumkin. Jumladan, pul oqimlari dinamikasida ham ijobiy o'zgarishlar mavjud.

Ilmiy izlanishlarimiz natijasida shuni ta'kidlamoqchimizki, respublikamizning xo'jalik yurituvchi subyektlarida pul oqimlari dinamikasiga baho berish uchun quyidagi koeffitsiyentlar (ko'rsatkichlar) o'rganilishi va ularning natijalariga asoslanib baho berish lozim bo'ladi (120-jadval).

122-jadval

Xo'jalik subyektlarining pul oqimlariga baho berish uchun o'rganiladigan ko'rsatkichlar va ularni baholash mezonlari

Ko'rsatkichlar	Pul oqimlariga baho berish uchun o'rganiladigan ko'rsatkichlar izohi		
	Salbiy	Qoniqarli	Ijobiy
Mahsulot sotishdan tushgan tushumning o'sishi (sotish hajmi), %	0 dan past	0 dan - 20 gacha	20 dan yuqori
Korxonalar aktivlarining (mollukining) iqtisodiy rentabelligi, %	10 dan past	10 dan - 15 gacha	15 dan yuqori
Aylanma kapitalga ehtiyojning o'sishi, %	25 dan yuqori	10 dan - 25 gacha	10 dan past
Aylanmadan tashqari (uzoq muddatli) aktivlarga ehtiyojning o'sishi, %	25 dan yuqori	10 dan - 25 gacha	10 dan past
Kredit foizlarini qoplash, marta	2 dan past	2 dan - 4 gacha	4 dan yuqori
Qarzlarni qaytarish muddati, oy	10 dan ortiq	3 dan - 10 gacha	3 dan past
Korxonalar kapitalida qarz mablag'larining ulushi, %	50 dan yuqori	40 dan - 50 gacha	40 dan past

Jadval ko'rsatkichlaridan foydalanib pul mablag'larining sof kirimi va chiqimiga ta'sir etadigan sabablar (omillar) haqida xulosalar qilish mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari oqimini tahlil etishda, yuqorida ko'rsatib o'tilgan uslublardan kengroq foydalanilganda korxonalar menejeri uchun to'g'ri va optimal boshqaruv qarorlarini qabul qilishga kerak bo'ladigan tahliliy ma'lumotlar olish imkoni tug'iladi. Bu esa bugungi iqtisodiy munosabatlar sharoitida korxonaning raqobat-chilari bo'lgan xo'jalik subyektlarini yengib chiqishga hamda bozorda o'z mavqeyini mustahkamlashga olib keladi.

Respublikamizda pul oqimlarini yuqoridagi baholash uslublari orqali baholash pul mablag'larini o'rganishni xalqaro standartlar darajasiga yaqinlashtiradi. Bu esa respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalariga ham xorijiy investorlar qiziqishining ortishiga sabab bo'ldi, deb hisoblaymiz. Xususan, chet ellik iqtisodchi olimlar L.Dj.Gitman, M.D.Djonk pul oqimlari harakati bo'yicha tadqiqotlar olib borib, xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil etilgan korxonalarda ikkita moliyaviy ko'rsatkichni investitsiyalar uchun mezon qilib olishni taklif etdilar:¹

1. Diskontlangan pul mablag'larining oqimini hisoblash.
2. Investitsiyalarning taxminiy daromadlilikini hisoblash.

Bu ikkala usul ham sof operatsion (muomala) foydasini hisoblashga xizmat qiladi.

Pul mablag'lari diskontlangan oqimini hisoblash ham investitsiyalarning daromadlilik ko'rsatkichi bo'lib, investitsiyalar tahlilida pul oqimlari summasidan soliqlarni ayirib tashlab, sof muomala foydasi qiymatini hisoblashni talab qiladi. Sof qiymat pul oqimlarining joriy qiymati bilan kapitalning investitsiyaga qo'yilgan dastlabki qiymati o'rtasidagi farq hisoblanadi.

Investitsiyalarning taxminiy daromadlilikini hisoblash investitsiya qilinadigan obyektning yaroqliligini baholash amali bo'lib, u investitsiyaning to'liq daromadlilikini normasini bir necha yillar davomida tushgan barcha daromadlar hisobidan qayta investitsiyalash imkoniyatini ko'rsatadi.

Professor T.Malikovning fikricha, «Diskontlashtirish kelajakda olinishi mumkin bo'lgan har qanday summa hozirgi paytda kichikroq (ozroq, kamroq) bo'lgan subyektiv foydalilikka (bahoga) ega degan aqidaga asoslangan. Diskontlashtirish investitsiyalarning kelgusi qiymatini baholashda, qimmatli qog'ozlarning qiymatini aniqlashda, bank, valuta, sug'urta amaliyotida va boshqa hollarda keng qo'llanilishi lozim».²

«Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot»da joriy (operatsion), investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlari bo'yicha pul mablag'lari kirimi va chiqimi ifodalangan.

Joriy (operatsion) faoliyat – xo'jalik jarayonlarini korxonaning pul mablag'lariga, foyda miqdoriga ta'sirini ifodalaydi. Bu bo'limga quyidagilar kiradi:

- jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun kelib tushgan pul mablag'lari;

¹ Гитман Л.Дж., Джонк М.Д. Основы инвестирования. Пер. с англ. – М.: «Дело», 1997. С. 10-11.

² T.S.Malikov. Moliyaviy qaror qabul qilish asoslari. – T.: «Sharq», 1996. 46-47 betlar.

- mol yetkazib beruvchi va pudratchilarga to‘langan pul mablag‘lari;
- xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari;
- operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari.

Korxonalarda pul mablag‘lari harakati asosan korxonada xo‘jalik faoliyatida sodir bo‘ladi. Xo‘jalik faoliyatidan pul mablag‘lari harakatini tahlil qilib chiqishimiz uchun quyidagi jadval ma‘lumotlarini o‘rganishimiz lozim bo‘ladi.

123-jadval

Xo‘jalik faoliyatidagi pul mablag‘lari harakati tahlili

Ko‘rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag‘lari kirimi		Pul mablag‘lari chiqimi	
		Summa, ming so‘m	Jamiga nisbatan salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Jamiga nisbatan salmog‘i, %
1. Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari	010	3512687	96,12	-	-
2. Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari	020	-	-	2297295	78,48
3. Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari	030	-	-	267007	9,13
4. Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to‘lovlari	040	142010	3,88	362736	12,39
Jami:	-	3654697	100,0	2927038	100,0
Operatsion faoliyatning sof pul kirimi yoki chiqimi	050	727659	19,91	-	-

Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektida, xo‘jalik (operatsion) faoliyatidan pul mablag‘larining sof kirimi 727659 ming so‘mni tashkil qilgan. Korxonada jami kirim 3654697 ming so‘mni tashkil qilib, uning 96,12 foizi mahsulotlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari hisobiga, qolgan 3,88 foizi esa operatsion faoliyatning boshqa pulli tushumlari hisobiga to‘g‘ri kelgan. Korxonaning xo‘jalik faoliyatidagi jami sarflar esa 2927038 ming

soʻmni tashkil qilib, uning 78,48 foizi mol yetkazib beruvchilarga toʻlangan pul mablagʻlari, 9,13 foizi xodimlarga toʻlangan pul mablagʻlari hisobiga, qolgan 12,39 foizi operatsion faoliyatning boshqa pulli toʻlovlari uchun sarf qilingan. Korxonada pul mablagʻlarining xoʻjalik (operatsion) faoliyatidagi sof kirim natijasi 727659 ming soʻmni tashkil qilgan. Bu koʻrsatkich umumiy tushumning 19,91 % ini tashkil qilgan. Bunday natijalarni korxonaga uchun ijobiy deb baholash lozim.

13.4. Investitsiya, moliyaviy va soliq toʻlamlardagi pul oqimlari tahlili

Investitsiya faoliyati – korxonaga investitsiya faoliyatida nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish, uzoq muddatli moddiy aktivlar, yaʼni koʻchmas mulk boʻlmish bino, jihozlar va boshqa asosiy vositalarni sotib olish uchun yetkazib beruvchilarga toʻlangan pullar va unga tenglashtirilgan mablagʻlar chiqim ustunida aks ettiriladi.

Kirim ustunida esa uzoq muddatli aktivlarni sotishdan tushgan tushum hisoblanadi. Korxonalar xarid qilingan uzoq va qisqa muddatli qoʻyilmalar moddasini chiqim ustunida vositalarga komission toʻlovlar va boshqa birjada toʻlangan foizlarni hisobga olmagan holda qimmatli qogʻozlarni sotib olish uchun toʻlangan pul mablagʻlarini koʻrsatadilar. Kirim ustunida oʻzlik boʻlmagan qimmatli qogʻozlarni, shu bilan birga bank va boshqa yuridik shaxslarning qisqa muddatli va uzoq muddatli ssuda va qarzlarni sotishdan kelgan tushum koʻrsatiladi.

Odatda, korxonalar oʻz faoliyati davomida asosiy faoliyat bilan bir qatorda investitsiya faoliyati bilan hamda moliyaviy faoliyat bilan shugʻullanadilar. Ushbu holatni biz quyidagi jadval maʼlumotlari asosida tahlil qilib chiqamiz.

Quyidagi jadval maʼlumotlari asosida xoʻjalik subyektining investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlaridan koʻrilgan pul mablagʻlarining harakatiga baho berishimiz mumkin boʻladi. Bugungi kunda bizning respublikamizdagi pul mablagʻlari harakatidagi oʻziga xos jihatlari shundaki, bizning respublikamizda pul mablagʻlarining asosiy qismi, yaʼni odatda 90-95 foizi xoʻjalik (operatsion) jarayonlariga toʻgʻri keladi. Shu jihatdan ham mazkur jadval maʼlumotlaridan ham koʻrinib turibdiki, korxonaning mazkur faoliyat turlari boʻyicha pul mablagʻlari jami kirimi 1938 ming soʻmni tashkil qilgan xolos. Mazkur

faoliyatlardan ko‘rilgan jami pul mablag‘lari chiqimi esa 727763 ming so‘mni tashkil etib, ularning hammasi asosan, to‘langan soliqlar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Jadval ma‘lumotlariga ko‘ra, korxonada investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlaridan sof pul oqimi 1834 ming so‘mni tashkil qilgan, ya‘ni ushbu faoliyat natijalaridan so‘ng korxonadagi sof pul mablag‘larining kirimi birmuncha kamayganligini kuzatishimiz mumkin. Bundan ko‘rinadiki, korxonada ushbu faoliyatlar natijasida asosan pul mablag‘larining chiqimiga erishgan. Bunday natijalarni ijobiy hol deb baholab bo‘lmaydi.

124-jadval

Investitsiya, moliyaviy va soliqqa tortish faoliyatlardagi pul mablag‘lari harakati tahlili

Ko‘rsatkichlar	Satr raqami	Pul mablag‘lari kirimi		Pul mablag‘lari chiqimi	
		Summa, ming so‘m	Jamiga nisbatan salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Jamiga nisbatan salmog‘i, %
1. Xo‘jalik (operatsion) faoliyatidan pul mablag‘larining sof holati	050	727659	-	-	-
2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish	060-070	-	-	-	-
3. Olingan va to‘langan foizlar	110	-	-	-	-
4. Olingan va to‘langan devidendlar	120	930	47,99	-	-
5. Investitsiya va moliyaviy faoliyatning boshqa jaranlaridagi pul mablag‘larining harakati	080-090, 130-170	1038	52,01	-	-
6. Jami to‘langan soliqlar	190-200	-	-	727763	100,0
Jami:	-	1938	100,0	727763	100,0
Investitsiya, moliyaviy va soliqlanishdan so‘ng sof pul oqimining natijasi	-	1834	-	-	-

13.5. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati tahlili

Moliyaviy faoliyat – bo‘limida aksiya chiqarishdan kelib tushgan tushum, uzoq va qisqa muddatli qarzlarning kelib tushishi va chiqimlar aks etadi. Bulardan tashqari korxonada pul ishtirokisiz investitsiya va

moliyaviy faoliyat bo'yicha chiqimlarni amalga oshirishi mumkin. Masalan, asosiy vositalarni uzoq muddatli kredit hisobiga sotib olish, kreditor qarzlarni aksiyani chiqarish va kreditlarga qo'shimcha aksiyani berish orqali bo'lishi mumkin.

Korxonada moliyaviy holatining sog'lomligi sharti, pul mablag'lari kirimi korxonaning majburiyatlarini qoplay olishidir. Minimal miqdordagi pul mablag'larining yetishmasligi moliyaviy holat tangligiga, ortiqcha mablag'larga ega bo'lish inflyatsiya natijasida pulning qadrsizlanishiga, hamda ortiqcha mablag'larni samarali foydalanishga yo'naltirmaslik natijasida qo'shimcha daromad ololmaslikka sabab bo'ladi. Shu bois pul mablag'larini ratsional boshqarishni doimo nazorat va tahlil qilish lozim. Bunday tahlil etishning amalda bir qancha usullari mavjud.

Moliyaviy holat tangligi sabablaridan biri bu korxonada joriy aktividagi pul mablag'larining joriy majburiyatlarga nisbatan keskin kamayib borishidir. Shu bois har oyda pul mablag'lari bilan muddati kelgan majburiyatlarni bir-biri bilan taqqoslab, tahlil qilish lozim.

Pul mablag'larini yetarli yoki yetishmasligini aniqlashning ikkinchi usuli – bu pul mablag'larining aylanish davrini aniqlashdan iborat.

$$\text{Pul mablag'larining aylanish davri, kunda} = \frac{\text{Pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i}}{\text{Aylanma summasi}} * \text{o'rganilish davri}$$

Pul mablag'larining o'rtacha qoldig'i 5000-«Kassadagi pul mablag'lari» schoti, 5100-«Hisob-kitob schotidagi pul mablag'lari» schoti, 5200-«Chet el valutasidagi pul mablag'lari» schoti, 5500-«Bankdagi maxsus schotlar» schoti orqali quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Pul mablag'larini o'rtacha qoldig'i} = \frac{\frac{\text{1-oy bosh. qoldiq}}{2} + \frac{\text{2-oy bosh. qoldiq}}{2} + \dots + \frac{\text{N-oy bosh. qoldiq}}{2}}{N-1}$$

Bunda: N – oylar soni.

Aylanma summasini aniqlash uchun yuqoridagi schotlarning krediti bo'yicha aylanma summasi olinadi. Korxonalarda pul mablag'lari aylanmasi davomiyligini oylar bo'yicha o'zgarishini quyidagi jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Pul mablag‘larining oylar bo‘yicha harakati tahlili

Oylar	Pul mablag‘larini qoldig‘i (ming sum)	Aylanma summasi, (ming sum)	Aylanish davri, kunda $1*30/2$
Yanvar	12734	140448	2,72
Fevral	11466	159250	2,16
Mart	12766	187739	2,04
Aprel	12780	180000	2,13
va hokazo			

Korxonada pul mablag‘lari aylanmasi davomiyligi o‘rtacha 2,04 dan 2,72 kungacha tashkil etgan. Pulni korxonaga schotiga kelib tushishidan to chiqib ketishiga qadar 2 kundan ortiqroq kun ketgan. Tahlil davomida pul mablag‘lari kirimi va chiqimi tarkibi atroflicha o‘rganilmog‘i lozim.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot ma‘lumotlarini tahlil etishning 2 uslubi mavjud.

1. To‘g‘ri uslub.
2. Egri uslub.

To‘g‘ri uslub orqali pul mablag‘larining harakatini tahlil etish uchun joriy faoliyat, soliqlanish, investitsiya, moliyaviy faoliyatlari bo‘yicha mablag‘larni kirim qismi, chiqimi bilan taqqoslanib, sof kirimi (yoki chiqimi) aniqlanadi.

Egri uslub orqali esa amalda olingan moliyaviy natijalar (foyda) bilan pul mablag‘lari hajmining mutlaq o‘zgarishi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Egri uslub orqali pul oqimlarini hisoblash sof foyda ko‘rsatkichi bilan uning ko‘rsatkichlari korrektirovkasiga mosligidan, real pul mablag‘lari harakatiga bog‘liq bo‘lmagan mos hisoblar (qatorlar) bo‘yicha olib boriladi. Jumladan, pul oqimlarini tahlil etishning egri uslubi faoliyat turlari bo‘yicha pul mablag‘lari harakatining tahliliga asosan tashkil etilgan bo‘lib, ya‘ni korxonaga foydasi aniq qayerda vujudga kelayotgani yoki «tirik pullar» qayerga sarflanayotganligini ko‘rsatadi. U «Moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot»ni quyidan (sof foydadan) yuqoriga qarab o‘rganishga moslashtirilgan. Shu sababli ham bu uslubni aksariyat iqtisodchi olimlar «quyi» usul deb ham nomlaydilar.

Pul oqimlarini operativ boshqarishda egri uslubning ahamiyati quyidagilardan iborat bo‘ladi, ya‘ni u moliyaviy natijalar va o‘z aylanma mablag‘lari o‘rtasidagi o‘zaro moslikni o‘rnatish imkoniyatini ko‘rsatib beradi.

Egri uslub yordamida korxonada faoliyatidagi eng muammoli jihatlari ko'rsatib berish hamda ushbu kritik holatdan chiqish yo'lini ishlab chiqish mumkin bo'ladi. ***Mazkur uslubning ham ijobiy jihatlari bilan bir qatorda ma'lum kamchiliklarini ham amaliyotda kuzatish mumkin:***

1. Tashqi foydalanuvchilar uchun analitik hisobotlar tuzishdagi yuqori mehnat sig'imi talab etilishi.

2. Ichki buxgalteriya hisobi ma'lumotlari (bosh daftarlar)da kamchiliklarning bo'lishi.

Xo'jalik subyektlarining faoliyatini tahlil qilish jarayonida ikkala uslub (to'g'ri va egri)ning qo'llanilishi bir-birini to'ldirib boradi hamda hisobot davrida korxonani pul mablag'lari oqimining harakati haqidagi real holatini ko'rsatib beradi.

Xo'jalik subyektlarining pul mablag'lari oqimini egri uslub orqali o'rganish uchun alohida analitik hisobot tayyorlash lozim bo'ladi. ***Analitik hisobot tuzish uchun quyidagi axborot manbalaridan foydalaniladi:***

- «Buxgalteriya balansi» (1-shakl);
- «Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot» (2-shakl);
- «Asosiy vositalar harakati to'g'risidagi hisobot» (3-shakl);
- Bosh daftar;
- Jurnal-orderlar;
- Buxgalteriya hisobi ma'lumotnomalari va boshqalar.

Pul oqimlari tahlilining egri uslubi natijalari bo'yicha quyidagi savollarga javob olishimiz mumkin bo'ladi:

1. Qanday hajmda qaysi manbalardan pul mablag'lari kirim qilindi hamda qanday asosiy yo'nalishlarga pul mablag'lari sarflandi?

2. Korxonada joriy faoliyati natijasida to'lov mablag'lari (pul qiymatliklari zaxirasini) kelishini ko'paytirishni ta'minlay oladimi?

3. Korxonada debitorlik qarzlarni undirish hisobiga qisqa muddatli majburiyatlarini qoplash holatiga egami?

4. Investitsiya faoliyatiga yo'naltirish uchun o'zlik mablag'lari (sof foyda va amortizatsiya ajratmalari) yetarlimi?

5. Korxonaning olgan sof foydasi uning pul mablag'lariga bo'lgan joriy talabini qoplash uchun yetarlimi?

Yuqorida ta'kidlangan fikr-mulohazalarimizni pul oqimlarini tahlil etishning egri uslubi va uni qo'llash uslubiyatini aniq amaliy ma'lumotlar asosida quyidagi jadvalda ko'rib chiqamiz.

Pul mablag‘lari oqimini egri uslub orqali hisoblash tizimi va uni tahlil qilish uslubiyati

Ko‘rsatkichlar	Pul mablag‘-larining ko‘payishi (+) yoki uning kamayishi(-)	Hisobot yilida (summa, ming so‘m)	Axborot manbayi
1	2	3	4
1. Joriy faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati			
1.1. Sof foyda	+	5400	«Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot (2-shakl)
1.2. Asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha hisoblangan amortizatsiya	+	3851	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.3. Tovar-moddiy zaxiralar qoldig‘ining ortishi	-	60617	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.4. Yaratilgan qiymatliklar bo‘yicha QQSning ortishi	-	76234	«Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot (2-shakl), Buxgalteriya hisobi ma‘lumotlari
1.5. Debitorlik qarzlari undirilishining kamayishi (pasayishi)	-	82850	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl) «Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida»gi ma‘lumotnoma (2 ^a -shakl)
1.6. «Boshqa aylanma (joriy) aktivlar» moddasi qoldiqning o‘shishi	-	-	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.7. Kreditorlik qarzlarning o‘shishi	+	-121904	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl) «Debitorlik va kreditorlik qarzdorlik haqida»gi ma‘lumotnoma (2 ^a -shakl)
1.8. Daromad (foyda) dan to‘lanadigan majburiyatlarning o‘shishi	+	40821	«Moliyaviy natijalar to‘g‘risida»gi hisobot (2-shakl)
1.9. Kelgusi davr daromadlarining o‘shishi	+	-	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.10. Kutilayotgan xarajatlar rezervining o‘shishi	+	263511	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.11. Boshqa qisqa muddatli majburiyatlarning o‘shishi	+	27004	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
1.12. Joriy faoliyat bo‘yicha jami pul oqimi	xxx	+48182	Yuqoridagi ko‘rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
2. Investitsion faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati			

1	2	3	4
2.1. Nomoddiy aktivlarning o'sishi	-	97	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.2. Yangidan yaratilgan va sotib olingan asosiy vositalar	-	27918	«Asosiy vositalar harakati to'g'risida»gi hisobot (3-shakl)
2.3. Tugallanmagan qurilish hajmining o'sishi	-	4100	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.4. Material qiymatliklarga daromadli qo'yilmalarning o'sishi	-	-	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.5. Boshqa uzoq muddatli aktivlarning o'sishi	-	2233	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
2.6. Investitsion faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	xxx	-34348	Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
3. Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati			
3.1. Moliyaviy qo'yilmalarning o'sishi	-	12009	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.2. Uzoq muddatli majburiyatlar (kredit va qarz)ning o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.3. Qisqa muddatli kredit va qarzlarning o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.4. Bankning qisqa muddatli krediti bo'yicha majburiyatlarini o'sishi	+	-	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
3.5. Moliyaviy faoliyat bo'yicha jami pul oqimi	xxx	-12000	Yuqoridagi ko'rsatkichlar orqali hisob-kitob qilinadi
4. Hamma faoliyat turlaridan pul mablag'larining jami o'zgarishi	xxx	+1834	Hisob-kitob qilinadi
5. Hisobot yili boshiga pul mablag'lari qoldig'i	xxx	7657	«Buxgalteriya balansi» (1-shakl)
6. Hisobot yili oxiriga pul mablag'lari qoldig'i	xxx	9491	Hisob-kitob qilinadi

Egri uslub orqali pul oqimlarini tahlil etishda yuqoridagi singari analitik hisobot tuziladi va pul oqimlarini hisoblash tizimi yaratiladi. Mazkur tizim orqali korxonaning pul oqimlariga har bir faoliyat turi qanday ta'sir ko'rsatayotganligi o'rganiladi. Egri uslubni qo'llash orqali har bir ko'rsatkich pul mablag'lariga qanday va qancha miqdorda ta'sir ko'rsatganligini ko'rishimizga imkon beradi. Jadvaldan ko'rinadiki, har ikkala uslub orqali ham pul mablag'lari qoldig'i bir xil natijani bermoqda. Bundan ko'rinadiki korxonada pul mablag'lari harakati buxgalteriya hisobi va hisobotlarida to'g'ri aks ettirib borilgan.

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning pul oqimlarini tahlil qilish natijasida pul mablag‘larining taqchilik sabablari to‘g‘risidagi dastlabki xulosalarni qilish mumkin bo‘ladi.

Bunday sabablarga quyidagilarni ko‘rsatib o‘tish mumkin:

- Xo‘jalik subyektlarining mol-mulk va mahsulot sotish rentabelligini pastligi.
- Soliqlar va dividend to‘lovlarining yuqoriligi.
- Korxonalarda qoplash manbalaridan yuqori bo‘lgan kapital xarajatlarining katta miqdorda amalga oshirilishi.
- Me‘yordan ortiqcha bo‘lgan zaxira va xarajatlarni tashkil etishga pul mablag‘larining yo‘naltirilganligi.
- Korxonalarda aylanma mablag‘lar aylanishining pastligi, ya’ni aylanma mablag‘larning aylanishi sekinligi hisobiga korxonada oborotga pul mablag‘larining qaytishi sekinligi natijasida oborotga qo‘shimcha pul mablag‘larini jalb etilganligi.
- Balans passivida qarz majburiyatlari ulushining ortishi hisobiga qarz va kreditlarni qoplashga hamda foiz to‘lovlariga yuqori miqdorda to‘lanmalar qilinganligi va boshqalar.

13.6. Valuta mablag‘lari harakati tahlili

Korxonalarda «Pul oqimlari to‘g‘risidagi» hisobot shakli bilan birga ushbu shaklga ilova qilinib, «Valuta mablag‘lari harakati to‘g‘risidagi ma’lumotnoma» ham beriladi. Ushbu ma’lumotda asosan korxonaning valuta mablag‘lari harakati aks ettiriladi, ya’ni korxonada mavjud bo‘lgan valuta mablag‘larining yil boshiga qoldig‘i; jami valuta tushumlari; shulardan sotishdan tushgan valuta tushumi, konvertatsiya hisobiga tushgan tushum, valuta hisobida olingan kreditlar va boshqa manbalar hisobiga kelib tushgan tushumlar; jami sarflangan valuta mablag‘lari; shulardan ishlab chiqarish sarflariga qo‘shiladigan xarajatlardan, ishlab chiqarishni rivojlantirish xarajatlari, mol yetkazib beruvchilarga to‘langan valuta to‘lovlari, valuta hisobiga olingan kredit uchun to‘lovlar va ularning foizlari hamda boshqa maqsadlar uchun to‘langan valuta mablag‘lari bo‘lishi mumkin va nihoyat, hisobot davri oxiridagi valuta qoldig‘i aks ettiriladi. Korxonalarda valuta mablag‘larining oqimi va ularning tuzilmaviy ko‘rinishini quyidagi jadval misolida ko‘rib chiqishimiz mumkin:

Xo‘jalik yurituvchi subyektning valuta mablag‘lari oqimi va ularning tuzilmasi

Ko‘rsatkichlar	Pul mablag‘lari tushumi		Pul mablag‘lari chiqimi	
	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %	Summa, ming so‘m	Salmog‘i, %
Valuta mablag‘lari oqimi				
Hisobot davri boshidagi qoldiq	309			
Kelib tushdi	3725	100,0		
Shu jumladan:		100,0		
A) sotishdan olingan foyda	3725			
B) konvertatsiyalangan				
D) olingan kredit				
E) boshqa manbalar				
Sarflandi			3894	100,0
Shu jumladan:				
A) ishlab chiqarish (muomala) xarajatlariga kiritilgan sarf-xarajatlar				
B) ishlab chiqarishni rivojlantirishga sarf-xarajatlar			1562	40,11
D) mahsulot yetkazib beruvchilarga to‘lovlar			1445	37,11
E) kredit bo‘yicha to‘lovlar, shu jumladan, foizlar				
F) boshqa maqsadlar uchun			887	22,78
Valuta mablaglari tushumi (+), chiqimi (-) ning chiqimdan kupligi	-169			
Hisobot davri oxiridagi qoldiq			140	
Valuta mablaglari oqimi koeffitsiyenti	0,96			
Davr boshidagi pul va valuta mablaglari qoldig‘i summasi	351			
Pul va valuta mablag‘lari tushumi	28177			
Pul va valuta mablag‘lari chiqimi			28224	
Hisobot davri oxiridagi pul va valuta mablag‘lari qoldig‘i summasi			304	
Pul va valuta mablag‘lari oqimi koeffitsiyenti	0,99			

Mazkur ko‘rsatkichlarga asoslanib kelib tushgan va sarflangan mablag‘lar nisbati sifatida aniqlanadigan pul va valuta mablag‘lari oqimining koeffitsiyentini hisoblab topish shart. Ushbu koeffitsiyent birdan katta bo‘lsa, bu hisobot davrida kelib tushgan pul mablag‘lari ularning sarfidan ortiqchaligidan dalolat berib, bu hol bank hisob

raqamlaridagi va kassadagi pul mablag‘i qoldig‘i ko‘payishida o‘z aksini topgan.

Pul mablag‘lari oqimi koeffitsiyentining birdan pastligi pul mablag‘lari sarfi kelib tushishiga nisbatan ko‘proq bo‘lganligidan, hisobot davri oxirida pul va valuta mablag‘lari qoldig‘i kamayganligidan dalolat beradi.

Mazkur koeffitsiyent korxonada hisobot davri boshida muayyan pul qoldiq summasiga ega bo‘lganida birdan past bo‘lishi mumkin.

Pul mablag‘lari oqimi o‘zgarishining moyilligini, ularning korxonada moliyaviy ahvoriga ta‘sirini aniqlash, pul mablag‘lari oqimini prognozlash uchun pul mablag‘lari oqimining so‘nggi bir necha yil ichidagi summasi, tuzilmasi va koeffitsiyentining o‘zgarishini tahlil qilish lozim bo‘ladi.

Pul mablag‘larining manbalari va foydalanish yo‘nalishlarini baholash, hamda shu asosda ular bo‘yicha xulosa qilish va tavsiyalar berish maqsadida tahlil qiluvchi quyidagi savollarga javob topishi kerak:

► Korxonada bundan keyin ham asosiy vositalarni hisobdan chiqarishni korxonaning o‘zida to‘plangan pul mablag‘lari hisobiga moliyalashtira oladimi?

► Ishlab chiqarishni kengaytirish va yangi korxonalar sotib olish qay yo‘sinda moliya bilan ta‘minlangan?

► Tashqi manbalardan moliyaviy ta‘minlanishiga bog‘liqlik qay darajada?

► Dividend siyosati yuritish, ya‘ni aksiyalar, qimmatli qog‘ozlar va qarz berishga pul joylash hisobiga daromad olish qay darajada?

Bir necha yillik pul oqimlarining tahlili ishlab chiqarishni kengaytirishga pul mablag‘larini jalb qilish istiqbolini va bo‘lg‘usi kutilmagan noxush holatlarning oldini olish imkoniyatlarini, ya‘ni rahbariyatga korxonaning moliyaviy ahvolini yaxshilash bo‘yicha uslubiyat va taktikani belgilab olish imkonini beradi.

13.7. Hozirgi qiymatga keltirilgan kelajakda kutilayotgan sof pul oqimlari usuli va uning tahlili

Ma‘lumki, aksiyadorlarga to‘lanadigan dividendlar miqdori kompaniyaning foydalilik darajasiga bog‘liq. Odatda, yuqoriroq moliyaviy

ko'rsatkichlarga erishayotgan kompaniyalar ko'proq dividend to'lashadi. Ammo shunday kompaniyalar borki, ular katta foyda olishlariga qaramasdan, aksiyadorlarga umuman dividend to'lashmaydi va olingan barcha mablag'larni o'z ishlab chiqarish quvvatlarini yanada oshirish maqsadida bizneslariga uzluksiz ravishda investitsiya qiladilar. Bunday kompaniyalar bizneslarini yanada kengaytirishlari uchun juda qulay imkoniyatlarga ega bo'ladilar va bu imkoniyatlar shundan dalolat beradiki, ushbu korxonalarining tovar yoki xizmatlari xaridorlar didiga juda mos. Bu moslik esa korxonaning kelajakda juda katta foyda olishini ta'minlovchi omil bo'lib hisoblanadi.

Albatta, bunday kompaniyalar uchun investitsion mablag'larning eng maqbul manbayi – bu o'z xo'jalik faoliyatlari natijasidan olgan sof foydalaridir. Bunday hollarda kompaniyaning direktorlar kengashi biznesdan hech qanday mablag'ni dividend sifatida olmaslikka va aksincha, foydaning hamma qismini biznesga qaytadan investitsiya qilishga qaror qilishi mumkin. Shuning uchun bunday kompaniyalar hozirda va yaqin kelajakda umuman dividend to'lamasliklari mumkin. Shunga qaramasdan, bunday kompaniyalarning moliyaviy xo'jalik faoliyati bilan yaxshi tanish bo'lgan investorlar ularning aksiyalarini sotishga shoshilmaydi. Chunki ular investitsiya qilgan mablag'lar hozirda samarali ishlatilmoqda va oxir-oqibatda katta foyda keltirishi kutilmoqda. Bozorda esa bu korxonalar aksiyalarining narxi tushmaydi, balki, aksincha, ko'tarilishi mumkin.

Demak, nazariy jihatdan olganda, kelajakda to'lanishi kutilayotgan dividendlar miqdori aksiyalar bahosini aniqlash uchun asos bo'la olsada, amaliyotda faqatgina shu omilni e'tiborga olgan holda aksiyalarning haqiqiy bozor narxini aniqlab bo'lmaydi. Shuning uchun amaliyotda aksiyalarning bozor narxi aksiyadorlar biznesdan dividend sifatida olishlari mumkin bo'lgan va shu bilan birgalikda biznesga qaytadan investitsiya qilishlari uchun mavjud bo'lgan sof naqd pul oqimlari asosida hisoblab topiladi. Aksiyalarning bozor bahosini topishning bu usuli hozirgi qiymatga keltirilgan kelajakda olinishi kutilayotgan sof pul oqimlari usuli deb ataladi.

Bu usulga ko'ra aksiyalar bahosi quyidagi formula orqali topiladi:

$$V_t = \sum_{\tau}^{\infty} \frac{\tilde{C}_{t+\tau}}{(1+r)^{\tau}}$$

Bu yerda:

V_t – biror-bir aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining biror t sanadagi bozor bahosi;

$\tilde{C}_{t+\tau}$ – korxonaning biznes faoliyati natijasida joriy vaqtdan boshlab $t+\tau$ vaqtgacha har bir hisobot davri davomida olinishi kutilayotgan sof pul oqimlari;

τ – korxonaning kelajak faoliyati natijasida sof pul oqimlari to‘play oladigan davrlar soni;

r – aksiyadorlik jamiyatining kapital tannarxi.

Korxonalar aksiyalarining bozor narxini aniqlashning bu usulini amaliyotda qo‘llash uchun korxonaning uch-to‘rt yillik tarixiy moliyaviy hisobotlaridan olingan ma’lumotlar asosida shu korxonaning kelajakda olinishi kutilayotgan sof pul oqimlari hajmini taxminan aniqlash mumkin bo‘ladi.

13.8. Pul oqimlarini prognozlash

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonalar faoliyatini to‘g‘ri va optimal boshqarish birmuncha murakkab jarayon. Jumladan, korxonaning pul mablag‘lari va pulga tenglashtirilgan qiymatliklari oqimini ratsional boshqarish korxonalar faoliyatining davomiyligini hamda uzluksizligini ta’minlaydi. Ya’ni pul mablag‘lari hisobini to‘g‘ri tashkil etish hamda ularni doimiy ravishda tahlil qilib turish korxonalar faoliyatining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytiradi. So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida bozor munosabatlari rivojlanishining xarakterli tomonlaridan biri unda moliyaviy bozorni va uning barcha jabhalarining tez sur‘atlar bilan rivojlanayotganligi hisoblanadi.

Xuddi shuningdek, moliya bozorining asosiy unsurlaridan biri -bu pul mablag‘lari bo‘lib, uning hisobini yuritishda buxgalteriya hisobining «hisoblashish» yoki «kassali» usullarining qaysi biri qo‘llanilsa korxonalar uchun iqtisodiy samarasi yuqori bo‘lishligini o‘rganish muhimdir.

O‘zbekiston Respublikasining 1996-yil 30-avgustida tasdiqlangan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi» qonuni, 1999-yil 5-fevraldagi «Mahsulot (ish, xizmat) lar tannarxiga kiritiladigan, mahsulot (ish, xizmat) larni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi» Nizom va boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda korxonaning sotish jarayonlaridan ko‘rgan moliyaviy natijalarini aniqlashda yuqoridagi usullarni qay biri qo‘llanilishi to‘g‘risida aniq fikrlar bildirilmagan. Unda bu usullarning qaysi birini qo‘llash korxonalar hisob siyosatiga bog‘liq ekanligi aytib o‘tilgan, xolos.

Korxonalarda pul mablag‘lari oqimini ratsional boshqarish uchun korxonaning kelgusidagi pul mablag‘lari oqimini prognozlash (bashoratlash) muhim hisoblanadi. Bunda korxonaning moliyaviy menejeri tomonidan pul mablag‘larining kirimi va chiqimiga oid bor bo‘lgan manbalari yig‘ilishi hamda o‘rganilishi lozim. Odatda ko‘pchilik ko‘rsatkichlarni katta aniqlik darajasida bashoratlash birmuncha murakkab jarayondir. Ayrim hollarda rejalashtirilgan davrdagi pul mablag‘lari budjetining tashkil topishi, bashorat qilingan pul mablag‘lari oqimiga mos keladi.

Korxonalar kelgusida foydasini maksimal darajaga yetkazib, o‘z faoliyatini ratsional ravishda yuritish uchun har qanday sharoitda ham pul oqimini bashorat qilishning optimal usullarini tanlashi lozim. Bunda korxonalar moliyaviy menejeridan iqtisodiy strategiyani to‘g‘ri tanlay bilishni, pul oqimlari hisobini aniq va to‘g‘ri yuritishni talab etadi. Bizning nazarimizda korxonaning moliyaviy menejeri korxonalar pul oqimlarini prognoz qilishda bir qancha bosqichlarni bosib o‘tishi lozim. Bu bosqichlar qo‘yidagilardan iborat bo‘lishi kerak.

Birinchidan, pul mablag‘lari kirimini davr boshlanishidan oldin bashoratlash.

Ikkinchidan, pul mablag‘lari chiqimini davr boshlanishidan oldin bashoratlash.

Uchinchidan, sof pul oqimini (ortiqcha yoki kamomad) davr boshlanishidan oldin hisob-kitobini qilish.

To‘rtinchidan, qisqa muddatli moliyalashtirishda mutlaq talabni davr boshlanishidan oldin aniqlash.

Pul oqimini prognozlash jarayonining birinchi bosqichi kelib tushishi mumkin bo‘lgan pul mablag‘lari kirimining hajmini hisoblashni o‘z ichiga oladi. Qo‘yidagi holatda bunday hisob-kitoblar ma‘lum qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. ya‘ni agar korxonalar tushumini aniqlash uslubiyatini tovarlar jo‘natish tartibi bo‘yicha o‘zgartirib turadigan bo‘lsa, u holda pul mablag‘lari kirimida asosiy manba tovarlar sotish bo‘lib hisoblanadi. Tovarlarni sotish ham o‘z navbatida tovarlarni naqd hisob-kitobga yoki kredit (jo‘natilgan tovarlar qiymatining ma‘lum qismini qarz sifatida berish) hisobiga sotishga bo‘linadi.

Amaliyotda ko‘pchilik korxonalar o‘rtacha davr oralig‘ida xaridorlardan jo‘natilgan tovarlar qiymatini to‘lashni talab qiladilar. Ushbu holatlardan kelib chiqib sotilgan mahsulotlarning qaysi qismi ushbu davrdagi tushumga, qaysi qismi esa keyingi davrdagi tushumga kiritilishini hisoblash mumkin bo‘ladi.

Zanjirli bog‘lanishning balansli usulidan foydalanib, pul mablag‘lari kirimi va debitorlik qarzlarning o‘zgarishi hisob-kitob qilinadi. Balansli tenglikni quyidagi formula orqali ifodalash mumkin:

$$DQ_{D.B.} + ST = DQ_{D.O.} + PK$$

Bu yerda:

DQ_{D.B.} – Tovar va xizmatlar bo‘yicha debitorlik qarzlarning davr boshidagi holati.

ST – Davr oralig‘idagi sotishdan tushgan tushum.

DQ_{D.O.} – Tovar va xizmatlar bo‘yicha debitorlik qarzlarning davr oxiridagi holati.

PK – Davr oralig‘idagi pul mablag‘lari kirimi.

Debitorlik qarzlarni to‘lov (qoplash) muddatlari bo‘yicha tasniflash birmuncha aniq hisob-kitob qilish imkoniyatini beradi. Bunday tasniflash orqali, statistika va tahlilni o‘tgan davrda debitorlik qarzlarni qoplash haqidagi haqiqiy manbalar bilan ta‘minlash mumkin bo‘ladi. Debitorlik qarzlarni to‘lov muddatlari bo‘yicha tahlil etishni oylar bo‘yicha o‘tkazish tavsiya etiladi. Chunki bunday holatda debitorlik qarzlarni qoplash muddatlariga qarab o‘rtacha miqdorini 30 kungacha, 60 kungacha, 90 kungacha va hokazo kunlarga moslashtirib o‘rnatish lozim. Pul mablag‘lari kirimiga oid boshqa manbalar (boshqa sotishlar, sotish bilan bog‘liq bo‘lmagan muomalalar)ni bashoratlash to‘g‘ri hisoblash usuli orqali bajariladi, ya‘ni kirim qilingan summaga joriy davrdagi sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari summasi qo‘shiladi.

Pul oqimini prognozlashning ikkinchi bosqichida esa pul mablag‘larining chiqimi o‘rganiladi. Uning asosiy tarkibiy elementi kreditorlik qarzlarni qoplash bo‘lib hisoblanadi. Bizga ma‘lumki, odatda, korxonalar o‘zining schotini o‘z vaqtida to‘lasada, lekin ba‘zi bir holatlarda korxonalar to‘lov muddatini o‘tkazib yuborishi mumkin. To‘lovni kechikish protsessi kreditorlik qarzlarni cho‘zish (muddati o‘tgan) deb nomlanadi. Muddati o‘tgan kreditorlik qarzlari ushbu holatda qisqa muddatli moliyalashtirishning qo‘shimcha manbalari sifatida ishtirok etadi.

Bozor iqtisodiyotining rivojlanish sharoitida tovarlar (ish, xizmatlar) to‘lovining turli xil tizimlariga amal qilinadi. Jumladan, to‘lovni amalga oshirish vaqtida davrni hisobga olgan holda, to‘lov hajmi differensiallashtiriladi. Bunday tizimdan foydalanishda korxonalar uchun muddati o‘tgan kreditorlik qarzlari moliyalashtirishning muhim manbasi bo‘lib xizmat qiladi.

Pul mablagʻlari ishlatilishining boshqa xil yoʻnalishlari tarkibiga mehnat haqi toʻlovlari, kapital qoʻyilmalar, soliqlar toʻlanishi, foizlar va dividendlarni toʻlash kabilar kiradi.

Pul oqimini prognozlashning uchinchi bosqichi mantiqan oldingi ikkita bosqichning davomi boʻlib hisoblanadi, yaʼni sof pul oqimini bashoratlashni hisoblashda pul mablagʻlari kirimi va chiqimining bashoratlarini solishtirish yoʻli orqali oʻrganiladi.

Pul oqimini prognozlashning toʻrtinchi bosqichida esa qisqa muddatli moliyalashtirishda mutlaq talabni hisoblash hamda pul oqimini bashoratlashda har bir davr boshi uchun bankning qisqa muddatli ssudalari hajmini aniqlash oʻrganiladi. Hisob-kitoblarda korxonaning sugʻurta zaxirasini tashkil etish, rejalashtirilmagan, ammo korxonaga uchun maqbul boʻlgan investitsiyaga mablagʻ sarflash uchun ixtiyoriy minimumni hisob-kitob schotida inobatga olish tavsiya etiladi.

Pul oqimini prognozlashda ushbu toʻrtta bosqichni qoʻllash hisobiga korxonaning pulga boʻlgan talabi oʻrganiladi. Bugungi kunda amaliyotda afsuski, koʻpchilik korxonalarining moliyaviy menejerlari (korxonaga rahbari) korxonaga pul oqimini oʻrganmasligi va tahlil qilib chiqmasligi natijasida korxonaning pulga boʻlgan talabi toʻgʻrisida hech qanday maʼlumotga ega emaslar. Bunday holatni yaxshilash uchun, yuqoridagi pul oqimlarini bashoratlashning bosqichlaridan foydalanish ijobiy samara beradi deb hisoblaymiz.

Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida korxonaning pul oqimini prognozlashning yuqoridagi bosqichlarini amalga oshirish natijasida korxonaga moliyaviy menejeri:

- korxonaning pul oqimlari holati haqidagi toʻliq maʼlumotga;
- korxonani raqobat bozorida yashab qolishini taʼminlab, bankrotlikka uchramaslik sharoitlarini kafolatlaydigan;
- bankdan olgan kreditlarini oʻz vaqtida qaytarish uchun amal qilinadigan aniq dasturlarga ega boʻladi.

Yuqoridagi fikr-mulohazalarimizdan kelib chiqadigan boʻlsak, korxonalarda pul oqimlarini prognozlash muhim ahamiyatga ega ekanligiga amin boʻlamiz. Erkin iqtisodiyotga oʻtish sharoitida inflyatsiya surʼatlarini ham hisobga olgan holda pul oqimlarini prognozlash kerak boʻladi. Korxonaning moliyaviy menejerlari pul mablagʻlarini prognozlash orqali korxonaning kelgusidagi pul mablagʻlariga boʻlgan taxminiy talabini oldindan bilgan holda strategik rejalar tuzadilar. Korxonaning kelgusidagi pul mablagʻlariga boʻlgan talablarini oldindan

bilish hisobiga, korxonaning iqtisodiyotini to'g'ri rejalashtirilishiga, korxonaning kelgusidagi to'lov intizomini yaxshilanishiga olib keladi. Bu esa respublikamiz iqtisodiyotining rivojlanishida ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatadi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- pul oqimlari to'g'risidagi hisobotni tahlil etishdan maqsad, uning strukturasi va yo'nalishi;
- pul oqimi;
- pul mablag'lari kirimi;
- pul mablag'lari chiqimi;
- pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobotdan foydalanish yo'llari;
- joriy faoliyatdagi pul mablag'lari kirimi va chiqimi tahlili;
- investitsiya faoliyatidagi pul oqimlarini kirimi va chiqimini tahlil etish uslubi;
- moliyaviy faoliyatdagi pul oqimlarining kirimi va chiqimini tahlil etish;
- pul oqimini tahlil etishning to'g'ri usuli;
- pul oqimini tahlil etishning egri usuli;

Takrorlash uchun savollar:

1. Pul oqimi atamasiga izoh bering.
2. Pul ekvivalentlari deganda nima tushuniladi?
3. Pul mablag'larini tahlil etishning ahamiyati nimadan iborat?
4. Pul mablag'larining harakatini o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
5. Korxonaning xo'jalik faoliyatidan bo'lgan pul oqimlari qanday tahlil etiladi?
6. Soliq to'lovlari qanday tahlil etiladi?
7. Investitsiya faoliyatidan pul mablag'lari oqimi qanday tahlil etiladi?
8. Moliyaviy faoliyatdan bo'lgan pul mablag'lari oqimi qanday tahlil etiladi?
9. Valuta mablag'lari qanday tahlil etiladi?

10. Valuta mablag‘larini tahlil etishdan maqsad nima?
11. Valuta mablag‘lari bo‘yicha kurs o‘zgarishlarini qanday bashorat etish mumkin?
12. Pul mablag‘larining harakatini qanday prognozlash mumkin?
13. Pul oqimini tahlil etishning to‘g‘ri usuli mohiyatini tushuntirib bering.
14. Pul oqimini tahlil etishning egri usuli mohiyatini tushuntirib bering.

Mustaqil o‘rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Quyidagi ilova qilingan «Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot» ma’lumotlari asosida korxonaning pul mablag‘lari harakatini mustaqil ravishda o‘rganing, tahlil qiling va xulosalaringizni bering.

Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobot (4-sonli shakl)

Ko‘rsatkichlar nomi Наименование показателей	Satr kodi	Kirim Приход	Chiqim Расход
1	2	3	4
<i>Operatsion faoliyat Операционная деятельность</i>			
Mahsulot (tovar, ish va xizmat)larni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari Денежные поступления от реализации продукции (товаров, работ и услуг)	010	4517395,6	
Material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari Денежные выплаты поставщикам за материалы, товары, работы и услуги	020		1725282,9
Xodimlarga va ular nomidan to‘langan pul mablag‘lari Денежные выплаты персоналу и от их имени	030		
Operatsion faoliyatning boshqa pul tushumlar va to‘lovlari Другие денежные поступления и выплаты от операционной деятельности	040	1921254,7	4320200,4
Jami: operatsion faoliyatning sof pul kirimi / chiqimi (satr. 010-020-030+/-040) Итого: чистый денежный приток /отток от операционной деятельности (стр. 010-020-030+/-040)	050	6438650,3	6045483,3
<i>Investitsiya faoliyati Инвестиционная деятельность</i>			
Asosiy vositalarni sotib olish va sotish Приобретение и продажа основных средств	060	1484,1	
Nomoddiy aktivlarni sotib olish va sotish Приобретение и продажа нематериальных активов	070		

1	2	3	4
Uzoq va qisqa muddatli investitsiyalarni sotib olish va sotish Приобретение и продажа долгосрочных и краткосрочных инвестиций	080	349357,3	
Investitsion faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari Другие денежные поступления и выплаты от инвестиционной деятельности	090		
Jami: investitsion faoliyatning sof pul kirimi/chiqimi (sotr.060+/-070+/-080+/- -090) Итого: чистый денежный приток/отток от инвестиционной деятельности (стр. 060+/- -070+/- 080+/-090)	100	350841,4	
<i>Moliyaviy faoliyat Финансовая деятельность</i>			
Olingan va to'langan foizlar Полученные и выплаченные проценты	110	374998,1	
Olingan va to'langan dividendlar Полученные и выплаченные дивиденды	120		
Aksiyalar chiqarishdan yoki xususiy kapital bilan bog'liq bo'lgan boshqa instrumentlardan kelgan pul tushumlari Денежные поступления от выпуска акций или других инструментов, связанных с собственным капиталом	130		
Xususiy aksiyalar sotib olingandagi pul to'lovlari Денежные выплаты при выкупе собственных акций	140		
Uzoq va qisqa muddatli kredit va qarzar bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari Денежные поступления и выплаты по долгосрочным и краткосрочным кредитам и займам	150		
Uzoq muddatli ijara (moliyaviy lizing) bo'yicha pul tushumlari va to'lovlari Денежные поступления и платежи по долгосрочной аренде (финансовому лизингу)	160		
Moliyaviy faoliyatning boshqa pul tushumlari va to'lovlari Другие денежные поступления и выплаты от финансовой деятельности	170		
Jami: moliyaviy faoliyatning sof pul kirim/chiqim (sotr.110+/-120+130-140+/-150+/- -160+/-170) Итого: чистый денежный приток/отток от финансовой деятельности (стр.110+/-120+130-140+/-150+/-160+/-170)	180	374998,1	
<i>Soliqqa tortish Налогообложение</i>			
To'langan daromad (foyda) solig'i Уплаченный налог на доход (прибыль)	190		565531,2
To'langan boshqa soliqlar Уплаченные прочие налоги	200		16210,7
Jami: to'langan soliqlar (sotr.190+200) Итого уплаченные налоги (стр.190+200)	210		581741,9

1	2	3	4
Jami: moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining sof pul kirimi/chiqimi (satr.050+/-100+/-180-210)			
Итого: чистый денежный приток/отток от финансово-хозяйственной деятельности (стр. 050+/-100+/-180-210)	220	7164489,8	6627225,2
<i>Yil boshidagi pul mablag‘lari</i> <i>Денежные средства на начало года</i>	230	240164,7	
<i>Yil oxiridagi pul mablag‘lari</i> <i>Денежные средства на конец года</i>	240	777429,3	

Test savollari:

1. Pul mablag‘lari harakatdagi aktivlarning qaysi qatoriga kiradi?

- a) tez sotiluvchi aktivlarga;
- b) doimiy harakatdagi aktivlarga;
- d) sekin sotiluvchi aktivlarga;
- e) aylanma mablag‘larga.

2. Pul oqimlari to‘g‘risidagi hisobotni tuzishdan maqsad nima?

- a) Pul mablag‘lari harakatining balansini tuzish;
- b) ma‘lumot foydalanuvchilariga korxonaning pul mablag‘larini boshqaruvidagi layoqatiga baho berishdan;
- d) pul mablag‘larining faoliyat shakli bo‘yicha harakatini ko‘rsatishdan;
- e) pul mablag‘lari harakatini boshqarishda axborotlar bilan ta‘minlashdan iborat.

3. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot qaysi davrga tuziladi?

- a) yil bo‘yicha;
- b) choraklik, yarim yillik, 9 oylik, yillik;
- d) faqat choraklar bo‘yicha;
- e) yarim yillik va yillik;
- f) to‘liq hisobot davri bo‘yicha.

4. Firmaning pul mablag‘lari qanday faoliyatlarda harakat qiladi?

- a) xo‘jalik, investitsiya, soliqqa tortish va tashqi iqtisodiy faoliyatlarda;

- b) xo‘jalik, investitsiya, soliqqa tortish va moliyaviy faoliyatlarda;
- d) xo‘jalik, investitsiya, soliqqa tortish va valuta mablag‘lar harakatida;
- e) xo‘jalik, investitsiya, soliqqa tortish va ijara majburiyatlarida;
- f) xo‘jalik, investitsiya, soliqqa tortish va aksiya chiqarishda.

5. Moliyaviy faoliyatdagi pul oqimini tahlil qilishda asosiy o‘rganiladigan ko‘rsatkichlarni belgilang:

- a) aksiya chiqarishdan, uzoq, qisqa muddatli qarzarlar va ijara majburiyatlari bo‘yicha kirim va chiqim, olingan va to‘langan foizlar, olingan va to‘langan dividendlar;
- b) olingan va to‘langan foizlardan kirim va chiqim;
- d) olingan va to‘langan dividendlardan kirim va chiqim;
- e) to‘langan soliqlar bo‘yicha chiqim;
- f) ijara majburiyatlari bo‘yicha sof kirim va chiqim.

6. Pul oqimi deganda nimani tushunasiz?

- a) pul mablag‘lari kirimini;
- b) pul mablag‘lari chiqimini;
- d) pul va pul mablag‘larining kirimi va chiqimini;
- e) pul mablag‘larining muayyan davr oralig‘idagi harakatini;
- f) pul balansini.

7. Qaysi bir firmada pul va unga tenglashtirilgan mablag‘lar-ning yil oxiridagi qoldig‘i to‘g‘ri aniqlangan?

(ming so‘m)

Passivlar	Korxonalar				
	a	b	c	d	e
1. Xo‘jalik faoliyatidan tushgan pul mablag‘lar sof kirimi/chiqimi	1500	1600	1400	1400	1300
2. Investitsiya faoliyatidan tushgan pul mablag‘lari sof kirimi/chiqimi	-400	-600	-500	-600	-400
3. Moliyaviy faoliyatdan tushgan pul mablag‘lari sof kirimi/chiqimi	-300	500	-500	400	-150
4. To‘langan soliqlar	-500	-600	-400	-450	-350
5. Hisobot yili boshidagi qoldiq	400	400	400	400	400
6. Yil oxiridagi qoldiq	500	400	400	450	850

8. Pul oqimi tahlili:

(ming so‘m)

Ko‘rsatkichlar	O‘tgan yil	Hisobot yili	Farqi (+, -)
1. Operatsion faoliyatdan sof pul oqimi	+15600	+6946	+5386
2. Investitsion faoliyatdan sof pul oqimi	-1210	+440	-770
3. Moliyaviy faoliyatdan sof pul oqimi	-1600	-4500	-2900
4. Pul mablag‘larining yil boshiga qoldig‘i	498	1210	+712
5. Pul mablag‘larining yil oxiriga qoldig‘i	?	?	?

- a) 13288; 4096; +9192.
- b) 12790; 2886; +9904.
- d) 12292; 1676; +10616.
- e) 498; 1210; +712.
- f) 16098; 8156; -7942.

9. Operatsion faoliyatdagi pul mablag‘lari harakati nimalardan tashkil topadi?

a) mahsulotlarni sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari; material, tovar, ish va xizmatlar uchun mol yetkazib beruvchilarga to‘langan pul mablag‘lari; xodimlarga va xodimlar nomidan to‘langan pul mablag‘lari; boshqa operatsion faoliyatdan pul mablag‘lari tushumi va chiqimidan;

b) xodimlarga va xodimlar nomidan to‘langan pul kirimi va chiqimidan;

d) turli xil pulli to‘lovlar va tushumlardan;

e) xaridor va mol yetkazib beruvchilar, xodimlar va boshqa turli xil to‘lov va tushumlardan;

f) xaridor va mol yetkazib beruvchilardan pul kirimi va chiqimi valuta mablag‘lari harakatidan.

10. Pul oqimi to‘g‘risidagi hisobot qaysi usulda tuziladi?

- a) to‘g‘ri va egri usulda;
- b) balans usulda;
- d) to‘g‘ri usulda;
- e) to‘g‘ri va balans usulida;
- f) qatorli va balansli usulda.

11. Quyida qayd qilingan qaysi ma'lumotlar valuta mablag'lari harakatini to'liq ifodalaydi?

- a) valuta mablag'larining kirimi;
- b) valuta mablag'larining chiqimi;
- d) valuta mablag'larini hisobot davri boshidagi qoldig'i;
- e) valuta mablag'larining yil boshidagi qoldig'i;
- f) valuta mablag'larining yil boshidagi qoldig'i, jami tushum va chiqim, yil oxiridagi qoldiq.

XIV BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING XUSUSIY KAPITALI TAHLILI

14.1. Xo‘jalik yurituvchi subyektlar xususiy kapitalini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xususiy kapital korxonaning moliyaviy holatini tavsiflovchi muhim ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Chunki uning holatiga qarab jami mablag‘lar tarkibidan kelib chiqqan holda korxonaning iqtisodiy qaramligi yoki mustaqilligiga baho beriladi. Bu biznesni boshqarish, faoliyatni kengaytirish va sheriklik faoliyatini yo‘lga qo‘yishda o‘ta muhim masala hisoblanadi.

Xususiy kapital korxonaning o‘z mablag‘lari manbayining asosini tashkil etuvchi ko‘rsatkich hisoblanib, uning tarkibiga korxonalar ustav kapitali, zaxira kapitali, qo‘shilgan kapital hamda taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kiradi.

Buxgalteriya hisobi fanidan ma‘lumki korxonalar, tashkilot va firmalarni moliyaviy mablag‘lar bilan ta‘minlash manbayi bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- o‘z mablag‘lari manbayi;
- qarz mablag‘lari.

Sobiq ittifoq davrida esa bu mablag‘lar manbayiga budjetdan ajratmalar ham kirgan. Lekin bozor iqtisodiyotiga o‘tganimizdan keyin bu mablag‘lar manbayi bekor qilingan. Chunki bu manbaning yo‘q qilinishi Respublikamizdagi boqimandalik tizimini tugatishni ta‘minladi.

Endilikda esa yuqorida sanab o‘tganlarimiz korxonalarni mablag‘lar bilan ta‘minlash manbayi bo‘lib kelmoqda.

Korxonalar, tashkilot yoki firma ochilish davrida o‘z mablag‘larini belgilab olishi lozim. Bu ish amalga oshirilgach esa mablag‘larni qaysi manba hisobiga qoplash kerakligi ko‘rib o‘tiladi. Agarda korxonaning o‘z mablag‘lari yetarli bo‘lsa, o‘z mablag‘lar manbayi hisobiga, aks holda esa qarz mablag‘lari hisobiga, qoplaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida har bir korxonaga o'z moliyaviy ehtiyojlarini o'zi mustaqil qondirishi mumkin. Resurslarni ta'minlash manbai bo'lib, uning foydasi, qimmatli qog'ozlarini sotishdan kelgan tushum, aksionerlarning pay va boshqa to'lovlari, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa to'lovlari hamda qonundan tashqari bo'lmagan holda kirim qilingan mablag'lar kiradi. Bunday asosda kiritilgan mablag'lar korxonaga, tashkilotlar uchun xususiy kapital deb qaraladi.

Hozirgi vaqtda mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, korxonalarda ustav fondi miqdori mazkur korxonaga tashkil bo'lganda tasdiqlangan ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan miqdor bilan muvofiq kelishi lozim. Uning miqdori yil davomida o'zining mulkchilik shaklini o'zgartirmaydigan korxonalarda o'zgarmaydi. Davlat korxonasi xususiylashtirilganda mazkur korxonaga mulkning sotib olinish qiymatini aniqlash talab qilinadi, chunki ta'sischilar hujjatida ustav fondi miqdorini ko'rsatish lozim.

Umuman olganda, barcha iqtisodchi olimlar tomonidan xususiy kapitallarga ta'rif berilganda yuqorida keltirilgan ko'rsatkichlar tizimidan foydalanilgan bo'lib, ular tarmoq xususiyatiga ko'ra o'z ko'rinishlarini o'zgartirgan holda ta'riflangan.

MDH iqtisodchi olimlaridan P.Kamishanov «Ustav kapitali – bu davlat tashkilotlarida hukumat tomonidan ajratilgan asosiy va aylanma mablag'lari hisobiga shakllanadi. Nodavlat sektoridagi korxonalarda esa ta'sischilarning kiritgan mablag'lari hisobiga tashkil topib, u xo'jalik faoliyatini amalga oshirish uchun ta'sis hujjatlarida ko'rsatilgan mulkni puldagi ifodasini ko'rsatadi» deb ta'kidlagan.

Shu jumladan A.O'lmasov va N.To'xliyevlar ham: «Ustav kapitali – korxonani barpo etish to'g'risidagi shartnoma yoki nizomda belgilangan mablag'lar (kapital) miqdori. Chiqarilgan aksiyalarning nominal qiymati, davlat qo'ygan mablag'lar, xususiy ulush (pay) badallari miqdoridan tashkil topadi» deb ta'rif berishgan.

Ushbu iqtisodchilar tomonidan ustav kapitaliga berilgan ta'rif mazmun jihatdan mohiyatga ega bo'lsa hamki, unga bir muncha qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Negaki, berilgan mazmun, korxonaga mablag'lar manbayining manfaatdorlik hissini, tashkil bo'lish davrini va keyinchalik mazkur ko'rsatkichning shakllanish holatini o'zida aks ettirmagan. Shu jihatdan olganda: «ustav kapitali – bu xo'jalik subyektlarining daromad (foyda) olish maqsadini ro'yobga

chiqarish uchun zarur bo'lgan dastlabki (korxonani barpo etish to'g'ri-sida shartnoma yoki nizomda belgilangan) mablag'lar (kapital) miqdori. Shuningdek, ustav kapitalini oshirish maqsadida kiritilgan mablag'lar, hamda o'z kreditor va ta'sischilarining qiziquvchanligini kafolatlovchi mablag'lar manbayidir» deb ta'rif berishimiz maqsadga muvofiqdir.

Xususiy kapital tarkibiy qismlaridan yana biri bu – rezerv kapitali hisoblanadi. Rezerv kapitali ko'pgina me'yoriy va qonuniy hujjatlarda hamda iqtisodiy adabiyotlarda turlicha ta'riflangan bo'lib, uning o'ziga xos jihatlari belgilab bergan.

Masalan, Respublikamiz boshqaruv tashkilotlari tomonidan belgilangan me'yorlarga asosan: «Rezerv kapitali – bu korxonaga ustavga asosan ajratma qilish mol-mulk qayta baholanishi, qaytarib bermaslik sharti bilan olingan mablag'lar (pul mablag'laridan tashqari), o'rtoqlik va aksionerlik jamiyatlar mulkini oshiruvchi boshqa kirimlar hisobini olib borish uchun mo'ljallangan» deb izohlangan. Keltirilgan izohga mazmunan yondashadigan bo'lsak, uning tarkibiga kiruvchi bir qator ko'rsatkichlar o'z o'rnida berilmagan. Masalan, mol-mulkning qayta baholanishi. Chunki ushbu ko'rsatkichning ma'lum qismi, qo'shilgan kapital zimmasiga birkirilgan bo'lib, uning ikki schotda ko'rsatilishi hisob tizimidagi kamchiligimiz hisoblanadi.

M.Lapustin, P.Nikolskiylarning fikricha: «Rezerv kapitali – bu xo'jalik tavakkalchiligi va ko'zda tutilmagan holatlarni moliyalashtirish maqsadida jamg'arilgan pul ko'rinishidagi mablag'lar hisoblanib, u xususiy kapitalning bir bo'lagi sifatida qaraladi. Amaliyotda bu jamg'arma sug'urta mablag'i sifatida yoki tavakkalchilik rezervi, deb ham ataladi».

Yuqorida keltirilgan ta'rifga nazar solsak, uning bir qadar mazmunga ega ekanligini guvohi bo'lamiz. Chunki rezerv kapitali hisobot yilida erishilgan sof foyda hisobidan ma'lum bir maqsadlarni sug'urtalash uchun tashkil etilishi belgilab qo'yilgan.

Shu nuqtayi nazardan, bizningcha: «Rezerv kapitali – bu ta'sis hujjatlariga binoan hisobot davrida erishilgan sof foyda hisobidan, amaldagi qonunchilik asosida, tavakkalchilik va ko'zda tutilmagan natijalar oldini olish, hamda xo'jalikning oxirgi moliyalashtirish manbayi sifatida gavalanadigan mablag'lar jamg'armasining puldagi ifodasi» deb ta'riflash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yuoridagi fikr-mulohazalar shuni ko'rsatmoqdaki, xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatida kapitallar (fondlar) va rezervlarning muhim o'rnini mavjud ekan. Chunki bu manbalar asosan, xo'jalik sub-

yektlarining o‘z manbalarini aks ettiruvchi jihatlari bilan ajralib turadi. Bugungi kunda xo‘jalik subyektlarining o‘z mablag‘lari manbalari qanchalik yuqori salmoqqa ega bo‘lsa, mazkur korxonalarining faoliyati shunchalik ijobiy baholanadi.

Xususiy kapital hisobi iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u korxonaning o‘z qudrati darajasining qay darajada ekanligini bildiradi. Bunday taraflarni e‘tiborga olgan holda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi chaqiriq 6-sessiyasida qabul qilingan «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi qonunda ham xususiy kapital hisobiga katta e‘tibor berilgan. Uning 16-moddasiga ko‘ra moliyaviy hisobotlar tarkibida 5-shakl «Xususiy kapital to‘g‘risida hisobot» deb nomlanib, bu shakl har yili boshqa hisobotlarga qo‘shilgan holda yuqori organlarga topshirilishi lozim.

Xususiy kapital tahlilining vazifalari bo‘lib, quyidagilar hisoblanadi:

- xususiy kapitallardan samarali foydalanganlikka baho berish;
- xususiy kapitalda mavjud bo‘lgan imkoniyatlarni aniqlash;
- uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va hokazolar.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda axborot manbayi bo‘lib, «Buxgalteriya balansi»ning passiv 1-bo‘limi va «Xususiy kapital to‘g‘risida»gi hisobot shakllari kiradi. Bu hujjat shakllaridan foydalangan holda biz tahlil ishlarini olib boramiz. Mazkur mavzuning hisobi 12-«Jurnal orderi» da yuritilib, ushbu hujjat formasi ham manbalar sifatida ko‘rilishi mumkin.

14.2. Xususiy kapital tarkibi, o‘zgarishi va dinamikasi tahlili

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida analitik ishlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan uni qanday tashkil etilganligiga va rejalashtirishga bog‘liq. Odatda, analitik ishlarda nafaqat korxonani boshqaruv tarkibi, balki boshqaruvning funksional organlari, jamoatchilik a‘zolari hamda mehnat jamoasigacha qatnashishi mumkin bo‘ladi.

Bizning fikrimizcha, xo‘jalik subyektlarining xususiy kapitalini o‘rganishda iqtisodiy tahlilni quyidagi bosqichlarda tashkil etish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

◆ ***Xususiy kapital tahlilini o‘tkazishning rejasi va dasturini tuzish bosqichi.*** Iqtisodiy tahlilning dasturi va rejasini tuzib olish tahlilni

tashkil etishning asosiy qismidir. Bu bosqichda xo‘jalik subyektlarining xususiy kapitalini iqtisodiy tahlil ishlari nimadan boshlanishi, tahlil o‘tkazuvchi komissiyaga kimlar kiritilishi hamda tahlil ishlari nima bilan yakunlanishi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari iqtisodiy tahlil o‘tkazish dasturida quyidagilar aniq ko‘rsatilgan va belgilanib olingan bo‘lishi lozim:

- xususiy kapital tahlilining maqsadi va vazifasini aniqlash;
- tahlil obyektini aniqlash;
- iqtisodiy tahlil ishlarini olib borish joyi;
- tahlil mazmunini izohlash;
- ijrochilar tarkibi va ularning vazifalarini belgilash;
- tahlil o‘tkazish muddatini belgilab olish;
- xususiy kapital tahlili manbalari va ularning natijalarini rasmiylashtirish tartibini aniqlab olish.

◆ ***Xususiy kapital tahlili uchun kerakli bo‘lgan manbalarni aniqlash, yig‘ish hamda hisoblanadigan ko‘rsatkichlarni belgilash bosqichi.*** Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- xususiy kapital tahlili uchun zarur ma‘lumotlarni aniqlash;
- xususiy kapitalga oid manbalarni to‘plash;
- qo‘shimcha ma‘lumotlarni jalb etish.

◆ ***Xususiy kapitalga oid to‘plangan ma‘lumotlarning to‘g‘riligini tekshirish va tahlil uchun moslashtirish bosqichi.*** To‘plangan manbalarni to‘g‘riligini tekshirish hamda ishonchliligini aniqlashdan iborat bo‘ladi va ushbu manbalar tahlil uchun moslashtiriladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda quyidagilar aniqlanib olinadi:

- tahlil usullarini aniqlab olish;
- ma‘lumotlarni soddalashtirish;
- jadval, sxema va maketlarni tuzish;
- ta‘sir etuvchi faktorlarni aniqlash;
- rezervlarni aniqlash.

◆ ***Bevosita xo‘jalik subyektlarining barcha sohalarini belgilangan tartibda tahlil qilib chiqish bosqichi.*** Bu eng muhim bosqich bo‘lib, bevosita tahlil ishlari bajariladi, ko‘rsatkichlar hisoblanadi, o‘zgarish sabablari va farqlar aniqlanadi. Ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- mezon ko‘rsatkichlarini aniqlash;
- ko‘rsatkichlarni hisob-kitob qilish hamda natijalarni baholash;
- baholashda ekspertizadan foydalanish;

- natijalarni umumlashtiruvchi mezonlar;
- tahlil natijalarini xulosaga tayyorlash.

◆ ***Tahlil natijalarini umumlashtirish va rasmiylashtirish bosqichi.***

Bu bosqichda o'rganilayotgan iqtisodiy jarayon yakunlanadi va ma'lum bir o'zgarishlarga baho beriladi hamda tahlilga yakun yasaladi. Bundan tashqari ushbu bosqichda ham quyidagi ishlar amalga oshirilishi lozim bo'ladi:

- korxonada faoliyati natijalarining o'zgarish sabablarini aniqlash;
- korxonada faoliyatini yaxshilanish rezervlarini jamlash;
- aniqlangan rezervlardan foydalanish tadbirlarini belgilash;
- tahlil natijalarini hisoblash va hisobotda ifodalash.

◆ ***Tahlil natijasida ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotda qo'llash shart-sharoitlarini ko'rsatib berish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish bosqichi.*** Mazkur bosqichda tahlil natijasida aniqlangan imkoniyatlarni korxonada faoliyatiga qo'llash yo'llari ko'rsatilib, tavsiyalar beriladi, aniqlangan ilg'or g'oya va tajribalarni amaliyotga tatbiq etishni ko'rsatib beradi va ularning haqiqatda kelgusida bajarilishi nazorat qilib boriladi.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar o'z moliyaviy resurslarini mustaqil shakllantirishlari mumkin. Korxonada moliyaviy resurslarining asosiy manbalari bo'lib foyda, amortizatsiya ajratmalari, qimmatli qo'zg'ozlarni sotishdan olingan mablag'lar, aksionerlar, yuridik va jismoniy shaxslarning pay va boshqa badallari, shuningdek, kreditlar va qonunchilikka zid bo'lmagan boshqa tushumlar hisoblanadi.

Korxonaning o'z mablag'larini shakllantirish asosiy manbayi bo'lib uning mulkdorlari tomonidan korxonaga qo'yilgan mablag'lar majmui bo'lgan ustav kapitali hisoblanadi. Ustav kapitalini shakllantirish tartibi qonunchilik va ta'xis hujjatlari bilan amalga oshiriladi.

Chunonchi, davlat korxonalarining ustav fondi korxonada foydalalanishga topshirilgan vaqtida o'z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat tomonidan (budjet hisobidan) ajratilgan mablag'lar (qurilish, montaj, sozlash ishlari xarajatlari, asbob-uskunalar, aylanma mablag'lar va pul mablag'lari qiymati) ni aks ettiradi.

Nodavlat tijorat strukturalarining ustav kapitali aksionerlar (ta'xischilar) tomonidan qo'yilgan (pul, moddiy va boshqa) mablag'lar hisobidan shakllantiriladi va shuning uchun ham bir necha yuridik va jismoniy shaxslar – aksionerlar jamiyatini, shirkat va boshqa tashkiliy-huquqiy shakldagi jamoat mulkini tashkil etadi.

Xususiy kapital hisobi o‘z ichiga bir qancha ko‘rsatkichlarni olib, ular quyidagi tartibda tashkil etiladi:

- Ustav kapitali.
- Qo‘shilgan kapital.
- Rezerv kapitali.
- Taqsimlanmagan foyda.
- Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

Korxonaning ustav kapitali o‘z mablag‘lari manbayining asosini tashkil etadi. Ustav kapitali ta‘sischilar tomonidan qo‘yilgan pay to‘lovlarini, aksiyalarining nominal qiymatini o‘zida saqlaydi. Uning hisobi esa hukumat qarorlari va ta‘sischilarning yig‘inida qabul qilingan qarorlar asosida yuritilib boriladi.

Davlat tashkilotlarida ustav kapitali davlat budjeti tomonidan ajratilgan mulkni ko‘rsatadi. Mulkning kelishi vaqtiga esa bu summa ustav kapitalida ko‘rsatiladi.

Korxonalar amalda qo‘llanilayotgan qonunlarga ko‘ra har yili erishgan foydasidan rezervlar tashkil etishlari mumkin. Unga har yili ustavda ko‘rsatilgan tartibda mablag‘ chegirilib boriladi.

Tashkil etilgan fond esa quyidagi maqsadlar uchun sarflanadi:

1. Ko‘rilgan zararlarni qoplash uchun.
2. Korxonada hisobot yilida foyda olmagan bo‘lsa, imtiyozli aksiyalar uchun dividend berish.
3. Boshqa to‘lovlarni amalga oshirish uchun.

Taqsimlanmagan foyda – bu korxonaning hisobida turgan sof foydasini ko‘rsatadi. U ham xususiy kapital tarkibiga kiruvchi eng asosiy ko‘rsatkichlardan sanaladi. Lekin faoliyat yurituvchi korxonalar har safar ham foyda bilan chiqmasligi mumkin. Bu holda uning zarari xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar deb yuritiladi. Mazkur ikkala qiymat ham 8710-«Hisobot davridagi taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar)» hamda 8720-«Jamg‘arilgan foyda (qoplanmagan zarar)» schotlarida yuritilib, ularning farqi ishoralari orqali aniqlanib olinadi.

Moliyaviy tahlilni olib borishda koeffitsiyentlar usuli eng ilg‘or metodlardan hisoblanib, bizning o‘rganayotgan mavzuimizni ham ularsiz tasavvur etib bo‘lmaydi.

Rivojlangan mamlakatlar amaliyotida turli xil moliyaviy koeffitsiyentlar o‘rganiladi va ularni shartli ravishda to‘rtta katta guruhlarga ajratiladi:

1. Rentabellik koeffitsiyentlari.

2. Likvidlik koeffitsiyentlari.
3. To'lov qobiliyati koeffitsiyentlari.
4. Bozor indikatorlari.

Bu ko'rsatkichlar ham o'z tarkibiga bir qancha koeffitsiyentlarni oladi:

Demak, birinchi ko'rsatkich tarkibiga:

- Xususiy kapital rentabelligi.
- Korxonaning jami investitsiyalar rentabelligi.
- Leveridj.
- Sotish rentabelligi.

Likvidlilik koeffitsiyentlariga:

- a) tez likvidlanadigan koeffitsiyentlar
- b) debitorlik qarzlarning aylanish koeffitsiyenti;
- d) ishlab chiqarish zaxiralarini aylanishi koeffitsiyenti;
- e) qiyin likvidlanish koeffitsiyenti.

To'lov qobiliyatini izohlovchi koeffitsiyentlarga quyidagilar kiradi:

- qarz va hususiy kapital nisbati koeffitsiyenti;
- xususiy kapitalning jami mulkda tutgan ulushi koeffitsiyenti;
- qarz mablag'larining jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti.

Bozor indikatorlariga esa bozor qiymati va buxgalteriya hisobida aks etgan baho (nominal qiymat, tannarx) orasidagi farq summolari o'rganiladi.

Bu koeffitsiyentlar ichida bizning mavzuga taalluqli bo'lgan koeffitsiyentlar ham mavjud bo'lib, ular quyidagicha aniqlanadi:

Xususiy kapital rentabelligi. Bu rentabellik turi har bir so'mlik xususiy kapitalimiz hisobiga to'g'ri kelgan sof foyda qiymati o'rganiladi. Buning uchun,

$$\frac{\text{Sof foyda}}{\text{Xususiy kapitalning yillik o'rtacha qiymati}}$$

ko'rinishida hisob - kitob ishlarini bajarishimiz kerak.

Xususiy kapitalning o'rtacha yillik qiymatini topish uchun yil boshidagi va yil oxiridagi summalarini yig'indisini ikkiga bo'lib aniqlaymiz.

Jami investitsiyalar rentabelligi. Bu ko'rsatkichni aniqlashimiz uchun,

$$\frac{SF + (KF * FS_k) + A_R}{JA}$$

kabi hisoblashish ishlarini bajarishimiz lozim.

Bu yerda:

SF - Sof foyda;

KF - Kreditlar uchun foiz;

FS_k - Foyda solig'ining korrektirovka qilingan stavkasi;

A_R - Rezervlar uchun ajratma.

JA - Jami aktivlarning o'rtacha qiymati.

Bu yerda aktivlarning o'rtacha qiymati jami mablag'larning yil boshiga va yil oxiriga bo'lgan qiymati yig'indisini ikkiga bo'lgan holda topamiz. Bu yerda rezervlar uchun ajratma, kredit uchun soliqlar va foyda solig'ining korrektirovkasi sof foyda hisobidan bo'lganligi uchun bu qiymatlarning yig'indisi hisobot yilining yakuniy moliyaviy natijasi sifatida keladi.

Leveridj. Bu xususiy kapitalning o'sgan qismini ko'rsatib, u quyidagicha aniqlanadi, ya'ni xususiy kapital rentabelligi koeffitsiyenti bilan jami investitsiyalar orasidagi farq koeffitsiyenti olinadi. Kelib chiqqan natija qanchalik yuqori bo'lsa, korxonaning xususiy kapitali shunchalik o'sganligini beradi.

Bir aksiya uchun daromadni hisobot yilida olingan foydani chiqarilgan aksiyalar soniga bo'lish bilan aniqlanadi.

Qarz va xususiy kapital o'rtasidagi nisbat koeffitsiyenti.

Bunda uzoq va qisqa muddatli qarz mablag'larini o'z mablag'lari manbayiga bo'lib topamiz. Bunday nisbatlar har bir davr uchun aniqlanadi.

Agarda hisobot yili boshidagi aniqlangan koeffitsiyent yil oxiriga nisbatan katta bo'lsa $A_1 > A_2$ u holda korxonaning to'lov qobiliyati oshgan bo'ladi. Aks holda esa korxonaning to'lov qobiliyati pasaygan bo'ladi.

Xususiy kapitalning jami aktivlarda tutgan ulushi koeffitsiyenti:

$$\frac{\text{Xususiy kapital qiymati}}{\text{Jami mablag'lar}}$$

formulasi orqali topiladi. Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar bu koeffitsiyentning kamida 50% ga ega bo'lishlari lozim.

Xususiy kapital to‘g‘risidagi hisobot shakliga asoslanib yil boshiga nisbatan yil oxirida qolgan kapitalimizning o‘zgarishini tahlil qilamiz. Buning uchun quyidagi shaklda analitik jadvalni tuzamiz.

128-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyektning xususiy kapitali va uning dinamikasi tahlili

Ko‘rsatkichlar	yil boshiga qoldiq	O‘zgarishi		Yil oxiriga qoldiq
		ko‘payishi	kamayishi	
1. Ustav kapitali	28280	-	-	28280
2. Qo‘shilgan kapital	116902	-	-	116902
3. Rezerv kapitali	278317	263511	-	541828
4. Taqsimlanmagan foyda	37000	5400	-	42400
5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar	-	-	-	-
Jami:	460499	268911	-	729410

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, biz tahlil qilayotgan xo‘jalik subyektining xususiy kapitali yil boshiga nisbatan yil oxirida 268911 ming so‘mga oshgan. Bu natija korxonaga uchun ijobiy deb qaralishi lozim. Chunki bu miqdor yil boshiga nisbatan salkam 60 % ga yaqin oshgan.

Bunday o‘zgarishning hosil bo‘lishida hisobot yilida taqsimlanmagan foydaning 5400 ming so‘mga va rezerv kapitalining 263511 ming so‘mga oshuvi katta ta’sir etgan.

Xususiy kapitalning qolgan turlari bo‘yicha yil davomidagi harakati kuzatilmagan.

Ijobiy natija deb qaralishini yana bir tarafi shundaki, xususiy kapitalning asosini qo‘shilgan va rezerv kapitali tashkil qilganidir. Bu esa kelgusida korxonaning xususiy kapitali yanada ko‘payib borishidan dalolat beradi.

1999-yil 28-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan korxonalarini tugatish tartibini soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni e’lon qilindi. Bu farmonga ko‘ra moliya-xo‘jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan va qonunchilikda belgilangan muddatlarda o‘zlarining ustav jamg‘armalarini shakllantirmagan korxonalar faoliyati tuzilgan maxsus hududiy komissiyalar ko‘rsatmasiga ko‘ra to‘xtatiladi.

Shunday ekan, yuqoridagi jadval ma'lumotlariga asoslangan holda bu muammoni hal etish yo'llarini topishimiz kerak. Ko'rinib turibdiki, xususiy kapital qiymatini ko'paytirishning eng asosiy omili bo'lib, korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko'rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o'z jamg'armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Chunki, bu omilning o'zgarishi faqatgina korxonaning o'ziga bog'liq bo'lib, uning har tomonlama to'liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyatini boshlashni taqozo etadi. Bundan tashqari boshqa ko'rsatkichlarning o'zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog'liq. Mazkur vazifalarni hal etishda talabalar «Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari hamda moliyaviy natijalarni aniqlash tartibi to'g'risidagi Nizom»ni chuqur bilishlari, unda foydani shakllantirish muammolarini chuqur o'rganishlari lozim

14.3. Xususiy kapital va uning samaradorligini baholash

Ko'plab iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy tahlilning vertikal, gorizontal, moliyaviy koeffitsiyentlarini aniqlash, trend to'g'risida fikrlar yuritilgan bo'lib, ammo xususiy kapital tahlili bo'yicha ma'lumotlar bugungi kunda yetarli darajada emas.

Xususiy kapital tahlilini olib borishda asosiy axborot manbayi bo'lib, moliyaviy hisobot shakllari, ya'ni «Buxgalteriya balansi» (1-shakl), «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» (5-shakl) olinadi.

Yuqoridagi hisobot shakllarida jumladan, «Xususiy kapital to'g'risida hisobot»da bir qancha noaniqliklar mavjud bo'lib, bularga 080-satrdan keyingi ma'lumotlarni olish mumkin. Mazkur satrlarda aksiyalar to'g'risida ma'lumotlar jamlanishi ko'zda tutilgan bo'lib, ularda deyarli barcha (oxirgi ustundan tashqari) ustun va qatorlar to'ldirilmaslikni taqozo etadi. Ushbu holatni atroflicha o'rgangan holda, bu kamchiliklarni hal etish yo'llarini topish lozim. Chunki moliyaviy hisobotning bu ko'rinishda bo'lishi xalqaro hisob tizimi standartlari talablariga mos kelmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, bir qancha rivojlangan va MDH mamlakatlarning «Xususiy kapital to'g'risida hisobot» shakllariga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda aksiyalarning chiqarilishidan kelgan kapital, rezerv kapital, qo'shilgan kapital va taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) kabi ko'rsatkichlar o'z aksini topgan (masalan, Rossiya Federat-

siyasi, Amerika Qo‘shma Shtatlari va h.k). Ushbu ma‘lumotlar buxgalteriya balanslarida (1-shakl) ham o‘zgarishsiz aks ettirilgan. Lekin, bizning moliyaviy hisobot shaklida (1-shakl) o‘z mablag‘lar manbayi sifatida xususiy kapital ko‘rsatkichlaridan tashqari, maqsadli tushum va fondlar, kelgusi davr sarflari va to‘lovlar uchun rezervlar kabi ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib, ularning harakatini aks ettiruvchi axborot manbayi belgilanmagan.

Bu holni xususiy kapital ko‘rsatkichlarining nazariy va amaliy jihatdan umumlashtirilmaganligi, tarmoq xususiyatlariga asosan xususiy kapital hisobi va tahlili to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilmaganligi kabi izohlashimiz mumkin.

Korxonaning xususiy kapital holatini tahlil qilishda koeffitsiyentlar usuli eng ko‘p qo‘llanilib, ushbu usul asosida tahlilning olib borilishi rivojlangan mamlakatlar amaliyotida keng tarqalgan. Jumladan, Belarus iqtisodchilaridan biri G.Savitskayaning fikricha: «Kapitaldan samarali foydalanishni uchta asosiy ko‘rsatkichlar orqali baholash mumkin, ular:

- jami mablag‘lar manbayining rentabelligi;
- kreditorlar kapitalining daromadliligi;
- xususiy kapital rentabelligi».

Savitskaya G. V. tomonidan berilgan fikrlar xususiy kapital tahlilini qisman ochib beradi. Xususiy kapital tahlilini unga ta‘sir etuvchi omillarning uzviy bog‘liqligi asosida o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Shu sababdan xususiy kapital rentabelligi (foydaliligi) ni, uning natijaviyligi va daromadliligi asosida o‘rganib, xususiy kapitalning shakllanishida muhim o‘rin tutgan omillarning ijobiy hamda salbiy oqibatlarini yuzasidan asosli qarorlar qabul qilishni yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir.

Bozor iqtisodiyotida xususiy mulkchilik turlarining shakllanishi, xususiy kapital bahosini o‘rganishni talab etadi. Lekin shunga qaramasdan respublikamizda faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalarda xususiy kapitalning bahosi yetarlicha o‘rganilmagan.

Bundan tashqari bir qancha adabiyotlarda korxonalar aksiyalari qiymati va daromadliligini tavsiflaydigan ko‘rsatkichlar keltirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkichlar tahlili yordamida korxonalar nufuzi va xususiy kapitaliga atroflicha baho berish mumkin. Jumladan:

1. Bir aksiyaga to‘g‘ri keladigan foyda (F_a):

$$f_a \frac{\text{Sof foyda - imtiyozli aksiyalar bo'yicha dividendlar}}{\text{Muomaladagi oddiy aksiyalar soni}}$$

Bu ko'rsatkich muomaladagi bir oddiy aksiyaga qancha sof foyda to'g'ri kelishini bildiradi.

2. Bir aksiyaning balans qiymati (BQ_a):

$$BQ_a \frac{AK_q - IA_q}{AS_m}$$

AK_q - Aksiyadorlik kapitalining qiymati

IA_q - Imtiyozli aksiyalar qiymati

AS_m - Muomaladagi oddiy aksiyalar soni

Bu ko'rsatkich bir aksiyaning balans qiymati buxgalteriya hisobi ma'lumotlariga ko'ra bir oddiy aksiyaga to'g'ri keladigan korxonaning sof aktivlari qiymatini ko'rsatadi.

3. Dividend daromad yoki dividend normasi (Dd):

$$\frac{\text{Bir aksiyaning dividendi}}{\text{Bir aksiyaning bozor qiymati}}$$

4. *To'lanadigan dividendlar ulushi (Utd):*

$$Utd = \frac{\text{Bir aksiyaga to'g'ri keladigan dividend}}{\text{Bir aksiyaga to'g'ri keladigan sof foyda}}$$

Bu ko'rsatkich tahlil qilinganda shuni e'tiborga olish lozimki, bunda ushbu ko'rsatkich 1 dan ortiq bo'lmasa birmuncha ijobiy holat deb baholash mumkin, ya'ni korxonada dividend to'lash uchun yetarli darajada foyda olganligidan dalolatdir. Aksincha, bu ko'rsatkich 1 dan oshib ketsa, korxonada dividend to'lash maqsadida rezerv kapitalidan foydalanishini anglatadi.

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko'rsatkichlar hisobiga o'zgarib boradi. Har bir tarkibning o'zgarishi ham o'z mazmuniga ko'ra ma'lum ko'rsatkichlarning o'zgarishi orqali amalga oshadi.

Ustav kapitali. Xususiy (hissador) kapitalining qiymati qimmatli qog'ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o'zgarishi mumkin. Bu ko'rsatkichlar «Xususiy kapital to'grisida hisobot» ning 020; 030 va 060- satrlarida o'z aksini topadi.

Qo‘shilgan kapital quyidagi hollarda o‘zgarishi mumkin:

- ✓ Xususiy (hissador) kapitali qiymatining o‘zgarishida.
- ✓ Muomalaga qo‘shimcha aksiyalarning chiqarilishida.
- ✓ Asosiy vositalarning qayta baholanishida.
- ✓ Foyda va zararlar hisobiga.

Rezerv kapitali ham yuqorida keltirilgan o‘zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o‘zgarishlar tarkibiga foyda hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar, ya’ni 5 - hisobot shaklining 050-satri ham kiradi.

Taqsimlanmagan foyda. Bu ko‘rsatkich korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko‘payish yoki kamayishi, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o‘zgarishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-4053-sonli farmoniga asosan, yangi tashkil etiladigan ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari uchun ustav kapitalining eng kam miqdori 2009-yil 1-yanvardan boshlab jamiyat davlat ro‘yxatiga olingan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha ekvivalenti 400 ming AQSh dollariga teng summani tashkil etishi belgilandi. Faoliyat yuritayotgan ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari bo‘lsa, 2010-yilning 1-yanvariga qadar ustav kapitallari miqdorini ular qayta ro‘yxatga olingan sanada Uzbekistan Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha ekvivalenti kamida 400 ming AQSh dollariga teng summaga yetkazishlari yoki belgilangan tartibda boshqa mulkchilik shakliga o‘tishlari kerakligi belgilandi.

Shunday ekan, yuqoridagi ma’lumotlarga asoslangan holda bu muommoni hal etish yo‘llarini izlash kerak. Ko‘rinib turibdiki xususiy kapital qiymatini ko‘paytirishning eng asosiy omili bo‘lib korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi hisoblanadi. Faoliyat ko‘rsatuvchi tashkilotlar shu omil hisobiga o‘z jamg‘armalarini oshirishi eng optimal variant deb qaraladi. Sababi bu omilning o‘zgarishi faqatgina korxonaning o‘ziga bog‘liq bo‘lib, uning har tomonlama to‘liq imkoniyatlarini ishga solib faoliyat yuritishni talab etadi. Bundan tashqari boshqa ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi ham ushbu omil bilan bevosita bog‘liqdir.

Korxonada mulki, kapitali va majburiyatlarini moliyaviy koeffitsiyentlar orqali o‘rganish uning moliyaviy holatiga baho berishni yanada osonlashtiradi, albatta. Moliyaviy koeffitsiyentlar moliyaviy

hisobot ko'rsatkichlarini va birlik elementlarini o'zaro nisbatlash asosida aniqlanadi. Bunda koeffitsiyent, indeks va foizlar ishlatiladi.

Moliyaviy koeffitsiyentlarni aniqlash va uning o'zgarishlarini qiyosiy taqqoslash asosida korxonaning moliyaviy holatini aniqroq o'rganish va bilish imkoniyati paydo bo'ladi. Masalan: bitta korxonaning «moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti»ni aniqlanishiga e'tibor qaratilgan. Ushbu ko'rsatkich «O'zlik mablag'lari manbalari»ni «Buxgalteriya balansi jami» ga bo'lish asosida aniqlanadi.

Bu ko'rsatkich korxonaning harakatda band qilingan mablag'ining qancha qismi o'ziga tegishli ekanligini bildiradi. Ya'ni harakatdagi har bir so'mning qancha qismi o'ziga tegishli ekanligini bildiradi. «Koeffitsiyentlar - mulkning nisbiy darajasini tavsiflaydi» deyiladi Tomas P. Karlin, Albert M. Makminni «Анализ финансовых отчетов (на основе СААР)» kitobida.

Korxonaga kapitali bilan bogliq bo'lgan moliyaviy koeffitsiyentlar, ya'ni o'z mablag'lari manbayiga baho berishning nisbiy ifodalari sifatida quyidagi koeffitsiyentlarni o'rganish maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- ✓ moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti;
- ✓ moliyaviy qaramlik koeffitsiyenti;
- ✓ qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti;
- ✓ zaxira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti;
- ✓ mablag'larning chaqqon harakatchanlik yoki manyovrlashganlik koeffitsiyenti.

Bunda ushbu koeffitsiyentlar quyidagicha topiladi:

1. Moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti (K_{mm}):

$$K_{mm} = \frac{\text{O'z mablag'lari manbalari}}{\text{Jami mablag'lar (Balans jami)}}$$

Bu koeffitsiyent qanchalik birga yaqinlashib borsa, korxonaning mustaqilligi shunchalik oshib boradi. Bizning respublikamizda faoliyat yuritayotgan korxonalarda bu koeffitsiyent kamida 0,5 ni yoki 50% ni tashkil etishi lozim.

2. Moliyaviy karamlik koeffitsiyenti (K_{mq}):

$$K_{mq} = \frac{\text{Jami mablag'lar (Balans jami)}}{\text{O'z mablag'lari manbalari}}$$

Bu ko'rsatkich moliyaviy mustaqillik koeffitsiyentiga teskari proporsional koeffitsiyent hisoblanadi.

3. Qarz va o'z mablag'lari nisbati koeffitsiyenti ($K_{qo'n}$):

$$K_{qo'n} = \frac{\text{Majburiyatlar} - \text{uzoq muddatli majburiyatlar}}{\text{O'z mablag'lari manbalari}}$$

4. Zahira va xarajatlarni o'z manbalari bilan qoplanganlik koeffitsiyenti ($K_{xo'q}$):

$$K_{xo'q} = \frac{O'MM + UMQ - UMA}{TMZ}$$

5. Mablag'larning harakatchanlik (manyovrlashganlik) koeffitsiyenti (K_m):

$$K_m = \frac{O'MM + UMQ - UMA}{O'MM}$$

Bu yerda:

O'MM - O'z mablag'lari manbalari

UMQ - Uzoq muddatli qarz mablag'lari

UMA - Uzoq muddatli aktivlar

TMZ - Tovar - moddiy zaxira

Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: «Barchamiz bir haqiqatni anglab yetishimiz lozim - O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi»¹.

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalga oshirilayotganida, Uzbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin. Shu bois global moliyaviy inqiroz va birinchi navbatda uning oqibatlari iqtisodiyotimizning rivojlanishi va samaradorlik holatlariga ta'sir etayotganidan ko'z yumib bo'lmaydi»¹.

Darhaqiqat, jahon bozorida talabning pasayib ketishi natijasida mamlakatimiz tomonidan eksport qilinadigan mahsulotlar narxining tushishi kuzatilmoqda. Ushbu jarayonlar korxonalarining eksportdan

¹ Каримов И.А. «Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари». Т.: Ўзбекистон, 2009,11-12-б.

oladigan tushumlari va foydasining kamayishiga hamda ishlab chiqarish rentabelligiga va pirovardida mamlakatimiz makroiqtisodiy ko'rsatkichlarining dinamikasiga salbiy ta'sir etishi tabiiydir albatta.

Shu nuqtayi nazardan respublikamiz korxonalariga jahon iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlari ta'sirini yumshatish choralari ko'rish lozim. Bunda korxonalarining ichki imkoniyatlarini chuqur o'rganish, iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni korxonalarda tahlil jarayonlarini mukammal tarzda tashkil etish va jahon tajribasida o'zini oqlab kelayotgan tahlil usullarini joriy etish ishlarini yanada jonlantirish lozim deb o'ylaymiz.

Xususan, xozirgi vaqtda dolzarb hisoblangan xususiy kapital tahlilini rivojlantirish va takomillashtirish bu borada amalga oshirilishi lozim bo'lgan eng asosiy vazifalarimiz qatoriga kiradi. Bunda xususiy kapital tahlilini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflarni keltirib o'tmoqchimiz:

- eng avvalo xususiy kapital tahlili bo'yicha zarur ma'lumotlarni iqtisodiy adabiyotlardan olish imkoniyatining cheklanganligini inobatga olgan holda, ushbu mavzu bo'yicha nazariy ma'lumotlarni to'liq va kengaytirilgan shaklda sistemallashtirish (jamlash) lozim;

- xususiy kapital ko'rsatkichlari tahlili bilan bog'liq bo'lgan koeffitsiyentlarni xalqaro hisob hamda tahlil yutuqlarini chuqur o'rgangan holda mamlakatimiz hisob va tahlil tizimiga joriy etish lozim;

- korxonalar xususiy kapitali tahlilini takomillashtirishda mulkchilik shakli va tarmoq xususiyatlarini hisobga olgan holda mavzularni farqlash, ya'ni sohalarga yo'naltirilgan holda mukammallashtirish lozim.

Yuqoridagi fikrlarimizning xotimasi sifatida shuni aytib o'tish kerakki, mamlakatimizda iqtisodiy bilimlar sohasida ilmiy izlanishlarni yanada jonlantirish va ilmiy izlanuvchilarning ushbu yo'ldagi sayi-harakatlarini rag'batlantirishning ta'sirchan tizimining joriy etilishi, respublikamiz korxonalarining taraqqiy etishiga, milliy iqtisodiyotimizga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishiga, xorijiy kapital ishtirokidagi qo'shma korxonalarining moliya-xo'jalik faoliyatining rivojlanishiga, pirovardida mamlakatimiz iqtisodiyotining yanada yuksalishi va taraqqiy etishiga muhim omil bo'lishi tabiiydir, albatta.

14.4. Xususiy kapitalni ko‘paytirish omillarini aniqlash

Xususiy kapital tahlili uning tarkibidan joy olgan ko‘rsatkichlar hisobiga o‘zgarib boradi. Har bir tarkibning o‘zgarishi ham o‘z mazmuniga ko‘ra ma’lum ko‘rsatkichlarning o‘zgarishi orqali amalga oshadi.

1. Ustav kapitali.

Bu schot xususiy (hissador) kapitalining qiymati, qimmatli qog‘ozlarning emissiyasi va joriy yil foydasi va zarari hisobiga o‘zgarishi mumkin.

2. Qo‘shilgan kapital.

Bu schot quyidagi hollarda o‘zgarishi mumkin:

- xususiy (hissador) kapitali qiymatining o‘zgarishi;
- muomalaga qo‘shimcha aksiyalarning chiqarilishida;
- asosiy vositalarning qayta baholanishida;
- foyda va zararlar hisobiga.

3. **Rezerv kapitali** ham yuqorida keltirilgan o‘zgarish sabablari hisobiga amalga oshadi. Faqatgina bu o‘zgarishlar tarkibiga foyda hisobidan rezervlarga ajratilgan summalar.

4. **Taqsimlanmagan foyda.** Bu ko‘rsatkich korxonaning hisobot yilida olgan sof foydasi, hissador kapitalining ko‘payish yoki kamayishi, qimmatli qog‘ozlar emissiyasi, rezerv uchun ajratmalar hisobiga o‘zgarishi mumkin.

5. Xususiy kapital bilan qoplanmagan zarar.

- hisobot davrida olingan zarar;
- qimmatli qog‘ozlar emissiyasi;
- hissador kapitalining ko‘p yoki kam bo‘lishi kabi ko‘rsatkichlar hisobiga o‘zgarishi mumkin.

Bu o‘zgarishlar 5- shaklda ham yaqqol ko‘zga tashlanib turadi.

Mavzu bo‘yicha tayanch iboralar:

- xususiy kapital to‘g‘risida tushuncha va uni tahlil etish maqsadi;
- xususiy kapitalning tarkibi, tuzilishi va yil boshiga nisbatan o‘zgarish sabablari;
- ustav fondi;
- rezerv kapitali;
- qo‘shilgan kapital;

- taqsimlanmagan foyda (zarar);
- balans passivi moddalarining qarzni uzish muddatlari bo'yicha 4 guruhga bo'linishi;
- joriy likvidlik koeffitsiyenti;
- istiqbolli likvidlik koeffitsiyenti;
- bankrotlik alomatlari va ularni tahlil etish uslublari;
- kreditga layoqatlilikni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi va ularni tahlil etish uslubi;
- qaramsizlik koeffitsiyenti;
- qarz va o'z mablag'lari nisbati;

Takrorlash uchun savollar:

1. Xususiy kapital deganda nimani tushunasiz?
2. Xususiy kapital nima uchun tahlil etiladi?
3. Xo'jalik subyektlarining xususiy kapitalini tahlil qilishdan maqsad va tahlil vazifalari nimalardan iborat?
4. Xususiy kapital tarkibiga nimalar kiradi?
5. Xususiy kapital qanday tahlil etiladi?
6. Xususiy kapitalni ko'paytirish yo'llarini ko'rsatib bering.

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Quyida ilova qilingan «Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot» ma'lumotlari asosida korxonaning xususiy kapital bilan ta'minlanganligini va uning holatini mustaqil ravishda tahlil qilib chiqing va xulosalar yozing.

2-topshiriq.

Korxonaning xususiy kapitalini ko'paytirish yo'llarini ko'rsatib bering.

Xususiy kapital to'g'risidagi hisobot
(5-sonli shakl)

Ko'rsatkichlar nomi Наименование показателя	Satr kodi Код стр.	Ustav kapitali Уставный капитал	Qo'shilgan kapital Добавленный капитал	Rezerv kapitali Резервный капитал	Taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar) Нераспределенная прибыль (непокрытие убытки)	Sotib olingan xususiy aksiyalar Выкупленные собственные акции	Maqsadli tushumlar va boshqalar Целевые поступления и прочие	Jami Итого
<i>Yil boshidagi goldiq</i> <i>Остаток на начало года</i>	010	2000000,0			256165,3			2256165,3
Qimmatli qog'ozlar emissiyasi Эмиссия ценных бумаг	020			x	x	x	x	
Uzoq muddatli aktivlarni qayta baholash переоценка долгосрочных активов капитала	030	x	x	1100846,8	x	x	x	1100846,8
Ustav kapitalini shakllantirishda paydo bo'lgan valuta kursi farqlari Валютная курсовая разница при формировании уставного капитала	040	x		x	x	x	x	
Rezerv kapitaliga ajratmalar Отчисления в резервный капитал	050	x	x			x	x	
Joriy yilning taqsimlanmagan foydasi (zarari) Нераспределенная прибыль (убыток) текущего года	060	x	x		186423,2	x	x	186423,2
Tekinga olingan mol-mulk Безвозмездно полученное имущество	070	x	x	x		x	x	
Maqsadli foydalanish uchun olingan mablag'lar Полученные средства по целевому назначению	080	x	x		x	x	x	
To'langan dividendlar Дивиденды уплаченные	090	x	x	x		x	x	

Xususiy kapital shakllanishining boshqa manbalari Прочие источники формирования собственного капитала	100							
<i>Yil oxiridagi qoldiq</i>	110	2000000,0		1100846,8	442588,5			3543435,3
Xususiy kapitalning ko'payishi (+) yoki kamayishi (-) Увеличение (+) или уменьшение (-) собственного капитала	120							
Ma'lumot uchun: Справочно:								
Chiqarilgan aksiyalar soni, dona Количества выпущенных акций, шт	130	x	x	x	x	x	x	
Shu jumladan: В том числе:								
imtiyozli privilegированные	131	x	x	x	x	x	x	
oddiy простие	132	x	x	x	x	x	x	
Aksiyaning nominal qiymati Номинальная стоимость акции	140	x	x	x	x	x	x	
Muomaladagi aksiyalar soni, dona Количество акций в обращении, шт	150	x	x	x	x	x	x	
Shu jumladan: В том числе:								
imtiyozli privilegированные	151							
Oddiy простые	152							

Test savollari:

1. Ustav kapitali balansning qaysi bo'limida ko'rsatiladi?

- a) passiv tomon – 1-bo'limda;
- b) aktiv tomon – 1-bo'limda;
- d) passiv tomon – 2-bo'limda;
- e) aktiv tomon – 2-bo'limda;
- f) manba sifatida passiv – 1-bo'limda, mablag' sifatida aktiv – 1 va 2-bo'limlarda.

2. Xususiy kapital qatoriga kiruvchi mablag'lar:

- a) ustav kapitali, taqsimlanmagan foyda;
- b) zaxira kapitali, qo'shilgan kapital;
- d) taqsimlanmagan foyda;
- e) ustav kapitali, qo'shilgan kapital, zaxira kapitali, taqsimlanmagan foyda, qoplanmagan zarar;
- f) ustav kapitali, zaxira kapitali, qo'shilgan kapital, taqsimlanmagan foyda (qoplanmagan zarar), maqsadli tushumlar va moliyalashtirishlar, kelgusi davr bo'yicha to'lovlar zaxiralari.

3. O'z mablag'lari deganda nimani tushunasiz?

- a) korxonaning o'ziga tegishli mablag'lari;
- b) qarzga olingan (uzoq muddatga) mablag'lar;
- d) mahsulot sotishdan olingan daromadlar;
- e) majburiyatlar qoplanishidagi ortiqcha mablag'lar;
- f) hukumat tomonidan subsidiya sifatida berilgan mablag'lar.

4. Xususiy kapitalni tahlil qilishda qaysi hisobot shakllari ma'lumotlariga tayaniladi?

- a) 1-shakl – «Balans»;
- b) 2-shakl – «Moliyaviy natijalar» to'g'risidagi hisobot;
- d) 3-shakl – «Asosiy vositalar harakati» to'g'risidagi hisobot;
- e) 4-shakl – «Pul oqimi» to'g'risidagi hisobot;
- f) 5-shakl – «Xususiy kapital» to'g'risidagi hisobot;

5. Xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni tuzishdan maqsad nima?

- a) balans passivi 1-bo'lim buyicha tarkiblashni berish;
- b) balansning 1-bo'limi passivini tartiblashtirish;

- d) ma'lumotlardan foydalanuvchilar, qiziquvchilarga xususiy kapital o'zgarishi to'g'risidagi axborotlar berish;
- e) moliyaviy boshqaruvni axborot so'rovi bilan ta'minlash;
- f) o'z mablag'lari holati to'g'risida axborotlar berish.

6. Xususiy kapital o'zgarishi tahlili.

Ko'rsatkichlar	Variantlar				
	a	b	d	e	f
I. Xususiy kapital jami yil boshiga					
1. Xususiy kapital o'sishi	+	+	+		+
2. Qimmatli g'og'ozlar emissiyasi	+	+	+		+
3. Asosiy vositalar qayta baholanishi		+	+		+
4. Rezerv uchun ajratma		+	+	+	
5. Joriy yil foyda/zarar	+	+		+	
II. Xususiy kapital jami yil oxiriga					

Xususiy kapital o'zgarishiga tegishli qatorlar qaysi variantda to'liq va to'g'ri ifodalangan?

- a), b), d), e), f).

XV BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING INVESTITSION FAOLIYATI TAHLILI

15.1. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya faoliyati, uning turlari va asosiy yo‘nalishlari

«...O‘z-o‘zidan ayonki, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirmasdan, pirovard natijada esa raqobatdosh mamlakatni barpo etmasdan turib, biz qabul qilgan «Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi»da ko‘zda tutilgan maqsadli vazifalarni amalga oshirmasdan turib, bu haqda jiddiy so‘z yuritish mumkin emas.

Bu vazifaning o‘rtaga qo‘yilishi, shuningdek, inqiroz jarayonlarining chuqurlashuvi, dunyo miqyosida xarid talabining pasayishi va shunga muvofiq tarzda jahon bozorida xomashyo, materiallar, ayniqsa, tayyor mahsulotlar bo‘yicha raqobatning yildan yilga kuchayib borayotgani bilan ham bog‘liq, albatta.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan va jahon iqtisodiyotida yetakchi o‘rin tutadigan mamlakatlar tajribasi shuni so‘zsiz isbotlab bermoqdaki, raqobatdoshlikka erishish va dunyo bozorlariga chiqish, birinchi navbatda, iqtisodiyotni izchil isloh etish, tarkibiy jihatdan o‘zgartirish va diversifikatsiya qilishni chuqurlashtirish, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi korxonalar va ishlab chiqarish tarmoqlarining jadal rivojlanishini ta’minlash, faoliyat ko‘rsatayotgan quvvatlarni modernizatsiya qilish va tejkik yangilash jarayonlarini tezlashtirish hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini kengaytirish va raqobatdosh mahsulotlarning yangi turlarini o‘zlashtirish bo‘yicha qabul qilingan birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturiga muvofiq, 2012-2016-yillarda hisob-kitoblar bo‘yicha qiymati 6 milliard 200 million dollar bo‘lgan 270 dan ziyod investitsiya loyihasini, shuningdek, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo‘yicha tarmoq dasturlarini amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Joriy 2012-yilda iqtisodiyotimizni diversifikatsiya qilishni davom ettirishda o‘ta muhim ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalarni amalga oshirish mo‘ljallangan. Jumladan, Surshl koni bazasida Ustyurt gaz-kimy o kompleks, Dehqonobod kaliyli o‘g‘itlar va Qo‘ng‘irot soda zavodlarining ikkinchi navbatini, sintetik suyuq yoqilg‘i ishlab chiqarish zavodini qurish ishlari boshlanadi.

Shuningdek, Tollimarjon issiqlik elektr stansiyasida ikkita bug‘-gaz qurilmasi, Angren issiqlik elektr stansiyasida yangi energoblok qurish, avtomobil shinalari va transportyor tasmasi ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish, to‘qimachilik korxonalarini quvvatlarini yanada kengaytirish va butun texnologik jarayonni takomillashtirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilmoqda.

Korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta ji-hozlash ishlarini amalga oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining roli tobora ortib borayotganini alohida ta’kidlashni istardim.

Aytish kerakki, hozirgi vaqtda ushbu Jamg‘arma kapitali 9 milliard dollardan oshib ketdi. 2012-yilda Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan sanoat va ishlab chiqarish infratuzilmasining yetakchi tarmoqlarida 758 million dollardan ziyod hajmdagi 29 ta strategik investitsiya loyihasini birgalikda moliyalash mo‘ljallanmoqda, bu o‘tgan yilga nisbatan 38,2 foizga ko‘p demakdir.

Vazirlar Mahkamasi strategik ahamiyatga molik loyihalarning amalga oshirilishini alohida nazoratga olishi, loyiha-smeta hujjatlarining puxta ishlanishini, tanlov savdolarining o‘z vaqtida o‘tkazilishini, zarur asbob-uskunalarining yetkazib berilishi bo‘yicha shartnomalar tuzilishi hamda qurilish-montaj ishlarini belgilangan muddatlarda bajarilishini ta’minlashi zarur».¹

Iqtisodiyotni bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tkazish va tarmoqlar iqtisodini rivojlantirish investitsiyalardan foydalanish sa-maradorligini oshirishga bevosita bog‘liqdir. Bozor munosabatlariga o‘tish bosqichida davlatning olib borgan investitsiya siyosatini hayotga tatbiq etish natijasida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yuksalishlar yuz bergan. Xalq xo‘jaligi tarmoqlariga yo‘naltirilgan investitsiya mamlakatlar iqtisodini rivojlantirishni ta’minlab, ichki bozorini tovarlar

¹ Каримов И.А. 2012 йил – Ватанимиз таракқиётини янги босқичга кўтарадиган йил бўлади. Т.: «Ўзбекистон», 2012 й.20-21-бетлар.

bilan to'ldirishga va xalqaro savdo aloqalarining kengayishiga har tomonlama o'z hissasini qo'shgan.

Investitsiya lotincha «INVEST» so'zidan olingan bo'lib «sarmoya» degan ma'noni bildiradi. Kengroq ma'noda qo'llanilganda foyda olish maqsadida mamlakat ichkarisida va chet ellarda sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarga qo'yilgan uzoq muddatli mablag' sarmoyani bildiradi.

Bugungi kunda investitsiya va investitsion jarayon tushunchasiga amaliyotchilar har xil nuqtayi nazardan qaraydilar. Ayrim olimlar investitsiyani hali ham «**kapital qo'yilmalar**», «**kapital qurilish**» kategoriyalariga tenglashtirib keladilar. Aslini olganda, investitsiya hajmi jihatdan ham, rang-barangligi jihatdan ham hozir aytilgan kategoriyalardan ustun turadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida «**kapital qo'yilmalar**», «**kapital qurilish**» kategoriyalari investitsiyalarning tarkibiy qismidir.

Investitsiyaning iqtisodiy ahamiyati to'g'risida fikr yuritadigan bo'lsak, bu o'rinda «investitsiya» tushunchasining moliyaviy, mulkiy va intellektual qadriyatlarni takror ishlab chiqarish in'ikosi bo'lishini dastlabki va asosiy tushuncha bo'lib maydonga chiqishini unutmash kerak.

Bizda investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilindi va o'tgan vaqt ichida ular ancha takomillashdi. Investitsiya to'g'risida qabul qilingan qonunda ko'rsatilishicha investitsiya – bu iqtisodiy samara olish yoki ijobiy ko'rinishdagi ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar kabilar, qimmatli qog'ozlar, texnologiyalar, mashinalar, asbob-uskunalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi va investitsiya to'g'risida respublikamizda qabul qilingan qonunning tahlilidan kelib chiqib, investitsiyaning shartli ravishda 3 ta turini ajratish mumkin:

1. Moliyaviy investitsiyalar.
2. Moddiy investitsiyalar.
3. Intellektual (aqliy) investitsiyalar.

Iqtisodiyotni modernitsiya qilish sharoitida har bir investitsiya turining o'ziga xos o'rni bo'ladi. Moliyaviy investitsiyalar tarkibiga mahalliy va xorijiy mamlakatlarning pul birliklari, banklardagi omonatlar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar hamda ularga tenglashtirilgan boyliklar kiradi.

Moddiy investitsiyalar tarkibiga asosiy fondlar, ya'ni binolar, asbob-uskunalar, inshootlar va boshqa turdagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining aktiv va passiv qismlari kiradi.

Intellektual (aqliy) investitsiyalar miqdori juda rang-barangdir, ya'ni ular mulkiy huquqlar shaklidagi investitsiyalar va tabiiy resurslardan foydalanish shaklidagi investitsiyalardan iborat.

Mulkiy huquqlar guruhiga kirgan investitsiyalarning xillari bozor munosabatlarining nechog'lik rivojlanishiga, milliy bozorlarning o'ziga xos tomonlariga qarab har xil bo'ladi. Aqliy mehnatga oid haq-huquqlar shaklidagi investitsiyalar tarkibiga mualliflik huquqlari, «nou-xau» kashfiyotlar, tovar belgilariga beriladigan litsenziyalar va boshqa xil egalik huquqlari kiradi.

Tabiiy resurslardan foydalanish huquqlari ko'rinishidagi investitsiyalari yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanish huquqlarini o'z ichiga oladi.

Hamma turdagi investitsiyalar, ularning hajmidan qat'iy nazar, biror-bir investitsion jarayonning natijasidir.

Investitsiyada qatnashish tasnifiga ko'ra:

a) to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar - asosan obyekt aniq ma'lum maqsadni amalga oshirish real bo'lgan taqdirda yo'naltirilgan mablag'dir.

b) boshqa investitsiyalar – bular vositachilar orqali obyektlarga sarflanadi va olingan daromad mijozlar o'rtasida taqsimlanadi.

Investitsiyalash davriga qarab qisqa muddatli va uzoq muddatli investitsiyalarga bo'linadi: qisqa muddatli investitsiyalar bir yilgacha bo'lgan omonat sertifikatleri va boshqa qimmatli qog'ozlardir; uzoq muddatli investitsiyalar bu bir yildan ortiq muddatlarga qo'yilgan kapital bo'lib, 2 yilga, 2-3 yil va 5 yildan ortiq muddatlarga ham qo'yilishi mumkin.

Hududiy belgilari bo'yicha investitsiyalar quyidagicha bo'linadi:

a) mamlakat ichkarisi va hududlarga qo'yiladigan investitsiyalar;

b) xorijga investitsiyalar qo'yish, xorij investitsiyalarining kirib kelishi yoki aksiya, obligatsiyalar shaklida ham bo'lishi mumkin;

d) xorij investitsiyalari deganda chet el fuqarolari, yuridik shaxslar va davlatlar tomonidan qo'yilgan investitsiyalar tushuniladi;

e) hamkorlikdagi investitsiyalarga mazkur mamlakat va xorij mamlakatlarining birgalikda qo'yadigan investitsiyalari kiradi. Bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning tajribasidan ma'lumki, investitsion kompleks bir necha elementlardan iborat, ularning asosiylari

quyidagilardir: investitsiya siyosati, investitsiya iqlim va muhiti, investitsion faoliyati, kapital qo'yilmalari, investitsiya bosqichlari va boshqalar. Ushbu elementlarning har biri bozor iqtisodiyoti sharoitlarida o'ziga xos yo'nalishga ega.

Investitsiya siyosati investorlarning haq-huquqlari, imtiyozlarini ta'minlash bilan bir qatorda iqtisodiyot tarmoqlariga tegishli asosiy fondlarni kengaytirilgan qayta ishlab chiqarishga yo'naltirish, muqim soliqqa tortish mexanizmi va moliya-kredit siyosatini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan tadbirlar yig'indisidan iborat.

Iqtisodiy tarmoqlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar mamlakatimizning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishida muhim omil bo'lmoqda. Ayniqsa, sohaga jalb qilinayotgan to'g'ridan to'g'ri xorij investitsiyalar miqdori yil sayin ortib bormoqda, jumladan, qulay investitsiya muhiti yaratilgani sanoat korxonalarini modernizatsiyalash, texnik hamda texnologik jihatdan yangilash, shu orqali aholi ehtiyoji uchun mahalliy xomashyodan raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish va uni eksport qilish imkoniyatlarini yanada kengaytirmoqda. Prezidentimizning 2011-yil 27-dekabrda «**O'zbekiston Respublikasining 2012-yil uchun investitsiya dasturi to'g'risida**»gi qarori va 2012-yil 10-aprelda «**To'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida**»gi farmoni bu borada dasturilamal vazifasini o'tamoqda.

Respublika iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning ahamiyati ishlab chiqarish quvvatlarining jismoniy va ma'naviy eskirganligi, ularni qayta tiklashga yoki texnik jihatdan qayta jihozlashga, umuman, yangilashga oid bo'lib qolganligi; sanoat tarmog'ida moddiy texnika bazasining o'ta pastligi va ko'pgina zarar ko'rib ishlaydigan korxonalarining mavjudligi; respublika milliy daromadida jamg'arish bilan iste'mol o'rtasidagi nisbatning iste'mol tomonga ko'plab sarflanayotgani va jamg'arishning investitsiya manbasi sifatida kamayib borayotganligi; O'zbekistonning tabiiy boyliklarga boyligi va bu yerda ko'plab qayta ishlovchi korxonalarni qurish imkoniyatining mavjudligi; aholi sonining o'sib borayotganligi va kichik zamonaviy ixcham korxonalarni barpo etish; respublika eksportida xomashyo salmog'ini kamaytirish va ko'plab tayyor mahsulotlar chiqarish imkoniyatiga ega bo'lishligi bilan izohlanadi.

2012-yilning yanvar-iyun oylarida respublikada asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning AQSh dollaridagi ekvivalent hajmi 5,4

milliard AQSh dollarini yoki 2011-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 110,9 foizni tashkil qildi.

2012-yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy miqdori milliy valutada 9979,6 mlrd. soʻmga teng boʻldi yoki oʻtgan yil shu davriga nisbatan 107,6 foizni tashkil qildi.

Joriy yilning 9 oyida asosiy kapitalda oʻzlashtirilgan investitsiyalar umumiy hajmi qiyosiy narxlarda 9,8 foizga ortdi. Xoʻjalik yurituvchi subyektlar va aholining investitsiyaviy faolligini oshirish, xorijiy investorlarga qoʻshimcha imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish natijasida ana shunday oʻsishga erishildi. Pirovardida tadbirkorlar bilan mustahkam aloqalar oʻrnatish, qoʻshma korxonalar tashkil etish istagidagi xorijiy ishlab chiqaruvchilar soni tobora ortmoqda.

Investitsiya muhiti yoki iqlimi juda keng maʼnoli boʻlib iqtisodiyot holatining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini, tadbirkorlik faoliyati qay darajada rivojlanganligining, ularning samarali faoliyat koʻrsatishlari uchun chiqarilgan qonun va qarorlarni, madaniyatini, maʼnaviyatini investorlar oʻz mablagʻlarini yoʻnaltirish uchun eʼtiborga oladigan hamda ulardan xulosa chiqaradigan boshqa omillarni oʻz ichiga oladi.

Iqtisodiy siyosatni olib borish davlat boshqarish organlarini investitsion jarayonlarni tartibga solish, iqtisodiyotda davlat aralashuvi, xalqaro bitimlarda ishtirok etish va chet el investitsiyalarini jalb qilish investitsion muhitga katta taʼsir koʻrsatadi. Qonuniy, iqtisodiy va siyosiy nobarqarorlik, soliq tizimlarining toʻgʻri yoʻlga qoʻyilmaganligi, bozor infrastrukturasi rivojlanmaganligi, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiradigan subyektlar orasidagi munosabatlarni tartibga solib turadigan qonuniy mexanizmlarning yoʻqligi, informatsiya darajasiga toʻgʻri kelmaydigan milliy valuta kursi, chet el investitsiyalarini sugʻurta qilish bilan himoya qilish mexanizmlarining yaxshi ishlab chiqilmaganligi, korxonalar va investitsion loyihalar haqida aniq va toʻliq maʼlumotlarning yoʻqligi va qimmatli qogʻozlar bozorining investitsion muhitiga salbiy taʼsir koʻrsatadi.

Investitsion muhit holatini aniqlaydigan yana bir omil investitsion tushkunlik hisoblanadi. Bundan tashqari jamgʻarma taqchilligi foiz stavkalarining yuqoriligi bilan ham bogʻliq. Bu esa kichik va oʻrta tadbirkorlikni bank kreditlaridan foydalanishlarini qiyinlashtiradi. Inflyatsiya sababi, beriladigan kreditlarning katta qismi qisqa muddatli boʻlib bu ulardan ishlab chiqarishda foydalanishni cheklab qoʻyadi.

Korxonalar bir-birlariga bo‘lgan qarzlarni to‘lay olmaslik holatining kuchayishi ham investitsion muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozori ham investitsion muhitga ta‘sir etadigan faktlar bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekiston iqtisodiyotidagi mulk shakllarining ko‘payishiga va bozor munosabatlarining mustahkamlanishiga olib keladi.

Investitsion faoliyat investitsiyalashning asosiy bo‘g‘ini hisoblanadi, chunki aynan shu jarayonda investitsiya bir ko‘rinishdan ikkinchi ko‘rinishga o‘tadi, ya‘ni jamg‘armalar, qo‘yilmalar, kapital, mulk, iqtisodiy samara shaklini oladi. Investitsiyalar oqimi tadbirkorlikning nechog‘lik faolligini, demakki, bozor konyunkturasi ham ta‘riflab beradi. Investitsiyalar oqimining bu harakati, ya‘ni tadbirkorlikka investitsiyalar ajratish va sarflab iqtisodiy natija olish investitsiya faoliyatining o‘zidir.

Investitsion bosqich – investitsiyalar ajratish, kapital qo‘yilmalar (xarajatlar) berish investitsiyalar harakatining bir bosqichidir, xolos. O‘zgarishlar zanjiridagi keyingi element investitsiyalar ajratishning kapital boyliklar bilan ifodalangan natijasi, samarasidir.

Shunday qilib, kapital boyliklarning shakllanishi investitsion kapital harakatining pirovardi, ya‘ni uning yangi iste‘mol qiymatlarini yaratish uchun tayyor bo‘lgan ishlab chiqarish omillariga aylanishidir. Investitsiyalar ajratish bosqichlari harakatining yig‘indisi barcha investorlarning investitsion faoliyatini tashkil etadi.

Investitsion faoliyatning tashabbuskorlari bo‘lib investorlar maydonga chiqadi. Investorlar o‘zlari qiladigan va qarzga olingan mulkiy va aqliy qadriyatlarni tadbirkorlik ishlariga ishlatish to‘g‘risida qarorga kelgan investitsion faoliyat subyektlaridir. Investorlar ulush qo‘shuvchilar, kreditorlar, xaridorlar rovida maydonga chiqadilar. Shuningdek, investitsion faoliyatning boshqa qatnashchilari vazifasini bajarishlari mumkin.

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida investitsion faoliyat quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

➤ jismoniy shaxslar, davlatga qarashli bo‘lmagan korxonalar, xo‘jalik uyushmalari, jamiyat shirkatlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari va yuridik shaxslar tomonidan mablag‘lar ajratish yo‘li bilan;

➤ davlat tomonidan mablag‘lar ajratish yo‘li bilan, ayni vaqtda bu ishni hukumat va boshqaruv organlari investitsion va ssuda resurslarini budjetdan mablag‘ bilan ta‘minlash hisobiga amalga oshiriladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida davlatning investitsion faoliyatdagi roli asosan,

fan-texnika taraqqiyotini rag'batlantirish, malakali ishchi kuchini yetishtirib berish, ishlab chiqarish infrastrukturasi ajratish singari qimmat turadigan jarayonlarga davlat sektori budjetidan yetarli mablag' berish bilan cheklanishi kerak. Bundan tashqari iqtisodiy mustahkamlikni ta'minlash va fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish jamoat ishlab chiqarish sohalarini sog'lomlashtirish, qoloq tumanlar ijtimoiy infrastrukturasi industriyasini hamda yaxshilash maqsadlarida iqtisodiyotni ustuvor sohalarini davlat tomonidan ssudalar va subsidiyalar ko'rishida yordam berishi mumkin;

➤ chet el fuqarolari, yuridik shaxslar va davlat tomonidan chet el investitsiyalari berish yo'li bilan ;

➤ mulkka egalik qilish huquqiga, bekamu-ko'st xo'jalik yuritish yoki operativ ravishda boshqarish huquqiga, shuningdek, daromadlar manbayiga, jamg'armalarga ega bo'lgan va qarzga beriladigan hamda jalb etiladigan mablag'larni olish huquqidan foydalana oladigan chet el fuqarolari, yuridik shaxslar tomonidan investitsiyalar ajratish yo'li bilan.

Investorlar investitsiya obyektlari va natijalariga, jumladan, reinvestitsiyalar va savdo ishlariga egalik qilish va ularni o'z ixtiyoridan kiritish huquqiga egadirlar. Investitsion faoliyat obyektlarining o'zaro munosabatlari, shartnomalar bilan tartibga solinadi.

Investitsion faoliyatni mablag' bilan ta'minlash har xil mablag'lar hisobiga amalga oshiriladi: o'ziga qarashli va jalb etilgan mablag'lar, belgilangan tartibda chiqarilgan qimmatli qog'ozlar, zayomlar va boshqalar shular jumlasidandir.

Bugungi kunda O'zbekiston xorijiy investitsiyani qaysi turini ko'proq jalb qilishi kerak, degan savol tug'iladi. Avvalo, biz bugungi kunda xorijiy moddiy investitsiyalarni o'zlashtirishimiz zarur. Bu yangi texnologiyalar, «nou-xau» va boshqa asosiy ishlab chiqarish fondlarini jalb qilish demakdir. ***Bu turdagi xorijiy investitsiyani jalb qilish hisobiga quyidagi yutuqlarga erishish mumkin:***

- asosiy ishlab chiqarish hisobiga fond qaytimi ko'rsatkichi oshadi;
- asosiy ishlab chiqarish o'sishi budjet tushumini oshiradi;
- asosiy ishlab chiqarish o'sishi ishsizlikni kamaytiradi;
- va nihoyat, respublikada aholini import tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabi qondirilishiga qisman erishiladi. Davlat eng kerakli tovarlar importini valuta bilan ta'minlamoqda. Biroq bu o'z o'rnida bizni valuta zaxiramizni kamaytiradi va qarzni oshiradi.

O'z o'rnida agar investitsion muhit yomon bo'lsa, investitsiya qo'shni davlatlarga oqadi.

Demak, biz investitsion muhitga katta e'tibor berishimiz kerak.

Chet el investitsiyalari nuqtayi nazaridan investitsion muhitga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil bulib respublikamizdagi iqtisodiy siyosiy barqarorlik hisoblanadi.

Respublikamizda kechayotgan mana shu siyosiy va iqtisodiy barqarorlik tufayli qisqa vaqt ichida ko'pgina, aniqrog'i 3200 dan oshiq qo'shma korxonalar tashkil etildi. Bugun O'zbekistonda qo'shma korxonalar uchun soliq imtiyozlari ham berilgan. Bularning barchasi investitsion muhitni yaxshilamoqda.

Zamonaviy bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalar faoliyatining samaradorligini aniqlash, nafaqat, xo'jalik subyektlarining o'ziga, shuningdek, kreditorlar va investorlar uchun ham o'ta muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular faoliyati samaradorligini tahlil etish korxonalar faoliyati ko'rsatkichlarini barcha qiziquvchilar uchun ochib beruvchi vazifani bajaradi. Bunday tahlil etishda korxonalar faoliyatini moliyaviy tahlil etishning alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tmoq zarur. Moliyaviy tahlil korxonaning moliyaviy ahvolidan oydinlashtirib bermasdan, balki uning har jihatli faoliyati va istiqbollari ham ko'rsatib bera oladi. Korxonalar to'g'risida barcha muhim iqtisodiy-tahliliy ma'lumotlarga ular faoliyatini moliyaviy tahlil qilish orqali ega bo'lish mumkin. Korxonalar faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlardan foydalanuvchilar korxonalar menejeri, aksiyadorlar, kreditorlar, investorlar, hamkorlar yoki sheriklar hisoblanadi. Ushbu foydalanuvchilar korxonalar moliyaviy holatini baholashda o'z maqsadlaridan kelib chiqadilar va o'z mezonlariga asoslanadilar. Qarz oluvchi faoliyatini moliyaviy tahlil etishda kreditorlarni investitsiya mablag'larining qaytarilishi to'g'risidagi bashoratlarni baholash qiziqtiradi.

Umuman, qarz oluvchi faoliyatining moliyaviy tahlili quyidagi savollarga javob berish uchun bir qator hisoblashlarni taklif etadi:

Korxonalar uning barcha qarzdorlik majburiyatlari xizmati uchun (bank oldida, budjet, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar oldida) yetarlicha daromad bera oladimi?

1. Korxonalar uning barcha qarzdorlik majburiyatlari xizmati uchun (bank oldida, budjet, mol yetkazib beruvchilar va boshqa kreditorlar oldida) yetarlicha daromad bera oladimi?

2. Xususiy (o'z) kapital, shuningdek, qarz kapitali samarali ishlatayaptimi?

3. Kelgusida ishlab chiqarish samaradorligining o‘shishi va ishlab chiqarish faoliyatini kengaytirish uchun zaxiralar bormi?

4. Korxonada kelgusida o‘z faoliyatini rivojlantirish uchun qanday strategiyaga ega va uning amalga oshirilish holati (tanlangan strategiyasidan og‘ishish) qanday?

Shu bilan birga korxonalarining rentabelligi, samaradorligi, likvidligi, kreditga layoqatliligini baholash uchun bir qator moliyaviy koeffitsiyentlar ham qo‘llaniladi.

15.2. Investitsiya resurslarini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish

Bugungi kunda vatanimiz korporatsiyalari, shu jumladan, xolding kompaniyalari oldida turgan asosiy muammolardan biri ishlab chiqarishni yangilash va yangi texnologiyalarni joriy etish, tarkibiy qayta tuzish, ishlab chiqarishni kengaytirish hamda boshqa mablag‘talab loyihalar uchun zarur bo‘lgan investitsiyalarni qidirib topish hisoblanadi.

Investitsiya siyosatini shakllantirish siyosati kompaniya investitsiya strategiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan bo‘lib, uni ishlab chiqish kompaniya oliy rahbariyati va kuzatuv kengashining eng asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi va aynan texnologik maqsadlarga integratsiyalashmagan kichikroq korxonalariga qaraganda yirik integratsiyalashgan korporatsiyalarda investitsiya strategiyasining roli beqiyos katta.

Investitsiya strategiyasini amalga oshirishning samarali yo‘lini ishlab chiqish o‘zida quyidagilarni, ya’ni:

- investitsiya faoliyatining strategik yo‘nalishlarini ishlab chiqish;
- investitsiya resurslarini shakllantirish strategiyasini ishlab chiqishni mujassam etadi.

Investitsiya faoliyati yo‘nalishlarini ishlab chiqish bosqichida moliyalashtirish manbalari va jalb etiladigan asosiy investorlarni qidirish ishi bilan boshlanishi lozim.

Kompaniya investitsiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarining maqbul tizimini qidirish korporativ boshqaruvning eng muhim vazifalaridan hisoblanadi.

Ma’lumki, kompaniyaning sof foydasi va amortizatsiya investitsiya qilishdagi xususiy mablag‘ manbayidir.

Taqsimlanmagan foyda hisobiga moliyalashtirish, odatda, kompani-

yaning barcha soliqlar to'langandan keyin qolgan sof foydasi miqdori hamda uni taqsimlash bo'yicha hissadorlar qanday siyosat yuritishiga bog'liq bo'ladi. Ko'p hollarda kompaniya zarur hisoblangan moliyalashtirish manbayiga ega bo'lishi uchun o'zining bir qism aktivlarini sotishi mumkin.

Tashqi moliyalashtirish manbayi odatda bank kreditlari hisoblanadi. Ko'plab korporatsiyalar qarz hisobiga moliyalashtirishni qo'llashadi. Biroq hozirgi sharoitda bankning kreditlash imkoniyatlari ancha chegaralangan. Albatta, ba'zi xolding kompaniyalari xolding hamda hukumatning kafolati evaziga nisbatan qulay sharoitda kredit, jumladan, xorij kreditini olishlari mumkin. Biroq bu yo'l bilan kompaniyaning yirik loyihalarini moliyalashtirish ancha muammoli masala.

Bundan tashqari, kompaniya rahbariyati, qarz kapitali bilan xususiy mablag'lari o'rtasidagi oqilona nisbatni saqlay bilishi lozim.

Yuqori foizdagi qarz mablag'lari bir qator ustunliklar berishi bilan birgalikda o'ta xavfli tadbir ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. Mabodo kompaniyaning daromadi qarz kapitalining bank foizlariga to'lov bo'yicha qo'shimcha xarajatlarni qoplashga yetarli darajada bo'lmasa, kompaniya sinish yoqasiga kelib qolishi mumkin. Shu boisdan qarz kapitalidan olinadigan foyda kompaniyaning bank foizlarini to'lash xarajatlaridan kamida ikki barobar ko'p bo'lishi tavsiya etiladi.

Tajribali G'arb moliya menejerlari faqat yetarli hajmdagi (50 foizdan yuqori) xususiy mablag'gina kompaniyaning moliyaviy mustaqilligini mustahkamlashi mumkin deb hisoblashadi. Zero, faqat xususiy mablag'largina qarzni qaytarishga to'la imkoniyat yaratishga qodirligini ko'rsatadi.

Biroq kompaniya hayotining alohida bosqichlarida sezilarli darajadagi tashqi qarzga ehtiyoj tug'ilishi mumkin. Hozirgi sharoitda Vatanimizdagi juda ko'plab korporatsiyalarda ana shunday vaziyat yuzaga kelgan.

Qimmatli qog'ozlar emissiyasi rivojlangan mamlakatlarda investitsiya resurslarini olishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar emissiyasi aksariyat qisqa muddatga beriladigan bank qarzlaridan farqli ravishda pul mablag'larini uzoq muddatli (obligatsiya) hamda muddatsiz foydalanishga (aksiyaga) jalb etish imkonini beradi.

Korporativ obligatsiyalarni chiqarish yo'li bilan fond bozoridan moliyaviy qarz olish butun dunyoda korxonaga investitsiyani jalb etish

usuli sifatida keng tarqalgan. Konservativ investorlar odatda, obligatsiyani sotib olishni ma'qul ko'rishadi, chunki uning tavakkal xavfi kamroq hisoblanadi. Obligatsiya egasi korporatsiya daromadidan o'z ulushini «birinchi navbatda olish huquqiga» ega. Zero, aksiya egalari dividend to'lovlarini obligatsiya egalari barcha foiz to'lovlari amalga oshirib bo'linguncha amalga oshirish mumkin emas. Shunday qilib, korporatsiya sinmay turgan sharoitda obligatsiya egalari yillik foiz to'lovlari hamda kelishilgan muddat oxirida qarz summasi qaytarilishi kafolatlanadi.

Korporativ obligatsiyalar O'zbekiston xolding kompaniyalarini rivojlantirish va tarkibiy qayta qurish uchun investitsiya jalb qilishga qodir eng istiqbolli qarz olish shakllaridan biri bo'lib qolishi mumkin.

O'zbek emitentlarining korporativ obligatsiyalar chiqarish sohasidagi tajribalari hozirdayoq mavjud.

Shuni qayd etish kerakki, obligatsiyalar chiqarilishi ham investitsiya loyihalari bozorining oyoqqa turishiga ko'maklashadi. Bu pirovard natijada strategik investorlar uchun mablag' qo'yiladigan ma'qul obyektlar doirasini kengaytirishga olib keladi.

15.3. Investitsiyani baholash usullari


Tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi iqtisodiyotimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuviga va uning barqaror sur'atlar bilan rivojlanishiga keng yo'l ochdi. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida investitsiyalarning faol va samarali jalb etilishi milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda, uning barqaror o'sishini ta'minlashdagi o'rni benihoyat katta. Bu o'z navbatida, investitsiyalarning mohiyatini to'g'ri va to'laroq talqin etish zaruriyatini yuzaga keltiradi.

Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiyalar tushunchasi turlicha talqin qilinmoqda. Odatda, investitsiya deganda, kelgusida daromad olishni mo'ljallab, hozirda muayyan iqtisodiy loyihalarni amalga oshirish tushunilar edi.

Ushbu masala yuzasidan xorij olimlari, xususan, U.Sharp, G.Aleksander, D.Beyli, Lorens J.Gitman, Maykl D.Joik, V.G.Zolotogorov, V.V.Komarov va S.I.Abramovlarning ilmiy ishlarida investitsiyalar mohiyatini yoritishga bag'ishlangan fikr-mulohazalar bildirilgan.

Investitsiyalarga berilgan ta'riflar tahlilida investitsiyalarni ichki va tashqi investitsiyalarga ajratishning zarurligi asoslanadi. Fikrimizcha, bu

investitsiyalar mohiyatining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Buning boisi shundaki, ichki va tashqi investitsiyalarni amalga oshirish jarayonlari o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Masalan, tashqi investitsiyalarni amalga oshirishda valutilarni konvertatsiyalash, investitsiyadan olingan daromadni repatriatsiya qilish muammolari vujudga kelib, mazkur muammolar investitsiyaning iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligiga salbiy ta'sir etadi.



37-chizma. Investitsiyalar tasnifi.

Demak, investitsiyalarning asosiy maqsadi pul oqimlarining joriy qiymatini saqlab qolish hamda ular natijalaridan kutiladigan bo'lajak qiymatlarni kapitallashtirishdir.

Ular muayyan maqsadlarning kuchli va jamg'arish funksiyalarini

ta'minlaydi. Investitsiyalarga xos bo'lgan muhim belgi - bu ularning muayyan vaqt davomida joriy qiymatini saqlash maqsadlarida tanlangan aktivlarda band qilinishi, ularning kapitallashuvi va jamg'arilishini ko'paytirish hisoblanadi. Harakatsiz kapitaldan investitsiyalar aniq va noaniq bo'lgan risklar, hisob-kitob, qabul qilingan investitsiyaviy qarorlar asosida muayyan aktivlarga bog'lanishiga tayyorligi bilan farqlanadi. Bu belgilar investitsiyalarni kapitaldan ajratib turadi.

Shuningdek, investitsiyalar kreditlardan ham farq qiladi. Kreditlashda kelishuv tashabbuskori odatda qarzdor hisoblanadi, investitsiyalashda esa tashabbuskor investor hisoblanadi. Kreditga foiz ko'rinishidagi to'lov xos bo'lsa, investitsiyalarni dividend, foyda, foiz, daromad, moddiy ne'mat, ijtimoiy, ekologik va boshqa samaralar ko'rinishidagi natijalar kutadi. Mazkur belgilar bo'yicha investitsiya va kredit birbiridan farqlanadi.

Investitsiyalar mazmuni ularning namoyon bo'lish shakllari orqali, maqsadi esa ularning asosiy funksiyasi - jamg'arish bilan aniqlanadi.

Investitsiyalarning mazmuni aniq va ishonchli manbalardan mablag'lar olish, ularni asosli holda safarbar etish, risklar darajasini hisobga olgan holda kapital qiymatini saqlash va ko'zlangan samarani olishdan iborat bo'ladi. Ana shu belgilarga ko'ra investitsiyalar boshqa qo'yilmalardan mazmunan farq qiladi. Bularning barchasi asosida kapitalning harakatlanishi jarayoni yotadi. Kapitalning esa harakat qilish jarayoniga jalb etilishi investitsiyalar mohiyatini aks ettiradi.

Demak, investitsiyalar aniq va noaniq, lekin ehtimol risklar ostida kapitalni muayyan jarayonlarga, muayyan vaqtga bog'lash bo'lib, uning hozirgi qiymatini saqlash, kapitallashtirish va jamg'arish maqsadiga qaratiladi.

1. Ushbu fikrni eng muhim shaklda qisqacha qilib quyidagicha ifodalash mumkin – agar olinadigan daromadlarning umumiy summasi qilinadigan xarajatlarning umumiy summasidan ortiq bo'ladigan bo'lsa investitsion qarorlarning bir necha muqobil variantlaridan eng yuqori rentabelligini(samaradorligini) tanlash zarur. Albatta, shu qoidaga amal qilib investitsion qarorlar qabul qilinayotgan paytda yana quyidagi jihatlarga ham e'tibor berish kerak. Qoplash muddatini, risk darajasini, kutilayotgan inflyatsiya sur'atlarini va soliqqa tortish istiqbollarini hisobga olgan holda investitsiyalarning samaradorligini aniqlash, ya'ni mablag'lar sarfini bundan yaxshiroq yoki foydaliroq yo'lini topish.

Investitsion faoliyatga tegishli qarorlarni qabul qilishda amaliyotda sinovdan o'tgan quyidagi muhim qoidalarga rioya qilinadi:

1. Pulni bankda saqlagandan ko'ra ko'proq foyda (soliqlar chegilgan holda) olish imkoni bo'lsa, mablag'larni ishlab chiqarishga, qimmatli qog'ozlarga va boshqalarga investitsiyalashtirish o'z ma'nosiga ega bo'ladi.

2. Investitsiyalarning rentabellik darajasi inflyatsiya sur'atlaridan yuqori bo'lgan taqdirdagina mablag'larni investitsiyalashtirish o'z mazmuniga ega bo'ladi.

3. Diskontlashtirish ham hisobga olingan holda eng yuqori rentabellik darajasiga ega bo'lgan loyihalarga mablag'larni investitsiyalash o'z mazmuniga ega.

Birinchi qoidaning mazmuni shundan iboratki, muayyan mablag'ga egalik qiluvchilar o'z pullarini bankda saqlagani uchun 10% li stavka bo'yicha foyda oladi, agar uni ishlab chiqarishga yoki shu kabi yo'nalishlarni biron-bir turiga sarflasa 20% li qaytim bilan foyda oladi. Demak, mablag' sarfining ikkinchi yo'nalishi samarali hisoblanadi. Investitsion qarorlar baholanayotgan paytda inflyatsiya ham hisobga olinishi kerak. Misol uchun, mablag' egasi xo'jalik qurilishiga 50000 so'm sarf qilmoqchi.

Agar mo'ljallanayotgan inflyatsiyaning yillik sur'ati 8% ni tashkil etsa, u holda, yillik foyda 40000 so'mdan yuqoriroq summani tashkil etgan taqdirdagina sarflangan investitsiya maqsadga muvofiq bo'ladi ($8\% * 500:100=40$).

Investitsion jarayon yuqorida ta'kidlanganidek, har doim risk bilan chambarchas bog'langan. Chunki, vaqt noaniqlikni kuchaytiradi va xarajatlarni qoplashning muddatlari qanchalik uzoq bo'lsa, investitsion loyiha shunchalik riskliroq bo'ladi. Shuning uchun ham investitsion qarorlar qabul qilinayotgan paytda moliyaviy menejer xarajatlar, tushum, foyda va u yoki bu investitsion loyihaning realizatsiya qilinishidan erishilishi lozim bo'lgan iqtisodiy rentabellik baholanayotgan paytda, albatta vaqtiiy o'zgarishlarni inobatga olmog'i lozim. Ana shu narsa diskontlashtirish deyiladi va, odatda, bir necha muqobil variantlarda amalga oshiriladi.

Diskontlashtirish kelajakda olinishi mumkin bo'lgan summaning hozirgi pulli ekvivalentini aniqlash imkonini beradi. Buning uchun kelajakda olinishi mumkin bo'lgan(kutilayotgan) summadan murakkab foiz bo'yicha ma'lum muddatda jamlangan daromadni ayirish kerak.

Fikrimizni quyidagi misol bilan ifodalaymiz:

Agar tadbirkor yillik 10% daromad olishni mo'ljallab, bugun 200 ming so'mni investitsiyalagan bo'lsa, 1 yildan so'ng

$$200000 \cdot (100\% + 10\%) : 100 = 220000$$

$$200000 \cdot (1.0 + 0.1) = 220000$$

so'mga ega bo'ladi. Ikki yildan keyin esa, mablag'imiz

$$220000 \cdot (1.0 + 0.1) = 242000$$

so'mga teng, va hokazo.

Navbatdagi davrlarda yanada ko'proq daromad olish uchun sarmoya bilan birgalikda uning daromadini ham reinvestitsiyalashtirish jarayoni foizlarini jamlash (qo'yish) deyiladi va uni quyidagi formula bilan ifodalash mumkin:

$$KK = BK(1+F)^S, \text{ bunda:}$$

KK – kelajakda tushadigan pul summasi;

BK – boshlang'ich (joriy) qiymati;

F – foiz stavkasi yoki daromadlilik me'yori;

S – daromadlarning jamlanishi amalga oshiriladigan yillar soni.

Kelgusi pul summasi va foiz stavkasi (bizning misolimizda 10%) belgilangan holda yuqoridagi formuladan foydalanib, o'sha pul summasining hozirgi qiymatini aniqlash mumkin:

$$BK = KK / (1+F)^S = 242000 / (1+0.1)^2 = 200000$$

Diskontlashtirish investitsiyalarning kelgusi qiymatini baholashda, qimmatli qog'ozlarning qiymatini aniqlashda, bank, sug'urta, valuta amaliyotida va boshqa hollarda keng qo'llanishi lozim. Misol uchun, tadbirkorga 3 yildan so'ng 100000 so'm zarur bo'lsin. Shu maqsadda tadbirkor 3 yildan keyin uziladigan (qaytariladigan) va umumiy qiymati 100000 so'mdan iborat bo'lgan obligatsiyalarni sotib olish istagini bildirdi. Shu obligatsiyalar bo'yicha yillik daromad darajasi 9% ni tashkil etsin.

Ana shularga asoslangan holda «biz o'sha obligatsiyalar uchun hozir (bugun) qancha to'lashimiz kerak?» — degan savolga javob berishimiz mumkin.

$$BK = 100000 : (1+0.09)^3 = 100000 : 1.295 = 77220 \text{ so'm}$$

Mazkur aytib o'tilgan 3 asosiy qoidani bilgan holda endi investitsion loyihani tanlash bo'yicha aniq bir misol bilan tanishib chiqaylik. Bu

misolning qiziqarli va diqqatga sazovor ekanligi shundaki, taklif etilayotgan har ikkala muqobil variant birinchi ikki qoida nuqtayi nazaridan foydasizdir. Lekin shunday bo‘lishiga qaramasdan moliyaviy menejer tomonidan rad etilmayotir. Shunday qilib, tadbirkor «Z» yo‘nalishidagi mahsulot turini ishlab chiqarish uchun korxonaga mablag‘larini investitsiya qilmoqchi. Lekin uning oldida 2 loyiha mavjud.

1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlarga o‘z munosabatimizni quyidagi ketma-ketliklar tartibida bildirishga harakat qilamiz:

1. Investitsiyalarning o‘rtacha yillik rentabellik darajasini bank kreditining o‘rtacha foiz stavkasi bilan taqqoslaymiz.

Har ikkala loyihalarga nisbatan mablag‘larni bankda saqlash foydaliroq. Lekin «B» loyiha bo‘yicha qo‘ldan chiqarilgan afzalliklar nisbatan kamroq. Shu nuqtayi nazardan olib qaralganda «B» loyiha (foydalilik nuqtayi nazaridan) hozircha yutuqli holatdir.

2. Loyihalarni inflatsion zararlardan(yo‘qotmalardan) sug‘urtalan-ganlik (himoyalanganlik) nuqtayi nazaridan taqqoslaymiz.

129-jadval

Taklif etilayotgan loyihalarga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar

Ko‘rsatkichlar	«A» loyiha	«B» loyiha
1	2	3
1. Investitsiyalar, ming so‘m;	600	650
2. Tushum, ming so‘m		
1-yilda	270	400
2-yilda	200	350
3-yilda	120	100
4-yilda	90	50
5-yilda	70	0
jami 5 yilda	750	900
3. Foyda, ming so‘m	150	250
4. O‘rtacha yillik foyda, ming so‘m	30	50
5. Investitsiyalarning 5 yillik rentabelligi, %	25	38
6. Investitsiyalarning o‘rtacha yillik rentabelligi, %	5	7.6
7. Inflatsiyaning rejalashtirilayotgan (ko‘zda tutilayotgan) o‘rtacha yillik sur‘atlari, %	4	4
8. Bank krediti foizining o‘rtacha yillik stavkasi, %	10	10

Har ikkala loyihalarning o‘rtacha yillik rentabellik darajasi investitsiyaning o‘rish sur‘atlaridan yuqoriroqdir. Lekin «B» loyiha bo‘yicha bu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farq ($7.6\% - 4.0\% = 3.6\%$) «A» loyiha bo‘yicha xuddi shu ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi farqdan ($5.0\% - 4.0\% = 1.0\%$)

kattaroqdir. Bu narsa, o'z navbatida, masalani (tanlashni) «B» loyiha foydasiga hal etilishini taqozo etadi.

3. Investitsiyalarning qoplanish muddatlarini (davrlarini) taqqoslaymiz:

Shubhasiz, «B» loyiha bo'yicha investitsiyalar tezroq qoplanadi. Lekin, shu narsani alohida ta'kidlash zarurki, loyihalarning qoplanish muddatlari jihatdan taqqoslash qo'yilmalar samaradorligini atroflicha tahlil qilinishi lozim bo'lganda emas, balki ochiqdan ochiq yoki aniq kerak bo'lmagan, bo'lmayotgan loyihalarni tezroq yo'qqa chiqarish talab qilingandagina maqsadga muvofiqdir.

Shu sababli, taqqoslashlarimizni davom ettiramiz.

4. Talab qilinayotgan investitsiyalarning hajmi yoki miqdorlarini taqqoslaymiz:

«B» loyiha «A» loyihaga nisbatan 50 ming so'm qimmat. O'z navbatida, bu narsa moliyalashtirishda ma'lum qiyinchiliklarni tug'dirishi mumkin.

5. Loyihalarni tushumlarning barqarorligi nuqtayi nazaridan taqqoslaymiz.

«A» loyiha mablag'lar oqimining 5 yil davomida davom etishini, «B» loyiha esa – faqat 4 yil davom etishini ta'minlaydi. Shu bilan birgalikda «B» loyiha bo'yicha tushumning asosiy qismi birinchi ikki yilda tushayotir, so'ng keskin kamayish sodir bo'layotir va 5-yilda esa tushum «0» ga teng . Shu o'rinda biz uchun nima muhimroq: 5 yil davomida u yoki bu darajadagi barqaror pul mablag'larining oqib kelishimi yoki birinchi 2-3 yil davomida pul mablag'lari asosiy qismining yig'ilishimi? O'zimiz uchun bu savolga javob beramiz va qiyoslashni davom ettiramiz.

6. Butun 5 yil davomida investitsiyalarning rentabelligini taqqoslaymiz:

Bu o'rinda «B» loyiha ma'lum afzalliklarga ega. Lekin biz hali vaqt omilini inobatga olganimiz yo'q. Diskontlashtirishni amalga oshirish kerak.

7. Diskontlashtirishni hisobga olgan holda butun 5 yil uchun investitsiyalarning rentabelligini qiyoslaymiz.

Buning asosi sifatida yillik bank krediti foiz stavkasining darajasini 10% deb olamiz.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga va xulosalarga asoslangan holda investitsion qarorlar qabul qilishning asosiy va bir-biri bilan uzviy ravishda bog'liq bo'lgan quyidagi mezonlarni ko'rsatishimiz mumkin:

1. Yanada foydaliroq alternativ variantning yo'q ekanligi.
2. Inflyatsiyadan ko'zda tutilishi mumkin bo'lgan zararlar(yo'qotmalar) riskini minimallashtirish.
3. Xarajatlar qoplanish muddatining qisqaliligi.
4. Loyihaning arzonligi.
5. Tushumning barqarorligini ta'minlash.
6. Yuqori darajadagi rentabellik.
7. Diskontlashtirilgandan so'ng rentabellikning yuqori darajaligi.

130-jadval

Vaqt omilini hisobga olgan holda loyihalar iqtisodiy rentabelligini aniqlash

	«A» loyiha		«B» loyiha	
	Diskontlashtirilguncha	Diskontlashtirilgandan so'ng	Diskontlashtirilguncha	Diskontlashtirilgandan so'ng
1. Investitsiyalar, ming so'm	600	600	650	650
3. Tushum, ming so'm				
1-yil	270	$270:(1+0.1)=245.5$	400	$400:(1+0.1)=363.6$
2-yil	200	$200:(1+0.1)=165.3$	350	$350:(1+0.1)=289.3$
3-yil	120	$120:(1+0.1)=90.2$	100	$100:(1+0.1)=75.2$
4-yil	90	$90:(1+0.1)=61.5$	50	$50:(1+0.1)=34.2$
5-yil	70	$70:(1+0.1)=43.8$	0	0
Jami tushum, ming so'm	750	606.3	900	762.3
3. Foyda, ming so'm	150	$606.3-600.0=6.3$	250	$762.3-650.0=112.3$
4. Diskontlashtirilgandan so'ng loyihaning iqtisodiy rentabelligi $6.3*100\%:600=1.05\%$			$112.3*100\%:650=17.3$	

Ana shu mezonlar to'plamidan foydalanib va ularni bir-birlari bilan bir necha variantlarda kombinatsiyalashtirib moliyaviy menejer u yoki bu loyihaning foydasiga o'z tanlovini e'lon qilishi mumkin. Shunday bo'lishiga qaramasdan, u tomonidan qaysi variantni tanlanishi ko'p jihatdan korxonaga uchun shu kunda eng asosiy bo'lgan mezonni subyektiv ravishda tanlash bilan bog'liq. Agar moliyaviy menejering

fikricha, korxonaning strategiyasiga kamtarona, lekin uzoq muddat davomida barqaror tushumga ega bo'lish to'g'ri kelsa, u holda «A» loyihani tanlaydi. Aksincha, korxonaga uchun asosiy mezon loyihaning foydaliligi bo'lsa, moliyaviy menejer, albatta, «B» loyihani tanlashi turgan gap.

Shunday qilib, yuqoridagi mulohazalardan ko'rinib turibdiki, investitsion portfelni shakllantirishda faqat eng yuqori foydali va eng past riskli loyihalarnigina tanlashga e'tibor berib qolmasdan, balki korxonaning strategik liniyasiga eng yaxshi mos keluvchi loyihaga ham alohida e'tibor berilmog'i kerak.

15.4. Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili

Mablag'lardan foydalanishda ishlab chiqarish yo'nalishi ham korxonaga, ham jamiyat uchun ma'qulroq bo'lar edi. Chunki ishlab chiqarishda aniq turdagi mahsulot (ish, xizmat) yaratilib iqtisodiy qiymat bilan birgalikda iste'mol qiymati hosil qilinadi. Bahosi hamda iste'mol qiymati va uning sifati xaridor talabini qondirsa, mazkur turdagi mahsulot (ish, xizmat) ishlab chiqarish davomiyligi oshadi. Demak, mablag' aylanishi ta'minlanadi. Eng asosiysi investorlar sarflagan mablag'idan ko'zda tutilgan samara oladilar. Dastlabki saxifalarda investorlar o'z mablag'larini asoslangan loyihalarga ko'ra aniq yo'nalishga sarflash variantlarini muqobillik tarzida tanlab olishni ko'rib chiqdik. Endigi masala agar investor ishlab chiqarish yo'nalishiga sarflagan mablag'larini joriy davrdagi va joriy davr yakunlangan holati hamda ularning yillar bo'yicha dinamikasini belgilangan rejaga muvofiq, bozordagi o'zgarishlarni hisobga olgan holdagi ahvolini tahlil qilib, ularni umumlashgtirib, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qilishdagi ahamiyatini o'rganamiz. Bu bilan faoliyat yo'nalishidagi kamchiliklarni bartaraf etib, yanada samarali bo'lgan imkoniyatlarni topib, ularni joriy qilishga erishiladi.

Investitsion faoliyatini tahlil qilish, avvalo, ta'minot rejasini bajarishni o'rganishdan boshlanadi. Bu jarayonda rejada belgilangan asosiy va aylanma aktivlar (ularning turi bo'yicha)ni kelib tushishi yoki ishlab chiqarishga berilishi holati, reja va haqiqiy ma'lumotlarni taqqoslash yo'li bilan ko'riladi. Aniqlangan og'ishishlar yoki kechikishlar sabablari aniqlanadi. Ular tufayli erishiladigan moliyaviy

natijaga ko'rsatilgan salbiy ta'sir miqdori o'rganiladi, mas'uliyatli shaxslarga nisbatan tegishli ko'rsatmalar beriladi. Mazkur usuldagi tahlil tezkor yoki muayyan davrni qamrab olgan holda (masalan: choraklik, yillik) o'tkazilishi mumkin. Albatta, tahlil natijasida olingan xulosalardan samarali foydalanish imkoniyati qo'ldan boy berilmagan davrda mazkur tadbir o'z ahamiyatini yo'qotmaydi.

Mablag' aylanishining bevosita ishlab chiqarish bosqichida asosiy va aylanma aktivlarini haqiqiy miqdor va qiymat sarfi belgilangan reja bo'yicha amalga oshirilishi tahlil etiladi. O'zgarishlar sabablari o'rganiladi.

131-jadval

Kapital qo'yimalarga doir ishlab chiqarish xarajatlari tahlili

Xarajatlar elementlari	Biznes bo'yicha	reja	Haqiqatda	Farqi (+;-)
1. Moddiy xarajatlar	550		564	+14
2. Mehnat haqi	100		110	+10
3. Ijtimoiy sug'urta	40		44	+4
4. Amortizatsiya ajratmalari	165		165	--
5. Boshqa xarajatlar	4		10	+6
Jami:	859		893	+34

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, tahlil etilayotgan korxonada ishlab chiqarish xarajatlari rejada belgilangan ko'rsatkichlarga nisbatan qiymat jihatdan jami +34 ming so'mga ortiq sarflangan. Bularning asosiy sabablari quyidagilardir:

Moddiy xarajatlarning ayrim turlarini bahosi oshganligi(+14) ishlab chiqarish jarayonida ortiqcha mehnat sarf qilinganligi(+10) hamda asosiy vositalar joriy remont xarajatlari kutilmaganda oshib ketganligidir(+6). Albatta, mazkur ortiqcha sarflar mahsulot sotish bahosi o'zgarmagan taqdirda foyda summasini kamaytiradi.

Kapital qo'yimlar tahlilida ularning joriy yildagi samaradorlik ko'rsatkichlarini ham o'rganib chiqib, haqiqiy ahvolni va unga ta'sir etuvchi omillarni bilish zarur. Bu ma'lumotlar kapital qo'yimlar qaytimining yillar bo'yicha dinamikasini tahlil qilishda va yakuniy samaradorlikni aniqlashda g'oyat muhim hisoblanadi.

Kapital qo‘yilmaning hisobot yili bo‘yicha rentabellik darajasi tahlili

Ko‘rsatkichlar	Hisobot yili xarajatlari		Foyda		Rentabellik		Farqi (+,)
	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	Reja	Haqiqatda	
Jami xarajatlar shu jumladan:	859	893	304	311	35.4	34.8	-0.6
Asosiy vositalarning joriy xarajatlari	165	165	x	x			
Aylanma aktivlari	694	728	x	x			

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, korxonada rentabellik darajasi aytarli darajada keskin o‘zgarmagan. Biroq +0.6 miqdordagi nisbiy daraja ham ma’lum ma’noda ijobiy holat deb bo‘lmaydi. Buning asosiy sababi oborot aktivlaridan foydalanishda yo‘l qo‘yilgan kamchiliklardir (sababi – jadvalda aytib o‘tilgan).

Kapital qo‘yilma bo‘yicha rentabellik darajasi dinamikasi.

2008	2009	2010	2011
34,8	28	23	18

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki kapital qo‘yilma bo‘yicha rentabellik darajasi yildan yilga pasayib borgan. Buning asosiy sababi mahsulot bahosi oshmagan holda, unga sarflanuvchi materiallar hamda mehnat haqi qiymati oshib borganligidir. Bu korxonada mazkur yo‘nalishga mablag‘ saflanayotganda yoki investitsiya qilinayotganda loyihani va unga muvofiq keluvchi rejani ishlab chiqishda bozor holatini keskin o‘zgarishini oldindan ko‘ra olmaganligidir. Biroq loyiha va rejaning ijobiy tomoni, dastlabki yillardayoq kapital qo‘yilmaning 60% dan oshiq qiymatini qaytarib olmoqda hamda ularni reinvestitsiya qilmoqda. Biroq, keyingi ikki yilda bu jarayon keskin pasaydi. Eng asosiy kapital qo‘yilma inflyatsiya sur‘atini ham hisobga olgan holda o‘z qiymatini to‘rt yil ichida qoplamoqda.

Ishlab chiqarishga sarflangan investitsiyalarni tahlil qilishda ularning moliyalashtirish manbalarini ham alohida o‘rganib chiqish talab etiladi. Chunki, majburiyat asosida moliyalashtirish, o‘z qiymati bilan

birgalikda ma'lum bir foiz to'lovini ham keltirib chiqaradi. Bu esa, erishilgan foydani pirovard natijada kamayishiga ta'sir etadi.

Muayyan faoliyatni investitsiyalash jarayonida uzoq muddatli aktivlarni jalb etishda o'z mablag'lariga sotib olish, kredit, lizing yo'li yoki ijara munosabatlari bilan olish variantlari ham o'zaro taqqoslanib eng yaxshi deb topilgan tadbir tanlab olinadi. Bunda qiymat jihatdan eng arzon, qaytimi o'z o'simiga ega, moliyalashtirishning qulayligi kabi jihatlariga e'tibor beriladi.

Aylanma mablag'lardan unumli foydalanishda ham yuqorida aytib o'tilgan tomonlar chuqur tahlil talab qilinadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, investitsiya yo'nalishini ishlab chiqarishga burish eng avvalo alohida jamoa hamda davlat manfaatlariga mos tushadi. Chunki moddiy ne'matlar ko'payadi hamda iste'mol qilinadi.

Investorlarga esa ishlab chiqarishni rivojlantirganligi uchun soliq qonunchiligi bo'yicha ko'plab imtiyozlar beriladi.

15.5. Moliyaviy investitsiyalar tahlili

Bozor munosabatlari rivojlangan sharoitda muayyan korxonada ishlab chiqarishni tashkil etish va ayniqsa kengaytirish qo'shimcha mablag' topish maqsadida chiqarilgan qimmatli qog'ozlarsiz amalga oshishi qiyin.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog'ozlarni sotib olish quyidagi maqsadlarni ko'zda tutadi:

- kapitalni aniqlash;
- qo'shimcha fond olish;
- qimmatli qog'ozlar kursining oshishi evaziga kapitalni ko'paytirish.

Tom ma'noda bozor iqtisodiyoti to'la shakllanib bo'lmagan mamlakatlarda qimmatli qog'ozlar ularga xos bo'lmagan boshqa maqsadlarda ham sotib olinishi mumkin. ***Bunday maqsadlar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:***

- ◆ qimmatli qog'ozlar sotib olish yo'li bilan mulkiy huquqlarga ega bo'lish, defitsit mahsulotlar va xizmatlarga ega bo'lish;

- ◆ muomala shartlariga ko'ra naqd pul o'rnini bosa oladigan qimmatli qog'ozlarni sotib olish;

- ◆ bozorni o‘rganish uchun;
- ◆ mulk ta’sir darajasini kengaytirish va uni qayta taqsimlash;
- ◆ nobarqaror bozor sharoitida qimmatli qog‘ozlar kurslari o‘zgarishlari asosida chayqovchilik qilish va h.k.

Qimmatli qog‘ozlarning likvidlik masalasi bozor iqtisodiyoti shakllanib kelayotgan davlatlarda fond bozorini rivojlantirish bilan bog‘liq o‘ta muhim masalalar jumlasiga kiradi. Likvidlik darajasi qancha yuqori bo‘lsa, bunday qimmatli qog‘ozlarning kursi shuncha mustahkam va yuqori bo‘ladi. Demak, korxonalar qimmatli qog‘ozni sotib olishda birinchi navbatda ularning shu jihatlariga e’tiborni qaratishlari kerak.

Rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida qimmatli qog‘ozlarning o‘ndan ortiq turi bo‘lib, ularning ayrim turlari, o‘z navbatida, turli shartlar asosida muomalaga chiqarilgan har xil shakllarga bo‘linishi mumkin. Quyidagilar qimmatli qog‘ozlarning asosiy turlari bo‘lib hisoblanadi: aksiya, veksel, fyuchers, xususiylashtirish cheki, obligatsiya, davlat xazina majburiyatlari, opsiyon, varrant, banklarning jamg‘arish va depozit sertifikatlari, konosament, mulkiy varaqa (masalan; uy-joy olish huquqini beruvchi qimmatli qog‘oz).

Qimmatli qog‘ozlar va ularning ishonchliligi haqida gap ketganda xalqaro amaliyotda maxsus reyting agentliklari va tashkilotlari qimmatli qog‘ozlarni chuqur tahlil asosida guruhlariga bo‘lishadi. Masalan, qimmatli qog‘ozlar, «oliy sifatli», «yuqori sifatli», «o‘rtadan yuqori sifatli», «o‘rta sifatli» va h.k. guruhlariga bo‘lish mumkin.

Qimmatli qog‘ozning investitsion sifati uning likvidlik darajasi hamda o‘rtacha bozor fondidan kam bo‘lmagan darajada foiz keltirish qobiliyati va kurs qiymati barqaror bo‘lgan sharoitda risk holati kabi omillarni baholash belgilanadi.

Ma’lumki, qimmatli qog‘oz riski qancha past bo‘lsa, uning likvidlik darajasi shuncha yuqori bo‘ladi. Lekin risk darajasi past bo‘lgan qimmatli qog‘ozning daromad keltirish qobiliyati ham aksariyat hollarda yuqori bo‘lmasligi mumkin.

Bu o‘rinda qimmatli qog‘ozlar keng tarqalgan g‘arb davlatlari bilan o‘tish davrida yashayotgan davlatlar amaliyoti o‘rtasida o‘zaro mos kelmaslik holatlari ham mavjud. Masalan: G‘arbda aholi turli qimmatli qog‘ozlar investitsion sifatlarini yaxshi biladi. Investorlar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlaridan kelib chiqib, qimmatli qog‘ozning qaysi turini sotib olishni hal etish uchun ularning investitsion sifatlarini chuqur

o‘rganishga yetarli axborot topa olishadi. Axborot o‘zining haqqoniyligi, ishonchliligi va to‘laligi bilan ajralib turadi. qimmatli qog‘ozning investitsion sifatlari haqida noto‘g‘ri moliyaviy axborot bergan yuridik yoki jismoniy shaxs fond bozorida tezda o‘z obro‘sinini to‘kib qo‘yishi va natijada sinishi mumkin.

Bozor iqtisodiyoti endi rivojlanayotgan davlatlarda qimmatli qog‘ozlarning investitsion sifatlarni aniqlash hozircha tor doiradagi mutaxassislarning ishi bo‘lib qolmoqda. Qimmatli qog‘ozlarning potensial investorlari bo‘lishi mumkin bo‘lgan aholining keng qatlamlari fond bozori sarxadlariga asta-sekin kirib bormoqda.

Bozor iqtisodiyoti shakllanayotgan davlatlarda qimmatli qog‘ozlar portfeli bilan bog‘liq risklar nisbatan ko‘pligi bilan ajralib turadi. ***Quyida qimmatli qog‘ozlar portfeli bilan bog‘liq risklarning asosiy turlari haqida qisqacha so‘z yuritiladi.***

Kapital risk – qimmatli qog‘ozlarga qo‘yilgan barcha mablag‘lar uchun umumiy risk bo‘lib, u zarar ko‘rmasdan kapitalni qaytarib ololmaslik holati bilan belgilanadi. Fondlar bozorida yirik tanazullar ro‘y bergan paytda (masalan, 1998-yilda Janubiy Koreya, Yaponiya, Rossiya, Indoneziya, Malayziya va h.k. davlatlarda) kapital risk ruyobga chiqadi.

Qonunchilikda o‘zgarishlar ro‘y berishi bilan bog‘liq risk natijasida qimmatli qog‘ozlar chiqarish qayta ro‘yxatga olinishi, bekor qilinishi, uning shartlari tubdan o‘zgarishi mumkin. Natijada emitent va investor qo‘shimcha xarajatlar qilishi va moddiy yo‘qotishlarga duchor bo‘lishi mumkin.

Vaqt bilan bog‘liq risk 2-qimmatli qog‘ozni sotib olish yoki sotish uchun noqulay vaqt tanlangan holatlarda yuz beradi. Qimmatli qog‘ozlarni sotish yoki sotib olishga mavsumiy (agrar, savdo firmalari qimmatli qog‘ozlari) yoki qayta ishlab chiqarish sikllarining ta‘siri o‘ta aniq seziladi.

Tanlash riski — qimmatli qog‘ozlarning serdaromad va ishonchli turlarini tanlay olmaslik holati bilan bog‘liq bo‘ladi. Qimmatli qog‘ozlar investitsion sifatlarni to‘g‘ri baholay olmagan vaziyatlarda tanlash riski ro‘y beradi.

Likvidlilik riski – qimmatli qog‘ozning investitsion sifatini baholashni o‘zgarishi sharoitida uni sotishdan ko‘rilgan zarar bilan o‘lchanadi.

Inflatsion risk – yuqori inflyatsiya sur‘atlari investorning qimmatli qog‘ozlardan oladigan daromadlari tezroq qadrsizlanish riskidir. Jahon amaliyotida inflyatsion riskni pasaytirishning juda ko‘p usullari

bo'lishiga qaramasdan inflyatsiyaning yuqori darajadaliqi qimmatli qog'ozlar bozorini buzib yuborishi allaqachon aniqlangan.

Valuta riski – valuta kurslari o'zgarishi natijasida valuta qimmatli qog'ozlariga qilingan qo'yilmalar bilan bog'liq bo'lgan riskdir.

Regional risk – bir yoki ikki turdagi mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan hududlar faravonligining shu mahsulotlar narxining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan risk. Mamlakatda hokimiyat krizisi vujudga kelgan paytda regional risklar alohida regionlarning siyosiy va iqtisodiy separatizmiga bog'liq holda vujudga kelishi mumkin.

Tarmoqlar riski – iqtisodiyotda tarmoqlarning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq bo'lgan risk. Shunga ko'ra barcha tarmoqlarni guruhlariga ajratish mumkin:

a) sikllik tebranishlarga ta'sirchan tarmoqlar;

b) sikllik tebranishlarga kamroq ta'sirchan tarmoqlar;

Bundan tashqari tarmoqlarni «o'lib borayotgan»; «barqaror ishlayotgan»; «tezda o'sib borayotgan» yosh tarmoqlarga ham bo'lish mumkin.

Kredit riski – qimmatli qog'ozlarni chiqargan emitent chiqarilgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha foizlar yoki asosiy qarzni qaytarolmasligi bilan bog'liq bo'lgan risk.

Foiz riski – bozordagi stavkalarining o'zgarishi natijasida investorlarning zarar ko'rishi bilan bog'liq bo'lgan risk. Ma'lumki, bozor foiz darajasining pasayishiga olib keladi.

Bozor riski – bozor umumiy faoliyatining pasayishi sababli qimmatli qog'ozlar narxining pasayishi natijasida investorlarning zarar ko'rishi.

Mamlakat riski – tarmoqlar riskiga o'xshash. Shu bilan birgalikda bu riskning o'zgarishiga korxonaning faoliyati ham ta'sir qiladi. Bunga mos ravishda korxonalar konservativ, agressiv va ularning har ikkalasini birgalikda ko'radigan «oqilona» korxonalariga bo'lish mumkin.

Qaytarib olish riski – qaytarib olish huquqiga ega bo'lgan obligatsiyalar bo'yicha to'lanadigan foizlar darajasidan oshganligi sababli emitentning shu obligatsiyani qaytarib olishi natijasida investorlarning zarar ko'rish riski.

Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bir-biri bilan bog'liq bo'lgan ko'plab operatsiyalardan iborat bo'lib, ularning qay biri qachon va qaysi shartlar bilan ishlashi, portfelni kim boshqarishi bilan belgilanadi. Qimmatli qog'ozlar portfeli uning egasi yoki egasining topshirig'iga ko'ra alohida shaxs tomonidan boshqarilishi mumkin.

Biz quyida portfelni uning egasi tomonidan boshqarilish jarayonida sodir bo‘ladigan operatsiyalarining asosiylari bilan tanishtirib o‘tamiz. Portfelni uning egasi topshirig‘i bo‘yicha boshqa shaxs boshqarganda ham shu operatsiyalarning aksariyati bajariladi. Boshqarishning ikkala usuli mazmunan bir-biridan keskin farq qilmaydi. Ularning farqi operatsiyalarni amalga oshirish shaklida bo‘ladi. Ya’ni portfel egasi hamma vaqt o‘z nomidan ish ko‘radi, ikkinchi usulda esa alohida shaxs uning topshirig‘i bo‘yicha boshqaruv operatsiyalarini bajaradi.

Bu operatsiya fond bozori konyunkturasini o‘rganish va prognoz qilish, qonunchilik haqida ma’lumot yig‘ish, qimmatli qog‘ozlar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar bo‘yicha uslubiy va me’yoriy hujjatlar tayyorlash, kasbiy tayyorlash, portfel umumiy strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish, portfelni boshqarishni nazorat qilish, qimmatli qog‘ozlarni baholash, dividend siyosatini yaratish va amalga oshirish kabi o‘ta muhim chora-tadbirlarni o‘z ichiga oladi. Ko‘rinib turibdiki, qimmatli qog‘ozlar portfelini boshqarishni tashkil etish jarayonida bu operatsiya o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Qimmatli qog‘ozlar bozorini tahlil qilish yuqoridagilar bilan chegaralanib qolmaydi. Portfel holatini u o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishish, risklar va likvidlik darajasini baholash, ***xususiy lashtirish jarayonini tayyorlash va amalga oshirish kabi hatti-harakatlar ham portfelni boshqarish operatsiyasining tarkibiy qismlari hisoblanadi.***

1. Qimmatli qog‘ozlarni sotib olish asosida investitsiya qilish. Bu operatsiyani amalga oshirish uchun oldindan maxsus fondlar yoki alohida schotlarda pul mablag‘lari asta-sekin jamg‘arilib boriladi.

2. Qimmatli qog‘ozlarni tayyorlash, muomalaga chiqarish va birlamchi tarqatishni tashkil etish.

3. Qimmatli qog‘ozlarni bevosita sotish bilan bog‘liq hatti-harakatlar.

4. Qimmatli qog‘ozlar egasi almashishiga olib kelishi mumkin bo‘lgan ayrim hodisalar (masalan, almashuv, sovg‘a qilish, merosga berish va h.k.),

5. Qimmatli qog‘ozlar bozorini tahlil qilish.

6. Qimmatli qog‘ozlarni zarur hollarda garov sifatida ishlatish.

7. Qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha hisob-kitoblarni amalga oshirish.

8. Qimmatli qog‘ozlarni qarzga berish yoki qarzga olish.

9. Qimmatli qog‘ozlarni sug‘urta qilish.

10. Qimmatli qog'ozlar bo'yicha ehtimol tutilgan zararlarni qoplash maqsadida zaxira tashkil qilish va ishlatish.

11. Buzilgan, yo'qolgan qimmatli qog'ozlarni almashtirish.

12. Qimmatli qog'ozlarning operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya hisobini yuritish va hisobotini tuzish.

13. Qimmatli qog'ozlarning bir turini boshqa bir turiga almashtirish.

14. Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish bilan bog'liq mahkamaviy ishlarni bajarish.

Qimmatli qog'ozlar portfelini boshqarish uning egasi tomonidan amalga oshirilganda korxonada bu ish bilan shug'ullanadigan maxsus fond (yoki investitsiya) bo'limi (boshqarmasi) yoki qimmatli qog'ozlarni boshqarish bo'limi (boshqarmasi) tashkil etiladi.

Qimmatli qog'ozlar portfelining egasi mazkur jarayonni boshqarishni o'zi xohlamasa, bu ishni fond bozorida maxsus tashkil etilgan ixtisoslashgan tashkilotlarga shartnoma bilan topshirishi mumkin.

Korxonalar sotib olgan qimmatli qog'ozlarni va ulardan foydalanishni tahlil qilishda quyidagi jihatlarni ham ko'rib o'tadilar. Qimmatli qog'ozlar uzoq va qisqa muddatga qo'yilganligi, reja bo'yicha yoki rejada belgilanmaganligi, reja bo'yicha qaytimi hamda haqiqatdagi qaytimi, bozor bahosini o'sishi yoki kamayishi, ulardan foydalanishning muqobil yo'nalishlari ularning har birining alohida turi bo'yicha solishtirib chiqiladi.

Bu bilan moliyaviy qo'yimlardan qay darajada foydalanish holatini yillar bo'yicha ham o'rganish mumkin. U holda qimmatli qog'ozlarning har bir yildagi qiymati (narxi oshishi yoki pasayishi ko'rsatilgan holda) keltirilgan foizlari hamda ularning farqlari o'rganib chiqilib muqobil variantlar bilan taqqoslanadi.

Albatta, moliyaviy qo'yimlardan keladigan foizlarni hisoblashda u bo'yicha ishlab chiqilgan davlat soliq siyosatini ham ko'rib chiqish zarur. Chunki, soliqlar olinadigan foyda summasini kamaytiradi.

Fikrimizcha, uzoq muddatli moliyaviy qo'yimlarga mablag'larni bo'sh turgan pul mablag'lari yoki yetarli imkoniyatda foydalanilmayotgan asosiy va oborot fondlarini qo'yilsa, korxonaga uchun samaraliroq bo'lar edi.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- investitsiya faoliyati;
- investitsiya turlari;
- ishlab chiqarish investitsiyasi;
- moliyaviy investitsiya;
- kapital qo'yilma va investitsiya;
- investitsion muhit;
- investitsion loyihalar;
- investitsiya riski.

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo'jalik yurituvchi subyektlarning investitsion faoliyati deganda nima tushuniladi?
2. Investitsiya faoliyatining qanday turlari mavjud?
3. Ishlab chiqarish investitsiyasi qanday tahlil etiladi?
4. Moliyaviy investitsiya nima va u qanday tahlil etiladi?
5. Investitsiya bilan kapital qo'yilmalar o'rtasida qanday o'xshashlik va farqlanishlar mavjud?
6. Xo'jalik subyektlarining investitsion faoliyatini jadallashtirish uchun nima qilish kerak?
7. Investitsion loyihalarning riski qanday aniqlanadi va tahlil qilinadi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Quyidagi ma'lumotlar asosida korxonaga taklif etilayotgan investitsiya loyihalarining ichidan eng samarali, maqbul variantini tanlang, tahlil eting va xulosa yozing.

2-topshiriq.

Jadval ma'lumotlari asosida korxonaga uchun vaqt omilini hisobga olgan holda loyihalarning iqtisodiy samaradorligini aniqlang va eng maqbul investitsiya loyihasini tanlang.

Taklif etilayotgan loyihalarga tegishli bo'lgan ma'lumotlar

Ko'rsatkichlar	«A» loyiha	«B» loyiha
1. Investitsiyalar, ming so'm	12580	14500
2. Tushum, ming so'm		
1-yilda	3100	5500
2-yilda	2800	4800
3-yilda	2620	3950
4-yilda	2480	1950
5-yilda	2350	0
jami 5 yilda	?	?
3. Foyda, ming so'm	?	9
4. O'rtacha yillik foyda, ming so'm	?	?
5. Investitsiyalarning 5 yillik rentabelligi, %	?	?
6. Investitsiyalarning o'rtacha yillik rentabelligi, %	?	9
7. Inflyatsiyaning rejalashtirilayotgan (ko'zda tutilayotgan) o'rtacha yillik sur'atlari, %	2,8	2,8
8. Bank krediti foizining o'rtacha yillik stavkasi, %	12,0	12,0

Vaqt omilini hisobga olgan holda loyihalar iqtisodiy rentabelligini aniqlash

	«A» loyiha		«B» loyiha	
	Diskont- lashtiril- guncha	Diskontlash- tirilgandan so'ng	Diskont- lashtiril- guncha	Diskontlash- tirilgandan so'ng
1. Investitsiyalar, ming so'm	12580		14500	
2. Tushum, ming so'm				
1-yil				
2-yil	3100	2800	5500	4800
3-yil	2620	2480	3950	1950
4-yil	2350		0	
5-yil				
Jami tushum, ming so'm				
3. Foyda, ming so'm				
4. Diskontlashtirilgandan so'ng loyihaning iqtisodiy rentabelligi, %				

Test savollari:

1. Qaysi javobda moliya bozorlarining turlari to'g'ri va to'liq ko'rsatilgan?

a) qimmatli qog'ozlar bozori, valuta bozori, sarmoyalar bozori, kreditlar bozori;

- b) mehnat bozori, qimmatli qog'ozlar bozori, ishlab chiqarish vositalari bozori, kreditlar bozori;
- d) qimmatli qog'ozlar bozori, kreditlar bozori;
- e) valuta bozori, sarmoyalar bozori.

2. Korxonaning sarmoyalar bozoridagi faoliyatini ifodalovchi ko'rsatkichlar qaysi javobda to'liq va aniq berilgan?

- a) bozor aktivligi, faolligi ko'rsatkichlari;
- b) ish aktivligi faolligi ko'rsatkichlari;
- d) moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari;
- e) moliyaviy leviridjlar.

3. Korxonalarining moliya bozoridagi tavakkalchiligini ifoda etuvchi ko'rsatkichlarga nimalar kiradi?

- a) tavakkal ehtimolligi;
- b) tavakkallik koeffitsiyentlari;
- d) tavakkallik sug'urtasi;
- e) inflyatsion o'zgarishlar.

4. Aksiyadorlik sarmoyasi to'planishi koeffitsiyenti qaysi javobda to'g'ri aniqlangan?

- a) o'z mablag'larining manbalari / jami manbalar;
- b) jami manbalar (balans jami) / o'z mablag'larining manbalari;
- d) aksiyadorlik sarmoyasi / jami aktivlar summasi;
- e) jami aktivlar summasi / aksiyadorlik sarmoyasi;

5. Investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti qaysi javobda to'g'ri aniqlangan?

- a) jami aktivlar summasi / o'z mablag'lari manbalari + uzoq muddatli majburiyatlar;
- b) jami aktivlar summasi / o'z mablag'lari manbalari;
- d) joriy aktivlar summasi / o'z mablag'lari manbalari + uzoq muddatli majburiyatlar;;
- e) o'z mablag'lari manbalari + uzoq muddatli majburiyatlar / jami aktivlar summasi.

6. Aksiya rentabelligi deb nimaga aytiladi?

- a) aksiya rentabelligi – dividendning aksiyaning bozor qiymatiga nisbati;

b) aksiya rentabelligi – aksiyaning bozor qiymatini dividendga nisbati;

d) aksiya rentabelligi – dividendning aksiyaning nominal qiymatiga nisbati;

e) aksiya rentabelligi – dividendning bitta aksiya sof foydasiga nisbati.

7. Dividend daromadi tushunchasi qaysi javobda to‘g‘ri aks ettirilgan?

a) dividend daromadi – dividendning bitta aksiyaning bozor qiymatiga nisbati;

b) dividend daromadi – aksiyaning bozor qiymatini dividendga nisbati;

d) dividend daromadi – dividendning aksiyaning nominal qiymatiga nisbati;

e) dividend daromadi – dividendning bitta aksiya sof foydasiga nisbati.

8. Korxonada moliyaviy salohiyati holatini ifodalovchi ko‘rsatkichlar qaysi javobda to‘liq berilgan?

a) o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar; chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar;

b) o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, ya‘ni o‘z mablag‘ining to‘planish koeffitsiyenti, umumiy qaramlik koeffitsiyenti, o‘z mablag‘ining qisqa muddatli qarzlarga qaramlik koeffitsiyenti, o‘z mablag‘larining uzoq muddatli qarzlarga qaramlik koeffitsiyenti; chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, ya‘ni chetdan jalb qilingan mablag‘larning to‘planish koeffitsiyenti, qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘lar kontsentratsiyasi, qisqa muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘ning zaxira va xarajatlardagi tarkibi, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning asosiy vositalardagi hissasi;

d) o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, ya‘ni o‘z mablag‘ining to‘planish koeffitsiyenti, umumiy qaramlik koeffitsiyenti, o‘z mablag‘ining qisqa muddatli qarzlarga qaramlik koeffitsiyenti; chetdan jalb qilingan mablag‘lar bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar, ya‘ni chetdan jalb qilingan mablag‘larning to‘planish koeffitsiyenti, uzoq muddatli chetdan jalb qilingan mablag‘larning asosiy vositalardagi hissasi;

e) o‘z mablag‘lari bilan bog‘liq ko‘rsatkichlar.

XVI BOB. XO‘JALIK YURITUVCHI SUBYEKTNING TASHQI IQTISODIY FAOLIYATI TAHLILI

16.1. Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yishning iqtisodiy va huquqiy negizlari va uni O‘zbekiston Respublikasida rivojlantirish istiqbollari

Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish va rivojlantirish iqtisodiy harakatda asosiy yo‘nalishlardan biri sifatida olinadi. Negaki, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug‘ullanish va jahon bozorining aktiv ishtirokchisiga aylanish korxonalar faoliyatining muhim va samarali yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish va uning rivojlanish istiqbollarini belgilashga davlat dasturini tuzib chiqishda va bu borada iqtisodiy va huquqiy negizlarni belgilashga muhim ahamiyat qaratiladi.

Mamlakatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishni tashqi iqtisodiy faoliyatsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu esa, o‘z navbatida faoliyatning turli sohalarida xorij bilan aloqada va hamkorlikda bo‘lishni, mahsulot, ish va xizmatlar bo‘yicha jahon bozori arenasiga chiqish va unda muqim o‘rin egallashning imkon shartlarini belgilab olishni ham talab etadi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya‘ni 11,6 foizga o‘sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo‘lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

2012-yilda mamlakatimizning yuqori sur‘atlar bilan barqaror o‘sishini ta’kidlar ekanmiz, buning boisi va omilini avvalambor iqtisodiyotimizga yo‘naltirilgan kapital mablag‘lar, investitsiyalar tobora o‘sib borayotganida, bu ko‘rsatkich yalpi ichki mahsulotga nisbatan 22,9 foizni tashkil etganida, deb hisoblashimiz zarur.

2012-yilda iqtisodiyotimizga 11 milliard 700 million dollar miqdorida ichki va xorijiy investitsiyalar jalb etildi yoki bu boradagi ko‘rsatkich 2011 yilga nisbatan 14 foizga o‘sdi. Jami investitsiyalarning

22 foizdan yoki 2 milliard 500 million dollardan ortig'ini xorijiy investitsiyalar tashkil etdi, ularning 79 foizdan ko'prog'i to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardir.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, jami investitsiyalarning qariyb 74 foizi ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilashga qaratilgan dastur va loyihalarni amalga oshirishga yo'naltirildi.

Hozirgi kunda respublikamizda xorij bilan iqtisodiy aloqalarning rivojini va istiqbolini ijobiy baholash mumkin. Mustaqillik yillarida turli mulk shaklidagi 3500 dan ortiq qo'shma va hamkorlikdagi korxonalar tashkil etildi. Bugungi kunda ularning 2000 dan ortig'i faol ish olib bormoqda.

Ushbu korxonalar asosan respublikaning ichki iste'moliga qaratilgan. Lekin iqtisodiy imkoniyatlarning va huquqiy mezonlarning imkon shartlaridan to'la foydalana olmayotganimiz yo'q. Negaki, tashkil etilgan va ro'yxatga olingan mavjud 3500 dan ortiq qo'shma korxonalarining 40 foizidan ortig'i hali to'la ishga tushirilganicha yo'q yoki amalda umuman faoliyat olib bormayapti. Ularning ayrimlari qayta rasmiylashtirish va faoliyat shaklini o'zgartirish harakatida bo'lsa, ayrimlari hali o'z faoliyatlarini yo'lga qo'ya olganlari yo'q.

Respublikamiz tashqi iqtisodiy faoliyatini yo'lga qo'yish yuzasidan to'la iqtisodiy asosga ega. Lekin bu iqtisodiy asosda maqsadli va kelajakni ko'zlab foydalana olmayotganimiz yo'q. Negaki, respublikamizda tashkil etilayotgan asosiy qo'shma korxonalarni to'la quvvat darajasida ishlata olmayapmiz.

Avvalo, iqtisodiy imkoniyatlar, deganda qo'shma va hamkorlikdagi faoliyatni yo'lga qo'yishning moliyaviy, moddiy va mehnat resurslariga to'la egalik, moliyaviy imkoniyat, respublika har qanday foydali va maqsadli loyiha uchun mablag'lar topa olishi (shu jumladan, korxonalar ham) tushuniladi. Ular faoliyatini yo'lga qo'yishda avvalo, davlat bosh hamkor va kafolat subyekti sifatida maydonga chiqadi. Respublikamizga manfaati tegadigan har qanday maqsadli loyiha biz uchun maqbul va foydali sanaladi. Shu jihatdan, biz chet ellik hamkorlarga tabiiy qazilmalarni, xomashyolarimizni qayta ishlashga, og'ir sanoatni rivojlantirishga birgalikda hamkorlik qilishga izn berdik.

Ma'lumki, Respublikamiz agrar-industrial mamlakat hisoblanadi. Unda bevosita sanoatda qayta ishlanadigan o'ta muhim va qimmatli mahsulotlar yaratiladi. Mustaqil respublikamiz oltin qazib olish bo'yicha dunyoda 5-o'rinda, paxta xomashyosi bo'yicha 3-o'rinda turadi. Paxta

bo'yicha yillik yalpi hosili 3.0 - 3.4 mln tonnani tashkil etadi. Bundan bevosita tola shaklida 1.2-1.5 mln tonna tola ajratiladi. Bugungi kunda qayta ishlangan paxta tolasining asosiy qismi chet elga sotilmoqda. Respublikani iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari paxtani xomashyo sifatida sotish emas, balki uni sekin-asta tayyor mahsulotlar sifatida sotishga o'tish shartlari belgilangan.

Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq bo'lgan qorako'l teri va pillaning sotilishida ham bevosita shu jihatlarni ko'rish mumkin. Yaratilgan asosiy mahsulot natural shaklda chet elga sotilmoqda. Uni qayta ishlash va jahon andozalaridagi mahsulotlarni ishlab chiqarish imkoni bo'lmayapti. Buning albatta obyektiv va subyektiv sabablarini sanab o'tish mumkin.

Respublikamiz zaminida mavjud bo'lgan tabiiy resurslar bo'yicha shuni ta'kidlash lozim. Mavjud alyuminiy zaxiralari, qimmatbaho toshlar va metallar zaxiralari, tabiiy gaz va ma'danli rudalarning mavjudligi ham bizni tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yishimizda moddiy, iqtisodiy asos sifatida olinishi mumkin.

Mehnat resurslari bo'yicha. Respublikamizda hozirda mehnat qilish layoqatiga ega bo'lgan 8 mln ga yaqin aholi mavjud. Ularning ham asosiy qismi qishloq xo'jaligida band. Mavjud mehnat resurslarining deyarli 60 foizga yaqini qishloq xo'jaligi va unga xizmat ko'rsatuvchi sohalarda band.

Mehnat resurslarining nisbiy ortiqchaligi nihoyatda yuqori. Bu esa ulardan samarali foydalanishga katta ta'sir o'tkazmoqda.

Mehnat resurslarining nisbiy ortiqchaligi shuni xarakterlaydiki, Respublikamizda xalq xo'jaligida keragidan ortiqcha bandlik mavjud.

Bu bandlik esa ularning sifatiga va qayta tiklanishiga faol ta'sir etmoqda.

Mavjud mehnat resurslarining ortiqchaligi esa ularga to'lanadigan mehnat haqining yoki ishchi kuchining bozor qiymatini nihoyatda tushirib yuborgan. Tashqi iqtisodiy faoliyatda esa mehnat resurslarining arzonligi muhim faktor sifatida olinadi.

Huquqiy negizlar bo'yicha ham albatta, ibratli ishlar amalga oshirildi va amalga oshirilmoqda. Jumladan, Respublika Oliy Majlisi tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyat bilan bog'liq bo'lgan qator huquqiy aktlar qabul qilingan. Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risidagi qonunning qabul qilinishi va uning xalqaro huquqiy normalarga mosligini alohida ta'kidlash lozim. Ushbu qonunda korxonalarining tashqi iqtisodiy

faoliyat bilan shugʻullanish shartlari, holati va tartibi belgilangan. Shu bilan birga, har bir korxonaga albatta mustaqil tashqi iqtisodiy faoliyat bilan qonun chegarasida shugʻullanishi mumkin.

Respublikamiz hukumati tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatni ragʻbatlantirish va rivojlantirish maqsadida belgilangan chora-tadbirlar maqsadi ham, avvalo respublikamizning tashqi savdo aylanmasini yaxshilashga, unda ijobiy saldogga erishishga qaratilgan.

Respublikamiz Prezidenti tomonidan tashqi faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari boʻyicha farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlarining maqsadi ham shunga qaratilgan. Shuningdek, soliq qonunchiligi boʻyicha ham tashqi iqtisodiy faoliyatdan olingan daromadlarga imtiyozli soliq stavkalarini qoʻllash, mahsulotlarning nazoratdagi qatorlari boʻyicha imtiyoz shartlari va koʻplab imtiyozlarning belgilanishi ham tashqi iqtisodiy faoliyatni yoʻlga qoʻyishda qoʻl kelmoqda.

Respublika tashqi iqtisodiy faoliyatini yoʻlga qoʻyishning bosh shartlaridan biri sifatida bevosita mamlakatimizdagi osoyishtalikni ham olishimiz mumkin.

Albatta, tashqi iqtisodiy faoliyatda boʻlish va hamkorlikni yoʻlga qoʻyish tavakkalchilik hissi bilan emas, balki oldindan puxta oʻylangan holda amalga oshiriladi. Bu borada albatta, xalqaro biznes tili boʻlgan buxgalteriya hisobi maʼlumotlariga alohida ahamiyat beriladi.

Buxgalteriya hisobi va hisoboti maʼlumotlarini faqat chuqur tahliliy yechimlar asosidagina oʻqish va oʻrganish mumkin. Shu jihatdan tashqi iqtisodiy harakatni belgilashda va yoʻlga qoʻyishda tahlil bizning asosiy amaliy qurolimiz sifatida qaraladi.

16.2. Xoʻjalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishning mazmuni va mohiyati

Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari va jahon bozorining aktiv ishtirokchisiga aylanishi uning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining muhim omili sifatida qaraladi. Chunki, mamlakatning rivojlangan, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan fan va ishlab chiqarish, mehnat taqsimoti yuzasidan iqtisodiy aloqalari bevosita tashqi iqtisodiy faoliyatni yuzaga keltiradi. Shu boisdan, tashqi iqtisodiy faoliyatni yoʻlga qoʻyish va uning rivojlanish istiqbollari belgilashga qaratilgan davlat dasturini tuzib chiqish hamda bu borada qator iqtisodiy, huquqiy negizlarni belgilash muhim hisoblanadi. Chunki, faoliyatning turli

sohalarida xorij bilan aloqada, hamkorlikda bo‘lish, mahsulot, ish va xizmatlar bo‘yicha jahon bozori arenasiga chiqish hamda unda muqim o‘rin egallashning shartlarini belgilab olishga imkoniyat yaratadi. Shu o‘rinda mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatining quyidagi shakllarini belgilash mumkin:

- Savdo (mahsulot, ish va xizmatlar realizatsiyasi).
- Qo‘shma tadbirkorlik va boshqalar.

Oxirgi yillarda mamlakatimizni rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar bilan iqtisodiy aloqalarini ijobiy baholash mumkin.

Mamlakat tashqi iqtisodiy faoliyatini yo‘lga qo‘yish yuzasidan to‘la iqtisodiy asosga ega. Lekin iqtisodiy asoslar maqsadli va kelajakni ko‘zlab foydalanilayotgani yo‘q. Chunki, mamlakatda tashkil etilgan ayrim qo‘shma korxonalar to‘la quvvatda ishlamayotganligi natijasida iqtisodiy, jumladan: moliyaviy, moddiy, mehnat resurslaridan foydalanish imkoniyatlari boy berilmoqda.

Bizning fikrimizcha, qo‘shma va hamkorlikdagi xo‘jalik yuritish subyektlari faoliyatni yo‘lga qo‘yishda mamlakat to‘la moliyaviy, moddiy va mehnat resurslariga ega. Respublika har qanday foydali va maqsadli loyihani moliyalashtirish imkoniyati mavjud.

Tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili iqtisodiy tahlilning muhim bo‘limi sifatida alohida o‘rganiladi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda tahlilni avvalo, boshqaruvning va harakatning muhim sharti sifatida o‘tkazamiz. Tahlil etish asosida korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyatini yo‘lga qo‘yishning tashkiliy shakllari, mahsulot ish va xizmatlar eksporti va importi o‘zgarishlari, uning o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarga, tovarlar eksporti va importining tuzilishiga, tovarlarni kredit shartlarida sotish va sotib olish, eksport va import operatsiyalaridan daromadlar va xarajatlar o‘zgarishiga baho berish, foyda o‘zgarishiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash, korxonada mavjud bo‘lgan ichki imkoniyatlar va ularni yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlarini belgilab berish, hamkorlikni yo‘lga qo‘yishning texnik loyihalarini tuzib chiqish va yo‘lga qo‘yish, korxonada tashqi iqtisodiy faoliyatiga qisqacha tashxis qo‘yish va sharhlar berish tashqi iqtisodiy faoliyat tahlili mazmunini tashkil etadi.

Taqqoslanuvchi muhim ko‘rsatkichlar sifatida albatta, umumlashgan holda quyidagi ikkita ko‘rsatkich olinadi.

1. Eksport hajmi.
2. Import hajmi.

Eksport operatsiyalari tahlili bo'yicha tashqi savdo aylanmasi orqali sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar hajmi va ularning rejaga yoki o'tgan yillarga nisbatan o'zgarishlariga baho beriladi. Muhim ahamiyat eksport hajmining tarkibiga qaratiladi.

Eksport hajmi va uning o'zgarishini omilli tahlil etish tahlilning muhim qatori sifatida qaraladi. Bunda eksport hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi miqdor va sifat omillari o'rganiladi.

Miqdor omil sifatida miqdoriy ifodaga ega bo'lgan ko'rsatkich olinadi. Sifat omili sifatida korxonaning muhim iqtisodiy samaradorligini xarakterlovchi ko'rsatkichlarning o'zgarishi olinadi.

Import operatsiyalari tahlilida import hajmi bo'yicha reja bajarilishi va dinamikasi, tarkibi, tuzilishi, import operatsiyalaridan daromadlar va xarajatlar, import operatsiyalari foydaliligi, import hajmiga ta'sir etuvchi omillar tahliliga baho beriladi.

Import hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida import qilingan tovarlar miqdoriy hajmining, hamda import qilingan tovarlar bahosining o'zgarishini kiritish mumkin.

Kreditga olingan tovarlar va ularning yalpi import hajmidagi salmog'iga baho berishga ham tahlilda muhim e'tibor beriladi.

16.3. Eksport operatsiyalarining tahlili

Eksport-import munosabatlarining yangi strategiyasi iqtisodiyotning tarkibiy qismidagi inqirozni yengib o'tish, iqtisodiy taraqqiyot va xalqaro mehnat taqsimotida, jahon savdosida yuqori sifatli mahsulotlar bilan ishtirok etish hamda bu munosabatlarni takomillashtirish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun:

Birinchidan, eksport salohiyatini tiklash, rivojlantirish va chetga chiqarilayotgan mahsulotlar tarkibini, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, xo'jalik yuritish subyektlarini texnik hamda texnologik yangilash asosida yaxshilash, shuningdek, ilmiy-texnikaviy bilimlar, mehnat resurslari hisobiga ham mamlakat iqtisodiyotining ustuvor sohalarini rivojlantirish zarur.

Ikkinchidan, importni ratsionallashtirish zarur. Chunki, import siyosati nafaqat aholining turmush tarzi va manfaatlarini ko'zlab, balki iqtisodiyotni yangilash va raqobatbardoshligini ta'minlashga xizmat qiladi. Import siyosatida imkon boricha tayyor transport vositalari va texnologik asbob-uskunalarni foydali qazilmalar qazish ishlari va qayta

ishlovchi sohalar uchun sotib olinishi kerak. Import samarasining oshirilishida mamlakat iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan mahsulotlar o'rnini bosuvchi va kam xarajat, jumladan, mahsulotlarni sotib olish va olib kelish uchun ketgan xarajatlarni e'tiborga olib, ishlab chiqarishni tashkil etish ham asosiy yo'nalishlardandir.

Uchinchidan, mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning jahon bozorlarida raqobatbardoshligini oshirish. Eksport potensialini kengaytirish va jahon xo'jaligiga kirishning integratsiyasida, yaratilayotgan mahsulotlarni iloji boricha sifatli, kam xarajatlar asosida, tashqi bozor shartlari hamda talablariga moslashtirish zarur. Bu, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini ichki va jahon andozalariga yaqinlashtirishni talab etadi.

To'rtinchidan, texnologiyani yangilash va kengaytirilgan ishlab chiqarish salohiyatini tashkil qilishga chet el investitsiyalarini jalb qilish kerak. Ma'lumki, chet el kreditlari uzoq muddatli va katta masshtabli investitsiyalarni ta'minlashning yagona manbasi hisoblanadi. Shu o'rinda, chet el sarmoyalarini siyosiy va iqtisodiy tavakkalchilikdan sug'urta qiluvchi institutlarning samarali faoliyatini ta'kidlash kerak. Shuning uchun mamlakatda chet el investitsiyasi uchun qulay shart-sharoitlar, aniq maqsad sari yo'naltirilgan qator vazifalar belgilangan.

Beshinchidan, mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash zarur.

Milliy xavfsizlikni tartibga solishning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1. Valuta nazorati.
2. Eksport va import nazorati.
3. Xomashyoning strategik turlarini olib chiqish.

Ushbu sohalarning o'ziga xos shakllari va tartibga solish uslublari mavjud. Albatta, yuqorida keltirilgan fikr-mulohazalarga, tahliliy qarashlarga hamda nazariy xulosalarga ustuvor yo'nalish sifatida e'tibor berish, shak-shubhasiz eksport-import munosabatlarni rivojlantirish uchun xizmat qiladi.

Eksport operatsiyalari tahlili orqali korxonaning tashqi iqtisodiy faoliyati va uning samaradorligi ko'rsatkichlariga iqtisodiy tashxis qo'yiladi. Bu bevosita tashqi savdo aylanmasi hajmini o'stirish va foydaliligini ta'minlashning mavjud ichki imkoniyatlarini o'rganishni ham o'z ichiga oladi.

Eksport operatsiyalari tarkibini o‘rganishda yalpi eksport hajmida alohida olingan tovarlar yoki tovarlar guruhining mutlaq va nisbiy darajalariga baho beriladi. Shuningdek, tashqi savdo faoliyati bo‘yicha sotilgan mahsulot, ish va xizmatlar turi bo‘yicha taqsimi, tashqi savdoning mamlakatlar bo‘yicha sotish hajmi, hududlar bo‘yicha taqsimiga (mustaqil davlatlar hamdo‘stligi, Yaqin Sharq mamlakatlari, Yevropa mamlakatlari va h.k.) baho beriladi.

Tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha reja-topshiriqlarning bajarilishiga ahamiyat beriladi. Shuningdek, tashqi savdo aylanmasi dinamik o‘zgarishlari e‘tiborga olinadi.

Tashqi savdo aylanmasi dinamikasi deganda, uning yillar bo‘yichi o‘zgarish darajalari tushuniladi. Tahlilda, shuningdek, eksport hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tarkibiga bevosita hisob-kitob qilinadigan, sotilgan tovarlar, ishlar va xizmat bahosining o‘zgarishi va fizik hajmining o‘zgarishlari kiritiladi.

133-jadval

Xo‘jalik yurituvchi subyekt tashqi savdo aylanma rejasining bajarilishi

Mahsulot turlari	Reja		Haqiqatda		Yalpi mahsulot		Reja bajarilishi %
	Miq-dori dona	Baho, so‘m	Miq-dori dona	Baho, so‘m	Reja ming so‘m	Xaq. ming so‘m	
A	100	5000	120	6000	50,0	72,0	144,0
B	80	3000	100	3500	24,0	35,0	145,8
Jami:	*	*	*	*	74,0	107,0	144,6

Korxonada eksport hajmi «A» mahsulot turi bo‘yicha +44, foizga, «B» mahsulot turi bo‘yicha +45,8 foizga oshirib bajarilgan. Ta’sir etuvchi omillar tahlilini ham yuqoridagi jadval ma’lumotlari asosida baholash mumkin. Korxonada tashqi savdo aylanmasi rejaga nisbatan «A» mahsulot turi bo‘yicha 22 ming so‘mga, «B» mahsulot turi bo‘yicha 11 ming so‘mga oshishi kuzatilgan. Bu o‘zgarishlar ta’sirini quyidagi bog‘lanishlar asosida aniqlash mumkin

«A» mahsulot turi bo‘yicha yalpi savdo hajmining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar ta’siri:

1. «A» mahsulot miqdorining o‘zgarishi hisobi
 $120 - 100 \cdot 5000 = +10,0$ ming so‘m.
2. «A» mahsulot bahosining o‘zgarishi hisobiga

$6000-5000 \cdot 120 = +12,0$ ming so‘m.

Har ikki omil yig‘indisi $= 10,0 + 12,0 = +22,0$ ming so‘m.

«B» mahsulot turi bo‘yicha mahsulot hajmining o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar:

1. «B» mahsulot miqdorining o‘zgarishi hisobi

$100-80 \cdot 3000 = +6,0$ ming so‘m.

2. «B» mahsulot bahosining o‘zgarishi hisobiga

$3500-300 \cdot 100 = 5,0$ ming so‘m.

Ikkala omil yig‘indisi $= +6,0 + 5,0 = 11,0$ ming so‘m.

Yuqoridagi bog‘lanishlarni jami mahsulot qatori bo‘yicha ham hisoblash mumkin.

Eksport operatsiyalari tahlilida korxonada tashqi iqtisodiy faoliyati bo‘yicha savdo aylanmasi yoki ish hajmi o‘zgarishlariga tarkibli va umumiy asosda baho beriladi.

16.4. Import operatsiyalari tahlili

Import operatsiyalari tahlilida import hajmining reja va o‘tgan yillarga nisbatan o‘zgarishlari va tarkibiga, shuningdek, hududlar va mamlakatlar bo‘yicha hajmiga baho beriladi.

Import hajmi bo‘yicha reja bajarilishi va dinamikasi mutlaq va nisbiy o‘zgarishlarda o‘rganiladi. Uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi va baholanadi.

Import hajmi bilan eksport hajmi orasidagi nisbat tahlilning muhim qatori hisoblanadi. Ular orasidagi nisbat balansi orqali mamlakat yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulotlari aniqlanadi. Ya’ni yalpi milliy mahsulot hajmini aniqlashda tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha mutlaq farqlanish qo‘shilgan, chegirilgan holda umumiy ko‘rsatkich aniqlanadi.

Tashqi savdo aylanmasida musbat farqlanishga ega bo‘lish shartlari shu asosda boshqariladi va belgilanadi. Bu jihat o‘zgarishlar ko‘proq makro darajadagi tahlilda o‘rganiladi va mamlakat iqtisodining istiqbol ko‘rsatkichlari dastaklarini tuzib chiqishda foydalaniladi.

Import hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarga tahlilda alohida ahamiyat beriladi. Quyidagi jadval ma’lumotlari asosida import hajmi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillarning tahlilini ko‘rib o‘tish mumkin.

Xo‘jalik subyektining import hajmi rejasi bajarilishi va uning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar tahlili

Ko‘rsatkichlar	Biznes reja bo‘yicha		Haqiqatda		Yalpi import hajmi		Reja bajarilishi, %
	Miqdor	Baho	Miqdor	Baho	Reja	Haq.	
A-mahsulot	50	2000	62	3000	100	186	186,0
B-mahsulot	40	1000	60	1500	40	90	225,0
Jami:	90		122		140	276	197,1

Korxonada import hajmi biznes rejaga nisbatan keskin oshgan. Jumladan, «A» mahsulot turi bo‘yicha o‘shish 86 % ni, «B» mahsulot turi bo‘yicha o‘shish esa 2,25 martani tashkil etgan. Korxonada bo‘yicha jami o‘shish 97,1 foizni tashkil etgan.

Import hajmining o‘zgarishida miqdor omil o‘zgarishi hisobiga yalpi import hajmi quyidagi o‘zgarishga ega bo‘lgan.

$$1. (62-50 \cdot 2000 + 60-40 \cdot 1000) = +24,0 + 20,0 = 44,0 \text{ ming so‘m.}$$

Import hajmining o‘zgarishi baho omilining ta’sirida yalpi import hajmi quyidagi o‘zgarishga ega bo‘lgan.

$$2. (3000-2000 \cdot 62 + 1500-1000 \cdot 60) = +62,0 + 30,0 = 92,0 \text{ ming so‘m}$$

$$\text{Har ikkala omil ta’sirida import hajmi o‘shishi quyidagicha bo‘lgan: } +44,0 + 92,0 = 136,0 \text{ ming so‘m.}$$

16.5. Eksport-import operatsiyalaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili

Eksport-import operatsiyalari bo‘yicha samaradorlik ko‘rsatkichlari sifatida eksport-import operatsiyalari bo‘yicha daromadlar va xarajatlarning nisbiy o‘zgarishlariga baho beriladi va ularning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganiladi.

Eksport-import operatsiyalaridan olinadigan foyda summasining oshishi birinchidan, korxonada iqtisodiy rivojiga ta’sir etsa, ikkinchi tamondan, mamlakat valuta rezervining shakllanishi va uning ortishiga imkon beradi. Korxonada valuta tushumlarining ortishi esa erkin iqtisodiy harakatda bo‘lish va chet el bilan aloqalarning rivojlanishida muhim moliyaviy tayanch bo‘ladi.

Eksport operatsiyalari tahlilida eksport hajmidan olingan natija va uning rentabelligiga muhim e'tibor beriladi. Buni quyidagi bog'lanishlar asosida aniqlashimiz mumkin.

135-jadval

Xo'jalik yurituvchi subyektning eksport operatsiyalaridan olingan foydasi va uning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillar tahlili

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
Mahsulot, ish va xizmatlar eksportidan olingan tushum, ming so'm hisobida	100000	120000	+20000
Eksport qilingan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi, ming so'm hisobida	85000	95000	+10000
Eksport hajmidan olingan foyda, ming so'mda	15000	25000	+10000
Rentabellik darajasi, %	15,0	20,8	+5,8

Korxonada eksport hajmidan olingan foyda summasi o'tgan yilga nisbatan 10000 ming so'mga ortgan. Bu o'zgarish bevosita eksport hajmining yoki olingan daromadlar summasining o'zgarishi hisobiga hamda eksport qilingan mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi hisobiga ro'y bergan. Buni quyidagi bog'lanishlar orqali topishimiz mumkin.

Agarda korxonada eksport operatsiyasidan o'tgan yil mahsulot, ish va xizmatlarni ishlab chiqarish tannarxida joriy davr tushumlariga yoki daromadlariga ega bo'la olganda korxonada qo'shimcha qancha foydaga ega bo'lishi mumkin edi.

Buni quyidagicha aniqlash mumkin, ya'ni mahsulot, ish va xizmatlar joriy davr eksportidan olingan daromad summasidan ularning o'tgan davr bo'yicha ishlab chiqarish tannarxi chegirilgan holda

$$120000 - 85000 = 35000 \text{ ming so'm.}$$

Demak, korxonada bu holatda qo'shimcha 35000 so'mlik foydaga ega bo'lgan bo'lar edi.

1. Eksport hajmining o'zgarishi hisobiga olingan foyda summasi:

$$35000 - 15000 = +20000 \text{ ming so'm.}$$

2. Eksport qilingan mahsulot, ish va xizmatlar ishlab chiqarish tannarxining o'zgarishi hisobiga o'zgarishi:

$$25000 - 35000 = -10000 \text{ ming so'm.}$$

Har ikkala omil ta'sirida eksport hajmidan olingan foyda summasi $= +20000 - 10000 = +10000$ ming so'm bo'lgan.

Korxonada mahsulot eksporti bo'yicha foydalilik, ya'ni rentabellik darajasi 5,8 foizga o'sgan. Bu o'zgarishni ham yuqoridagi bog'lanishda aniqlash mumkin.

Shartli rentabellik= $25000/100000*100=25\%$

1. Foyda summasining rentabellikka ta'siri:

$25,0-15=+10,0\%$

2. Tushum summasining rentabellikka ta'siri:

$20,8-25,0=-4,2\%$

Har ikkala omil ta'sirida eksport hajmi rentabelligi 5,8 % ga ortgan.

Mavzu bo'yicha tayanch iboralar:

- tashqi iqtisodiy faoliyat;
- eksport operatsiyalari tahlili;
- import operatsiyalari tahlili;
- eksport-import operatsiyalari samaradorligi;
- tashqi savdo aylanmasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Tashqi iqtisodiy faoliyat, deganda nimani tushunasiz?
2. Xo'jalik subyektlarining tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil qilishdan maqsad nima?
3. Tashqi iqtisodiy faoliyatni o'rganishda tahlilning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
4. Eksport operatsiyalari qanday tahlil etiladi?
5. Import operatsiyalari qanday tahlil etiladi?
6. Eksport-import operatsiyalarining samaradorligi qanday o'rganiladi?
7. Tashqi savdo aylanmasida ijobiy saldogga erishish uchun qanday ishlarni amalga oshirish kerak?
8. Eksport operatsiyalaridan olingan foyda va unga ta'sir etuvchi omillar qanday tahlil etiladi?

Mustaqil o'rganish uchun topshiriqlar:

1-topshiriq.

Quyidagi jadval ma'lumotlari asosida korxonaning eksport operatsiyalaridan olgan foydasini va ularning o'zgarishiga ta'sir etuvchi omillarni mustaqil ravishda aniqlang, tahlil eting va xulosa yozing.

Ko'rsatkichlar	O'tgan yili	Hisobot yili	Farqi (+,-)
Mahsulot, ish va xizmatlar eksportidan olingan tushum, ming so'm hisobida	258470	321954	?
Eksport qilingan mahsulot, ish va xizmatlar tannarxi, ming so'm hisobida	201861	248396	?
Eksport hajmidan olingan foyda, ming so'mda	?	?	?
Rentabellik darajasi, %	?	?	?

Eksport-import operatsiyalarini tahlil qilishning bugungi kundagi ahamiyatiga mustaqil fikr-mulohazalaringiz asosida baho bering.

Test savollari:

1. O'zbekiston Respublikasida bojlarining stavkalarini qaysi organ belgigaydi?

- a) adliya vazirligi;
- b) moliya vazirligi;
- d) soliq qo'mitasi;
- e) hisob palatasi;
- f) bojxona qo'mitasi.

2. Import shartnomalarini hisobga qo'yish va tashqi savdo operatsiyalarining bojxona monitoringini amalga oshirish tartibini belgilab beruvchi me'yoriy hujjat:

- a) import bojxona to'lovlarini hisoblash va undirish tartibi;
- b) import shartnomalarini hisobga qo'yish va ular to'lovini xo'jalik subyektlarining o'z mablag'lari hisobidan amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom;
- d) import kontraktlarini hisobga qo'yish va tashqi savdo operatsiyalarining bojxonamonitoringini amalga oshirish tartibi to'g'risida Nizom;
- e) o'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining savdo reyestrini yuritish tartibi to'g'risida Nizom;
- f) tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida.

3. O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, savdo va investitsiyalar vazirligi huzuridagi «O‘zbyektenderkonsalting» tenderlar o‘tkazuvchi agentlik nima maqsadda tashkil qilingan?

a) texnika-texnologiyaning asosiy turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan;

b) kiyim-kechakning asosiy turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan;

d) oziq-ovqat tovarlarining asosiy turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan;

e) qurol-yaroqning asosiy turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan;

f) ish va xizmatlarning asosiy turlarini davlat ehtiyojlari uchun xarid qilish samaradorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan.

4. Tashqi iqtisodiy faoliyatning asosiy yo‘nalishlariga kirmaydigan qatorni toping?

a) xalqaro iqtisodiy va moliyaviy hamkorlik;

b) tashqi savdo faoliyati;

d) chet el investitsiyalarini jalb qilish;

e) O‘zbekiston Respublikasidan tashqaridagi investitsiya faoliyati;

f) chet el bilan ijtimoiy-madaniy tadbirlarni yo‘lga qo‘yish.

5. Tashqi iqtisodiy aylanma quyidagi ko‘rsatkichlardan qaysi birini o‘z ichiga oladi?

a) eksport va davlatning tashqi qarzlarini;

b) import va davlatning tashqi qarzlarini;

d) eksport, import va davlatning tashqi qarzlarini;

e) eksport, import;

f) to‘g‘ri javob keltirilmagan.

6. Xorijdan mablag‘ jalb qilishning noto‘g‘ri ko‘rsatilgan qatorini belgilang.

a) davlat mulkini sotish;

b) chet el investitsiyalarini jalb qilish;

d) jahon kredit uyushmalaridan qarz olish;

e) rezident shaxslarga obligatsiya sotish;

f) hamma javob to‘g‘ri.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 1992. – 46-b.
2. O‘zbekiston Respublikasining «Yer kodeksi». – T.: 1998-yil. 30-aprel.
3. O‘zbekiston Respublikasining «Xususiy korxonalar to‘g‘risida»gi 2003-yil 11-dekabrda Qonuni // Soliq va bojxona xabarlarini, 2004-yil 10-fevral, 6-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining «Xo‘jalik jamiyatlari va qishloq xo‘jaligi kooperativlari (shirkatlari) to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi Qonuni, 1996-yil 26-aprel.
6. O‘zbekiston Respublikasining «Mulkchilik to‘g‘risida»gi Qonuni, 1990- yil 31-oktyabr.
7. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi: qonunlar va farmonlar. – T.: O‘zbekiston. 1992.-383-b.
8. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik to‘g‘risida»gi Qonuni, 1991- yil 15-fevral.
9. O‘zbekiston Respublikasining «Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.
10. O‘zbekiston Respublikasining «Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.
11. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitsiyalari to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.
12. O‘zbekiston Respublikasining «Chet el investitorlar huquqlarining kafolatlari va himoya qilish choralari to‘g‘risida»gi Qonuni, 1998-yil 30-aprel.
13. O‘zbekiston Respublikasining «Buxgateriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni, 1996-yil 30-avgust.
14. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2000-yil 26-may. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-yil., 5-6-son.
15. O‘zbekiston Respublikasining «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi Qonuni. 2000-yil 26-may. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2000-y., 5-6-son.
16. O‘zbekiston Respublikasining «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi 2000-yil 25-maydagi Qonuni. // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2000. 5-6-sonlari.

17. O‘zbekiston Respublikasining «Mas’liyati cheklangan hamda qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida»gi Qonuni, «Xalq so‘zi» gazetasi 2002-yil 1- mart.

18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Xususiy tadbirkorlikda tashabbus ko‘rsatish va uni rag‘batlantirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori, 1995-yil 14-fevral.

19. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Kichik va o‘rta tadbirkorlikni rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida»gi qarori, 1998-yil 27-may.

20. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «2000-yilda va 2001 yil davomida qishloq xo‘jalik korxonalarini sanatsiyalash yakunlari to‘g‘risida»gi qarori, 2000-yil 26-dekabr.

21. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Korxonalar iqtisodiy nochorligining belgilarini aniqlash uchun mezonlar tizimi» qarori, 1999 yil 26 iyul.

22. «Vazirliklar, idoralar va korxonalarining aylanma mablag‘lari normativlari to‘g‘risida». 1997-yil 25-fevraldagi 108-sonli Qarori. www.lex.uz

23. «Mahsulot (ish, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom, – Toshkent, 1999-yil 5-fevral. 54-sonli Qarori. www.norma.uz

24. «Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning xarajatlarini hisobga olish va moliyaviy natijalarini shakllantirish tartibini takomillashtirish to‘g‘risida». 2003-yil 15-oktyabr. 444-son. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2003-y., 19-son.

25. «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmonini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida». 2005-yil 2-avgust. 180-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 30-31-son; 2006-y., 28-29-son.

26. «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o‘rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2006-yil 5-yanvardagi PF-3706-son Farmonini amalga oshirish haqida». 2006-yil 11-yanvar. 4-son. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2006 y., 2-son; 2008-y., 33-son; 2010-y., 13-son, 23-son.

27. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining - Buxgalteriya hisobining milliy standartlari – 4-sonli «Tovar-moddiy zaxiralar» BHMS (yangi tahrirda)- 2006-yil 15-iyun. www.norma.uz

28. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Korxonalarni sog‘lomlashtirish hamda to‘lov qobiliyatligini tiklash bo‘yicha na‘munaviy moliyaviy reja», 1997-yil 31-mart.

29. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Vazirliklar, idoralar va korxonalar aylanma mablag‘larining normativlari to‘g‘risida»gi qarori, 1997-yil 25-fevral.

30. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishni yanada rag‘batlantirish chora - tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni, 1998-yil 9-aprel.

31. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi «To‘g‘ridan-to‘g‘ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PF-3594-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2005-y., 15-16-son.

32. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 1-iyundagi «2007-2011-yillardagi davrda qurilish materiallari sanoati xo‘jalik subyektlarini modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash Davlat dasturi to‘g‘risida»gi PF-646-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-y., 23-son.

33. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 28-noyabrdagi «Iqtisodiyotning real sektori xo‘jalik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash, ularni barqaror ish bilan ta‘minlash va eksport salohiyatini oshirish chora-tadbirlari dasturi to‘g‘risida»gi PF-4058-sonli Farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-y., 49-son.

34. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 19-iyundagi «Devorbop materiallar ishlab chiqarishni ko‘paytirishni rag‘batlantirish va sifatini yaxshilash borasidagi qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-1134-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2009- y., 6-son.

35. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalariga beriladigan qo‘shimcha rag‘batlantirish omillari va imtiyozlar to‘g‘risida»gi Farmoni, 1996-yil 30-noyabr.

36. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi «O‘zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlari va Davlat budjeti parametrlari to‘g‘risida»gi PQ-1449-sonli Qarori.

37. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining «Iqtisodiy nochor korxonalarda sanatsiya o‘tkazish davrida moliyaviy yordam ko‘rsatishning tartibi» yo‘riqnomasi, 1997-yil 20-iyul.

38. O‘zbekiston Respublikasi Hukumat komissiyasining «Korxonalarining bankrotligi hamda sog‘lomlashtirish masalalari bo‘yicha» yo‘riqnomasi, 1997-yil 17-aprel.

39. O‘zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligining «2001-yil 1-yanvar holati bo‘yicha asosiy fondlarni qayta baholashni o‘tkazish tartibiga o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida»gi nizom, 2000-yil.

40. O‘zbekiston Respublikasining «Auditorlik faoliyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 2000-yil 30-may.

41. «Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi to‘g‘risida»gi Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. 1999-yil 5-fevral.

42. Karimov I.A. «O‘zbekistonning siyosiy-iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari». – T.; O‘zbekiston 1995.

43. Karimov I.A. «O‘zbekiston: milliy istiqloq, iqtisod, siyosat, mafkura». – T.; O‘zbekiston 1996.

44. Karimov I.A. «O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida». – T.; O‘zbekiston 1996.

45. Karimov I.A. «O‘zbekiston buyuk kelajak sari». – T.; O‘zbekiston 1998.

46. Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari». – T.; O‘zbekiston 1997.

47. Karimov I.A. «O‘z kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan qurmoqdamiz». – T.; O‘zbekiston, 1999.

48. Karimov I.A. «O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda». – T.; O‘zbekiston, 1999.

49. Karimov I.A. «Iqtisodiyotni erkinlashtirish – farovonlik poydevori». – T.; «O‘zbekiston ovozi» gazetasi 22-iyul 2000-yil.

50. Karimov I.A. «Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz». – T.; O‘zbekiston, 2000.

51. Karimov I.A. «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak». – T.; O‘zbekiston. 2002.

52. Karimov I.A. «Biz tanlagan yo‘l – demokratik taraqqiyot va ma‘rifiy dunyo bilan hamkorlik yo‘li». – T.; O‘zbekiston, 2003.

53. Karimov I.A. «Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak». – T.; O‘zbekiston, 2002.

54. Karimov I.A. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiya va isloh etishdir. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 96 b.

55. Karimov I.A. Bank tizimi, pul muomalasi, kredit, investitsiya va moliyaviy barqarorlik to‘g‘risida. – T.: O‘zbekiston, 2005. – 528 b.

56. Karimov I.A. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 200 b.

57. Karimov I.A. Jamiyatimizni erkinlashtirish, islohotlarni chuqurlashtirish, ma’naviyatimizni yuksaltirish va xalqimizning hayot darajasini oshirish barcha ishlarimizning mezoni va maqsadidir. – T.: O‘zbekiston, 2007. – 320 b.

58. Karimov I.A. Mamlakatni modernizatsiya qilish va iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish yo‘lida. – T.: O‘zbekiston, 2008. – T.16. – 365 b.

59. Karimov I.A. «Yuksak ma’naviyat – engilmas kuch». – T.: «Ma’naviyat». 2008 y.

60. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari. – T.: O‘zbekiston, 2009. – 56 b.

61. Karimov I.A. 2012 yil – Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. – T.: O‘zbekiston, 2012. – 36 b.

62. Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа. М.: Финансы и статистика. 1998.

63. Басовский Л.Е., Басовкая Е.Н. и др. Комплексный экономический анализ хозяйственной деятельности: Учебное пособие. М.: ИНФРА-М, 2009. 366 с.

64. Бернстаин А.А. Анализ финансовой отчетности. М.: Финансы и статистика. 1999.

65. Abdukarimov I.T. «Moliyaviy hisobotni o‘qish va tahlil qilish yo‘llari». – T.; «Iqtisodiyot va huquq dunyosi». 1999 yil.

66. Abdullayev Yo.A., Ibragimov A.T., Raximov M.Yu. «Iqtisodiy tahlil: 100 savol va javob». – T.; «Mehnat», 2001.

67. Vohobov A. V., Ibragimov A. – T. «Moliyaviy tahlil», – T.; «Sharq» 2002.

68. Vahobov A.V., Ibragimov A.T., Yakubov U.Q. «Boshqa tarmoqlarda iqtisodiy tahlil xususiyatlari». – T.; 2004.

69. Ibragimov A.T., Raximov M.Yu. «Boshqaruv tahlili». – T.; 2004.

70. Axmadjonov X.I., Raximov M.Yu. «Moliyaviy tahlil». – T.; 2004.

71. Vahobov A.V. va boshqalar. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». – T.; 2003.

72. Hakimov B.J. va boshqalar. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». – T.; «Iqtisod-moliya» nashriyoti, 2012-y.

73. Pardayev M.Q., Abdukarimov I.T. «Iqtisodiy tahlil». – T.; «Mehnat», 2004.

74. Анализ прибыльности продукции. М.: Дело. 1996.

75. Артеменко В.Г., Беландир М.В. «Финансовый анализ». Учебное пособие. М.: НГАЕИУ, 1997.

76. Астахов В.П. Анализ финансовой устойчивости фирмы (процедуры связанные с банкротством). М.: Финансы и статистика, 1996.
77. Анализ финансовой отчетности предприятий при их инвестировании и кредитовании. М.: 2000.
78. Баканов М.И., Шеремет А.Д. Теория экономического анализа». М.: Финансы и статистика, 1999.
79. Бариленко В.И. Учет, анализ и аудит внешнеэкономической деятельности: Учебное пособие. М.: ИНФРА - М, 2009. 458 с.
80. Бернштейн А.А. Анализ финансовой отчетности. М.: Финансы и статистика, 1996.
81. Бочарев В.В. Управление денежным оборотом предприятий и корпораций. М.: Финансы и статистика, 2001.
82. Бочарев В.В. Финансовый анализ. Санкт-Петербург: Питер, 2001.
83. Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari. – Toshkent 1994.
84. Бухгалтерский анализ. Перевод с английского. Киев, 1998.
85. Вахрин П.И. Финансовый анализ коммерческих и некоммерческих организаций. Учебное пособие. М.: Издательство – книготорговый центр маркетинга, 2001.
86. Ваҳобов А.В., Иброҳимов А.Т, Ишонкулов Н.Ф. Молиявий ва бошқарув таҳлили. – Тошкент.: Шарқ, 2005. 480 б.
87. Григорев Ю.А. Учет, анализ и контроль внешнеэкономической деятельности и валютных операции. М.: ПАИМС, 1998.
88. Ефимова О.В. О составлении пояснительной записки к годовому отчету. Бухгалтерский учет, №1. 1997.
89. Ефимова О.В. Финансовый анализ». М.: Бухгалтерский учет, 1996.
90. Ergeshev E. «Iqtisodiy va moliyaviy tahlil». Т.; «Moliya» 2000.
91. Ibrohimov A.T. «Moliyaviy tahlil». Т.; «Mehnat» 1995.
92. Ирвин Д. Финансовый контроль. М.: Финансы и статистика, 1998.
93. Ковалев В.В. Финансовый анализ. Управление капиталом. Выбор инвестиции. Анализ отчетности». М.: Финансы и статистика, 1995.
94. Ковалев В.В. Методы оценки инвестиционных проектов. М.: Финансы и статистика, 2001.
95. Национальные стандарты бухгалтерского учета Республики Узбекистан. Ташкент: «Ассоциация бухгалтеров и аудиторов Узбекистана, 2002.
96. Ochilov I.K., Qurbonboev J.E. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent.: «IQTISOD -MOLIYA», 2007. – 488 b.

97. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. «Moliyaviy tahlil». – T.; «Iqtisodiyot va huquq dunyosi», 1999.
98. Pardayev M.Q. «Iqtisodiy tahlil nazariyasi». Samarqand; «Zarafshon» 2001.
99. Павлова Л.Н. Финансовый менеджмент. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2001.
100. То‘laxodjayeva M.M. «Moliyaviy hisobotni va moliyaviy koeffitsiyentlarni tahlil qilish». – T.; 1996.
101. Терехова В.А. Международные и национальные стандарты бухгалтерского учета и отчетности. М.: Перспектива, 2000.
102. Роберт Н. Холт. Основы финансового менеджмента. Перевод с английского. М.: 1995.
103. Рожнова О.В. Финансовый учет: Теоретические основы, методологический аппарат. М.: Экзамен, 2001.
104. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Учебник. 3-е изд., испр. и доп. М.: ИНФРА – М, 2006. – 330 с.
105. Савицкая Г.В. Анализ хозяйственной деятельности предприятия: Учебник. – 5-е изд., перераб. и доп. М.: ИНФРА – М, 2009. 536 с.
106. Сорокина О.Н. Сравнительный анализ в основные приемы трансформации финансовой отчетности в соответствии с международными стандартами. М.: УМЦ, 2001.
107. Rahmonov O‘.R. «Qishloq xo‘jalik korxonalarini faoliyatini tahlil qilish». – T.; 1996.
108. «Финансовая отчетность. Реальная картина состояния бизнеса». М.: Дело, 1996.
109. Финансовый анализ деятельности фирмы. М.: Сервис, 1996.
110. Фридман Дж., Ордуеи Ник. Анализ и оценка приносящей доход недвижимости. М.: Дело, 1997.
111. Харигери Ч., Фостгер Г. Бухгалтерский учет: Управленческий аспект. М.: Финансы и статистика, 1995.
112. Холдервик К. Финансово-экономический анализ деятельности предприятия. М.: Финансы и статистика, 1996.
113. Черкасов В.Е. Практическое руководство по финансово – экономическим расчетам. М.: Метаинформ, 1995.
114. Шеремет А.Д., Суиц В.П. «Аудит». М.: «ИНФРА» 1996.
115. Шеремет А.Д. Комплексный анализ хозяйственной деятельности: Учебное пособие. М.: РИОР, 2007. 255 с.
116. Шагиясов Т.Ш., Сагдиллаева З.А., Файзиев Б.В. Финансовый и управленческий анализ. Учебник. – Т.: Иктисод -Молия, 2008. 352 с.
117. Шагиясов Т.Ш. Финансовый анализ. – Т.: ТФИ, 2008. 116 с.

118. Shog'iyosov – T.Sh. «Kompleks iqtisodiy tahlil». – T.: «Iqtisod - moliya» nashriyoti, 2009-y.
119. O'razov K.B. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida buxgalteriya hisobining konseptual masalalari. – T.: «Fan», 2005. – 236-b.
120. Qurbanov Z.N. Soliq hisobi va auditining metodologik muammolari. Monografiya. – Toshkent.: «Fan va texnologiya», 2008. – 156 b.
121. G'ulomov S.S. «Investitsiyalarning loyihaviy tahlili». – T.; 1998.
122. Robert D. Gatewood, Robert R. – Taylor O.C. Ferrell Management / Comperhension, Analysis, and Application/ IRWIN, 1995
123. Joel G. Siegel, Jae K. SHim, David Minars Financial trouble – SHOOTER spotting & solving financial problems in your company Mc Graw - Hill, Inc. 1993
124. David C. Colander. Economics IRWIN, 1993
125. Donald H. Ph. G. William Glezen. Auditing: Integrated Concepts and Procedures sixth Edition. John Wiley & Sons, Inc., 1994
126. Payl Peter, James H. Donnely. Marketing, Management. Knowledge and Skills. IRWIN 1995
127. Operations Managtmtnt. Richard I. Sehonberger, Edward M. Knood. IRWIN, 1994
128. George J. Posner. Analyzing the Curriculum. Mc Graw - Hill, Ink 1992
129. Larson, Miller. Financial accountign. IRWIN, 1992. Introduction to Accounting: An Integrated Approach. P. Ainsworth, D. Danies, R. D. Plumlee.

MUNDARIJA

Kirish	3
---------------------	----------

I BO‘LIM. IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

I bob. Iqtisodiy tahlilning mazmuni, predmeti va vazifalari	7
1.1. Iqtisodiy tahlil fanining shakllanishi va rivojlanish tarixi.....	7
1.2. O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiy tahlilning tashkil topishi va rivojlanishi.....	15
1.3. Iqtisodiy tahlil fanining mazmuni.....	27
1.4. Iqtisodiy tahlil fanining predmeti haqida tushuncha	32
1.5. Iqtisodiy tahlil fanining asosiy vazifalari.....	36
1.6. Iqtisodiy tahlilning asosiy tamoyillari.....	38
1.7. Fanlar sistemasida tahlilning tutgan o‘rni.....	39
II bob. Iqtisodiy tahlilning metodi va unda qo‘llaniladigan usullar	47
2.1. Raqobatdosh iqtisodiyotda iqtisodiy tahlilning metodi va uning o‘ziga xos muhim xususiyatlari.....	47
2.2. Iqtisodiy tahlil metodologiyasi haqida tushuncha va uning asosiy elementlari tavsifi.....	50
2.3. Iqtisodiy tahlilda qo‘llaniladigan usullar va ularni guruhlariga ajratish.....	57
2.4. Iqtisodiy tahlilda taqqoslash usuli.....	59
2.5. Ko‘rsatkichlarni taqqoslama ko‘rinishga keltirish usullari.....	67
2.6. Mutlaq va nisbiy ko‘rsatkichlarni hisoblash usuli.....	72
2.7. Iqtisodiy tahlilda o‘rtacha miqdorlardan foydalanish.....	74
2.8. Guruhlashtirish usuli.....	76
2.9. Iqtisodiy tahlilda balans usuli.....	78
2.10. Iqtisodiy tahlilda grafik usuldan foydalanish.....	79
2.11. Zanjirli bog‘lanish usuli.....	81
2.12. Mutlaq farqlar usuli.....	84
III bob. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish va uning axborot manbalari	89
3.1. Iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil etish zaruriyati.....	89
3.2. Iqtisodiy tahlilni tashkil etish va o‘tkazish bosqichlari.....	92
3.3. Iqtisodiy tahlil jarayonida foydalaniladigan axborot manbalari..	94
3.4. Tahlilda foydalaniladigan axborot manbalarining to‘g‘riligini tekshirish usullari.....	97
3.5. Iqtisodiy tahlilning turlari va ularning tasniflanishi.....	101

II BO‘LIM. BOSHQARUV TAHLILI

IV bob.	Korxonada mahsulot va xizmatga bo‘lgan talab va taklifning tahlili.....	117
4.1.	Korxonada mahsulot va xizmatga bo‘lgan talab va taklifni o‘rganishning ahamiyati va tahlilning vazifalari.....	117
4.2.	Talab va taklifni ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi.....	121
4.3.	Korxonada mahsulot va xizmatga bo‘lgan talab darajasini aniqlovchi omillar tahlili.....	126
4.4.	Raqobat darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar va ularni aniqlovchi omillar tahlili.....	131
V bob.	Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmining tahlili.....	140
5.1.	Xo‘jalik subyektlarining mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish hamda sotish jarayonlarini tahlil etishning ahamiyati va vazifalari.....	140
5.2.	Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmlari bo‘yicha belgilangan biznes-rejalarning bajarilishi tahlili.....	146
5.3.	Mahsulot nomenklaturasi va assortimenti tahlili.....	166
5.4.	Tovarlar tarkibidagi strukturaviy o‘zgarishlarning mahsulot hajmiga ta’siri tahlili.....	169
5.5.	Mahsulot ishlab chiqarish maromiyligi tahlili.....	173
5.6.	Mahsulot sifati tahlili.....	176
5.7.	Mahsulotlarni sotish bo‘yicha shartnoma majburiyatlarining bajarilishi tahlili.....	180
5.8.	Mahsulot (ish, xizmat)larning buzilishi va yo‘qotishlar tahlili.....	182
5.9.	Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish va sotish hajmiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	183
VI bob.	Mehnat resurslari bilan ta’minlanganlik, mehnat unumdorligi va ularning mahsulot hajmiga ta’sirini tahlili..	199
6.1.	Korxonada mehnat resurslarini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	199
6.2.	Korxonaning mehnat resurslari bilan ta’minlanishi tahlili.....	203
6.3.	Ish kuchi qo‘nimsizligi va ishchilarning malaka darajasi tahlili.....	207
6.4.	Ishchilarni ish vaqtidan foydalanishi tahlili va uning o‘zgarish sabablari.....	210
6.5.	Mehnat unumdorligi dinamikasi tahlili.....	212
6.6.	Sanoat ishlab chiqarish xodimlari mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili.....	216
6.7.	Ishchining mehnat unumdorligiga ta’sir etuvchi omillar tahlili...	218
6.8.	Mahsulot mehnat sig‘imi tahlili.....	221
6.9.	Mahsulot hajmiga ta’sir etuvchi mehnat omillari tahlili.....	223

VII bob.	Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan samarali foydalanishning tahlili	234
7.1.	Xo'jalik subyektlarining moddiy resurslar bilan ta'minlanganligini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	234
7.2.	Moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi.....	237
7.3.	Korxonaning moddiy-texnika ta'minoti rejasining bajarilishi tahlili.....	240
7.4.	Korxonaning moddiy resurslar bilan ta'minlanganligi tahlili.....	244
7.5.	Material resurslardan foydalanish samaradorligi va ularni ishlab chiqarish hajmiga ta'siri tahlili.....	247
VIII bob.	Mahsulot (ish, xizmat)lar ishlab chiqarish xarajatlarining tahlili	256
8.1.	Ishlab chiqarishni tashkil etishning nazariy va uslubiy jihatlari..	256
8.2.	Ishlab chiqarish xarajatlari va mahsulot tannarxini pasaytirishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	258
8.3.	Xarajatlarni turkumlash: ishlab chiqarish va noishlab chiqarish xarajatlari, «o'zgaruvchan» va «o'zgarmas» xarajatlar.....	262
8.4.	Bir so'mlik tovar mahsuloti uchun qilingan xarajatlar tahlili.....	267
8.5.	Ishlab chiqarish xarajatlarining iqtisodiy elementi va kalkulyatsion moddalari bo'yicha tahlili.....	270
8.6.	Ishlab chiqarishdagi mehnatga haq to'lash xarajatlarining tahlili.....	273
8.7.	Ishchilarning ish haqi fondiga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	275
8.8.	Material xarajatlariga «sarf me'yori» va «material bahosi» o'zgarishi ta'sirining tahlili.....	277
8.9.	Mahsulot turlari bo'yicha tannarxning tahlili va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	280
8.10.	Mahsulot tannarxini pasaytirish rezervlarini aniqlash usuli.....	281

III BO'LIM. MOLIVAVIY TAHLIL

IX bob.	Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy holati tahlili	295
9.1.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy holatini o'rganishning ahamiyati, tahlilning maqsadi, vazifalari va axborot manbalari.....	295
9.2.	Buxgalteriya balansining tarkibi va tuzilishi.....	303
9.3.	Mol – mulk tarkibining tahlili.....	318
9.4.	Mablag'lar manbayi tahlili.....	320
9.5.	Aylanma mablag'larni qoplashga o'zlik manbalarining yetarliligi yoki yetishmasligi tahlili.....	325
9.6.	Moliyaviy barqarorlik tahlili.....	327

9.7.	Moliyaviy koeffitsiyentlar tahlili.....	335
9.8.	Korxonaning to'lov qobiliyati tahlili.....	337
9.9.	Mol-mulk va mablag'lar harakatchanligi tahlili.....	344
9.10.	Aylanma mablag'larning aylanishini tahlili.....	348
X bob.	Xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy natijalari tahlili.....	361
10.1.	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy natijalarini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	361
10.2.	Moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotning asosiy ko'rsatkichlari, ular bilan shug'ullanuvchilarning iqtisodiy manfaatlari.....	365
10.3.	Moliyaviy natijalarning shakllanishi va ularning turlari.....	372
10.4.	Mahsulot (ish, xizmat)larni sotishdan olingan moliyaviy natija va unga ta'sir etuvchi omillar tahlili.....	375
10.5.	Davr xarajatlari tahlili.....	381
10.6.	Asosiy faoliyatning boshqa jarayonlaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili.....	382
10.7.	Operatsion jarayonlardan olingan daromadlar va yo'qotishlar tahlili.....	383
10.8.	Moliyaviy faoliyatdan olingan daromad va yo'qotishlar tahlili.....	388
10.9.	Favquloddagi foyda va zararlar tahlili.....	391
10.10.	Korxonada hisob foydasi (soliq to'loviga qadar foyda) tahlili.....	391
10.11.	Sof foyda va uning o'zgarishining omilli tahlili.....	392
10.12.	Rentabellik va uning ko'rsatkichlar tizimi.....	394
XI bob.	Debitorlik va kreditorlik qarzlari tahlili.....	413
11.1.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning debitorlik va kreditorlik qarzlarni o'rganishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	413
11.2.	Buxgalteriya balansida bo'yicha debitorlik va kreditorlik qarzlarning vujudga kelish sabablari.....	416
11.3.	Debitorlik va kreditorlik qarzlari balansini tuzish. Muddati uzaytirilgan qarzlarning vujudga kelish sabablari.....	417
11.4.	Debitorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va vujudga kelish muddati hamda uning aylanuvchanligi tahlili.....	421
11.5.	Kreditorlik qarzlarning umumiy hajmi, tarkibi va tashkil topish muddati hamda aylanuvchanligi tahlili.....	425
11.6.	Debitorlik va kreditorlik qarzlarni kamaytirish yo'llari.....	429
XII bob.	Asosiy vositalar holati va ulardan foydalanish tahlili.....	437
12.1.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	437

12.2.	Asosiy vosita (fond)larning tarkibi, tuzilishi va dinamikasi tahlili, ularning aktiv va passiv qismlari nisbati.....	441
12.3.	Tezlashgan amortizatsiya ajratmalari va ularning fond qaytimiga ta'siri tahlili.....	450
12.4.	Asosiy vositalarning texnik holati tahlili.....	455
12.5.	Asosiy fondlarning yangilanish dinamikasi va mehnatning fond bilan qurollanishi tahlili.....	456
12.6.	Fond qaytimi dinamikasi va unga tashkiliy-texnik omillar ta'siri tahlili.....	462
12.7.	Ishlab chiqarish jihozlarining vaqti va quvvati bo'yicha foydalanish tahlili.....	467
12.8.	Fond qaytimini oshirish imkoniyatlari.....	469
XIII bob.	Xo'jalik yurituvchi subyektning pul oqimlari tahlili.....	477
13.1.	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning pul mablag'lari harakatini tahlil etishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	477
13.2.	Umumiy pul oqimlari tahlili.....	488
13.3.	Xo'jalik subyektlarining asosiy faoliyatidagi pul oqimlari tahlili.....	490
13.4.	Investitsiya, moliyaviy va soliq to'lashlardagi pul oqimlari tahlili.....	494
13.5.	Moliyaviy faoliyatdagi pul mablag'lari harakati tahlili.....	495
13.6.	Valuta mablag'lari harakati tahlili.....	501
13.7.	Hozirgi qiymatga keltirilgan kelajakda kutilayotgan sof pul oqimlari usuli va uning tahlili.....	503
13.8.	Pul oqimlarini prognozlash.....	505
XIV bob.	Xo'jalik yurituvchi subyektning xususiy kapitali tahlili.....	516
14.1.	Xo'jalik yurituvchi subyektlar xususiy kapitalini tahlil qilishning ahamiyati, tahlil vazifalari va axborot manbalari.....	516
14.2.	Xususiy kapital tarkibi, o'zgarishi va dinamikasi tahlili.....	519
14.3.	Xususiy kapital va uning samaradorligini baholash.....	526
14.4.	Xususiy kapitalni ko'paytirish omillarini aniqlash.....	533
XV bob.	Xo'jalik yurituvchi subyektning investitsion faoliyati tahlili.....	539
15.1.	Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida investitsiya faoliyati, uning turlari va asosiy yo'nalishlari.....	539
15.2.	Investitsiya resurslarini shakllantirish siyosatini ishlab chiqish..	548
15.3.	Investitsiyani baholash usullari.....	550
15.4.	Ishlab chiqarish investitsiyasi tahlili.....	558
15.5.	Moliyaviy investitsiyalar tahlili.....	561
XVI bob.	Xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi iqtisodiy faoliyati tahlili.....	571
16.1.	Tashqi iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yishning iqtisodiy va huquqiy negizlari va uni O'zbekiston Respublikasida rivojlantirish istiqbollari.....	571

16.2. Xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tashqi iqtisodiy faoliyatini tahlil etishning mazmuni va mohiyati.....	574
16.3. Eksport operatsiyalarining tahlili.....	576
16.4. Import operatsiyalari tahlili.....	579
16.5. Eksport-import operatsiyalaridan olingan daromad va xarajatlar tahlili.....	580
Adabiyotlar ro‘yxati.....	585

A.V. Vahobov, N.F. Ishonqulov, A.T. Ibrohimov

MOLIYAVIY VA BOSHQARUV TAHLILI

Darslik

Muharrir: **N. Rustamova**
Badiiy muharrir: **M. Odilov**
Kompyuterda sahifalovchi: **U. Raxmatov**

Nashr. lits. AI № 174. Bosishga ruxsat 02.15.13 y.da berildi.
Bichimi 60x84 ¹/₁₆. Ofset qog‘ozi №2. «Times» garniturası.
Shartli b.t. 37,5. Nashr hisob t. 37,5. Adadi 500 dona.
3-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi
100084. Toshkent. Kichik halqa yo‘li, 7-uy

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO‘JIZASI»
bosmaxonasida chop etildi.
100003. Toshkent. Olmazor, 171-uy